

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**

GLOBAL TA‘LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

**mavzusidagi IV an‘anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani
materiallari**

Toshkent – 2020

Mazkur to‘plamdan tilshunos va adabiyotshunos olimlar, metodistlar, akademik litsey hamda umumta‘lim maktabi o‘qituvchilari, tadqiqotchilar, magistrant, talabalarning maqola va tezislari o‘rin olgan. To‘plamda global ta‘lim va milliy metodika, ona tili va o‘zbek (davlat tili) tilini o‘qitish, adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar hamda til va adabiyot ta‘limida innovatsion g‘oyalar kabi mavzular o‘z aksini topgan.

To‘plam ona tili, o‘zbek (davlat) tili va adabiyoti ta‘limi, uni o‘qitish metodikasi sohasidagi mutaxassislar, tadqiqotchilar, magistrant hamda talabalar uchun mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

Pedagogika fanlari doktori, professor R.Niyozmetova
Filologiya fanlari doktori, dotsent M.Xakimova

Mas‘ul muharrir

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.Abdullayeva

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

K.Mavlonova, S.Kambarova

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2020-yil may oyidagi 9-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

KIRISH

ZAMONAVIY FILOLOGIK TA'LIMNING YETAKCHI TAMOYILLARI

Har qanday millat va mamlakat pedagogikaning mahsulidir. Hech bir millatning aqliy, axloqiy, maishiy, iqtisodiy, madaniy darajasi o'z pedagogikasidan yuqori bo'la olmaydi. Shu bois egamanlikka erishilganidan keyin yurtimizda ta'lim tizimi mazmun va tashkiliy tarkib jihatidan tamomila yangilandi. To'g'ri, bu yangilanishlarning hammasi ham kutilgan samarani bergani yo'q. Lekin ta'lim-tarbiya tizimini sog'lom aqlga muvofiq tashkil qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar ko'ngilda umid uyg'otadi. Ular o'qitish jarayoni sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda, albatta. Lekin yillar davomida to'planib qolgan muammolar mavjudki, ular to'g'risida ochiq-oydin so'zlash va bartaraf etish yo'llarini topish payti keldi. Ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilar savodxonligini ko'tarish, ularning barkamol shaxslar sifatida shakllanishiga erishish uchun bir qator muhim ishlar qilinishi kerak.

Birinchi navbatda, umumiy majburiy o'rta ta'limdan maqsad nima ekani aniq belgilab berilishi zarur. Milliy umumiy o'rta ta'lim tizimi hozircha barcha o'quvchini oliy maktabga kirishga tayyorlash bilan band. Ota-onalar, mahalla-ko'y, o'qituvchilar, pedagogik ma'muriyat o'rta maktab har bir bolani universitet yoki institutga tayyorlashi kerak, deb hisoblaydi. Holbuki, dunyoning hech qayerida umumta'lim maktablarining barcha bitiruvchilari oliy o'quv yurtlariga kirib o'qimaydilar. Chunki o'rta maktab barcha yoshlarni qamrab oladigan umumta'lim dargohidir. Oliy maktab esa bular orasidan o'z talabiga javob beradiganlarinigina tanlab oladi.

2018-yilda o'rta ma'lumot olgan yoshlarning 9 % oliy maktabga kirdi (bu paytga qadar ko'rsatkich har yili 6-7 %ni tashkil qilardi). 9 % faqat bu yil bitirganlar emas, balki necha yillardan buyon oliy maktabga kira olmayotgan, yo harbiy xizmatdan bo'shagan yoki ishlab chiqarish stajiga ega bo'lib kelgan yoshlarni ham o'z ichiga oladi. To'g'ri, bu yildan boshlab, oliy o'quv yurtlariga qabul qilinadigan yoshlar soni keskin ko'payadi. Lekin baribir, juda katta miqdordagi yoshlar oliy maktabdan tashqarida qolaveradi. Va aslida shunday bo'lishi ham kerak.

Shu holni ko'ra-bila turib ham barcha o'quvchilar faqat universitet va institutlarda o'qishga chorlayveriladi. Vaziyat shu darajaga yetdiki, o'quvchilar orasida oliy maktabga eng yuqori darajada bilim olinadigan

dargoh emas, balki oliy ma'lumot borligi to'g'risida diplomga ega bo'linadigan maskan deb qarash tomir yoydi. O'qimasdan bo'lsa-da, diplom olishga intiladigan, hatto, buning uddasidan chiqadiganlar qatlami ham paydo bo'ldi. Va bundaylar soni tobora ko'payib bormoqda. Natijada oliy o'quv yurti beradigan bilim emas, balki u beradigan diplom muhimroq sanaladigan bo'ldi.

Holbuki, o'quvchilarga maktabga kelgan kundan e'tiboran dunyodagi barcha kasblar bir-biridan qolishmaydigan darajada muhim ekani, farroshlik, qassoblik yoki quruvchilik hunari o'qituvchilik, huquqshunoslik yoki diplomatlik kasbidan kam emasligi singdirilishi lozim. Lekin o'quvchilar bilishlari kerakki, farrosh, qassob, quruvchi bo'lish uchun ham maktabdagi barcha o'quv fanlarini o'zlashtirish zarur. Negaki, u yoki bu kasbni egallagan kishi faqat o'sha kasbning ichida qolib ketmaydi. U odam sifatida yolg'iz yashay olmaydi, kimgadir o'g'il yoki qiz, og'a yo ini, opa yo singil, kelin, kuyov, ota yoki ona, quda, qo'shni va boshq. bo'lishga mahkum. Binobarin, atrofdagilar bilan ular darajasida munosabatga kirishish uchun bugun maktabdagi barcha fanlarni yaxshi o'zlashtirishi darkor bo'ladi. Ta'lim majburiylikining ma'nosi ham shunda. Ya'ni jamiyat ahlining intellektual-ma'naviy saviyasi yuksalgan sari majburiy ta'lim muddati uzayib boraveradi. **Majburiy ta'lim muddatining qisqaligi jamiyat saviyasining pastligidan dalolatdir.**

Maktab ta'limiga bunday yondashuv chinakam kasbga yo'naltirishni yuzaga keltiradi. Shunday bo'lganda bolalar maktabda oliy o'quv yurtiga emas, hayotga tayyorlanadi. O'shanda o'quvchilarda u yoki bu fanning menga nima keragi bor, men kelajakda matematik, fizik yo tarixchi bo'lmayman-ku, tarzidagi tushunmovchiliklar yuzaga kelmaydi. Maktabda mutaxassis bo'lish uchun emas, jamiyat talabi darajasidagi odam bo'lish uchun o'qilishi anglab yetiladi.

O'rta ta'limning maqsadi o'quvchilarni oliy maktabga tayyorlash deb qaralmasa, o'qitish kechimiga alternativ dastur va darsliklar joriy qilinishi mumkin bo'ladi. Hozirgi holatda esa muqobil dastur va darslik tuzib ham, undan foydalanib ham bo'lmaydi. Chunki umumiy o'rta ta'lim maktabida o'qishdan asosiy maqsad bo'lmish oliy o'quv yurtiga kirish uchun test yechish kerak. Test yechishga tayyorlanish uchun esa, ta'limning mazmuni bir xil bo'lishi kerak. Testlashtiriladigan bir xil mazmun dastur va darsliklarning ham bir xil bo'lishini taqozo qiladi. Bu hol o'z-o'zidan ta'limning qamrovini toraytirib, muqobil ta'lim yo'lini to'sadi. Muqobil darsliklar olam hodisalarini har xil nazar bilan ko'rib, baholaydigan shaxslar shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'lim tizimining faoliyatiga baho berishda, uning samaradorligini o'lchashda faqat ko'z bilan ko'riladigan, hujjatlarda qayd etish oson bo'lgan ko'rsatkichlar hisobga olinayotgani ham o'qitish sifatining o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Chunonchi, hozirda qaysi ta'lim muassasasining bitiruvchilari oliy maktabga ko'proq kirgan bo'lsa, o'sha pedagogik jamoa yaxshi ishlagan hisoblanadi. Holbuki, oliy maktabga kirish – har bir o'quvchining shaxsiy yumushi. Maktab oliy o'quv yurtlariga talabgor tayyorlaydigan maskan sifatida emas, balki hayotda qiynalmay yashab ketishga qodir odam tayyorlaydigan dargoh deb qaralishi kerak. Demak, nuqtayi nazar, o'rta ta'lim tizimiga yondashuv rakursi butunlay o'zgartirilishi zarur.

Shuningdek, fan o'qituvchilarining bolalarga bo'lajak mutaxassislar sifatida yondashuvi ham butunlay o'zgartirilishi kerak. Hozirda har bir fan o'qituvchisi o'quvchilarga o'z fanini o'zlashtirishi shart bo'lgan obyektlar, bo'lajak fizik, matematik, filolog, tarixchi, huquqshunos deb qaraydi. Holbuki, o'quvchi – birinchi navbatda, betakror shaxs. Ta'lim tizimidagi o'qitiladigan har bir fan o'quvchilarda mutaxassislik ko'nikmalarini emas, balki unda shaxslik sifatlarining muayyan qirralarini shakllantirishga yo'naltirgan bo'lishi kerak. O'quvchi muayyan miqdordagi fan haqiqatlarini o'zlashtirib oladigan obyekt emas, odam-u olamda ro'y beradigan har qanday voqea-hodisa va holatga o'z nuqtayi nazari bilan sog'lom munosabatda bo'la oladigan shaxs sifatida shakllantirilishi kerak.

Ayniqsa, musiqa, rasm, jismoniy madaniyat, adabiyot singari fanlarda o'sha sohalarning bo'lajak mutaxassislarini emas, balki bu tezkor va shiddatli zamonda odamga munosib yashash ko'nikmasiga ega, musiqani tinglay oladigan, tasviriy san'at asarini ko'ra biladigan, badiiy asarni o'qib, tushunib, zavqlanadigan, salomatligi uchun foydali ekanini bilganidan jismoniy mashqlarni ixtiyoriy bajaradigan madaniyatli kishi tayyorlashga yo'naltirilishi zarur. Hozirgiday o'quvchilarni choynakning rasmini chizish yoki "Paxta" qo'shig'ini aytishga o'rgatishga urinish bilan ularning estetik rivojida zarracha ijobiy natijaga erishib bo'lmaydi. Umumta'lim maktabi shoir-yozuvchi, rassom yoki qo'shiqchi tayyorlashga emas, balki asl badiiy adabiyotni, tasviriy san'atni, musiqani tushunadigan nozik hissiyotli, yuksak intellektli o'quvchilar shakllantirishga yo'naltirilgan maskandir.

Bunday o'ylab qaralsa, keyingi o'ttiz yil mobaynida milliy ta'lim tizimi bir necha sidra yangilandi. Pedagogik innovatsiyalar tinimsiz joriy etilmoqda. Lekin shu vaqt orasida birorta o'qituvchining ilg'or tajribasi ommalashtirilgani kuzatilmadi. Nahotki, mamlakatda birorta ham

iste'dodli, ijodkor, tashabbuskor o'qituvchi qolmagan bo'lsa? Ta'lim tizimiga kiritilayotgan shuncha yangiliklar keragiday samara beryaptimi? Pedagogik innovatsiya ta'limning mohiyatiga o'zgarish kiritishi kerakmi yoki tashqi ko'rinishiga?

Milliy ta'limda pedagogik innovatsiya ko'proq ko'rinishda, shaklda namoyon bo'lmoqda. Holbuki, pedagogika fani va amaliyoti ko'rsatadiki, innovatsiya degan tushunchaning hech o'zgarimas oltin qoidasiga ko'ra yangilik hamisha pastdan, ya'ni o'qitish amaliyotdan boshqarish bosqichiga chiqqandagina samara beradi. Bizda yaqin o'ttiz yildirki, barcha didaktik yangiliklar yuqoridan – boshqaruv organlaridan pastga tushirilyapti. Ya'ni bevosita maktabda ishlayotganlar maktab faoliyatini samarali qilish yo'llarini maktabda ishlayotganlarga o'rgatishmoqda. Achinarlisi shundaki, bu xil o'rgatishlar taklif, tavsiya yo'sinida emas, balki bajarilishi shart bo'lgan qat'iy talab ko'rinishini olmoqda. Ko'p ming yillik ta'lim amaliyoti ko'rsatadiki, birorta pedagogik tadbir, usul, yangilik hamma joyda yoppasiga birday samara berishi mumkin emas. Chunki ta'limning obyekti turlicha minaz (tabiat)ga ega tirik odamlardir. Negadir bizdagi pedagogik chinovniklar o'zlari kerakli yangilik deb hisoblagan tutumlarni barcha maktablardagi barcha o'quv fanlarini o'qitishga birdaniga va bir xilda tatbiq etilishini istaydilar. Ta'limdagi innovatsiyalar chetniki bo'lgani uchun emas, balki samarali bo'lgani uchun o'qitish amaliyotida qo'llanishi kerak. Hozirda innovatsion yondashuvlarning samara berishidan ko'ra qo'llanish faktining o'zi muhimday bo'lib turibdi.

Ta'lim tizimini tashkil etishda mohiyatdan ko'ra ko'rinishga, mazmunga qaraganda shaklga ko'proq diqqat qaratilmoqda. Ta'lim kechimidagi barcha bosqichlarni imkon qadar yuqoridan turib boshqarishga ruju qo'yildi. Boshqarish oson bo'lishi uchun esa bir xillik lozim bo'ladi. O'qitishday jonli kechimni bir xillashtirish amalda uni samarasiz qilish demakdir. Pedagoglarda professional erk qolmadi. Uning qayerda nimani, qanday bajarishi kerakligi qat'iy belgilab qo'yilgan va undan salgina bo'lsa-da, tashqari chiqishga yo'l qo'yilmaydi. O'qituvchida faqat cheklovlarni aylanib o'tish, cheklovchilarni chalg'itishga urinish erkigina qoldi. Ma'lumki, erki yo'q odamda shavq, ijodkorlik, bugun rasm bo'lganiday aytilsa, kreativlik bo'lmaydi. U o'z mehnati va emgak obyektiga qul singari munosabatda bo'ladi. Qul o'z ishiga ijodiy yondashishni emas, balki undan tezroq qutulishni o'ylaydi. Chegarasiz cheklovlar pedagoglardagi ijodkorlig-u izlanishning yo'qolib ketishiga sabab bo'ladi.

Chinakam egamanlik egaman shaxslar bo'lganda, ular tomonidan amalga oshiriladi. Bunday butun shaxslar esa, eng kamida ish vaqtida, o'z ish faoliyati miqyosida chin ma'noda xo'jayin bo'la biladigan mutaxassislar tomonidan shakllantiriladi.

Egamanlik davri ta'lim tizimi amaliyotida keng yoyilgan yana bir salbiy holat – dars mashg'ulotlariga nopisand munosabat qaror topganidir. Saboq aslida o'qitish tizimidagi eng muqaddas, xuddi namoz kabi buzib bo'lmaydigan tadbiridir. Unga shunday ehtiromli munosabatni qayta tiklash zarur. Hozirgi kunda na o'rta, na oliy ta'lim va na malaka oshirish tizimida dars o'z mavqeyiga yarasha rutbaga ega. U har qanday katta-kichik erinmagan odam, istagan vaqtda buzib kiraveradigan, istagan odamni kiritib yoki chiqarib yuborishi, xohlagancha to'xtatilishi mumkin bo'lgan jarayon sanaladi. Holbuki, ta'lim tizimi atrofidagi barcha urinish-u izlanishlar saboqlar samaradorligini oshirish uchun qilinadi. Ana shunday qimmatli va zarur jarayonga nopisand munosabat shakllangan. Ta'lim jarayoni ko'pincha tadbir va tadbirbozlikka, saboq mashg'ulotlari esa xo'jako'rsinga qilinadigan taqdimotga aylantirilgani o'qitish kechimidagi barcha urinishlarni samarasiz qiladi.

Egamanlik davri milliy ta'lim tizimini tubdan yangilash uchun har qanday o'quv fani bo'yicha dastur va darsliklar yaratishda faqat fan mantig'idan kelib chiqib ish ko'rishga barham berish kerak. Ta'lim jarayonini yo'lga qo'yishda pedagogik mantiqqa ustuvorlik berilishi kerak. Deylik, o'quvchi matematikani azbaroyi matematika bo'lgani yoki kelajakda matematikaga aloqador mutaxassis bo'lish uchun emas, balki u haqdagi muayyan bilimlarsiz to'la ma'nodagi shaxs bo'lish mumkin emasligi uchun o'rganishi kerak. Har qanday fanni o'qitishda ham xuddi shunday yondashuv lozim. Maktab adabiyoti uchun adib yoki asarning mavqeyi yoki mashhurligi emas, balki o'quvchi ma'naviyatida shakllantirilishi lozim bo'lgan ezgu axloqiy sifatni yuzaga keltirishga xizmat qilish darajasi muhim bo'lishi kerak.

Egamanlik ta'limi samaradorligini oshirishda o'qitishga doir zamon talablari darajasidagi ashyolarni tayyorlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Dastur va darslik yaratishda anchadan buyon qaror topgan avral rejimdan butunlay voz kechish, bu xil yumushlarning muntazam, izchil, rejali va shoshiltirilmay bajarilishini yo'lga qo'yishga erishish kerak.

Ta'lim tizimi muntazam va uzluksiz ishlab turishi uchun uning faoliyatini tekshirib turish zarur. Lekin tekshirish amaliyotchi pedagoglarga yordam berish, yo'l ko'rsatish niyatida amalga oshirilishi kerak. Hozirda tekshirish ko'proq ayb topish, ishlarning faqat tekshiruvchi

istaganiday bo'lishiga erishishga qaratilganday taassurot qoldiradi. Bizningcha, ta'lim sifatini yaxshilash uchun tekshiruvchilar sonini, ayniqsa, tekshirishga doir qog'ozlar miqdorini keskin kamaytirish kerak. Buning uchun, birinchi navbatda, boshqaruv apparatidagi chinovniklar soni qisqartirilishi zarur. Paradoks shundaki, apparat qancha katta bo'lsa, amaliy ish shuncha kam bo'ladi. Chunki apparatchi ta'lim kechimining o'zi bilan emas, u haqdagi ma'lumot qayd etilgan qog'oz bilan ish ko'rishga mahkum.

O'qitish sifatini tekshirish chin ma'nodagi tekshirish bo'lishi, tekshiruvchi uchib-qo'nib, odam sanash, majburiy qog'ozlarni ko'rish bilan emas, balki ta'limning chinakam sifati bilan qiziqishi, sinf va undan tashqaridagi mashg'ulotlarni boshdan oxirigacha sabr bilan ko'rib, xulosa chiqarishi kerak. Buning uchun o'tirib dars kuzatish, kuzatilgan saboqlarni o'qituvchilar bilan birgalikda tahlil qilish lozim. Hozircha tekshiruvchilar uchun so'raganda ko'rsatiladigan qog'ozlar muhim bo'lib qolyapti. O'qituvchining qanchalik sifatli saboq o'tgani emas, qanchalik sifatli qog'oz tayyorlagani hal qiluvchi ko'rsatkich sanalmoqda. Keyingi chorak asr davomida chinakam saboq berishdan juda uzoqlashtirib yuborilgan o'qituvchilar o'quvchilar qoshiga, bevosita dars jarayoniga chinakamiga qaytarilishi kerak.

Egamanlik ta'limi o'quvchilarning rutbasini ham bir qadar o'zgartirdi. Ya'ni ularga o'qitish kechimining o'qitiladigan obyektigina emas, balki shu jarayonni amalga oshirishda bevosita qatnashadigan subyektlar tarzida qarala boshlandi. Bu hol o'quvchilarimizda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, izlanuvchanlik singari sifatlar shakllanishiga xizmat qiladi.

O'z ko'zqarashiga ega shaxslar shakllantirishga qaratilgan egamanlik ta'limi mavjud kamchiliklardan qutulib, o'qitish kechimini o'quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlariga moslab tashkil eta bilsa va bu jarayonni muvaffaqiyatli uyushtirishga optimal darajada xizmat qiladigan didaktik ashyolar tayyorlay olsa, shubhasiz, o'z oldida turgan ulug'vor vazifalarni bajara oladi.

Qozoqboy Yo'ldosh, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU professori, ped.f.d.

GLOBAL TA'LIM VA MILLIY METODIKA

“DEVONU LUG‘ATIT-TURK” ASARINING XALQARO MIQYOSDA O‘RGANILISHI

Iqbol Mirzo,
O‘zbekiston xalq shoiri

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” (“Turkiy so‘zlar devoni”) asari turkiy xalqlarninggina emas, balki jahon ma‘naviy xazinasining oltin kitobi hisoblanadi. Bitig 1072-yilning 25-yanvaridan 1074-yilning 10-fevraliga qadar mashaqqatli mehnat evaziga yaratildi. Bu bebaho asarga manba yig‘ish uchun Koshg‘ariy Yuqori Chindan boshlab butun Movarounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxoro, hozirgi Shimoliy Afg‘onistonga qadar cho‘zilgan turkiy o‘lkalarni, shaharlar, qishloq va yaylovlarni kezib chiqdi, shu asnoda turli sheva va lahja xususiyatlarini o‘rgandi, ularni adabiy til bilan chog‘ishtirdi, o‘z ishi uchun nihoyatda boy badiiy-ilmiy ashyo to‘pladi.

Muallif o‘z asari haqida shunday degan: “Kitob 464-yilda (hijriy) jumadul avval boshlarida boshlandi va to‘rt karra yozilgandan (ko‘chirilgandan) va tuzatilgandan so‘ng 466-yil jumadul oxirning 12-kuni bitirildi... Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so‘zlar, saj‘lar, maqollar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim... Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo‘llanib kelgan she‘rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo‘llaniladigan hikmatli so‘zlaridan, maqollaridan keltirdim”. Shuni alohida ta‘kidlashni istardimki, Koshg‘ariy turklar deganda turkiy tilda so‘zlashuvchi elat va urug‘larni, o‘g‘uz deganda esa o‘g‘uz lahjasida so‘zlovchilarni nazarda tutadi. Xuddi shunday qarashni buyuk daholarimiz Navoiy va Boburda ham uchratamiz. Xususan, nuktadon bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida Andijon to‘g‘risida so‘z yuritib: “...eli turkdur, shahar va bozorisida turkiy bilmas kishi yo‘qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur... Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudkim Hirida nash‘u namo topiptur, bu til biladur”, degan edi.

Bugun ma‘naviy hayotimizni bezab turgan “qo‘shiq”, “she‘r”, “qasida”, “afsona”, “maqol” kabi atamalar ilk bor “Devonu lug‘ati-turk”da qo‘llangan va uyg‘ur yozuvi haqida ham ilk ma‘lumotlar keltirilgan. Asarda mehnat va marosim qo‘shiqlari, lirik qo‘shiqlar va

o'gitnomalar, "Qish va yoz" munozarasi, "Alp Er To'nga" (Afrosiyob) marsiyasi, savlar (afsonalar), maqollar, "Oltin qon" afsonasi (unda qadimgi turkiy ajdodlarimizning Iskandar Zulqarnaynga qarshi mardliklari hikoya qilinadi), "Tangutlar bilan jang", "Yaboqular bilan jang" kabi parchalar keltirilgan.

Lirik qo'shiqlarda insonning qalb kechinmalari, nozik his-tuyg'ulari ifodasi, tabiat va ona yurt manzaralari tasviri yetakchilik qiladi. Kishilarni qurshagan olam haqidagi qo'shiqlarda turkiy xalqlarning doimiy yo'ldoshi – otlar ham alohida mavqe tutadi. Asardagi ko'pgina qo'shiqlar ovchilik, chorvachilik bilan – turkiy xalqlarning yashash tarzi bilan chambarchas bog'liq holda yuzaga kelgan. Mahmud Koshg'ariy "qo'shuq" atamasiga "she'r, qasida" deb izoh bergan. "Devon"ga kirgan adabiy parchalarning asosiy qismini to'rtliklar tashkil qiladi. Bitigda keltirilgan maqollarni o'z falsafasi, ohangi va xulosasi bilan kichik tugal she'rlar deb atash mumkin.

O'zbekistonda "Devon"ning birinchi tadqiqotchisi va qisman noshiri professor Fitratdir. Keyinchalik bu asarni O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, filologiya fanlari doktori, taniqli tilshunos, millatsevar olim Solih Mutallibov 1960–1963-yillari hozirgi o'zbek tiliga o'giran.

Tan olmoq kerak, mazkur tarjima ikki-uch avlod olimlariga ilmiy manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Hozir ham ushbu nashrning mavqei yuqori. Biroq kitob o'sha chiqqanicha uzoq yillar ma'lum mafkura tufayli qayta bosilmadi. Nihoyat, 2016-yili zahmatkash noshirlarimiz professorlar Qosimjon Sodiqov va Hamidulla Boltaboevlar sa'y-harakati bilan ikki bor chop etilib, afkor xalqimiz bu bebaho asardan bahramand bo'ldi. Ushbu nashrning e'tirofli jihatlari quyidagicha:

1. Uchala jild birlashtirilgan.
2. Mutaxassislar uchun ham, o'quvchi uchun ham foydalanishga qulay.
3. Yangi nashr asarning qo'lyozma nusxasi asosida qayta ko'rib chiqilgan, avvalgi nashrlarda yo'l qo'yilgan kamchiliklar tuzatilgan.

Endi "Devon"ning ma'naviy hayotimizga qaytishiga, ya'ni topilishiga sabab bo'lgan baxtli tasodif to'g'risida to'xtalib o'tmoqchimiz. Manbaga ko'ra, bir kuni Diyorbakirda yashovchi Ali Amiriy ismli tolei yorug' turk birodarimiz eski kitoblar sotiladigan sahhoflar bozoriga borib, o'ziga ma'qul hech vaqo topmaganidan so'ng do'kondor Burhonbeydan "Biror yangi narsa bormi?" deb so'raydi. Sotuvchi bir kitob bor-u, biroq qimmat ekanini, hatto maorif vazirligining ham qo'li kaltalik qilganini aytib, bitigni unga ko'rsatadi. Ali Amiriy kitobni qo'lga olishi bilan bu asar yagona qadimiy nusxa ekanini, asarning jahonshumul ahamiyatini darhol

tushunib yetadi. Hayajonini Burhonbeyga sezdirmasdan u bilan savdolashib, kitobni 33 liraga sotib oladi. Ali Amiriy shundan keyingi taassurotini maslakdoshlariga bunday hikoya qilgan edi: “Kitobni olib uyga keldim. Yeb-ichishni ham unutib, bir necha soat uning mutolaasi bilan mashg‘ul bo‘ldim. Do‘stlar, sizga bildiriyapman. Bu kitob emas, Turkiston o‘lkasidir! Turkiston emas, jumlayi jahondur! Turk tili bu kitob soyasida chinakam ravnaq topadi! Arab tili uchun Sebavayhiyning kitobi qanchalik muhim bo‘lsa, bu ham turk tili uchun shunchalik ahamiyatlidir. Hozirga qadar turk tilida buning kabi kitob yozilgani yo‘q. Bu kitobning haqiqiy bahosi aniqlanmoqchi bo‘lsa, jahonning xazinalari bunga teng kelolmas. Bu kitob bilan hazrati Yusuf orasida bir o‘xshashlik bor. Yusufning akalari uni arzimas aqchaga sotdilar. Biroq uni Misrda o‘zining vaznicha keladigan javohirga pulladilar. Burhonbey bu kitobni menga 33 liraga sotdi. Men esa buni behisob olmoslarga, zumradlarga bermayman”.

“Devon”ning topilishi katta shov-shuvlarga sabab bo‘ldi. Hatto uni Mojariston Fanlar akademiyasi o‘n ming oltin pulga sotib olishni taklif etdi. Fransuzlar “Devon”ni qo‘lga kiritish uchun quyuq va’dalar berib ko‘rdi. Biroq millat manfaatini har qanday moddiy boylikdan ustun qo‘yadigan Ali Amiriy barcha takliflarni rad etdi. Shu tariqa “Devon” 1915–1917-yillari Istanbulda chop etildi. Keyinchalik ingliz, nemis, rus, turk, ozarboyjon, uyg‘ur va o‘zbek tillariga tarjima qilindi. Turkiyshunoslikda asar haqida ko‘plab tadqiqotlar yaratildi. Bu asarni ilmiy o‘rganish va ommalashtirishda o‘zbek olimlarining ham xizmati beqiyosdir.

Buyuk olim dunyoga mutafakkir nigohi bilan boqib, zukkolik bilan tuzilgan dunyo xaritasi (dunyoning doira shaklidagi tasviri)ni “Devon”ga ilova qilgan.

Xaritada mamlakat, shahar, qishloq, tog‘, cho‘l, dovon, dengiz, ko‘l, daryo nomlari yozilgan. Yozilmay qolgan bir qancha nomlar asar matnida izohlangan. Xarita, asosan, hozirgi Sharqiy yarim sharga to‘g‘ri keladi. Asarda XI asrdagi shaharlar, qishloqlar, dengiz, ko‘llar, turkiy qabilalar va urug‘lar haqida, urug‘larning ijtimoiy ahvoli, kelib chiqishi, nomlanishi, ichki urug‘ va toifalari, ularning joylanishi, urf-odatlarini, til xususiyatlari haqida batafsil ma’lumotlar beriladi. Bundan tashqari, hayvonot va o‘simliklari, ularning nomlanishiga to‘xtab o‘tiladi, astronomik ma’lumotlar, burj va muchal haqida ham bayon bor. “Devon”da, ayniqsa, qabila va urug‘ tillariga oid lingvistik ma’lumotlar ancha batafsil berilgan. Bunda so‘zlarning ma’nolari (ko‘p ma’noli, shakldosh, ma’nodosh, zid ma’noli va arxaik so‘zlar) chuqur tahlil qilinadi, ayrim so‘zlarning

etimologiyasiga to'xtalib o'tiladi. Tovushlar (fonemalar)ning tahlili ancha mukammal: unli va undosh fonemalar, cho'ziq va qisqa unlilar, ularning urug' tillaridagi talaffuzi va orfografiyasi, tildagi fonetik hodisa va qonuniyatlar batafsil izohlangan. Morfologiya sohasida so'z turkumlarini, davr an'anasiga ko'ra, 3 so'z turkumiga: fe'l, ism, bog'lovchiga bo'lib, ularning yasaliş va turlanish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. "Devon"da 250 dan ortiq maqol va matallar, o'nlab she'riy parchalar keltirilgan.

Akademik V.V.Bartold "Devonu lug'ati-t-turk"dan o'z ilmiy ishlarida keng foydalangan. Tilshunos olim V.I.Belyayev "Devonu lug'ati-t-turk" haqida shunday yozadi: "Biz bu asarga nihoyatda yuksak baho berishimiz kerak, chunki u kitoblardan olib yozilmagan, balki jonli materialni shaxsan kuzatishga asoslangan... Muallif bergan ma'lumotlar... arxeologik kashfiyotlar bu ma'lumotlarning aksariyatini isbot etmoqda".

Nemis sharqshunosi K. Brokkelman asarni 1928-yilda nemis tiliga tarjima qildi. "Devon" qo'lyozmasining fotonusxasi Istanbulda Kilisli Rifat (3 jildli; 1915–17), keyinchalik Besim Atalay tomonidan (3 jildli; 1939–41) turk tiliga tarjima qilinib, chop etilgan. Turk tilidagi keyingi qayta nashri 1957-yil amalga oshirildi.

"Devonu lug'ati-t-turk" ikkinchi bo'lib o'zbek tiliga, aytib o'tilganidek, Mutallibov domla tomonidan tarjima qilingan. Ushbu nashr faqat tarjima bo'lmay, turkcha tarjimaga munosabat, baho, atamalar, shaxs nomlari, shahar va joy nomlariga izoh, va tafsir hamdir. O'zbekcha nashrining muqaddima qismida XI asr filologlari, "Qutadg'u bilig" asari, Mahmud Koshg'ariyning lingvistik qarashlari, turkiy qabilalar, ularning shakllanishi, bu urug' va qabilalar, tillarning hozirgi turkiy xalqlar va ularning tiliga munosabati, tarjima transkripsiyasi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. "Devonu lug'atit-turk" o'zbekcha nashrining oxirida turkiy urug', qabila, shaharlar va boshqalar to'g'risida batafsil ma'lumotlar bor, asarning har bir jildida havolalar berilib, unda uchragan so'z va iboralar keng ta'riflanadi, izohlanadi. O'zbekcha nashrining muhim tomonlaridan biri, ushbu jildlar asosida asarning indeks-lug'ati ham bosib chiqarildi. Unda "Devon"da uchragan so'zlar alifbo tarzida keltirilib, so'zning o'zbek va rus tilida tarjimasi berilgan. Mazkur so'z "Devon"ning qaysi betlarida uchrashi (oldin o'zbekcha, so'ng turkcha nashrlarining beti, satri) ko'rsatib o'tiladi.

Shuni aytib o'tish kerakki, "Devon"ga allomalar Alixonto'ra Sog'unliy, Alibek Rustamiy, ulug' shoirimiz Erkin Vohidov, akademik Ne'matilla Ibrohimovlar chuqur ehtirom ila yondashib, bu tengsiz asar bilan millat yoshlarini yaqinroq oshno etishni ta'kidlaganlar. Keyingi

paytlarda bir qator taniqli olimlarimiz, jumladan, akademik G‘ani Abdurahmonov, professorlar Qosimjon Sodiqov, Hamidulla Boltaboyev, dotsentlar Baxtiyor Isabekov, Qayum Karimov, Salima Rustamiy (Alibek Rustamiyning qizi), tadqiqotchi olimlar Jo‘ra Xudoyberdiyev, Nodirbek Abdulahadov, Isroiljon Toshpo‘latov, Umidaxon Nosirova, Umidaxon Jo‘raboyeva kabilar ushbu nodir asarning tadqiqoti va targ‘ibotiga alohida hissa qo‘shib kelmoqdalar.

Biz “Devonu lug‘atit-turk”ni insoniyatning oltin kitobi deb atadik. Bu oydin haqiqat. Bitigda keltirilgan maqolda aytilganidek, ***A:y tolun bolsa, eligin imlāmäs.*** Ya’ni: “To‘lin oy qo‘l bilan ko‘rsatilmaydi. Chunki u har kimga aniq ko‘rina beradi”. Biz bu noyob asarni bolalarimizga kengroq o‘qitib o‘rgatishimiz, sharh va izohlarini yaratishimiz kerak. Aynan shu asarga bag‘ishlangan xalqaro anjumanlar, konferensiyalar o‘tkazishni muntazam yo‘lga qo‘ysak, maqsadga muvofiq bo‘lardi. “Devonu lug‘atit-turk” har bir o‘zbekning uyiga kirib borishi, har bir o‘quvchining qulovuz kitobiga aylanishi kerak.

“Devonu lug‘atit-turk”ni o‘qiylik, o‘qitaylik, o‘rganaylik, o‘rgataylik! Toki bundan ming yillar narida ham yuksak taraqqiy etgan saltanatimiz, ulug‘ millatimiz yashaganini farzandlarimiz ham idrok etib, shunga munosib bo‘lishga bel bog‘lasinlar.

INNOVATSION FAOLIYAT: TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSION JARAYONNI RIVOJLANTIRISH

L.R.Raupova,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti o‘zbek tili va
adabiyotini o‘qitish fakulteti
dekani, f.f.d., professor

Annotatsiya: *Maqolada innovatsioi faoliyat, uning asosiy xussuiyatlari, ilmiy manbaalardagi talqini, pedagogning innovatsion faoliyatiga aloqador asosiy tamoyillari haqida to‘xtalib o‘tiladi. Innovatsion faoliyatni tashkil etishda talabalarning bilish faoliyati va uni boshqarishga tegishli masalalar, ularning ahamiyati, boshqarish tamoyillari xususidagi tahlillar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *innovatsiya, novatsiya, pedagog-menejerlar, ijodiy motivatsiya, o‘qitish texnologiyasi, stereotiplikni anglash;*

O'tgan asrda keng ko'lamlarda rivoj topgan ilmiy-texnik inqilob barcha soha vakillarining diqqat-e'tiborini ijtimoiy-iqtisodiy jarayonda ro'y berayotgan turli xil global o'zgarishlarga tortdi. Shunday o'zgarishlardan birini ilmiy tilda «innovatsiya» tushunchasi bilan atay boshlashdi. Dastavval mazkur tushuncha ma'no jihatidan alohida olib qaraladigan madaniyat unsurlarining boshqa bir madaniy tizimga singib borishini anglatgan. "Innovatsiya" atamasi iqtisodchi olimlar tahlillarida mustaqil va bir qator o'xshash yondosh tushunchalar vositasi sifatida yoritilgan: "innovatsion faoliyat", "innovatsion jarayon", "innovatsion qaror" va boshqa ta'riflardan foydalanilgan. Lug'aviy jihatdan esa "innovatsiya" tushunchasi yangilik kiritish degan ma'noni anglatadi.¹ Ayrim hollarda "innovatsiya" va "novatsiya" tushunchalarini bir-biri bilan aralashtirib yuborishadi. Odatda, "innovatsiya" muayyan tizimni ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat bo'lsa, "novatsiya" qisqa muddatli yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qiladi. "Innovatsiya" tushunchasi keng qamrovli bo'lib, u ishlab chiqarish jarayoniga mukammal yangi, ilgari bo'lmagan texnologiyalarni joriy etishni nazarda tutadi. Hozirgi zamonda "innovatsiya" tushunchasi biror bir turdagi faoliyatni tarkibiy jihatdan yangilashni, tubdan o'zgartirishni jarayonini ham ifoda etadi. "Innovatsiyalar" atamasiga Avstriyalik olim Y.Shumpeter o'zining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" (1911-y.) nomli asarida ilk bor tavsif bergan. Keyinchalik bir qator olimlar tomonidan innovatsiyaga turlicha ta'riflar berilgan. Xususan, T.Brayan "innovatsiya- intellektual mahsulot-ixtiro, axborot nou-xau, yoki g'oya iqtisodiy mazmuniga ega bo'ladigan jarayon" deb ta'rif bergan. V.Medinskiy tomonidan "innovatsiya — o'tkazilgan ilmiy tadqiqot, amalga oshirilgan kashfiyot natijasida ishlab chiqarishga joriy qilingan, oldingilaridan tamomila farq qiladigan obyekt" deya ta'rif berilgan. Hozirgi zamonda "innovatsiya" tushunchasi biror bir turdagi faoliyatni tarkibiy jihatidan yangilanishini, tubdan o'zgartirilishini ifoda qilish mumkin. Biron bir yangilikdan innovatsiyalar quyidagi jihatlari bilan farqlanadi bular innovatsiyalar shunchaki yangilik bo'lmasdan mavjud tizimni tubdan isloh qilish uchun baza yaratib berishi, innovatsiyalar amaliy jihatdan foydali bo'lish xususiyatiga ega bo'ladi va innovatsiyalar tijoratchilik nuqtai nazaridan salohiyat jihatdan foyda keltiradi.

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2014. 25 b.

Pedagogik yangilik esa o‘z mohiyatiga ko‘ra ommaviy tajribalar mulki bo‘lib qolishi lozim. Natijada o‘qituvchining innovatsion faoliyati o‘z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahlil qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi, unda innovatsion faoliyatining samarasi pedagog shaxsiyati bilan belgilab beradi. Pedagogning innovatsion faoliyatiga bo‘lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari, shaxsning ijodiy motivatsiyani qo‘llaganligi, va qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlar, peshqadamlikka va o‘z kamolotiga intilish, xayoliy qarash, baho bera olish qobiliyati, ijodiy faoliyat metodologiyasi va pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati, mualliflik konsepsiyasi va ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyatlari, ijodiy faoliyatiga hamkorlik va o‘zaro yordam berish qobiliyati, o‘qituvchining individual qobiliyati ijodiy faoliyat sur‘ati va ish qobiliyati, qat’iyatlik, mas’uliyatlilik, halollik, o‘zini tuta bilishlar bilan ajrab turadi. Innovatsion faoliyat o‘qituvchining innovatsion faoliyatiga sezgirligi me‘yorlarini belgilashga imkon beradi, shu bilan birga innovatsion faoliyatga bo‘lgan zaruratni aniqlaydi, ijodiy faoliyatga jalb qilishga tayyorlaydi, shaxsiy maqsadlarni innovatsion faoliyat bilan moslashtiradi, ijodiy muvaffaqiyatsizliklarni yengishga tayyoraydi, innovatsion faoliyatni kasbiy mustaqillikka ta’sirini o‘rgatadi. Innovatsion faoliyatni eng muhim masalalardan biri o‘qituvchi shaxsi, u novator, sermahsul ijodiy shaxs, keng qamrovli qiziqish, ichki dunyosi boy, pedagogik yangilikka o‘ch bo‘lishi lozim. O‘qituvchini bu faoliyatga tayyorlash ikki yo‘nalishda amalga oshiradi: yangilikni idrok qilishga innovatsion tayyorgarlikni shakllantirish va yangicha harakat qilishga o‘rgatish. Innovatsion faoliyatni tashkil etishda talabalarning bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega. Innovatsiya jarayonlari, funksiyalari, mexanizmlari va uni amalga oshirish texnologiyalari va boshqarish tamoyillarining pedagogik asoslarini o‘rganish o‘quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari asosida tashkil etish imkonini beradi. O‘quv-tarbiyaviy jarayonni muvaffaqiyatli optimallashtiruvchi o‘qituvchilar shaxsiy sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘ladilar, ya’ni ilmiy yaratuvchanlikdagi fikrlash qobiliyatiga, fikrlashning ko‘p qirraligiga, fikrlashning aniqligiga, tizimli fikrlashga, harakatlar va xulosalar qilishda aniqlikni sezishga, muloqotda ta’sirchanlik va taktni sezuvchanlik xarakterlariga ega bo‘ladilar. Bu sharoitda innovatsion jarayondagi optimallashtirish yo‘lga qo‘yiladi, bunda pedagogik tizimni to‘la qayta qurish, pedagogik tizimning “sayoz

joylarini” bilish, xohish, ilg‘orlik, o‘qituvchilar va ota-onalar va rahbariyat ish faolligini bilish imkonini beradi. Professor-o‘qituvchilar ta‘lim tizimida innovatsion faoliyatining mohiyati shundaki, yangi avlodga ta‘lim berish va tarbiyalashga nisbatan yangi yondoshuvlarni ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash tushuniladi. Innovatsiyalarni joriy etish bir qator nazariy va amaliy tavsifga, shuningdek, ma‘lum tavakkalchilikka ega bo‘lgan murakkab jarayon ekanligini ta‘kidlashimiz mumkin. Shu bilan birga, bu holat kishilarni ta‘lim tizimini yaxshilash yo‘lidan to‘xtatmasligi lozim, aks holda u ancha vaqtgacha eskirgan ta‘lim usullaridan foydalanish xavfini yuzaga keltiradi, hamda yoshlarni nafaqat oliy ta‘lim muassasalarida o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini, balki, ularning ma‘naviy, psixologik, etik, ijtimoiy va madaniy rivojlanish darajasining pasayishiga olib keladi. Ta‘lim tizimini rivojlanishi va innovatsion yo‘naltirilganligi, texnologik yangilanishning o‘sib borayotgan zaruriyatini innovatsion faoliyatda tashkil qilish tamoyillari va tarkibiy-tashkiliy o‘zaro aloqalarga aniq va mos kelishning mumkinligini ta‘kidlaydi. Innovatsion jarayonning rivojlanishi qonuniyatlarini tahlil qilish uchun innovatsion pedagog-menejerlar bo‘lgan mutaxassislar zarur, ular yangilik kiritishlarning har xil tashkiliy-iqtisodiy jihatlari bilan shug‘ullanadilar. Ularning innovatsiyalarni boshqarishdagi asosiy vazifasi innovatsion jarayonni ilgari surish, ehtimoli bo‘lgan to‘siqlarni bashorat qilish va ularni bartaraf qilish yo‘llarini belgilashdan iborat. Pedagogik mavjud metodologiyasi tajribasi va aslida o‘quv amaliyotini mavjud innovatsion yo‘nalishlari yordamida amalga oshirilishi lozim. Innovatsion ta‘lim jarayonlari kashf bo‘lgan nazariy va amaliy faoliyatining yetakchi rolini qo‘llab-quvvatlash, pedagogik ilm-fan va amaliyotning rivojlanishi, integratsiyasi uchun asos hisoblanadi. Shu bilan bir vaqtda, ijodkorlik, yangi pedagogik bilim tamoyillari, ta‘lim yangiliklari va ijodiy shaxsini shakllantirilishi yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuni takidlab o‘tish lozimki, o‘qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorligining ijtimoiy va kasbiy muhim sifatlari, nafaqat ta‘lim muassasasidagi iqtisodiy va moliyaviy vaziyatga, balki, bevosita bu sifatlarning talab etilganligi bilan bog‘liqdir. Kasbiy jihatdan muvaffaqiyatli o‘qituvchilarning malakalari va kasbiy sifatlari zamonaviy oliy ta‘limning asosiy real talablaridandir. Innovatsiyalarning taqdiri sub‘ekt sifatidagi pedagog va uning faoliyatiga bog‘liq, chunki o‘qituvchining shaxsi va uning dunyoqarashi ta‘limning bevosita mazmunini belgilab beradi. Innovatsion faoliyat yuritishda o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligini o‘sish shartlarini oshirishdagi omillar quydagilar deb bilamiz:

— o‘qituvchi tomonidan o‘qitish texnologiyasining psixologik-pedagogik asoslarini anglash;

— texnologik tipda o‘quv jarayoni tizimini tashkil etuvchi tarkibiy unsurlarini anglay olish;

— o‘z faoliyatidagi samarasiz ish usullarini anglash, tahlil qilish va yo‘qotish;

— o‘qitish sifatini tahlil qilish, auditoriyada eski, qoloq ish usullarini aniqlash va ularni yo‘qotish;

— kasbiy faoliyatdagi stereotiplikni anglash va yo‘qotish.

Zamonaviy oliy ta’lim muassasi o‘qituvchisi har qanday sharoitda ham o‘z burchini, o‘zining kasbiy missiyasini bajara olishi kerak. Bu esa o‘qituvchining o‘z — o‘zini takomillashtirishida, shuningdek o‘z talabalari uchun ham rivojlanishlari uchun imkoniyatlarning yaratib berilishida o‘z aksini topadi. Zamonaviy o‘qituvchilardan o‘z-o‘zini rivojlantira oladigan, ta’limning ochiq ijtimoiy buyurtmalari doimiy o‘zgarib turadigan sharoitda o‘zgarishlarga tez moslasha oladigan, o‘zining kasbiy ishini yaxshi tushunadigan, ustuvor innovatsion pedagogik faoliyat olib bora oladigan, doimiy qayta tayyorlanish va yangilanishga tayyor va shunga qodir bo‘lish talab etilmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Бобоскин С.Я. Инновационный проект: Методы отбора и инструменты анализа рисков. Учебное пособие - М.: Дело АНХ, 2009. - 240 стр.

2. Перегудов Л.В., Саидов М.Х. “Менеджмент и экономика высшего образования”. Учб. пос – Ташкент. 2008 г.

3. Стратегический и инновационный менеджмент в вопросах и ответах. Учебно – методическое Ростов н/Д: “Феникс”, 2010 г.

ADABIYOT DARSLIKLARIDA NAVOYI² G‘AZALLARI TAHLILI MUAMMOLARI

Nusratullo Jumaxo‘ja, Alisher Navoyi nomidagi
ToshDO‘TAU professori, f.f.d.

Keyingi o‘n besh yil mobaynida adabiyot darsliklarida Navoyi g‘azallari tahlili ilmiy-metodik jihatdan noto‘g‘ri yo‘nalishga tushib qoldi. Ushbu maqolada shu haqdagi ilmiy-tanqidiy mulohazalar, talab va

² Taxallusning shu shakli saqlanishini so‘rayman. Chunki uning to‘g‘riligi ilmda isbotlangan va mening qator kitob, maqolalarim nashrlarida mazkur sahih shakl qo‘llanmoqda. Muallif.

tavsiyalar bayon etiladi. O'qituvchilarimiz bundan ogoh bo'lishlari lozim.

8-sinf "Adabiyot" darsligining 2014-yili chop etilgan qayta ishlangan 3-nashrida ayrim ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Masalan, darslikning 1- va 2-nashrlarida Alisher Navoyining mashhur "Munojot" kuyi bilan aytiladigan "...Ul sarvi gulro' kelmadi" g'azali haqida quyidagicha faktik xato bor edi: "Navoyi g'azallarining yozilish yillari ma'lum emas. Taxmin qilish mumkinki, bu g'azalni shoir ustoz va piri Abdurahmon Jomiy vafotidan, ya'ni 1492-yildan keyin bitgan" [4; 1-nashrda 120-b.; 2-nashrda 86-b.]. Darslikning bu qismi filologiya fanlari nomzodi, navoyishunos Sultonmurod Olimov tomonidan yozilgan. Navoyi ijodiyoti bo'yicha dissertatsiya yozib yoqlagan, Navoyi to'g'risida kitoblar chop ettirgan olimning bunday xatolarga yo'l qo'yishini tasavvurga sig'dirish qiyin. Axir, 1492-yilda Navoyi 51 yoshda bo'lgan. Bu shoirning qarilik davriga to'g'ri keladi. Holbuki, "...Ul sarvi gulro' kelmadi" g'azali Navoyining ilk devonida mavjud. "Ilk devon" esa shoirning do'stlari tashabbusi bilan, uning tobora qo'lma-qo'l tarqalib borayotgan asarlarini to'plash asosida Navoyining 24 yoshlarida tuzilgan. Aniqki, g'azal Navoyining yoshlik lirikasiga mansub. Biz 2011-yili Toshkent viloyati pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutiga ishga o'tib, Til va adabiyot ta'limi kafedrasini mudiri, professori lavozimlarida ishlab, darsliklar tahlili bilan shug'ullanganimizcha, hech kim bunday xatolarni payqamagan ko'rinadi. Bunday xatolar ikki nashr mobaynida, sakkiz yil davomida o'quvchi va o'qituvchilar ongiga singdirilgan. Biz har oyda malaka oshirishga kelgan o'qituvchilar guruhidan ham, 2013-yili bilimlar bellashuvi g'oliblari dam olayotgan oromgohda Ta'lim markazi tadbiri chog'ida o'quvchilar bilan uchrashganda, ulardan ham so'radik: bir ovozdan darslikdagiday "g'azal shoirning ustoz va piri Abdurahmon Jomiy vafotidan, ya'ni 1492-yildan keyin yozilgan", deb javob berishdi. Darslikning 3-nashrida mana shu dalil bizning urinishlarimiz natijasi o'laroq tuzatilgan.

Darslik muallifi "Lahza-lahza chiqtim-u chektim yo'lida intizor, Keldi jon og'zing'a-yu, ul sho'xi badxo' kelmadi" baytidagi "badxo'" so'zini "badxoh", ya'ni "yomonlik istovchi" ma'nosida yanglish tushungan va tushuntirgan. Darslikning 1-2-nashrlarida o'qiymiz: "Betoqat yor har zamon-har zamon chiqib, ma'shuq yo'lga intizor bo'ldi, hatto, jon uning og'ziga keldi-yu, u yomonlik istovchi sho'x go'zal kelmadi" [4; 1-nashrda 119-b.; 2-nashrda 85-b.]. Baytdagi "badxo'" so'zi lug'atlardagi sharh va izohlarda "yomon odatli, yomon fe'lli, yomon qiliqli" deb berilgan bo'lsa-da, darslikdagi talqin muallifi "badxo'" so'zini "badxoh"

so‘zi bilan chalkashtirib yuborgan. Haqiqatan ham, forsiy “badxoh” so‘zi o‘zbekchada “yomonlik istovchi” ma‘nosini anglatadi. Biroq, baytdagi “badxo” so‘zi ham fors tilidan olingan bo‘lib, u “bad” – “yomon”, “xo” – “fe‘l-atvor” ma‘nolarini anglatadi. Aslida, shoir “sho‘xi badxo” iborasini hazil-mutoyiba aralash erkalash ma‘nosida qo‘llagan. Negaki, visolga va‘da berib, o‘z vaqtida kelmay, oshiqning sabr-toqati, irodasi, sadoqatini sinash har bir ma‘shuqqa xos hayotiy xususiyat. Shu boisdan, yorning “badxo”ligi va‘da berib, va‘dasida turmasligida, xolos. U – aslo badfe‘l emas. Aks holda, lirik qahramon uni sevib qolmas edi. So‘nggi 3-nashrda mana shu xato ham tuzatildi. Ammo, bu tuzatishlar osonlikcha amalga oshmadi. Biz ne mashaqqatlar bilan mazkur darsliklar ahvoli haqida malaka oshirish institutida va Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ma‘ruzalar qilishimizga, ilmiy to‘plam va matbuot sahifalarida tanqidiy maqolalar chop ettirishimizga, Respublika Ta‘lim markazi rahbariyatiga rasmiy murojaat yo‘llashimizga, teleradiokanallar orqali chiqishlarimizga to‘g‘ri keldi. Bu jonkuyarliklarimiz evaziga Ta‘lim markazi yangi nashr muddati kelgunicha mazkur darsliklarni ko‘rsatilgan kamchiliklarning hammasi tuzatilgan holda chop etilishini ta‘minlay olmadi. Mualliflar esa xatolarini oshkora tan olib, oxirigacha tuzatmadilar.

Oqibatda, 3-nashrda boshqa ko‘p kamchiliklar tuzatilmagan va ular keyingi nashrda ham tuzatilmasligi xavfi paydo bo‘ldi. “...Ul sarvi gulro‘kelmadi” g‘azali matniga to‘qqizta matniy o‘zgartirish kiritilgan. Ularning ayrimlari ustidagina to‘xtalamiz. Qachonki Navoyi asarlarining H.Sulaymon va P.Shamsiyev tahriridagi mo‘tabar nashrlari, ilmiy-tanqidiy matnlari, ilm dunyosida tan olingan “Mukammal asarlar to‘plami”, “To‘la asarlar to‘plami” mavjud ekan, darslik muallifi ulardagi asil matnlarni o‘zboshimchalik bilan o‘zgartirishga haqli emas. Darslik sinov va munozara maydoni emas. Bahsli o‘zgartirishlar g‘azalday mo‘jaz badiiy asar imoratini, mazmun-mohiyatini buzib yuboradi.

Darslik muallifi g‘azal matnini o‘z xususiy talqini maqsadiga bo‘ysundirmoqchi, ya‘ni istagan shaxsiy fikriga moslashtirmoqchi bo‘ladi.

Tolibi sodiq topilmas, yo‘qsa kim qo‘ydi qadam
Yo‘lg‘akim, avval qadam ma‘shuqi o‘tru kelmadi

baytidagi hech bir nashrda qo‘shib yozilmagan “avval” va “qadam” so‘zlarini “avvalqadam” shaklida qo‘shib yozadi. O‘zi hosil qilgan “avvalqadam” so‘zida “peshqadam” ma‘nosini tuyadi. Bu bilan matnda yo‘q “peshqadam pir” tushunchasini hosil qilmoqchi bo‘ladi. Darslikdagi

talqinga e'tibor bering: "Baytning so'zlaridan kelib chiqadigan ma'no-mazmuni quyidagicha: Sodiq tolib topilmaydi, shunday bo'lmasa edi, kimki yo'lga qadam qo'ysa, "avvalqadam", ya'ni undan oldinroqda yuradigan bir ma'shuq ro'baro' kelmaydimi" [5; 113-b.]. Ushbu mazmunni nainki 8-sinf o'quvchisi, balki oliy ma'lumotli ona tili va adabiyot o'qituvchisi ham tushunib ololmaydi. Bu yerda muallif o'zining asossiz tasavvuridagi oldinda yurib borayotgan "avvalqadam", ya'ni peshqadam pir Jomiy va unga ergashgan murid Navoyini nazarda tutgan. Bu talqin – mantiqsiz. Axir, oshiqdan oldinroqda ketayotgan ma'shuq oldinga qarab ketaveradi-da, qanday qilib oshiqqa "o'tru" – ro'baro' keladi? O'quvchi va o'qituvchi bu talqinni qanday tushunsin?

Bundan tashqari, g'azal matnida pir obrazi, umuman, yo'q. G'azalda yo'q obrazni to'qib chiqarish va ayniqsa, darslikka tiqishtirish g'ayriilmiy yo'l. G'azalda dunyoviy muhabbat tasvirlangan. Darslik muallifi esa murid Navoyining pir Jomiyga ishqini tasvirlangan, degan da'voni ilgari suradi. Holbuki, g'azalda pir va murid munosabatlariga, hatto, ishora ham yo'q. Bo'lgan taqdirda ham, ikki erkak – pir va murid o'rtasidagi munosabatni ishq-muhabbat deb talqin etish g'ayriaxloqiy qarashdir. Ustoz va shogird, pir va murid o'rtasidagi do'stona munosabatni o'zaro hurmat-ehtirom, ixlos va sadoqat deya baholash mumkin. Darslik o'rta asrlar o'quvchisi uchun yozilmaydi. Shu boisdan ham, zamonaviy, dunyoviy davlat va jamiyatda yashayotgan, dunyoviy ruhda ta'lim-tarbiya olayotgan o'quvchilarga ustoz va shogird, pir va murid orasidagi munosabatni ishq-muhabbat deb talqin etish o'rinsiz.

Talqin davomida gap tasavvuf falsafasiga bog'lanib boradiki, muallif matn mazmunidan butkul tashqariga chiqib ketadi. "Bu yerda nozik falsafiy-tasavvufiy masala ko'tarilgan, – deya davom etadi u. – Yo'l" baytda tasavvufni, Alloh ishqini bildiradi. Bu yo'lda esa sadoqatli talabgor (oshiq) topilmayapti. Ayni gap bilan shoir pirga ishora qilgan. Chunki pir hamisha bu yo'lni muriddan avvalroq bosib o'tgan, ya'ni u "avvalqadam" bo'ladi. Avvalqadam oshiq esa Alloh vasliga yetib, ma'shuqqa aylanadi. Murid ana shu shayxning etagidan tutib, unga ergashmoqchi. Chunki Ollohni sevish uchun murid avval pirni sevishi kerak. Boshqacha aytganda, Allohga muhabbat yo'li bevosita pir qalbi orqali o'tadi. Chunki tasavvufda pirga komillik timsoli sifatida qaraladi" (o'sha bet). Muallif nainki g'azal matnidan chetlashib ketdi, hatto, g'azal matni va mazmunida bo'lmagan tasavvufiy obraz va tushunchalarni o'ylab chiqarib, talqinga sun'iy ravishda tatbiq etdi. Xo'sh, g'azal matniga yopishmaydigan bu mavhum talqinni qanday qilib adabiyotni tushunishni endi o'rganayotgan

8-sinf o‘quvchisiga tushuntirish mumkin? Tasavvufiy bo‘lmagan g‘azalni tasavvufiy deb zo‘rma-zo‘raki talqin etish – badiiy asarni soxtalashtirish, nainki soxtalashtirish, balki o‘quvchi ongiga, tafakkuri – mafkurasiga ma’naviy-axloqiy tahdiddir.

Mustaqillik davri birinchi avlod darsliklarida tasavvuf haqida maxsus mavzu bor edi. O‘sha mavzuni dars jarayonida yoritish orqali o‘qituvchi va o‘quvchilar bir oz yo‘llanma olishar va tasavvufiy asarlarni tushunishar, deya qanoat hosil qilish mumkin edi. U davrda tasavvuf mavzusi 9-sinfda, biz muhokama qilayotgan asarlar esa 8-sinfda emas, 10-sinfda o‘qitilardi. 11 yillik umumta’lim tizimidan 9 yillik umumta’lim tizimiga o‘tilganida adabiyot dasturlarini o‘zgartirgan “alloma”lar mazkur asarlarni o‘ylab o‘tirmasdan avtomatik ravishda 8-sinf dasturiga ko‘chirib qo‘yaqolganlar. O‘smirlik davrida ikki yilda ham o‘quvchilar ruhiyati, ong-u idrokida katta o‘zgarishlar bo‘ladi. Hozirgi darsliklardagi mazkur asarlar 8-sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos emas. Biz Ta’lim markazi xodimlariga dasturni tubdan yangilash zarurligi, maktab o‘quvchilariga soddaroq asarlarni o‘qitish lozimligi haqida doim gapirib kelamiz. Lekin natija chiqmayapti. Tasavvuf juda murakkab ta’limot bo‘lib, undagi bahsli, chalkash muammolar tarixda ne-ne mutafakkirlarning boshiga yetmagan?! Jumladan, Mansur Halloj, Boborahim Mashrab shu tasavvuf maslagini jamiyat to‘g‘ri tushuna, qabul qila olmagan oqibatida dorga osilganlar, qurbon bo‘lganlar. Hozir ham tasavvufni talqin etishda ba’zan katta olimlar o‘zlari chalkashib ketadilar. Bas shunday ekan, tasavvufning bahsli talqinlarini maktab yoshidagi bolalarga singdirishga urinish o‘rinlimi?

Aslida, baytning mazmun-mohiyati anchayin sodda va hayotiy. Baytda izchil yoritilayotgan mavzu yuzasidan xulosa, hukm chiqarilgan. Muammoning falsafiy yechimi bayon etilgan. Ma’lumki, oldingi baytlarda lirik qahramon, ya’ni oshiq hijrondan shikoyat qilib kelayotgan edi. U zaif va nolakor bir vaziyatda turgandi. Baytda shoir oshiqning bunday vaziyatiga tanqidiy munosabat bildiradi. “Tolibi sodiq”, ya’ni sadoqatli talabgor topilmas ekan, deya fikr yuritadi shoir. Va’daga vafosiz yorning jabr-u sitamlaridan oh-voh chekish bilan kifoyalanish chinakam oshiqning ishi emas. “Yo‘qsa”, ya’ni bo‘lmasa, yorning yo‘liga kim “avval”, ya’ni birinchi bo‘lib jur’atli, dadil qadam qo‘ydikim, ma’shuqi ro‘parasiga peshvoz chiqmadi?! Ritorik so‘roq bor bu yerda. Hech qanaqa pir va murid munosabatlari yo‘q!

Biz 2014-yilgi navoyishunoslik anjumanidagi ma’ruzamiz va matbuotda chop etilgan maqolalarimizda Navoyining “Qoshi yosinmu deyin...” g‘azali maqtasidagi oxirgi so‘z “et” emas, balki “ep” bo‘lishi

to'g'riligini qayta-qayta isbotlab bergan edik [1; 14–19-b.]. Darslik muallifi esa yo bu maqolalarni ko'rmagan yoki bila-ko'ra H. Sulaymon nashridagi to'g'ri variantni qabul qilmay, Navoyi "MAT" va "TAT"dagi "Ey Navoyi, dema qoshu ko'zining vasfini et" nuqsonli shaklini yangi nashrda yana takrorlagan.

Navoiy tilidagi "kibi" so'zi "MAT"ning dastlabki tomlari nashrlarida g'alat tarzda "kebi" shaklida yozilgan edi. Biz o'sha davrdayoq "O'z AS"da e'lon qilingan "G'aroyib chechaklar" sarlavhali maqolamizda [2] bu – xato ekanligini, bunday yondashuv Navoiy tilini o'zgartirib yuborishi mumkinligini aytgan edik. Navoyi "TAT"da bu xato tuzatildi, "kebi"lar "kibi"ga aylantirildi. Lekin darslikning 3-nashrida bu xato ham tuzatilmagan. Ushbu dalillar darslik muallifi ilmiy jarayondan uzoqlashib qolganligini, qayta nashr jarayonida fan yangiliklaridan foydalanolmaganligini ko'rsatadi. Holbuki, darslik muallifi ilmiy-adabiy jarayondan boxabar, uning faol qatnashchisi, darslik ma'lumotlari ilmiy-adabiy jarayon yangiliklariga muvofiq bo'lishi kerak. Navoyishunoslikda eng mashhur ba'zi so'z-tushunchalarning chuqur o'ylanmay, tekshirilmay qo'llangan noto'g'ri talqinlari ham bemalol nashrdan nashrga o'tib kelavergan. Masalan, "Ko'hkan" – Navoyi qahramoni Farhodga nisbatan qo'llanadigan laqab. Bu forsiy so'z "ko'h" (tog') va "kan" (qazi) o'zaklaridan yasalgan va u tog' qazuvchi ma'nosini anglatadi. Ushbu so'z-tushuncha darslik 3-nashrining 105-betida "tosh yo'nuvchi" deb sharhlangan. Holbuki, "Ko'hkan" tosh yo'nuvchi emas. Navoyi va boshqa Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalari tosh yo'nuvchini "sangtarosh" deb ifodalaydilar. Sangtaroshlik Sharq me'morchiligi va amaliy san'atida alohida hunar hisoblanadi. Keyingi 106-betda endi "Ko'hkan" – "tog' yo'nuvchi" deya talqin etiladi. Tog'ni esa yo'nib bo'lmaydi. Navoyishunoslikning bunday nozik "kalit" so'zlaridan navoyishunos ogoh bo'lmog'i va o'quvchilarni so'z-tushunchalarning asl mohiyatidan chalkashtirmasligi lozim edi.

Darslikda adabiyot nazariyasi nuqtayi nazaridan ham noto'g'ri fikrlar ilgari surib kelinmoqda. S. Olimov g'azalshunoslik nazariyasida yo'q "begona bayt" tushunchasi va terminini sun'iy ravishda darslikning 1- va 2- nashrlariga olib kirgan. Uningcha, g'azalda maqtadan oldin keladigan lirik chekinish tarzidagi falsafiy baytlar, xususan, "...Ul sarvi gulro' kelmadi" g'azalining "Tolibi sodiq topilmas" deb boshlanadigan bayti "begona bayt" emish. Avvalo shuni anglash kerakki, nafis adabiyotning eng faol va eng nafis lirik janri bo'lmish g'azalga nisbatan "begona bayt" tushunchasini qo'llash nafosatdan emas. Nafis san'atga nafosat bilan

yondashgan ma'qul. "Begona bayt" esa qo'pol va dag'al atama. Mumtoz she'riyatimizda "begona bayt" degan tushuncha mavjud", degan ma'lumot asossiz. Shu darslikkacha biror ilmiy manbada bunday tushuncha qo'llanmagan.

Darslik yangi nashrining nazariy ma'lumot qismida "begona bayt" timsolida go'yoki "Amerika kashf etilgan". Go'yoki g'azaldagi uchta baytning alohida nomi bor emish. Bular matla, maqta va begona bayt emish. Hali ilmiy muhokamaga olib chiqilmagan, e'tirof etilmagan tushunchani umume'tirof etilgan ming yillik "matla" va "maqta" terminlari qatoriga qo'yish ilmiy etikaga ham to'g'ri kelmaydi. Terminologiya ilmida rasmiylashganlik tushunchasi bor. Muayyan atama soha olimlari tomonidan tan olinib, ma'qullansa va u umume'tirof etilib, ilmiy jarayonda hamma mutaxassislar tomonidan faol qo'llansa, o'shandagina u maxsus sohaga rasmiylashgan hisoblanadi hamda termin maqomini oladi. Terminning atamadan asosiy farqi va o'ziga xos xususiyati ham mana shunda. Rasmiylashmagan atama darslikka olib kirilmaydi. Bu – qoida.

Mana, go'yoki ilmiy asoslashdek tasavvur uyg'otishga urinilgan va darslik uslubi uchun xos bo'lmagan yana bir tushuntirish: "G'azalchiligimiz, xususan, Navoyi g'azallaridagi bu tipik xususiyatni ko'plab navoyishunoslar kuzatgan, tahlil etgan. A. Hayitmetov buni umumiy qilib "lirik chekinish", Yo.Is'hoqov "begona yoki qistirma baytlar", N.Komilov esa "gardish", "bozgasht" ("qaytish") deb nomlaydi. Aslida, Navoyi g'azallarida asar mazmuni bilan bog'lanmagan bayt bo'lmaydi. "Begonalik" – nisbiy tushuncha. U "lirik chekinish" ma'nosini muayyanlashtirgan holda ifodalab kelgan. "Chekinish" bilan "begonalik" – bir-biriga juda yaqin tushunchalar hisoblanadi" (140-bet). Darslikning avvalgi ikki nashriga bildirilgan e'tirozlarimizga javoban berilgan "isbot" bu. Avvalo, darslik ilmiy isbotning o'rni emas. Darslikka faqatgina isbotlangan va tasdiqlangan, umume'tirof etilgan fikrlar kiradi. Qolaversa, iqtibosda asarlariga havola qilingan birorta navoyishunos "begona bayt" atamasini qo'llamagan. Muallif S.Olimov Yo.Is'hoqovdan ko'chirma keltira turib, "Navoyi poetikasi" kitobida yo'q "baytlar" so'zini qo'shtirnoq ichiga kiritib, kitobxonni ochiq-oydin aldaydi. Go'yoki, Yo.Is'hoqov "begona bayt" atamasini qo'llaganday ko'rsatadi. Mana, Yo.Is'hoqovning sahih jumlasini: "Tavsifiy (ta'rif, madhda ham) g'azallarda lirik chekinish xarakteridagi baytlarning "begona" yoki qistirmaligi yaqqol sezilib turadi" [6; 62-b.]. Qani bu gapda "begona bayt" termini? Yo.Is'hoqovning "begona" so'zini qo'shtirnoqqa olgani va "yaqqol sezilib turadi" degani maqtadan oldingi baytning "begona bayt" deb atalishini

bildirmaydi. U professor A.Hayitmetovning “lirik chekinish” atamasini qo‘llab turibdi. Quyiyoqda bunday baytni u epigrammaga ham o‘xshaydi deydi. Bundan tashqari, Yo.Is’hoqovning kitobi – ilmiy monografiya. Ilmiy kitobda bahli masalalarni bemalol muhokama qilaverish mumkin, lekin darslikda mumkin emas. Chunki o‘quvchi olim ham emas va maktabda adabiyotshunos ham tayyorlanmaydi. Qolaversa, “Begona bayt” ham – lirik chekinishning aynan o‘zi ekan, “begona”lik – nisbiy tushuncha ekan, yasama “begona bayt” tushunchasi va atamasini umumta’lim maktablari darsliklariga olib kirishga nima zaruriyat bor? Darslikka “begona bayt” tushunchasining kiritilishi faqat adabiy ta’limga va adabiyot o‘qitish metodikasigagina zarar keltirmadi, balki ilmiy jarayonga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Tabiiyki, “begona bayt” haqida ta’lim olgan va keyinchalik adabiyot yo‘nalishida talaba, magistr, tadqiqotchi bo‘lgan sobiq o‘quvchilar mazkur tushunchaning xato ekanligini bilmagan holda uni ilmiy izlanishlariga tatbiq etdilar va rivojlantirishga urindilar. JDPI tadqiqotchisi Nigora Xalilovaning “Navoyi g‘azallarining begona baytida shoir taxallusining keltirilishi” [3] sarlavhali maqolasi fikrimizning dalilidir.

G‘azal tahlili – juda nozik soha. Navoyishunosligimiz bisotida “Qaro ko‘zum...” g‘azalining shoir va olimlarimiz tomonidan yaratilgan o‘nlab tahlillari mavjud. Lekin hamma g‘azallar ham “Qaro ko‘zum...”dek har tomonlama yondashuv va turli-tuman talqinlarga asos beravermaydi. Shuning uchun darslikdagi “Jong‘a chun dermen...” g‘azali tahlili, yangicha tahlil yaratish mushkulligidan, bizning 10-sinf darsligimizdan, “Yordin ayru ko‘ngul...” g‘azali tahlili N.Mallayev qo‘llanmasidan o‘zlashtirilganligi ko‘rinib turibdi. “Qaro ko‘zum...” g‘azali tahlili 40 yil mobaynida izchil davom etgan. Atoqli sharqshunos olim Ismatulla Abdullayev g‘azalga 1975-yilda yozgan 1-sharhida “g‘amzada” so‘zini “g‘amza – noz-karashma” ma’nosida talqin etgan. Mazkur satrlar muallifining 1987-yil, 27-fevralda “O‘z AS”da chop etilgan “G‘azal va tahlil” maqolasida uning sharhi tanqid qilinganidan keyin shu maqolaga yozgan raddiyasida: “bizning tahlilimizda “g‘amzada – g‘am chekkan, jabrlangan” so‘zi noto‘g‘ri talqin qilingan, buning uchun gazetxonlardan uzr so‘raymiz”, deya aybini mardlarcha tan olgan. Oradan oz emas – ko‘p emas, naqd 20 yil o‘tganidan keyin, 2006, 2010-yillarda chop etilgan va 8 yil davomida amalda bo‘lib, Respublika umumta’lim maktablarining 8-sinf o‘quvchilariga majburiy ta’lim jarayonida o‘qitilgan 8-sinf “Adabiyot” darslik-majmuasida S.Olimov mazkur xatoni yana takrorlagan. Ya’ni, darslik-majmuada “Qaro ko‘zum...” g‘azali sharhini bayon etish

jarayonida: “Oshiq... itiga g‘amza payti (!) jon rishtasidan ip qilishni aytadi” [4; 1-nashrda 124-b.; 2-nashrda 90-b.], deb yozgan. I.Abdullayev-ku fors tilini bilmas edi. Nahotki, amalda o‘zi o‘zbek-fors tillari bo‘yicha zullisonayn bo‘lgan S.Olimov “g‘amzada” so‘zining ma’nosini bilmagan? Nahotki, navoyishunos olim g‘azal tahlilining tarixiy takomilini kuzatmagan va tuzatilgan xatoni ko‘rmagan? Axir, bir g‘azalga sharh yozayotgan olim o‘zidan oldingi shorihlarning tajribalarini ko‘rishi kerak emasmi? Bu savdoga hayron qolasan, kishi. Bizning Respublika Ta’lim markaziga va matbuotga rasmiy-tanqidiy murojaatimizdan keyingina S.Olimov ushbu xatoni darslik-majmuaning 3-nashrida tuzatdi, lekin “Qaro ko‘zum...” talqinida yana talay kamchiliklar tuzatilmay qoldi. (Unda, I.Abdullayevdan farqli o‘laroq, tan olish, e’tirof etish, uzr so‘rash yo‘q). Ularning eng asosiysi tasavvufiy talqinning o‘ta murakkabligi. Alibek Rustamovning “Adiblar odobidan adablar” (“Ma’naviyat”, –T., 2003), Muhammadjon Mahmudning (A.Rustamov taqrizchi, S.Olimov so‘zboshi yozgan) “Yana Navoyini o‘qib” (“G‘afur G‘ulom” nashriyoti, – T., 2011) kitoblaridagi singari S.Olimov ham “Qaro ko‘zum...” g‘azali bag‘ishlangan shaxsni erkak kishi jinsidan deb biladi va darslik-majmuada uni “komil inson” atamasi bilan ifodalaydi. Navoyi g‘azallarida tasvirlangan obrazlarni “komil inson”, “piri murshid” der ekan, bunda erkak kishini nazarda tutadi. A.Rustamov talqinida “ma’naviy ishq” tushunchasi “do‘stlik” tushunchasi bilan chalkashtirib yuborilgan, S.Olimov esa o‘sha chalkash g‘oyani davom ettirmoqda. A.Rustamov “Qaro ko‘zum...” g‘azaliga bergan sharhida yozishicha: “Yosh oshiqning ma’shuqi bir nuroniy chol yoki kampir, qari nozirning manzuri yosh o‘g‘lon yoki qiz bo‘lishi mumkin”. Bu tushuncha hayotiy emas, balki g‘ayritabiiydir. Yosh yigit yo qizning kekxa chol yo kampirni sevganini yoki kekxa chol yo kampir yosh yigit yo qizni sevganini hayotda kim ko‘rgan? Qanday qilib yosh yigit kekxa chol yo kampirga ishq bog‘lashi yoki qanaqasiga kekxa chol yo kampir yosh yigit-qizni sevishi mumkin? Agar shunday holatlar uchragan taqdirda ham, u g‘ayriaxloqiy ishq va bunday ishq-muhabbat egalari ma’naviy-ruhiy jihatdan nosog‘lom kishilar bo‘lgan bo‘lard. Do‘stlik, pir va muridlik, ustoz va shogirdlik munosabatlari ishq emas, balki batamom boshqacha tushuncha. Ularni insoniy mehr, ixlos, havas, sadoqat bog‘lab turadi, zinhor ishq-muhabbat emas. Har bir tuyg‘uni o‘z nomi bilan ifodalagan ma’qul, toki Navoyining pok va porloq shaxsiyatiga ham, tasavvufiy ishq namoyandalariga ham ma’naviy zarar yetmasin. Yevropada erkakning erkakka ishq-muhabbati huquqiy jihatdan rasmiylashtirilayotgani milliy mentalitetimiz nuqtayi

nazaridan qoralanayotgan hozirgi zamonda biz Navoyining manzuri erkak kishi bo'lgan degan qarashni, ayniqsa, darsliklarimizda bayon etishdan saqlanganimiz ma'qul. Bunday talqinlar yoshlarimizga ma'naviy-axloqiy tahdidgina bo'lib qolmay, balki Yevropaliklarning tegirmoniga ham suv quyadi.

Xulosa qilib aytganda, tahlil etilgan "Adabiyot" darslik-majmuasi adabiy ta'lim va adabiyot o'qitish metodikasi, Navoyi asarlarini o'rganish sohalari tarixida salbiy iz qoldirdi. O'qituvchi, metodist va tadqiqotchilar undan tanqidiy foydalanishlari lozim. Adabiy ta'lim, Navoyi asarlari va har qanday adabiy asarlar tahlilida ilm-fan yutuqlari asosida ish tutish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Jumaxo'ja. Navoiy asarlaridagi ayrim so'zlarning ma'nolari va matniy xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. 2014, 1-son. N.Jumaxo'ja. Izohlanmagan so'zlar. "O'z AS", 2014-yil, 21-mart.

2. N.Jumaxo'ja. G'aroyib chechaklar // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1990, 20-aprel.

3. N.Xalilova. Navoyi g'azallarining begona baytida shoir taxallusining keltirilishi. Alisher Navoyi va XXI asr. Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. –T., TURON-IQBOL, 2018.

4. S.Olim, S.Ahmedov, R.Qo'chqorov. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua. 1-nashri. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. 120-b. 2-nashriga "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi ham qo'shilgan. – T: 2010.

5. S.Olim, S.Ahmedov, R.Qo'chqorov. Adabiyot. Birinchi qism. 8-sinf uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan uchinchi nashri. – T.: Gafur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2014.

6. Yo.Is'hoqov. Navoyi poetikasi. –T.: Fan, 1983.

QIYOSLASH – TAHLIL SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULI

Qozoqboy Yo'ldosh, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU professori, ped.f.d.

O'quvchilarga muayyan bilimlar yig'indisini beribgina qolmay, ularda muayyan ezgu ma'naviy fazilatlar shakllantira olgandagina adabiyot saboqlaridan ko'zlangan maqsadga erishiladi. O'rganilayotgan asarning mohiyati anglab yetilgandagina u kishida ezgu ma'naviy sifatlar

shakllantirishga xizmat qiladi. Badiiy asar mohiyati esa tahlil natijasida yuzaga chiqadi. Shuning uchun ham uzluksiz adabiy ta'limning barcha bosqichlarida badiiy asarning o'quv tahlili hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Puxta o'quv tahlili natijasida badiiy matnning o'quvchilar tomonidan chuqur tushunilishi, estetik jozibasining to'liq his etilishiga erishish adabiyot o'qitishning samaradorligini ta'minlaydigan omildir. Muallifning badiiy niyatini anglab yetishga qaratilgan o'quv tahlili adabiyottanuv ilmining so'nggi yutuqlariga tayanib amalga oshirilganda ko'zlangan didaktik natija qo'lga kiritiladi. Buning uchun tahlil jarayonida qiyoslash usulidan to'g'ri foydalana bilish kerak. Negaki, har qanday narsa-hodisaning yaxshi-yomoni, kerak-nokeragi, foyda-zarari qiyosdagina ma'lum bo'ladi.

Qiyoslash metodini qo'llash o'quv tahlilining ko'lamdor, qamrovli, teran bo'lishi va o'quvchilarning estetik yaratiqqa xos jihatlarni yaxshiroq anglab yetishiga xizmat qiladi. Bu usul ham adabiyotlararo, ham bir adabiyot ichida, ham bir yozuvchining turli bitiklari o'rtasida, ham bir asardagi turli obrazlar orasidagi munosabatlarni teran tadqiq etishning g'oyat muhim vositasi sanaladi. U, bir tomondan, muayyan badiiy hodisaning haqiqiy qimmatini belgilab berishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, o'sha hodisaning qanchalik estetik ahamiyatga egaligini ko'rsatishda qo'l keladi. Qiyoslash orqali muayyan adabiy yaratiqda muallifning estetik an'analardan qanday ta'sirlangani, kimga ergashgani, mavjud badiiy tajribalarni ne miqdor boyitgani, naqadar o'ziga xosligi, bitikning milliy adabiyotda egallagan o'rnini singari jihatlari ayon qilinadi. Faqat solishtirish natijasida bir adabiy asarning bir necha qirrasini ochish mumkin bo'ladi. Asarlarning mavzusi, g'oyasi, ifoda usuli, obrazlar tizimi, tili singari ko'plab jihatlari qiyosiy usulning obyekt bo'lishi mumkin. Tilga olingan qirralarning qaysilariga ustuvorlik berish tekshirilayotgan asarning tabiati hamda adabiy ta'limdan kuzatilgan maqsaddan kelib chiqib, belgilanadi.

Qiyoslash faqat badiiy matnni tahlil qilish usuligina emas, balki san'at va adabiyotni ham sujet-kopozitsiya nuqtayi nazaridan *tarkibiy*, ham paydo bo'lish manbasi jihatidan *geniologik* tekshirishning ilmiy tamoyili ham hisoblanadi. Har qanday narsaning, jumladan, badiiy yaratilgan ham asl bahosi o'ziga o'xshagan boshqa asarga solishtirilganda ayon bo'ladi. Ma'lumki, har bir badiiy butunlik, bir vaqtning o'zida ham o'zaro solishtiriladigan va ham qarshi qo'yiladigan qismlardan tarkib topgan bo'ladi. Epik va dramatik asarlardagi har bir timsolning o'zaro o'xshash va bir-biriga qarama-qarshi jihatlari borligi, lirik asarlarda esa shoir

tuyg'ularining voqelikka o'xshash va ziddiyatli jihatlari aks etishi singari holatlar shuning natijasidir. Badiiy asarlarda voqea-hodisalar va obrazlar o'rtasidagi o'xshashligu ziddiyatdan tashqari, turli faktlar, hodisalar, vaziyatlar, xarakterlar o'rtasida ham antiteza (qarshilantirish) holatlari mavjud. Qiyoslash har bir san'atkorning qanchalik an'anachi yoki novator ekanini aniqlash quroli hamdir.

Ma'lumki, *badiiy ijodda mavjud estetik tajribani unga ijodiy yondashgan holda o'zlashtirish hodisasiga an'ana* deyiladi. Aynan qiyoslash solishtirilayotgan badiiy yaratilishdagi an'anaviylik va yangilik jihatlari nimalarda ko'ringanini aniqlash imkonini beradi. Solishtirish adabiy sinchilikning ham yetakchi usullaridan hisoblanadi. Chunki sinchi tadqiq qilayotgan asarni umum tomonidan tan olingan ilmiy o'lchovlar yoki badiiy qimmatini yuqori bo'lgani uchun estetik etalon sifatida qabul qilingan o'zga matnlarga qiyoslagan holda baholaydi. Badiiy asarning o'quv tahlilida ham aynan shu yo'ldan boriladi. Chunonchi, hozir yaratilayotgan har bir roman ko'pincha A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" yoki Cho'lponning "Kecha va kunduz" yoxud Oybekning "Qutlug' qon" asarlari bilan solishtiriladi va shundan kelib chiqib, baholanadi. Qissachilikda A.Qahhorning "O'tmishdan ertaklar", O.Yoqubovning "Muqaddas" asarlari hikoyachilikda A. Qahhor, Sh. Xolmirzayev novellalari ana shunday badiiy tarozi (etalon) vazifasini bajaradi.

Badiiy asarni tarkiblashtirishning ilmiy tamoyili, estetik yaratilishni tahlil qilishning usuli va adabiy jarayonni tekshirishning quroli bo'lgan qiyoslash maktab adabiy ta'limida o'quv tahlili kechimida faol qo'llaniladigan metodlardan biri sanaladi. Bu usuldan foydalanish o'quv tahlilining ilmiyligini, uning adabiyotshunoslikdagi qarashlarga yaqin bo'lishini ta'minlaydi. Qiyoslash usulining badiiy adabiyotni o'rganishga qaratilgan aqliy faoliyat samaradorligini ta'minlashdagi o'rni juda katta. Zero, psixolog va ta'lim nazariyotchilari solishtirish ko'nikmasiga inson aqliy faoliyatining eng boshlang'ich va fundamental ko'rinishi sifatida qarashadi.

Adabiyot bo'yicha o'quv dasturlari tuzishda o'quvchilarda analitik va sintetik fikrlash, badiiy hodisadagi o'ziga xoslikni ko'rish, undagi alohidalik va umumiylikni idrok etish, turli badiiy tasvir va ifodalarni bir-biriga qiyoslab, muayyan to'xtamga kelish ko'nikmalarini shakllantirish ko'zda tutilgan bo'lishi kerak. O'quvchilar tomonidan badiiy asarlarning qabul qilinishi muammosi bilan shug'ullangan ruhshunoslar adabiy yaratilishdagi timsollar, tasvirlar, tafsil (detal)lar va ifoda tarzini qiyoslay hamda ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlamay turib, matn mohiyatini to'liq

anglash mumkin emasligini ta'kidlashadi.

O'rganilayotgan asarning unsurlarini solishtirish va ular o'rtasidagi aloqadorlikni ko'ra bilish badiiy matnni idrok etishning zaruriy shartidir. Qiyoslash – mantiqiy faoliyatning bir ko'rinishi sifatida umumiylik xususiyatiga ega ko'nikma. Ammo u adabiy ta'limga doir muammolarni hal etishda o'zgacha vazifa bajaradi. Bir badiiy asarni boshqasiga, bir bitikning turli unsurlarini o'zaro qiyoslash o'quvchida tasavvur va tafakkur izchilligi hamda davomiyligini shakllantiradi. Solishtirish badiiy yaratq borasida o'qirman nuqtayi nazari, bahosi shakllanishiga mantiqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Qiyoslashsiz estetik yaratqqa ham, asar qahramonlariga ham baho berish mumkin emas.

Shuni esda tutish kerakki, biror adabiy timsol yoki badiiy tasvirga baho berish uchun qiyoslash o'quv tahlilining boshida ham, oxirida ham qo'llaniladi. Bitikni idrok etish bosqichida qiyoslashdan foydalanish o'quv tahlilining puxtaligi omilidir. Negaki, badiiy asar bilan tanishish jarayonida solishtirish mazmuni to'g'ri tushunish, uning axloqiy-ma'naviy yo'nalishini xatosiz aniqlashga xizmat qiladi. O'quv tahlili amalga oshirilayotganda qiyoslashdan foydalanish esa badiiy shaklning, ifoda yo'sinining o'ziga xosligi darajasini tayin etish vositasi bo'ladi.

Agar badiiy matnni idrok etish paytida qiyoslash ayni asardagi timsollarga, badiiy yaratqning o'zidagi jihatlariga yo'naltirilsa, tahlil amalga oshirilayotganda analitik qiyoslash matnning oldin payqalmagan yashirin qirralarini aniqlashga qaratiladi. Bunda solishtirilayotgan obyektlar ko'lami kengayadi, qiyoslash ayni asar matnidani tashqariga chiqib, obrazlar va ularning prototiplari, real borliq va uning ifoda yo'sini, sinchilarning ushbu bitikka munosabati, bu asarning o'zga estetik yaratqlar bilan tipologiyasi singari jihatlar qamrab olinadi.

Rus metodist olimi N.Sobolev o'quv tahlilida qiyoslash usulidan foydalanish nazariyasini ishlab chiqdi. U o'quv tahlilida qiyoslash didaktik samara keltirishi uchun zarur bo'lgan bir necha shartlarni ko'rsatib beradi:

- 1) qiyoslash aniq maqsadga qaratilgan bo'lishi;
- 2) solishtirish muhim va turg'un belgilarga asoslanishi;
- 3) qiyoslashda mantiqiy izchillikka amal qilinishi;
- 4) solishtirish kechimida o'xshash va ayirmali jihatlar izohlanishi [1; 16-b.].

O'quv tahlili paytida qiyoslash qiyoslash uchungina bo'lib qolmasligi uchun darsning tarbiyaviy va ta'limiy maqsadlaridan kelib chiqqan holda solishtirishdan ko'zda tutilgan maqsad aniq belgilab olinishi zarur. Asarda tasvirga tortilgan shaxslar, narsa-hodisalar hamda tuyg'ularning muhim

jihatlari solishtirilgandagina o'quv tahlilining chuqur bo'lishiga erishiladi. Ma'lumki, narsa-hodisa yoki shaxslar mavjudligiga xos ichki qonuniyatlarni aks ettiradigan muhim qirralar yuzada ko'rinib turmaydi. Qiyoslash usuli narsa-hodisalarning shunchaki biror o'xshashligiga qarab emas, balki solishtirishga arziydigan jihatlari asoslanganda ma'no kasb etadi. Deylik, A.Qahhorning "O'g'ri" hikoyasidagi ellikboshi obrazi amin obraziga qiyoslansa, asarning badiiy qatlamidagi yangi bir jihatni ochishga xizmat qilmaydi. Holbuki, bu ikki obraz o'rtasida anchagina o'xshash va ayirmali jihatlar bor. Bu obrazlarning har biri Qobil bobo bilan qiyoslangandagina asarning mohiyatini ochishga xizmat qiladi.

Solishtirilayotgan obrazlarga xos belgi va sifatlar muayyan mantiqiy izchillikka ega bo'lishi va aniq maqsadga yo'naltirilishi kerak. Qobil bobo bilan amin timsollari solishtirilishi natijasida jabrdiyda kishining ojiz va chorasizligi ko'ringani sari amaldor kimsaning odamiylikdan yiroq, mug'ombir va toshbag'ir ekani yaqqol namoyon bo'laveradi. Shuningdek, bobo bilan ellikboshi obrazlari qiyoslanganda, ellikboshining yuzsizligi, quvligi, oldin cholning ishonchini qozonib, uni o'ziga mute qilish uchun sensirashi, ularni olib bo'lgach, hech narsa ko'rmagandek, yana sizlay boshlashi singari jihatlar hayotiy va badiiy ma'no kasb etadi.

Agar narsa-hodisalaridagi o'xshash va ayirmali jihatlar jo'ngina qayd qilinsa, qiyoslashning o'quv samarasi arziyas bo'ladi. Solishtirilayotgan obyektlardagi o'xshash va farqli tomonlarning sabablari ko'rsatilib, ulardagi ichki bog'lanishlar izohlansa, qiyoslash usuli o'quv tahlilining chuqur va aniq bo'lishini ta'minlaydi. Qiyoslash orqali badiiy asarlar, adabiy qahramonlar yoki tasviriy vositalar o'rtasidagi o'xshash va ayirmali jihatlarning ildizlarini topish o'quv tahlili natijasida muayyan mantiqiy xulosaga kelish imkoni yuzaga keladi. Turli obyektlarni bir-biriga solishtirish qiyoslanayotgan obyektlarning har biriga xos jihatlarni chuqurroq anglab yetishga xizmat qiladi.

Qiyoslashning samaradorligi solishtirilayotgan narsa-hodisalarning har biriga xos qirralarning qanchalik puxta o'rganilishiga bog'liq. Aks holda qiyoslashdan ma'no chiqmaydi. Ya'ni avval solishtiriladigan narsa-hodisalarning har biri atroflicha o'rganilgan bo'lishi kerak. Shunday yo'sinda amalga oshirilgan o'quv tahlili ulkan didaktik samara beradi va o'quvchilarni qiziqtirib qo'yadi. Qiyoslanayotgan narsa-hodisalarning mohiyatini anglab yetgan o'quvchilar ulardagi o'rtoq va ayirmali qirralarni o'zlari kashf etadilar. Shu tariqa ularda akseologik (baholash) ko'nikmasi ham shakllana boradi [4; 6-b.].

Adabiy hodisalar o'rtasidagi o'rtoq va ayirmali jihatlarni topishning

o'ziga qiyoslash usuli uchun asosiy maqsad bo'lolmaydi. O'quv tahlili kechimida amalga oshiriladigan qiyoslash, bir tomondan, solishtirilayotgan adabiy hodisalarning hayotiy-estetik mohiyatini teranroq anglashga, boshqa tomondan, ulardagi o'xshashlik va o'zgachalikning sababini anglashga qaratilgandagina o'quv tahlili jarayonida o'quvchilarning tafakkur va tuyg'ulari o'sishiga xizmat qiladi. Taniqli metodist prof. N.Kudryashev o'zining "Adabiyot darslarida ta'lim metodlarining o'zaro aloqasi" asarida: *"...adabiy asarlarni qiyoslash keng yoyilgan ta'limiy usul bo'lib, solishtirilayotgan har bir asarni chuqurroq o'rganish hamda adabiy-nazariy va adabiy-tarixiy xulosalar chiqarishga boy material beradi"*, – deb yozadi [2; 153-b.].

O'quv tahlilini amalga oshirishda qiyoslash usulidan foydalanish uzluksiz adabiy ta'limning barcha bosqichlarida qo'llaniladi. Ammo o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olib ish tutilmagina, bu usul samara keltiradi. Chunonchi, boshlang'ich sinf o'quvchilari turli asarlarni qanday mavzuga bag'ishlangani va janriga, obrazlarni esa tashqi ko'rinishi, yaxshi-yomon ishlar qilishiga ko'ra qiyoslashga urinishadi. Masalan 3-sinf "O'qish kitobi"da Abdulla Avloniyning "Bolari va pashsha" nasriy masali berilgan. Unda bolarining mehnatkashligi pashshaning tekinxo'r va yalqovligiga qarshi qo'yib tasvirlangan. Bu sinfdagi o'quvchilar masaldagi obrazlarni hayotdagi hasharotlar sifatidagina ko'radilar. O'qituvchi ularni bu timsollar zamirida odamlarga xos sifatlar ramz bilan tasvirlanayotganini anglashga yo'naltirishi kerak. Shunda bolalarning qiyoslashlari jo'n va foydasiz bo'lmaydi, tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Yuqori sinflarda esa timsollar ma'naviyati va ruhiyatiga xos jihatlarning tasviri hamda obrazlar nutqidagi o'ziga xoslik singari jihatlarni qiyoslansa, o'quv tahlilining chuqurlashuviga erishiladi. Chunonchi, 9-sinfda "Temir xotin" komediyasi o'rganiladi. O'quvchilar Qo'chqor obraziga xos ma'naviy sifatlarini Olimjon, Qumri singarni personajlar tabiati bilan solishtirish orqali bu odamga xos sirdan ko'zga tashlanmaydigan murakkab ruhiy-axloqiy jihatlarni kashf etishadi. Uning minaziga qanoat, chidamlilik, mehnatkashlik, gapga ustalik, soddalik singari ezgu sifatlar bilan birga maqtanchoqlik, chiranish, aroqxo'rlik, kamo'ylik singari yoqimsiz jihatlarni ham borligini ko'radilar. Bu hol ularda odamga biryoqlama baho berish to'g'ri emas ekan, degan qanoat paydo qiladi.

Uzoq yillik kuzatishlar hamda qator metodist olimlarning qarashlariga tayangan holda adabiyot darslarida qo'llaniladigan qiyoslash usullarining

quyidagi tasnifini berish mumkin:

Qiyoslash turi	Qo‘llanish holati	Qiyoslashdan kuzatilgan maqsad
Badiiy asar sujetini hayotiy asosi, obrazlarni esa prototiplari bilan solishtirish.	Asarning ijodiy tarixi va hayot bilan aloqasini o‘rganishda.	Muallifning niyatini aniqlash, uning hayot materialidan qanday foydalanganini anglash.
Bir asarning turli variantlari hamda tahrirlarini qiyoslash.	Asarning ijodiy tarixini o‘rganishda.	Yozuvchi qarashlaridagi o‘sinh-o‘zgarishlarni kuzatish; o‘quvchida badiiy so‘zga e’tibor shakllantirish.
Badiiy asardagi obraz, lavha, peyzaj va portret singari tasviriy unsurlarni qiyoslash.	Asar kompozitsiyasi, sujeti, obrazlar tizimini o‘rganishda.	Asar qahramonlari minazi, muallif nuqtayi nazari, shakl va mazmun munosabatini anglatish, o‘quvchilarda hissiy ta’sirchanlikni oshirish.
Turli adiblarning bitiklari yoki har xil asarlardagi ayrim unsurlarni solishtirish.	Har xil adib va asarlardagi o‘ziga xoslik hamda o‘xshashlik sabablarini o‘rganishda.	Asardagi yetakchi fikrni anglab yetish, obrazlar ma’naviyatiga xos qirralarni bilish, davrning obrazlar tabiatida qoldirgan “iz”larini aniqlash, har bir adib va asardagi o‘ziga xoslikni anglash.
Turli olimlarning bir asar to‘g‘risidagi qarashlarini qiyoslash.	Asarning har tomonlama to‘liq tahlilini amalga oshirishda.	Bir asar to‘g‘risidagi turli sinchilarning qarashlari asosida o‘quvchilarda badiiy matnga yondashish, bitikdagi asosiy jihatni belgilash uquvini shakllantirish, asarning tuyg‘u va tafakkurga ta’sir qilish sabablarini topishga o‘rgatish.
Bir yozuvchining muayyan asarini shu muallifning boshqa bitiklari bilan	Adibning ijodiy tadriji hamda uslubidagi	Yozuvchining hayotga qarashi, ko‘rishi va tasvirlashidagi o‘zgarishlar sababini aniqlash.

solishtirish.	o'zgarishlarni aniqlashda.	
Turli janrlardagi asarlarni o'zaro qiyoslash.	Badiiy yaratilgan janrga xos belgilarini o'rganishda.	Turli asarlarning qaysi janrga mansub ekanini belgilovchi unsurlarni, ifoda va tasvirdagi o'ziga xosliklarni o'rganish.
Adabiy asarni san'atning boshqa turlari bilan solishtirish.	San'at turlaridagi o'ziga xoslikni bilishda.	Har bir san'at turiga xos muhim jihatlarni bilish, ularning ifoda yo'sini, tasvir vositalari, borliqni ko'rish va ifodalashdagi betakrorlik sababini o'rganish.

O'quv tahlilida ishlatilishi mumkin bo'lgan qiyoslash turlariga xos muhim jihatlarni sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Badiiy asarni uning hayotiy asosi, obrazlarni esa prototiplari bilan solishtirish. Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasining birinchi kitobi "Qirq besh kun" romanida xalq hayotida yuz bergan real voqea aks ettirilgan. Unda qirq besh kunda qazib bitirilgan Katta Farg'ona kanalida yuz bergan voqealar tasvirlangan. Ammo yozuvchi bo'lgan voqeani shunchaki kitobga ko'chirib qo'ymagan, balki bir qator to'qima obraz va voqealar kiritib, voqelik tasviriga badiiy qimmat bergan. Agar kanal o'lkaning iqtisodiy ravnaqi uchun ahamiyatli bo'lsa, roman millatning ma'naviyati taraqqiyoti uchun qimmatlidir.

Bir asarning turli variantlari hamda har xil tahrirlarni qiyoslash. A.Oripovning mashhur "Yurtim shamoli" she'ri yozuvchi Nosir Fozilovga bag'ishlangan bo'lib, aslida "O'zbek shamoli", deb atalgan. Muharrirlar zug'umi bilan shoir uning nomini o'zgartirish va bag'ishlovni olib tashlashga majbur bo'lgan. A.Qahhorning "Sarob" romani 1934-, 1957- va 1967-yillarda uch marta bosib chiqarilgan. Adib har bir nashrda davr talabiga muvofiq asariga ma'lum o'zgarishlar kiritishga majbur bo'lgan. Bu hol asarning badiiy saviyasiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Bunday qiyoslash o'quvchilarda badiiy ijodning ilhomiy va betakror hodisa ekanini anglash ko'nikmasini shakllantiradi.

Badiiy asardagi obrazlar, lavhalar, peyzaj va portret tasviri singari unsurlarni qiyoslash. Borliqdagi narsa, hodisa va shaxslar turli ijodkorlarga turlicha ta'sir qiladi va shu sabab turlicha tasvirlanadi. Deylik, yomg'ir obrazi R.Parfi ijodida hamisha iliqlik va quvonch bilan tasvirlanadi. A.Oripovda esa yomg'ir obrazi doim dilgirlik va mahzunlik

belgisi tarzida ko'rsatiladi. R.Parfining "Yomg'ir yog'ar" she'ri bilan Zulfiyaning "Oydinda" she'rida bir tabiiy hodisa – yomg'ir aks etsada, o'quvchi ruhiyatiga tamomila boshqacha ta'sir ko'rsatadi.

Turli adiblarning bitiklari yoki har xil asarlardagi ayrim unsurlarni solishtirish. O'quvchilarda bir shaxs yoki hodisaga har tomondan yondasha bilish ko'nikmasini shakllantirishda qiyoslashning bu turi juda qo'l keladi. Chunonchi, Muhammad Alining "Ulug' saltanat" tetralogiyasidagi Temur obrazining tasviri A.Dilmurodning "Mezon burji" qissasidagi sohibqiron timsoli tasviri bilan solishtirilsa, bir shaxsga turlicha yondashuv, turlicha xulosalarni keltirib chiqarishi yaqqol ko'rinadi. Shuningdek, O.Yoqubovning "Fotih muzaffar yoki bir parivash qissasi" dramasi bilan A.Oripovning "Sohibqiron" dramatik dostonidagi Amir Temur obrazlari qiyoslab o'rganilganda ham o'quvchilarda odam va olamning murakkabligini his etish tuyg'usi shakllanadi.

Turli olimlarning bir asar to'g'risidagi qarashlarini qiyoslash. Yuqori sinflarda qo'llanishi samara beradigan bu solishtirish turi o'quvchilarda shaxsiy fikr, qat'iy nuqtayi nazar shakllantirishda g'oyat ish beradi. Chunonchi, B. Boyqobilovning besh dostonidan iborat "Yangi xamsa" asari yuzasidan O.Sharafiddinovning maqolasi bilan marhum akademiklar A.Qayumov, M.Xayrullaev, I.Jabborovlar yozgan taqriz solishtirib o'rganilishi badiiy hodisaga yondashish borasida mantiqiy asosning qanchalik muhimligini anglab yetishga xizmat qiladi.

Bir yozuvchining muayyan asarini shu muallifning boshqa bitiklari bilan solishtirish. Oybekning "O'rtoq Navoiy" she'ri, "Navoiy" dostoni, "Bola Alisher" qissasi, "Navoiy" romani o'zaro qiyoslansa, yozuvchining badiiy-estetik tafakkur tadriji dinamikasini kuzatish mumkin bo'ladi.

Turli janrlardagi asarlarni o'zaro qiyoslash. Har xil janrga mansub asarlarni qiyoslab o'rganish adabiy tur va janrlar badiiy yaratilishning estetik imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda o'ziga xos o'rin tutishini ko'rsatadi. Chunonchi, lirik asarda qisqalik va tuyg'uga boylik, hikoya, qissa, roman singari epik asarlarda turli hajmdagi tafsilotlar mavjudligi, dramatik bitiklarda xarakterlar to'qnashuvi keskinligi, muallif aralashuvining yo'qligi singari jihatlar asarning ifoda tarziga ta'sir qilishini anglash o'quvchilarni ijod sirlaridan bir qadar xabardor qiladi.

Adabiy asarni san'atning boshqa turlari bilan solishtirish. "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanini shu nomlardagi kinofilmlar bilan, "Ulug'bek xazinasi" romanini shu nomdagi videofilm bilan

qiyoslash har bir san'at turiga xos qirralarni anglab yetish imkonini beradi.

Shuni hisobga olish kerakki, o'quv tahlilida qiyoslash usulidan foydalanayotganda, oldin solishtirilayotgan bir narsa to'g'risida atroflicha to'xtalib, keyin boshqasi haqida fikr yuritgandan ko'ra qiyoslanayotgan obrazlar, asarlar yoki unsurlar to'g'risida parallel fikrlash samarali bo'ladi. Bunda o'quvchi chalg'imagaydi, qiyoslanayotgan bir narsa to'g'risida ko'p fikr bildirib, boshqasi haqida mulohaza yuritishga imkonsiz bo'lib qolmaydi.

Xullas, badiiy asarlarni o'quv tahliliga tortishda qiyoslash usulidan foydalanish adabiy ta'limda g'oyat ko'p qo'llaniladigan va yaxshi samara beradigan universal metod bo'lib, uni egallash adabiyot saboqlarining natijali bo'lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Соболев Н.А. Методика сравнительного анализа художественных произведений в школе. Учеб. пособие для студентов и учителей-словесников. – Смоленск, 1976. – С. 163.

2. Кудряшев Н. И. Взаимосвязь методов обучения на уроках литературы. – М.: Просвещение, 1981. – С. 195.

3. Кисилев А. К. Сопоставление как прием активизации эмоционального восприятия и интеллектуальной деятельности старшеклассников в литературном образовании. Автореф. дисс. канд. пед. наук. – Москва, 1999.

4. Царева О. И. Сопоставление на уроках литературы. <https://studylib.ru/doc/2188765/o.i.-careva--sopostavlenie-na-urokah-literatury-plan-lekcii>

BADIY ASAR TAHLILIDA O'QUVCHI FAOLLIGINI OSHIRISH MUAMMOSI

Zulxumor Mirzayeva,
ToshDO'TAU dotsenti, f.f.d.

Mutolaa – o'ziga xos g'ayrioddiy jarayon. Mutolaaning nazariy asoslari, kitobxonlik masalasi, kitobxon va matn (har qanday badiiy, ilmiy va publitsistik matn – Z.M.) o'rtasidagi munosabat haqida O'zbekistonda va xorijda qator tadqiqotlar yaratilgan [4, 6, 7, 8, 9]. Lekin milliy metodika yo'nalishida tadqiq etilgan nazariyalarning aksariyati adabiy ta'lim amaliyotiga tatbiq etilmagan.

Mutaxassislar avvallari mutolaaga passiv jarayon, ya'ni o'quvchi matn bilan ishlashda undagi yashirin ma'noni passiv qabul qiladi deb qarashgan bo'lsa, o'tgan asrning 70-yillari oxiriga kelib mutolaaga munosabat o'zgargan va uni faol jarayon sifatida talqin qila boshlaganlar. Faol jarayon o'quvchi va matnning bir-biriga o'zaro ta'siriga asoslanadi va har qanday badiiy asardan kitobxonlar o'z tafakkur sarhadi, dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, avvaldan mavjud bilimlari va badiiy asarni o'qiyotgan paytdagi ruhiy-emotsional holatidan kelib chiqib shaxsiy talqinlarini yaratadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, muayan asar yoki uning qahramonlariga munosabat kitobxonning hayotiy tajribalari sabab keskin o'zgarishlarga uchrashi ham mumkin. Masalan, 18–20 yoshlardagi kitobxonda Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romani qahramonlari Kumush yoki Otabek “ideal shaxs” sifatida tasavvur uyg'otsa, yillar o'tib oila, muhabbat, nafrat, rashk kabi tushunchalarda anchayin tajribaga ega bo'lgan 30–35 yoshli ayni kitobxon-resipient (qabul qiluvchi) endi Kumushni xudbinlikda ayblashi, Zaynabni esa “chorasiz zaifa, muhabbat qurboni” sifatida ko'rib uning harakatlarini, hatto oqlashi ham mumkin bo'ladi. Demakki, kitobxonning badiiy asarga munosabati mutlaq haqiqatlarga asoslanmaydi.

Badiiy asar idroki o'quvchi va matn o'rtasidagi kommunikativ jarayonlar natijasida yuzaga chiqadi. “Ijodkor va o'quvchi orasidagi badiiy muloqotni amalga oshirishga xizmat qilgani uchun ham badiiy asar badiiy muloqot vositasi deb tushuniladi” [1; 83-b.].

Olimlarning fikricha, badiiy matnni tushunish o'quvchining mutolaa maqsadiga bog'liq bo'ladi. Masalan, Tompkins mutolaa muayan maqsadlarga asoslanishi zarurligini ta'kidlaydi. Maqsadsiz o'qishni boshlagan yoki badiiy asarni faqat estetik zavq olish uchungina o'qigan har qanday kitobxon matndan tez zerikib qoladi [2; 9-b.]. Chindan ham badiiy asar mutolaasi avvalida “*nimani?*”, “*qanday?*” va “*nima uchun?*” kabi savollarning ko'ndalang qo'yilishi kitobxonni nafaqat asardan tez zerikishi, balki badiiy matn tahlilida o'quvchi fikrlarining hokimlik kasb etishiga, o'zi izlagan savollarga javob topishiga ham zamin yaratdi. Zotan, virtual olamda unib o'sayotgan farzandlarimiz o'z ma'naviy ehtiyojlarini aynan adabiyotdan qondirishi, shubhasiz. Adabiyot davolash vositasi bo'lmasa ham o'rgatish vositasi bo'la oladi. Chunki har qanday badiiy asarda savob va gunohlar, hayotiy yo'qotishlar, adolat, yaxshilik, yomonlik va yana bir qancha umuminsoniy jihatlar aks etgan voqealar bayon qilinadi. Keng doiradagi nuqtayi nazarlar, konsepsiyalar, munosabatlar, tushunchalar eshigini ochadiki, bu kabi voqea hodisalar

orqali o‘quvchi eng kamida o‘zini taftish etish, tahlil qilish majburiyatini his qiladi, hayot haqidagi chalkash tushunchalarning asl mohiyatini anglaydi. Ayniqsa, o‘zi sevib, ma’naviy ehtiyoji o‘laroq mutolaa qilgan badiiy asar namunasi va undan olgan xulosalari o‘quvchining hayot haqidagi qarashlari, konsepsiyalarini tartibga solishda, to‘g‘ri tushunchalar strategiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asar orqali yangi dunyoni kashf qiladi.

O‘quvchilarni adabiyotga qiziqtirish, badiiy asarni turli rakurslarda tusunishiga rag‘bat berish, ulardta plyuralistik tafakkur imkoniyatlarini kengaytirish, tahlilda o‘rganuvchi faolligini ta’minlashda **o‘qishdan oldingi faoliyat (pre-reading activity)** muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining adabiyot darsliklarida o‘qishdan oldingi topshiriqlarga deyarli e’tibor qaratilmaydi. O‘quvchilarni badiiy asarga olib kirish “asar haqida” vositasida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ayrim fikrlashdan ortda qolgan o‘quvchilarda “tushunish o‘qishdan oldin boshlanadi” yoki “matnni o‘qib bo‘lgandan keyingi savollarga to‘g‘ri javob berish – bu muayan badiiy asar mazmunini to‘liq tusunishdir”, “tushunish qayta bayon qilish” degan tasavvurlar hosil qilishi ham tabiiy. Bu holat o‘quvchilarning o‘qituvchi fikriga, yoxud “asar haqida”gi qarashlarga qaram bo‘lib qolishi barobarida matn ustida ishlash imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi.

O‘qishdan oldingi topshiriqlar kitobxondagi mavjud bilimlar va badiiy matn o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi. Bundan maqsad o‘quvchilarni o‘zlari uchun notanish bo‘lgan badiiy asar mutolaasiga tayyorlash, asarni yaxshiroq tushunishga yordam berish, ularda matnni oldindan ko‘ra olish qobiliyatini shakllantirish, asarda hikoya qilingan kontekst (tarixiy davr, geografik muhit, madaniyat) haqida tasavvur uyg‘otishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qishdan oldingi topshiriqlarni tayyorlashda, aksariyat holatlarda struktural tahlil imkoniyatlari (masalan, badiiy asarning kompozitsion qurilishi, jumladan, asar sarlavhasi, prolog, epilog, asardagi epigraflar, ilk va so‘nggi jumlar va muallifning badiiy asar kompozitsion qurilishidan kutilgan maqsadi va h.k.z.)dan foydalanish ijobiy natijalar beradi.

Masalan, o‘qishdan oldingi topshiriqlar tizimini umum o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinf adabiyot darsligiga kiritilgan, jahon adabiyotining eng go‘zal namunalaridan biri gruzin yozuvchisi Nodar Dumbadzening “Hellados” hikoyasi asosida quyidagi bosqichlarda amalga oshirish mumkin:

1. O‘quvchilar asar muallaifi va sarlavhasini o‘qiydi. (Nodar Dumbadze haqida avval eshitganmi? Nima uchun asar “Hellados” deb nomlangan? Hellados nimani anglatadi?)

2. Kitob muqovasiga berilgan illyustratsiya, jumladan muqovadagi ranglar mohiyati haqidagi mustaqil qarashlarini ifoda qiladi. (Asar muqovasidagi rasmlar nimalarni ifodalaydi? Ular asarning umumiy g‘oyasini qay darajada aks ettiryapti? Bola (Yanguli)ning chap ko‘kragiga yozilgan “Hellados” nimaga ishora? Kitob muqovasida aks etgan suv, daraxt va h.k.z. lar-chi?)

3. O‘quvchilar badiiy asarga berilgan rangli tasvirlar, kalit so‘zlari, boblarga qo‘yilgan sarlavhalar hamda hikoya hajmiga qarab asarning umumiy g‘oyasi haqida dastlabki talqinlarini berishga harakat qiladi.

Yuqoridagi savol va topshiriqlar yakunida o‘quvchilar asarning umumiy mazmuni haqidagi taxminiy fikrlarini bayon etadilar. Yoki yuqorida ta’kidlanganidek, badiiy asardagi ilk jumla (yoki jumlar), tugun yoki ekspozitsiya tahlili orqali o‘quvchilarni badiiy asarga olib kirish ham anchayin qiziq va har qanday o‘rganuvchining tahlildagi faolligini ta’minlaydi. Masalan, “Hellados” hikoyasi Jamol va Yangulining tortishuvidagi quyidagi tugun bilan boshlanadi³.

- Jamol — skripka!
- Yanguli — mishiqli!
- Jamol — cho‘chqa!
- Yanguli — ipirisqidek!
- Jamol — sassiqtake!
- Chivinbotir!

1. *SIZ BU SUHBATDAN NIMALARNI TUSHUNDINGIZ?*
2. *NEGA ASAR MANA SHUNDAY YOQIMSIZ JANJAL BILAN BOSHLANDI?*

Bunday tasvir ifodasi o‘ta real, tabiiy va o‘n yoki o‘n bir yoshdagi bola olamiga tanish vaziyat. Ular asarning ilk jumalari yoki yuqoridagi savollar yordamida dunyoqarashi, tafakkur olami, suhbatni qabul qilishdagi emotsional holatidan kelib chiqib “asar haqida” gi hokim g‘oyalar ta’siridan xoli “yangi asar”larini yaratadilar. O‘qishdan oldingi topshiriqlarning berilishi o‘quvchi, shuningdek, OTM talabalarining ham muayyan badiiy asarni o‘z hayotiy tajribalariga bog‘lab tahlil qilishi, o‘zaro fikr almashishi, tahlilda munozarali va ijodiy muhitning yaratilishiga zamin hozirlaydi. Demak, **asarni o‘qishdan oldingi (Pre-reading activities)** faoliyatda o‘qituvchilar asarning asosiy g‘oyasi va unga yondosh g‘oyalarni topishga yo‘naltiradigan savol va topshiriqlarga; o‘quvchilarni shu g‘oyani tushunishga tayyorlash uchun qanday savol va

³Amaldagi 5-sinf “Adabiyot” darsligida bu qism olib tashlangan.

topshiriqlar berish zarurligiga; boshqa fanlardan (tarix, tasviriy san'at va hokazo) qanday ma'lumotlar asarni tushunish uchun zarur yoki asarni tushunishga yordam beradigan savol va topshiriqlarning berilishiga va mazkur topshiriqlarni o'quvchilarga yetkazishdagi innovatsion usullarga e'tibor qaratishlari zarur bo'ladi.

O'quvchilarni badiiy asar mutolaasiga qiziqtirish va ularning darsda faolligini oshirishda *“kitobxon javobi” (reader response)* (ko'p manbalarda bu *reseptiv estetika* shaklida ham beriladi) yondashuvi ham juda samaralidir. Kitobxon javobi konsepsiyasi (bu yagona metodologiyaga asoslanmasligi nuqtayi nazaridan manbalarda “nazariya”, “yondashuv”, “konsepsiya” shaklida turlicha talqin qilingan – Z.M.) o'tgan asrning 70-yillarida Tompkinning “Hikoyada kitobxon” nomli kichik tadqiqoti orqali kirib kelgan [2]. Keyinchalik mazkur nazariya turli xil olimlar tomonidan rivojlantirilgan. Kitobxon javobi nazariyasi kitobxon (resipient, qabul qiluvchi) va matn munosabatlariga, matnni estetik-emotsional qabul qilishning psixologik asoslarini kuzatish orqali har bir o'quvchiga xos individual badiiy sezgilarni kashf qilishga qaratilgan. Demak, “kitobxon javobi” yondashuvi asosida ham o'quvchi faolligi yotadi. Shu nuqtayi nazardan ko'plab metodist olimlar adabiy ta'lim, xususan, badiiy asarni tushunish va adabiyotning pragmatik xususiyati, badiiy asar anglovining muvaffaqiyatli kechishida aynan mazkur yondashuv ko'proq samara berishini ta'kidlaydilar. “Mazkur nazariyaning adabiyot darslarida tatbiq etilishi adabiy ta'limda yangicha yo'nalishlarni yuzaga chiqarish barobarida badiiy asar tahlilida o'quvchi rolini qayta kashf etishda ham ahamiyatli, deb hisoblaydilar” [3; 56-b.].

Ma'lum bo'ladiki, badiiy matnni kitobxon javobi yondashuvida tahlil qilish o'quvchilarni adabiy muzokaralarga yo'naltirishda, o'qituvchining an'anaga aylangan magistral huquqini cheklashda, badiiy san'atni idrok qilish kuchini namoyish etishda ahamiyatlidir. Pragmatik ta'limning asosida bo'lgan o'quvchi hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, avvalgi bilimlari majmuyi va o'qish jarayonidagi emotsional holatlari badiiy asar tahlilida muhim faktorlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Ingliz metodist olimlari Elli Chambers va Marshal Gregoriy (Ellie Chambers & Marshall Gregory) “bugun badiiy asarlarni o'rganish avvalgidek “buni to'g'ri deb qabul qil” [5; 11-b.] (to get it right) mezonlariga mos kelmaydi, o'quvchilar badiiy asar haqidagi talqinlarini bemalol, o'z dunyoqarashi, fikrlash, tafakkur darajasiga ko'ra rivojlantira olish imkoniga egadirlar. Ammo ko'p holatlarda o'qituvchining ko'p yillar kuchli an'anaga aylangan magistral (qonuniy) huquqi o'quvchining erkin

fikrlariga daxl qilib, uni “buni to‘g‘ri deb qabul qil” (to get it right) kabi mezonlarga ergashishga majbur qiladi. Oqibatda to‘g‘ri talqinlar va badiiy matn mohiyati talabalarning fikri, yoki ularning badiiy matn haqidagi munosabati hosilasi emas, balki o‘qituvchining shaxsiy qarashlaridan paydo bo‘lgan umumiy xulosani tashkil etadi.

Demak, mutolaa shunchaki vaqt o‘tkazish yoki badiiy asardan zavq olish uchun emas, bu o‘ziga xos yuqori darajadagi strategik jarayon bo‘lib, unda o‘quvchilar bilimlarini muntazam faollashtirish va badiiya asarni adabiyotning onasi bo‘lmish hayot bilan bog‘lab o‘rganishga, asarni to‘laligicha idrok etishga, o‘quvchilarning badiiy asar haqidagi bashoratlari, xulosalari, savollari va olgan ma’lumotlarini umumlashtirishga asoslanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –Toshkent, 2012.
2. Tompkins.Jane. ed. Reader-Response Criticism. From Formalism to Post-Structuralism. Baltimore: Johns Hopkins. 1980.
3. Sonja Pfister Darlington. Literature as visual response and aesthetic experience:An alternative approach. A Dissertation Submitted to the Graduate Faculty in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree of Dotor of Philosophy. Iowa State University. – USA, Iowa, 1990.
4. Niyozmetova R.Uzluksiz ta‘lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. –Toshkent: Fan, 2007.
5. E.Chambers, M.Gregory. Teaching and Learning English literature.Sage Publications. – London, 2006.
6. Qambarova S.Umumiy o‘rta ta‘lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish texnologiyasi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2019.
7. Hülya Küçükoglu. Improving Reading Skills Through Effective Reading Strategies. Procedia_– Social and Behavioral Sciences 70:709–714. January 2013.
8. Dole J. A., Duffy G. G., Roehler L. R. and Pearson P. D. Moving from the Old to the New: Research on Reading Comprehension Instruction. // Review of Educational Research. – 1991, Vol. 61, No. 2, pp. 239–264.
9. Jessica, Marinaccio. The Most Effective Pre-reading Strategies for Comprehension. School of Arts and Sciences. St. John Fisher College, 2012.

OLIV TIL TA'LIMIDA BIR BOSH BO'LAKLI GAP SINTAKSISINI O'QITISHGA DOIR

Jumanazar Abdullayev, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU katta o'qituvchisi, f.f.n.
Abduqodirova Madina, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU 3-bosqich talabasi

Bir bosh bo'lakli gap va ularning turlarini o'qitish an'anaviy-analitik sintaksisni o'rgatishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Zero, bir bosh bo'lakli gap sodda gaplarning bosh bo'laklarning miqdoriga ko'ra bir turi hisoblanadi. Ushbu maqola ushbu turdagi gaplarni pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'limda o'qitish bilan bog'liq ayrim masalalar tahliliga bag'ishlangan.

Gap shundaki, bir bosh bo'lakli gap masalasi kesimni har qanday gapning grammatik asosi, markazi deb talqin qiluvchi bir cho'qqili sintaktik nazariya keng tarqalishi bilan an'anaviy sintaksisda dolzarblik kasb etdi. Chunki bir bosh bo'lakli gaplarning grammatik asosi ham, garchi ularning ayrimlarini egaga tenglashtirish holatlari bor bo'lsa-da, aslida kesimdan iboratdir. Ushbu maqola shu munosabat bilan yozildi.

Asosiy masalaga o'tishdan oldin dastlab o'zbek ilmiy tilshunosligining asoschisi A.G'ulomovning prof. M.Asqarova bilan hamkorlikda yozgan va o'z vaqtida qayta-qayta nashr qilingan o'zbek tili sintaktik qurilishi yoritilgan darsliklarida qayd etilgan o'z metodologik asoslari haqidagi fikrlarini keltirib o'tmoqchimiz. O'ylaymizki, u masala mohiyatini tushunishimizga yordam beradi: "Darslikning yaratilishida boy rus tilshunoslik fani, shu fanning akademik A.A. Shaxmatov, professor A.M.Peshkovskiy, akademik V.V.Vinogradov kabi mashhur olimlarning asarlari, "Grammatika russkogo yazika" kabi yirik ish, darsliklar hamda turkologiya sohasidagi ishlardan A.N.Kononovning asarlari ilmiy-nazariy asos va metodologik jihatdan asos bo'ldi" [5; 3-b.].

Bundan ayon bo'lyaptiki, o'zbek tilshunosligida gap haqidagi nazariyalar o'sha davrda yetakchilik qilgan rus tilshunosligida yaratilgan sintaktik ta'limot asosida, ularning ta'sirida shakllangan. Bu haqda mashhur tilshunos prof. A.Nurmonov shunday deydi: "Shuni ta'kidlash kerakki, gapning asosiy belgisi sifatida predikativlik e'tirof etiladi. Predikativlik rus tilshunosligida atributiv mantiq ta'sirida shakllangan ega bilan kesimning munosabati sifatida belgilandi. Gap bo'laklari ham predikativ munosabatda ishtirok e'tish darajasiga ko'ra ikki guruhga

bo‘lindi: 1) predikativ munosabatda ishtirok etadigan bo‘laklar; 2) predikativ munosabatda ishtirok etmaydigan bo‘laklar.

Birinchi guruhga gap tuzilishining asosi, zaruriy bo‘laklari hisoblandi va ular bosh bo‘laklar nomi bilan yuritildi. Atributiv mantiqda hukm a‘zolari bo‘lgan subyektga ega, predikatga esa kesim tenglashtirildi. Mantiqda predikat subyektning belgisini ifodalovchi qism sifatida qaralgani uchun grammatikada ham kesim eganing belgisini bildiruvchi bo‘lak deb qaraldi. Shundan kelib chiqqan holda gapda mutlaq hokim bo‘lak ega, nisbiy hokim bo‘lak (ikkinchi darajali bo‘laklarga nisbatan hokim, egaga nisbatan tobe qism) kesim deb hisoblandi.

Predikativ munosabat tarkibiga kirmaydigan bo‘laklar gapning konstruktiv bo‘lmagan, nozaruriy, shu sababli ikkinchi darajali bo‘laklari sanaldi.

Bosh bo‘laklar ikki a‘zo, ikki cho‘qqidan iborat, deb qaralgani tufayli, bu bo‘laklarning gapda qatnashishiga ko‘ra ular ikki guruhga bo‘lindi: 1) bir sostavli gaplar; 2) ikki sostavli gaplar”[2; 36-b.].

Demak, mantiqiy tushuncha bo‘lgan hukmning doim ikki qismdan, ya’ni sub’ekt va predikatdan iborat bo‘lishi haqidagi nazariya dastlab gapning ham shu mantiq qonuniga muvofiq ikki bosh bo‘lakli bo‘lishi lozimligi masalasini keltirib chiqargan bo‘lsa, konkret gaplarning tahlili ularning bir bosh bo‘lakli bo‘lishini ham tan olishga olib kelgan. Bu yerda mantiqiy hukm bilan grammatik-sintaktik tushuncha-gapning teng kelmasligini ko‘r-yapmiz. Shuning uchun an’anaviy sintaksisda dastlab, garchi gapning doim ega va kesimdan tashkil topishi haqidagi talqini ilgari surilgan bo‘lsa-da, keyinchalik bevosita tilning o‘zidan olingan gaplarning sintaktik tahlili natijasida gapning mantiqiy hukmdan farqli o‘laroq bir bosh bo‘lakli bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risida ham fikr yuritila boshlagan. Natijada tez orada bir bosh bo‘lakli gap sintaksisi ham ishlab chiqildi, maxsus o‘rganish ob’ekti bo‘ldi [3; 234-b.].

Biroq bu masala hali mantiqiy yakuniga yetkazilgani yo‘q. Sistem tilshunoslikda kesim markazli gap – bir cho‘qqili nazariyaning ishlab chiqilishi va amaliyotga – sintaksisini o‘qitish jarayoniga tatbiq etilishi bilan muammo yanada murakkablashdi. Zero, endi ikki bosh bo‘lakli gap termin-tushunchasiga ham, bir bosh bo‘lakli gap termin tushunchalariga ham ehtiyoj qolmadi, ularning barchasi kesim markazli gapning o‘ziga xos ko‘rinishlari qatoridan o‘rin oldi. Bu bilan egaga munosabat keskin o‘zgardi – u hokimlik, bosh bo‘laklik maqomini yo‘qotdi. O‘qitishda ham o‘z ifodasini topdi. Ushbu maqolada vaziyat taqozosiga ko‘ra shu masalaga ham munosabat bildirildi. Maqsadimiz bu boradagi muammoga

bevosita aloqador ushbu masalani yechishda ham ozmi-ko'pmi hissa qo'shish, to'g'ri yo'lni tanlashda yordam berishdir.

Dastlab sodda gap sintaksisining asoschisi A. G'ulomovning gap sintaksisini ishlab chiqish va tushunishda juda muhim bo'lgan quyidagi fikr-mulohazalariga e'tiboringizni tortmoqchimiz. Ular nafaqat ikki bosh bo'lakli, balki bir bosh bo'lakli gap sintaksisini o'qitish va o'rgatishda ham asosiy omil vazifasini o'tashini sezish qiyin emas:

“...Kesim gapning uyushtiruvchi markazlaridan biridir; u hukmni ifodalovchi, **gaplikning asosiy belgilarini ko'rsatuvchi eng muhim bo'lak bo'lganligidan, gapning mazmunini, xarakterini belgilashda katta rol o'ynaydi** (ta'kid bizniki), ega temani (gapning nima to'g'risida borishinigina) bildiradi, **shu haqda nima deyilishini, xabarni** kesim bildiradi.... Gapning eng asosiy grammatik belgisi-predikativlik gapni maydonga keltirish, fikrni ifodalash xususiyatidir. Bu jihatdan kesimning gapdagi ahamiyati juda kattadir: U kommunikatsiya (aloqa-aralashuv, xabar berish) da asosiy vazifani bajaradi. Gapda kesimning ayrim bo'lak sifatida ifodalanmay qolishi boshqa bo'laklarning ifodalanmasligiga qaraganda, juda kuchli, juda yaqqol sezilib turadi. Demak, gap tushunchasi kesim tushunchasi bilan juda zich bog'langandir”[6; 95-b.]. Prof. A. Nurmonov shu munosabat bilan shunday deydi va biz ham unga to'la qo'shilamiz: “Darhaqiqat, gapning yadrosi kesim, boshqa bo'laklar uning kengaytiruvchilari hisoblanishiga diqqat qilinsa, kengaytiruvchilar soqit qilinsa ham, kesimning o'zi gaplik belgisini o'zida saqlaydi, degan hukmni anglaymiz. Ana shunday hukm hali sintaksisda *kesimning egaga nisbatan yetakchilik qilishi haqidagi fikr ilmiy jamoatchilik o'rtasida tarqalmasdan oldinoq A.G'ulom o'qidim* tipidagi tushlangan fe'llar eng kichik gaplar ekanligi; kesim eng kichik gapga tengligi haqida bahs yuritgan edi” [2; 36-b].

Keltirilgan ma'lumotlardan ochiq-oydin ayon bo'lyaptiki, A.G'ulomov egani o'sha paytdagi hukmron sintaktik nazariyaga ko'ra mutlaq hokim bo'lak desa-da, gap haqidagi ta'limotini shakllantirishda gapning kesim bo'lagiga, kesimlik tushunchasiga alohida ahamiyat beradi. Bu bo'lakning gapni grammatik jihatdan shakllantirishda egadan ustun ekanligiga ishonch hosil qiladi va buni yuqoridagi kabi o'rinlarda alohida ta'kidlab o'tadi, gapning asosiy, bosh bo'lagi ega emas, kesim ekanligiga ishora qilganday bo'ladi. Ushbu o'rinda akademik G'.Abdurahmonovning quyidagi fikri ham bu mulohazalarda asos yo'q emasligini ko'rsatadi, deb o'ylaymiz: “Ega va kesim hakida chuqur tahlil olib borar ekan (Sodda gap, 1948 yil, 24-28-betlar), u, "ega.. mutloq hokim holatdagi elementning

nomidir”, (24-bet) deydi. Ammo asarning kesim bobida "Gapning eng asosiy grammatik belgisi predikativlikdir. Bu jihatdan kesim gapdagi asosiy bo‘lakdir" deb ta’kid-laydi (29-bet). Olimning bu fikri tilshunoslarimiz tomonidan davom etti-rilib, gapning asosiy bo‘lagi kesim ekanligi isbotlandi” [1; 6-b].

Kuzatishlarimizga qaraganda, xuddi shunga o‘xshash holat, ammo boshqacha yo‘sinda, olimning bir bosh bo‘lakli gap sintaksisi talqinlarida ham ko‘zga tashlanadi. Quyidagilar fikrimizning dalilidir: “Bir sostavli gaplarda predikativlik bir sostav, bir bosh bo‘lak bilan ifodalanadi: Katta ko‘l. Bugun stadiongga boriladi.

... Bir sostavli gaplarning shunday turlari bor: shaxsi aniq gaplar, shaxsi noaniq gaplar, shaxsi umumlashgan gaplar, shaxssiz gaplar, infinitif gaplar, nominativ gaplar.

Shaxsi aniq gaplar. Bunday gaplarda ega qo‘llanmaydi, lekin u *kesimdan aniq sezilib turadi.*(Ta’kid bizniki.) *Uch bolaning otasiman. Yur dalaga! Birga ketaylik.*

Shaxsi noma’lum gaplar. Bunday gaplarda ham ega qo‘llanmagan bo‘ladi. Bunday gaplarning *kesimi uchinchi shaxs formasidagi aniq fe’llardan bo‘ladi(kesimning uchinchi shaxs formasida bo‘lishi bir sostavli gaplarning bu turi uchun tipik hodisadir(Ta’kid bizniki.).O‘limdan qo‘rqmaganni mard deyдилar. Uning otasini Xoshim xo‘roz deyishadi.*

Shaxsi umumlashgan gaplar. Bunday gaplarning *kesimi shaxsni aniq ko‘rsatib tursa ham*(Ta’kid bizniki.), bu shaxs mazmun jihatidan umumlashgan bo‘ladi. Masalan: *Nima eksang, shuni o‘rasan.*

Shaxssiz gaplar. SHaxssiz gaplar bir sostavli gapning *egasini topish mumkin bo‘lmagan*(Ta’kid bizniki-B.H.) turidir. Shaxssiz gap egasining yo‘qligi bilan shaxsi aniq gaplarga o‘xshasa ham, lekin bular bir-biridan keskin farq qiladi. Shaxsi aniq gaplar *egasi qo‘llanmaydigan gapdir, shaxssiz gapning esa egasi bo‘lmaydi va uni topib qo‘yish ham mumkin emas, bu gapda ega hech vaqt qatnashmaydi...shaxssiz gapda umuman ega bo‘lmaydi, ya’ni faraz qilinmaydi*(Ta’kid bizniki):Bugun sayohatga boriladi. Topshiriqni o‘z vaqtida bajarish kerak. Mana buni urush deb aytadi. Bugun keltirilsa, iltimos.

Nominativ gaplar. Bu gaplar keng ma’noda atov gaplardir; bunday gaplar biror predmet yoki hodisaning hozirgi momentda mavjudligini ko‘rsatadi, shu mavjudlik faktini tasdiqlaydi. Masalan: Ko‘klam. Qorlar erigan. Ko‘z. Paxta terimi boshlandi.

Biror narsani atashning o'zi gapni hosil qilmaydi: gap uchun predikativlik va tugallangan intonatsiya shart. Nominativ gapda predikativlik maxsus yo'l bilan ifodalanadi, unda gapga xos intonatsiya bo'ladi, u biror predmetning atalishinigina ko'rsatmaydi, balki shu predmet-hodisaning mavjudligini tasdiqlaydi. Ko'z. Paxta terimi boshlandi. (*Kuz* gapi "Kuz faslidir", "Kuz keldi" degan mazmuni bildiradi. Demak, biror ot (yo otlashgan so'z) yoki birikma (*oltin kuz, bahor tongi*) predikatsiya ifodalagandagina gap bo'ladi (buning gapligi o'zidan avvalgi yo keyingi gaplar bilan bog'lanishidan, situatsiyadan, umuman kontekstdan, intonatsiyadan bilinadi), boshqa hollarda gap sanalmaydi.

Vokativ gap. Bunday gaplar undash-xitob qilish bilan birga, hayratlanish, shodlik, ta'na kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Vokativ gap ayrim intonatsion xususiyatga ega bo'lib, intonatsiya yordami bilan mazmuni murakkablashgan – har xil ma'no ottenkalarini (g'azab, ajablanish, shodlik, yalinish, taqiqlash, ehtiyotlikka chaqirish, o'pka-gina, ta'na, afsus kabi ottenkalarni) ifodalaydigan, predikativlikka, intonatsion tugallikka ega bo'lgan-ayrim gap tusidagi undalmandir. Masalan: *Opa, majlisga ketayotibsizmi? Bola sigirning ipini uzib, ekinga tushganini ko'rib juda hayron bo'lib, shoshib qoldi va baqirdi: "Opa!"* Birinchi misoldagi *opa* odatdagi undalma, ikkinchi misoldagi *opa* esa oddiy undalmaga qaraganda boshqacha intonatsiya bilan aytilib, uning undalish mazmuniga qo'rqish, hayronlik, chora ko'rishga chaqirish, yalinish, kabi ma'nolar qo'shilgan. SHu ikkinchi misoldagi *Opa!* "Vokativ gapdir" [5].

Keltirilgan tahlil materiallaridan ko'rinib turibdiki, olim bir bosh bo'lakli gap tal-qinining boshida ushbu gap turini "Bir sostavli gapning turlari ega sostavidan iborat bo'lgan bir sostavli gap, kesim sostavidan iborat bir sostavli gap deb ajratilmaydi, chunki bunda bir-biriga nisbat beriladigan sostavlar yo'q, predikatsiya birgina sostav bilan ifodalangan; bu yerda bir-biriga nisbatan belgilanadigan ega-kesim yo'q" [4; 18-b.] degan fikrni bildirsa ham, amalda bu turlarning ichki turlari tavsifida bunday gaplarning kesimdan iborat ekanligini ko'rsatib o'tadi. Hatto yuzaki qaraganda, o'z grammatik xarakteriga ko'ra egani yoki ega sostavini eslatib turadigan atov gaplar talqinida ham predikativlikka alohida e'tibor beradi, ularning biror predmetning atalishinigina ko'rsatmasligini, balki shu predmet-hodisaning mavjudligini tasdiqlashini alohida ta'kidlaydi. Bunday xususiyatning kesimga taalluqli ekanligini hisobga olsak, bu yerda faqat kesim degan so'zgina ishlatilmaganini sezish qiyin emas. Boshqa

tavsiflarning barchasi kesim bo‘lakning belgi-xususiyatidan farq qilmaydi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, A. G‘ulomov bunday gaplarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri egasiz gap deb atamaydi, egani yoki ega sostavini eslatib turadi, deydi va ularning yuqoridagi kesimga monand tavsifini beradi.

Demak, A. G‘ulomov atov gaplarning grammatik asosi ham mohiyatan predikativ bosh bo‘lak, ya‘ni kesim ekanligini sezgan. Shuning uchun yuqoridagi kabi yo‘l tutgan deb o‘ylaymiz. Bu ham olimning nihoyatda teran fikr yuritishidan, bir bosh bo‘lakli gap sintaksisida ham predikativlikka va uni ifodalovchi asosiy bo‘lak kesimga urg‘u berganligini yana bir bor tasdiqlaydi. Bir bosh bo‘lakli gap sintaksisining amaldagi talqinlari ham bu qarashlarining noto‘g‘ri emasligini, olimning uzoqni ko‘ra bilganini ko‘rsatib turibdi. Demak, bir bosh bo‘lakli gaplarni o‘qitishda bu bo‘lakning, nima bilan ifodalanishidan qat‘i nazar, kesim ekanligini ta‘kidlash talab etiladi. Haqiqatan, gap fikr ifodalovchi sintaktik birlik ekan, bir bosh bo‘lakli gaplarda bu bo‘lakning doim kesim bo‘lib kelishi sintaktik qonuniyatdir.

Shu sababli bir bosh bo‘lakli gaplarning barcha turini kesimdan iborat gaplar sifatida talqin qilish va o‘qitish maqsadga muvofiqdir. Ularning bir paytlardagidek [3; 18-b.] kesimsiz gaplar deb atalishi sintaktik ilmning bugungi taraqqiyot bosqichiga ham, hatto atributiv mantiqqa ham to‘g‘ri kelmaydi. Chunki hukmda subyektning belgisi predikat orqali ifodalanadi. Shunga ko‘ra bu borada bir cho‘qqili, ya‘ni kesim asosli nazariyaga o‘tmagan, uni tan olmagan biron rivojlangan milliy tilshunoslikni topish qiyin. Mabodo topilsa ham bu uning o‘tgan asrning 30–40-yillarida rivojlanish boqichida ekanligini yoki o‘sha darajada qolib ketganligini ko‘rsatadi, deb o‘ylaymiz. Nazarimizda, aslida, an‘anaviy sintaksisda bir bosh bo‘lakli gap sintaksisining ishlab chiqilishining o‘ziyoq gapda, gapning mazmuniy va shakliy tuzilishida asosiy gap kesimda, kesimlilikda ekanligining isbotidir. Yuqoridagilarga ko‘ra, bir bosh bo‘lakli gaplarni o‘qitishni qayd etilgan nazariy asoslar, ilmiy-metodik tamoyillardan kelib chiqib tashkil etish talabalarga gap sintaksisini o‘rgatishda sifat va samaradorlikni ta‘minlashning muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмонов Ф. А. Фуломов ва ўзбек тилшунослиги баъзи масалалари // А. Фуломов ва ўзбек тилшунослиги масалалари. (илмий мақолалар тўплами) –Т., 2007.
2. Нурмонов А. Гап ва унинг бўлаклари ҳақида мулоҳазалар // ЎТА, 2009. 2-сон.
3. Расулов И. Ҳозирги ўзбек тилида бир составли гаплар. – Тошкент:

Фан, 1974. – 234 б.

4. Ғуломов А. Содда гап. – Тошкент: Фан, 1955.

5. Ғуломов А. Ғ., Асқарова М. Ҳозирги замон тили. Синтаксис. – Т., Ўрта ва олий мактаб, 1961.

6. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Т., 1987.

O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA HAJVIYLIKNING SHAKLIY IZLANISHLARDAGI BADIY – ESTETIK AHAMIYATI

Jo‘rayeva Gulnoza,

ToshDO‘TAU dotsenti, f.f.n.

Mamlakatimiz istiqlolga erishgach, ijtimoiy hayotning ko‘pgina sohalarida bo‘lgani kabi ma‘naviy madaniyatimizni isloh qilish va yangilash jarayoni boshlandi. Bu esa adabiyot va san‘at sohasida ham tub islohotlar va yangilanishlarni amalga oshirish uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirdi. Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoev 2016-yil 14-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqida: “... *bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimizning ulkan intellektual va ma‘naviy salohiyatidir*” [1] – deb ta‘kidladi. Darhaqiqat, adabiyot va san‘at xalqimizning ma‘naviy boyligi sifatida e‘zozlanayotgan bugungi kunda ijodkorlarimiz xilma-xil yo‘nalishlarda izlanishlar olib borishmoqda. Natijada bugungi o‘zbek adabiyotida yangicha uslub, o‘ziga xos qahramon, shakl va ifoda usullari kuzatila boshlandi. Bu fikrlar adabiyotimizning tarkibiy qismi hisoblangan bolalar adabiyotiga ham taalluqlidir.

So‘nggi davr o‘zbek bolalar she‘riyatidagi xilma-xil poetik izlanishlar o‘z samarasini bera boshladi. Bu davrda, ayniqsa, hajviy xarakterdagi eksperiment she‘rlar ko‘paydi. Shoirlar nafaqat harf va tinish belgilar, balki matematik amallar, husnixat, darslikda mavjud bo‘lgan va dars jarayonida faol qo‘llanadigan so‘z va rasmlardan, raqam va har xil shakllardan ham samarali foydalanib she‘rlar yaratmoqdalar. Bu she‘rlar o‘quvchililarni topqirlikka, bilimdonlikka undaydi, zehni oshirib, tasavvur olamini kengaytiradi, kitobxonga “yaxshi o‘qi – chiroyli yoz” degan quruq pand-nasihatdan ko‘ra kuchliroq ta‘sir ko‘rsatadi.

Bu jihatdan T.Adashboyevning “To‘rt amaldan – bir amal”, “O‘n ikki varaq daftar”, X.Imonberdiyevning “2-sentabr “, “Qiyin misol”, “G‘alati Omon “, Anvar Obidjonning “Ko‘chalar”, “Siz eshitmagan qo‘shiqlar”

turkumiga kiruvchi, Q.O'tayevning "Fil, Karkidon, Begimotlar", "Ho'kiz", "Xo'roz", "Echki bilan suhbat", Dilshod Rajabning "Sport maydonida", "Minnatdorlik", "Guvoh", "Topishmoq she'r", "Futbol" kabi ko'plab shakl she'rlari, Abdurahmon Akbarning raqamli she'rlari xarakterlidir.

T.Adashboyev she'rlarida hajv ma'rifiy mazmuni o'ziga xos badiiy lavhalarida aks ettirishga xizmat qiladi. Jumladan shoir "Muharramning mashg'uloti" she'rida bolalarning taqlidchilik xususiyatlaridan mohirlik bilan foydalanadi. Odatda, bolalar har doim kattalarga taqlid qilib ulg'ayishadi. Bu xususiyat o'z vaqtida G'afur G'ulomning "O'ylashni o'rganamiz" [2; 285– 86-b.] she'rida o'z ifodasini topgan edi. Ma'lumki, bolalar eng ko'p taqlid qiladigan kishilar doimiy muloqotda bo'ladigan ota-ona va o'qituvchilardir. Binobarin G'afur G'ulom she'rida bolalar ota-onaga taqlid qilishsa, T.Adashboyev she'rida muallimlarga taqlid qiladi.

She'rda Muharram qo'g'irchoqlarini devorga suyab qo'yib, o'zi o'qituvchi bo'lib dars o'tadi. Ularga daftar tarqatib yozma ish oladi. Shoir Muharramning o'qituvchiga taqlidini nutqiy detal orqali tasvirlay olgan:

*O'qir dona- donalab:
"Har do-im bo'lsin onam
Har do-im bo'l-sin qu-yosh,
Har do-im bo'-lay men ham*

(“Uch bo'taloq va sirli qovoq” 25-b.)

Shoir she'rda shu tarzda Muharramning bo'g'inlab, donalab o'qishi orqali dars epizodi manzarasini poetiklashtiradi. Biroq bu hali she'r degani emas. Shoirning mahorati she'r yakunida Muharramning "faoliyati"ga ustalik bilan mazmunini kuchaytira olishida ko'rinadi.

"Yozma ish" olib bo'lgan Muharram ularni yig'ishtirib olib, bir chekkadan baholaydi:

*Quloq solmas va kirmas
Tanish bilish so'ziga.
Ko'plar oldi "ikki" "uch"
"Besh" ni qo'ydi o'ziga.*

Ko'plarning "ikki" , "uch" olishi-yu , Muharramning o'ziga "besh" qo'yishi bolalik olamidagi o'ziga xos yumoristik talqinidir. Ayni shu talqin shoir bola ruhiyatining to'liq tasviriga erisha olgan. She'rning ma'rifiy-estetik qimmatini ham ana shunda.

"O'n ikki varaq daftar" she'rida esa endi xususiyatni mashq qilayotgan kichkintoylarning xarakter xususiyatlarini hajviy kulgi asosida tasvirlagan. Odatda, bu yoshdagi bolalar agar yozuvi chiroyli chiqmasa yoki odatlaridan mohirlik bilan foydalanib "Lola, osh, ol" kabi alifbe

darsligidagi mavjud bo‘lgan so‘zlarni yozish jarayonining badiiy manzarasini yaratadi. She’rda bolalarning ifloslangan varaqlarni yirtish odatlari quyidagicha tasvirlanadi. Varaqqa siyoh tomib kirlansa, o’sha varaqni yirtib tashlab yangidan boshlashadi. Bu bolalikka xos odat bo‘lib, shoir bolalarning ushbu

*“Lo-la” oshni olmasdan
“A” qulog‘in qayirdi.
“O” harfi tushgach qasddan
Darhol yirtdim, ayirdim.
Nosir nay partadoshim
Barmoq bosdi, kir qildi.
– Afsus, – dedi Abduhoshim
Yana uch bet yirtildi.
O‘n ikki varaq daftar
Xolis xizmat etmadi
“Lo-la, osh, o-l” so‘zini
Yozish uchun yetmadi.*

(“Uch bo‘taloq va sirli qovoq”, 31-b.)

“Hali yoshda” she’rida Mukambarning darsda doskaga chiqib misolni yecha olmasligi, o‘qituvchi Sodiq akaning qancha ukang bor, degan so‘rog‘iga oltita, deb javob berishi va undan keyingi savol-javoblar orqali samimiy kulgili vaziyat vujudga keladi. Ushbu she’rda Mukambarning o‘zini tutishi, soddaligi o‘quvchiga beg‘araz kulgi ko‘zlaydi:

Lekin oddiy misolni – *Oltita.*
Yecholmadi Mukambar. – *Ular birdan konfet yesa,*
Sodiq aka so‘rab qoldi: *Bo‘lar nechta?*
– Aytchi, qancha ukang bor? – *Beshta.*
– *Hech-da*
Shoshilmasdan o‘yla boshda.
– *Bitta ukam konfet yemas,*
hali yosh-da...

(“Uch baqaloq va sirli qovoq”, 24-b.)

She’rda bolalarning kundalik hayotiga xos bo‘lgan dars jarayonining o‘qituvchi-o‘quvchi savol-javoblari asosiga qurilishi, qalamga olingan holatning tanishligi, bir qarashda, kichik kitobxonning diqqatini o‘ziga tortmaydigandek taassurot qoldiradi. Ammo kitobxon nazarida o‘qituvchi savollariga Mukambar javoblari sehrli tayoqcha vazifasini banajaradi. Zero, she’rda mantiqsizlik (aslida uning javoblari mantiqiy asosli) kulgi qo‘zg‘atadi, chunki mantiqan olib qaraganda, konfetlar soni

Mukambarning ukalari soniga teng bo‘lishi kerak edi. Masala yechimdagi ushbu ziddiyatli holat o‘quvchi qalbiga kulguga aylanadi. Kitobxon Mukambarning misolni yecha olmaganidan emas, balki bitta ukase konfet yeya olmaydigan darajadagi kichkina ekani bois konfetlar soni “beshta” deb javob berayotganidan zavqlanib kuladi. She’rning badiiy-estetik qimmatini xam ana shunda.

Bolalarni ma’rifatli qilishda, estetik didlarini tarbiyalashda topishmoq she’rlarning ham ahamiyati katta. Zero, topishmoqlar xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy janrlaridan biri sifatida azal-azaldan bolalarning ham ma’naviy olamini boyitishda xizmat qilib keladi. Chunki, “topishmoqlarda kishilarni qurshab turgan olam doimo rivojida xarakatida butun rang-barangligi bilan namoyon bo‘ladi. Bolalar topishmoqlarni topishda qatnashar ekan, o‘zini qurshab turgan olamni kuzatishlari, tabiat hodisalarini bilib olishga, ularga bo‘lgan o‘zini munosabatini bildirishga o‘rganadilar” [3; 52-b.]. Topishmoq – she’r yozish an‘anasi so‘ngi davr bolalar she’riyatida ham izchil davom ettirilmoqda. Shu jihatdan Abdurahmon Akbar yaratgan topishmoq she’rlar xarakterlidir.

Shoir alifbo tartibida har bir harfga bag‘ishlab topishmoqli she’rlar yaratgan, unda tasvirlanayotgan buyum va narsa-hodisalarini bolalar turmush tarzida faol qo‘llanishiga, ularning yoshi, saviyasi mosligiga qarab tanlaydi. Shuningdek, shoir she’rda ma’rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga ham katta e’tibor qaratadi. Masalan “Y” harfiga bag‘ishlanadigan topishmoq shunday ifodalanadi:

*Sakkiz jondan kichik man,
Oltidan katta. Kunlar menga yetganda,
Tugaydi hafta*

(“Ehtiyotkor toshbaqa”, 82-b.)

Ko‘rinadiki, topishmoqda “yetti” raqamining obrazlashgan surati jonli tarzda chizilmoqda.

“V” bag‘ishlangan topishmoqda esa varrakning eng xarakterli xususiyatlari quyidagicha tasvirlanadi:

*Parraksiz ham osmonda
Parvoz etaman.
Tortmay tursang ipimdan
Oyga yetaman.*

(“Ehtiyotkor toshbaqa”, 81-b.)

Bunday she’rlar bolalar ruhiga nihoyatda yaqinligi bilan ajralib turadi. Shoir har bir harf ishtirok etgan so‘zning jumboqli jihatlarini ochishda unga xos xarakterli xususiyatlar tasvirini chizish bilan bir qatorda

ifodalanayotgan fikrning quvnoq va samimiy, sodda, ravon, tabiiy bo'lishiga ham katta e'tibor qaratdi. Bu esa bolalarda jumboq she'rlarni o'qishda ishtiyoqini oshiradi, yosh kitobxon ma'naviyatiga ta'sir etadi. "Topishmoqli alifbe" she'rining "X" harfiga bag'ishlangan yakunlovchi she'rida bu hol, ayniqsa, yaqqol ko'zga tashlanadi.:

*O'zligini tanittirar,
So'zlaringni tanittirar,
Hayrat, hayol eshiklarin
Ochar kelgach fursati.
Hozir esa jumboq bo'lib
Bo'yin ko'rsatdi xolos,
O'ttiz uchta tovushning
O'ttiz uchta surati.*

(“Ehtiyotkor toshbaqa”, 87-b.).

Umuman, bunday she'rlar bolalar she'riyati rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu she'rlar yosh kitobxonlarning adabiy-estetik didini shakllantirishga xizmat qiladi. Bolalarda go'zallikni his qilish, yomonlikdan tiyila olish tuyg'ularini kamol toptiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Xalq so'zi. // 2016-yil 16-dekabr.
2. Гафур Гулом. Мукаммал асарлар тўплами. 12 жилдлик. Ж.3. – Т.: Фан, 1984.
3. Жахонгиров Ф. Ўзбек болалар фольклори. – Т: Ўқитувчи, 1975 .

TIL PEDAGOGIKASIDA O'ZBEK TILI TA'LIMIY KORPUSINING AHAMIYATI

Nilufar Abduraxmonova,
ToshDO'TAU Axborot texnologiyalar kafedrasida
dotsent v.b. f.f.d.(PhD)

Endilikda ta'lim sohasida raqamli texnologiyaning turli dasturiy ta'minotlarisiz tasavvur qilish mushkul. Globallashuv davrida ta'lim olish uchun hech qanday omil to'siq bo'la olmasligini sharoitning o'zi taqozo etmoqda. Ta'lim olishga yo'naltirilgan elektron resurslar va platformalar foydalanuvchilar uchun katta imkoniyat yaratib beradi. Ayniqsa, til ta'limida o'qituvchi va o'rganuvchi uchun internet muhim ma'lumotlari

manbayi bo‘lib, bunda kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanish va internet tizimiga ega bo‘lishning o‘zi kifoya. Biroq ta‘limning o‘ziga xos metodologik, pedagogik va psixologik omillari ham, albatta, hisobga olinishi kerak. Aks holda, foydalanuvchi o‘ziga zarur bo‘lgan resursni topolmasligi yoki topgan taqdirda ham undan unumli ravishda foydalana olmasligi mumkin.

Shu o‘rinda 1980-yillarning o‘rtalarida til pedagogikasida, ayniqsa, lingvistika va til ta‘limi uchun korpusga asoslangan yondashuv faol qo‘llanila boshlanganligini qayd qilish o‘rinli. Endilikda korpusdan foydalanish lingvistikaning deyarli barcha tarmoqlari (*sotsiolingvistika, tarjima amaliyoti, pragmalingvistika, diaxron lingvistika* va boshq.), shuningdek, tilning barcha sathlari uchun (fonetika, leksikologiya, morfologiya va sintaksis) hamda til pedagogikasiga oid tadqiqotlar uchun ilmiy metodologik usul sifatida amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Til pedagogikasida korpusni amaliy jihatdan tatbiq etish borasida har ikki yilda o‘tkaziladigan aynan korpus texnologiyasiga doir konferensiyalar 1990-yillardan boshlab Lankaster, Oksford, Grats, Bertinoro, Granada, Parij va Lissabonda o‘tkazilib kelinmoqda hamda olimlar tomonidan qizg‘in muhokamaga sabab bo‘lmoqda. Xususan, Lich o‘z tadqiqotlarida korpus tilni o‘qitishga doir fikrlarini quyidagicha tasniflaydi [2]: til o‘qitishda korpusdan foydalanishning bevosita va bivosita usullariga alohida urg‘u beradi. Unga ko‘ra bevosita foydalanishda ta‘limda korpus orqali nashrlarga ilova qilish, o‘quv materiallarni rivojlantirish, til bo‘yicha olingan bilimlarni tekshirish nazarda tutilsa, bevosita foydalanishda muayyan darajada tilga o‘qitish uchun manbalardan va korpusdan qanday foydalanishni o‘rgatishni nazarda tutadi. Ta‘limiy korpus shu jihatdan maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan korpus, ona tili sifatida tilni o‘qitishga mo‘ljallangan rivojlantiruvchi korpuslar, ikkinchi yoki xorijiy til sifatida o‘qitishga yo‘naltirilgan korpuslarga tasniflanadi.

Korpuslar til pedagogikasida tilni nafaqat ona tili sifatida o‘qitish, balki tilni ikkinchi til yoki xorijiy til sifatida o‘qitishda amaliy ahamiyatga egaligi bilan muhim sanaladi. Ayniqsa, tilni o‘rganishda lug‘at masalasiga alohida e‘tibor qaratilmog‘i kerak. Masalan, 1987-yilda nashr ettirilgan Collins COBUILD English Language Dictionary (Sinclair, 1987), shuningdek, 1995-yillargacha chop etilgan Longman Dictionary of Contemporary English (3rd edition) (Longman, 1995), the Oxford Advanced Learner’s Dictionary (5th edition, Hornby & Crowther, 1999), the Cambridge International Dictionary of English (Procter, 1995) kabi

lugʻatlar toʻliq korpusga asoslangan tavsifiy misollar bilan boyitilgani va soʻzlarga berilgan izohlar korpusda anglashilgan kontekstga oid maʼnodan kelib chiqilganini koʻrishimiz mumkin.

Bizning nazarimizda, tilni oʻrganishda quyidagi jihatlarga eʼtibor qaratilmogʻi lozim (1-rasmga qarang).


Shu oʻrinda, korpus lingvistikasining oldida tilga oʻqitishga va uni oʻrganish uchun taʼlimiy korpusning loyihasini qanday tashkillashtirish kerak, degan masala dolzarb sanaladi. Dunyoda turli tillarning korpuslari mavjud va uning foydalanish auditoriyasi va qoʻllanilish koʻlami turlicha. Shu nuqtayi nazardan ikki maqsadga yoʻnaltirilgan oʻzbek tilining taʼlimiy korpusi yaratilishi maqsadga muvofiq:

1) mahalliy auditoriya uchun, yaʼni oʻzbek tilini ona tili sifatida oʻrganishga moʻljallangan korpus;


2) oʻzbek tilini ikkinchi til yoki xorijiy sifatida oʻrganish va taʼlim berishga moʻljallangan korpus.

Bu borada dunyo tajribasiga tayanish va eng munosibini oʻzbek tili uchun joriy etish maqsadga muvofiq. Masalan, PELCRA korpusi ingliz tilini xorijiy til sifatida oʻqitishga yoʻnaltirilgan korpus boʻlib, ushbu korpus Polsha universiteti talabalari tomonidan turli darajada yozilgan esselardan tashkil topgan. Nemiszabon talabalar tomonidan ingliz tilida yozilgan esselardan iborat ICLE korpusida talabalar essenini yozishda monolingval lugʻatlardan foydalanib, matn tuzishda yuqori natijalarga erisha olishgan. Tilni qiyosiy aspektida oʻrganishda ingliz-portugal parallel matnlardan tuzilgan COMPARA korpusini keltirish oʻrinli. Negaki har ikki tilda qoʻllanilgan parallel konkordanslar yordamida tilda uchraydigan lingvistik oʻzgarishlarni kuzatish, tahili qilish va baholash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, FOR korpusi Cobuild loyihasi asosida chastotaga asoslangan lugʻat va grammatikadan tuzilganligi bilan ajralib turadi.

1-rasm



Tilni ikkinchi til yoki xorijiy til sifatida o‘rganish va o‘qitishga mo‘ljallangan korpus hamda lingvistlar uchun mo‘ljallangan korpuslar o‘rtasida tafovut bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra korpusda jamlangan *matnlarning mazmuni, mavzu ko‘lami, til va nutqning ifoda shakli* ham bir-biridan farqlanadi. O‘zbek tilining elektron korpusi yaratilmagan bo‘lsa-da, muayyan darajada tayyor instrumentlardan foydalanish mumkin: AntConc, SketchEngine kabi. Biroq korpus tahliliga mo‘ljallangan tayyor instrumentlar tilning o‘ziga xos lingvistik xususiyatlarini inobatga olmaydi. Ayniqsa, so‘zlarning tokeni (so‘zshakllari) morfologik analiz uchun mos kelmay, muayyan til birligiga doir morfologik ma’lumotlarga ega emas. Masalan, o‘zbek tilidagi morfologiya sohasida so‘zlarning grammatik shakllariga alohida urg‘u berilishi kerak. Negaki, bu orqali so‘zlarning chastotasiga ta’sir etadi. Tayyor holdagi AntConc instrumenti qidirilayotgan so‘znigina hisobga olib, o‘zbek tilidagi ushbu so‘zga tegishli so‘zlarning grammatik shakli hisobga olinmagan. Masalan, *bor* leksemasi ushbu instrumentda fe’ning buyruq shakli hamda *mavjud* degan ma’noda kelgan o‘rinlarinigina qidiruv interfeysi ko‘rsatib beradi. Biroq uning morfologik jihatdan korpusda berilgan matnlardagi shakllarining (*borgan, borganman, borganmanmi, bormaganman, bormaganligimdan* va h.k.) turli-tuman bo‘lishi va semantik xususiyatlari inobatga olinmagani bois o‘zbek tilining korpusini yaratishda kompyuter modeli sifatida bunga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiq.



Shu o'rinda kompyuter lingvistikasi oldida o'zbek tili korpusining morfologik analizatori va korpusga kiritiladigan matnlar mundarijasiga jiddiy e'tibor berilishini taqozo etadi. Tadqiqot natijalarimizda ikki darajali morfologik analizatoridan foydalangan holda o'zbek tilidagi mavjud leksemalarni korpusda berilgan tokenlar bo'yicha quyidagicha chekli avtomat transyuteri orqali analiz qildik va undan ayrim namunalarni keltiramiz:

shahar+NOUN+SG+PP1+PSG+NOM+PART:shahringachami
shahar+NOUN+SG+PP1+PSG+NOM+PART:shahringacha-ku
shahar+NOUN+SG+PP1+PSG+NOM+PART:shahringacha-ya
shahar+NOUN+SG+PP1+PSG+NOM+PART:shahringacha-chi
shahar+NOUN+SG+PP1+PSG+NOM+PART:shahringacha-da
shahar+NOUN+SG+PP1+PSG+NOM:shahringacha
shahar+NOUN+SG+PP1+PSG+NOM+PART:shahrimmi
shahar+NOUN+SG+PP1+PSG+NOM+PRED+P2+SG+PART:shahrimsan
mi
shahar+NOUN+SG+PP1+PSG+NOM+PRED+P2+SG+PART:shahrimsan
-ku
shahar+NOUN+SG+PP1+PSG+NOM+PRED+P2+SG+PART:shahrimsan
-a
shahar+NOUN+SG+PP1+PSG+NOM+PRED+P2+SG+PART:shahrimsan
-da
shahar+NOUN+SG+PP1+PSG+NOM+PRED+P2+SG:shahrimsan
shahar+NOUN+SG+PP1+PSG+NOM+PRED+P2+SG+FORM+PART:sha
hrimsizlarmi
shahar+NOUN+SG+PP1+PSG+NOM+PRED+P2+SG+FORM+PART:sha
hrimsizlar-ku
shahar+NOUN+SG+PP1+PSG+NOM+PRED+P2+SG+FORM+PART:sha
hrimsizlar-a
shahar+NOUN+SG+PP1+PSG+NOM+PRED+P2+SG+FORM+PART:sha
hrimsizlar-chi
shahar+NOUN+SG+PP1+PSG+NOM+PRED+P2+SG+FORM+PART:sha
hrimsizlar-da
shahar+NOUN+SG+PP1+PSG+NOM+PRED+P2+SG+FORM:shahrimsiz
lar
shahar+NOUN+SG+PP1+PSG+NOM+PRED+P2+SG+PART:shahrimsiz
mi
shahar+NOUN+SG+PP1+PSG+NOM+PRED+P2+SG+PART:shahrimsiz-
ku

shahar+NOUN+SG+PP1+PSG+NOM+PRED+P2+SG+PART:shahrimsiz-
a

shahar+NOUN+SG+PP1+PSG+NOM+PRED+P2+SG+PART:shahrimsiz-
da.

Natijada korpus interfeysida qidirilayotgan soʻzning barcha grammatik belgilarini izlash, oʻqituvchi va oʻrganuvchilar uchun ancha qulayliklar yaratishi bilan birga oʻzbek tili haqida chuqurroq tasavvur uygʻotishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Douglas Biber, Randi Reppen The Cambridge Handbook of English Corpus Linguistics Cambridge University Press, 2015.
2. Tony McEnery and Richard Xiao What Corpora Can Offer in Language Teaching and Learning, 2007.
3. Eileen Fitzpatrick Corpus Research from Phrase to Discourse Amsterdam – New York, NY, 2007.

IJODKOR TARJIMAYI HOLINI OʻRGATISHDA OʻQUVCHI YOSH XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH

Muhayyo Ismoilova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDOʻTAU oʻqituvchisi, f.f.n.

Umumiy oʻrta taʼlimda ijodkor tarjimayi holini oʻrgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kechim ikki maqsadda amalga oshiriladi:

birinchidan, adiblar millatning eʼtiborida turgan isteʼdodli va oʻziga xos kishilar boʻlgani uchun ularning shaxsiy hayoti va tabiati oʻquvchilar uchun gʻoyat qiziqarlidir. Ular shaxsiyatida ibratli jihatlar mavjud va ular oʻquvchilar uchun **maʼnaviy namuna** maktabi boʻladi.

ikkinchidan, adiblarning tabiati, feʼl-atvori, bosib oʻtgan hayot yoʻli ularning maktabda oʻrgatiladigan asarlarida oʻz nuqsini qoldirgan. Binobarin, ijodkorlarning hayot va ijod yoʻllari hamda shaxsiyatlari borasidagi maʼlumotlar ularning asarlarini tushunishga **kalit**, u yoki bu personajning tasvir yoʻsinini izohlash, yozuvchi uslubiga xos jihatlarni aniqlash omili hamdir.

Didaktik tahlil natijasida maktabda oʻrgatiladigan badiiy asarlardan hayotiy va badiiy xulosalar chiqarishga imkon yaratiladi. Badiiy matnni toʻgʻri tushunish, uning turli jihatlari yuzasidan asosli toʻxtamga kelish uchun, avval, yozuvchining inson va ijodkor sifatidagi pozitsiyasini anglash kerak boʻladi. Buning uchun esa ijodkorning hayot hodisalari,

insonlararo munosabatlar va ijtimoiy voqelikka munosabat yo'sini bilan tanish bo'lish talab etiladi. Buning uchun esa yozuvchining umr yo'lidan xabardor bo'lish kerak. Shundagina u yoki bu hayotiy hodisaga adibning munosabati va uning asardagi tasviriga to'g'ri izoh beriladi.

Shuni aytish kerakki, maktab adabiy ta'limida yozuvchi biografiyasiga tegishli ma'lumotlar, ma'um darajada, boshlang'ich sinflarda ham beriladi. Ammo boshlang'ich sinf va o'rta maktabning birinchi bo'g'ini (5–7-sinflar)dagi o'quvchilarning ijodkor tarjimayi holini o'rganish jarayoni, yuqori sinfdagi o'spirinlarga adib umrbayonini o'rgatishdan jiddiy farq qiladi. Negaki, boshlang'ich sinf o'quvchilari badiiy asar bilan uning yaratuvchilari orasidagi bog'liqlikni deyarli payqamaydilar. Binobarin, bu sinflarda kichik o'quvchilarga ijodkorlarning hayot yo'li haqida ma'lumotlar berish katta samara keltirmaydi. Bu sinf o'quvchilari berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirib olishlari mumkin. Lekin ularni na adib shaxsiyati va na uning asarlari bilan bog'lay oladilar.

Adabiyot o'qitishning ikkinchi bosqichi birinchi bo'g'ini bo'lmish 5–7- sinflarda ijodkor umrbayonini o'rgatishga ma'rifiy xabardorlik usulidan tashqari, ma'naviy namuna tarzida ham qarash kerak bo'ladi. Negaki, bu yoshdagi o'quvchilarda har bir shaxsga doir ma'naviy-axloqiy sifatlarga maksimal darajada talabchanlik bilan yondashiladi. O'smirlar o'z shaxsiyatlaridagi kamchiliklarni ko'rmaydilar va ayni vaqtda, o'zgalardagi nuqsonlarni kechirmaydilar ham.

Adabiyot o'qitishdagi har qanday boshqa tadbir singari, ijodkor tarjimayi holini o'rgatishda ham o'quvchilarning yosh xususiyati va ruhiy taraqqiyotlari aniq hisobga olinishi kutilgan pedagogik samarani beradi. Umuman, barcha metodistlar bu borada bir fikrda bo'lsalarda, yozuvchi tarjimayi holini o'rgatishda o'quvchilarning yosh va ruhiy darajalari qanday hisobga olinishi kerakligi, ya'ni masalaning ilmiy-nazariy qo'yilishidan tashqari, uning tashkiliy-amaliy jihatlari qanday bo'lishi lozimligi borasida fikrlar umumiyiligiga erishilmagan.

S.Dolimov adabiyot o'qitishdagi har qanday tadbir kabi, adib umrbayonini o'rgatish ham o'quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlariga muvofiq tarzda uyushtirilgandagina ko'zlangan natijaga olib kelishi mumkinligini o'rinli ko'rsatadi: ***“V–VIII sinflarda yozuvchining tarjimayi holi ilmiy biografiya tarzida emas, balki hikoyaga yaqin uslubda bayon qilinadi”***, – deb yozadi olim [1; 83-b.]. Maktab adabiy ta'limi amaliyotida hozirga qadar ham ulkan metodistning ushbu qarashlari e'tiborga olinmayotgani achinarli holdir. Mamlakatimizdagi barcha maktablarning deyarli hamma o'qituvchilari hali-hamon yozuvchi tarjimayi holini barcha

sinflarda ilmiy biografiya yoʻsinida bayon etib, buning uchun alohida bir oʻquv soati sarflashmoqda. Holbuki, buning mutlaqo samarasiz ish ekanligi S.Dolimov tomonidan yarim asr oldin aytib qoʻyilgan edi.

Oʻrta maktabning 5–7-sinflarida saboq olayotgan oʻquvchilar hali badiiy asar bilan unda aks ettirilgan ijtimoiy hayotning, ijodkor shaxsiyati va isteʼdodi yoʻnalishi bilan u oʻsib voyaga yetgan muhitning bogʻliqlik darajasini yetarlicha teran tushunmaydilar. Buning ustiga, ular adib shaxsiyatining badiiy asarda aks etish yoʻsinini ham toʻliq anglamaydilar. Shu sababdan ham bu sinflarda yozuvchilar haqida oʻquvchilarga eng umumiy maʼlumotlar berish bilan kifoyalanish maqsadga muvofiqdir. Shundan kelib chiqib, taʼkidlash joizki, bu sinflarda oʻqituvchi ijodkorning hayot yoʻliga doir “Adabiyot” darsliklarida berilgan maʼlumotlarni oʻtish uchun alohida vaqt sarflamasligi kerak. Negaki, bu sinflar dasturida yozuvchilarning tarjimai holini oʻrgatish uchun vaqt ajratish koʻzda tutilmagan va bunday qilish deyarli hech qanday didaktik natija bermaydi ham.

Toʻgʻri, bu sinflardagi oʻquvchilar ham ijodkorlar shaxsiyatiga doir qiziqarli maʼlumotlarni bilib qoʻyishlari zarar qilmaydi. Lekin buning uchun darsliklarda berilgan maʼlumotlar bilan xohlagan oʻquvchilarning oʻzlari mustaqil tanishib chiqishlari kerak va buni tushuntirish uchun oʻqituvchi alohida vaqt sarflashi mumkin emas. Agar adabiyot muallimi muayyan ijodkorning umr yoʻli haqida “Adabiyot” darsligida aytilmagan, lekin oʻquvchilar bilishlari juda ham zarur deb biladigan yangi maʼlumotga ega boʻlsa, uni bayon etishga bir necha daqiqagina vaqt sarflashi mumkin. Qolgan maʼlumotlarni oʻzlashtirish yoki oʻzlashtirmaslik bu sinflarda oʻquvchilarning oʻzlariga qoʻyib berilishi kerak.

5–7-sinflarda dars beradigan adabiyot oʻqituvchilari darsliklardagi maʼlumotlar oʻquvchilar uchun qoʻshimcha material sifatidagina berilgani va ularni izohlash shart emasligini yodda tutishlari kerak. Holbuki, maktab amaliyotida barcha sinflarda har bir ijodkor hayot yoʻlini oʻrgatishga bir soatdan vaqt sarflanadiki, bunga mutlaqo yoʻl qoʻyib boʻlmaydi. Adabiyot oʻqituvchisi bu sinflarda ijodkorlarning hayot yoʻli haqida darsliklarda berilgan maʼlumotlardan oʻquvchilarning mustaqil oʻqishlari qandayligini aniqlash maqsadida foydalanish maqsadga muvofiq ekanini koʻzda tutishi kerak. Chunonchi, oʻqituvchi biror oʻquvchining javobini baholashda qatʼiy toʻxtamga kelishni istab, qoʻymoqchi boʻlgan bahoni bir oz koʻtarmoqchi boʻlsa, ijodkor tarjimai holi yuzasidan darslikda berilgan ayrim maʼlumotlarni soʻrashi mumkin. Agar soʻralgan oʻquvchilar bu

ma'lumotlarni o'zlari mustaqil o'qib o'zlashtirib olgan bo'lsalar, bu tahsinga sazovor ish va u qo'shimcha ball bilan taqdirlanishi kerak. Lekin ularning yozuvchi tarjimai holini o'qimaganliklari didaktik ayb sanalmagani uchun o'quvchi bahosining pasayishiga sabab bo'la olmaydi.

Faqat 8-sinfdan boshlab adiblarning biografiyalariga bir qadar to'xtalish, ularning hayot yo'llari bilan ijod mahsullari orasidagi aloqaga o'smirlar e'tiborini tortish mumkin. Ammo o'quv dasturida bu sinfda ham ijodkor umrbayonini o'rgatishga alohida soat ajratish ko'zda tutilmaydi. Binobarin, yozuvchining hayoti haqida uzoq to'xtalish sakkizinchi sinfda ham mumkin emas. Shuning uchun ham o'quvchilarga mavjud ma'lumotlarni mustaqil o'zlashtirishda qaysi jihatlarga e'tibor qaratish kerakligi ko'rsatilib, darslikda bo'lmagan yangi dalillar keltirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

5-7-sinflarda adib haqida gap borganda, uning portreti va rasmlar bilan bezatilgan biror didaktik ashyo va kitoblaridan foydalanilsa, samarali bo'ladi. Bu yoshdagi o'smirlarda hissiy bilish kuchli bo'lib, abstrakt tafakkur, umumiydan xususiyga kelish, ya'ni deduksiya hali yetarlicha rivojlanmagan bo'ladi. Shu bois bevosita ko'rib idrok etilgan, sezgi organlari orqali qabul etilgan tushunchalar mustahkam o'zlashtiriladi.

O'rta maktabning bitiruvchi 9-sinfidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari boshqacha rivojlangan bo'ladi. Chunki o'smirlik yoshidan o'spirinlikka o'tgan o'quvchilar inson shaxsining jamiyat tomonidan shakllanishi, bir jamiyatda yashab turib, undan tashqarida turishning imkonsizligi haqida muayyan qarashlarga ega bo'ladi. Yozuvchi shaxsiyati va ma'naviyatidagi muayyan qirralar bu sinf o'quvchilarning axloqiy sifatlariga oldingi sinfdagilarga qaraganda, jiddiy ta'sir etadi. O'spirinlar ijodkor shaxsiyati shakllanishiga irsiy-biologik va taribyaviy sotsiologik omillar katta ta'sir ko'rsatishi mumkinligini yaxshi anglaydilar.

9-sinfidagi mashg'ulotlarda o'qituvchi hozirgiday adibning hayotida ro'y bergan hodisalarni qayd etib ketaverishdan ko'ra, uning shaxsiyatiga xos qirralar, tabiatidagi o'ziga xosliklar, hayot yo'lidagi o'zgachaliklar u bitgan asarlarda qay tarzda namoyon bo'lganiga ko'proq e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Katta maktab yoshidagi o'quvchilarda **shaxs** sifatida shakllanish kechimi intensiv ravishda borayotgani uchun ham ular millat badiiy salohiyatining qaymog'i bo'lmish yozuvchilarning shaxsiyatiga astoydil qiziqadilar. O'qituvchi adib qarashlarning, kayfiyatlarining tadrijiy yo'li, bu yo'lning asarlarida qanday aks etganligi kabi masalalarni yuqori sinf o'quvchilariga tushuntirishi zarur. Bu sinf o'quvchilari bir yozuvchi uslubining

boshqasidan farqli ekanligi sabablarini adiblar voyaga yetgan muhitdan, ularning xarakter xususiyatlaridan qidirishni o'rganishlari kerak. Chunki badiiy uslubning ijodkor shaxsiyati natijasi ekanligini anglash, adabiy asarni tushunish sari tashlangan ilk to'g'ri qadam bo'ladi.

H.Olimjonning dilbar she'riyati, G'.G'ulomning tarixiy xulosalarga yo'g'rilgan qasirg'ali falsafiy asarlarining asoslarini ularning tarjimayi hollaridan, xarakterlarining o'ziga xosligidan keltirib chiqarish samara beradi. Odatda, o'qituvchilar turli asarlarning qahramonlarini, ularning shaxsiyatidagi bir-biridan farqli xususiyatlarni bir muncha yaxshi tadqiq etadilar. Gulnor Kumush bilan adashtirilmaydi. Ammo o'sha o'ziga xos obrazlarni yaratishga sabab bo'lgan adiblar shaxsiyatidagi betakrorliklar, avvalo, o'qituvchilar, buning oqibati sifatida, o'quvchilar nazaridan chetda qolishi mumkin. Ya'ni ko'pchilik o'quvchilar muayyan bir adibning nima uchun aynan shu yo'sinda yozganligi haqida o'ylab ko'rmaydilar. Holbuki, busiz badiiy asar va uning yaratuvchisini teran anglash mumkin emas.

Aslida, A.Qahhor shaxsiyatida mavjud bo'lgan prinsipiellik, murosasizlik, halollik, uning asarlarida qay tarzda aks etganini o'quvchilar bilishsa, adabiyot uchun ham, bolalarda ezgu ma'naviy sifatlar shakllanishi uchun ham juda foydali bo'ladi.

Cho'lpon, Hamza, Qodiriy singari murakkab taqdirli ijodkorlarning hayot yo'lini o'rganish ularning asarlarini tushunish kalitigina emas, balki bolalar ma'naviyatini shakllantirish yo'li hamdir.

Adabiyot o'qituvchisi yuqori sinfda biror yozuvchining hayot va ijod yo'li haqida ma'lumot berishdan oldin o'quvchilardan oldingi sinflarda ushbu adib haqida nimalar o'rgatilganligini suhbat yordamida aniqlab olgani ma'qul. Bu hol, birinchidan, o'quvchilarning avval egallagan bilimlarini faollashtirsa, ikkinchidan, berilayotgan bilim mustahkam ilmiy poydevor ustiga qurilib, yaxshiroq esda qoladi. O'quvchilar befarqlikdan chiqib, o'ylashga majbur bo'lishadi. Ruhiiy muvozanatdan chiqib, o'ylay boshlash jarayoni ularning yangi bilimlarni o'zlashtirishlarini ham tezlashtiradi.

O'qituvchi adib haqida gapirar ekan, uning hayotidagi u yoki bu voqeani, shunchaki sodir bo'lgan fakt sifatida emas, balki bo'lajak san'atkorning ijodiy qiyofasini belgilaydigan omil sifatida yoki biror asarning bitilishga hayotiy-estetik turtki sifatida talqin etsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Yozuvchining hayoti o'rganilar ekan, uning o'ziga zamondosh, o'zidan oldin o'tgan va keyin paydo bo'lgan ijodkorlarga munosabati muammosiga ham o'rni bilan to'xtalish joiz.

Shuni unutmaslik kerakki, ijodkorlarning tarjimayi hollarini o'rgatishda haqqoniylik yo'ldan og'ishmay borilgani holda, ko'chabop gaplarga, adabiy o'shakchilikka berilib ketmaslik kerak. Negaki, o'quvchi uchun ham, adabiyot darsi uchun ham ijodkorning boshidan o'tgan hamma narsani bilishning o'zi emas, balki yozuvchi haqida bilib olinganlar o'rgatilayotgan asarning qanday yuzaga kelganligini anglab yetishga qanchalik xizmat qilishi muhim hisoblanadi. Maktab o'quvchilari o'zlari bilishi kerak va mumkin bo'lgan narsalardan xabardor etilganlaridagina adabiyot mashg'ulotlari samarali o'tkazilgan bo'ladi. O'quvchilarda sobit va ezgu ma'naviy sifatlar shakllantirilishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dolimov S., Ubaydullayev H., Ahmedov Q. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1967.
2. Резь З. Я. и др. Методика преподавания литературы. – Москва: Просвещение, 1977.
3. Yo'ldoshev Q., Madayev O., Abdurazzoqov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Universitet, 1994.
4. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: O'qituvchi, 1996.
5. Богданова О. Ю., Леонов С. А., Чертов В. Ф. Методика преподавания литературы. – Москва: Академия, 2004.

PIRIMQUL QODIROVNING “OLMOS KAMAR” ROMANIDA QO'LLANGAN TERMINLARNING LINGVOPOETIKASI

Dilnoza Jamoliddinova,

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim kafedrası dotsenti, f.f.n.

Bizga ma'lumki, terminlar bu – ilm-fan, texnika, san'at, inson faoliyati boshqa sohalarining mutaxassislar doirasida keng qo'llanadigan maxsus nomlardir. Ammo biz P.Qodirovning bu asarini o'qir ekanmiz aynan ilm-fanga oid atamalar butunlay yangicha ma'noda qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni terminlar biror atama sifatida emas, ko'chma ma'noda qo'llangan. Terminlarni bunday usulda qo'llash yozuvchidan katta mahorat talab etadi va uning qalami o'tkir ijodkor ekanligini ko'rsatib beradi. So'zlarni bu usulda qo'llash asarning ta'sirchanligini oshiradi. O'quvchiga asar mohiyatini to'la tushunishga yordam beradi. Endi asarda qo'llangan terminlarni ko'rib o'taylik.

– Sizga egri-bugri ko‘ringan joylarida katta daryoning halqalanib oqishiga o‘xshagan tabiiy bir ko‘rkamlik bor. Biz landshaft me‘morchiligi bilan shug‘ullanamiz. Biz uchun mana shunaqa tabiiy relyef kerak.

– Sizga shunday tabiiy go‘zallik bo‘lib ko‘ringan “halqalar” qancha ortiqcha yerni band qilib yotganini bir o‘ylang, o‘rtoq A‘zamov.

– O‘rtoq Mahkamov, sizningcha, bu “halqa”larni qirqib tashlab, sixday to‘g‘ri beton o‘zan qurish kerakmi?

Halqa – [a. – chamber, gardish, g‘ildirak; to‘garak, kishlar davrasi] – 1. Metaldan egib, ikki-uchini bir-biriga qo‘shib yasaladigan doira shaklidagi buyum. 2. Doira shaklida yasalgan bilak, barmoq yoki quloqqa taqiladigan bezak buyumi. 3. Doira shaklidagi, doirasimon narsa.

Ko‘rib turganimizdek “halqa” so‘zi metall buyum ma‘nosida ishlatilar ekan. Lekin asarda bu so‘z daryoning oqimiga nisbatan qo‘llanilgan.

Maydon ham avvalgidan bir necha barobar katta. Uning markaziy “o‘qi” hozir boshqa nuqtaga ko‘chdi. Favvoralar bo‘lsin. Chiroyli yo‘lkalar bo‘lsin. Asarda “o‘q” so‘zi maydonning markaziga nisbatan qo‘llanmoqda.

Abror o‘zi qiladigan ijodiy ishning mana shu xususiyatini yaxshi ko‘rardi. Bunday paytda butun vujudida ajoyib bir safarbarlik sezar, xotirasi, zehni shuuri bir nuqta atrofiga inoq to‘planar edi. Bu unga zo‘r bir lupani eslatardi – quyosh nurlari lupadan o‘tayotgan markaziy bir nuqtaga to‘planib, kuchi va harorati beqiyos darajada oshadi-yu, tekkan joyini yondirishga qodir bo‘lib qoladi. Abrorning zehni ham hozir qilayotgan ishiga mana shu ichki “lupa”dan o‘tib borayotganga o‘xshar va u istagan ijodiy olovni tobora yaxshi yondirardi.

Lupa – [fr. Loupe – lot. Lupa – teri ostidagi kata shish, o‘sma] – Kichkina narsani 2 martadan 40–50 martagacha katta qilib ko‘rsatadigan qavariq shisha, yig‘uvchi linza; zarrabin. Abrorning barcha fikrlari bir nuqtaga to‘planishi va judayam ajoyib natijalar berishi huddi lupadan o‘tib o‘tini kuydirishga o‘xshatiladi.

Favvoraning kokillari juda ko‘payib ketibdimi? Har bitta “kokil”ni millimetrigacha aniq hisoblab, chizib joylashtirishingiz kerak.

Kokil – [f. – peshona gajak; bir tutam soch; toj] 1. Soch o‘rimi. 2. Nazr qilib, yosh bolalar boshida qo‘yiladigan bir o‘rim soch. Bu so‘z asarda favvoraga nisbatan ishlatilgan. Yani favvoraning teshiklaridan suv oqishi xuddi kokilni eslatib turganligi uchun unga nisbatan kokil so‘zi qo‘llangan.

Tomiri nanga tegib turgan daraxt qurimaydi. Shahar kishisining “tomiri” ham obod kanal-u ariqlar orqali tabiatga tegib turmasa juda biqsib

ketadi. Bu yerda “tomir” soʻzi insonga nisbatan ishlatilmoqda. Yaʼni shaharda faqatgina baland-baland imoratlar emas, balki chiroyli va koʻrkam daraxtlar ham boʻlishi kerakligi aytilmoqda. Tomir – 1. Anatomiyaga oid termin. Odam va hayvonlar tanasida qon yoki limfa oqadigan naychasimon aʼzo. 2. Botanik atama. Ildiz.

Beton ham suvni oʻziga yuqtirmasligi tufayli Bahromovning didiga mos kelsa kerak. “Temir odam” degan ibora bor. Men Bahromovni “Beton odam” degim keladi.

Beton – [fr. beton<lot. Butimon – togʻ smolasi] – Sement, qum va shagʻalga suv qoʻshib tayyorlangan qorishmaning zichlashib qotishidan hosil boʻladigan qurilish materiali. Asar qahramonlaridan hisoblanuvchi Bahromov oʻzi arxitektor boʻlishiga qaramasdan oʻz ishining ustasi emas, yaʼni u zoʻraki arxitektor. U koʻp ishlarni “Mendan ketguncha egasiga yetguncha” qabilida bajaradi. U koʻp qurilishlarni beton orqali bitirib qoʻyaqoladi. Shuning uchun unga nisbatan aynan “beton” soʻzi ishlatilgan.

Toʻxtab qolgan toʻy “mashina”si yana yurib ketdi.

Mashina – [fr. machine<lot. mashina – inshoot, qurilma] – Energiyaning bir turini boshqa turdagi energiyaga aylantiruvchi, materiallar yoki axborotlarni toʻplash, saqlash va oʻzgartirish, aloqa oʻrnatish, yuk va odamlarni tashish uchun moʻljallangan mexanizm yoki mexanizmlar majmuyi. Mashina soʻzi toʻy marosimiga nisbatan ishlatilmoqda. Asarning bosh qahramoni Abror Sherzodning loyihalarini yoʻqqa chiqarganligi uchun Sherzod jiyanini Aborning ukasiga berishni istamaydi. Toʻy kuni belgilanganligiga qaramasdan toʻyni toʻxtatmoqchiligini aytadi. Ammo Abror bu muammoni hal qiladi va yana davom etadi.

Koʻrib turganimizdek, koʻchma maʼno anglatgan terminlar asar taʼsirchanligini oshirgan hamda oʻzgacha joziba kasb etgan.

“RAVZAT US-SAFO”DA JAMSHID TALQINI

Matluba Jabborova,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDOʻTAU oʻqituvchisi

Jamshid obrazining tarixiy asarlardagi oʻziga xos talqinini kuzatish anʼanaviy obrazning paydo boʻlishi, badiiy adabiyotga kirib kelishi kabi masalalarni yoritish imkonini beradi. Anʼanaviy Jamshid obrazining badiiy qiyofasini Mirxondning “Ravzat us-safo” asarida kuzatish mumkin. Ushbu

asar 7 jilddan iborat. Kitobning to'liq nomi "Ravzat us-safo fi siyrat ul-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafo" ("Payg'ambarlar, podshohlar va xalifalarning tarjimai holi haqida jannat bog'i") bo'lib, unda dunyoning yaratilishidan to 1523-yilga qadar Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar keng bayon etilgan. "Ravzat us-safo"ning qadimgi fors podshohlari tarixiga bag'ishlangan 1-jildi 1832-yil David Sheya tomonidan ingliz tiliga tarjima qilinib, Londonda nashr ettirilgan*. Mazkur asarga Kayumars, Hushang, Tahmuras, Jamshid, Zahhok, Faridun kabi afsonaviy fors podshohlari haqidagi ma'lumotlar kiritilgan.

Mirxond ushbu kitobda Peshdodiylar sulolasining hukmronlik davri, qadimgi eron podshohlari haqidagi tarixiy ma'lumotlarni bir o'ringa jamlaydi. Natijada Jamshid mavzusiga oid lavhalarni bir tizimga keltiradi, syujetdagi voqealar izchilligini ta'minlaydi hamda ularni yangi ma'lumotlar bilan boyitadi. Muallif asarda qayd etilgan misollarni kimning, qaysi asaridan olganligini qayd etadi, bu orqali ma'lumotning ishonchliligini dalillaydi. Asarda Jamshid Peshdodiylarning to'rtinchi sulolasi sifatida keltiriladi. Muallif dastlab Jamshid nomiga e'tiborini qaratadi. Jamshid nomi "Jam" va "Shid" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "yorug'lik berish" degan ma'noni anglatadi. Ya'ni "Shid" bu "quyosh nurlari"dir⁴.

Mirxond Jamshidning nasli borasidagi ma'lumotlar birmuncha bahstlab ekanligini qayd etadi. Xususan, Diynavariyda Jamshidni Nuh payg'ambarning avlodi sifatida qayd etilganligini, qadimgi eroniy manbalarda Tahmurasning ukasi yoki akasining o'g'li degan qarashlar mavjudligini ta'kidlab, o'zi Jamshid Tahmurasning o'g'li degan fikrni quvvatlaydi. Voqeaning boshlanishida Jamshid otasining o'limidan so'ng taxtga o'tirgach, yer yuzini jannatga aylantirdi, deb uning hukmronlik davrida amalga oshirgan barcha ezgu amallarini birma-bir sanaydi. Muallif o'zi orzu qilgan podshohlik sifatlarini – adolatlilik, bunyodkorlik, xalqparvarlik, hunarpeshalik kabi ezgu fazilatlarining barchasini Jamshid shaxsida mujassamlashtirib, bo'rttirib tasvirlaydi.

Mirxond ham ba'zi forsiylarning "Jamshid va Sulaymon" bir shaxs degan qarashlariga munosabat bildiradi va bu ikki obraz haqidagi dalillar mutanosib kelmasligini aytib, ushbu fikrni inkor etadi.

* Қаранг: Mirkhond. History of the Early kings of Persia, trans. David Shea. – London: The Oriental translation fond, 1832. – P. 441.

⁴ Мирхонд. Кўрсатилган асар. – Б. 99.

Mirxond Jamshidning yaratuvchilik sifatlarini alohida madh etadi. Jamshid tomonidan kashf etilgan har bir narsaning foydali jihatlari, odamlarga qanday nafi tegishi mumkinligini batafsil izohlaydi. Muallif Jamshid obrazini avvalgi manbalarda uchramagan go‘zalikka intiluvchan va tabiat ne‘matlaridan turli kashfiyotlar yaratib, ulardan oqilona foydalanuvchi shaxs qiyofasida tasvirlaydi.

Asarda Jamshid tomonidan sharobning kashf etilishi lavhasi keltirilgan va ushbu ma‘lumot u haqdagi boshqa tarixiy asarlarda uchramaydi. Voqeaga ko‘ra, Jamshid bujmaygan uzumlarni urug‘idan ajratib, bir idishga solib qo‘yadi. Har kuni ushbu idishni ochib, uzumlarni achiyotganligini kuzatadi. Ma‘lum vaqt o‘tgach, uzumning achigan suvi ajrab, sharbat holatiga keladi. Jamshid bu ichimlik tarkibini o‘rganib, bu zahar degan xulosaga keladi va uni ichishni man etadi. Kunlardan bir kun Jamshid saroyida yashaydigan bir qiz xastalanib qoladi. Kuchli og‘riqdan xalos bo‘lish uchun ana shu zaharni ichib, o‘lishni xohlaydi. Idishni topib, zaharni ichadi va qattiq uyquga ketadi. Uyg‘onganda esa, og‘riqlar yo‘q, o‘zi ham sog‘lom ekanligini his qiladi. Shundan so‘ng Jamshid ushbu zahardan dori o‘rnida foydalanadi va odamlarni davolab, Jamshid tabib, degan nom oladi⁵.

Mirxond ushbu kiritma hikoyat orqali Jamshidning yana bir qirrasini – tabiblik sifatini madh etadi, biroq muallifning asosiy maqsadi bu emas edi. Uning asl niyati voqea so‘ngida anglashiladi. Hikoyat so‘ngida muallif Jamshid tilidan sharobning sifatleri, foydali jihatlari, xususan, odamlarga yaxshi kayfiyat ulashib, og‘riqlarni bartaraf etishi haqida so‘zlaydi, shu bilan birga sharob ko‘p ichilsa, u zaharga aylanishini, hatto, odamlarni halok qilishi mumkinligini uqtiradi. Mirxond ushbu hikoyat vositasida maishatparastlik, sharobxo‘rlik avj olgan saroy a‘yonlariga Jamshid tilidan nasihat qiladi, ularni muqarrar halokatdan ogohlantiradi.

“Ravzat us-safo”da ham Navro‘z bayramiga Jamshid tomonidan asos solinadi, odamlar to‘rt tabaqaga ajratiladi va bu tabaqa vakillari mamlakatni rivojlantiruvchi asosiy kuch, deb ta‘riflanadi. Mirxond ushbu tabaqa vakillarining jamiyat uchun nima ish qilishi kerakligini birma-bir sanaydi, Jamshid zamonidagi “tarixiy natija” orqali hukmdorlarga kelajakda mamlakatni qanday rivojlantirish mumkinligiga ishora qiladi.

Mirxond Jamshidni har jihatdan mukammal va kuchli iqtidor sohibi sifatida tasvirlaydi. Uning kuchi o‘ta zehni va adolatli ekanligida, deb baho beradi. Jamshidning qo‘lida buyuk shohlarga tegishli bo‘lgan to‘rt

5 Мирхонд. Кўрсатилган асар. – Б. 103.

uzuk – muhrning mavjudligi va ularning har biri o‘ziga xos sifatlarga ega ekanligini qayd etadi. Ulardan qay holatda foydalanish mumkinligini aytib o‘tadi. Uzuklarning ko‘zida “Maslahatgo‘ylik va kamtarlik”, “Adolat va yaxshilik”, “Haqiqat va sayohat”, “Jazo va adolat” degan yozuvlar o‘yib yozilgan bo‘lib, ushbu lavha Amir Temurning muhr shaklidagi uzuklari haqidagi tarixiy ma‘lumotlarni yodga soladi. Muallif Amir Temurning uzuklari bilan bog‘liq voqeani mazkur asarga kiritish orqali, birinchidan, Amir Temur va Loy jangi bilan bog‘liq mulohazalarini, ya‘ni tarixiy jarayonga munosabatini bildiradi; ikkinchidan, Jamshid tarixiga real voqelikni singdirib, Jamshid mavzusining tarixiylik prinsipini oshiradi.

Asarda Jamshidning kibrga berilib, to‘g‘ri yo‘ldan og‘ishi xuddi Tabariy yozgani kabi Iblisning maslahatiga quloq solganidan so‘ng yuz beradi. Jamshid Iblisning aldovlariga ishonib, o‘zini Xudo deb e‘lon qiladi, e‘tiqodiga sodiq qolib, unga itoat qilmaganlarni olovda kuydiradi. Voqeaning oxiri an‘anaviy syujet kabi tugallanadi, Jamshid Zahhok tomonidan ta‘qib ostiga olinadi, yuz yildan so‘ng Xitoy daryosi bo‘yidagi bo‘sh daraxtning ichiga yashiringani ma‘lum bo‘ladi. Zahhok uni daraxt bilan qo‘shib, ikkiga arralab tashlaydi. Shu o‘rinda Mirxond an‘anaviy sujetga bir oz aniqlik kiritadi. Firdavsiy Jamshidning Zahhok tomonidan qo‘lga tushirilgani va arralab ikkiga bo‘lib tashlanganini badiiy adabiyotga xos o‘ta ta‘sirli tasvirlasa, Mirxond Jamshidning bo‘sh daraxtning ichida bo‘lganligini va Zahhok daraxtni arralab, uni ham halok qilganini ishonarli voqea sifatida qayd etadi.

“Ravzat us-safo”da Jamshid mavzusi yuzasidan shunday xulosa chiqarish mumkin: Mirxond yashagan davr taxt uchun zimdan kurashlar, podshohlik jazavasida qondoshlar bir-biriga urush ochgan, o‘g‘il otadan taxtni tortib olish uchun vaziyat poylagan paytlarga to‘g‘ri kelgan. Shu sababli muallif Jamshid tarixiga quyidagi masalalarni singdirgan: birinchidan, Mirxond shahzodalarga Jamshidning taxtga chiqishi haqidagi an‘anaviy sujet vositasida vorislar otasining vafotidan so‘ng taxtga egalik qilishi mumkinligini, podshoh bo‘lganidan keyin ham yurt obodligi uchun, mamlakatning taraqqiy etishi uchun qayg‘urishi kerakligini uqtiradi; ikkinchidan, sharobxo‘r hukmdorlarni sharobning kashf etilishi haqidagi voqea vositasida ogohlantiradi, ko‘p sharob insonni go‘yo zahar kabi nobud qilishi mumkinligini ta‘kidlaydi; uchinchidan, Jamshiddagi yaratuvchilik, go‘zallikni sevish kabi sifatlarni bo‘rttirib tasvirlash orqali yurt egalarini ham shunday fazilat sohibi bo‘lishga undaydi; to‘rtinchidan, afsonaviy Jamshid mavzusiga real-tarixiy voqealarni singdirib, an‘anaviy Jamshid obrazining yangi qirralarini kashf etadi.

Foydalanilgan adabiyot

Mirkhond. History of the Early kings of Persia, trans. David Shea. – London: The Oriental translation fond, 1832. – P. 441.

HAJVIYOT ILMI HAQIDA ABDULLA QODIRIYNING NAZARIY QARASHLARI

Faridaxon Tursunova,
Farg‘ona politexnika instituti katta o‘qituvchisi

Mohir hajvchi, kulgi ustasi, hajviyot ilmining puxta bilimdoni bo‘lgan Abdulla Qodiriy mumtoz adabiyotimiz va qardosh xalqlar adabiyotidagi hajvchilik an‘analarini davom ettirib, Yevropa xalqlari adabiyotidagi hajvchilikning yetakchi tamoyillari asosida yangi hajvchiligimizning nazariy asoslarini ishlab chiqdi. Adibning hajviyoti shakl va mazmun mutanosibligi, xalqchilligi, xolisligi, hayotiyliigi, xarakter kulgisi, qahramon ruhiyatini ochishdagi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Abdulla Qodiriy so‘z tanlashda o‘ta ehtiyotkor bo‘lgan, buni uning quyidagi fikrlaridan anglash mumkin: “So‘z so‘ylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak”, – deydi “Yozishg‘uchilarimizg‘a” nomli maqolasida. Tuzilgan jumlaning “yozg‘uvchining o‘ziga tushunib boshqalarning tushunmasligi katta ayb. Asli yozg‘uchilik, aytmakchi bo‘lgan fikrni hammaga barobar onglata bilishda, oraga onglashilmovchilik solmasliqdadir”, – deb uqtiradi. “Mundan boshqa, fikrning ifodasi xizmatiga yaramag‘an so‘z va jummalarga yozuvda aslo ‘run bermasligi lozim” ligini ta‘kidlaydi. Adib har bir yozuvchi o‘z iste‘dodi, o‘z kuchi bilan elning nazariga tushishini istab, “biravga orqa qilib o‘zingizga b‘lgan talantning ruhiga fotiha o‘quy ko‘rmangiz! Bir soatda emas, o‘n soatda yozish, bir qayta emas, o‘n qayta tuzatish kishining yordamig‘a termulishka qaraganda ham foydalik, ham umidlikdir” [1; 274-b.], – deya maslahat beradi yoshlarga.

Yozuvchining hajviyot poetikasi haqidagi nazariy-estetik qarashlari g‘oyat teran bo‘lib, hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Adibning o‘g‘li Habibulla Qodiriy xotiralarida “yuqoridagi maqolasida hajvchilik sirlari, tanqidchilik shartlari, kulgi yo‘llari xususida so‘zlab jurnalga maqolalar yozib yuboruvchi qalamkashlarga o‘git beradilar, o‘z asarlaridan misol keltirib tahlil qiladilar, – deydi. Shu bilar birga, “yozishg‘uchilarni “Mushtum”da yanada faolroq qatnashib turishga da‘vat etadilar: “Mushtum” o‘zining yozishg‘uchilarining samimiyatini, dardini yaxshi biladir. Chunki dard bo‘lmasa, samimiyat bo‘lmasa, biz podachini

qo‘lida kaltagi bilan ko‘rmas edik... Bundan so‘ng “Mushtum”ni kichkina qilib chiqariladir. Ammo siz sig‘may qolishdan qo‘rqmay yozg‘anlaringizni bizga yo‘llay beringiz. Yozishg‘uchi so‘filarimizda hunar bo‘lsa, xonaqoh hech bir vakd torlik qilmas. “Mushtum” eskicha o‘g‘irliq, jaholat, zalolat va g‘ayrilar bilan kurashini davom etgiradi. Biroq, mundan so‘ng ul tilga – san’atka, adabka rioyasini tom qilib qo‘lidan kelgancha yosh talantlarni shu doirada o‘sdirishka tirishadir...” [274-b.]

Qodiriy “Mushtum”ni ko‘plab, qo‘liga qalam olgan qalamkashlarga qarata yozishda “bir muncha andisha lozimligi, shoshmaslik kerakligi”, “shoshkan qiz erga yolchimas”ligi, “o‘n marta o‘lchab, bir marta kesmak kerak”ligi, tanlangan mavzuning “ijtimoiy va siyosiy manfaati”, “qosh qo‘yaman deb, ko‘z chiqarib qo‘ymaslik”, “masala zamirida shaxsiy manfaat”, “oldi-berdi janjalining yo‘qligi” kabilarni inobatga olinishi zarurligini uqtiradi. “Yo‘sinsiz ravishda xotirg‘a kelgan har bir so‘zdan jumlar to‘qimoq fazilat sanalmas”ligini yozuvchi aslo unutmaslik kerakligini ta’kidlaydi. Adibning: “So‘z qolib, fikr uning ichiga quyilgan g‘isht bo‘lsin, ko‘bchilik xumdonidan pishib chiqg‘ach, yangi hayot ayvoniga asos bo‘lib yotsin!” [272-b.], – degan ko‘rsatmalari har bir qalam sohibi va ayni paytda adabiyotshunos-talqinchilar uchun ham juda zarurdir.

“Abdulla Qodiriy har narsaga tanqidiy nazar bilan qarar, xurofot, bid‘atlarga g‘oyatda qarshi edi. Uning har bir so‘zidan hajviy ifoda anqib turar edi. G‘oyatda jasoratli, o‘z so‘zida ustivor va barqaror, g‘oyatda zakovatli edi. O‘rni kelganda yuqori darajadagi kishilarni ham tanqid qilishdan cho‘chimas edi”², – deb xotirlaydi adibning o‘g‘li Habibulla Qodiriy.

Qodiriy “Mushtum” jurnalida ehlon qilingan “26-yilda kuldurguchilarimiz” (ijodiy) maqolasida “Adabiyot dunyosidagi ikki turli tanqid; jiddiy va hajviy tanqid” haqida fikr yuritadi. “Jiddiy tanqid yuqori tabaqa – ziyolilar uchun maxsus” bo‘lib, “avomga majhulroq bo‘lib ko‘rinadi. Undan so‘ng, jiddiy tanqid turmushning har burchagiga kirib yurish uchun ham tanazzul etolmaydi. Bu jihat bilan qaralsa-da, u ommaviylik xususiyatidan yiroqdir”, – deydi. “Tanqidning ikkinchi xili bo‘lg‘an hajviy (satira mahnosi bilan) ommaviy deyilsa bo‘ladir. Chunki kulki tanqid-turmush bo‘lib uchquvchi burgutdir. Hayot sharoitiga yaramagan zaif, qizg‘anch, manfur, muzir va shuning kabi unsurlar unga yemdir. Hajviy tanqid avomning ruhiga yaqin va uning his etgan, ammo ifoda qila olmag‘an masalalariga tarjimondir. Hajviy tanqidning tabiatidagi

kulgulik unsuri avomning mahbubi, tag'in to'g'risi, uning o'z ijodidir" – deb yozadi.

Qodiriy o'zbek hajviyoti tarixi va kelajagiga aslo befarq bo'lmaydi. "Bizning kulguligimizning o'z oldig'a bir muncha tarixi bo'lsa ham, ammo yangi hajviyotimiz o'zining chin negizini hali sola olgan emas. Biz bu kungi hajviyotimizda keskinlik ko'rolmaymiz", – deya tashvishga tushadi va "Mushtum" jurnalining "to'rtinchi yoshka qadam qo'yishi munosabati bilan uning yozishg'uchilari borasida bir necha so'z" aytadi: "biz "Mushtum" yozishg'uchilari oramizda o'tkir kulki ijodchilari yo'q, hammamiz ham o'z holimizga yarasha kulki to'quymiz, jamiyat qitig'ig'a to'g'rilab qo'l yubora olmaymiz. Biroq yaxshi xususiyatimiz shundaki, har zamon jamiyatning qitig'ini izlaymiz, izlashdan charchamaymiz va o'ltirib qolmaymiz", – deya, yozishg'uchilarning kun sayin o'sib borayotganligidan mamnun bo'lib, "bu hol kulkuligimiz istiqbolining xayrlik follaridandir" [316-b.], – deydi. Hajviyotning kundan kunga ilgari borishi uchun yozg'uchilarni umidsizlanmaslikka da'vat etib, jurnalning bu boradagi ahamiyati, faoliyatidagi kamchiliklar, ijodiy jamoaning (hajvchilar) chiqishlari, ba'zi hajviyalar tahliliga ehtibor qaratadi. O'sha davr hajvchiligi borasida o'zining asoslangan fikrlarini bayon etadi:

"Uzun so'zning qisqasi, biz hajviyotda kundan-kunga ilgarilab boramiz. Bu sohada muvaffaqiyatlarimiz ta'min etilgandir [317-b.].

"Mushtum" jurnali 26-yilda quyidagi kuldurguchilarimizga ishonib ish ko'rsa bo'ladir", – deya yigirmadan ortiq ijodkorni nomma-nom keltiradi.

"...Yozg'uchilar ichida bulardan boshqa ahyonda bir yozib qo'ysa-da, ammo qalami umidlik bo'lg'an o'rtoqlar ham yo'q emaslar" [317-b.] – deb fikriga yakun yasaydi adib.

Qodiriy hajviy asar yozuvchilariga qarata shunday yozadi: "Komediya deganda nima to'g'ri kelsa, shundan kulavermak emas, balki o'zining tub shartiga muvofiq etib kulmak, uni yozganda, mavzuni turmushimizning naq chirik bir joyidan olmoq va shu bilan barobar, adabiyot tarozusiga solib yozmoq kerakdir". Adib bu haqida fikrini davom ettirar ekan, "kulgilikni siz yasag'an bo'lib ko'rinmang, balki o'zi yasalg'an bo'lsin. O'z holini o'zi arz qilsin. Toki, o'qug'uchingizgina emas, hatto kulgida qolgan raqibingizni o'zi ham chorasiz siz bilan birgalashib kulishmakka majbur bo'lsin", – deya ta'kidlaydi va "adabiyotda bir necha xil kulgi yo'llari bo'lsa ham, (masalan, piching, kesatish, kinoya, tag'ofil va boshqalar) lekin eng mo'tabari xarakter kulgisi" [317-b.] ekanligiga alohida urg'u berib o'tadi.

Abdulla Qodiriyning bu boradagi qarashlarini o'rganish va tahlil etish qodiriyshunoslikning yangi qirralarini ochib berish bilan birga, istiqlol ma'naviyati va mafkurasi rivojiga xizmat etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қодирий Абдулла. Диёри бакр. III жилд. – Т., 2018, – 576 б.
2. Қодирий Абдулла. Тарифи адиб. –Т., 2004. – 32 б.
3. Қодирий Х. Отамдан хотира. – Т.: Янги аспр авлоди, 2005.
4. Қодирий Абдулла. 26-йилда кулдургучиларимиз // Муштум, 1926 йил, 1 январь, 24-сон.

О РАЗВИТИИ БАНКОВСКО-ФИНАНСОВОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Екатерина Ширинова,

преподаватель кафедры «Методика преподавания узбекского языка и литературы» Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои,
учитель родного языка и литературы 116-средней школы;

Зулфира Азаматова,

учитель родного языка и литературы 116-средней школы

Язык вместе с обществом находится под влиянием времени, поэтому изменения места и времени терминологию превращают в объект исследований. Известно то, что актуальность, научная новизна, научная и практическая значимость выбранной проблемы во многом зависит от степени её изученности и значения в общественной жизни.

Банковско-финансовая терминология, выбранная как объект лингвистического исследования, и является неотъемлемой частью общественной жизни, существует почти во всех развитых языках.

Известно что, каждый язык обогащается по двум источникам, которые определяются как внутренние и внешние. Эти истоки развития, безусловно, относятся и к терминологическим системам узбекского языка.

Не смотря на разность роли единиц своего и заимствованного слоя в развитии банковско-финансовой терминологической системы узбекского языка, оба источника имеют свою, незаменимую роль в развитии всей лексической системы узбекского языка. Опираясь на мнения всемирных ученых, а также на новейшие исследования можно сделать вывод, что терминологические системы день за днем

обогащаются многими источниками и способами в результате развития науки и техники.

Существует такой источник, способствующий развитию языка, который дает возможность сохранить своеобразие, национальность и эстетические свойства языка, который называется внутренним. В смысле этого понятия подразумевается возникновение новых терминов и лексем в результате разных способов словообразования как: а) аффиксация; б) композиция; в) фонетический; г) аббревиация; д) синтаксический; е) семантический. В большинстве из научных литератур пересчитываются данные способы словообразования (Шоабдурахмонов, 1980; Жамолхонов, 2005; Рахматуллаев, 2006). Н.В.Моряхина в своём исследовании подчёркивает, что: «В настоящее время развивается тенденция к универсализации языка путем интернационализации лексики, проявляется интерес к структурному образованию терминов, в частности, к способам образования путем сложения слов (или их основ) и путем сокращения или аббревиации» (Моряхина, 2008, 25-26). Безусловно, процесс глобализации, который правит в сегодняшнее время, требует краткость и точность.

Нужно отметить один факт, то есть то, что *синтаксический способ*, который во многих терминологических исследованиях (Мадвалиев, 1986; Йўлдошев, 2005.), проведенных в узбекском языкознании, является самым активным и в банковско-финансовой терминологии узбекского языка. Для обоснования этого мнения нами был проведен статистический анализ 355 терминов, приведенных в «Молия», «Молия бозори ва биржа иши» фанларидан таянч сўз ва иборалар тўплами (сборник опорных слов и фраз по предметам «Финансы», «Финансовый рынок и биржевая деятельность») соавторов А.А.Ибрагимов, М.У. Мирзарахмедов, Ж.Х. Усмоналиевых. В результате подсчета выяснилось, что 208 терминов, то есть 62% являются словосочетаниями, которые возникли в результате синтаксического способа. Одним из важных причин такого положения является то, что от одного коренного термина по специальности создаются десятки терминов сочетаний. В данной ситуации термины специальности служат минимальным элементом, который упоминается в диссертациях многих терминологов, в частности И.Йўлдошева (Йўлдошев, 2005.). Реальную картину этой ситуации можно представить примером банковско-финансовых терминов.

Бюджет (минимальный элемент) *бюджет олувчи, бюджет таснифи, бюджет жараёни, бюджетлараро муносабатлар, бюджет ёйилмаси (роспись), бюджет дотацияси, бюджетдан маблағ ажратилиши, бюджет профицити, бюджет ссудаси, бюджет субвенцияси, бюджет сўрови, бюджет тақчиллиги, бюджет трансферти, бюджет ташиқилоти, бюджетни режасалаштирилиши, бюджет ижроси, бюджет ваколатлари, бюджет федерализми.*

Молия (минимальный элемент) *молия вазирлиги, молия воситалари, молия инқирози, молия йили, молия объекти, молия субъекти, молия тизими, молияни бошқариши ...*

Также, в формировании терминов сочетаний могут участвовать синтаксический способ и способ аффиксация одновременно. Например: *молиявий даромад, молиявий захиралар, молиявий инвестиция, молиявий инспектор, молиявий интеграция, молиявий йил, молиявий кўрсаткичлар, молиявий механизм, молиявий муносабатлар, молиявий натижалар, молиявий режасалаштирилиши, молиявий ресурслар.* Прилагательное *молиявий* (сифат) образованное аффиксом –*вий*, участвует в функции определения терминов сочетаний.

Как было выше указано, термины сочетания составляют большую часть банковско-финансовых терминов. В данной ситуации доля деривантов, образованных от минимальных элементов, несравнима. Так как лишь одним минимальным элементом **валюта** создано около 60 банковско-финансовых терминов-сочетаний.

В большом количестве терминологических исследований значительное внимание уделяется количеству и значению иноязычных элементов в рассматриваемом объекте. В свою очередь, это даёт практическую возможность определить активность заимствованных единиц в языке, способы и причину заимствования, и её своеобразность.

Заимствование иноязычной лексики является новым явлением среди процессов, которые обогащают словарный состав узбекского языка и как способ номинации понятий и обновления существующих понятий имеет свое большое значение и важную роль. Также нужно отметить, что заимствование в банковско-финансовой терминологической системе является наиболее активным способом обогащения словарного состава языка.

Почти во всех специфических терминологиях и в составе общеупотребительной лексики существуют заимствованные и

интернациональные единицы. Большое количество банковско-финансовых терминов имеют интернациональный характер, потому что колыбелью возникновения банковско-финансовой системы и соответственно терминов этой специальности являются европейские страны.

Термины, имеющие интернациональный характер в большинстве языков заимствуется без изменений (из-за фонетических особенностей языка они могут иметь изменения в произношении) и широко используются. Например: **банк** – узб. *банк*, рус. *банк*, англ. *bank*, итал. *banco*, фр. *banque*; **капитал** – узб. *капитал*, рус. *капитал*, англ. *capital*, фр. *capital*, лат. *capitalis* и т.д. основной причиной заимствования таких единиц без изменений в ряду с их интернациональным характером является то, что они оторваны от определенной языковой системы и то, что в заимствующем языке не существуют эквивалентные варианты, которые могут передать значение этого термина.

Вместо вывода можно сказать, банковско-финансовая терминология узбекского языка считается наиболее молодой отраслью науки, которая развивается с оптимальной скоростью, её корни возникли с более ранних времен, чем возникновении банков в Европе. Это подтверждает более 200 терминов по финансовым отношениям, которые приводятся в словаре произведений Алишера Навои (в 4-х томах); банковско-финансовая терминология является отраслью стремительно развивающейся за счет заимствований из иностранных языков, в её развитии имеет своеобразное, важное место внутренний потенциал узбекского языка; терминологические системы день за днем обогащаются многими источниками и способами в результате развития науки и техники, а заимствование является одним из активных способов обогащения банковско-финансовой терминологической системы и самого узбекского языка.

Список литературы

1. Жамолхонов Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Талқин, 2005.
2. Ибрагимов А.А., Мирзарахмедов М.У., Усмоналиев Ж.Х. «Молия, Молия бозори ва биржа иши» фанларидан таянч сўз ва иборалар тўплами. – Т., 2009.
3. Йўлдошев И. Ўзбек китобатчилиқ терминологияси: шаклланиши, тараққиёти ва тартибга солиш: Филол.фан.док...дис. Тошкент, 2005.
4. Мадвалиев А. Узбекская химическая терминология и вопросы ее нормализации: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. Ташкент, 1986.

5. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. – Т.: Университет, 2006.
6. Шоабдурахмонов Ш. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т.: Ўқитувчи, 1980.

“ALPOMISH” DOSTONIDA QO‘LLANGAN SHAXS MA’NAVİY SIFATLARINI IFODALOVCHI LEKSEMALARNING IDEOGRAFIK BOG‘LANISHI

Yusuf Hojiyev, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

Ideografik lug‘atlar haqida. Ma’lumki, til lug‘atini tuzishda ikki yo‘lning biridan borish mumkin:

- 1) shakldan ma’noga;
- 2) ma’nodan shaklga.

Birinchi yo‘ldan borishda ta’riflovchining vazifasi ma’lum bir so‘z, uning ma’nolari va qo‘llanish xususiyatini imkon qadar aniq va to‘liq tavsiflashdan iborat. Bunda lug‘atdan foydalanuvchiga so‘zning shakli ma’lum bo‘ladi va shu orqali ma’noga kirib boradi. Bu – alifboli lug‘at.

Ikkinchi yo‘ldan borishda esa tushunchaning tildagi mavjud mazmun va ma’nolari hamda bu ma’noni ifodalaydigan shakl yoritiladi. Bunda lug‘atdan foydalanuvchiga so‘zning ma’nosi ma’lum bo‘ladi va undan shaklga boriladi. Bu – sistemali lug‘at.

Bu ikki yo‘nalish tilshunoslikda ham, ta’limda ham birdek zarur. O‘zbek tilida shu kunga qadar chop etilgan barcha lug‘atlarning yaratilishida leksikograflar birinchi usulni tanlashgan. Dunyo leksikografiyasida ham alifboli lug‘atlarga katta e’tibor berilgani holda ideografik lug‘atlarga kam diqqat qaratilgan. Buning bir necha sababi bor:

birinchidan, alfavitli lug‘atni tuzish oson;

ikkinchidan, sistemali lug‘atni qog‘oz variantida tayyorlash qiyin;

uchinchidan, sistemali lug‘atda bir so‘z bir necha sistemaga kirib qolishi mumkin;

to‘rtinchidan, milliy ijtimoiy xotirada leksemaning ideografik joylashuvi to‘la-to‘kis aniqlanmagan.

Dastavval ideografik lug‘atning nazariy asoslari olmon olimi Y.Trir tadqiqotlarida o‘z aksini topgan edi. U “semantik maydon” tushunchasini tilshunoslikka olib kirib, nazariy va amaliy jihatini asosladi [1]. Keyinchalik bu nazariya V.Portsig va uning izdoshlari tomonidan

takomillashtirildi. Tilshunoslikda “semantik maydon” tushunchasi aynan V.Portsig nomi bilan bog‘liq [2].

1975-yilda A.K.Tixonov, N.T.Hotamov va boshqa mualliflarning rus tilida nashrdan chiqqan “Ruscha-o‘zbekcha tematik lug‘at” [3]da so‘zlarni ideografik nuqtai nazardan ma’lum mavzular asosida turli guruhlariga jamlab o‘rganish o‘ziga xos samara berishi aytib o‘tiladi. Bunday usulning katta ahamiyatga egaligini taniqli pedagoglar Y.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy va boshqalar ta’kidlab o‘tishgan. Ularning fikricha, leksikani o‘rganishda bunday yondashuv o‘quvchilarda to‘g‘ri dunyoqarashni shakllantirishga ko‘maklashadi, ularning bilim doirasini butun borliq va inson faoliyati haqidagi jamlangan (sistemalashtirilgan) ma’lumotlar bilan boyitadi. “Tillarni o‘rganish, – deb yozadi Y.A.Komenskiy o‘zining “Buyuk didaktika” asarida, – jism va buyumlarni o‘rganish bilan baravar olib borilishi lozim, chunki ularni qanday o‘rgangan bo‘lsak, nutqda ham shunday o‘zlashtirishimiz lozim, chunki biz jism va buyum, shuningdek, atrof – muhit hodisalari to‘g‘risida qanday tushunchaga ega bo‘lsak, fikrni ham shunday bayon etishni o‘rganishimiz lozim. Demak, o‘quvchilarda fikrni, dunyoqarashni to‘g‘ri shakllantirish va fikrni nutqda aks ettirish uchun so‘zning ma’nosini mavzuviy guruhlariga jamlab o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi” [3].

Leksikani ideografik nuqtai nazardan o‘rganishning asosiy maqsadi – bu so‘zning turli ma’nosini bus-butun, yaxlitligicha o‘rganish va ularni o‘z o‘rnida qo‘llashni o‘rgatish. Masalan, talabalar uchun *ota, ona, o‘g‘il, qiz, aka – uka, opa – singil* yoki *shamol, yomg‘ir, bulut, quyosh, oq, yulduz* kabi so‘zlarni alohida o‘rganib (xorijiy tillarni o‘rganish nazarda tutiladi), mag‘zini chaqishdan ko‘ra ushbu so‘zlarni ma’lum bir tematik guruhga jamlab, qiyoslab o‘rganish ancha qulay va oson. Chunki turli tematik guruhga jamlangan so‘zlarni (mas., “ota–ona” yoki “qor–yomg‘ir) tartibsiz o‘rganish o‘quvchini chalg‘itishi va o‘zlashtirish jarayonini murakkablashtirishi ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun ma’lum bir bog‘liqlik yoki o‘xshashlik (umumiylik)ka asoslangan mavzuviy guruh va maydonlar nuqtai nazaridan til leksikasini o‘rganish samarali natija berishi mumkin.

Mavzuviy tahlil faqat ot turkumiga xos jarayon. Boshqa so‘z turkumlari tahlili semantik jihatdan o‘rganishga asoslanadi. So‘zlar tahlilining bu ikkala usuli bir-biridan farqlansa-da, ularning o‘xshash jihatlari ham bor. Ba’zida ular uyg‘unlashib ketishi ham mumkin. Masalan, rang va maza-ta’mini bildiruvchi sifatlar (oq – qora; achchiq – nordon; shirin – sho‘r), psixologik xususiyatlar (yovuz, rahmdil, badjahl,

xushmuomala). Bu soʻzlar bir tomondan antonimik juftlik hosil qilsa (leksik-semantik guruh), ikkinchi tomondan maʼlum bir mavzuviy guruhni tashkil etadi.

Xoʻsh, “semantik maydon” nima? Trinning taʼrificha, leksik-semantik maydon – maʼnolari jihatidan oʻzaro uzviy bogʻliq, birining maʼnosi ikkinchisidan kelib chiqadigan, bir-biriga tobe soʻzlar guruhi. Mazuviy maydon –maʼno umumiyliги (oʻxshashligi) va predmetning oʻxshashligini aks ettiruvchi soʻzlar majmuyi.

Soʻzlarni semantik maydonlarga yigʻishdan asosiy maqsad ularning turli xususiyati, leksik maʼnolarining har xil jihatini kuzatib, ularni oʻzaro qiyoslab oʻrganish. Semantik maydonning aniq chegarasi mavjud emas va bu tabiiy hol. Chunki bir soʻz turli pozitsiyada turlicha talqin qilinishi mumkin. Masalan, *olma* (mevalar nomi) semantik maydoni va, shu bilan birga, *olma* (daraxtlar nomi) semantik maydoni yoki “oʻsimliklar dunyosi” tematik qurshovi tarkibida ham ishtirok etishi mumkin.

Leksikani bunday tarzda oʻrganish ideografik tahlilning asosini tashkil etadi. Soʻzni ideografik (tushunchaviy) nuqtai nazardan oʻrganish esa soʻz haqida toʻliq (universal) maʼlumot olishga xizmat qiladi.

Lugʻat hayotimizga, oʻquv jarayoniga shunchalik singib ketganki, u haqda bilmaydigan odamni topish qiyin. Shunday boʻlsa-da, S.I.Ojegov izohiga eʼtibor beramiz: “lugʻat – soʻzlarning izohi yoki boshqa tilga tarjimai berilgan alifbo tartibidagi toʻplam” [5]. Haqiqatan ham, bu izoh bizning lugʻat haqidagi tasavvurimizga toʻla mos keladi. Hozirgacha lugʻatchiligimiz tajribasida eng toʻgʻri, eng oqilona, nisbatan qulay yoʻl deb shu usul tan olingan. Lekin bu fikr nisbiy. 200 000 dan ortiq soʻzni oʻz ichiga olgan lugʻat muallifi, buyuk leksikograf V.I.Dal [6] ham bu haqda munosabatini bildirgan. Xoʻsh, soʻzlar lugʻatda qaysi tamoyil asosida joylashmogʻi lozim? Til – sistema. U ongimizda ham shu tartibda oʻz aksini topgan. Shu yerda mashhur olim N.V.Krushevskiyning soʻzlarini yodga olamiz: “Hech qachon tilning asosiy xususiyatini unutmash lozim. Soʻz – narsaning belgisi. Soʻz va narsa haqidagi tasavvur assotsiatsiya haqidagi qonun asosida juftlik hosil qilgan. Shunday ekan, soʻzlar ongimizda ham oʻzi anglatadigan jismlar guruhi bilan kirishi kerak” [7].

Soʻzlarning lugʻatda joylashuvi masalasiga qaytamiz. Soʻzlarning tabiati (talaffuz va maʼno) 2 xil tamoyilni keltirib chiqaradi:

- a) talaffuz yaqinligi asosida;
- b) maʼnoviy yaqinlik asosida.

Birinchi tamoyil alifbo tartibidagi lugʻatlar yaratishga zamin hozirlaydi. Bu lugʻatning afzalligi haqida toʻxtalishga hojat yoʻq. Lekin

alifbo tartibidagi lug‘at so‘zlar va olam haqidagi sistema asosida birlashgan bilimlarimizga to‘g‘ri proporsional emas. Bizningcha, V.I.Dalning ta‘nali fikrida jon bor.

Alifbo tartibidagi lug‘atlarga qarama-qarshi tartibli, ya‘ni so‘zlarning ma‘noviy yaqinligi asosida birlashish printsipli ideografik lug‘atlar tuzilishiga olib keladi. Ideografik lug‘at nima? Grekcha *idea* – “tushuncha”, “idea”, “obraz” va *grapho* – “yozaman” so‘zlaridan kelib chiqqan. Tabiiy savol tug‘iladi: ideografik lug‘at qanday muammolarni yechadi, ilmning qaysi sohalarida amal qilishi mumkin? Bu savollarga chet ellik leksikolog va leksikograflar X.Kasares, V.Fon Vartburt, F.Dornzayf, I.A.Gul‘yanov, I.I.Sreznevskiy, L.V.Shcherba, M.Morkovkinlarning nazariy ishlaridan javob topishimiz mumkin.

Ideografik lug‘at muammosi rus tilshunosligida o‘z tarixiga ega. Uning nazariyasini ishlab chiqishda akademik L.V.Shcherbaning o‘z o‘rni bor [8]. Ideografik lug‘atlarning quyidagi asosiy ko‘rinishlari bor:

– ideografik tezaurus [9] (bu tipdagi ideografik lug‘atda so‘zlar qat‘iy mantiqiy falsafiy tasnif asosida joylashtiriladi);

– analogik lug‘at [10] (bunday lug‘at mualliflari so‘zlarning falsafiy – mantiqiy tasnifi asosida ish ko‘rmaydilar, balki ma‘noviy – alifboviy usulni ma‘qul ko‘radilar. Analogik lug‘atlarda so‘zlarning lug‘aviy ma‘noviy guruhlar to‘dasi alifbo tartibida joylashtirilgan bo‘ladi);

– o‘quv tematik lug‘at [11] (leksikografiya tarixida ingliz, frantsuz, nemis, ispan tillari materiallari asosida tuzilgan lug‘atlar talay).

Namunaviy o‘quv ideografik (tematik) lug‘at sifatida 1847-yilda tuzilgan K.Plottsning qayta-qayta nashr ettirilgan lug‘atini ko‘rsatish mumkin. Bu lug‘atda barcha so‘zlar 33 mavzuiy guruhlariga bo‘lingan. Har bir guruh o‘z ichida yana kichik guruhchalarga bo‘linadi. Masalan, nisbatan katta “Shahar” guruhi quyidagi kichik guruhchalardan iborat: *umumiy so‘zlar, ko‘cha, ko‘prik, kommunal xizmat, jamoat korxonalari* yoki “Salomatlik va kasallik” guruhi quyidagi bo‘limchalardan iborat: *kasalliklar, baxtsiz voqealar, vrach, dori, davolash, tana shikastlanishi* va hokazolar. Ba‘zi so‘zlarning ishlatilishi haqida illyustrativ misollar keltiriladi.

Rus tilshunosligida ideografik lug‘at tuzishga ilk bor bolgar tilshunoslari K.Babov va A.Vorgulevlar qo‘l urishdi [12]. Bu mualliflar juda izchil nazariy asosga ega bo‘lmasalar-da, 25 ming ruscha so‘z va iborani 8 katta mavzuiy guruhga birlashtirishdi: “Kishilik jamiyati”, “Odamga g‘amxo‘rlik”, “Iqtisod”, “Ta‘lim va madaniyat”, “Jismoniy tarbiya va sport”, “Tabiat”.

Bolgar tilshunoslari ishlaridan tashqari rus tili materiallari asosida tuzilgan ideografik lug‘at namunasi sifatida chex leksikograflari L.Rozkovtsova va Z.Ganusova hamda nemis tilshunosi G.O.Fogtlar ishlarini ham sanab o‘tish mumkin.

Har bir tilning leksikasi o‘sha tilda gapiruvchi uchun faol va nofaol holatda bo‘ladi. Faol qavatga kundalik so‘zlashuv so‘zlari kiradi, nutq jarayonida u so‘zlarni miyamizdan axtarib o‘tirishga hojat yo‘q. Bu so‘zni aytishga ehtiyoj tug‘ilgan zahotiy oq so‘zni talaffuz etamiz. Nofaol so‘zlar esa biz biladigan, lekin kundalik nutqimizda kam ishlatiladigan so‘zlardir. Faol so‘zlarda ma‘no va talaffuz orasidagi munosabat ikki tomonlama: M→T

Nofaol so‘zlar orasidagi aloqa bir tomonlama, chunki ularni o‘qiymiz yoki biror kishi nutqidan eshitamiz, u miyamizga tez kelmaydi, uni eslash kerak. Demak, u T→M munosabatiga ega.

Bu fikrlardan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: eshitganimiz va o‘qiganimizni tushunishga yordam beruvchi lug‘atni (alifbo lug‘ati) foydali deb hisoblaymiz. So‘zlarni butun mohiyati va sistemasi bilan ko‘z oldimizga keltiruvchi lug‘at (ideografik lug‘at) esa ma‘lum bir til imkoniyatidan bemaol va oson foydalanish imkoniyatini beradi. SHuning uchun bu zaruriy lug‘atdan biri. Bu lug‘at – tilning xazinasini.

“Alpomish” dostonidagi shaxs ma‘naviy sifatlarini ifodalovchi atov birliklarining ideografik tavsifi masalalari. Tarix fanlari nomzodi, dotsent Saodat Suleymanova “Ma‘rifat” gazetasining 2017-yil sonida berilgan “Ma‘naviyat — inson qadrining mezonidir” mavzusidagi maqolasida “Axloq” kategoriyasining tarkibi haqida fikr yuritarkan, uning 180 dan ortiq tushunchadan tashkil topishini ta‘kidlaydi. Bu maqola shaxs ma‘naviy sifatlarini ifodalovchi atov birliklari sistemasining har bir unsuri tarkibini aniqlashda namuna sifatida katta nazariy ahamiyatga egaligini ta‘kidlash lozim. Olima haqli ravishda ta‘kidlaganidek, *ma‘naviyat* so‘zning ma‘nosini to‘g‘ri uqqan kishi hayotda adashmaydi. Bu esa zimmamizga shaxs ma‘naviy sifatlarini ifodalovchi atov birliklari kategoriyasining turli aspektlarini chuqur o‘rganish va natijalarni ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya jarayoniga tatbiq etish vazifasini yuklaydi.

Shaxs ma‘naviy sifatlarini ifodalovchi atov birliklari sistemasining mohiyati uning tarkibiy qismlarini aniqlash yo‘li bilan ochiladi. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi”dagi muallif tomonidan ma‘qul deb topilgan tavsif asosida dostonida qo‘llangan shaxs ma‘naviy sifatlarini ifodalovchi atov birliklari sistemasini tashkil etuvchi unsurlarning mavzuviy guruhlarini ilk bosqichda taxminan quyidagi ajratish mumkin:

- I. Axloq
- II. Vijdon
- III. E'tiqod
- IV. Ma'rifat
- V. Munosabat
- VI. Shaxsiy takomillashuv

Bu unsurlarning har biri dostonida mavjud va ular alohida mikrosistemalarni tashkil etadi, o'z ichiga yuzlab tushunchalarni oladi. Masalan, "munosabat" unsuri "muhabbat", "nafrat" kabi ichki kategoriyalariga ega. "Muhabbat" kategoriyasi o'z tarkibiga "vatanparvarlik", "millatsevarlik", "oilaparvarlik", "tilsevarlik" singari qator tushunchalarni oladi. Kategoriyaning ichki tarmoqlanishi qanchalik uzayib borsa, uning mohiyati shunchalik muayyanlashib boraveradi.

"I. Axloq" mavzuviy guruhi (sistemi) o'z o'rnida ikki unsurdan tashkil topadi:

- I.1. Ijobiy xulq
- I.1. Salbiy xulq.

"Alpomish" dostonida "I.1. Ijobiy xulq" guruhiga kiruvchi so'zlar anchagina. Masalan, *ko'nglimizni xushlar eding* iborasi ijobiy xulq guruhiga kiruvchi ibora (atov birligi), u shaxsning ma'naviy sifatlarini ifodalovchi birliklar qatorida muhim rol o'ynaydi. Unga zid ravishdagi *Do'st yig'latib, dushmanini kuldirdi* iborasi esa "I.1. Salbiy xulq" guruhiga kiruvchi birlikdir.

Dostonida qo'llangan "II. Vijdon" guruhiga kiruvchi atov birliklarini ikki guruhga bo'lish mumkin:

- II.1. Vijdonlilik
- II.2. Vijdonsizlik.

Dostonida qo'llangan "II. Vijdonlilik" guruhiga kiruvchi atov birliklariga misollar: *rost aytmoq, anglamoq, qaror, va'dalashmoq, kechirmoq, oriyat.*

Dostonida qo'llangan "II. Vijdonsizlik" guruhiga kiruvchi atov birliklariga misollar: *ahmoq, qaysar, badbaxt, nomard, kirdikor, pora olmoq.*

Dostonida qo'llangan "III. E'tiqod" guruhiga kiruvchi atov birliklarini ikki guruhga bo'lish mumkin:

- III.1. E'tiqodlilik
- III.2. E'tiqodsizlik.

Ular o'z o'rnida yana quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- III.1. E'tiqodlilik o'z o'rnida quyidagicha parchalanadi:

III.1.1. “Diniy e’tiqodlilik:

III.1.1.Diniy bo‘lmagan e’tiqodlilik.

Dostonda qo‘llangan “III.1.1.Diniy e’tiqodlilik” guruhiga kiruvchi so‘zlar: *nazr-niyoz bermoq, do‘stlik, Ollo, Nabi, Rahmon, yaratgan, maqsad, farishta, maloyiq, omin, musurmon, ulug‘, oqsoqol, nabi-yor, komilbachcha, himoyatim, kalimai-shahodat, pir, Xudo, Qur‘on, qodir-xudo, e’tiqod, ilohim, taqdir, sig‘inaman, hazrat.*

Dostonda qo‘llangan “III.1.2.Diniy bo‘lmagan e’tiqodlilik” guruhiga kiruvchi so‘zlar: *gunohkor, bebosh, imonsizlar, imonsiz, juvormak, mal‘un, shayton, gunohkor.*

“IV.Ma‘rifat” mavzuviy guruhiga kiruvchi atov birliklarini shartli ravishda ikkiga ajratamiz:

IV.1.Diniy ma‘rifat

IV.2.Diniy bo‘lmagan ma‘rifat.

Dostonda qo‘llangan “IV.Diniy ma‘rifat” guruhiga kiruvchi so‘zlar: *salom bermoq, mulla bo‘l, ilm, burro, o‘qiiq, saxiy, tilamoq, sig‘inmoq, rahm, rasmi-qa‘da, rasm, mushtipar, shahodat, insof, dini barhaq, obod qilmoq, nomdor, kechirmoq, pand, omon-eson, shafolat, nasihat, foniy dunyo.*

Dostonda qo‘llangan “IV.Diniy bo‘lmagan ma‘rifat” guruhiga kiruvchi so‘zlar: *baxildan, zolim, bidahat, jabr, jafo, shumlik, beijozat, zulm, iymanib, uyalmoq, qabohat.*

“V.Munosabat” mavzuviy guruhi atov birliklarini shartli ravishda ikkiga ajratamiz:

V.1. Muhabbat

V.2. Nafrat

Dostonda qo‘llangan “V.1.Muhabbat” guruhiga kiruvchi so‘zlar: *mehr, ko‘ngil, yurt, mehribonlik, ziyoda, qavm-qarindosh, yoqimli, mehribon, qiblagoyim, yurt, hurmat, adab, oshiq, sirdosh bo‘lmoq.*

Dostonda qo‘llangan “V.2.Nafrat” guruhiga kiruvchi so‘zlar: *yomon, sharmanda, badfe‘l, ayyor, zo‘rlilik, befarosat, bema‘ni, manmanlik, ahmoqlar, beadablik, haromi, ayyor, takabbur, tuhmati, josus, o‘g‘irlik.*

“VI.Shaxsiy takomillashuv” mavzuviy guruhini uchta ichki guruhga bo‘lish mumkin:

VI.Shaxsiy jismoniy takomillashuv

VI.Shaxsiy ma‘naviy takomillashuv

VI.Shaxsiy iqtisodiy takomillashuv.

Dostonda qo‘llangan “IV.Shaxsiy jismoniy takomillashuv” guruhiga kiruvchi so‘zlar: *chog‘lanib-sozlanmoq, o‘qib yozmoq, ergashtirmoq, mehnatkash, otlanmoq, alp.*

Dostonda qo‘llangan “IV.Shaxsiy ma’naviy takomillashuv” guruhiga kiruvchi so‘zlar: *barkamollik, do‘st, hamroh, arbob, aql, o‘qimoq, savod, maslahat, qarindosh, yaxshi, aql-hush, haddili, fahm, zehn, amal, labbay, farog‘at, toqat, ulfat, sirdosh, es, peshvoz chiq, shod-u xurram.*

Dostonda qo‘llangan “IV.Shaxsiy iqtisodiy takomillashuv” guruhiga kiruvchi so‘zlar: *usta bo‘lmoq, mehnat qilmoq, boyimoq, to‘ymoq.*

Ajratilgan shaxs ma’naviy sifatlarini ifodalovchi atov birliklarining bu semantik shajarasi – shartli, nisbiy va ilk tajriba natijalari. Zero, lug‘atshunoslikning yutuqlari tufayli keyingi yillarda lug‘atlarning yangidan yangi tiplari yaratilmoqda. Chastotali, ters, morfem, lug‘atlar, ta’lim yo‘nalishida chop etilayotgan ma’lumotnoma, so‘zlashgich, glossariy kabilar fikrimiz dalili. Shaxs ma’naviy sifatlarini ifodalovchi atov birliklarini bu lug‘atlarda qamrab olish ularni turli aspektda leksik-semantik tadqiq qilishni taqozo etadi. Bugungi kunda insoniyatning aql-zakovati tasavvur qilib bo‘lmaydigan darajada o‘smoqda. Ilmiy, texnik-texnologik taraqqiyot dunyodagi tillarning lug‘at tarkibini ham keskin o‘zgartirib yuborayotir. Bu esa leksik xazinadagi barcha birliklarni to‘plash va ongda joylashuv sxemasiga muvofiq ravishda semantik maydonlarga birlashtirishga e’tibor kuchaydi. Kompyuter lingvistikasi taraqqiy etishi bilan esa yangi tipdagi – giperhavolali lug‘atlarga hayotiy ehtiyoj kuchaydi. Sistem leksikologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari, jumladan semik (komponent) tahlil usuli bo‘yicha qo‘lga kiritilgan natijalar bunday lug‘atlar yaratishning nazariy asoslari mustahkam ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Хамраева Ё.Н. Ўзбек тилининг идеографик луғатини тузиш тамойиллари (ҳаракат ва ҳолат тушунчасини ифодаловчи сўзлар мисолида): Филол. фанлари номзоди. ...дисс. – Қарши, 2009. – Б. 35-38.

2. Морковкин В.В. Идеографические словари. – М.: Наука, 1970; Караулов Ю.Н. Лингвистическое конструирование и тезаурус литературного языка. – М.: Наука, 1981. – С. 149.

3.Тихонов А.Н., Хатамов Н.Т., Емельянова С.А. Русско-узбекский тематический словарь. – Ташкент: Ўқитувчи, 1975. – С. 520.

4. Коменский Я.А. Избранные педагогические сочинения. – М.: Юрайт, 2019. – С. 129.

5. Ожегов С.И. Толковый словарь русского языка. – М.: Мир и Образование, 2014.
6. Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка (в четырех томах). – М.: Русский язык, 1989. Т. 1. – С. 21.
7. Крушевский Н.В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Наследие, 1998. – С. 37.
8. Щерба Л.В. Опыт общей теории лексикографии // Известия АН СССР. ОЛЯ. 1940. - №3.
9. Roget P.M. Thesaurus of English words and phrases. – Lnd. 1852.
10. March F.A. and March F.A. March's Thesaurus Dictionary. - NY., 1958.
11. Mac.Loriche R. Le mot et l'idee. – Paris, 1965.
12. Бабов К., Въргулев А. Тематичен русско-български речник. – София, 1961.

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA KORPUSNING AHAMIYATI

Oqila Abdullayeva, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU 2-kurs doktoranti


Oxirgi ellik yil ichida ta'lim tizimining barcha turlarida, xususan til o'qitish tizimida ham kompyuter texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish yuqori sur'atlarda o'sdi. Ayniqsa, oxirgi yillarda tilni ikkinchi til sifatida yoki umuman xorijiy tillarni o'qitishda lingvistika maydoniga alohida metodologiya sifatida kirib kelgan Korpus lingvistikasining ahamiyati oshdi. Korpus – tabiiy ravishda uchraydigan matnlarning (yozma yoki yozib olingan og'zaki matnlar) elektron holatdagi to'plamidir. Korpusning hajmi va matnlar turi tadqiqot maqsadiga ko'ra tanlanadi, ba'zi korpus namunalari o'ndan ortiq matn turi va janrini o'z ichiga olgan minglab matnlar yig'indisidan iborat. Masalan, Britaniya milliy korpusi gazeta va jurnal matnlaridan tashqari, badiiy adabiyot namunalari, turli yozishmalar, memorandumlar, turli shaxslar nutqlari, maktab va universitetlarda yozilgan esselar, e'lon qilingan maqolalardan iborat to'plam bo'lib, korpus 100 million so'zni tashkil etadi. Shuning uchun ham tabiiy tilning o'z ichida va boshqa tillarda uchramaydigan lingvistik fenomenini aniqlash korpus orqali oson va tabiiy kechadi. Chunki korpus tilshunosligi tilga intuitiv emas, obyektiv qarashni ta'minlaydi. Korpusga asoslangan tahlil deyarli har qanday til shakllarini

leksik, tarkibiy, leksik-grammatik, nutqiy, fonologik, morfologik o'rganishni amalga oshirishi mumkin.

Tilni o'qitish jarayonida korpus lingvistikasi sohasining qanday roli mavjud, korpusdan qanday foydalanish mumkin, degan savol tug'ilishi tabiiy. Birinchidan, o'qituvchi an'anaviy ta'lim berishdan cheklanib, o'quvchiga haqiqiy tadqiqot olib borishni, mustaqil ishlashni, tahlil qilishni o'rgatadi. Ikkinchidan, o'quvchi tabiiy til faktlariga tayanib emas, tilda mavjud qoliplarni real kontekstlarda ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Uchinchidan, o'quvchi ma'lumotlar asosidagi o'rganish usulidan foydalanish ko'nikmasini egallaydi. Shuningdek, xorijiy tillarni o'rganayotgan o'quvchilar korpus orqali tilning quyidagi xususiyatlarini aniqlaydilar:

- kontekstda so'zlarning uchrashi mumkin bo'lgan qo'shimcha ma'nolari va vazifalari;
- yozma va og'zaki nutqning tuzilishi va tabiati;
- foydali iboralar, o'zlari nutqda ishlatishi mumkin bo'lgan odatiy so'zlashuvlar;


– til xususiyatlarining turli matnlarda takrorlanmasligi va boshqalar. Ammo dars jarayoniga korpusni tatbiq etish, korpus ma'lumotlaridan foydalanish oson emas. Avvalo dars mavzusiga va o'quvchilarga mos korpus va dasturiy ta'minotni tanlay bilish, korpusdan foydalanish malaka va ko'nikmasiga ega bo'lish kerak bo'ladi. Bunda katta mas'uliyat o'qituvchi zimmasiga yuklanadi. McEnery, Sinclair, Reppen, Krieger kabi olimlar til o'qitish darslarida oddiy, lekin muhim ma'lumotlarni ko'rsata oladigan konkordans dasturlaridan foydalanishni taklif etishadi. Mazkur dastur matnda mavjud barcha so'zlar lug'atini, ularning statistikasini (1-rasm) ko'rsatadi.



1-rasm. So'zlar ro'yxati

Yuqoridagi 1-rasmda tahlil uchun 118 ta matndan iborat kichik korpus tayyorlanib, AntConc dasturi orqali so'zlar ro'yxati tekshirildi.

O‘quvchi bu yerda jami 30009 ta token va 7337 ta so‘z shakli borligini, “saylov” so‘zi eng ko‘p (688 ta) ishlatilganini xulosa qilishi mumkin.



2-rasm.

2-rasmda korpusdan “davlat” so‘zi qidirilgan, korpusda mavjud “davlat” so‘zi qatnashgan barcha matnlar ekranda paydo bo‘ladi, shuningdek, o‘quvchi so‘zni boshqa so‘zlar bilan birika olish imkoniyatini ham tahlil qilishi mumkin. Dasturda har bir matnga murojaat qilib, “davlat” so‘zining joylashish o‘rni va vazifasini kuzatishi, muhim tahliliy xulosalar qilishi mumkin.

Xorijiy tillarni o‘qitishda korpuslardan foydalanish, nafaqat o‘quvchilar uchun, shu bilan birga, o‘qituvchilar uchun ham foydalidir. O‘qituvchi darslar uchun maqsadli kichik lug‘atlar tayyorlashi, sillabus ishlab chiqishi, test tuzishi, grammatikaga oid turli topshiriqlar va boshqa o‘quv mashg‘ulotlarini tayyorlashda korpuslardan foydalanishi mumkin. Bunda o‘qituvchi uzoq vaqt adabiyotlar qidirishi yoki turli manbalardan misollar yig‘ish uchun qo‘shimcha vaqt yo‘qotmaydi.

Ammo tillarni korpusga asoslangan metodika bo‘yicha o‘qitishda ba’zi cheklovlar va kamchiliklar mavjud. Birinchidan, korpusda yig‘ilgan matnlarning ko‘pchiligi yozma matnlardan tuzilganligi uchun tabiiy kundalik so‘zlashuvdan farq qiladi, o‘quvchi tahlil qilishi kerak bo‘lgan lingvistik xususiyatlar ozchilikni tashkil qiladi, shuning uchun amalga oshirilgan xulosa to‘liq bo‘lmasligi mumkin. Ikkinchidan, korpuslardan foydalanishda kompyuter dasturlari zarur va buning uchun ko‘pincha o‘quvchining onlayn bo‘lishligini talab qiladi. Uchinchidan, ko‘pchilik korpus va dasturlarni ishga tushirishdan avval ro‘yxatdan o‘tishni, belgilangan oylik to‘lovni amalga oshirib litsenziyaga ega bo‘lishi zarur, bu esa darslarda korpuslarning keng ommalashib ketmasligiga olib keladi.

To'rtinchidan, foydalanuvchi korpuslardan foydalanishda dasturlash ta'minoti yuzasidan texnik ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, korpus lingvistikasi va korpuslarning keng imkoniyatlaridan foydalanish bugungi kun xorijiy tillarni o'qitish metodikasidagi global muammo va talablaridan biridir. Kompyuter texnologiyalarining keng imkoniyatlaridan foydalanib, korpus orqali til xususiyatlarini tahlil qilishni o'rgangan har bir o'qituvchi va o'quvchi qisqa vaqt ichida bir-birini takrorlamaydigan qimmatli xulosalarga ega bo'lishi rivojlangan tillar misolida o'z isbotini topib ulgurgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Reppen R. Using corpora in the language classroom. Cambridge University Press, 2010.

2. Krieger D. Corpus linguistics: What it is and how it can be applied to teaching. The Internet TESL Journal, Vol. IX, No. 3, March 2003

<http://iteslj.org/>

3. Almutairi N.D. The effectiveness of Corpus-based approach to language description in creating corpus-based exercises to teach writing personal statements. English Language Teaching; Vol. 9. No. 7. 2016.

4. Balunda S.A. Teaching akademik vocabulary with corpora: student perceptions of data-driven learning. Thesis for the degree Master of arts. Indiana University, 2009.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКСКИХ КЛАССАХ

Шохсанам Файзиева,

преподаватель русского языка и литературы,

ГОСШ №9 Юнусабадского района,

г. Ташкент

Главной составляющей в образовательном процессе является познавательный интерес, являющийся основной мотивацией к активной деятельности учащегося. Интерес к предмету помогает лучше усвоить материал. На сегодняшний день главной задачей обучения является не только передача определенных знаний и умений, но и формирование у учащегося личностных и профессионально значимых качеств. Эту задачу решают

инновационные подходы в обучении, смещающие акцент на активность преподавателя и на активность учеников.

Нам известно, что трудности усвоения нового языка связаны с адаптацией учащегося к иным обычаям, традициям, культуре, истории, ценностям другого народа. Поэтому для эффективного развития речи на неродном языке необходимы методы, для приобретения умений и навыков разговора, чтения и перевода. Мы видим решение в применении инновационных подходов к разработке методики преподавания русского языка для узбекских учеников.

Для выражения мыслей на неродном языке недостаточно знаний одних только правил, необходимо, прежде всего, расширение словарного запаса. Для этого еще на этапе знакомства с новыми текстами мы используем упражнения, акцентируем учеников на содержания текста по контексту ключевых слов. Разбираем, изучаем синтаксические конструкции, выявляем русскую лексику с использованием ключевых слов.

Восприятие, понимание правил русского языка у учащихся происходит через грамматику родного языка, что является причиной совершаемых ошибок в орфографии и пунктуации. Данная методика преподавания русского языка с акцентом на типичных ошибках, характерных для учеников, говорящих на узбекском языке, позволяет ускорять процесс усвоения новой темы.

В процессе обучения русскому языку важную роль имеет работа со словарём. Эффективными приемами на занятиях русского языка стали синхронные переводы с русского на узбекский язык и обратно. Например:

Aziz – iqtidorli o'quvchi.

Азиз – одаренный ученик.

Эффективным подходом в методике обучения является работа в группах по парам, что позволяет создавать различные речевые ситуации. Для полноценной реализации коммуникативной компетенции привлекаются носители русского языка. На сегодняшний день при изучении иностранных языков широко используются информационные компьютерные технологии. Они способствуют развитию самостоятельности учеников в процессе познания языкового материала. С помощью обучающих программ и приложений можно расширять границы знаний, формировать новые методы и способы самообучения и самореализации.

На уроках русского языка нами проводятся медиа уроки. Такие занятия вызывают интерес обучающихся, позволяют заострить их внимание на нужных моментах, стимулировать активность, выявить творческие способности. Интересное занятие способствует более быстрому и легкому усвоению языкового материала. Также проводятся интернет-тестирование как для проверки знаний студентов по конкретным темам, так и для выявления имеющихся пробелов в давно изученном материале, самооценки способностей. Обобщив, можно сделать вывод, что применение инновационных технологий на практических занятиях русского языка в классах с узбекским языком обучения способствует повышению коммуникативных навыков. Кроме того, использование современных технологий мотивирует преподавателя, к внедрению новых методов в образовательный процесс.

Список литературы

1. С.С. Магдиева. Методика преподавания русского языка и литературы.
2. Ф.А. Габдулхаков. Очерки по методике преподавания русскому языку.

YUKSAK IDEALLARGA INTILGAN KO'NGIL

Odilova Dilrabo, XTV tasarrufidagi tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

O'zbek xalqining iste'dodli shoirlaridan biri bu Muhammad Yusufdir. Uning she'rlari ravon va soddaligi, xalqona ohangga egaligi, hayotga, haqiqatga hamnafaslik ruhi mavjudligi bilan kitobxonlar qalbidan chuqur o'rin egallagan.

Muhammad Yusuf she'riyati soddaligi, samimiyligi, tuyg'u va kechinmani ta'sirchan ifoda etilgani bilan kitobxon qalbiga tez va oson yetib boradi. Bugungi kunda shoir shaxsiyatiga, uning ijodiy merosiga davlatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi "Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog'i hududida adiblar xiyobonini barpo etish to'g'risida"gi qarorida milliy adabiyotimizning ulkan namoyandalari qatorida O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf xotirasiga

bag'ishlangan yodgorlik o'rnatish masalasi ham alohida tahkidlab o'tildi [1].

Darhaqiqat, bunday yuksak e'tibor shoirning dunyoqarashi, falsafiy-estetik kontseptsiyasi istiqloq g'oyalari uchun hamohang ekanini ko'rsatadi. Zotan, Muhammad Yusuf o'zi ko'tarayotgan muammolar muhim ekanini anglab qalam tebratdi. Mustaqillik davri ijtimoiy-mahnaviy hayotiga faol ta'sir etdi. Elimiz shoir she'rlarida o'zini, o'zligini ko'rdi, hayotining manzaralarini chuqur his eta oldi.

M.Yusuf ijodi haqida so'z yuritgan adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev quyidagi fikrlarni ta'kidlaydi: "O'zbeklargagina xos sezimlarni o'ta xalqona yo'sinda samimiy ifodalay olgan shoir Muhammad Yusuf o'zining qisqa umri mobaynida ibratli ijodiy yo'lni bosib o'tdi. Olovli she'riy nafas, kutilmagan tashbihlar, o'tkir va serma'no timsollar, mayin ohang shoir bitiklariga xos xususiyatlardir. M.Yusuf ijodini o'rganish o'zbekning ko'nglini yaxshiroq bilish imkonini beradi" [3; 241-b.]. Ko'rinadiki, xalq tarixini, dardini, quvonchini, orzu-armonlarini poetik jilolantirgan shoir she'riyatini o'rganish o'zbekni bilish, anglash demakdir.

M.Yusuf she'riyatida milliy kolorit jilvalari badiiy yuksak pafosda kuylangan. Qolaversa, uning bitiklarida shakl, mazmun, ohang jihatidan folklorga yaqinlik yorqin ko'rinib turadi [2; 42-b.]. Badiiy umumlashmalarida ham beg'ubor soddalik va samimiyat ko'zga tashlanadi. Shu boisdan ham shoir lirik merosi va uning qahramonini mustaqillik davri ideallaridan, xalqimiz necha ming yillar davomida orzulagan maqsad intilishlardan ajratish mumkin emas. Uning "Fotima" degan she'ri boshlamasida:

Bir bayotim bor edi,

Bir bayotim yo'q edi.

Bir qanotim bor edi,

Bir qanotim yo'q edi.

degan misralarni uchratamiz. Mazkur boshlama bizga xalq ertagu dostonlarning maxsus an'anaviy zachinalarini eslatadi.

M.Yusuf Alpomishga alla aytgan, ulug' saltanat bunyodkori Sohibqiron beshigini tebratgan, yulduzlarga narvon qo'ygan Ulug'bekka doyalik qilgan, bir mayizni qirq bo'lib yegan dovruqli, ahil-inoq el farzandi ekanidan behad faxrlanadi. Har bir yurtdoshi qalbida anashu qadriyatlarimizga ehtirom va iftixor tuyg'usini uyg'otmoqqa shoshiladi. Shu bois: "Xalq bo'l elim!", deya takror-takror xitob qilishdan zinhor charchamaydi. Vatanni: "yorug' jahonim", "taxti Sulaymonim", "yolg'izim, yagonam", "singlim", "onam", "hamdard-hamxonam",

“Oftobdan ham mehri ilig‘im”, “topingan koshonam”, “ulug‘lardan ulug‘im” tarzida ardoqlash uchun odam bolasi shodon kunlarini Vatan mehriga vobasta, nolon damlarini esa, uning yupanchidan ayri his qilolmaslik darajasida ardoqlay olishdek baland g‘urur sohibi bo‘lmog‘i lozim.

Anglashiladiki, Muhammad Yusuf Vatan va uning tarixini makon va zamon birligida yaxlit poetik idrok etadi. “*O‘tgan kun*”larning yorug‘ onlaridan iftixor, nolon damlaridan iztirob chekarkan, birlik va yakdillik g‘oyasining himoyachisi hamda targ‘ibotchisi sifatida namoyon bo‘ladi. “Bizning bo‘ston qayda bor? O‘zbekiston qayda bor?”, deya iftixor tuyadi. Qalbida cheksiz milliy g‘urur mujassam bo‘lgan shoir lirik qahramoni tuyg‘ulari kitobxonni befarq qoldirmaydi.

Shoir tabiat erkasi Jayron ko‘zlarida qonli yosh ko‘rganida: “Oyog‘ingga qo‘yib yotay bosh, Kel, tug‘ishgan og‘ang bo‘lay man”, deya ekalata oladi. Jayron va lirik qahramon qalb jarohatidan silqiyotgan qon ularni og‘a-ini va dildosh qilgani anglashilgach, bu dunyoning bag‘ritosh nokaslariga bo‘lgan nafrat hissi ortadi. Ayni damda, biz bu she‘rda: ezgulik, beozor samimiyat va teran e‘tiqod inson tiynatidagi salbiy sifatlar: gumrohlik, nokaslik va nodonlik qarshisiga qo‘yilganini tuyamiz. Shoir abadiyat poyida turib, foniy dunyo to‘zonlarida o‘zini anglamagan g‘ayur kimsani asl haqiqatdan ogoh etarkan: “O‘tar inson yaxshi yomoni, Mehr qolur, muhabbat qolur”, deya xitob qiladi.

Yuragim-ey, boshlab kelding

Meni qayga?

Bag‘rim o‘xshar pora-pora

Bo‘lgan nayga.

degan misralarni bitgan shoir poeziyaning qadim va buyuk so‘qmog‘i bo‘ylab og‘ishmay ilgarilab boradi. Zotan, chin qalamkash uchun ortga yo‘l yo‘qligini teran tuyadi va anglaydi. Shoirlik ko‘ngil tilagiga ko‘ra tanlangan va ongu shuurini nurafshon etgan chaqirtoshli so‘qmoq shirin azobining toti, mashaqqat-la yonib yondirmoq lazzati, qalb kechinmaholatlarini parchalab elga ulashmoq saodati ekanini yaxshi biladi. Shuning uchun ham shoirning qanchadan qancha she‘rlari xalqimizning dilida qo‘shiq bo‘lib qoldi.

Shoir “Onam yig‘lar”, “Zorim qolur”, “Lolaqizg‘aldoq”, “Yig‘lashni bilmaydi qizlarim” kabi she‘rlarida o‘z taqdirini ko‘rgan va bashorat qilgan bo‘lsa ajab emas. Masalan, shoirning “Tuzalmaydi dardim mening o‘lsam kerak” misrasi bilan boshlanadigan she‘rining har bir satrida qanday ruhiy holat ifodalanayotganiga ehtibor qaratiladi.

Tuzalmaydi dardim mening o‘lsam kerak,

Tuproq bilan og‘a-ini bo‘lsam kerak

misralari zamiridagi tagma’no ham, shu holatni keltirib chiqargan tushkun kayfiyat sababini ham anglash mumkin bo‘ladi.

M.Yusuf lirikasida uning yaxlit borlig‘i, mavjudiyati namoyon bo‘ladi. Chunki, shoir ruhiyatida ikkilanarkan, bir tomondan sohir tabiat, ikkinchi jihatdan o‘zi uchun o‘z mavjudligini mushohada va tasvvur qiladi:

Hamma shoir zotin yig‘sa arzimas

Onamni sog‘inib to‘kkan yoshimga...

Ko‘rinadiki, shoir faol tarzda fikrlaydi, ruhiyat puchmoqlarida kechayotgan harakat-holatlar to‘lqiniga xos mavjlarni poetik idrok etadi. Shuning uchun biz uning ash‘orlarida kuzatuvchan nigoh, keng tasavvur, teran tafakkur ifodasiga duch kelamiz. Shoirning barcha fazilatu nuqsonlari, hamisha erkka talpingan va ruhiy hayratlarga to‘la fayziyob hayotidan voqif bo‘lamiz. San’atkor “*men*”i aks etgan badiiy matn ortida pinhon muallif buyuk qalbini ham ko‘ra olamiz. *Shoir lirikasi* kitobxon estetik didini ingichkalashtiradi, hayrat tuyg‘usi yuksaltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog‘i hududida adiblar xiyobonini barpo etish to‘g‘risida”gi qarori. Xalq so‘zi // 2017-yil 19-aprel.
2. Alimbekov A. Latif she’riyat. – T.: Adib, 2014.
3. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
4. Muhammad Yusuf. Biz baxtli bo‘lamiz. – T.: Nihol, 2011.
5. Muhammad Yusuf. Ulug‘imsan Vatanim. – T.: O‘zbekiston, 2010.
6. Muhammad Yusuf saboqlari / To‘plovchi va hammuallif Shukur Qurbon. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2012.

QO‘SHMA OTLARNING EVALUTSION TARAQQIYOTI (QADIMGI TURKIY MANBALAR ASOSIDA)

Hakima Jo‘raqo‘ziyeva, Farg‘ona viloyati
Beshariq tumanidagi 2-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi
o‘zbek tili fani o‘qituvchisi

Jamiyatda kishilarning eng muhim aloqa vositasi bo‘lgan til bir qancha davrlar mahsulidir. Uzoq asrlar mobaynida jamiyat taraqqiyotiga

mos holda asta-sekin rivojlanadi. Til taraqqiy etgan sari, ayniqsa uning grammatik modellari soddalashadi. Jamiyat taraqqiyoti va undagi o'zgarishlarga bog'liq ravishda tilning lug'at guruhi turli yo'llar bilan ham boyib boradi. Shuni qayd etish kerakki, qadimgi turkiy tilning lug'at qismida mavjud bo'lgan so'zlarni o'sha davrda yashagan urug' yoki qabilaga mansub deb bo'lmaydi. Chunki qadimgi turkiy til leksik qatlamida bo'lgan so'zlar o'sha davrda yashagan urug' va qabilalarning barchasiga tegishli bo'lgan deb qarash zarur. Bunda albatta qadimgi turkiy til lug'at qismida turkiy bo'lmagan leksemalar yo'q emas, degan xulosaga kelmaslik kerak. Ana shu nuqtai nazardan qadimgi turkiy til leksik qatlamini ikki guruhga ajratadi:

1. O'z qatlam;
2. O'zlashgan qatlam.

O'z qatlam qadimgi turkiy tilni asosiy leksikasini tashkil etadi. Qadimgi turkiy tilning leksik qatlamiga toponimlar, etnonimlar, tabiat hodisasini bildiruvchi leksemalar, gidrotoponimlar, onomastika, zoonimlar, qarindoshlikni bildiruvchi terminlar, kosmik jismlar nomi, kiyim-kechakka oid so'zlar kiradi. Leksik qatlamning boyish manbalari bo'lgan bu guruhlarda qo'shma so'zlarning qo'llanganligiga guvoh bo'lamiz. Qo'shma so'zlarni ham shu guruh orqali ma'lum bir tartibda joylashtirish maqsadga muvofiqdir.

Qadimgi turkiy tilning leksik qatlamiga xos so'zlardan biri *toponimlar-joy nomlaridir*. Mazkur toponimlar o'sha davrda yashagan turkiy xalqlarning kundalik moddiy, madaniy turmushi, ularning qayerlarda istiqomat qilganliklari, kasb-hunari, etnik qatlami haqida ma'lumot beradi. Shu jihatdan olib qaraganda, grammatik qurilish jarayonida qadimgi turkiy tilda qo'shma otlarning qo'llanishi ancha faol bo'lganligiga guvoh bo'lamiz. Asarlarda quyidagi toponimlar uchraydi: *Бӧсбалык ыркыз оракум*.

Qadimgi turkiy tilning leksik qatlamiga xos so'zlardan yana bir guruhi *onomastikadir*. Onomastika ham tilning lug'at qatlamini boyitishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birgalikda qo'shma otlarning qadimgi turkiy tillarda qay tariqa qo'llanganligiga alohida dalil bo'lib xizmat qiladi. Onomastika qadimgi turkiy xalqlarning dunyoqarashi, e'tiqodini bilish uchun muhim vositadir. Qadimgi turkiy tillarda quyidagi an'analarga ko'ra shaxslarga nom qo'yganlar

1. O'zlari uchun muqaddas hisoblagan hayvonlarga nisbat berish: *Бәрибарс*;

2. Shaxslarning ma'lum bir sifat xususiyatlari nom qo'yishga asos bo'ladi. Bunda nomlarning semantikasi ostida shu belgilar yotadi: *Kul tigin – kuchli, To'nyuquq – to'ng'ich javhar, Bilga xoqon – dono;*

3. Kosmik jismlarga nisbat berish orqali shahslarga nom qo'yilgan. Bu ham totemlardir: *Kuntug'di, Oyto'ldi*. Hozirgi kunda *Oyto'ldi* ismi tatar tilida *Ayto'ldi* shaklida saqlanib qolgan,

Qadimgi turkiy tillarning lug'at qismida gidrotoponimlarni bildirgan leksemalar ham anchagina. Bular sirasiga: *Bolqoshko'l, Yartiko'l, Qorako'l, Altinko'l*.

Alisher Navoiy davri leksikasida ham qo'shma otlar ko'zga tashlanadi. "Xazoyinul-maoniy" asarida uchragan soddalashayotgan qo'shma otlarni asosan 2 guruhga ajratiladi:

1. Ikkinchi komponenti ot turkumiga kiruvchi.

2. Ikkinchi komponenti fe'l turkumiga kiruvchi.

Birinchi guruhda yasalgan qo'shma otning ikkinchi komponenti ot turkumiga kiruvchi so'z bo'lib, turli ta'sir va o'zgarishlar natijasida so'zlik belgilarini yo'qota boradi. Uning quyidagicha ko'rinishlari bor:

1. Ikkinchi komponent - *dosh* elementi: *yo'ldosh, qo'ldosh, bo'ydosh*.

Deyarli barcha turkologlar bu elementni mustaqil turkiy so'z ekanligini qayd etadi. Turkiy tillarda turli shakllarga ega. Masalan, tatar tilida *tash, täsh*, turk tilida *daş* shaklida. Shuningdek, *dash* elementi mustaqil so'z *ash* dan kelib chiqqan degan fikrlar ham bor. Uning ma'nosi *sheriklik, birgalik*dir. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda *äs- o'rtoq, äb, äsh-uy o'rtoq* sifatida keladi. Samarqand-Buxoro dialektiga kiruvchi Shofirkon, G'ijduvon, Vobkentda hozirda ham mustaqil so'z sifatida saqlanib qolgan. Ammo shuni ta'tidlash joizki, bugungi kun tilshunosligida *-dosh* elementi mustaqil leksema hisoblanmaydi. Balki ot yasovchi qo'shimcha sifatida shakllangan.

2.-*shan*: bu so'z Xitoy tili materialidir. Yenesey yodgorliklarida tuva, shor, xakas tillarida *tog'lik o'g'il*, ko'chma ma'noda *ulug'lik, ulug'vorlik, buyuklik* kabi ma'nolarni anglatadi. Bugungi kun tilshunosligida bu qo'shimcha sifat so'zi bilan o'rin almashgan.

3. *-vash*: javhash, afsonavash, begonavash. Bu so'z ham *ashning* o'zgargan shaklidir: *vash*.

4. *Obod* so'zi obodoning qisqargan shaklidir [3; 9-13-b.]. Bu so'zda morfologik qayta bo'linish hodisasi bo'lib, tarixan qo'shma bo'lgan so'z o'zak yana qo'shma otning ikkinchi komponenti bo'lgan. Bugungi kunda bu so'z mustaqil ma'no anglatib, qo'llana oladi.

Alisher Navoiyning “Xazoyinul-maoniy” asarida qo‘shma so‘zlarning 1925 ko‘rinishi mavjud. Jumladan, bu asarda quyidagi qo‘shma otlarni ko‘rish mumkin:

1. Gulnor – bahorda har xil ochiladigan, xushbo‘y, yovvoyi gul, anor guli.

2. Gulob – atirgulning suvi.

3. Xushrang – xush ko‘rinishli, ko‘rkam, chiroyli.

4. Zarnigor – zar bilan bezalgan, oltin suvi yuritilgan [1; 128-129-b.].

Bundan tashqari *arshparvoz* (*arshda parvoz etuvchi*), *afsonapardoz* (*afsona to‘quvchi*), *gungmaqol* (*saqov*), *iffatpanoh* (*nomusni asrovchi*), *charxpardoz* (*ko‘kka uchuvchi*) qo‘shma so‘zlari ham uchraydi [1; 129–131-b.].

Hozirgi turkiy xalqlarning bevosita ajdodlari tomonidan X-XII asrda barpo etilgan qoraxoniylar saltanati ijtimoiy-siosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy, diniy turmush tarzini muayyan darajada ifoda eta oluvchi obidalar tilida iste’molda bo‘lgan leksik birliklarning kattagina qismi bugungi kunda u yoki bu miqdorda qo‘llanishida davom etmoqda.

Tilda shunday so‘zlar borki, tarixan ikki komponentdan iborat bo‘lib, bugungi kun leksikasida tub so‘z shaklini tashkil etish holati mavjud. O‘zbek, turk va tatar tillarida huddi shu hodisada umumiylikni ko‘rish mumkin [4; 19–51-b.]. Masalan:

Bu kun – o‘zbek tilida (qadimgi turkiy tilda);

Bugun – o‘zbek tilida (hozirgi kunda);

Bugen – tatar tilida (hozirgi kunda);

Bu k n – tatar tilida (qadimgi turkiy tilda);

Bug n – turk tilida (hozirgi kunda);

Bu g n – (qadimgi turkiy tilda);

Bilaguzuk – o‘zbek tilida (hozirgi kunda);

Bilak uzuk – o‘zbek tilida (qadimgi turkiy tilda);

Bel zek – tatar tilida (hozirgi kunda);

Bel k y zek – tatar tilida (qadimgi turkiy tilda);

Bilezik – turk tilida (hozirgi kunda);

Bilek  zuk – turk tilida (qadimgi turkiy tilda).

Umuman olganda, qadimgi turkiy tilda qo‘shma so‘zlar, jumladan qo‘shma otlar iste’molda bo‘lgan. Evolyusion taraqqiyoti davomida fonetik, Grammatik jihatdan o‘zgarishlarga uchrab, hozirgi kunda turkiy tillarda ma’lum bir shakllarda mavjud. O‘zbek, turk va tatar tillaridagi qo‘shma otlar bunga yorqin misoldir. Kul tigin, To‘nyuquq, Bilga xoqon bitigtoshlaridan to‘plangan misollar yuqoridagi fikrimizni asoslaydi.

Qo'shma otlarni etnonimlar, toponimlar, onamastika, gidrotoponimlar tizimida guruhlash orqali qadimgi turkiy til leksikasida mavjud bo'lgan qo'shma otlarni muayyan asosda tarixiy shakllanish bosqichini yoritishda ko'mak beradi. Shu bilan bir qatorda bu guruhlarga kiritilgan misollar yordamida turkiy tillar sirasiga kiruvchi o'zbek, tatar va turk tillari uchun umumiy bo'lgan so'zlarni topishga va bugungi kundagi tarixiy taraqqiyot bosqichini tiklash imkoniyatini beradi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" va Alisher Navoiyning "Xazoyinul – maoniy" asarlaridan yig'ilgan misollar orqali ham qadimgi turkiy tilda mavjud bo'lgan qo'shma so'zlar, ya'ni qo'shma otlarning tarixiy taraqqiyot bosqichini aniqlashda katta manba bo'lib xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asaridagi to'plangan misollar sof turkiy so'z hisoblanadi, ammo Alisher Navoiyning "Xazoyinul – maoniy" asarlaridan to'plangan misollardan bilish mumkinki, XV asrda fors-tojik tilining ta'siri sezilarli darajada bo'lganligini ko'rsatadi. Chunki qo'shma so'zlar birinchi yoki ikkinchi component fors-tojik tilidan o'zlashgan so'z hisoblanadi. Shu bilan birgalikda tarixan leksema hisoblanib, bugungi kunda garchi ikkita komponentning qo'shiluvidan hosil bo'lgan bo'lsada, qo'shma otlar hisoblanmaydigan leksemalar mavjudligini o'zbek, tatar va turk tillaridan to'plangan misollar orqali ko'rsatib o'tdik. Bular sirasiga o'zbek, tatar va turk tillaridagi bugun, bilaguzuk so'zlarini kiritdik. Bularning qo'shma ot ekanligini faqatgina tarixiy yasalish bosqichiga nazar tashlagan holda bilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Adabiyot. Xazoyin ul-maoniy. TAT. T., G'. G'ulom nomidagi nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
2. Devoni lug'otit turk. O'qish. S.Mutalibov nashri. – T., Fan, 1960-1966.
3. Hojiyev A. Qo'shma so'zlarning imlo qoidalari va lug'ati. – T., Fan, 1961.
4. Зәкиев М. Хәзерге татар әдеби теле. – Казан. 1974.

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA VATANPARVARLIKNING ULUG‘LANISHI

Oqila Akbarova, Farg‘ona viloyati
Rishton tumanidagi 45-umumta’lim maktabi
boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

Vatan haqida juda ko‘p asarlar yaratilgan. Chunki Vatan hissi har bir inson qonida jo‘sh uradi. Kimdir ko‘rsatgan jasorati, yana kimdir sidqidildan qilgan mehnatlari, yana kimdir esa tug‘ilib o‘sgan yurtini shunchaki sevish bilan Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbatini namoyish etadi. Ijod ahli esa o‘z asarlari bilan ona Vatanga xizmat qiladilar. Ular inson ko‘ngliga ekan ezgulik urug‘i hosil berib, yillar, asrlar o‘tsa-da, xalqini bahramand etib yashayveradi.

Insonning ruhiy poklanishi va qalban ulg‘ayishida adabiyotning roli kattadir. Zero, “Adabiyot, so‘z san’ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo‘lib keladi. U insonning ma’naviy olamini kashf etuvchi qudratli vositadir” [3; 506-b.]. O‘zbek adabiyotida o‘zining bebaho adabiy merosini qoldirgan O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf hayotining, ijodining, e’iqodining asosiy mazmuni Vatanni sharaflash, so‘nggi qatra qonigacha, so‘nggi nafasigacha, so‘nggi madorigacha mana shu yurt, shu xalq poyida ta’zim va tashakkurda jon nisor etmoq edi.

Shoir ilk misralarini yozgan kunlaridanoq, shu yo‘lni tanladi va umrining barcha og‘ir, mushkul yoki oson davrlarida bir lahzaga bo‘lsin bu yo‘ldan og‘ishmadi. Xususan, shoir bir she’rida “Yurtim, seni iddaolar qilmay sevaman”, deb aytganida qanchalar haq ekan. Darhaqiqat, u o‘z eli, xalqi, Vatani chini farzandiday, beg‘araz, sidqidildan yaxshi ko‘rar edi:

Ko‘hna tol beshikdan
Boshlangan olam,
Sborotnovasienga iddaolar
Qilmay sevaman.
Bir kuni singlim, deb,
Bir kuni onam –
Vatan,
kimligingni
bilmay sevaman.

Vatanni singlisiga, onasiga qiyos etgan shoir – daraxt, she’rlari uning mevasidir. O‘quvchilar, muxlislar bu mevani tatib, huzur qilib

ketaveradilar. Chunki shoirning mevasi bo‘lgan she’rlar ham musiqiy, ham nasriy yo‘llar bilan kitobxonlar qalbiga yo‘l topib boradi.

Muhammad Yusuf xalqimizning mehrini qozondi, insoniy fazilatlari buyukligidan darak beradi. Shu vajdan ham she’riyat maydonida qahramonga, istiqlol jarchisiga aylandi. O‘zbek adabiyotida yangi zarvaraq ocha oldi. Elga, yurtga, millatga, Vatanga, onaga muhabbat qanday bo‘lishi kerakligini o‘rgatuvchi maktab yaratdi. Chin yurakdan haqiqiy durdona she’rlar qanday bo‘lishi kerakligini ko‘rsatib ketdi.

She’riyat!
Ey, bevafo sanam!
Qo‘llaringdan mahkam tutarman,
Sendan har narsani kutarman,
Sen – bir malham,
Sen – bir shirin g‘am...
Sen borsanki, zahmatlarim bor
Bu dunyodan orttirgan zorim,
Uxlamay qon yutgan kunlarim,
Uchun senga rahmatlarim bor!

Har yili betakror shoirimiz Muhammad Yusuf tavalludi mamlakat miqiyosida tantanavor nishonlanadi. Shoir xotirasiga Andijonning Marhamat tumaniga odamlar yog‘ilib keladi, tavalludi munosabati bilan turli tanlovlar uyushtiriladi. Ayniqsa, ijodkorlar o‘rtasida o‘tkazilayotgan “Muhammad Yusuf ijodi bilimdoni” nomli xalqaro tanlovda minglab iste’dodlarning qatnashishi, eng sara ijod namunalari Muhammad Yusuf nomidagi “Ijod fondi” tomonidan kitob holida nashr etilayotganligi shoir shaxsiga bo‘lgan yuksak ehtirom namunasidir [2].

Muhammad Yusuf adabiyot osmonida bir ko‘rindi-yu, o‘z yorqinligi bilan chaqmoqday butun olamni yoritib yubordi. Ushbu yorug‘lik asnosida esa biz –kitobxonlarga bir talay o‘lmas asarlar qoldirdi. Eng muhimi, xalq yuragida o‘zining ezgulik deya atalmish niholini ko‘karib chiqishiga erishdi. Bu nihol esa bugun yirik daraxtga aylanishga ulgurdi. Vatani va xalqini kuylagan ardoqli shoirimiz qalbimizda mangu yashaydi.

Shoir she’rlarida yurt muhabbatini o‘zgacha ohang va takrorlanmas misralarda ta’riflaganlagini, Istiqloldan ilhomlangan ijodkor asarlarida shukronalik faxr-iftixor tuyg‘ulari tarannumi kabi tushunchalar yoritilganligini ko‘rishimiz mumkin. Shoir she’rlari xalqimiz yuragidan munosib o‘rin topgan. Uning she’rlari yettidan yetmishgacha bo‘lgan she’rxonlar tilidan tushmaydi, dillarida aks-sado beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhammad Yusuf izdoshlari. – Buxoro, 2019.
2. Muhammad Yusuf. Saylanma. Xurshid Davron kutubxonasi. www.kh-davron.uz.
3. Tursunova F.G'. Hajviy xarakter yaratishda ovozsiz (ichki) monologdan foydalanish. NamDU ilmiy axborotnomasi, 2018.

LIRIK ASARLARNI O'RGANISHDA VIZUAL MATERIALLARDAN FOYDALANISH

Sevinchoy Yoqubova,
ToshDO'TAU 2-bosqich magistri

Mamlakatimiz istiqloлга erishgach, barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim-tarbiya tizimida ham o'ziga xos o'zgarishlar ro'y berdi. Ayniqsa, yoshlarni har tomonlama yetuk, barkamol inson sifatida kamol toptirish dolzarb masalaga aylandi.

Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: *“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”* [1]. Shubhasiz, yosh avlodning zamon talablariga munosib, mustaqil fikr-qarashiga ega, yuksak intellektual, ma'naviy salohiyat sohibi va dunyoning har bir burjidagi tengdoshi bilan erkin muloqotga kirisha oladigan shaxs bo'lib kamol topishida adabiyot va san'atning, bu soha vakillarining roli beqiyosdir.

Keyingi yillarda adabiyot darslarida o'quv jarayonining samaradorligini oshirishda xilma-xil usul va vositalar keng qo'llanilmoqda. Ulardan biri vizual vositalardir.

Vizual, vizallashtirish so'zi lug'atlarda turli xil ma'nolarda keladi. Vizual — (lotin tilidan. visualis vizual) – ko'z bilan ko'rilgan, xotira va tasavvurlar [2; 19-b.]dir. “Bolshoy ensiklopedicheskiy slovar”da esa, vizual so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, (visualis) ko'rinadigan, ko'z yoki optik qurilma yordamida ishlab chiqarilgan vizual kuzatishlar [3; 204-b.] degan ma'noni bildiradi. “Vizual (ko'rgazmali) vositalar pedagogik texnologiya jarayonida talaba-o'quvchilar ko'z bilan ko'rishlari uchun mo'ljallangan barcha vositalarni o'z ichiga oladi. Bularga doskadagi yozuv va boshqa tasvirlar, kitoblardagi yozuv va tasvirlar, tarqatma materiallar,

o‘quv plakatlari, foto suratlar, tasviriy san‘at asarlari, video, kino tasvirlar, jonivorlar, o‘simliklar, tabiat ob‘ektlari, turli buyumlar va boshqalar kiradi” [2; 82-b.]. Demak, ta‘lim jarayonida o‘quvchiga tushuntirish uchun qulaylik tug‘diradigan ko‘rgazmali qurollar, tarqatmalar, axborat texnika vositalari, video va audio vositalar vizual materiallarni tashkil etadi, deyishimiz mumkin.

Bizga ma‘lumki, umumta‘lim maktablarida turli xil fanlar o‘qitilib, ulardan bola shaxsini kamol toptirish, ma‘naviyatini shakllantirish maqsadi ko‘zda tutiladi. Bunda o‘qitilayotgan fanlar orasida eng ko‘p vazifa adabiyot faniga yuklatiladi. Chunki adabiyotning obekti insondir. Q.Husanboyeva, R.Niyozmetovalar tomonidan yaratilgan “Adabiyot o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasida ta‘kidlanganidek: “Adabiyot darslari mutaxassis shakllantirish uchun emas, shaxs ma‘naviyatini tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois adabiy ta‘lim jarayonida sof adabiyotshunoslikdan bilim berish emas, balki, inson ko‘nglini tarbiyalash ustuvor bo‘lmog‘i maqsadga muvofiqdir [7; 47-b.]. Darhaqiqat, adabiyot darslarida badiiy asarlar tahlil qilinib, o‘quvchilar bu jarayonda faol ishtirok etishlarini ta‘minlash zarur. Chunki, ular asar tahlili orqali olamni, odamni, tabiatni tushuna boshlaydilar. Bu esa ularning mustaqil fikrlashi, o‘zligini anglashi uchun keng imkoniyatlarni ochadi. Shuning uchun ham biz adabiyot darslarida o‘quvchi faolligini ta‘minlashga yordam beradigan vositalarni mashg‘ulotlarda keng qo‘llay olishimiz lozim. Vizual vositalar esa o‘quvchilarni asar voqeligi bilan vizual va hissiy tanishtirishda, muhokama etilayotgan masalalar yuzasidan mushohoda yuritishlarida qo‘l keladi.

Adabiyot darslarida vizual vositalardan foydalanishda bir qator qoidalarga rioya qilish lozim. Bular quyidagilar:

- O‘quv jarayonida vizual vositalar o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini shakllantirishga yo‘naltirilish, ularning bilimlarini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

- O‘quvchilar bilan suhbat davomida olib boriladigan savollar, kutilayotgan javoblar va har bir savol muhimligi haqida tushuntirishlar berish zarur.

- Vizual vositalar o‘quvchilarning yoshiga mos bo‘lishi va namoyish etilayotgan videotasvirlar oxirgi stoldan o‘quvchiga aniq ko‘rinishi lozim;

- AKTdagi videotasvirlar darsning ma‘lum bir vaqtida ko‘rsatilishi, ularni namoyish etishda asosiy, zaruriy jihatlarni ajratib ko‘rsatish kerak;

• Ekranida namoyish etilayotgan tasvirlar o‘quv mashg‘ulotining mazmuniga to‘liq mos kelishi, estetik jihatdan talab darajasida bo‘lishi lozim;

• O‘quvchilar o‘zlari qiziqqan savollarga javoblarni vizual vosita yoki namoyish uskunasi bilan topa olishi zarur.

• Dars yakunida o‘qituvchi o‘z fikrlarini vizual vositalar bilan bog‘lab xulosalashi lozim [7].


Ushbu fikrlar bevosita istiqloq davri she‘riyatini o‘rganishga ham taalluqlidir. Bu davr she‘riyatini o‘rganishga bag‘ishlangan mashg‘ulotlarda o‘qituvchi slaydlar yordamida mavzuni tushuntiradi. Darsdagi tahlilga tortilayotgan she‘rlar, unda qo‘llaniladigan ta‘lim metodlari ekranida namoyish etilishi, o‘quvchining mustaqil fikrlashi uchun imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Umumta‘lim maktablarining 11-sinfi dasturida “Mustaqillik davri adabiyoti” mavzusiga 8 soat ajratilgan bo‘lib, shundan 3 soati “Mustaqillik davri she‘riyati” ni o‘rganishga bag‘ishlanadi.

Dasturda istiqloq davri o‘zbek she‘riyatida yangicha ifoda usullari va badiiy tadqiq yo‘llarining kashf etilayotganligi, bu davr shoirlari ijodida inson, dunyo va abadiyat muammolarining ko‘plab qirralari butun murakkabligi bilan ifodalanayotganligiga e‘tibor qaratiladi [6; 45-b.].

Umumta‘lim maktablarining 11-sinf “Adabiyot” darsligida Jamol Kamol, Usmon Azim, Oydin Hojiev, Xurshid Davron, Mahmud Toir, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo singari istiqloq davrining yetuk ijodkorlari she‘rlaridan namunalar keltiriladi [4; 90–103-b.].

Ushbu mavzuning birinchi soatida davr she‘riyati haqida ma‘lumotlar beriladi.



O‘qituvchining kirish so‘zida o‘zbek she‘riyati istiqloq yillarida o‘ziga xos yangi adabiy-estetik hodisa sifatida namoyon bo‘la boshlagani,

badiiy ijodda shoirlar uchun erkin ijodiy muhit yuzaga kelganligi, ijodkorlar o'z ma'naviy dunyosini, olam va odamga doir qarashlari, individual his-tuyg'ularini bor holicha taqdim qila boshlaganligi aytiladi. Bu davr she'riyatida ko'pgina mavzular qatori Vatan mavzusi yetakchilik qila boshlaganligiga urg'u beriladi. Vatan – ijod ahlining yuragiga eng yaqin, juda muhim va doimiy mavzu ekanligini ta'kidlagan o'qituvchi o'quvchilariga “Vatan nima?” degan savol bilan murojaat qiladi. O'quvchilar fikrlarini umumlashtirib, darslikdan o'rin olgan vatan mavzuidagi she'rlar tahliliga o'tiladi.

O'qituvchi mavzuni mustahkamlash uchun savol-javoblar o'tkazadi.

O'qituvchi o'quvchilarga “Mustaqillik davri she'riyati” mavzusi bo'yicha bir qancha savollar bilan murojaat qiladi. Savol va topshiriqlar quyidagicha berilishi mumkin:

1. Mustaqillik davri she'riyati haqida o'z fikrlaringizni bayon qiling.
2. Istiqlol davri she'riyatiga xos asosiy xususiyatlar nimalardan iborat?
3. Mustaqillik davri o'zbek she'riyatining mavzularini sanab bering.
4. Zamonaviy o'zbek she'riyatidagi qaysi shoirlar ijodini sevib o'qiysiz?
5. Istiqlol yillarida nashr etilgan she'riy kitoblarni o'qigansiz?
6. O'zingiz muxlis bo'lgan shoir ijodiga qisqacha tavsif bering. Sizni hayratga solgan ijod namunalari misol keltiring.

O'quvchilar “Assisment” topshirig'ini bajaradilar

“Assesment” (inglizcha “assessment” baholash) bir qancha yondashuvlar asosida egallangan bilimlar miqdorini sinash, masalaning mohiyatini chuqurroq tahlil qilish va shaxsning o'zini o'zi baholashiga asos bo'ladi.

Texnologiyani qo'llashda o'quvchining bir vaqtning o'zida bilimi, savodxonligi, fikrlash qobiliyati sinovdan o'tkaziladi.

O'tkazish tartibi:

Monitorda texnologiya jadvali aks ettiriladi. Har bir o'quvchi mazkur jadval yozilgan tarqatmalar bilan ta'minlanadi va topshiriqlar beriladi. Jumladan, Istiqlol davri she'riyatida Vatan mavzusini yorituvchi she'rlarning badiiy xususiyatlarini aniqlash yuzasidan quyidagicha topshiriqlar beriladi:

Test	Muammoli vaziyat
<p><i>Test</i></p> <p>O‘tmishingga yo‘l solib goho, Kelajaging bilib qayturman, Ey, qalbimning onasi, Vatan! Sen o‘tgan yo‘l — yuragim yo‘li, Iztirob yoshlari cho‘kkan yo‘l. Vatan mavzusida yozilgan ushbu she‘r muallifini toping?</p> <p>a) Iqbol Mirzo b) Oydin Hojjeva c) Mahmud Toyir d) Xurshid Davron</p>	<ul style="list-style-type: none"> <i>Nima uchun istiqlol davri she‘riyatida vatan mavzusi keng tarannum etilgan?</i> <p>O‘quvchilar masalaga shaxsiy nuqtai nazari doirasida yondashib, muammoni hayotga bog‘lab asoslashi zarur/.</p>
Simptom	Amaliy ko‘nikma
<ul style="list-style-type: none"> Shoirlarimiz vatan mavzusidagi she‘rlarida qanday badiiy tasvir vositalardan foydalanishgan? 	<p>Istiqlol davri she‘rlaridan namunalar tahlil qiling va fikringizni asoslang.</p>

Javoblar yozib bo‘lingach, o‘qituvchi to‘g‘ri javobni ekranda ko‘rsatadi. Shu asosda o‘quvchi xatolarini anglab, o‘zini baholaydi.

Ushbu darsda **“Ikki qismlı kundalik”** metodini qo‘llash ham maqsadga muvofiqdir. Mahmud Toirning “Vatan” she‘ri “Ikki qismlı kundalik” metodi asosida o‘rganilishi o‘quvchilarning estetik didi, tafakkur darajasi, xayolot olami va idrok tarzini namoyon etishga yordam beradi. Shuningdek, ifodali o‘qish, tushunish va tahlil qilish hamda xulosa chiqarish kompetensiyasini takomillashtiradi. Tahlil lirik qahramonning ichki kechinmalariga shaxsiy tajribalar va qiziqishlar asosida munosabat bildirishni taqozo qiladi.

Texnologiya bir necha bosqichda amalga oshiriladi.

Texnologiyani o‘tkazish bosqichlari:

Birinchi bosqichda she‘r o‘qishga tavsiya qilinadi. Matn bilan to‘liq tanishilganidan so‘ng ikkinchi bosqich vazifasiga o‘tiladi. Bu jarayonda daftar varaqlari vertikal chiziq bilan o‘rtasidan teng ikkiga bo‘linadi.

Navbatdagi bosqichda kundalikning chap tomoniga muallif g‘oyalari – she‘rdagi o‘zlariga yoqqan yoki ma‘qul bo‘lmagan misralar yoziladi. Masalan:

<i>Birinchi qism</i>	<i>Ikkinchi qism</i>
<p>Valilardan ibrat so‘ylar qadim sahrolar, So‘ndi qancha saltanatlar, qancha tug‘rolar. Maqbaralar aytsin lekin, aytsin Zuhrolar: Er ostidan suhbat aylar hanuz Kubrolar, Termiziylar bedor yotgan qo‘rg‘onim, Vatan.</p>	<p>Shoir lirik qahramoni o‘zini vatan taqdiri uchun burchdor deb biladi. U tarixga nazar tashlar ekan, o‘tgan ota-bobolar taqdiri bugungi kun uchun ibrat ekanligiga e‘tiborni qaratadi. Bu dunyoda saltanat, boylik singari moddiy narsalar o‘tkinchi ekanini, bedor qalbli insonlar doimo vatan uchun o‘zini mas‘ul deb bilishi she‘r mazmunidan anglashiladi.</p>

To‘rtinchi bosqichda esa izohlanayotgan misralar, tasvir vositalarining shoir g‘oyasini yoritishdagi ahamiyati, she‘r haqidagi umumiy xulosalar yoziladi.

Umuman, adabiyot darslarida ta‘lim metodlari orqali darsni qiziqarli, bahs-munozarali va jonli muloqot asosida tashkil etilishiga erishiladi.

Ko‘rinadiki, adabiy ta‘limda vizual vositalar mavzuni to‘laroq va chuqurroq o‘zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan o‘rinli foydalanish adabiyot darslari samaradorligini oshiradi. Darsda egallagan bilim va ko‘nikmalari o‘quvchining asar mohiyatini tushunishiga, mustaqil fikrlash tarzini kengaytirishga yordam berishi, shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Xalq so‘zi // 2016-yil 16-dekabr.
2. Akbarova M.T. Ta‘lim samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning roli // Zamonaviy uzluksiz ta‘lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – T., 2018-yil.
3. Bolshoy ensiklopedicheskiy slovar. – Moskva, 1993.
4. To‘xliyev V., Karimov V., Usmonova K. Adabiyot. O‘rta ta‘lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik-majmua. 2-qism. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
5. Filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar. – Moskva, 2010.

6. O'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili, adabiyot, o'zbek tili, rus tili (o'zbek), rus tili (rus), literatura, ingliz, fransuz, nemis (10-11-sinf). – T., 2017.
7. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Barkamol fayz media, 2018.
8. www.ffl.msu.ru

RESEPTIV ESTETIKA XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Nilufar Kadirova,

ToshDO'TAU 1-bosqich magistri

Ma'lumki, muayan badiiy asar kitobxon tomonidan turlicha qabul qilinadi. Asarni mutolaa qiluvchilar safi qancha keng bo'lsa, uni o'qish va idrok etish ham rang-barang bo'ladi. Badiiy asarni turli rakurslardan tahlil qilishning ahamiyati haqida ko'p gapirish mumkin. Biroq kitobxon va uning badiiy asar idroki, kitobxon va badiiy asar o'rtasidagi munosabatlar kitobxon tafakkuri masalasi har doim ham adabiyotshunoslikning faol o'rganish obyekti bo'lmagan.

Kitobxon biror bir badiiy asarni mutolaa qilar ekan, uning ko'z o'ngida muallifning ijod jarayoni, ruhiy holati, uning fikrlari va ifoda usullari e'tibor markazida bo'lgan. XX asrning 60-yillarida esa olimlar kitobxon nuqtayi nazarini o'zining shaxsiy qarashlari asosida o'zgartirib, ulardan tegishli xulosalarni chiqarganlar. Hatto, germenevtika – matnlarni talqin qilish fani ham asarning ma'nosini chuqurroq anglash uchun kitobxon idrokni o'rgangan. Aynan germenevtlar adabiyotshunoslarning bu boradagi fikrlarni o'zgartirishga undadi.

1965-yilda Germaniyaning Konstansiya ko'li sohilida barpo etilgan Konstans universiteti muayan fan uchun chuqur tadqiqotlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan edi. Xuddi shu ta'lim muassasasida roman tillari adabiyoti mutaxassisi Xans-Robert Yauss (1921–1997) va ingliz adabiyoti mutaxassisi Wolfgang Izer (1926–2007) lar ilmiy izlanishlar olib bordi. 1966-yilda X.R.Yauss "Adabiyot tarixi adabiy tanqidning provokatsiyasi sifatida" mavzusida ilk ma'ruzasini taqdim etdi va keyinchalik bu ma'ruza Konstans maktabiga va shu bilan birga reseptiv estetika⁶ (badiiy asarni emotsional qabul qilish)ga asos soldi. Muallif o'z nutqida aynan matnni idrok etish (reception)ni o'rganish bilan bog'liq masala to'g'risida fikr

⁶ Ayrim manbalarda kitobxon javobi deb ham beriladi – K.N.

yuritib, bunda mavhum tushunchalar bilan emas, aynan aniq ma'lumotlar bilan ish ko'rishni lozimligini ta'kidladi. X.R.Yauss badiiy asar talqinida kitobxon munosabati, uning badiiy asarga reaksiyasini aniq bir yo'nalish (tizim)ga solish mumkinligiga ishonch bildirdi. Ilk marotaba adabiy ta'limga reseptiv estetikani qo'llash aynan Konstans maktabi asoschilari va vakillari tomonidan mana shunday tartibda joriy etildi.

Xo'sh, reseptiv estetika, resepsiya nima?

Reseptiv estetika so'zi nemischadan "Rezeptions-Asthetik", lotinchadan "retseptio" so'zidan olingan bo'lib, asarning kitobxon tomonidan qabul qilinishidir. XX asr o'rtalarida shakllangan, badiiy asarni emotsional qabul qilishga yo'naltirilgan bu hodisa zamonaviy estetikaning falsafiy adabiyot va san'at yo'nalishidan biri sanaladi.

Bu yondashuvning asosini ASAR ← → KITOBXON munosabatlari tashkil etadi.

Resepsiya – bu idrok etuvchi ong va o'quvchi his-tuyg'ularining asarga, muallifning esa san'at olamiga bo'lgan munosabati. Matnni idrok etgan o'quvchi uni o'z uslubida qabul qiladi, yaratadi va qayta yaratadi. Yozuvchi va o'quvchi (matn va o'quvchi) o'rtasidagi bunday ko'rinmas muloqot shakli adabiyot nazariyasidagi mavjud paradigmani o'zgartirib yubordi. Bir so'z bilan aytganda, reseptiv estetika (boshqa nomlar – reseptiv usul, ta'sir estetikasi) matn va resipiyent o'rtasidagi muloqot estetikasidir. Bunda yozuvchi estetikasi emas, kitobxon (resipiyent) qarashi, tafakkur hosilasi diqqat markazda bo'ladi. Kitobxon- adabiy aloqaning yakunlovchi bo'g'iniga aylanadi [5; 153-b.].

Ta'sir estetikasi to'g'risida ingliz adabiyoti mutaxassisi Wolfgang Izer "Faqat badiiy asarni o'qish uning tuzilishi va kitobxon o'rtasidagi asosiy ta'sirga olib keladi" deb yozgan edi [4; 184-b.].

Polshalik tadqiqotchi Roman Ingarden va Edmund Gusserla ham reseptiv estetika rivojiga o'z hissalarini qo'shganlar. Ularning nazariy qarashlariga ko'ra, "kitobxon tafakkuri badiiy asarni aniqlashtiradi, o'z fikrlari bilan "bo'sh orinlarni" to'ldiradi, ideal tarzda ko'p ko'rinishdagi asar qiyofasiga keltirib, uni yakunlaydi" [3]. Roman Ingardenning estetika bo'yicha qilgan samarali mehnatlari badiiy asarni izchil o'rganish va reseptiv estetika o'rtasidagi ko'priq vazifasini bajardi.

X.R.Yauss reseptiv estetikaning asosiy tushunchasi sifatida kitobxonning tafakkur hosilasi («горизонт ожидания»-gorizont ojidaniya) degan atamani qo'llay boshlaydi.

"Ma'lum bir kitobxonlar guruhi (masalan, bir mamlakatning aholisi) muayan vaqt oralig'ida adabiy janrlar va umuman adabiy asarlar qanday

xususiyatlarga ega bo'lishi kerakligi to'g'risida aniq tasavvurga egalar. Ana shuning o'ziyoq kitobxonning tafakkur hosilasi («горизонт ожидания») dir» [1].

Demak, asarning ma'nosi o'quvchi (resipiyent) tafakkur hosilasi va muallifning tajribasi o'zaro ta'sirining natijasidir. Muallif o'z hayotiy tajribasini matnga jamlaydi va resipiyentning hayotiy tajribasiga yo'naltiradi. Asarning mazmuni esa uni qabul qilish jarayonida tug'iladi. Asarni qabul qilish turlicha bo'lib, u bir qancha omillarga, xususan, asarni qabul qilish davriga, qabul qiluvchining shaxsiga va uning u yoki bu guruhga mansubligiga bog'liqdir. Ular nafaqat badiiy asar mazmum mohiyatini, balki ontologik holati (badiiy asarning ijtimoiy holati, adabiyotdagi va jamiyatdagi o'rnini) ham aniqlaydilar. Asarning ma'nosi va ontologik holatining tarixiy o'zgaruvchanligi badiiy jarayonning muntazamligi hisoblanadi.

Shu o'rinda ontologiya haqida fikr yuritsak, "ontologiya" – yunoncha mavjud, mavjud narsa, "logos" ta'limot so'zlaridan olingan bo'lib, so'zlar, tasvirlar, umuman, matn orqali yozuvchi qalbini, simpatiya-antipatiyalarini, iste'dodi darajasini aniqlashdir. Boshqacha qilib aytganda, ontologiya matnni tirik holat deb qarashga asoslangandir. U matndagi har bir harakat, holat orqali yozuvchi qalbini anglashga yo'naltirilgan yondashuv. Ontologiya o'ziga xos qonun-qoidalar vositasida badiiy boyliklarning yashovchanlik sababiyatini yoritib beradi» [6; 230-b.]. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, badiiy asarga ontologik yondashuv masalasida o'zbek adabiyotshunoslari ham ko'plab tadqiqotlar yaratganlar. Masalan, filologiya fanlari doktori, professor, ustoz Abdug'afur Rasulovning "Hozirgi o'zbek tanqidchiligida tahlil va talqin muammosi (XX asrning 80–90-yillari materiallari asosida)" nomli tadqiqotida aynan ontologik yondashuv haqida e'tiborli fikr mulohazalrni ko'rish mumkin [8].

Yuqorida aytilgan fikrlardan shuni anglash mumkinki, reseptiv estetika nazariyasi dastlab G'arb adabiyotshunosligida keyinchalik rus va boshqa xalqlar adabiyot nazariyasida paydo bo'lgan yondashuv bo'lib, uni adabiy ta'limda qo'llash samarali usul hisoblanadi.

Darsda o'qituvchining aralashuvi cheklangan holda o'quvchilarning o'qilgan asar yuzasidan fikrlarini erkin ifodalash, kitobxonning izohlari orqali badiiy matn ma'nosini konkretlashtirish, kitobxon tasavvurlari orqali badiiy matnning bugungi zamon uchun ahamiyatini aniqlashtirish kabilar reseptiv estetikaning xususiyatlari hisoblanadi.

Reseptiv estetikaning mazmuniga oid asosiy qoidalarni quyidagilarda ko'rish mumkin:

1. An'anaviy estetika resipiyentni diqqat markazidan chetda qoldirishi, ijodkor, yozuvchi estetikasi qayta-qayta ta'kidlashi bilan xarakterlansa, reseptiv estetika esa asarni bo'shliqda emas, o'quvchilar va tinglovchilarning hayotiy tajribasiga asoslangan holda quradi;

2. Badiiy asarga muallifning ijod mahsuli sifatida baho bermay, uning qiymatini kitobxonning tafakkur hosilasi («ГОРИЗОНТ ОЖИДАНИЯ») bilan baholaydi;

3. An'anaviy estetika badiiy ijodga asar va uning ijodkori o'rtasidagi muloqot deb o'rgansa, reseptiv usul esa asar va resipiyent o'rtasidagi dialekt asosida yuzaga keladi;

4. Reseptiv estetikaning tayanch asosi badiiy asarni kompozitsion asosda o'rganadi.

Resepsiya kitobxon tafakkur doirasi mahsulidir. Idrok hosilasi esa bir necha omillarga bogliq bo'lishi mumkin. Fikrimizni birgina misol asosida ifodalasak, ko'pincha asar nomining o'ziyoq o'quvchini ma'lum bir janr to'liqligiga sozlaydi. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" (10-sinf II qism Adabiyot darslik 2017-yil) asarini olaylik. Kitobxon padarkush nomini ko'rgan zahoti asar so'ngida o'lim bilan bog'liq motiv borligini bashorati qilishi mumkin.

Reseptiv estetika (kitobxon javobi) nazariyasi yuqorida aytilganidek, badiiy asarning kompozitsion tuzilishiga (asar sarlavhasi, epigraf, lirik chekinish, qistirma epizod, badiiy qoliplash...) asoslanadi. Fikrimizni sevimli adibimiz Abdulla Qahhorning hikoyasi misolida keltirishimiz mumkin: "Bemor" hikoyasi uchun tanlangan sarlavhaning o'ziyoq kitobxonda asar syujeti bemor obrazi bilan bog'liqligi, voqealar markazida bemor obrazi turishi haqidagi dastlabki tushunchalarni hosil qilsa, hikoyaga tanlangan "Osmon yiroq, yer qattiq" epigrafi mushkul ahvolda qolgan qahramonning noilojligi, ojizligi bilan bog'liq lavhalar borligi to'g'risida tasavvur uyg'otadi. Hikoyada 4 yoshli qizcha epizodining kiritilishi kitobxon tafakkurida bemorning sog'ayib ketishiga nisbatan umid hosil qilishi, voqealar ijobiy tomonga o'zgarib ketishi mumkinligi haqidagi bashoratlar asar so'ngida kutilmaganda fojea bilan yakunlangani bois barham topadi. Asar kompozitsiyasi bilan bog'liq kitobxon resepsiyasiga juda ko'p misollarni keltirishimiz mumkin.

Badiiy asarning mukammal darajadagi resepsiyasida, avvalambor, asarning janridan xabardor bo'lishi (odatdagi janrga xos xususiyatlari) sekin astalik bilan avvaldan mavjud stereotip qarashlarni yo'qqa chiqishiga zamin hozirlaydi. Bunday bashoratlar tanqidiy reaksiyani, ta'sirni yuzaga keltirish uchun emas, aksincha bu yerda o'quvchining muallif qarashlari,

hissiyoti bilan hamkorligi yuqori baholanib, yangi estetik hodisani uchratish estetik mamnuniyat, zavq bag'ishlash uchun xizmat qiladi. Ba'zan asar muallifi ixtiyoridan tashqari harakatlanadigan asarlarni ham uchratish mumkin. Bunda muallif syujetni asar yakunida boshqara olmay qoladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini olaylik, Kumushning zaharlanish va o'limi lavhalari.

Ko'pincha asar janri mutolaa jarayonida resipiyent ko'rishni istagan narsalarga mos kelishi mumkin. Bunday holatda o'qish jarayoni kitobxon uchun zerikarli jarayonga aylanadi. Deylik, o'quvchi detektiv yo'nalishdagi asarni o'qib turib, qotil kimligini ancha oldin taxmin qilib tursa, asarni oxirigacha o'qishga nisbatan rag'bati susayib boradi. Biroq, ba'zida bu mutlaqo boshqacha holat kasb etishi mumkin: resepiyent detektiv hikoyani mutolaa qilayotganga o'xshaydi, ammo romantika og'ushiga singib ketganday bo'ladi. Bu o'rinda endi X.R.Yauss tomonidan kiritilgan tushuncha - estetik oraliq tushunchasi paydo bo'ladi.

"Agar kitobxonning tafakkur hosilasi bilan badiiy asar orasida estetik oraliq juda katta bo'lsa, unda o'qish jarayonida kitobxon asarni shunchaki tushunmay qolishi mumkin" [1].

Qadimgi yozuvda yozilgan matnlar bunga yaqqol misol bo'la oladi, ularni endi maxsus izohlarsiz o'qib bo'lmaydi - taxminlar tanib bo'lmaydigan darajada o'zgargan, ularni ilmiy usullar bilan tiklash kerak bo'ladi.

Shunday qilib, "Konstansa maktab" ining a'zolari badiiy asarning g'oyasi va mazmuni uni resipiyent tomonidan qabul qilish jarayonida vujudga kelishini o'z nazariyalari bilan isbotlashdi.

Bugungi kun adabiy ta'lim jarayoni o'quvchini shunchaki mutolaa kishisidan o'zining tafakkur doirasi mahsulini ifodalay oladigan, mustaqil fikrlashdan cho'chimaydigan kitobxon darajasiga ko'tarishni taqozo qilmoqda. Adabiyot darslarida badiiy asar tahlili jarayonida reseptiv yondashuv o'quvchida badiiy asarlarni o'qishga motivatsiya hosil qilish, o'qiganlarini uqish va hayotda biror vaziyatda duch kelinganda asardagi kabi yechim topib, mushkul vaziyatlardan chiqib ketish, sodda qilib aytganda, badiiy adabiyotni amaliyot bilan bog'lashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахмедова Э, Смирнова Д. Чтение как эстетическое восприятие – Констанцская школа Эстезис №1 (1) Март 2016 рубрика Теория Эстезис: <https://aesthesis.ru/magazine/march16/rezeptionsaesthetik>
2. Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе. Очерки по исторической поэтике / М.М. Бахтин // Бахтин М.М. Вопросы

литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975. – С. 234 – 407.

3. Цветкова М.В., Возможности рецептивного подхода в рамках компаративистского исследования Научная электронная библиотека «Киберленинка» 2010. <https://cyberleninka.ru/>

4. Зинченко В.Г., В.Г.Зусман, З.И.Кирнозе Литература и методы ее изучения издательство Флинта, 2011. 194 стр.

5. Ковылкин А.Н. Вопросы рецептивной эстетики: Филологические науки // Омский научный вестник № 2 (54), 2007. 153 ст.

6. Nazarov V. O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, – Toshkent, 2012. 434 bet.

7. Эстетисис №1 (1) Март 2016 рубрика Теория Эстетисис: <https://aesthesis.ru/magazine/march16/rezeptionsaesthetik>

8. Hozirgi o‘zbek tanqidchiligida tahlil va talqin muammosi (XX asrning 80– 90-yillari materiallari asosida”). Fil. fan. dok.diss. Toshkent, 2004.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Diyora Qodirova, Qo‘qon
davlat pedagogika instituti Ingliz tili va adabiyot fakulteti
Ingliz filologiyasi yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Hozirgi zamon tilshunosligida, shu jumladan, qiyosiy tilshunoslikda va folklorshunoslikda maqollarni chuqurroq o‘rganish bugungi kun qiyosiy tilshunoslikda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Uning muhim xususiyati shundaki, u fanlararo xarakterga ega bo‘lib, ilm-fanning har bir sohasida tadqiq etilmoqda. Natijada paremiologiya, ya’ni maqollarni o‘rganish tilshunoslikda alohida soha sifatida paydo bo‘ldi.

Mavzuning eng muhim dolzarb jihatlaridan biri shundaki, bir tomonda xorijiy tillarga qiziqishning o‘sishi bo‘lsa, ikkinchi tomondan ingliz va o‘zbek tillaridagi maqollarning lingvokulturologik va semantik xususiyatlarini har ikkala tilda qiyosiy o‘rganish va ularning o‘xshash va farqli tomonlarini umumlashtirishdir. Ayniqsa, o‘zbek va ingliz maqollarini qiyosiy o‘rganish asnosida har ikkala xalqning madaniy va milliy odatlarini tilga qay daraja aks etganini ifodalab, xalqlarning mentalitetidagi o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlarini isbotlab beradi. O‘zbek xalq maqollari singari ingliz xalq maqollari ham ingliz folklorning eng keng tarqalgan janrlaridan biridir. Ko‘pincha tuzilishi, folklorida

o‘rganilishi va yana boshqa jihatlari bilan o‘zbek maqollariga o‘xshash holda umumiy jihatlarni ko‘rsatadi.

Hayvon obrazlari qatnashgan ingliz va o‘zbek xalq maqollarining har ikkala tildagi variantlarida hamma vaqt ham bir xil hayvonlar ifodalanmasligi mumkin.

Masalan:

Inglizcha: Let sleeping dogs lie.

O‘zbekcha tarjiması: Uxlab yotgan kuchuklarni uyg‘otmang.

O‘zbekcha ekvivalenti: Yotgan ilonning quyrug‘ini bosma.

Maqolning inglizcha variantida “dog” ya’ni “it” ishlatilgan bo‘lsa, o‘zbekcha variantida “ilon” obrazidan foydalanilgan. Ammo bu bilan maqolning o‘zbekcha yoki inglizchadagi ma’nosi o‘zgarib qolmaydi. Umumiy ma’noda e’tiborsizlik, ehtiyotsizlik ifodalangan. Ingliz va o‘zbek tillarida hayvon obrazlari qatnashgan maqollar ko‘pincha odamning fazilatlarini, xislat va xususiyatlarini tasvirlab keladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ko‘pchilik maqollar insonlarning ijobiy va salbiy tomonlarini tavsiflaydi. Ana shu ijobiy va salbiy tavsiflar ostida barcha insonga xos yaxshi va yomon xususiyatlar gavdalanadi:

a) ijobiy tavsif:

- Almost never killed a fly – Mushugiga ham pisht demaydi.
- Every bird likes its own nest – O‘rgimchak ham o‘z uyim der.

b) salbiy tavsif:

- Fish in the air – Behuda harakat beburd qilar.

“The labourer is worthy of his hire” maqolini tahlil qiladigan bo‘lsak, u o‘zbekcha muqobil variant sifatida “Ishlab topganing – osh, Ishlamay topganing – tosh” maqoliga to‘g‘ri keladi.

Ingliz tili maqollaridagi milliylik haqida gapirar ekanmiz, ingliz xalqining xarakteri haqida so‘z yuritmay ilojimiz yo‘q. Dunyo millatlari orasida bu xalq vakillari mag‘rur va hurmat talabligi bilan ajralib turadi. Bu jihat maqollarida ham ko‘rinadi:

Inglizcha: Better be the head of a dog than the tail of a lion.

O‘zbekcha tarjiması: Arslonning dumi bo‘lgandan ko‘ra itning boshi bo‘lgan afzal.

O‘zbekcha varianti: Arslonning o‘ligi — sichqonning tirigi.

Inglizcha: Better go to heaven in rags than to hell in embroidery.

O‘zbekcha tarjiması: Jahannamga kimhob kiyib borgandan, jannatga juldur kiyib borgan afzal.

O‘zbekcha varianti: Boy bo‘lib bezillaguncha, qul bo‘lib qo‘porib yur.

Aksariyat maqollar ikki qismdan tashkil topgan bo‘lib, bir qismi tasviriy mohiyatga ega, ikkinchi qismi xulosadan iboratdir:

After dinner sit a while,

After supper walk a mile.

Qorning ochmasdan ovqat yegin,

Qorning to'ymasdan qo'l artgin.

O‘zbek tilida ba‘zan 4 komponentli maqollar ham uchraydi. Biroq ingliz maqollari orasida 4 komponentli maqollar kam uchraydi.

Zamon seni o‘qitar,

Tayoq bilan so‘kitar.

Sabog‘ingni bilmasang,

Do‘konda bo'z to'qitar.

Xalq og‘zaki ijodida maqol bilan bir qatorda matallar ham qo‘llaniladi. Maqollar va matallar bir-biridan quyidagi xususiyatlari orqali keskin farqlanib turadi. Bular quyidagicha:

Maqolda fikr aniq, tugal xulosa, lo‘nda hukm tarzida ifodalanadi. Matalda esa tugal fikr ifodalanmaydi. Matal ko‘chma ma’noda ishlatiluvchi xalq majoziy iboralarining bir turidir. Matal o‘z ma’nosini boshqa ma’noga ko‘chirgan so‘z birikmalaridan iborat bo‘ladi. Masalan, **“Aql – ko‘rga, ko‘z – soqovga”** til maqolini tahlil qiladigan bo‘lsak, ko‘r odam aqlli bo‘lsa yo‘lini topadi, ya’ni dono kishi har doim o‘z yo‘lini topa oladi kabi hukm surilgan. Lekin **“Temirni qizig‘ida bos”** deyilganda aniq va tugal hukm yo‘q. Bu matal bo‘lib, ko‘chma ma’noda, ya’ni ishni o‘z vaqtida bajarish zarur ma’nosida kelayapti. U atigi obrazli ifoda sifatida qotib qolgan. Masalan, **“There is no place like home”** maqolida o‘z tug‘ilib o‘sgan uying oltindan ham afzal, qadrli ekanligi ifodalanadi. Maqolda tugal hukm va aniq xulosa mavjud.

Ingliz matallaridan biri **“Build one’s house upon the sand”** ni tahlil qilsak “qum ustiga uy qurmoq” ma’nosini beradi. Agar uni ko‘chma ma’noda tahlil qiladigan bo‘lsak, “birovning ko‘nglini puch yong‘oq bilan to‘lg‘azmoq” ma’nosini anglatadi. Ko‘rib turganingizdek, matallar maqollar kabi tugal hukmni ifodalaymaydi.

Maqollar o‘z va ko‘chma ma’nolarda qo‘llana olish imkoniga ega bo‘lsa, matallar faqat ko‘chma ma’noda qo‘llanadilar. Lekin ba’zi hollarda maqollar kinoya, piching, istehzo, zaharxanda ma’nolarida ham ishlatilishi mumkin. Masalan: **“Long hair and short wit” – Sochi uzun – aqli kalta**, ya’ni juda kelishgan biroq ongsiz, nodon odamlarga qarata aytilgan bo‘lsa, **“Kings have long hands” – Podshoning kuragi uzun** – hamma narsaga

qo‘li yetadigan, imkoniyati cheklanmagan va shu orqali ba‘zida me‘yor chizig‘idan o‘tkazib yuboradigan kishilarga piching qilib aytiladi.

Xuddi o‘zbek maqollari singari ingliz maqollarida ham turli xil badiiy vositalarning maqollardagi faol ishtirokini kuzatishimiz mumkin. Maqollardagi badiiy vositalarning ishtirokini ingliz olimlaridan Arora o‘zining bir qator maqolalarida keltirib o‘tadi.

Maqollardagi alliteratsiyaning mavjudligi: No fool like an old fool.

Maqollardagi ritmning mavjudligi: A friend to everybody is a friend to nobody

Inversiyaning mavjudligi: Better is a neighbor nearby than a brother far away.

Tazod san‘atining ishlatilishi: Fools never know when they are well.

Badiiy san‘at vositalari maqollarni yanada ta‘sirchan qilib berishga yordam beradi. Ularni ixchamlashtiradi, aniq hukm ifodalashda yetakchilik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arora, S. The Perception of Proverbiality. De Proverbio. 1984. 244 p.
2. Бердиёров Х, Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1984. 232 б.

SHE‘RIYATDA YANGI SO‘ZLAR VA ULARNI O‘RGANISHGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

G‘iyos Do‘stmurodov,
SamDU magistranti

O‘zbek tilida yangi so‘z yasashning 5 turi mavjud bo‘lib, shulardan eng faoli morfologik va sintaktik usullardir. E.Begmatov to‘g‘ri ta‘kidlaganidek: “So‘zning yangiligi yoki eskiligi so‘zning tilda paydo bo‘lish davriga ko‘radir. So‘zning qo‘llanuvchanligi yoki eskirganligi leksemalarning funksional aktivligi yoki passivligiga ko‘radir”. Shu ma‘noda har bir so‘zni uning paydo bo‘lgan vaqtiga nisbatan prinsipial ravishda neologizm deb atash mumkin. Bunda faqat u yoki bu so‘z tilda qachon paydo bo‘lganligini aniqlash kerak. “Tilda yangi so‘zlarni yaratish tilning tarixiy rivojlanishi, uning vaqt jihatidan oldinga harakat qilishi mahsulidir. Shuning uchun tildagi barcha yangi hosil bo‘lgan so‘zlarni faqat sinxron tarzda emas, balki diaxron tarzda, ya‘ni til rivojlanishining muayyan davrida yuzaga kelganligi nuqtai nazaridan o‘rganish mumkin”. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, yangi so‘z tushunchasi diaxronidir.

Yangi soʻzlar xotirlanmaydigan xossagagina emas, balki qoʻllanish jihatidan bir martalik va sinxron-diaxron qorishqlik xossasiga ham egadir. Demak, ular tarixiy vaqtga nisbatan taalluqsizdirlar. Shuning uchun bunday soʻzlar neologizm deb atala olmaydi. Shunday qilib, yangi soʻzni taʼriflashda vaqt mezoni zarur, lekin yuqorida koʻrsatilganidek, u absolut emas, unga nisbiylik jihatidan qaraladi. Yuqorida keltirilgan dalillarga asoslanib, yangi soʻzga shunday taʼrif berish mumkin: Yangi soʻz tilda oʻz tarixiy hayotining dastlabki bosqichini oʻtayotgan, yangilik boʻyogʻiga ega boʻlgan soʻzdir [3; 90–98-b.]. Badiiy asarlar tili oʻrganilganda ularda yangi soʻzlarning qoʻllanilishiga alohida eʼtibor qilinmaydi.

Eshqobil Shukur sheʼrlarida oʻziga xos jihatlar anchagina. Avvalo, ularda milliy ruh sezilib turadi. Shoir oʻz sheʼrlarida mazmunni roʻyobga chiqarish uchun sintaktik kombinatsiyalardan juda ustalik bilan foydalanadi. Hatto yangi soʻzlar hosil qilishdan ham choʻchimaydi. Xususan, soʻz yasovchi qoʻshimchalar orqali morfologik usulda bir qator soʻzlar hosil qilganini tahlillar jarayonida uchratish mumkin. Fikrlarni dalillash uchun shoirning “Hamal ayvoni” toʻplamidan ayrim sheʼrlarini tahlil qilib koʻrish mumkin. Masalan, shoir **-iston** qoʻshimchasini mozor soʻziga qoʻshib yangi soʻz yasaydi. Quyidagi bandda esa, shoir porillaydi feʼlini keltirgan, porlamoq feʼli bizga maʼlum, ammo mazkur grammatik shakl har holda kam uchraydi:

Qizning marmar tanida

Porillaydi ol durlar.

Ming tola sochga shoʻngʻib,

Chars-churs sinadi nurlar. [2; 27-b.]

Eshqobil Shukur oʻzbek tiliga xos boʻlgan koʻplab soʻzlarni isteʼmolga olib kirishga urunganini sheʼrlarida koʻrish mumkin.

Bahaybat **oʻyiq** bor koʻkraklarida,

Zamonlarning dahshatlari dastidan.

Bir Vatanni tutib kipriklarida,

Bir xalq chiqib kelar yerning ostidan.

Oʻyiq soʻzi oʻzbek tilida asosan oʻtgan zamon sifatdoshi bilan hosil qilingan feʼl orqali ifodalanadi. Masalan, *oʻyilgan*, *soʻyilgan...* -oy qoʻshimchasi atoqli otlarga qoʻyilib kelishi hammaga maʼlum, asosan, xotin-qizlarning nomlariga qoʻshilib kelib turli ekspressiv-uslubiy maʼnolarni ifodalashga xizmat qiladi. Eshqobil Shukur esa, uni turdosh otlarga nisbatan ham qoʻllagani yangicha yondashuvdir:

Sochlari sumbul-sumbul... Sochlari...

Kelbat kerib kelayotgan **kelinoy**.

Shoir chanqovuz haqidagi bir she'rida "charnamoq" fe'lini ham qo'llaganiga guvoh bo'lish mumkin: //**charnagan*** o'zim mening, Qalbning yorug' qa'ridan sinmas til topib oldim.//

O'zbek tilida *qirqilmoq* va *kesilmoq* fe'llari nihoyatda faol qo'llaniladi, biroq Eshqobil Shukur o'z she'rlarida ko'p marotaba *qiyilmoq* fe'lini qo'llagan:

Tilim tiyildi mening,
so'zim **qiyildi** mening.

E. Shukurning o'ziga xos so'z yaratish mahorati borligini uning quyidagi juda ta'sirli bo'lgan, milliy an'analarimizni o'zida mujassam quyidagi misralari orqali ham bilish mumkin. Mazkur she'rda muallif kompozitsiya usuli bilan jozibador so'zlar yasay olgan:

Oybulutning orasidan oyday kelinlar kelar,
Kunbulutning orasidan kunday kelinlar kelar.

Yoki *Qoshingga emranib keldim, o'zbekim, Shoirning ketdimi mendan norizo. Yaxshi bo'larmidi xalqim, o'zligin Shoirning qalbidan topsa podsho.*[2; 19-b.] *Emranib* fe'li ham bugungi kunda faol muloqotda uchramaydi, ammo shoir tomonidan qo'llanilayotgani misralarning o'ziga xos jozibasini ta'minlab beradi.

Quyidagi misralarda ham *beka* so'ziga qo'shilayotgan -siz qo'shimchasi odatiy emasdek: //*Mening dunyolarim qancha betartib, Sening dunyolaring shuncha sarishta. Bekasiz samoga bergali tartib Ortingdan kelmoqda qirq ming farishta*//.

Mazkur misralarda shoir tomonidan she'riy nutqlarda ko'proq uchraydigan so'zlar qo'llanilgan: // **Ko'pchigan** tuproqda **qaqrar** saraton, Bahor tebratadi **rangpar** havoni. Olti oy oldinda **qaqshar qahraton**, Kuzgacha omon elt olti daryoni.// Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning yasalish asosi, hosilalarning ayrimlari tarixiy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

//**Uvuqlarni** – ko'k suyaklarni Tishlab olib, so'ng ko'char shamol. Kaftda ezib iyaklarini Tepaliklar suradi xayol.// Misralarida *uvuq* so'zi ham juda kam qo'llanadigan, aksariyat o'quvchilar uchun yangi so'z hisoblanadi.

Ba'zi so'zlarning she'riy misrlarda morfologik jihatdan o'zgarib qo'llanilishini ham ko'rish mumkin, masalan, *erinchok* so'zi bugungi kunda ham faol hisoblanib uning mazkur misrada boshqacha shaklda kelishi, hududiy talaffuz muhitiga bog'liq bo'lishi mumkin. //*Tongda tandirini yoqar kelinchak, Suprada yetilar botmon xamiri. Molxonada "mo'"lab kuyar erinchak Yelini tirsillab ketgan sigiri*//

O‘zbek tilida -li va -lik qo‘shimchalarning qo‘llanilishida chalkashliklar ko‘zga tashlanadi: //Eri o‘ldi Bibizilolning... Kelinchaklik davri o‘ldi, **Belanchaklik** uylari o‘ldi. Kun — motam. Tun — motam.// Belanchaklik emas, aslida belanchakli uylar bo‘lganida uslubiy jihatdan to‘g‘rib bo‘lardi.

Ko‘pincha -dosh qo‘shimchasi yurt, vatan, hatto, millat so‘zlariga nisbatan qulay va faol qo‘llanib keladi, biroq shoir tomonidan uning el so‘ziga ham qo‘shilgani yangi vaziyatni yuzaga keltirmoqda: //Eldoshlarim... Jon desa jon bergan, **eldoshlarim**, Aylanayin bergan jonlaringizdan. Menga Vatan bergan, eldoshlarim, Aylanay bergan Vatanlaringizdan.//

E.Shukurning o‘ziga xos mahorati shundaki, u xalqona ohanglarni ifodalash uchun asosan, o‘zbekcha so‘zlardan foydalanadi. Shevaga xos so‘zlar ham uchraydi: //Sho‘r boshing yopinar ko‘k bulut. Tegrangda shamollar tizilar. Havoda suzadi ko‘k tobut, Ko‘m-ko‘k kuy ko‘klardan uzilar. **Ko‘kaylari** kesilgan Ayol, Bovri yurtdan uzilgan Ayol, Bir yurt yolboradi: qo-ol!//

Sifat yasovchi -li qo‘shimchasi quyidagi misralarda maqsadli, atayin qo‘lanilgandek taassurot qoldiradi:

*Davlatli begoyim, erkli begoyim,
Biza muruvvat qil, ko‘rkli begoyim.
Xudo tumor taqib boshing boylamish,
Bandaga darchasi **berkli** begoyim. [2; 54-b.]*

Xulosa qilib aytganda, Eshqobil Shukur ijodida ko‘plab so‘zlarning yangi ma‘noda, yangi grammatik shaklda qo‘llanilishi she‘rning xalqchilligini ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Bunday so‘zlar o‘ziga xos tarzda, yangitdan va ko‘p holda ta‘sirchan ifodalash ehtiyoji bilan yaratiladi. Bunda so‘zlovchidan ma‘lum topqirlik, lisoniy mahorat talab qilinadi. Shoir tomonidan qo‘llangan so‘zlar qanday nutq tipida yuzaga kelishiga qarab, o‘sha nutq talab qiluvchi vazifani bajaradi va bu orqali nutqning ma‘noviy nominativ, kommunikativ ehtiyojini qondiradi.

Eshqobil Shukurning so‘zlar etimologiyasiga doir izlanishlari ham uning she‘riyatiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, bu esa o‘quvchilarga misra mazmunini teran anglashga, so‘zni his qilishga o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аҳмедов А. Бадиий асар тилини ўрганиш ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1989. – № 9.
2. Эшқобил Шукур. Ҳамал айвони. Шеърлар ва достон. –Тошкент: Шарқ, 2002. 233 б.

3. Миртожиев М. Окказионал маъно // Ўзбек тилшунослиги масалалари. ТошДУ Илмий ишлар тўп. – Т., 1973.

MODERN APPROACHES TO TEACHING LITERATURE: IMAGINATIVE LITERATURE AS AN ASPECT OF YOUTH DEVELOPMENT

Grebenyuk Martin,
the 3rd year student of UzSIAC

At all times, people have set themselves the goal of knowing the world and themselves, which are related to the need for human development and the search for their place in the world. This process is particularly relevant for young people, who are the most important resource for the development of any society. There are two main ways of knowing: sensory and rational. Sensory cognition occurs through the senses-sight, hearing, touch, smell, and taste. With the help of them, a person gets the first idea about something. Rational cognition is carried out through thinking processes. Thinking can be defined as "an active process of reflecting the objective world in concepts, judgments, theories, etc." [1]. Most often, rational knowledge is satisfied with the help of literary sources. That is why it is so important to understand fiction as a factor in the development of modern youth.

Increasingly, today's youth meet their needs for knowledge and development using alternative sources, such as television, the Internet, computer clubs, etc., which leads to the degradation of life guidelines, the formation of pseudo-human values. In connection with this trend in the spiritual life of modern man, serious problems arise — traditional spiritual and moral guidelines and values are lost, the level of culture is reduced, which, of course, affects the quality of life in general.

Literature is a powerful source of personal development. Following I. P. Podlasy, we understand development as "a complex process of movement from the simple to the complex; from the imperfect to the perfect; movement along an upward trajectory from the old qualitative state to the new" [2, p. 16]. Fiction is an art through which a person receives not only new knowledge, but also emotions, becoming attached to the values of world culture. The book conveys to readers the narrator's thoughts, views, and attitude to the events described. Literary works reflect the identity of peoples and cultures, historical events and experiences of

people living in different eras. At all times, the master of words reflected human life in all its diversity, vividly and accurately describing thoughts about the meaning of life, shared feelings, which, of course, has a great influence on the reader and implements the most important purpose of the book-the preservation of knowledge accumulated over the centuries, and the transfer of their subsequent generations.

Fiction has at all times had a profound influence on human minds. It is a powerful stimulus for development and is characterized by the fact that every word of the author's thought and idea affects the reader, carrying a certain element of spirituality, unity with art, affects the way of thinking and life in General. Literature creates images that grow to human symbols, on which the reader is aligned. Through the disclosure of these images, literature provides an understanding of such philosophical categories as good and evil, truth and lies, good and bad. The reader learns the characters and moral qualities of the characters, is acquainted with their destinies, which awakens thoughts and feelings, develops the imagination, and encourages action. Hamlet, Don Quixote, the Master and Marguerite are no longer just artistic images, they are symbols of culturally significant universal values. This is the power and significance of literature in the development of the individual.

Fiction is accessible to everyone, but understanding it depends on the subjective characteristics and individual experience of the reader. Some people read and forget the work, others are touched to the core and remain forever in the mind. N. G. Chernyshevsky called literature a "textbook of life", emphasizing its cognitive value and depth of penetration into life [3].

Literature is designed to help the reader see the beautiful in a seemingly ordinary life. The greatest works of such writers as N. V. Gogol, F. M. Dostoevsky, M. Yu. Lermontov, A. S. Pushkin, L. N. Tolstoy, A. p. Chekhov, M. A. Sholokhov and many others, introduce modern youth to history and form views, feelings, characters, awaken love for the beautiful, educate readiness to fight for the triumph of good and truth, enriching the spiritual world of the reader. It should be noted that the successful formation of moral values among young people is provided by a combination of external and internal factors.

External factors include the influence of the environment and upbringing on the person, internal factors include natural inclinations and drives, as well as the totality of feelings and experiences of the person that arise under the influence of external factors. One of the most important external factors is fiction. When young people read such great works as"

War and Peace", " GULAG Archipelago", " Quiet Don", " Doctor Zhivago", " Dead souls " and others, their attitude to life changes involuntarily, and values are transformed. It is on the pages of books that you can find answers to many questions that concern a person and offer various ways to solve life's problems. It is important to purposefully attract the attention of young people to fiction, as it is a powerful factor in development, remaining an indispensable source of not only information, but also aesthetic pleasure.

References

1. Grachyov M. V. Cognition-sensual and rational // [Electronic resource]. URL: http://grachucheny.ucoz.ru/publ/71_poznanie_chuvstvennoe_i_racionalnoe/1-1-0-23 (accessed 03.03.2020).
2. Podlasy I. P. Pedagogics: 100 questions — 100 answers: textbook. Textbook for universities / I. P. Podlasy. Moscow: VLADOS-press, 2004. — 365 p.
3. Chernyshevsky N. G. Essay on life and creativity // [Electronic resource]. URL: http://edufuture.biz/index.php?title=Н._Г._Чернышевский._Очерк_жизни_и_творчества (date accessed: 03.03.2020).

ONA TILI VA O‘ZBEK (DAVLAT) TILINI O‘QITISH MASALALARI

ONA TILI TA‘LIMIDA GAPDA EGANING MAVQEYINI TIKLAYLIK

Rustam Yo‘ldoshev,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan
xalq ta‘limi xodimi, ped.f.n.

Eganning gapdagi mavqeyi maktab ona tili ta‘limida chalkash, jumboq bo‘lib kelayotgan masalalardan biri bo‘lib qoldi. Noaniqlik shundaki, ega va kesim boshlang‘ich sinflar “Ona tili” o‘quv dasturi va darsliklarida berilishiga ko‘ra gapning bosh bo‘laklari sifatda tanishtirilsa, 5-sinf “Ona tili” darsligida kesim gapning mazmuniy markazi [3; 39-b.], 2014-yili nashr qilingan 8-sinf “Ona tili” darsligida kesim gapning asosini tashkil qiluvchi markazdir [4; 42-dars] deb e‘tirof etilib, ega aniq ikkinchi darajali bo‘lak deb nomlanmasa-da, *kesimdan boshqa bo‘laklar* sirasida ko‘rsatilmoqda. 8-sinf darsligining 42-darsida eganing qaysi bo‘lak ekanligi muallaqligicha qoladi: “To‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol bo‘laklari ega va kesimga ergashib kelib, ularni to‘ldiradi, aniqlaydi yoki izohlaydi. Shuning uchun ular gapning **ikkinchi darajali bo‘laklari** deyiladi”. Demak, ega ikkinchi darajali bo‘lak emas. Uning qanday bo‘lak ekanligi 5–9-sinf darsliklarida aniq aytilmagan.

2014-yili chop etilgan 8-sinf “Ona tili” darsligining 42-darsida “*Ega kesimga ergashib, kesimda ifodalangan ish-harakatning bajaruvchisini ko‘rsatadi*” deb bevosita ish-harakat bajaruvchisiga ishora qilinsa, 43-darsida “*Gap kesimining qo‘shimchalaridan anglashilib turgan shaxs-son ma‘nosini aniqlashtiruvchi bo‘lak egadir*” degan [4; 43-dars], 8-sinf darsligining 2019-yilgi nashrida ham “Gap kesimidan anglashilib turgan harakatning bajaruvchisini, belgining sohibini bildirgan bo‘lak egadir” [5; 48-dars] degan tavsif keltirilganki, bu bilan eganing vazifasi kesimdagi shaxs-son qo‘shimchasiga bog‘lab qo‘yilgan, natijada eganing mavqeyi yana ham tushirib yuborilgan. Aksincha, ega (fikir subyekt yoki predmeti) mutlaqo nazarda tutilmasa, kesimning o‘zi aniq bir ish-harakat yoki holatni anglata olmaydi: u shunchaki to‘liq axborot bermaydimgan so‘z bo‘lib qoladi. Bu borada darslikning 2019-yilgi nashrida shaxsi (egasi) noma‘lum gaplar haqida gapirilgan joyda eganing ahamiyatiga aniqlik ishora bor:

“Bu gaplar shaxssiz emas, harakatni mantiqan kimdir bajaradi” [4; 48-dars].

Ega – fikr subyekti va predmeti, ish-harakatni yuzaga keltiruvchi sanaladi [1; 81–82-b.]. Kishi fikr predmetini ko‘z oldiga keltirmasdan, uni tasavvur qilmasdan turib gap tuza olmaydi: u shaxs yoki narsa-buyumning bajarayotgan ish-harakati, holati, qayerda, qachon, nimani, kim bilan, nima uchun, qay tarzda, nima qilayotgani (ish-harakat) va boshqa ko‘pgina ma’lumotlarni nazarda tutadi, ulardan bir nechtasini gap tarkibiga kiritadi: gap tuzadi. Ish-harakatni bajaruvchi shaxs (narsa-buyum, jonivor, tushuncha) bilan bog‘liq ish-harakat yoki holatga qarab fe‘l-kesim tanlanadi, muayyan shaklda qo‘llanadi. So‘zlovchi egani atamasligi mumkin. Umuman, ega (fikr subyekti yoki predmeti) noma’lum bo‘lishi, ya’ni mavhum tarzda tasavvur qilinishi ham mumkin. Masalan, “*Tezlikni oshirdi*”. Tezlikni haydovchi oshiradi, albatta. Boshqacha aytganda, kesimning qaysi fe‘l yoki boshqa so‘z turkumi bilan ifodalanishi aniq yoki mavhum tasavvur qilinayotgan shaxs(lar) yoki narsa-buyum(lar)ga (egaga) bog‘liq, ya’ni kesim egaga tobe bo‘ladi. Fikr ifodalash borasida kesimda erkinlik yo‘q. Ega ishtirok etmagan gaplarda ham ega (fikr subyekti va predmeti) aniq yoki mavhum tasavvur qilinadi. Boshqacha aytganda, kesim egani emas, ega kesimni boshqaradi. Masalan, gapda ish-harakatning bajaruvchisi – ega mavjud yoki u kontekstdan ma’lum bo‘lsa, uning kimligi: lavozimi, kasb-kori, qanday inson ekanligi (taniqli alloma) nuqtayi nazaridan fe‘l kesim tanlanadi. Yoki subyekt noaniq bo‘lganda, fe‘l-kesim ana shu noaniqlikni o‘zida aks ettiruvchi shakllarni oladi. Boshqacha aytganda, ega gapda mavjud bo‘lsa ham, mavjud bo‘lmasa ham, kesimning grammatik shakllanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi [1].

O‘zbek tilida kesim asosan gapning oxirida kelgani uchun egagina emas, hatto to‘ldiruvchi va hol ham kesimga ta’sir o‘tkazadi. Masalan, *o‘ylamay* deyilsa, *gapirib yubormoq* fe‘li tanlanadi, *ketmon bilan* deyilsa, *chopmoq* fe‘li ishlatiladi. To‘ldiruvchi va holning grammatik shakli bildirilayotgan ma’no-mazmunga (fe‘lga qarab emas) belgilanadi.

Kesim gapning mazmuniy markazi deb hisoblanganda, uning boshqa bo‘laklarni boshqarishi nazarda tutiladi: kesimdan so‘roq berish orqali boshqa bo‘laklar aniqlanadi. Lekin bu ham bir tomonlama fikr yuritish oqibati: boshqa bo‘laklardan (ega, to‘ldiruvchi, hol) kesimga so‘roq berish mumkin. Masalan: *Chelakni nima qilding?* (So‘roq to‘ldiruvchidan kesimga qo‘yildi.) *Bog‘da nima qilmoqchisiz?* (So‘roq holdan kesimga berildi.) *Sen hozir nima qilasan?* (So‘roq egadan kesimga qo‘yildi.) Demak, ega, to‘ldiruvchi yoki holdan kesimga so‘roq qo‘yish mustasno

holat emas: bunday savol berish nutqda ko‘p bo‘ladi. Shunday ekan, kesim gapning mazmuniy markazi degan e’tirof munozarali sanaladi.

5-sinf “Ona tili” darsligida “*Kesimdan boshqa bo‘laklar bilan kengayishdan hosil bo‘lgan gap yoyiq gap deyiladi*” degan ta’rif keltirilgan. Bu fikr fe’l kesimdan so‘roq berish yo‘li bilan gap tuzish g‘oyasiga ko‘ra yuzaga kelgan. Lekin o‘zbek tilining tabiatiga ko‘ra gap tuzish kesimdan boshlanmaydi: gap tuzish jarayonini o‘rganish orqali aniqlangan izchillikka qaraganda, so‘zlovchining faoliyati quyidagi tartibda kechadi [2; 110-b]:

1) o‘zi aytmoqchi bo‘lgan gapi uchun kerakli har bir so‘zni o‘z lug‘at boyligidagi so‘zlar orasidan tanlash asosida xotiraga keltiradi;

2) har bir so‘zni uning keyingi biror so‘z bilan bog‘lanishini o‘ylab yoki buni uzoq o‘ylamasdan grammatik jihatdan shakllantiradi;

3) hosil bo‘layotgan so‘z shakli bilan birikadigan yoki u bilan bog‘lanmaydigan navbatdagi so‘zga o‘tadi va hokazo;

4) birinchi so‘z keyingi so‘zni taqozo etib, u bilan bir sintagmani hosil qiladigan bo‘lsa, ushbu keyingi so‘zni tanlab, grammatik jihatdan shakllantirgunga qadar aytmay turadi; sintagma shakllangandan keyingina aytadi;

5) kesimni aytish bilan leksik-grammatik harakat zanjiri gapning barcha belgilarini o‘zida aks ettirib tugal holga keladi va yangi gap tuzish jarayoniga o‘tiladi.

Ushbu izchillik rusiyzabon o‘quvchilarga o‘zbek tilida gap tuzishni o‘rgatish munosabati bilan aytilgan bo‘lsa-da, u shu tilda so‘zlovchilarning barchasiga birday tegishlidir.

Kesim gapning mazmuniy markazi deb e’tirof etilganidan keyin fe’l asosida gap tuzish mashqlariga ustuvor ahamiyat berila boshlandi, o‘quvchilar tuzadigan gaplar kesim va unga bog‘langan gap bo‘laklaridan iborat bo‘lib qoldi. Bunda ega – fikr subyektining ko‘p vaqt e’tibordan chetda qolish holati kuzatilmoqda. Natijada tinglovchining so‘zlovchi aytmoqchi bo‘lgan xabarni tushunish mashaqqati ortgandan ortib, ba’zan asabining buzilishiga ham sabab bo‘lmoqda. “Ko‘tarildi”, “Olib kelishdi”, “Yutdim” kabi xabarlarni eshitgan odam kim?, nima?, nimani? qayerga? kabi savollar berib, to‘liq javobni olmaguncha, xabar bergan ega odamni so‘roqqa ko‘mib tashlashga majbur bo‘lmoqda. Ko‘rinadiki, kesim asosida gap tuzishning salbiy pedagogik oqibatlarini ham namoyon bo‘ladi.

To‘g‘ri, 1-2 yoshli bola ko‘pincha narsa-buyumni, fe’lni aytadi: *Non. Choy. Osh. Ber. Och. Ket. Kel.* Va hokazo. Kichkintoy to‘ldiruvchini yoki holni aytib, o‘ziga kerakli narsani kattalardan so‘raydi. Bunday gap

tuzishlar nutqi endi yuzaga kela boshlagan davrdagina kuzatiladi. Nutqi ma'lum darajada shakllangan bolani (o'quvchini) 1-2 yoshli bola holatiga qaytarish kerakmi?

Agar o'zbek tilida nutqning yuzaga kelish jarayoni nazarda tutilmasa, formal grammatikaga ko'ra to'ldiruvchi va holni fe'l-kesim boshqarganday tuyulaveradi. Gap tuzish jarayonidan kelib chiqilsa, buning aksi. To'g'ri, rus tilida aksar holatlarda ikkinchi darajali bo'laklar kesimdan keyin keladi: kesim shu bo'laklarni boshqaradi. Buni o'zbek tilida gap tuzish jarayoniga ko'r-ko'rona tatbiq etishga hojat yo'q.

Maktabda formal grammatika emas, nutq mahsulini yaratish uchun xizmat qiladigan amaliy grammatika o'rganilishi kerakligi hammaga ayon haqiqat. Bunday grammatika til hodisalarini har tomonlama tushuntirishga qodir bo'lishi lozim. Masalan, gapning yuzaga keltirilish jarayoni nazarda tutilsa, to'ldiruvchi yoki hol kesimdan avval shakllantiriladi, uning ifoda shakli esa kesimga ta'sir qiladi, ya'ni uni boshqaradi. Shunga ko'ra fikr subyekt yoki predmetini ifodalovchi ega bosh bo'laklardan biridir. Ushbu xulosani dalillash uchun yana bir asosli omil mavjudki, uni nazardan qochirish mumkin emas. Bu omil sodda gapning ega bilan bog'liq turlaridir.

8-sinf darsligining 2019-yilgi nashrida eganing gapdagi mavqeyini tiklash imkonini beradigan e'tirof o'z aksini topgani katta yutuq sanala oladi: "Ega va kesimdan yoki faqat kesimdan iborat gap yig'iq gap hisoblanadi" (51-dars), ya'ni ega va kesim aloqasi gapni hosil qiladi.

Xulosa qilish mumkinki, ega (fikr subyekt yoki predmetini bildiruvchi gap bo'lagi) kesim qatori gapning bosh bo'lagidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev R. Gap tuzishda eganing kesimga, uning grammatik shakllanishiga ta'sirini hisobga olishdagi uzviylik // "O'zbek tili" doimiy anjumani o'ninchi yig'ini materiallari (2009 yil 16–17-aprel). – Toshkent: RTM, 2009. 81–82-betlar.

2. Yo'ldoshev R.A. O'zbek tili darslarida o'quvchilarning og'zaki nutqini ularni ko'p gapirtirish orqali o'stirish metodikasi (Ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablar misolida): Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 212 b.

3. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / N.Mahmudov, A.Nurmonov, A. Sobirov, V. Qodirov, Z.Jo'raboyeva. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015. – 224 b.

4. Ona tili: o'рта maktablarning 8-sinfi uchun darslik/ M. Qodirov, H.Ne'matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2014. – 144 b.

5. Ona tili: o'рта maktablarning 8-sinfi uchun darslik/ M. Qodirov, H.Ne'matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019. – 144 b.

NOM KO'CHISH TURLARINI O'QITISH MASALASIGA DOIR MULOHAZALAR

Muhayyo Hakimova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU, f.f.d.

So'z ma'nosi serqirraligi va murakkabligi bilan lisoniy hodisalar orasida ajralib turadi. Zero, bitta leksik ma'noda olam va odam haqidagi obyektiv ma'lumot, u xususidagi tushunchalarimiz, nomlanayotgan voqelikka munosabatimiz, ushbu voqelikka bo'lgan ruhiyatimizning aksadosi, turmush tarzimiz, madaniyatimiz, ma'naviyatimiz, yoshimiz, jinsimiz, tafakkurimizning o'ziga xosliklari – jami namoyon bo'ladi. Bu murakkablikni anglash, muayyan qonuniyatlarga bo'ysunmas mohiyatni ilmiy nuqtai nazar bilan aniqlashning o'zi mushkul bir paytda, o'rgatishning naqadar murakkabligi ma'lum. Shu bois quyida leksik ma'no taraqqiyotining yo'llari bo'lgan nom ko'chishining o'qitilishi masalasiga, jumladan, jadvallar asosida o'qitish masalasiga to'xtalib o'tamiz.

Nom ko'chishi muayyan so'zning avval anglatayotgan ma'nosidan boshqa ma'no anglatishidir. Bunda so'z avval ma'lum bir ma'noni anglatadi, xalq qandaydir bog'liqlik asosida bu so'z bilan boshqa ma'noni ham atay boshlaydi. Ma'lum bir ma'noni anglatgan nom endi boshqa ma'noni anglatishga ham o'tadi. Tabiiyki, bu kabi nom va ma'no assimetriyasi ko'p ma'nolilikda, omonimiyada, sinonimiyada kuzatilar ekan, maktab o'quvchilarining ushbu hodisalarni farqlashi uchun jadvallardan foydalanish unumli samara beradi. U orqali "lisoniy hodisa" va "lisoniy munosabat" tushunchalari ajratiladi, ko'p ma'nolilik va omonimiya izchil farqlanadi.

№	ko'p ma'nolilik (polisemiya)	shakldoshlik (omonimiya)	ma'nodoshlik (sinonimiya)
1	semantik hodisa	shakliy munosabat	ma'noviy munosabat
2	shakl (so'z) bitta	shakl (so'z) ko'p	shakl (so'z) ko'p

3		shakl bir xil	shakl har xil
4	ma'no ko'p	ma'no ko'p	ma'no bitta (yoki bir-biriga yaqin)
5	ma'nolar bog'liq	ma'nolar bog'liq emas	umumiy ma'no
6	quloq: <i>odamning qulog'i</i> <i>chelakning qulog'i</i> <i>telpakning qulog'i</i> <i>dutorning qulog'i</i> <i>mashinaning qulog'ini</i> <i>g'o'za quloq</i> <i>ko'rsatdi</i>	I. ot. Yakka tuyoqlilarga mansub o'txo'r, sut emizuvchi yirik ish-ulov hayvoni. <i>oq ot. qashqa ot.</i> II. ot. Kishining shaxsiy ismi, nom. <i>chaqaloqqa ot qo'ymoq.</i>	Ism. Shaxsiy nom. <i>ism qo'ymoq</i> Ot. Kishining shaxsiy ismi, nom. <i>chaqaloqqa ot qo'ymoq</i>

Nom ko'chish usullari bo'lgan metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik ta'limning barcha bo'g'inlarida turli darajalarda o'qitiladi. Ushbu nom ko'chish usullaridan eng ko'p uchraydigan metaforadir. Uning ko'rinishlari va turlarini xususida aniq tasavvur uyg'otish, bir-biridan farqlash uchun quyidagi jadvallardan foydalanishni tavsiya qilamiz:

Metaforaning ko'rinishlari

Shakliy o'xshashlikka asoslangan metaforalar	Belgi o'xshashligiga asoslangan metaforalar	Harakat o'xshashligiga asoslangan metaforalar	O'rindagi o'xshashlikka asoslangan metaforalar
<i>oziq tish – arraning tishi</i>	<i>achchiq qalampir – achchiq haqiqat</i>	<i>uyini tozalamoq – guruchni tozalamoq</i>	<i>ko'ylakning etagi - dalaning etagi</i>

Metaforaning turlari

oddiy metaforalar	sinestetik metaforalar	abstraktlashga n metaforalar	personifikat siya	tobelilik
bir denotat ikkinchi denotatga	ma'lum bir sezgi bilan qabul qilingan	abstrakt tushunchalar aniq	jonsiz obyektlar jonli	hosila ma'no referentining mavjudligi

o‘zaro belgi, xususiyatlar i oddiy qiyoslanadi, o‘xshatiladi.	voqelik boshqa sezgi bilan qabul qilingan voqelikka qiyoslangan, o‘xshatilgan bo‘ladi.	narsalarga o‘xshatiladi	obyektlarga o‘xshatiladi	hosil qiluvchi ma’no referentining mavjudligiga tobe bo‘ladi.
<i>odamning ko‘zi – buloqning ko‘zi</i>	<i>shirin choy – shirin hid</i>	<i>shirin choy – shirin orzu</i>	<i>bola kuldi – tabiat kuldi (nutqiy)</i>	<i>mushti katta-musht yedi</i>

Ta’lim bosqichlarida metonimiyani o‘qitishda aniqlikka asoslanish lozim. Chunki metafora, sinekdoxa va vazifadoshlikka taalluqli bo‘lmagan barcha nom ko‘chish usullarini metonimiyaga kiritish hollari uchrab turadi. O‘quvchi va talabalarga nom ko‘chish hodisasi xalqning buyuk ijodkorligi samarasi ekanligi, xalq muayyan so‘z bilan boshqa bir voqelikni nomlar ekan, uni qaysi qolip asosida nomlash kerakligini o‘ylab o‘tirmasligini tushuntirish kerak. Shuning uchun hamma ma’no taraqqiyoti ham ma’lum bir usulga monand bo‘lishi shart emas. Ajratilgan nom ko‘chish usullari eng ko‘p uchraydigan, tipiklashtirilgan usullardir. Shu o‘rinda metonimiyaning ham eng tipik ko‘rinishlarini keltirib o‘tamiz:

Predmetning nomi shu predmetdagi boshqa bir predmetni ham atay boshlaydi: bosh (kishi organizmining bo‘yindan yuqori qismi) – bosh (miya, *boshi og‘rimoq*);

Predmetning nomi shu predmetdan hosil bo‘ladigan predmetni atay boshlaydi: choy (o‘simlikning turi) – choy (shu o‘simlik bargidan tayyorlanadigan ichimlik), qahva (o‘simlik turi) – qahva (shu o‘simlik mevasidan tayyorlanadigan ichimlik), til (nutq a’zosi) – til (nutq).

Belgining nomi shu belgi mavjud predmet: ko‘k (rang) – ko‘k (ko‘kat), kir (“iflos”) – kir (ifloslangan yoki yuvilgan kiyim-kechak).

Predmetning nomi shu predmet asosidagi o‘lchov birligini ham ataydi: kun (quyosh) – kun (kunning yorug‘ qismi), oy (osmon jismi) – oy (yilning o‘n ikkidandan bir qismi).

Bu o‘rinda *ko‘k* so‘zining “osmon” va “ko‘k” ma’nolari xuddi metaforaga o‘xshab ketsa-da, farqi muqarrar. Ikki belgi, ikki predmet bir-biriga o‘xshatilsa metafora, belgi predmetga ko‘chsa metonimiya deb hisoblanadi. Masalan, “oq” belgisi rangni ifodalaydi. Mazkur belgi birdan

ortiq predmetlarni ham nomlaydi. Ushbu belgi yana boshqa belgini nomlasa metafora (*qalbi oq*), agar predmetni nomlasa metonimiyadir:

Oq (belgi): *oq paxta* – oq (predmet): *tuxumning oqini yoqtirmayman*.

Oq (belgi): *oq paxta* – oq (predmet): *ko‘zining oqi sarg‘ayib ketibdi*.

Yoki “kir” belgisi “kir” belgisi bor predmetga ko‘chadi va metonimiya nom ko‘chish usuli amalda bo‘ladi:

Kir (belgi): *ko‘ylakning kiri* – kir (belgi): *kirlarni yuvmoq*,

Kir (belgi): *ko‘ylakning kiri* – kir (belgi): *kirlarni yig‘moq*. E’tibor qilinsa, *kir* so‘zining hosila ma’nolari bir-biri bilan ma’noviy zidlik hosil qilmoqda hamda enantiosemiyani vujudga keltirmoqda: *iflos kiyim* va *toza kiyim*.

Bir leksemaning ma’no taraqqiyotida bir nechta nom ko‘chish usullari ham uchrashi ko‘p kuzatiladi. Bu kabi leksemalarni semantik tahlil qilish biroz murakkab. Zero, millatning qaysi ma’noni qachon va qanday bog‘liqlik asosida hosil qilganini aniqlash mushkul va hatto, ilojsizdir. Lug‘atlardagi leksik ma’no taraqqiyotini ham mukammal deya olmasak ham, izohli lug‘atdagi ma’nolarning berilishiga qarab taraqqiyotni belgilash maqsadga muvofiqdir. Shu asnoda “muz” leksemasining ma’no taraqqiyotini aniqlab ko‘ramiz:

Muz so‘zi to‘rtta ma’no anglatadi:

1. Suvning nol darajagacha sovishi natijasida qotgan holati; yax. *Muz parchasi. Muz yormoq*.

2. Muz kabi sovuq. *Uning boshiga muz yugurib, asablari tirishdi*.

3. *Ko‘chma s. t.* Juda sovuq, yoqimsiz narsa, odam va sh. k. haqida. *Suhbat muz bo‘lib ketdi. Mehmonlar ichkilikka zo‘r berishdi*.

4. *Ot.* Sovuq. *..ellikka yaqin kishi besh-o‘ntadan navbat bilan kirib-chiqquncha, oyog‘imdan muz o‘tib ketdi (O‘TIL, 5 jildli, 2-jild, 629-bet)*.

“Muz” leksemasining ma’no taraqqiyotini quyidagi jadval orqali ko‘rish mumkin:

“Muz” leksemasining ma’no taraqqiyoti

Muz 1	Muz 2	Muz 3	Muz 4
predmet	belgi	belgi	predmetlashgan belgi
suvning qotgan holati	-		
sovuq	sovuq	yoqimsiz	sovuq

metonimiya	abstraksiyaga asoslangan metafora	
	metonimiya	

Xulosa qilib aytish kerakki, soʻz maʼnosi va uning taraqqiyoti maʼlum qolip, tizimlarga boʻysunmaydigan, xalqning yashash va tafakkur tarzi hamda uning taraqqiyoti bilan bogʻliq tarixiy jarayondir. Mazkur hodisani tadqiq qilish, etimologiyasini oʻrganish igna bilan chuqur qazishdek gap. Oʻqitishda esa ushbu murakkabliklarni biroz yumshatish, oʻquvchida tizimli tasavvur va zanjirli ilmiy tahlillar hosil boʻlishi uchun imkon qadar oʻrgatilayotgan maʼlumotlarni ixchamlashtirish, muayyan strukturaga solish kerak boʻladi. Bu oʻrinda yuqorida koʻrsatilganidek, jadvallar va chizmalardan foydalanish kutilgan natijani berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirtojiyev M. Oʻzbek tili semasiologiyasi. –Toshkent: Mumtoz soʻz, 2010.
2. Hakimova M. Semasiologiya. – Toshkent, 2008. – 100 b.

YIL BOSHIDA TAKRORLASH DARSLARINING SATHLARARO UZVIYLIKNI TAʼMINLASHDAGI OʻRNI

Tursunoy Yusupova,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDOʻTAU dotsenti, p.f.n.

8-sinf “Ona tili” darsligi quyi sinflarda oʻtilgan morfologiyaga doir ayrim bilimlarni takrorlash bilan boshlanadi, bu esa “Sintaksis” kursini oʻrganish uchun muayyan poydevor vazifasini oʻtaydi. Ana shu poydevorning mustahkamligi yangi mavzularni oʻzlashtirish sifati va samaradorligini belgilaydi. Takrorlash darslari oʻqituvchilar uchun yangilik boʻlmasa-da, yangilangan taʼlim mazmuni va usullari sharoitida nimani, qancha, qachon, qaysi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qoʻllab degan savollar tugʻilishi tabiiy hol. Maʼlumki, agar oʻquvchilar xotirasida oʻrganilgan materiallar muntazam tiklanib turilmasa, oldingi koʻnikmalar yangi materiallar bilan mustahkamlanib borilmasa, bu jarayon puxta oʻylab tashkil etil-masa, mustahkam koʻnikma va malakalarga erishib boʻlmaydi. Shuning uchun ham yil boshida tashkil etiladigan takrorlash darslariga alohida masʼuliyat yuklanadi. Nimani takrorlash

kerak degan savolga javob sifatida G.P.Sokolovning: “Yil boshida takrorlash darslarining asosiy vazifasi – o‘quvchilar quyi sinflarda olgan va o‘qituvchi bundan keyingi ishlarida tayanadigan asosiy ma‘lumotlarni xotirada tiklash”, [1; 19-b.] degan fikrlarini keltirish mumkin. Demak, asosiy ma‘lumotlarni ajratib olish ta‘lim mazmunini takomillashtirish, takrorlash darslarini uyushtirishning muhim omili hisoblanadi. 8-sinf “Ona tili” darsligida[2] berilgan “Mustaqil so‘z turkumlari”(3-dars), “Yordamchi so‘z turkumlari” (4-dars), “Undov, taqlid va modal so‘zlar ” (5-dars), “Olmoshning ma‘no turlari” (6-dars), “Ravishning ma‘no turlari” (7-dars) kabi mavzular yil boshida morfologiyani takrorlash darslarini ifodalaydi. Yuqoridagi mavzularni o‘tish jarayonida: Mustaqil so‘z turkumi, ot, sifat, son, olmosh, fe‘l, ravish, ot so‘zlar, ot o‘rnida qo‘llanuvchi so‘z turkumi; yordamchi so‘z turkumi, ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama; undov taqlid va modal so‘z; ol-moshning ma‘no turlari, kishilik, o‘zlik, ko‘rsatish, so‘roq, belgilash, bo‘lishsizlik, gumon olmoshlari; ravish, ravishning ma‘no turlari, holat, miqdor-daraja, o‘rin, payt ravishlari, yasama ravishlar kabi tushunchalar xotirada tiklanadi.

Yil boshida takrorlash uchun asosiy ma‘lumotlarni ajratish maqsadi bilan 8-sinf “Ona tili” darsligi tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, darslikda sintaksisga oid mavzularni o‘rganish jarayonida yil boshida takrorlash uchun mo‘ljallangan mustaqil so‘z turkumi, yordamchi so‘z turkumi, undov, taqlid va modal so‘zlarga ko‘p marotaba murojaat etilgan, 61-62-darslarda “Payt holi va o‘rin holi”, “Ravish holi va daraga-miqdor holi” mavzulari munosabati bilan o‘rin va payt, miqdor ravishlari tilga olingan, ammo olmoshning ma‘no turlariga oid tu-shunchalarga tayanish uchun zaruriyat bo‘lmagan. Aksincha, ba‘zi mavzularga doir qoidalarda fe‘l va fe‘l shakllari tushunchalaridan foydalanilgan. Shunga ko‘ra olmoshning ma‘no turlari o‘rniga fe‘l mayllari, nisbatlari, ko‘makchi fe‘llar, fe‘l shakllari – harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh) ni o‘quvchilar xotirasida tiklash muhim ahamiyatga ega. Yil boshida nimalarni takrorlash kerakligi masalasi shu bilan qisman hal etilgan bo‘lishi mumkin. Qismanligi shundaki, hali morfologiya bo‘yicha quyi sinflarda o‘tilgan mavzularning qaysi jihatlariga ustuvor ahamiyat berish zarurligi aniq emas. Ushbu masalani to‘g‘ri yechish uchun sintaksisni o‘rganish jarayonida morfologik tushunchalar nima munosabat bilan tilga olinganiga e‘tibor qaratish lozim. Tahlil asosida quyidagilarni ajratish imkoniyati tug‘ildi: 1) aksariyat holatlarda sintaktik hodisaning ifodalanishini ko‘rsatishda (masalan, otli so‘z birikmasi, fe‘lli so‘z birikmasi kabi); 2) kamdan kam holatlarda sintaktik birlik bilan morfologik birlikni o‘zaro

taqqoslashda (masalan, soʻz birikmasi va qoʻshma soʻz, soʻz birikmasi va turgʻun bogʻlanma /ibora/ kabi). Sintaktik hodisaning ifodalanishi morfologik termin asosida tushuntirilar ekan, oʻquvchi shu terminga tayanib tegishli soʻz turkumi yoki soʻz shaklini xotirasiga tushirishi, misollar orasidan tegishli soʻzni taniy olishi zarur. Bunday bilim soʻz turkumlariga doir tasnifni bilish, ularni uch belgisiga koʻra (maʼnosi, morfologik belgisi, sintaktik vazifasi) farqlay olish zamirida yuzaga keladi. Soʻz turkumlarini tezgina ayta olgan oʻquvchi ularga misollar keltira olishi yoki berilgan misollar orasidan koʻzda tutilgan soʻzni topishga ham qodir boʻlishi kerak. Sintaktik hodisa tushuntiri-layotgan paytda morfologik termin ataladi, yaʼni oʻquvchi uni xotiraga tushirish vaziyatiga tushmaydi. Terminni unutgan boʻlsa, oʻqigan yoki eshitgan zahotiyoq darhol esga oladi. Shunday boʻlgach, yil boshida takrorlash vaqtida asosiy eʼtiborni morfologiyaga doir terminlarni takrorlashgagina emas, balki jadvallar yoki boshqa vositalar yordamida berilgan terminlarga tayanib misol keltirish, matndan tegishli soʻzlarni topish, ularni tahlil qilishga qaratilmogʻi maqsadga muvofiqdir. D.Bogoyavlenskiy izohlaganidek, "...grammatik faktlar va hodisalarni tanish uchun tah-lilning umumiy koʻrinishini qoʻllash – shakl va maʼnoni ajratish allaqachon avto-matlashtirilgan boʻlishi mumkin, ayni paytda harakatning ijrochilik qismi – ushbu vazifani amalga oshiruvchi aqliy operatsiyalar – yana bir necha muddat ongning nazorati ostida qoladi" [3; 8-b.]. Toʻgʻri, oʻquvchi biror soʻz turkumiga oid misol keltirish lozim boʻlganda eslab aytish odatga aylangan soʻzlardan foydalanadiki, bu soʻzlarning qaysi turkumga mansubligi oʻzlashib ketgan boʻladi, ammo ilgari mashqlarda uchramagan soʻzlar uni bir oz oʻylantirib qoʻyishi mumkin. 8-sinfga kelib oʻquvchilarning fikrlash qobiliyati ancha rivojlangan boʻladi. Agar 5-6-sinflarda maʼlum qiyinchiliklar uygʻotgan materiallar endi sodda va ravshan boʻlib tuyiladi [4; 57-b.]. Demak, mavzularni chuqurlashtirilgan holda takrorlash lozim. L.Trostensovaning fikricha, "Oʻquvchilar "soʻz turkumi" tushunchasini oʻzlashtiradilar, deganda ularning soʻz turkumlarini tasnif qilish asosida yotgan prinsiplarini eslab qolganliklarigina emas, balki u yoki bu soʻzni ushbu belgilar yigʻindisini nazarda tutgan holda "soʻz turkumi" ga kiritish harakatini bajarishning umumlashgan malakalarini egallaganliklari tushuniladi [5; 129–130-b.]. Ona tili oʻquv fanining qulay jihati shundaki, V-VII sinflar mobaynida oʻquvchilar har gal biror soʻzni u yoki bu "soʻz turkumi"ga kiritishni oʻrganadilar, bunda soʻzlarni turkumlarga ajratish jarayoni kechadi. Darvoqe, yolgʻiz otning oʻzi soʻz turkumi boʻlmas edi, jami mustaqil va yordamchi soʻzlar yigʻilgan holatda soʻz turkumlaridir.

Bular yordamida bilimlar tizimga solinadi, umumlashtiriladi va majmuaviy yondashiladi.

Eslatib o‘tamiz, bilim olish ma’lumotlarni shunchaki qalashtirib bilib borish emas, balki E.Sukiasyan aytganidek, “tizimga, tartibga solingan jarayon”, “...bilimlarni uyushtirish – ularni tartibga solish, “tokchalarga” qo‘yib chiqish, xotiraga ulardan kerakli paytda va zarur o‘rinlarda foydalanish mumkin bo‘ladigan qilib olib kirishdir” [6; 9-b.]. Shunga ko‘ra ham so‘z turkumlariga doir bilimlarni takrorlash yu-zasidan olib boriladigan ishlar yuqoridagi maqsad uchun xizmat qilmog‘i, o‘quvchilarni shu yo‘nalishdagi faoliyat usullari bilan qurollantirmog‘i lozim. Har bir o‘qituvchi o‘quvchilarning aqliy faoliyati ustidan rahbarlik qilishni qay tarzda rejalashtirish kerakligini bilib olmog‘i darkor: 1) topshiriqni bajarish uchun taqozo etiladigan bilimlarning hamma majmuyini aniq tasavvur qilish; 2) ko‘zlangan ishni amalga oshirish uchun shu ish jarayonida o‘quvchilar bajarishlari mumkin bo‘lgan barcha aqliy harakatlar tizimini ko‘ra bilish (taqqoslash, tahlil qilish, sintezlash, tasnif etish va h.z.); 3) harakatlar tizimini har birining maqsadi muayyan vazifani hal etish bo‘lgan ayrim-ayrim operatsiyalarga bo‘la bilish. E.Nikitinaning tavsiyasiga ko‘ra, “... yuqori sinflarda fikrlash operatsiyalarining ikkitasi: taqqoslash, buning natijasida bilimlarning yangi unsurlari tug‘iladi va umumlashtirish” [4; 60-b.] yetakchi o‘ringa chiqadi. Demak, biror turkumga mansublikni aniqlash ko‘nikmasini shakllantirishda topshiriqni ustuvor fikrlash operatsiyalariga moslab tuzgan yaxshi: quyidagi ikki so‘zni qiyoslang kabi. 8-sinf ona tili darslarini yil boshida takrorlash ishini to‘g‘ri uyushtirish ta’lim mazmunidan tashqari, hosil qilinadigan ko‘nikmalar mundarijasini puxta rejalashtirishni taqozo qiladi. Shunga ko‘ra ham sintaksisni o‘rganish jarayonida tilga olinmaydigan olmoshning ma’no turlari o‘rniga fe’lga oid mavzuni rejalashtirish, morfologiyaga oid terminlarni faollashtirishdan ko‘ra ko‘proq so‘zlarning qaysi so‘z turkumiga mansubligini ajratishga, shu yo‘nalishdagi o‘quvchilar bajaradigan faoliyat usullarini takomillashtirishga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Г.П.Соколова. Обобщающее повторение. Повторение а начале года // Повторение на уроках русского языка (сб.ст. из опыта работы): Пособие для учителя. – М.: Просвещение, 1978.
2. M.Qodirov, H.Ne.matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva. Ona tili. 8-sinf uchun darslik. – T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.
3. Д.Н.Богоявленский. Повторение как совершенствование

умственной деятельности учащихся // Повторение на уроках русского языка (сб.ст. из опыта работы): Пособие для учителя. – М.: Просвещение, 1978.

4. Е.Я.Никитина. Повторение курса русского языка в VIII классе // Повторение на уроках русского языка (сб.ст. из опыта работы): Пособие для учителя. – М.: Просвещение, 1978.

5. Л.А.Тростенцова. Повторение морфологии в V и VI классах // Повторение на уроках русского языка (сб.ст. из опыта работы): Пособие для учителя. – М.: Просвещение, 1978.

6. Э.Р.Сукиасян. Организация знаний в структуре информационной культуры личности // Школьная библиотека. – 2006. № 1.

ONA TILI BO‘YICHA SAVODXONLIK KURSLARIDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVNI QO‘LLASH

Iroda Azimova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish
Metodikasi kafedrasida dotsenti, f.f.n.

Dunyoning turli mamlakatlarida, jumladan, Rossiya, Buyuk Britaniya, AQShda aholining savodxonligini oshirish masalasi bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar mavjud. Ular asosan o‘rta maktabda savodxonlikni singdirishning samarali yo‘llarini izlash bilan shug‘ullansalar-da, qiziquvchilar uchun ham savodxonlikni oshirish bo‘icha turli o‘quv kurslarini taklif etadilar. Shunday tashkilotlardan Buyuk Britaniyada “National Literacy Trust” (Milliy savodxonlik fondi) va AQSHda “Key to Literacy” (Savodxonlik kaliti), Rossiyada “Центр грамотности” (Savodxonlik markazi) tashkilotlari mavjud.

Buyuk Britaniyada “National Literacy Trust” (Milliy savodxonlik fondi) tashkiloti faoliyat yuritadi. Mazkur tashkilot

1. Aholining iqtisodiy jihatdan nochor qatlamiga savodxonlik darajasini oshirish masalasida amaliy ko‘mak beradi.

2. O‘rta maktablar bilan hamkorlik qilib, o‘z tahlillari, dasturlari bilan o‘rtoqlashadi.

3. Savodxonlik borasida ilmiy tadqiqotlar olib boradi va shu orqali savodxonlik masalasida yetakchi tashkilot sifatida o‘rin egallaydi.

4. Siyosatchilar va ota-onalar uchun savodxonlik muhim ahamiyat kasb etishi uchun kurshadilar. Fond “Hayot uchun zarur so‘zlar” deb nomlangan veb-sayt orqali <http://www.wordsforlife.org.uk/> turli yoshlarda

o‘zlashtirilishi kerak bo‘lgan so‘zlarni turli mavzular doirasida birlashtiradi va turli mashg‘ulotlarni ota-onalarga tavsiya sifatida berib boradi.

AQSHda “Key to Literacy” (Savodxonlik kaliti) tashkiloti bo‘lib, u savodxonlikni oshirish ma slalari bilan professional darajada shug‘ullanadi. Kasbiy rivojlanishga yo‘nalitirilgan, tushunish, lug‘at boyligi, savodli yozish va savodli gapirish masalalari bo‘yicha alohida kurslar va treninglar taklif etadi. Tashkilot <https://keystoliteracy.com/> saytida darslar, dasturlar va ilmiy tadqiqotdan namunalarni e‘lon qilib boradi.

Rossiyada “Центр грамотности” (Savodxonlik markazi) mavjud. Uning asosiy maqsadi savodxonlikni oshirish bo‘yicha masofaviy ta‘limni yo‘lga qo‘yish, savodxonlikning “onlayn trenajer”ini yaratish, shuningdek, rus tilini ommalashtiruvchi, rusiyzabon aholining yozma nutqi sifatini oshirish maqsadida turli ijtimoiy va internet loyihalarni ishlab chiqishdir.

Buyuk Britaniyadagi “National Literacy Trust” (Milliy savodxonlik fondi) qiziquvchilarga bolalarga savodxonlikni o‘rgatishda o‘rta ta‘limda samarador usullarni o‘rgatuvchi kurslar taklif qiladi. Shu jumladan, “Questioning the News: Critical literacy in English” – Yangiliklarni tanqid qilish: ingliz tilida tanqidiy savodxonlik, “Improving Writing in Key Stage 2” – Tayanch ta‘limda yozma nutq malakasini rivojlantirish, “Teaching Reading in Key Stage 2” – Tayanch ta‘limda mutolaaga o‘rgatish, “Words for Work”- Ish uchun zarur so‘zlar kabi kurslar bor. Mazkur kurslarda mavzular o‘qib tushunish, eshitib tushunish, fikrni yozma ifodalash va og‘zaki ifodalash kabi jihatlar uchun bergan holda taqdim etilgan.

AQSHning “Key to Literacy” (Savodxonlik kaliti) tashkilotida bir qator kurslar taklif qilinadi. Kurslarning nomi, qanday auditoriyaga mo‘ljallanganligi va mazmuni haqida qisqacha ma‘lumot quyidagi jadvalda aks etgan.

1-jadval. AQShdagi “Key to Literacy” (Savodxonlik kaliti) tashkiloti taklif etadigan kurslar haqida ma‘lumot.

Kurs nomi	Kimga mo‘ljallangan	Nima o‘qitiladi
Key Comprehension Routine Tushunish kursi	Tayanch ta‘lim va umumiy o‘rta ta‘limdagi o‘qituvchilar uchun	Tushunish strategiyalarini o‘z ichiga oladi. Matndagi ma‘lumotni tasnif qilish, asosiy g‘oyani ajratib olish malakasi, matn strukturasi, matndagi kichik

		mavzularning o‘zaro bog‘lanishi, xulosalash, tanqidiy fikrlash va matnga savol tuzish o‘rgatiladi.
Key Vocabulary Routine lug‘at boyligi kursi	Umumiy o‘rta ta‘limdagi yuqori sinf o‘qituvchilari uchun	So‘zlarning o‘zaro aloqasini o‘rgatuvchi mashqlar, chuqurroq o‘rgatish uchun ilmiy so‘zlarni tanlash, so‘zni o‘rgatishda kontekst va so‘zning ma‘noli qismlaridan foydalanish, so‘zga nisbatan hushyorlikni tarbiyalash kabilar o‘qitiladi.
Keys to Content Writing Yozish orqali mazmunni anglash	Tayanch ta‘lim va umumiy o‘rta ta‘limdagi o‘qituvchilar uchun	Turli fanlar doirasida turli akademik vazifalar uchun, turli maqsadlarda yozishni o‘rgatish uchun o‘qitiladi.
Additional Writing Topics Yozish bo‘yicha qo‘shimcha mavzular	Umumiy o‘rta ta‘limning bitiruvchi sinflari o‘qituvchilari uchun	Fikrini asoslash uchun yozish; hamkorlik, munosabat va ko‘rib chiqish uchun yozish, gap va abzatslarni yozish ko‘nikmalarini qanday shakllantirish mumkinligi o‘rgatiladi.

Rossiyadagi “Центр грамотности” (Savodxonlik markazi) to‘rtta kursni taklif etadi:

1. Boshlang‘ich “Xatosiz yozish kursi” imlo va punktuatsiya asoslari, “Kundalik yozishmalar” darajasi

2. Chuqurlashtirilgan “Xatosiz yozish kursi”. Chuqurlashtirilgan imlo va punktuatsiya qoidalari, “Matn yozish” darajasi.

3. Yuqori darajadagi “Xatosiz yozish kursi”. Imlo va punktuatsiyaning nozik jihatlari, “Matn tahriri” darajasi.

4. “Yozma nutq uslubi” kursi. Matnning tushunarligi, bog‘liqligi va ishonarliligi, “Matn yozish va tahrir qilish” darajasi.

Mazkur markaz o'qitish tamoyillari sifatida quyidagilarni belgilagan:

1. Oddiy va do'stona muhit

Hamma nazariy qoidalar tushunishga oson shaklda yetkaziladi, mualliflik kartalari va algoritmlaridan foydalaniladi, keraksiz terminlar va ta'riflar ishlatilmaydi. Mashg'ulotlar dialog tartibida, o'zaro fikr almashish tarzida olib boriladi.

2. Tushunarlilik va dolzarblik. Rus tili qoidalari va algoritmlari zamonaviy kommunikativ vaziyatlar kontekstida ko'rib chiqiladi (elektron yozishmalar, ijtimoiy tarmoqlarda post qo'yish kabi), shuningdek, qiziqarli badiiy va "ishchi" matnlardan (rasmiy, savdo, texnik, media) foydalaniladi. Matnlarni tinglovchilar o'zlari ham taklif etishlari mumkin.

Savodxonlik bu murakkab nazariy grammatikani yodda tutish emas, balki ko'nikma va odatdir. Shuning uchun kurslar rus tilida to'g'ri yozishni odatga aylantirishga qaratilgan.

Yuqorida tilga olingan savodxonlik kurslarining bari tilni amaliy qo'llash malakasini shakllantirishga qaratilgandir. Ularda tilga oid ko'nikmalar kognitiv faoliyat vositasi sifatida qaralib, fikr va ma'lumotni to'g'ri tushunish va to'g'ri hamda samarali ifodalash ko'nikmasini shakllantirish maqsad qilib qo'yiladi.

O'zbekistonda yuqoridagi kabi savodxonlik kurslaridagi ta'lim haqida so'z yuritirlar ekan, o'zbek tilini ona tili sifatida o'qitish tajribasi va an'anasiga to'xtalib o'tish lozim.

Hozirgi kunda ona tili maktabda grammatik ilm sifatida o'rgatiladi, unda tilshunoslikka oid tushunchalar o'rgatib boriladi. Tilning amaliy tarafi, xususan, fikrni to'g'ri va samarali ifodalash, so'zlardan kerakli o'rinda samarali foydalanish, matnni to'g'ri tushunish kabi ko'nikmalarga darslar davomida e'tibor qaratilmaydi.

Filologiya fanlari doktori Aziz Jo'raev qayd etib o'tganidek, umumiy o'rta ta'limdagi ona tili va hozirgi o'zbek adabiy tili kurslari doirasida tilga oid qonun-qoidalar asosan badiiy adabiyotdan keltirilgan misollar bilan tushuntiriladi. Vaholanki, til faqat badiiy uslubdan iborat emas. Tilning badiiy bo'lmagan uslublari inson kundalik hayotida ko'proq zarur bo'lsa-da, qolgan uslublarni maktabdagi ta'lim davomida e'tibordan chetda qoladi.

Oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarida ham ona tilining grammatik qonun-qoidalariga urg'u berilishi ortidan maktabdagi ona tili ta'limi jarayonida o'quvchining nutqiy ko'nikmalari e'tibordan chetda qoladi. Xususan, o'quvchi ergash gapli qo'shma gapning o'n to'rt xil

turining qoidalarini yoddan aytib berishi mumkin, biroq shu turdagi gaplardan qachon, qanday nutqiy vaziyatda foydalanish o‘rinli bo‘lishini bilmaydi.

O‘quvchi maktab davrida diktantdan tashqari amalga oshiradigan yozma ishlar, asosan, bayon va insho shaklida bo‘ladi. Ularni baholashda o‘quvchi matnining badiiyligi asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi. Yozma matn yaratish ko‘nikmasi ham faqat badiiy matn doirasida cheklanib qoladi.

Insonning til malakasi og‘zaki nutqni tushunish, yozma nutqni tushunish, fikrini og‘zaki va yozma ifodalash orqali shakllanishi ilmiy jihatdan isbotlangan. Biroq ona tili o‘qitishda bu to‘rt xil malakaga yetarli darajada e‘tibor qaratilmaydi. Bugungi kunda o‘zbek tilini ona tili sifatida qo‘llanish doirasida kuzatilayotgan kamchiliklar ona tili ta’limida tildan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishga urg‘u berilmaganligi bilan bog‘liqdir. Shuning uchun ham ona tilidan savodxonlik darajasini oshirish bo‘yicha malaka oshirish kurslari dasturlari va o‘quv materiallarini ishlab chiqishda kommunikativ yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Kommunikativ yondashuvning mohiyati real vaziyatda nutqni tushunish, o‘z fikrini to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatishdir. Shuning uchun har bir mavzu uchun alohida vaziyat beriladi va shu vaziyatda nutq vositasida masalani hal qilish talab qilinadi.

Til qobiliyatini inson hayotining farovonligini ta’minlashga xizmat qiladigan boshqa qobiliyatlardan ayri tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham uni rivojlantirishda inson hayotida uchraydigan vaziyatlardan foydalanish muhim. Bu, birinchidan, o‘rganuvchida dars jarayoniga nisbatan qiziqish va rag‘batni kuchaytiradi; ikkinchidan, unda foydalanilgan nutq vaziyatning ichida bo‘lgani uchun insonning xotirasida yaxshiroq saqlanadi.

Grammatik qoidani avval berib keyin mashq bajarish usuli shuncha vaqtdan beri ona tilini o‘qitishda qo‘llab kelingan. Uning asosiy kamchiligi amaliyotga yetarli darajada bog‘lanmaganligidir. Mazkur usulda mavzuni o‘qigan bola nazariy jihatdan shunday ekanligini biladi, ammo shu qoida qaysi vaziyatlarda qo‘llanishi haqida tasavvurga ega bo‘lmaydi. Kommunikativ yondashuvda esa tilning muloqot vositasi sifatidagi vazifasi birinchi planga qo‘yiladi. Ma’lum vaziyatda qanday gapirish to‘g‘ri bo‘ladi, ya’ni qanday ifoda yordamida fikrni bexato yetkazish mumkin – shu masalani hal qilish orqali til qonuniyatlarini tushuntiradi.

O'rganuvchiga ana shu bexato shakl asosida tilga oid qanday qoida borligi shu qoidaning bir necha xil vaziyatda aks etishi orqali tushuntiriladi.

Kommunikativ yondashuvga asoslangan darslarda faqat yozma matn bilan cheklanib qolinmaydi. Tilning og'zaki va yozma shaklidan darslar davomida baravar foydalaniladi. Mavjud an'anaga ko'ra ona tili o'qitishda yozma matn asosiy o'rinda turadi, og'zaki nutqqa alohida e'tibor qaratilmaydi. Vaholanki, insonning birlamchi til ko'nikmasi og'zaki nutqdir. Og'zaki nutqni rivojlantirish tilning qolgan shakllarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutq bilan ko'p ishlash og'zaki nutqni o'z-o'zidan rivojlanib qolishiga olib kelmaydi, chunki yozma nutq va og'zaki nutq mazmun jihatidan bir nuqtaga birlashsa-da, ularning amalga oshish jarayoni inson ongida boshqa-boshqa mexanizmning ishlashi orqali ta'minlanadi⁷. Shuning uchun ularning har biriga alohida e'tibor berish zarur.

Shuningdek, og'zaki va yozma nutqni tushunish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Nutqni tushunish jarayoni murakkab jarayon bo'lib, bir necha darajadan iborat bo'ladi. Bir nutqni bir davrada hamma bir xil eshitsa-da, har bir tinglovchi uni turli darajada tushunadi. Nutqni tushunish jarayoni alohida so'zlarning ma'nosini tushunish, gapning ma'lum qismini tushunish, matn mazmunining ma'lum qismini tushunish kabi bosqichlardan iborat bo'ladi. Nutqning qanchalik tushunilishi diqqatni ushlab turish ko'nikmasi bilan bog'liqdir. Mazkur ko'nikmani turli mashqlar yordamida shakllantirish mumkin. Shu vaqtgacha ona tili va adabiyot darslarida matn ustida ishlash bo'yicha mashqlarda matn mazmunini to'liq ochish nazarda tutilmagan. Ona tili darslarida matn, odatda, ma'lum til qoidasining ifodalanishini topish (masalan, ot turkumiga oid so'zlarni toping yoki ega bilan kesimni toping) maqsadida berilgan bo'lsa, adabiyot darslarida matnda ifodalangan badiiy jihatlariga urg'u berilgan. Kommunikativ yondashuv asosidagi mashqlar matnning mazmunini anglashga yo'naltiriladi, so'zlar va gaplar mazmunni ifodalashda aynan qanday vazifani bajarayotganiga e'tibor qaratiladi.

Og'zaki nutqni turli ko'rinishlarda – monolog, dialog, suhbat, bahs-munozara shakllarida to'g'ri tushunish ko'nikmasiga e'tibor qaratiladi.

Og'zaki nutqni tushunishda og'zaki nutqning turli ko'rinishlarini hisobga olish insonning tushunish qobiliyatini charxlaydi: tinglovchi nutqning turli qirralariga e'tibor qilinishni o'rganadi. Tilga oid qoidalar

⁷ Bu haqida qarang: Azimova, I. (2019) Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. Global ta'lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ma'ruza tezislari to'plami. – Toshkent: 2019. – B. 215–224.

zaruriy holatlarda izohlab o‘tiladi va amalda qo‘llanishi birinchi planda bo‘lgani uchun qoidani o‘zlashtirish samaraliroq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo‘rayev A. Standart o‘zbek tili. – Toshkent, 2017.
2. Nunan, D. Language teaching methodology. Prentice Hall, 1991.
3. Richards, Jack; Rodgers, Theodore. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
4. Buyuk Britaniyaning “National Literacy Trust” (Milliy savodxonlik fondi) <https://literacytrust.org.uk/about-us/>
5. AQSHning “Key to Literacy” (Savodxonlik kaliti) tashkiloti <https://www.keystoliteracy.com/free-resources/videos/>
6. Rossiyadagi “Центр грамотности” (Savodxonlik markazi) <http://xn----8sbigsxdeibpcsehd7c.xn--p1ai/>

O‘ZBEK TILI TA’LIMIDA UZVIYLIK VA UZLUKSIZLIK

Nargiza Ahmedova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU dotsenti, f.f.n.

O‘zbek tili o‘quvchilarda davlat tilida nutq tuzish, o‘qish va yozish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini shakllantiradigan asosiy fan hisoblanadi. O‘zbek tili respublikamizda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarini birlashtiradigan, yagona maqsad – O‘zbekiston taraqqiyoti, milliy yuksalish yo‘lida jipslashtiradigan vosita ham bo‘lmog‘i lozim. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, davlat tili masalasi milliy g‘oyamizning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lishi zarur. Yosh avlod qalbiga ona tilimizni bolalikdan singdirish maqsadida ta’limning barcha bosqichlarida o‘zbek tilini zamonaviy va innovatsion texnologiyalar asosida mukammal o‘rgatishga alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Toki bolalarimiz o‘zbek tilida ravon o‘qiydigan, ravon yozadigan va teran fikrlaydigan insonlar bo‘lib yetishsin [1].

Turli millat vakillarining o‘zbek tilida – davlat tilida og‘zaki va yozma savodxonligini oshirish, ularni tilga oid nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollantirish kabi asosiy vazifalarni hech shubhasiz umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan “O‘zbek tili” fani bajaradi. “O‘zbek tili” darslariga qo‘yilgan asosiy zamonaviy talablardan biri ham shu sanaladi. Biz ushbu maqolada umumta’lim maktablarida o‘qitilayotgan “O‘zbek tili” darsliklari tahliliga e’tiborimizni qaratdik.

“O‘zbek tili” darsliklariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, darslikda mavzularning berilishida oxirgi yangiliklarning hisobga olinmaganini

kuzatish mumkin, ya'ni qoidalar eski qarashlar asosida haliyam qolib ketgan. Masalan, 9-sinflar uchun mo'ljallangan darslikda shunday qoida keltiriladi: "Fe'ning turli shakllari orqali ifodalangan kesim fe'l-kesim sanaladi. Fe'l-kesimlar quyidagi ko'rinishlarga ega:

a) sof fe'l-kesimlar: *Men maktabga boraman*;

b) ravishdosh bilan ifodalangan kesim: *Motor gurullab, mashina oldinga intildi*;

d) sifatdosh bilan ifodalangan kesim: *Botir xatni kecha yuborgan*" [2; 42-b.].

Qoidada berilgan *Motor gurullab, mashina oldinga intildi* gapida gurullab shakli kesim emas, u motor so'zi bilan birgalikda bitta vazifada – hol vazifasida kelyapti, ya'ni bu gap hozirgi sintaktik nazariyalarga ko'ra sodda gap, sababi kesimi bitta: intildi nima qildi? – kesim. Bu gap oldingi nazariyaga ko'ra qo'shma gap bolib, unda ikkita kesim (gurullab, intildi) ishtirok etgan. Ko'rish mumkinki, bu shakldagi gaplar sintaktik tahlilida eski va yangi nazariyani hisobga olish zarur. Yoki Botir xatni kecha **yuborgan** gapida sifatdosh bilan ifodalangan kesim mavjud deyilyapti. Hozirgi qarashlarga ko'ra sifatdosh kesim vazifasida kelmaydi, bunda o'tgan zamon shaklidagi sof fe'l kesim vazifasini bajargan.

Ushbu darslikda gapning uyushiq bo'laklari mavzusida shunday deyiladi: Gapning barcha bo'laklari uyushib kelishi mumkin: *U kitobni, daftarni, qalamni oldi. U asta joyiga o'tirdi va gapira boshladi* [2; 118-b.]. 1-misolda to'ldiruvchi uyushgan, 2-misolda esa kesim uyushmagan. Bu misol tahlilida ham an'anaviy va zamonaviy qarashni faralash lozim. An'anaviy qarashga ko'ra, bu kesimlarning (*o'tirdi* va *gapira boshladi*) egasi bitta (u) bo'lganligi uchun sodda gap deb hisoblanardi, ya'ni kesimi uyushgan sodda gap. Zamonaviy qarashga ko'ra esa gapning markazi kesimdir, eganing bor yoki yo'qligi, umumiyliigi gapning sodda yo qo'shma ekanligiga ta'sir qilmaydi. To'liq shakllangan bitta kesimli gap sodda, to'liq shakllangan ikkita kesimli gap esa qo'shma gap deyiladi. Bu o'rinda ikkita kesim ham to'liq shakllangan, ya'ni -di shakli har bir kesimda mavjud. Demak, bu gap hozirda qo'shma gap hisoblanadi, unda uyushiq kesim mavjud emas.

Yoki shu darslikdagi mavzular uzviylikiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, izchillikning ham biroz buzilganini kuzatish mumkin. Darslik asosan sintaksis bolimidan, yani shaxsi ma'lum gaplar mavzusidan boshlanadi. Ma'lumki, gap bo'laklari haqidagi qarashlar hozirda butunlay o'zgargan, gapning asosiy markazi kesim sanaladi. Shunga ko'ra gap bo'laklari tizimida kesim egadan oldin jo'ylashadi. Bu darslikda esa

an'anaviy qarashlarga tayangan holda oldin ega bo'lagi haqida ma'lumot beriladi. Hozirgi nazariyaga ko'ra kesim gapning markazi bo'lganligi uchun oldin kesim haqida ma'lumot berish maqsadga muvofiq bo'lardi. Egaga oid mustahkamlovchi mashqlarning 7-topshirig'ida blis-so'rovnoma metodi asosida gaplar beriladi va unda eganing qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganini aniqlash vazifasi topshiriladi. Misollar orasida **Bahor** gapi ham keltiriladi [2, 33-b.], ya'ni ega vazifasida kelgan bahor so'zining turkumini aniqlash kerak bo'ladi. Bahor gapi atov gap bo'lib, undan keyin atov gapni izohlovchi gapni ham birga berish kerak edi. Atov gaplar oldingi ikki cho'qqili nazariyaga ko'ra, kesimsiz bir bosh bo'lakli gaplarga mansub bo'lib, bahor sintaktik shakli ega sifatida tahlil qilinardi. Ammo hozirgi bir cho'qqili nazariyaga ko'ra atov gaplardagi sintaktik shakl kesim hisoblanadi va egasiz gaplar qatoriga kiradi. O'zbek tilida kesimsiz gap bo'lishi mumkin emas. Demak, hozirgi qarashga ko'ra bu o'rinda (**Bahor** gapida) berilayotgan misolda umuman ega bo'lagi qatnashmagan.

“Ot-kesim” mavzusida quyidagicha qoida beriladi: Fe'ldan boshqa so'z turkumlari bilan ifodalangan kesimlar ot-kesim deyiladi. Harakat nomi bilan: *Bizning maqsadimiz a'lo baholarga o'qish*. Ibora bilan: *Tepa sochi tikka bo'ldi* [2; 35-b.]. Bu misollarning birinchisidagi *o'qish* so'zshakli ot-kesim, ammo uning turkumi fe'l. ya'ni fe'lning harakat nomi shakli. Fe'ldan boshqa so'z turkumlari deyilgani bu so'zning turkumi fe'l emas, degan xulosani keltirib chiqaradi. Yoki ikkinchi misolda ibora kesim vazifasida kelganiga e'tibor qaratiladi-yu, ammo iboraning ma'nosi g'azablanmoq ma'nosiga to'g'ri kelgani, ularning harakat-holat ifodalayotgani, turkumi fe'l ekanligiga ahamiyat berilmaydi, natijada fe'l kesim hisoblangan shakl ot kesimga kiritiladi.

8-sinf “O'zbek tili” darsligida shunday qoida beriladi: -dir ortirma nisbat qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan fe'l asoslariga, -tir qo'shimchasi, asosan, -jarangsiz undosh bilan tugagan fe'l asoslariga, -ir, -iz qo'shimchalari esa bir bo'g'inli so'zlarga qo'shiladi: *oldirmoq, qiziqirmoq, ichirmoq, oqizmoq* [3; 25-b.] kabi. Ammo mashqlarda keltirilgan *ko'kartirmoq, quvontir, tekshirmoq, yopintirmoq, uyaltirmoq, tomizdirmoq, oqizdirmoq, o'tkazdirmoq* kabi so'zlar umuman qoidaga zid holatda-ku! Ushbu qoida lotin yozuvi asosidagi imlo qoidalarida aniqroq berilgan, ammo kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalarining 42-bandida shu mazmundagi qoidani uchratamiz. Lotin yozuvi imlo qoidasida esa bu holatga aniqlik kiritilgan (37.2-qoida). Darslikda imlo qoidalarini mukammal va ortiqcha bahslar keltirib chiqarmaydigan holatda keltirish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Sabab ma'nosini ifodalovchi ergashtiruvchi bog'lovchilarga *chunki* so'zi bilan birgalikda *shuning uchun* so'zi ham kiritilgan, maqsad bog'lovchisi (*toki*) haqida ma'lumot umuman berilmagan [3; 65-b.]. Oldingi adabiyotlarda *shuning uchun* birikuvi ergashtiruvchi bog'lovchilarning sabab ma'noli turiga kiritilardi. Ammo hozirda *shuning uchun*, shu sababli, shu tufayli kabilar bog'lovchi so'z turkumi hisoblanmaydi, undagi olmoshni erkin almashtirish mumkin: *shuning uchun* – buning uchun kabi. Bunday birikuvlar ko'makchili qurilma sifatida tahlilga tortilmoqda. Darslikda esa mana shu yangi qarashlar o'z ifodasini topmagan. Hatto o'zbek sinflari uchun yaratilgan "Ona tili" darsliklarida ham bu mavzular yangi qarashlar asosida yoritilgan. Undan tashqari, ushbu darslikda ham mavzular uzviyligi buzilgan holatga duch kelamiz, ya'ni bog'lovchilar haqidagi mavzudan keyin modal so'zlar va ularning turlari haqida mavzu beriladi. Undan keyin esa yordamchi so'zlarning ko'makchi va yuklama kabi turlari va uni mustahkamlovchi mashqlar beriladi. Yordamchi so'zlarning farqi bilan birga ularni bir tizimga birlashtirib turadigan umumiyliigi ham mavjud, shuning uchun oldin yordamchi so'zlarni to'liq tugatib, keyin alohida olingan so'zlar, yani modal so'zlarga o'tish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Umumta'lim maktablarining 7-sinf o'quvchilaru uchun nashr qilingan "O'zbek tili" darsligida otdan sifat yasovchi qo'shimchalar qatorida -choq (*tortinchoq*) va -qoq (*urishqoq*) qo'shimchalari keltiriladi [4; 31-b.], fe'ldan sifat yasovchi qo'shimchalarda ham shu qo'shimchalar ayni so'zlar misolida berilgan [4; 36-b.]. Aslida bu qo'shimchalar fe'ldan sifat yasovchi qo'shimchalar sirasiga kiradi. Yoki darslikda ravishlar sifatida berilgan quyidagi so'zlar haqida ham hozirgi qarashlar farqlanadi. Yasama ravishlar: *yaxshilab* [4; 54-b.], *guldek* [5; 87-b.], qo'shma ravishlar: *allaqachon, o'sha yer* [5; 61-b.], *bu yer* (-ga, -da, -dan), *shu yer* (-ga, -da, -dan), *u yer* (-ga, -da, -dan) [5; 83-b.]. Ushbu so'zlardan *yaxshilab* so'zi harakatning belgisini bildiradi, ammo ravish emas, ravishdosh hisoblanadi, *allaqachon* so'zi esa gumon olmoshi sanaladi. Buni shu mualliflar tomonidan tayyorlangan 6-sinf "O'zbek tili" darsligi ham tasdiqlaydi [5; 61-b.]. Bitta so'zning bir xil mualliflar tomonidan ikkita darslikda ikki xil so'z turkumi deb berilishi har qanday odamni hayron qoldiradi. *Bu yer, shu yer, o'sha yer* shakllarining kelishiklarda turlangan ko'rinishlari o'rin ravishi sifatida qaralardi, chunki o'zbek tili grammatikasi rus tili grammatikasiga tayangan holda yaratilganini hozirda hammamiz bilamiz. Bu so'zlar rus tilidagi *здесь, туда, сюда* shakllarining o'zbek tiliga tarjima qilinishi bilan tilimizda bitta so'z

sifatida o‘rnashib qolgan. Ammo bu so‘zlar qo‘shma so‘z emas, sababi tobe qismga savol berish orqali almashtirish mumkin: qaysi? yer – *bu yer, mana bu yer – anavi yer – aytilgan yer* kabi. Demak, bu birikuv leksik birlikni emas, sintaktik birlikni yuzaga keltiryapti, bu birikuv bitishuvli so‘z birikmasi hisoblanadi. Bu o‘zgarishlar allaqachon “Ona tili” darsliklarida aks etdi, ammo “O‘zbek tili” darsliklarida hamon o‘zgartirilgani yo‘q.

O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirishga alohida e‘tibor qaratilayotgan hozirgi kunda bu kabi holatlarni aniqlashtirish, darsliklarni qayta ishlash, mukammallashtirish eng asosiy vazifalardan biridir. Davlat tili xalqni birlashtiruvchi asosiy vositalardan biri ekan, uni o‘rganish, o‘rgatish, amalda to‘g‘ri qo‘llay olish har birimizning vazifamiz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. Rafiyev A., Muxamedjanova G. O‘zbek tili. Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 9-sinfi uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2019.
3. Muxitdinova X.S. O‘zbek tili. Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 8-sinfi uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2019.
4. Muxitdinova X.S. va b. O‘zbek tili. Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 7-sinfi uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 2017.
5. Muxitdinova X.S. va b. O‘zbek tili. Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 6-sinfi uchun darslik. – T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2017.

“O‘ZBEK TILI” DARSLIKLARINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA MULOHAZALAR

Hoshimjon Ahmedov, ToshDO‘TAU
O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish
metodikasi kafedراسи katta o‘qituvchisi, f.f.n.

Ma’lumki, o‘zbek tili mavqeyini ko‘tarish yana kun tartibiga qo‘yilgan. Ikkinchi tomondan esa til o‘rganish masalalari ham yana qaytadan dolzarflik kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, bugungi kunda rusiyzabon o‘quvchilar uchun nashr etiladigan darsliklarni

yanada mukammallashtirish davr talabiga aylangan. O‘zbek tili darsliklarini va umuman bu sohadagi muammolarni yechishga qaratilgan tadqiqotlar ham bor. Ayniqsa, R.Niyozmetovanning ilmiy izlanishlari ancha salmoqli ekanini qayd etish lozim [1; 4-b.]. Bundan tashqari, “O‘zbek tili” darsliklari yaratishdagi urinishlarning ayrimlarini ham birmuncha muvaffaqiyatli desa bo‘ladi [2]. Lekin shunga qaramay, zamon talablari yangicha vazifalar qo‘ymoqda.

Bizning nazarimizda, “O‘zbek tili” darsliklari quyidagicha tuzilishda bo‘lishi maqsadga muvofiq:

1. O‘zbek tili haqida umumiy ma’lumot.
2. So‘z turkumlari.
3. O‘zbek tilida so‘z yasalishi.
4. O‘zbek tilida gap tuzilishi.
5. Asos va qo‘shimchalar imlosi.
6. Turli mustahkamlovchi mashqlar va topshiriqlar.

Dastlab nazariy ma’lumotlar soddaroq va tushunarliroq tarzda berilishi lozim. So‘z turkumlari haqida tushuncha berilgach, bevosita o‘zbek tilida gap qurilishi, fe’l va ot turkumiga oid so‘zlar ishtirokida turli gap tuzilishi shakllari haqida ma’lumot berish o‘rinli. So‘z turkumlarining yasalish xususiyatlari ham qiziqarli misollar bilan bayon etilishi lozim.

Bizningcha, darslarda quyidagicha misollarni tavsiya qilish mumkin. Jumladan, “Kerakli harflarni qo‘yib, so‘z hosil qiling” usuli.

1-ilova

Undosh tovushlar bo‘yicha

Nuqtalar o‘rniga **q, g‘, b, v, s, ts** harflaridan mosini qo‘ying.

Bo...cha, chiro..., charo...on, qutlu..., uru..., bog‘...on, bo...o, dar...oza, dor...oz, ka...ob, kon...ert, ...irk.

Yoki:

Nuqtalar o‘rniga **x** yoki **h** harflaridan mosini qo‘ying.

...ayrat, ...ol-a...vol, ...issa, ...ola, ...oshiya, ...islat, ba...t, ra...mat, A...mad, Zulay...o, Ra...im, Mu...tor, shu...rat, Be...zod.

Yolashgan tovushlar bo‘yicha

Nuqtalar o‘rniga **ye, yo, yu, ya, e** harflaridan mosini qo‘ying.

...ng‘oq, ...mush, ...shil, bo‘...q, ta..nch, i...l, ...nvar, po...zd, bu...m, ...mshoq, ...sh.

Unli tovushlar bo‘yicha

Nuqtalar o‘rniga **o** yoki **u** harflaridan mosini qo‘ying.

S...v...n, s...v...q, s...vg‘a, t...m...sha, ketm...n, g...lz...r, sab...q, ...z...da, ...d...b.

Yoki:

Nuqtalar o‘rniga *i* yoki *u* unlilaridan mosini qo‘ying.

B...l...t, bo‘l...m, tutq...ch, bo‘y...n, cholg‘..., qo‘y...n, tush...nmoq, bult...r, ho‘k...z, huq...q, k...m...sh,

Bu mashqlarni shu tarzda tavsiya qilish mumkin. Undan tashqari asos va qo‘shimchalar imlosi bo‘yicha quyidagicha mashqlarni havola qilish mumkin:

2 - ilova

I. Nuqtalar o‘rniga tegishli qo‘shimchalarni qo‘ying

1. Mehmon... chaqirsang kelaman. (*ga, qa, dan*)
2. Yoqmasa bu yer... ketaman. (*ga, dan, ni*)
3. Bir kuni Moskva... boraman. (*da, ga, qa*)
4. Futbolni yo... ko‘raman. (*mon, qon, son*)
5. Sen... o‘z sirlarimni aytaman. (*ga, dan, ning*)
6. Ukam... o‘yinchoq olib beraman. (*dan, da, ga*)...

Bundan tashqari iqtidorli o‘quvchilarga mo‘ljallangan yoki qiziqtirish, o‘z bilimlarini oshirish uchun quyidagicha matnlarni ham tavsiya etsa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

3- ilova

Bilim va topqirlik sinovi

O‘zbeklarning eng ko‘p ichadigan ichimligi?

O‘zbeklarning sevimli taomi?

Mashhur Xorazm raqsi?

Shakli katta-uzunchoq shirin poliz mahsuloti?

O‘zbeklarda “Non sindirish” voqeasi nima?

O‘zbek avtozavodi qaysi shaharda ochilgan?

Toshkent teleminorasi necha metr: 350, 360, 370? Toshkent metrosi qachon ishga tushgan: 1977 yoki 1980?

O‘zbekistonda qaysi yuk mashinalari ishlab chiqarilmoqda: “Volvo” yoki “MAN”?

Toshkentdagi “Royson” zavodi nima ishlab chiqaradi: televizor yoki avtomobil ehtiyot qismlari?

“Bunyodkor” futbol stadioniga nechta ishqiboz sig‘adi: 32000 yoki 35000? AKWAPARK, Milliy Bank – Mirzo Ulug‘bek tumanida joylashganmi yoki Yunusobod tumanida?

Ulgurji qishloq xo‘jalik bozori – Qo‘yliqdami yoki Miroboddami?

O‘zbek dasturxonidagi eng aziz ne‘mat nima?

Ro‘za tutiladigan oy?

Arafa kuni qo‘shnilarga nima ulashadilar: choy yoki osh?

O‘zbekistonda ayol-shoirlarga beriladigan mukofot?

Xonadonlarga uya quradigan qush – ?

Qaysi roman Dostoyevskiyniki: “Telba” yoki “Tirilish”?

Gerbimizda qaysi qush tasvirlangan: Humo qushi yoki Semurg‘?

Bundan tashqari o‘zbekcha matnlar yodlatish uchun berilsa ham bo‘ladi. Bunda dastlab o‘nta so‘zli, o‘n beshta so‘zli, yigirmata so‘zli matnlar tanlab olinishi kerak. Bu miqdor sinflar yoki o‘rta maxsus ta‘lim tizimida birinchi va ikkinchi bosqich kesimida oshirib borish tarzida tanlanishi lozim. Yana juft so‘zlar bo‘yicha ham muayyan mashqlarni tavsiya etsa bo‘ladi. Mana masalan:

4- ilova

**Juft, qo‘shma va takroriy so‘zlar
(Ikkinchi qismini toping)**

Bola-	Tekis
Asta-	Adir
Qurol-	Kichik
Ota-	Ona
Aka-	Urug‘
Opa-	Singil
Qarindosh-	Uka
Katta-	Aslaha
Qir-	Sekin
Tep-	Chaqa
Egri-	Yomon
Past-	Yor
Atir-	Pishdi
Sabzi-	Keldi
Omon-	Kunduz
Kecha-	Eson
Bordi-	Piyoz
Kuydi-	Upa
Yor-	Baland
Yaxshi-	Bugri...

Bundan tashqari, o‘zbek iboralarini ham sinab ko‘rsa bo‘ladi. Bunda o‘quvchi ikkita javobdan birini tanlashi so‘raladi.

5-ilova

Iboralarning ma‘nosini toping

1. Barmog‘ini tishlab qoldi – *hayronlik / xursandlik*
2. Betga chopar – *to‘g‘riso‘zlik / odobsizlik*

3. Biri ikki bo‘lmadi – *hech ishi yurishmadi / bir so‘mi ikki so‘m bo‘lmadi*
5. Bir oyog‘i to‘rda, bir oyog‘i go‘rda – *juda boy / juda qarigan*
6. Boy bermoq – *qo‘ldan chiqdi / boyni qo‘lga tushirdi*
7. Bor otangga, bor onangga – *ota-onaga yubormoq / ovora qilmoq*
8. Gapning po‘skallasi – *bo‘ladigan gap / gapning boshi*
9. Dami ichida – *nafasi ichida / dardi ichida*
10. Dunyoning achchiq-chuchugini totgan – *dono / sayohatchi*
11. Do‘ppi tor kelib qoldi – *do‘ppisi tor / imkoniyati oz*
12. Yerga urmoq – *qadrlamadi / yerga urib do‘pposladi*
13. Jinim suymaydi – *hecham yoqtirmayman / jiyanim suymaydi*
14. Jonini hovuchlab – *jonidan sevib / juda qo‘rqib*
15. Juftakni rostladi – *qo‘lini juft qildi / qochib qoldi*

“Ko‘rgan-kechirgan narsasiga ochiq yoki yashirin, tasdiqlash yoki inkor qilish, ijobiy yo salbiy tarzda baho berish insonning insonligini belgilaydigan doimiy ijtimoiy-ma’naviy xususiyatidir” [3; 33-b.].

O‘quvchilarning qiziqishlarini hisobga olib, “Maqolni davom ettiring” mashqini tavsiya qilish mumkin. Bunda bir ustunga maqollar yoziladi, yonma-yon ustunga tushirib qoldirilgan so‘z yoziladi. Mos so‘zni topish so‘raladi. Shu tariqa o‘zbek maqollari bo‘yicha o‘quvchi uchun manzur bo‘ladigan dars uyushtirsa bo‘ladi. Mana shu tarzda biz tavsiya qilayotgan usulda yangicha va o‘ziga xos bir darslik yuzaga chiqishi mumkin deb hisoblaymiz.

Hozirgi zamonda maktab va litseylarda ilg‘or metodik usullardan foydalanilmas ekan, yaxshi natijani kutib bo‘lmaydi. Shunday ekan, o‘qituvchi muttasil ravishda o‘z ustida ishlashi talab etiladi. Yuqorida keltirilgan misollar yillar davomida o‘z tajribamda sinab ko‘rilgan va yaxshi samara bergan usullar edi. Hamkasblar o‘zaro hamkorlikda ishlasa, menimcha, umummanfaatimiz uchun faqat foydali ish qilgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Niyozmetova R. H. Uzluksiz ta‘lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganish. – T.: Fan, 2007.
2. Rasulov R., Mirazizov Q. O‘zbek tili. O‘zbekiston oliy va o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi vazirligi rusiyzabon guruhlar uchun darslik sifatida tavsiya etgan. – T.: Aloqachi, 2005. – 228 b.
3. Ёўлдош Қ., Ёўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016. – 464 б.
4. Фируз Аллаев. Чет тилини тез ўрганиш сирлари. <http://kashfiyot.biogspot.com/>.

5. www.herone.ru. 20 полезных книг для изучения иностранных языков.

ZAMONAVIY ONA TILI TA'LIMIDA O'QUV TOPSHIRIQLARINING O'RNI

G'ofir Hamroyev, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyotini o'qitish
metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi, p.f.d. (PhD)

Metodikada nimani, qanday o'qitish masalasi antik davrdan to bugungi kunga qadar muammo bo'lib kelgan. Bu tabiiy hol, albatta, taraqqiyot metodikaga bog'liq bo'lganligi bois, zamon talab qo'yadi, metodika mazkur buyurtmani bajaradi. Shuning uchun ham nimani qanday o'qitish masalasi doimiy dolzarblikka egadir. Intensiv rivojlanishni maqsad qilgan har qanday davlat ta'limga tayanadi. Zamonga mos ta'lim tizimi jamiyatni intellektual, iqtisodiy, ma'naviy jihatdan o'sishga olib keladi. Zamonaviy ta'limni nima tashkil etadi? Muayyan fan doirasida olinsa, shu o'quv predmeti bo'yicha egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaklarni shakllantiruvchi yangi, kreativ mazmun tushunladi. Bu nima degani? Ona tili ta'limida fanning asosiy o'quv materiallari – grammatik ma'lumotlar va ularni tushunish va mustahkamlash uchun berilgan o'quv topshiriqlar. Aslida, bu eskicha yondashuv hisoblanadi. Bugungi zamonaviy ta'lim – grammatik qoidalarga asoslanishni inkor qilmoqda. MDH mamlakatlarida, jumladan rus tili darsliklarida ham uzoq muddat grammatizm hukmronlik qilib keldi, jumladan o'zbek tili darsliklari mazmuniga ham mazkur grammatizm 1939-yilda tarjima yo'li bilan kirib keldi va bugungi kunga qadar amal qilib keldi. Qoidalar sistemasidan iborat mazmun turli davrlarda turlicha metodika asosida o'qitildi. M.Asqarova (1970–1993) va H.Ne'matov (1998–2006)lar muallifligida nashr qilingan O'zbek tili (Ona tili) darsliklarida an'anadan chiqish, yangicha yondashuvlar kuzatilgan edi. Aytish joizki, mazkur mualliflarda ham grammatik ma'lumotlar hajmi o'zgarmagan, biroq o'quv topshiriqlar mazmunida sezilarli o'zgarishlar mavjud edi. Keyingi N.Mahmudov boshchiligida yaratilgan darsliklar mazmunida grammatik qoidalar hajmi ortdi, ilmiylashdi va o'quv topshiriqlar saviyasi pasaydi, soddalashdi. Natijada o'quvchilarda nutqiy ko'nikmalar rivojlanmay, hayot uchun zarur bo'lmagan lingvistik bilim hosil qilishga erishildi. Darslikning metodika qismi – o'quv topshiriqlari ham shunga xizmat qilib keldi. Fan o'z-o'zidan

rivojlana olmaydi, uning harakatga kelishini metodika ta'minlab beradi. O'zbekistonda ona tili ta'limining orqada qolishi filologlarning mazkur sohaga bepisand munosabatda bo'lgani sabablidir. O'zbek tili taraqqiyotiga mas'ul bo'lgan soha mutaxassisleri – o'zbek filologiyasi tadqiqi bilan shug'illanib, aksariyat hollarda, ilmiy va amaliy ahamiyati kam bo'lgan, jamiyat tomonidan deyarli qo'llanilmaydigan tadqiqotlar bilan shug'illanib keldi. Tilshunoslik va adabiyotshunoslikda nihoyatda dolzarb ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilganini ham ta'kidlash lozim, ammo bu muhim yangiliklar ko'p hollarda amaliyot bilan bog'liq emas.

Umuman olganda, garchi metodika sohasini rivojlantirishga bir necha bor harakat qilingan bo'lsa-da, ona tili o'qitish metodikasida shu kunga qadar o'quvchi ona tili darslari orqali nimani o'rganishi kerakligi, qaysi o'quv materialini yoddan bilishi, qaysi o'quv materialini yod olishga zarurat yo'q, o'qib tushunsa, yetarli bo'lishini, qaysi bo'limlarni o'qitishda, asosan, mashqlardan, qaysilaridan topshiriqlar ustida ko'proq ishlash, mashq, topshiriq va savolning bir biridan farqlanishi, tahlil materiali uchun qanday misollar olish lozimligi, mezonlari aniqlanmagan. O'quvchilar egallashi lozim bo'lgan grammatik maksimum, leksik minimumlar ishlab chiqilmagan.

Ta'kidlangan kamchiliklardan eng muhimi, ta'limning sifatini belgilab beruvchi eng muhim indikator, ham shakllantiruvchi ham sinash jarayonida qatnashuvchi vositalar – mashqlar tizimi, shuningdek savol va topshiriqlardir. Bular ona tili ta'limi mazmunini, metodikaning asosini tashkil etadi.

Umumiy o'rta ta'lim "Ona tili" darsliklarida ham, oliy ta'lim darsliklarida ham savol, mashq va topshiriqlar sifatiga, uning zamon talablariga mosligi masalasiga e'tibor qaratilmayapti. Bu holat o'zbek tilining o'quvchi va talabalar tomonidan yetarlicha o'zlashtirilmay qolishiga olib kelayotgan sabablardan biridir. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, malaka hosil qiluvchi, takrorga asoslangan mashqlar, sinash uchun qo'llanuvchi topshiriqlar, fikrlashga o'rgatuvchi savollar o'zbek tilini ona tili sifatida ham davlat tili va ikkinchi til sifatida ham o'qitish mashg'ulotlarida muayyan nazariy asoslarsiz aralash holda qo'llanib kelmoqda. Umumiy mashq atamasi ostida oddiy topshiriq xarakteridagi tavsiyalar o'rin olgan. Mashq va topshiriq farqlanmagan. Savollar fikrlashga undamaydi.

Kuzatishlarimiz asosida ayta olamizki, uzoq yillardan beri amalda bo'lgan qator darslik va qo'llanmalarda mazkur tushunchalarning

berilishida chalkashlik, birining o‘rnida boshqasining qo‘llanilishi kabi holatlarni ko‘rish mumkin.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi mashq atamasiga berilgan ta’rifdan ko‘ra “Pedagogika ensiklopediyasi”da berilgan ta’rif ancha takomillashgan va ta’lim sohasiga moslashtirilganligini ko‘rish mumkin:

1. Mashq (arabcha – husnixat, rasm chizish uchun namunalar) – biror faoliyatni puxta o‘zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida ko‘p marta takrorlash. Mas., o‘qish, yozish. M. ta’limda ko‘nikma va malakalar hosil qilishda muhim o‘rin tutadi [1; 223-b.].

2. Topshiriq atamasiga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha ta’rif berilgan: “Topshiriq 1. Kimsaning zimmasiga yuklatiladigan ish, vazifa. Hukumat topshirig‘i. Topshiriq bermoq. *Tergovchi ham xit bo‘ldi. Axir, u bu yerga o‘ynagani kelmagan-ku. Maxsus topshiriq bilan oqni oqqa, qorani qoraga ajratgani kelgan*” [O‘TIL, 150-b.].

Ko‘rinib turibdiki, har bir atama o‘z mazmun-mohiyatiga ega. Ya’ni, *mashq muayyan harakatni, bir necha bor aynan takrorlash orqali shu mashg‘ulotdan ko‘zlangan ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishni nazarda tutsa, topshiriq kishining, jumladan, o‘quvchining zimmasiga biror mazvuni mustahkamlash maqsadida bir marta bajarish uchun beriladigan ish, vazifani anglatadi.*

Demak, mashq – ko‘nikma yoki malaka hosil qilish vositasi. Topshiriq esa, egallangan ko‘nikmalarni sinash vazifasini bajaradi. U yo‘naltiruvchi xususiyatga ega. Topshiriq orqali o‘quvchini fikrlashga, mustaqil ishlashga o‘rgatish mumkin. Zero, mashqlar ham, topshiriqlar ham “Ona tili” darsliklarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Nazariy ma’lumotlar, ya’ni grammatik qoidalar o‘quvchida belgilangan mavzu doirasida bilim, tushuncha hosil qiladi. Ta’lim mazmunida o‘quvchi egallashi ko‘zda tutilgan ko‘nikma va malakani, asosan, mashqlar shakllantiradi. Topshiriqlar bu o‘rinda ko‘proq o‘quvchi bilimini boyitishga xizmat qiladi.

Maktabda, odatda, muayyan o‘quv predmetiga tegishli darslik dars jarayonida ham, hatto darsdan so‘ng ham o‘quvchi va o‘qituvchining shu o‘quv predmeti bo‘yicha bilim berish hamda ma’lumot olishning asosiy vositasi, tayanchidir. Shunday ekan, asosiy diqqatni darslikdagi o‘quv materiallarining tarkibi, tuzilishi va, albatta, mazmuniga qaratish kerak. Maktab darsliklarida millat tafakkuri va mafkurasining eng ilg‘or namunalari aks etishi kerak. Fikrimizcha, “Ona tili” darsliklariga ko‘proq tegishlidir. Ajdodlardan, umuman, insoniyat daholaridan bugungi kungacha yetib kelgan tafakkurning eng ilg‘or mahsuli bo‘lgan *maqol*,

matal, hikmatli soʻzlar, tasviriy ifodalar, iboralar ona tili taʼlimining mazmunini tashkil etishi kerak, ulardan onda-sonda emas, balki har darsda, har oʻquv topshiriq tarkibida unumli foydalanish maqsadga muvofiq. Oʻz oʻrnida va oʻz vaqtida oʻquvchilar tafakkuriga singdirilgan bu kabi xalqona, milliy durdonalar ularning fikrlarini teranlashtirishga, dunyoqarashlarini kengaytirishga va oʻzlarida hosil boʻlgan ijodiy tafakkur mahsulini ravon, aniq hamda tushunarli tarzda bayon eta olishlariga zamin yaratadi.

Amaldagi dastur va darsliklar oʻquvchini ona tili taʼlimi maqsadiga muvofiq mustaqil izlanishga undashi lozim. Bunday sharoitda darslikning eng muhim qismini nazariy maʼlumotlar bazasi emas, balki oʻquvchiga ona tilimizning son-sanoqsiz imkoniyatlaridan unumli va oʻrinli foydalanishni oʻrgatadigan oʻquv topshiriqlari tashkil etmogʻi lozim. Chunki maktabda ona tili taʼlimi tilshunos tayyorlash maqsadini emas, til imkoniyatlaridan keng foydalana oladigan ijodiy tafakkur sohibini jamiyatga yetkazib berishni taqozo etadi. Demak, oʻquv topshiriqlari oʻquvchini izlanishga unday olsagina, ularni talab darajasida deb hisoblash mumkin boʻladi. Hozir amalda boʻlgan maktab darsliklaridagi oʻquv topshiriqlari talab darajasida emas. Chunonchi, ona tili darslarida tez-tez uchraydigan *“Matndan unlilarni topib tavsiflang”* kabi oʻquv topshiriqlari oʻquvchida ijodiy tafakkurni shakllantirmaydi va koʻnikma va malakasini rivojlantirishga xizmat qilmaydi.

Mashq uzluksiz takrorga asoslangandagina samara beradi. Oʻquv materiallarining oʻquvchi tomonidan samarali oʻzlashtirilishi takror bilan bogʻliq. Zero, *“Bilimning onasi – takror”*dir.

Maʼlumki, psixologik nuqtayi nazardan inson xotirasi, jumladan, oʻquvchi xotirasi ham muayyan turlarga boʻlinadi. Maʼlumotlarni bir marta oʻqish oddiy xotirada vaqtincha saqlanadi va qisqa muddatda unutiladi. Agar uzluksiz takrorlansa, u doimiy xotiraga oʻtadi. E.Gʻoziyev taʼkidlagan G.Ebbingauzning oʻquvchi eslab qolishi mumkin boʻlgan maʼlumotlar tarkibi, miqdori va sifati haqida olgan xulosalarini shu oʻrinda keltirish oʻrinli. U hech qanday maʼno anglatmaydigan 38 ta boʻgʻinni oʻquvchi 55 marta takrorlaganda eslab qolganini; 38 – 40 ta soʻzdan iborat materialni eslab qolish uchun esa, 6-7 marta takrorlash kifoya qilganni aniqlagan [3; 222-b.]. Oʻquvchining ijtimoiy hayotda aloqa-aralashuvni toʻgʻri amalga oshirishida xizmat qila oladigan zaruriy maʼlumotlarni uning uzoq muddatli xotirasiga oʻtkazish uchun oʻsha maʼlumotlarni koʻp marta takrorlatish va xotirasida qayta tiklab turish lozim. Shu oʻrinda aytish mumkinki, til sathlarini oʻqitishda mashq va topshiriqlarning oʻquv

materialini tashkil etuvchi sarmazmun, purhikmat matnlardan o‘rinli foydalanilsa, o‘quvchi ularni bir-ikki takrorlash bilan uzoq muddatli xotirasiga “yozib qo‘yadi”. Biror jismoniy harakat avtomatlashish darajasiga yetishi uchun qancha uzluksiz mashq zarur bo‘lsa, muayyan nutqiy malakaning shakllanishiga ham shuncha mashq, harakat kerak bo‘ladi.

Topshiriqlar – o‘quvchilarni mavzu ustida maqsadli, samarali ishlashlarini ta‘minlaydi, shu bilan birga mashg‘ulotda egallagan ko‘nikma va malakalarni baholash, sinab ko‘rish uchun ham qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Педагогика Энциклопедияси. 2-жилд. –Т.: Ж – М., 2012. – 223 б.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 4-ж. –Т.: ЎзМЭ, 2004, – 150 б.
3. Ғозиев Э. Умумий педагогика. –Т., 2010.

O‘QUVCHILARDA MATNNI O‘QIB TUSHUNISH MALAKASINI SHAKLLANTIRISH

Klaraxon Mavlonova, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi, p.f.d. (PhD)

Tilga oid egallanishi ko‘zda tutilgan to‘rt lisoniy malakaning biri – o‘qib tushunish malakasini shakllantirishda yaxlit matn bilan ishlashga oid topshiriqlar muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda “Ona tili” hamda “O‘zbek tili” darsliklarida berilayotgan mashq va topshiriqlarning aksariyati shaklan bir xil xi bo‘lib, tahlilga, o‘ylashga, izlanishga emas, ma‘lum qoidalar asosida til hodisalarini mexanik tarzda aniqlashga qaratilgan. O‘quvchilarni “tahliliy faoliyatga undash uchun esa aqliy mehnatni talab etadigan mashqlar zarur” [1; 22-b.] Mashqlar bilan birga tahliliy faoliyatga undovchi topshiriqlar ustida ishlash ham juda muhim hisoblanadi.

I.Azimova “Matnni o‘qib tushunish murakkab psixolingvistik jarayon bo‘lib, grafemalarni tanish, so‘zni o‘qish, so‘zning lug‘aviy ma‘nosini, kontekstual ma‘nosini anglash, sintaktik strukturani to‘g‘ri hal etish (ya‘ni so‘zlarning o‘zaro munosabati, qaysi so‘z gapdagi asosiy tushunchani, qaysilari unga tobe tushunchalarni ifodalayotganini anglash), shuningdek, matn mazmuniy bloklarining o‘zaro bog‘lanishini tushunish kabi darajalardan iborat” ekanligini, “mazkur darajalardan o‘tib matnni

o‘qib chiqqan har bir o‘quvchini matnni to‘liq tushungan” deb bo‘lmasligini ta’kidlaydi [1; 221-b]. Darhaqiqat, Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning 100 nafarga yaqin bitiruvchi sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish malakalarini aniqlashga qaratilgan sinov natijalari ushbu ilmiy qarashning amaldagi ifodasini ko‘rsatdi. O‘quvchilar qanchalik grammatik bilimga ega bo‘lishmasin, ushbu sinov orqali o‘qib tushunish malakasini talab darajasida egallamayotganliklari ayon bo‘ldi. Bu o‘rinda o‘quvchilarni ayblay olmaymiz, sababi, ona hamda davlat tilini o‘qitish tizimimiz, asosan, lingvistik, qisman nutqiy (faqat yozma) kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan.

Ushbu muammoning yechimi sifatida matnni o‘qib tushunish malakasini egallashga qaratilgan quyidagi tartibdagi metodik ishlarni amalga oshirish mumkin:

1. O‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajalarini inobatga olgan holda matn tanlash (O‘zbekistondagi gazeta, jurnal va boshqa manbalardan matnlar tanlanadi. Tarjima qilingan matnlar tanlanmaydi. Matndagi so‘zlar sonini o‘quv yili davomida bir xil hajmda belgilab olish lozim).

2. Matnning xususiyatidan kelib chiqqan holda topshiriq shaklini aniqlash.

3. Topshiriqlarni ishlab chiqish.

4. Mustahkamlash darslarining 20 daqiqasini o‘qib tushunish mashqiga ajratish.

5. Matnni o‘qib tushunishga qaratilgan sinovni o‘tkazish.

6. Javoblarni taxminan belgilamaslik hamda bir-biridan ko‘chirmaslikka e’tibor qaratish (Bunday yondashuv vaziyatni real baholashda juda muhim).

7. Natijalarni tahlil qilish hamda umumiy xulosalar chiqarish.

8. O‘tkazilgan sinovlar monitoringini olib borish.

Bir o‘quv yili davomida 6–8 ta matn bilan ishlagan o‘quvchi har qanday uslubdagi ma’lumotni ongli idrok eta olish malakasiga ega bo‘lib boradi. Albatta, bunday topshiriqlarni ishlab chiqish o‘qituvchidan katta mas’uliyat va vaqtni talab etadi. Quyida E.Vohidovning “So‘z latofati” [2; 17–22-b.] kitobidan olingan matn asosida tuzilgan topshiriqlarni keltirib o‘tamiz.

OY FARZANDI

Amerikaning Los-Anjeles shahrida O‘zbekistonning sadoqatli bir do‘sti yashaydi. Kelib chiqishi mojar bo‘lgan bu turkolog olim Los-Anjeles

universitetida maxsus kurs ochib, amerikalik talabalarga o'zbek tilini o'rgatadi. Ular diyorumiz nafasini his qilishi uchun O'zbekistondan olim va ijodkorlarni taklif etib, suhbatlar uyushtiradi. Ismi – Andrash, nasabi – Bodrogligetti.

Talaffuzi qiyin, yodda saqlash undan ham qiyin bo'lgan bu familiyani ilk bor eshitganimda olimni italiyalik deb o'ylagandim. Los-Anjelesda ko'rishib, unga shu savolni berdim.

– Familiyam aslida Badrogligetti. Bad so'zi forscha ham, inglizcha ham yomon degan ma'noni bildirgani uchun bu yurtda nasabimni bir harf o'zgartirib Bodrogligetti deydilar. Lekin italiyalik emasman. Familiyam sof turkcha. Shunday deb Andrash domla qo'lga qalam oldi va o'z familiyasini uch qismga bo'lib yozdi: Badr ogli getti. Badr so'zini bilamiz, oy degani. Qolgan so'zlar ham tanish. O'g'uz turkchasidan o'zimizning shevaga o'g'irsak, Oy o'g'li ketdi, degan ma'no chiqadi.

– To'yda tug'ilgan To'ychi, yo'lda tug'ilgan Yo'lchi, jumada tug'ilgan Jumavoy, Odina deb ism olganidek, allaqaysi bobakalonim oydin kechada tug'ilgani uchun Badr o'g'li deb nom qo'yishgandir. O'z yurtidan ketish naslimiz qismatida bor ekan, shekilli, men ham asl vatanimdan uzoqlarda Bodrogligetti bo'lib yuribman.

Sharq-u g'arbning o'nlab tillarini bilgan, ularni chog'ishtirib tahlil qilgan Andrash domlaning bu so'zlarini avval balki xayolot mevasi, shunchaki hazildir, deb o'yladim. Axir tilimiz shu qadar boy va ranginki, so'zni o'n yoqqa burish mumkin, o't degan so'zning o'ttiz xil, yuz degan so'zning yuz xil ma'no tovlanishi bor. Lekin millat taqdirini o'ylasam, mojarning turkiy xalqlarga tarixan tutashligini xayolga keltirsam, bu gap hazilga o'xshamadi. Olis o'tmish manzaralari ko'nglimdan kechdi. O'z yurtida qo'nim topmagan, qismat dunyoning turli burchaklariga tarqatib yuborgan qadimgi ajdodlarimizning sarson-sargardonligi fikrimni chulg'adi.

Badr o'g'li ketdi... Bu so'zlarda butun bir tarix namoyon bo'ldi. To'rt yuz yil naridan Buxoroni tark etib, olis va sovuq Sibirga ketgan o'zbeklarning nolasi keldi, yana ikki yuz yil o'tib, ulardan mingga yaqin oilaning Turkiyaga ko'chgani, sibirliklari ham, turkiyaliklari ham to hanuz o'zlarini buxoriylar (ruscha быхарцы) deb atashlarini o'ylab ketdim. Taqdirni qarangki, ikki karra bevatan qolgan g'ariblarga Turkiyada Bag'ri tilik deb atalgan tog' etagidan joy berilibdi. Xayol meni yana ming yil narida Idil va Yoyiq sohillarida yashagan hozirda Volga va Ural deb atalgan daryolardan suv ichib, bepoyon kengliklarda ot surgan o'zbeklar

yurtiga olib uchdi. Xalqimiz tatar, bulg'or, mojar, o'rus ellari bilan yelkadosh kun kechirgan yaylovlar ko'z oldimga keldi.

Badr o'g'li ketdi... Xayolan men o'n ming yillar olisda Sibirdan Alyaskaga ko'chgan turkiy qabilalarning qo'shiqlarini eshitdim. Amerikalik hindularning baxshilar kabi bo'g'izdan chiqarib aytgan qo'shiqlari qulog'im ostida yangradi. Bu ming yillar tubidan kelgan dard sadosi edi.

Mojar xalqi o'z ildizlarini qadimgi turkiy qavmlar bilan tutash ko'rgani uchun Mojaristonda Turkologiya fani asrlar davomida rivoj topgan. Bu an'ana hozir ham davom etadi. Bu o'lkadan ikki yuz yilcha avval Markaziy Osiyoga kelib, Buxoro va Movaraunnahr tarixini yozgan German Vamberidan tortib zamondosh do'stlarim Ishtvan Kongor va Andrash Bodrogligettigacha dunyoga tanilgan necha-necha turkshunos olimlar yetishdilar. Ular yurtimizga safar qilganlarida Samarqand-u Buxoroni tomosha qilishni ko'zlab emas, mojar xalqining teran tomirlarini izlab kelganlar.

Badr o'g'li ketdi... Mojarning ham, o'zbekning ham Oy o'g'li ekaniga ishonchim bor. Badr o'g'li Sibirga ketdi, Alyaskaga ketdi. Idil va Yoyiq sohillaridan Hazar va Orol bo'ylariga ketdi. Bu yurtda ming yillar yashagan yerlik ajdodlarimiz dunyoning eng ko'hna davlatlaridan biri bo'lgan Xorazm davlatini tuzdi.

Yana ming yillar o'tib, Bosfor bo'ylariga ketdi va hozirgi Turkiyaga asos soldi. Oy o'g'li ketdi. U olamning to'rt yog'iga ketdi.

Javoharla'l Neru Mirzo Bobur tuzgan davlat haqida yozarkan, Markaziy Osiyoliklar dastlab Hindistonga to'rt ming yil muqaddam ko'chib kela boshlaganlar, deydi. Ular orasida turkiy qavmlar ham bo'lgani, bu qavmlarning qadimiy rivoyatlari, dostonlari ham Hindistonga borgani shubhasiz.

Oy arabcha badr, forscha mah deyiladi. Turkiy tillarda arabcha va forscha so'zlar ko'hna zamonlardan bor. Oy yonida badr ham, mah ham ishlatilgan. Hindlar Dehlini Deli deganlari kabi Mah o'g'lini Maugli degan bo'lsalar ajab emas. Ingliz adibi Redyard Kipling Hindiston mavzusida yozgan mashhur asar qahramonining ismi – Maugli.

... Badr o'g'li, Mah o'g'li, Oybek – naqadar o'xshash ismlar! Arabiy, forsiy, turkiy ma'nodosh so'zlar. Yurtimizda qadimdan bu uch tilning yondosh yashaganiga yana bir misol.

Amerikalik do'stimiz professor Bodrogligetti nasabi xayolimni shuncha olislarga eltdi, uzoq zamon-u ma'volarda kezdirdi. So'z shunday mo'jiza ekanki, uning zamirida qatlam-qatlam bo'lib tarix yotar ekan.

1–3-savollar: Savollarga javob bering.

1. Matndagi “mojar” so‘zi qanday ma’noda qo‘llangan?

- A) turk B) italiyalik D) el E) los-anjeleslik

2. Andrash domlaning familiyasini o‘zgartirishiga nima sabab bo‘lgan?

- A) atrofdagilarning italyan deb o‘ylashlarini xohlagani
B) nasabidagi so‘zning o‘zga tilda salbiy ma’no anglatgani
D) uch emas, bir so‘zdan iborat bo‘lgan familiyani istagani
E) o‘g‘uz turkchasini umuman yoqtirmagani

3. Quyida berilgan sifatlardan qaysi biri Andrash domlaga tegishli emas?

- A) ziyoli B) mojar D) poliglot E) italiyalik

4–7-savollar: Quyida berilgan hukmlarga munosabat bildiring.

Jumla matndagi ma’lumotga mos kelsa – TO‘G‘RI

Jumla matndagi ma’lumotga qarama-qarshi kelsa – NOTO‘G‘RI

4. 4 asr oldin Sibirga ketgan, 2 asr oldin Turkiyaga ko‘chgan o‘zbeklar – buxoriylar.

5. German Vamberi, Ishtvan Kongor va Andrash Bodrogligetti muallifning zamondoshlaridir.

6. Barcha turkshunos olimlar O‘zbekistonga o‘z qarindoshlarini qidirib kelishadi.

7. Muallif matnda “U olamning to‘rt yog‘iga ketdi” deb Bodrogligettiga ishora qilgan.

8–11-savollar: Quyidagi berilgan so‘zlardan foydalanib bo‘sh o‘rinlarni to‘ldiring.

Boburiylar sulolasi haqida yozgan mashhur siyosat arbobining ma’lumot berishicha, turkiy xalqlarning 8_____yerlariga kelib joylashganliklari uzoq davrlarga borib taqaladi. Demak, ular Hindistonga o‘zlarining ko‘hna 9_____, afsona va shu kabi xalq og‘zaki ijodi namunalari ham olib kirishgan.

Oy, badr va mah so‘zlari uchta turli tilga mansub bo‘lsa-da, 10_____dan turkiy xalqlar tomonidan baravar qo‘llab kelingan.

Barchamizga tanish bo‘lgan 11_____Dehlini Deli degan hindlar talaffuzidagi Mah o‘g‘lidir, ehtimol.

- | | | |
|-----------|------------|--------------------|
| A) qadim | B) o‘z | D) hind |
| E) Maugli | F) rivoyat | H) Redyard Kipling |

12-savol: Matn davomida muallifning qaysi ruhiy holati yaqqol namoyon bo‘lmoqda?

A) afsus B) faxr D) qo‘rquv E) quvonch

Mazkur testlar matnda qo‘llangan so‘zning ma‘nosini kontekst asosida aniqlash, ochiq va yashirin ifodalangan ma‘lumotdan xulosa chiqarish, bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirish, tanqidiy tahlil hamda umumiy g‘oyani aniqlashga qaratilgan savollardan iborat qilib tuzilgan.

“Hukmlarga munosabat bildirish” topshirig‘i shunday tuzilishi kerakki, bittasi to‘g‘ri bo‘lishi barobarida ikkinchisi tasodifiy emas, chalg‘ituvchi xarakterga ega bo‘lishi lozim.

“Bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirish” (8–11-savollar) topshirig‘i uchun matndan bitta xatboshidagi parcha tanlanadi va shu matndan olingan kichik parchaning muqobil varianti yaratiladi. Yuqoridagi matn quyidagi parchaning muqobil variantidir:

Javoharla’l Neru Mirzo Bobur tuzgan davlat haqida yozarkan, Markaziy Osiyoliklar dastlab Hindistonga to‘rt ming yil muqaddam ko‘chib kela boshlaganlar, deydi. Ular orasida turkiy qavmlar ham bo‘lgani, bu qavmlarning qadimiy rivoyatlari, dostonlari ham Hindistonga borgani shubhasiz.

Muqobil variantdagi matnni yaratish topshiriqlar ichida birmuncha murakkabi hisoblanadi.

O‘quvchilarning matnni o‘qib tushunishlari uchun har biriga alohida matn tarqatiladi, topshiriqlarni yechish davomida matnni chizib, ajratib olish uchun belgilar qo‘yishga ruxsat beriladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘quv yili davomida matn ustida ishlashga oid bunday shakldagi topshiriqlarning muntazam o‘tkazib borilishi o‘quvchida DTSda belgilanganidek, “turli janrdagi matnlarni ifodali va ta’sirchan o‘qiy olish, gapning ifoda maqsadi, his-hayajon, sodda va qo‘shma gaplar ohangiga rioya qilib o‘qiy olish”[4; 142-b.]nigina emas, matnni o‘qib tushunish, ya’ni uni idrok eta olishga oid malakalarning shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimova I. Ona tili ta’limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. Global ta’lim va milliy metodika. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2019. – B. 215–224.

2. Э.Воҳидов. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. –152 б.

3. Yo‘ldoshev R., Mirjalolova L. Ona tili ta’limida kompetensiyaviy yondashuv. – T.: Fan va texnologiyalar, 2015. – 48 б.

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Умумий ўрта ва ўрта махсус касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 йил, 14-сон.

TIL O‘ZLASHTIRISHDA PRODUKSIYANI ANIQLASH MEZONLARI

Odinaxon Saidaxmedova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU doktoranti

Ona tilini o‘zlashtirishda muayyan qo‘shimcha boshqa qo‘shimchalarga qaraganda avvalroq o‘zlashadi. Morfemaning erta yoki keyinroq o‘zlashtirilishi asosan so‘z ma’nosining murakkabligi bilan bog‘liq. Qolaversa, shakliy murakkablik ham morfemaning nisbatan boshqa morfema/morfemalarga nisbatan kech o‘zlashtirilishiga sabab bo‘ladi. Tilda funksiyasi bir-biriga o‘xshash morfemalar mavjud, biroq uni ifodalash shakllari farqlanadi. Ifoda shaklining oson yoki murakkabligiga ko‘ra u yoki bu morfema funksiyasi jihatdan unga o‘xshash bo‘lgan murakkab tarkibdagi morfemadan avvalroq o‘zlashadi.

Ona tilini o‘zlashtirishda grammatik shakllarning tartibini aniqlash bo‘yicha dastlabki tadqiqot R.Braunga tegishli [1]. Tadqiqotchi bolaning nutqida yordamchi morfemaning uchrashini 2-bosqichdan boshlanishini ta’kidlagan. Turlangan yoki turlangan morfemalar – bular egalik hamda kelishik qo‘shimchalari bilan turlangan yoki shaxs-son hamda zamon qo‘shimchalari bilan turlangan so‘zlardir. R.Braun bolalarning morfemalarni o‘zlashtirishini aniqlashda K.Kazdenning (1968) me’zonidan foydalanib [2], morfema shu qo‘shimchani talab qiluvchi javoblar tarkibida 90% to‘g‘ri ishlatilganida bola shu morfemani o‘zlashtirdi, degan xulosaga kelgan.

Bolalar tomonidan yodaki aytilgan so‘zlar yoki gaplar o‘zlashtirilgan morfosintaktik shakl sifatida qabul qilinmasligi kerak. Bolalar foydalanayotgan so‘zlarining shaklini hamda uning tarkibiy qismlarini tushunishi va ajrata bilishlari kerak. Produksiya (nutqning namoyon bo‘lishi, ya’ni bola tomonidan aytilayotgan so‘zlar va so‘zlar tarkibidagi qo‘shimchalar)ni aniqlash ayniqsa ota-onaning nutqi yoki bolaning nutqida tez-tez qo‘llanuvchi ifodalarda aniqlash qiyin. Agglutinatив tillarda so‘z va qo‘shimchani ajratishning hamda affiksatsiyaning muntazamligi produksiyani aniqlashni yanada qiyinlashtiradi.

Produksiyaning aniqlashda ba’zi mezonlar mavjud:

1. Bola qo‘shimchani turli o‘zaklar bilan qo‘llay olishi
2. Qo‘shimchalardan tanlab foydalanishi (kelishik qo‘shimchalarini otga, zamon yoki shax-son qo‘shimchalarini fe‘lga qo‘shishi)
3. Qo‘shimchalardan qiyoslab foydalanish (otlardagi birlik va ko‘plikni ajrata bilish)
4. Berilgan kontekstga ko‘ra, qo‘shimchadan to‘g‘ri foydalanish (boladan o‘tgan ish-harakat haqida so‘ralganda, u o‘tgan zamon qo‘shimchasidan foydalanishi kerak).

Garchi bu o‘zaro bir-birga qarama-qarshi tuyulsa ham, turlanish/tuslanish yuqori bo‘lgan tillarda yolg‘iz asosning o‘zi juda kam qo‘llanadi. Bolalar grammatik shakl strukturasi hamda uning komponentlaridan foydalanishni tushunishlari kerak. So‘zdagi asosni ajratib olish birinchi qadam hisoblansa, ikkinchi qadam qo‘shimchani uning funksiyasini bilgan holda asosga biriktirishdir. Bolalarda muayyan qo‘shimchani o‘zlashtirilganligini aniqlash uchun nutqida duplikat hamda tartibdagi yanglishlarga ko‘ra tekshiriladi. Agar bolalarda bu yanglishlar kuzatilmasa, muayyan qo‘shimchani ular tomonidan o‘zlashtirilgan degan xulosaga kelish mumkin.

Bolalarda yanglishlarning kuzatilmasligi qo‘shimchani o‘zlashtirishga oid nazariyalarning asosli ekanligini aniqlashga yordam beradi. Masalan, ingliz tilida fe‘l asosiga birdan ortiq qo‘shimcha qo‘shilmaydi. *Ko‘rinadigan* (occurring) hamda *ko‘rinmaydigan* (non-occurring) yanglishlar teng darajada o‘zlashtirish haqida ma‘lumot beradi, lekin ular teng darajada aniqlanmaydi [3]. Ko‘rinmaydigan yanglishlarni aniqlash qiyin, chunki tadqiqotchi muayyan qo‘shimchani mavjud emasligini sezishi kerak. G.Sinkvenga ko‘ra, qo‘shimchalar bola nutqida muayyan tartibda o‘zlashtiriladi deb tahmin qilinadi, bolalar qo‘shimchalarni noto‘g‘ri tartiblash orqali nutq hosil qila olmaydi, ot asosi bilan tuslanishni, fe‘l asosi bilan turlanishni biriktirmaydi [4].

O‘zbek tilida bolalarda qo‘shimchalar bilan bog‘liq 3 xil yanglishishlar kuzatiladi:

1. Tartibdagi yanglishlar (qo‘shimchalarni asosga noto‘g‘ri tartibda qo‘shish). Bolalar asosga qo‘shimchalarni noto‘g‘ri qo‘shadilar. Masalan, fe‘l asosiga bo‘lishsizlik shakli hamda zamon qo‘shimchasini noto‘g‘ri qo‘shishi kuzatildi, *bor-di-ma*. Bola fe‘l asosiga avval zamon qo‘shimchasi, keyin esa bo‘lishsizlik shakli -ma qo‘shimchasini qo‘shdi. Aslida tartibga ko‘ra, asosga dastlab bo‘lishsizlik shakli, keyin zamon shakli qo‘shiladi (*bor-ma-di*).

2. Dublikat yanglishlar (ikkita bir xil yoki bir qo‘shimchaning ikki xil turini qo‘shish). Bolalar asosni qo‘shimchadan farqlamagan holatda ular nutqida dublikat yanglishlar mavjudligi kuzatiladi. Shu sababli bolalar so‘z asosiga bir xil qo‘shimchani ikki marta qo‘shadilar. Bola dastlab so‘zni muayyan qo‘shimchani o‘zak sifatida qabul qiladi va yana unga xuddi shu turdagi qo‘shimchani biriktiradi.

3. Kategorial yanglishlar (otga xos qo‘shimchalarning fe’lga qo‘shilishi yoki aksincha). Bola grammatik shaklni to‘liq o‘zlashtirmaganda otga fe’lni kesimga xoslovchi yoki fe’lga otni turlovchi qo‘shimchalarni qo‘shadi. Kategorial yanglish bolaning leksik ma’noning farqlamayotgani, ya’ni so‘z turkumlarini hali ajratmaganligini ko‘rsatadi.

Demak, bola nutqida yuqoridagi yanglishlar kuzatilmasa, uning nutqida mavjud morfema o‘zlashtirilgan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brown, Roger. (1973). A first language. The early stages. Cambridge, Massachusset: Harvard University Press.
2. Cazden, C. (1968). The acquisition of nouns and verb inflections. Child Development, 39. – P.433–448.
3. Stromswold, K. (2000). The cognitive neuroscience of language acquisition. M. Gazzaniga (ed.), The New Cognitive Neurosciences, second edition. – P. 909–932.
4. Cinque, G. (1999). Adverbs and functional heads. Oxford University Press, Oxford, UK.

ONA TILINI O‘QITISHDA VIDEODARSLARDAN FOYDALANISH XUSUSIDA

Sanobar Kuldasheva, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU doktoranti

Bugungi kunda deyarli barcha zamonaviy o‘quvchi o‘rta maktabga axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish malakasi bilan kirib kelmoqda. Haqiqatan ham ular axborot asrida tug‘ildilar va zamonaviy aloqa asboblari orqali dunyoni taniyaptilar. Endi ularning qarshisida AKT hamda internet tarmoqlari imkoniyatlaridan keng foydalana oladigan, muntazam ravishda o‘z ustida ishlab boradigan va shu bilan birga o‘z o‘quvchisida mediamadaniyatni shakllantira oladigan pedagog turishi talab etiladi. Tez rivojlanayotgan texnologiyalar yordamida yaratilgan zamonaviy virtual voqelik madaniyatlararo

aloqaning samarali vositasiga aylanmoqda, shuning uchun zamonaviy insonning eng muhim vakolatlaridan biri, bu – AKT va multimedia imkoniyatlaridan samarali foydalana olishdir. Axborot asrida yashar ekanmiz, yangi imkoniyatlarni ochadigan va ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga yangicha yondashuvni talab qiladigan axborot texnologiyalarining jadal rivojlanayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Ta'limda axborot texnologiyalarining bir qator didaktik imkoniyatlari mavjudligi bilan birga o'quv jarayoni samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanishi tan olindi. O'quv jarayonida tatbiq etilgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nafaqat ushbu sohadagi bilim va ko'nikmalarning shakllanishiga, balki o'quvchi dunyoqarashining kengayishiga, shaxsiy fazilatlarining takomillashuviga ta'sir ko'rsatadi, bilimga qiziqishini oshirishga, o'rganishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ko'plab olimlarning fikriga ko'ra, AKT o'quvchilarning ijodiy tafakkuri rivojlanishiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Multimedia shaklidagi o'quv materiallarining taqdimoti o'qish vaqtini qisqartiradi va bolalarning sog'liqni saqlash resurslarini tejaydi. Ta'limning va dars mashg'ulotining har qanday bosqichida multimedia prezentatsiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Har bir mavzu bo'yicha yangi materiallarni tushuntirish, ko'rib chiqish va mustahkamlash uchun ko'proq videodarslardan foydalanish samarali. Videodarslardan foydalanishning afzalligi shundaki, siz ko'rgazma davomida pauza qilishingiz, ko'rgan narsalaringizni muhokama qilishingiz va o'quvchilarga savollar berishingiz mumkin. Bolalar ko'rganlaridan xulosa chiqarishlari kerak. Namoyish vaqti 10-15 daqiqadan oshmasligi lozim, undan keyin faoliyat turini o'zgartirish kerak. Agar videodarslar vaqti cho'zilib ketsa, o'quvchida zerikish, tushunmay qolish, paydo bo'lgan savollarni esidan chiqarib qo'yish holatlari kuzatilishi mumkin. O'qituvchi video qo'yilgan dars jarayonida boshqa narsaga chalg'imasligi, o'quvchi bilan bab-baravar unda ishtirok etishi lozim, aks holda o'quvchida norozilik kayfiyati paydo bo'ladi. Masofaviy videodarslarda ham bir xil ma'ruza turidan voz kechib, har xil yangi faoliyatlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ona tilidan tayyorlangan videodarslar "va'zxonliklar"-u qoidalar takroridan iborat bo'lmay, balki ko'proq misol va tahlillar, bilim oluvchini fikrlashga chorlaydigan topshiriqlar asosida bo'lishi darkor. Darslikdagi qoidalar kattalashtirib yozilgan taqdimotlardan voz kechish kerak. O'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish uchun hamda o'rganilayotgan qonuniyatlarni, ob'ektlarning o'zaro aloqasini virtuallashtirish va vizuallashtirish uchun mo'ljallangan dasturlardan foydalanishimiz o'rinli. Videodarslarni kuzatish jarayonida

paydo bo'lgan savollarni yozib borish muhimligini o'quvchiga eslatib qo'yish kerak bo'ladi. Dars mashg'ulotining turli bosqichlarida videodarslardan unumli va o'rinli foydalana olish joiz. Darsning samaradorligi ko'p jihatdan o'qitish usullari va tuzilishini mohirona tanlashga bog'liq. Videodarslarning yana bir muhim jihati shundaki, u zamon va makon tanlamaydi: o'quvchi xohlagan paytida murojaat qilishi, tushunmagam o'rinlarini qayta-qayta ko'rib aniqlik kiritishi, bir necha vaqt o'tgandan so'ng xotirada tiklash uchun imkoniyat sifatida foydalanishi mumkin. O'qituvchi esa yangi g'oyalar bilan videodarsini boyitib borish, topshiriqlarga o'zgartirish kiritish, o'quvchilarining bilim saviyasi va o'zlashtirishini inobatga olib vazifalar ko'lamini belgilash imkoniyatiga ega bo'ladi. Uning zimmasidagi "yuk" birmuncha yengillashadi, imkoniyatlari kengayadi. Ammo mas'uliyati ortadi: o'z fani doirasida chuqur bilim va ma'lum tajribaga ega bo'lishi bilan bir qatorda raqamli ta'lim resurslaridan keng foydalana olishi va buni o'z o'quvchilarida ham shakllantirishi lozimligini unutmashimiz kerak.

Videodarslarni yaratish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- maqsadni aniqlash;
- mundarija tuzish va rejalashtirish;
- dasturiy mahsulotni tayyorlash;
- tayyorlangan dasturiy mahsulotdan foydalanish va samaradorlikni aniqlash.

Bugungi kunda videodarslardan foydalanish ancha ommalashib boryapti. Ayniqsa, o'quv markazlari tomonidan tayyorlanib borilayotgan videodarslarni bunga misol keltirish mumkin. Bugungi karantin sharoitida masofaviy videodarslarga ehtiyoj ortdi, desak mubolaga bo'lmas. Ammo mavjud videodarslardan foydalanuvchilar auditoriyasi qoniqish hosil qilyaptimi? Qaysi nuqtada muammo va oqsoqliklarimiz mavjud? Bu kabi savollarga ijobiy javob topishimiz uchun mahsulotimiz quyidagi talablar asosida tayyorlanishi maqsadga muvofiq.

- didaktik talab;
- metodik talab;
- psixologik talab;
- texnik talab;
- estetik talab;
- ergonomik talab va boshqa maxsus talablar [1; 78-b.].

Videodars tayyorlashda didaktik jihatdan, ilmiy, tushunarli, uzluksizlik va yaxlitlik ta'minlangan, mavzu tizimli yoritilgan, muloqotning interfaolliigi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirishning yaxlit

birliги inobatga olinib, boshqa talablar (metodik, psixologik, texnik ...) bilan mutanosiblashtirilsa, talab va ijro uyg'unligida ijobiy natijaga erishiladi.

Mazkur talablar asosidagi innovatsion yondashuv o'quvchilarda yangi tajriba orttirish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni anglash, kelajakka intilishni rivojlantirish bilan birga mustaqil intellektga ega shaxsni tarbiyalash uchun samarali omil vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сурупов Б. Электрон таълим мухитида ахборот коммуникация технологиялари фанини ўқитишнинг методик таъминотини такомиллаштириш. Дисс. PhD. – Тошкент, 2019. – 150 б.
2. Кащук С. Стратегия интеграции мультимедиа технологий в систему языкового образования: на примере обучения французскому языку. Дисс. Докт.пед.наук. – Москва, 2014. – 427 с.
3. Жиндаева А. Моделирование лингвопрофессионального мультимедиа курса для дистанционного обучения иностранных абитуриентов-филологов. Дисс. Докт.пед.наук. – Москва, 2016.
4. Таълимда ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш. Педагогик дастурий воситалар. motm.tma.uz/site/wp-content

О'QUVCHILARDA MUMTOZ MATNLAR ORQALI O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH

Shahlo Murodova,

ToshDO'TAU mustaqil tadqiqotchisi

Bugungi kunda yurtimiz milliy mustaqilligining yangi bosqichiga o'tildi. Bu, albatta, barcha sohalarda erishayotgan turli islohotlar qatorida uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, ta'lim muassasalarida jahon ta'lim standartlari asosida o'qitish, savodxonlikni oshirish yuzasidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Hatto oliy ta'limning har bir yo'nalishida ona tili va adabiyot fanining mavqeyini oshirish masalalari ham bosqichma-bosqich o'zi yechimini topmoqda.

Xo'sh, bu masalalar natijaviyligi – yoshlar tarbiyasiga oid hukumat qarorlarini ijrosini ta'minlash, XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishga erishish kabi quyidagi ustuvor vazifalar bilan hamohangdir: o'quvchilarda filologiya fanlarini o'qitish asosida bilimlarini hayotda qo'llay olish hamda to'g'ri qaror qilish ko'nikmalarini shakllantirish; xalqaro standartlar asosida o'quvchilar bilimlarini oshirish, ularning savodxon

bo'lish, axborot texnologiyalarini bilish, chet tillarida muloqot qilishga erishish; har sohada bilimlarni hayotga tatbiq eta olish, iqtisodiy, huquqiy, o'qish savodxonligi, mantiqiy fikrlash, tanqidiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish; ma'naviy-axloqiy, siyosiy madaniyatga egalik, fuqarolik burchi va kitobxonlik, mas'uliyat hislari shakllangan bo'lishi kabilar.

Darhaqiqat, bu masalalar o'z-o'zidan umumta'lim muassasalarida dastur va darsliklarni takomillashtirish bilan uzviy bog'liqdir.

Shu ma'noda, 2019-yil qayta nashr etilgan 8-sinf "Ona tili" darsligida mashq va topshiriqlarning jiddiy farqlanishi, lug'atlar bilan ishlash davomiyligi, tarbiyaviy mazmunga ega bo'lgan kichik hajmli rivoyat, hikoyat matnlarning berilishiga ahamiyat qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi [2; 5-b.]. Mazkur darslik ona tili fanini adabiyot fani bilan integratsiya qilishga katta imkoniyat yaratib beradi. O'quvchilarimiz mumtoz matnlarni o'qib tushuna olmasligi bugungi adabiyot ta'limimizning eng og'riqli nuqtalaridan biridir. Modomiki, o'quvchi Navoiy asarlarini tushunmas ekan, berilayotgan adabiy ta'limni samarali, to'laqonli deb bo'lmaydi. Aksariyat o'qituvchilar tomonidan murakkab deb e'tirof etilayotgan professor B.Mengliyev hammuallifligida takomillashtirilgan 8-sinf "Ona tili" darsligi bugungi zamon talablariga to'la mos kelishi bilan birga o'quvchida lug'at va matn bilash ishlash imkoniyatini beradi [Qodirov, 2019:48]. Tan olish kerakki, ona tili va adabiyot o'qituvchilari anchadan buyon o'z ustida bunchalik jiddiy ishlamayotgan edi, to'g'rirog'i, bunga ehtyoj yo'qdek edi. Mavjud darsliklar bunday sharoitni o'quvchiga ham o'qituvchiga ham yaratib bera olmayotgan edi. 2019-yil nashrdan chiqqan mazkur darslik ona tili darslari orqali adabiyot, badiiy matn mohiyatini anglashga, so'z ma'nolarini tushunishga, o'quvchilarda o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishga mo'ljallangani bilan boshqa darsliklardan keskin farq qiladi. Tanlangan rasm, illyustratsiya materiallari ham o'quvchini fikrlashga, taqqoslash orqali xulosa chiqarishga undaydi. Darslikning eng qiyin qismi deb e'tirof etilayotgan "Mumtoz matn" bilan ishlash bo'limi A.Navoiyning "Lison ut-tayr" asarining "Talab vodiysi" fasli matni tahliliga bag'ishlangan. Agar o'qituvchi o'z ustida ishlashdan erinmasa, matn nihoyatda o'rinlidir. Inson borki, unda maqsad bo'ladi, kimda, qaysi o'quvchida maqsad, muddao bo'lmasa, uning istiqboli yo'q. Shu ma'noda tanlangan matn mohiyatiga yetilsa, o'quvchilar o'zlari uchun muhim xulosalar chiqarib olishadi, zero, mazkur asar Navoiy ijodining gultojlaridan biridir.

Bu borada professor B.Mengliyev tomonidan Navoiy ijodiga munosabat tariqasida chop ettirilgan “Yuksalish metodologiyasi haqida o‘ylar” maqolasidan unumli foydalanishni tavsiya etamiz:

Mumtoz adabiyotda yuksalishning yetti bosqichini ajratish urf bo‘lgan: *talab* → *ishq* → *ma‘rifat* → *istig‘no* → *tavhid* → *hayrat* → *fano*. Bularni tor ma‘noda shaxs ruhiy takomillashuvining, keng ma‘noda esa ko‘zlangan maqsad sari harakatning alohida-alohida bekatlari deyish mumkin.[1; 17-b.].

Talab – kuchaygan istak

Har qanday maqsadning birinchi bekati – ehtiyoj. U istakni keltirib chiqaradi. Istakdan talab shakllanadi. Ehtiyoj – istak – talab uzviyligi mavhumlikdan aniqlik tomon siljishni ko‘rsatadi. Ehtiyoj ehtiyojligicha qolib, istakkacha chiqmasligi ham, shuningdek, istak talabga aylanishi ham, aylanmasligi ham mumkin. Bu ularning darajasi, kuchi bilan belgilanadi. Ehtiyojda faoliyat qariyb yo‘q darajada bo‘lsa, istakda faoliyat boshlanadi, talab bosqichida esa maqsadning birinchi bekati nihoyasiga yetadi.

Har bir bosqichning o‘ziga xos mashaqqatlari bor. Buni hazrat Navoiy shunday tavsiflaydi:

*Chun talab vodiysig‘a qo‘ysang qadam,
Ollinga har dam kelur yuz ming alam.*

Bu bosqichda talab obyekt reallashmagan bo‘ladi, aynan nimani talab qilayotganligi aniq bo‘lmaydi:

*Istamoq ranji ko‘ngulni zor etar,
Topmamog‘lig‘ ruhni afgor etar.*

Buni shunday jo‘nlashtirish mumkin. Kishida boyish istagi paydo bo‘ladi, buning uchun tadbirkorlik yo‘lini tanlaydi. Ammo aynan qaysi turi bilan shug‘ullanishni hali tanlamagan. Obyekt aniqlanishi bilan u tomon intilish qat‘iylashadi, shuningdek, kishida ma‘lum darajada “yengillik” paydo bo‘ladi:

*Ganjdin yetgay asar vayroninga,
Zoti nuridin yorug‘lik joninga.*

Boshqa narsalarga chalg‘imaslik, maqsadga daxldor bo‘lmagan narsalarga o‘ralashib qolmaslik dastlabki bekatdagi ilk shartlardan:

*Har nekim g‘ayritalabdir, tashlamoq,
O‘zni maqsad manziliga boshlamoq.*

Yuksalish to‘siqsiz bo‘lishi mumkin emas. Yo‘l hech qachon ravon bo‘lmaydi. Maqsad aniq, faoliyat obyekt sari qat‘iy yo‘naltirilgan, irodasi

o‘ziga bo‘ysundirilgan kishi uchun bu yo‘ldagi to‘siqlar, mashaqqatlar pisand emas:

Oldinga kelsa agar pili domon,

Ko‘rgasen pashsha hamonu ul hamon.

Bunda talab, obyekt, maqsad va iroda uyg‘unlashadi. Talab kuchli, obyekt aniq, maqsad qat’iy, iroda yengilmas xususiyatga ega bo‘lsagina, faoliyatning ilk bosqichi samarali kechadi. Bulardan obyekt ga bo‘lgan munosabat asosiy o‘rin tutadi. Buni hazrat Navoiy shunday bayon qiladi:

Durg‘a topgan soyi ko‘nglung xosliq,

Bo‘lg‘oy osonroq senga g‘avvosliq.

Demak, maqsad obyektiga mehr qo‘yish, tanlagan yo‘lni sevish – mashaqqatlarni yengish vositasi. O‘ziga yoqmagan yo‘l bilan kishi yuksalmaydi. O‘z maqsad obyektida Haqning beqiyos qudratini ruhan va aqlan his qilish, albatta, shaxsning bu qudrat oldida zarraning mingdan biricha ham qiymatga ega emasligini anglab yetishiga olib keladi. Anglash shaxsning o‘zini bu qudratga qiyosan baholashini keltirib chiqaradi [1; 18-b.].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ma’rifat – o‘quvchining o‘zini o‘zi baholash vositasi, u insonni poklaydi, kamolot sari yetaklaydi. Buyuk va ezgu ishlarga yo‘llaydi. Tilni adabiyotdan ajratib bo‘lmaydi, biri ikkinchisiga chambarchas bog‘liq. Ona tili darslarida o‘quvchilarni badiiy matnlarni o‘qib tushunishga, mushohada qilishga undash ikkala fanga ham foydalidir. Shu ma’noda Alisher Navoiy ijodini ona tili darslari orqali ham o‘rganish – bu shoirni, uning ulkan me’rosini anglashga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.Mengliyev. Yuksalish metodologiyasi haqida o‘ylar. Jahon adabiyoti. 2016-yil, 4-son. 18–21-b.
2. G‘.Hamroyev. Darsliklar xatolardan xoli bo‘ladi. Ma’rifat, 2019-yil 13-yanvar.
3. M.Qodirov va boshqalar. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinf o‘quvchilari uchun darslik. – T.: Cho‘lpon, 2019.

“ONA TILI” DARSLIK LARI MAZMUNIDAGI NUTQIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRUVCHI O‘QUV MATERIALLAR TAHLILI

Rajapova K.M., Qoraqalpoq davlat
universiteti tadqiqotchisi

Mavjud darsliklarda, asosan, nazariy ma'lumotlar sinflar, mavzular, til sathlari kesimida ketma-ketlik, uzviylik va uzluksizlik asosida joylashtirilgan, biroq hayotiy faoliyatda, muloqot jarayonida nihoyatda zarur bo'lgan nutqiy qo'nikmalar aniq bir tizimga ega emas. Aslida ona tili ta'limining bosh maqsadidan kelib chiqib, o'z fikrini turli nutq vaziyatlariga mos ravishda og'zaki va yozma tarzda to'g'ri, ravon ifodalay olish, mustaqil fikrlay olish ko'nikmalarini sinflar kesimida tizimli shakllantirish mexanizmini ishlab chiqish zarur [1, 2, 3]. Bugun zamon talablari va jamiyat ehtiyojiga ko'ra barcha sohada yangi-yangi islohotlarning amalga oshirilayotgani innovatsion yondashuvlar asosida jadal ishlashni talab qilmoqda. Shu ma'noda, xalq ta'limi tizimining umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun nashrga tayyorlanayotgan darsliklarning DTS, o'quv dasturlari mazmuni, malaka talablari kompetensiyaviy yondashuv, PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash tizimi talablari asosida takomillashtirilmoqda. Barcha fanlar bo'yicha darsliklar mazmuni innovatsion yondashuvlar asosida boyitilmoqda. Jumladan, “Ona tili” darsliklari ham.

Ona tili fani o'quvchida o'z fikrini og'zaki yoki yozma shaklda ixcham va lo'nda ifodalash, mustaqil, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu ma'noda mazkur fanlardan nashr qilinajak darsliklar mazmuni o'quvchi uchun amaliy ahamiyatga ega, nihoyatda foydali bo'lishi lozim. Ammo darslikdagi hamma o'quv materiallari ham bu jarayonda faol ishtirok etavermaydi. Jumladan, *imlo qoidalari, tinish belgilarining ishlatilishi, to'g'ri talaffuz qoidalari* haqidagi ma'lumotlar har bir o'quvchi uchun hayotiy faoliyatda juda muhim, biroq *ayrim grammatik qoidalar, murakkab tasniflar, haddan ortiq nazariy ma'lumotlar* bo'lajak tilshunos (bir sinfda ko'pi bilan 2 foiz bo'lishi mumkin) uchun qimmatlidir, lekin bo'lajak huquqshunos, jurnalist, shifokor, tadbirkor, fermerlarga ertangi hayotda fikr ifodalash uchun deyarli ahamiyatga ega emas.

“Ona tili” darsliklarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirishga mo'ljallangan o'quv materiallari yanada foydali, ixcham va tushunarli

holatga keltirilishi kerak. Nazariy ma'lumotlarning mustahkamlovchi mashq va topshiriqlarga mosligi ham ta'minlansa, qoidalardagi ayrim chalkashliklarga tuzatish, aniqlik kiritiladi, muvofiqlashtiriladi.

Umuman olganda, nazariy ma'lumotlar borasidagi *yig'iq va yoyiq sodda gaplar, sodda va qo'shma gaplar, qo'shimchalarning qo'llanilishi va tasnifi* kabi shunga o'xshash masalalar bilan bog'liq ayrim munozaralarning uchrab turishini tilshunoslikda ham tadqiqotlar uzluksiz davom etayotgani va ularni o'z vaqtida amaliyotga kiritilish zarurati mavjud bo'lgani bilan asoslash mumkin. Tilning aksariyat sathlari uning tabiatidan kelib chiqib tadqiq qilindi va aniq xulosalarga kelib bo'lindi, hatto vaqt sinovidan ham o'tdi. Avval tadqiq qilib, uni davr sinovidan o'tkazib, so'ng darsliklarga kiritamiz deyilsa, ta'lim jarayoni bir soniya ham kutib turmasligi ma'lum.

“Ona tili” darsliklari o'qituvchidan nafaqat lingvistik bilimlarni egallagan bo'lishni, balki ona tiliga cheksiz muhabbat, so'z qadriga yetish, so'zning turli ma'no turlanishlarini his etishga ham imkoniyat yaratib berishi kerak.

Darslik o'qituvchidan ham, o'quvchidan ham fikrlashni, fanga munosabatini emas, kelajak hayotida asqotuvchi vosita sifatidagi yangicha munosabatni tarkib toptirishi, darslikning mazmun-mohiyatini avvalgi darsliklarni yaratishda ko'p ham e'tibor qaratilmagan mashq va topshiriqlarning jiddiy farqlanishi, lug'atlar bilan ishlash davomiyligi, didaktik ahamiyatga ega bo'lgan kichik hajmli rivoyat, hikoyat matnlarning to'liq holda berilishi, bog'lanishsiz matnlarda ham insoniyatning buyuk mutafakkirlari hayotiy tajribalarining mahsuli bo'lgan aforizmlar, iboralar, maqollardan keng foydalanilgani, ona tili va adabiyot fanlari orasidagi uzviylikni ta'minlash, boy adabiy merosimizni ongli mushohada etishga ko'maklashish maqsadida turli uslubga doir matnlar bilan ishlash yo'lga qo'yilgani, uy vazifasidagi topshiriqlarning xilma-xilligi, tilshunoslikka doir kompetensiyaviy bilimlar ifodasining soddaligi, aniqligi, tushunarligi, asosligi, har mavzuga doir qoidalarni dalillash uchun tanlangan misollar muvofiq bo'lishi kerak.

Ona tili darsliklari zamonaviy rasmlar, kreativ fikrlashga undovchi illustratsiyalar bilan boyitilishi kerak. Albatta, o'qib tushunish, tinglab tushunish, yozish va gapirish ko'nikmalarini tizimli shakllantiruvchi o'quv topshiriqlari kiritilishi kerak. Ona tili darslarida tinglab tushunish bo'yicha topshiriqlar berish masalasini, albatta o'ylab ko'rish kerak. O'zbek tili, davlat tili o'qitishda muammosiz kiritiladi, ammo ona tili sifatida ko'plab davlatlarda tinglab tushunish ko'nikmalari tekshirilmaydi.

Topshiriqlar mashqlardan jiddiy farqlanshi kerak. Umuman, o‘quv topshiriqlarning 5–7-sinflarda berilishi masalasi alohida o‘rganilishi kerak, chunki mavzularda tizimlilik, uzluksizlik bo‘lgani bilan o‘quv topshiriqlari orasida uzviylik mavjud emas. Shuning uchun ham nutqiy ko‘nikmalar tizimli shakllanmay kelmoqda. Darsliklardagi rasmlar yanada sifatli, mazmunlilari bilan almashtirilsa, unga berilgan topshiriqlar ham zamonaviylashsa, kiritilgan yangi mavzular bilan bog‘liq mashq va topshiriqlar mazmuni ham yangilansa, darslikning shakli formati ham o‘zgarsa, ko‘proq ranglardan foydalanilsa, ta‘lim sifati, o‘quvchilarning ishtiyoqi oshardi. Shuni ham ta‘kidlash lozimki, 5–7- sinf onat tili darsliklariga, xususan, yangi tipdagi topshiriqlarga metodik tavsiyalar va multimediya ilovalari tayyorlanishi kerak.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yangi darsliklar nutqiy ko‘nikmalarni tizimli rivojlantirish asosida ishlab chiqilsa, o‘qituvchilar shunga monand o‘z mashg‘ulotlarini tashkil etsa, davlatning ona tili ta‘limi oldiga qo‘ygan ijtimoiy buyurtmasi bajarilgan bo‘ladi. Xorijiy tajribalardan ijodiy foydalangan holda ona tili ta‘limini ham o‘quvchi nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga, grammatik qoidalarni esa amaliy faoliyatga yo‘naltirishga erishish lozim. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta‘lim tizimida 5–7-sinflarda o‘qitiladigan fonetika, leksika, orfografiya va morfologiyaga doir katta hajmli o‘quv materialni nutqiy kompetensiyani shakllantirishga yo‘naltirish, tizimlashtirish eng dolzarb masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни.// Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1997. – 64 б.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”.// Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1997. – 64 б.
4. Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Она тили. Адабиёт. – Т.: Шарқ, 1999. – 304 б.
5. Umumiy o‘rta ta‘limning ona tili fanidan davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi.–Toshkent, 2017. – 69 b.
6. Ўзбек мактабларида она тили ўқитиш концепцияси. – Тошкент: ЎзПФТИ, 2010. – 21 б.
7. Хамроев Ғ. Она тили ўқитишнинг самарали усуллари. – Т.: Баёз, 2018, 5–7-бетлар.

O‘ZBEK TILI DARSLARINI INNOVATSION METODLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH

Nilufar Adizova, BuxDU filologiya fakulteti
O‘zbek tilshunosligi kafedراسi o‘qituvchisi

Ma‘lumki, har bir mamlakat taraqqiyoti uning ta‘lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbek xalqi azaldan ta‘lim-tarbiya masalasi hamda farzandlar kamolotiga alohida e‘tibor qaratib kelishgan. Bu borada Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday fikrlarni aytib o‘tgan: “Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta‘lim va tarbiya olishiga bog‘liq.

Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz, va murabbiy har bir bola timsolida, avvalo, shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta‘lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak”.

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, o‘zbek tilining Davlat tili maqomiga erishishi ulkan yutuqlarimizdan biri bo‘ldi. Bu xalqimizning ma‘naviy xazinasi bo‘lmish ona tilining boyishi va taraqqiy etishini yanada jadallashtirdi, shu bilan birga, mamlakatimiz hududida yashovchi barcha millat va elatlar tillariga ham hurmat bilan qarash lozimligi shuurimizga singdirildi. Bu ulug‘ meros xalqimiz o‘tmishi, buguni hamda kelajagi va uning taraqqiyotini ifodalovchi bebaho xazinadir. Millatimizga xos azaliy qadriyatlar, urf-odat va an‘analar, go‘zal fazilatlar, xalqona betakror iboralar faqat shu tildagina o‘zining haqiqiy jozibasini aks ettira oladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston turli sohada yutuqlarga erishib, jahonga bo‘y ko‘rsatib kelmoqda. Bu esa jahon hamjamiyati nigohini o‘z-o‘zidan yurtimizga qaratmoqda. Ayni paytda chet el fuqarolarining ham o‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari tobora ortib borayotgan bir davrda mamlakatimiz hududida yashab turgan turli millat vakillarining davlat tilini yanada chuqurroq o‘rganishlariga alohida e‘tibor bilan yondoshilmoqda. Jahonning bir qancha mamlakatlari nufuzli oliygohlarida o‘zbek tili kafedralarining mavjudligi esa barcha uchun birdek quvonarli holdir.

Shunday ekan, O‘zbekiston hududida yashovchi ta‘lim boshqa tilda olib borilgan shu yurt fuqarolarining davlat tilida erkin muloqot qila

olishlari, og‘zaki va yozma shaklda fikrlarini ifodalay bilishlari, atrofdagilar bilan bermalol fikr almashish imkoniga ega bo‘lishlari yurtimiz taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Shu bois, bugungi kunda Respublikamiz hududida ta‘lim rus, qozoq, tojik, turkman, qoraqalpoq kabi tillarda olib boriladigan umumta‘lim hamda undan keyingi ta‘lim bosqichlarida o‘zbek tilini Davlat tili sifatida o‘qitilishi uchun zarur imkoniyatlar yaratilmoqda. Mamlakatimizda yashovchi har bir boshqa millatga mansub yosh avlodning o‘zbek tilini o‘rganishi o‘z fikrini erkin ifodalash, muayyan soha doirasida nutqiy ko‘nikmalarni egallash, xalqimizning boy ma‘naviy merosi, o‘ziga xos qadriyatlari bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.

Oliy ta‘lim muassasalarining ta‘lim boshqa tilda olib boriladigan guruhlarida o‘zbek tili, asosan, amaliy mashg‘ulot shaklida o‘tiladi. Mashg‘ulotlar talabalarning kommunikativ nutqiy malakalarini shakllantirishga, o‘z mutaxassisliklari doirasida erkin fikr bildirish olish imkoniyatlarini oshirishga qaratiladi. Darslarni ilg‘or pedagogik texnologiyalar hamda didaktik o‘yinlar asosida tashkil etish til o‘rganish jarayonining qiziqarli bo‘lishini ta‘minlaydi, talabalarning til o‘rganishga bo‘lgan havasini yanada oshiradi. Quyida mashg‘ulotlar davomida qo‘llash mumkin bo‘lgan ba‘zi samarali usullardan namunalar tavsiya etiladi:

“**Bingo**” usuli asosida raqamlangan kartochkalar olinib, har birining orqa qismiga xalqimiz ma‘naviy qiyofasini ifoda etuvchi hikmatli so‘z yoki maqollarning bittadan so‘zi yozib qo‘yiladi va jadvaldagi kataklarga yopishtiriladi. So‘zlar raqamlar asosida tanlanib, berilgan hikmatli so‘zning to‘liq shakli ochiladi va mazmunni yorituvchi fikrlar tinglanadi. Ushbu usul talabalar ma‘naviyatini, axloqiy sifatlarini shakllantirishga, xalqimiz ma‘naviy xazinasidan bahramand bo‘lishga ko‘mak beradi. Ushbu usulni qo‘llash jarayonida guruh talabalari ikki yoki uchta kichik guruhga bo‘lib olinib, musobaqa uyushtirish ham mumkin:

5	4	8
7	3	6
9	2	1

Maqol: Yolg‘iz otning changi chiqmas,
Changi chiqsa ham dong‘i chiqmas.

“**Zanjir**” usuli. Tayanch soʻzlar kartotekaga yozilgan holda tarqatiladi. Berilgan soʻzlar ushbu usul yordamida grammatik jihatdan bogʻlanib, gap hosil qilinadi.

Namuna: xalq, Navroʻz, bilan, har yil, katta , bayram, xursandchilik, va, tantana, nishonlamoq. (Xalqimiz Navroʻz bayramini har yili xursandchilik va katta tantana bilan nishonlaydi.)

“**Intervyu**” usuli asosida biror mavzu doirasida suhbat tashkil etiladi.

Ushbu usul talabani erkin harakat olib borishi orqali nutqiy koʻnikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Unda ikki talabadan biri jurnalist, ikkinchi talaba esa taklif etilgan mehmon sifatida savol-javob tarzida fikr almashish imkoniga ega boʻlishadi. Suhbat mashgʻulot mavzulari hamda taʼlim yoʻnalishlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

“**Partner**” usuli asosida biror mavzuga doir gap aytilib, matn boshlab beriladi va jarayonni davom ettirish uchun talaba oʻz sherigini tanlaydi. Oʻyin shu tarzda davom ettirilib, matn oxiriga yetkaziladi. Ushbu usul talabani mustaqil fikrlash hamda vaziyatga kirisha olish qobiliyatlarini shakllantirishga koʻmak beradi.


Namuna: Har bir insonning Vatani uning uchun dunyodagi eng goʻzal va muqaddas makon hisoblanadi.

Vatan ozod va mustaqil boʻlsa, uning bagʻri jannat bogʻlaridek fayzli, odamlari baxtli boʻladi.

“**Kartoteka**” usuli. Kartotekalarda yozilgan rus (yoki boshqa) tilidagi matn parchalari tarjima qilish uchun talabalarga beriladi va tayyorlangan matnlar asosida fikrlar tinglanadi. Ushbu usul orqali talabalar ikki tilni solishtirish imkoniga ega boʻlishadi. **Namuna:**


У каждого должен быть хоть один преданный друг. Мы часто заблуждаемся думая что у нас много друзей. Прочность дружбы познаётся в беде. Настоящий друг может помочь не только делом, но и словом. В дружбе проявляются такие качества человека, как преданность, честность, открытость, ответственность и верность. Дружба – это самое светлое отношение между людьми.

Nazariy maʼlumotlarni oʻrganish uchun “**Tushunchalar tahlili**” uslubini qoʻllash mumkin. Bunda egallangan bilimlar tahlil qilish orqali mustahkamlanadi:



“Doira” usuli tasniflashda qo‘l keladi. Ushbu usul yordamida mavzuni yorituvchi biror fikr bildiriladi, keyingi fikr esa oldingisini to‘ldirgan holda davom ettiriladi.

Namuna: Global muammolar.



Umuman olganda, ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlarda dars va mashg‘ulotlarni tashkil etishda qo‘llanadigan innovatsion metodlar o‘rganuvchining tilni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga hissa qo‘shadi va ularning faolligini ta’minlaydi. Mavzular mohiyatini oson anglashga ko‘mak beradi. Talabalarning mustaqil fikrlash, davlat tilida bemalol ish yurita olish malakalarini egallashida muhim ahamiyat kasb etadi. Dars jarayonlari davomida turli matnlar, badiiy parchalar bilan ishlash orqali xalqimiz ma’naviy hayoti bilan ham yaqindan tanishish imkoniga ega bo‘lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.Usmanova, A. Hayitov. Ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. – Toshkent, 2011.
2. Ta’limning interfaol usullari. – Buxoro, 2006.
3. Z. Hamroyeva. Ona tili va adabiyot darslarida interfaol o‘yinlar. – Buxoro, 2012.

ONA TILI TA'LIMI TIZIMIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING O'RNI ("Ko'makchilar" mavzusi misolida)

Yulduz Atadjanova,

Xorazm viloyati XTXQTMOHM Tillarni o'qitish
metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish talaba va o'quvchilarni egallayotgan bilimlarni o'zlari izlab topishga, mustaqil o'rganib, tahlil va tadqiq qilgan tarzda xulosa chiqarishga o'z fikr va qarashlarni erkin bayon etib, himoya qilishga o'rgatadi. Ayni shu maqsadlar ona tili ta'limida innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish zarurligini belgilab beradi. "Innovatsion texnologiya – bu yangi yo'nalishdagi, tashqaridan yangi kiritilgan, yangicha o'xshash, noan'anaviy texnologiyalar degan ma'noni bildiradi"[1]. Innovatsion (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilik degan ma'nolarni bildiradi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatida yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan pedagogik texnologiya va interaktiv metodlardan to'liq foydalanish demakdir.

Ma'lumki, innovatsion texnologiyalar ona tili mashg'ulotlarining qiziqarli va samarali o'tishini ta'minlaydi. Ona tili darslarida o'quvchilar bilan darsni samarali o'tkazishda innovatsion texnologiyalarning quyidagi turlaridan foydalanishimiz mumkin:

Masalan, "**Kartoteka**" metodi. Bu metodning afzalligi shundaki, o'quvchi darsda o'tgan mavzu bo'yicha olgan bilimni ongli ravishda namoyish etib, mustahkamlaydi. Bu metodning qo'llanilishi quyidagicha: mazkur metod o'quvchilarni o'tgan dars bo'yicha baholash jarayonida qo'llash samarali ish beradi. Har bir o'quvchiga ko'makchilardan biri yozilgan kartoteka beriladi. O'quvchi bu ko'makchi haqida yozma ravishda to'liq ma'lumot berishi va bu so'z bog'lovchilarda bo'lsa, qaysi jihatlari bilan farqlanishiga misollar keltirishi talab etiladi. O'quvchi javoblarni yozib bo'lgach, uni boshqa o'quvchiga tekshirish uchun berishi o'quvchilarni bitta ko'makchi bilan chegaralanishining oldini oladi va o'quvchilarni o'z fikrini izohlash hamda xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa, uni o'qituvchidan emas, do'stidan eshitishi xato qilgan o'quvchini yana izlanishga undaydi. Do'stini xatosini to'g'irlagan o'quvchidan bu kartotekada qanday kamchiliklar borligi, qaysi ma'lumotlarni qo'shish yoki olib tashlash haqida fikrlarni bayon qilishi so'raladi.

Masalan, Kartotekada *bilan* ko‘makchisi yozilgan bo‘lsa, unga birinchi o‘quvchi quyidagicha javob berdi deb hisoblaymiz:

Bilan ko‘makchisi sof ko‘makchi bo‘lib, bosh kelishik shaklida qo‘llanadi. Bu ko‘makchi vosita (qalam bilan), birgalik (ukam bilan) kabi ma‘nolarni bildiradi. Bu ko‘makchi bog‘lovchida ham bo‘lib, undan farq qilmaydi.

Ikkinchi o‘quvchining javobi: *Bilan* ko‘makchisi sof ko‘makchi bo‘lib, bosh kelishik shaklida qo‘llanadi. Bu ko‘makchi vosita, birgalik va payt (*Kuni bilan ishladim*) hamda yo‘nalish (*So‘qmoq yo‘l bilan bormoq*) kabi ma‘nolarni bildiradi. **Bilan** ko‘makchisi bog‘lovchida ham bo‘lib, u so‘zlarni tobelantirib bog‘lashi bilan bog‘lovchidan farq qiladi. Chunki bog‘lovchi teng munosabatdagi so‘zlarni bog‘laydi. *Masalan, Ko‘makchi: Ukam bilan ishladim. Bog‘lovchi: Ukam bilan (va, hamda) men ishladik.*

Ikki o‘quvchining javobidan so‘ng o‘qituvchi ikki ma‘lumotni birlashtirib, bilan ko‘makchisining tarixiy shakllari (*birlan, birla, bila, ila*) haqida qo‘shimcha ma‘lumot berishi o‘quvchilarda bu mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘onishga olib keladi.

FSMU metodi. (**F** – fikringizni bayon eting, **S** – nima uchun shu fikrdaligingizning **sabablarini** keltiring. **M** – ko‘rsatilgan sababni tushuntiruvchi **misol** keltiring. **U** – fikringizni **umumlashtiring**). [2]

Ushbu metodning ko‘makchilarda qo‘llanilishi quyidagicha bo‘ladi: Ko‘makchilarga doir mashq beriladi. Mashq asosida fikr bayon etiladi, nima uchun shu fikrda ekanligining sababi ko‘rsatiladi, sababni isbotlovchi misol keltiriladi. So‘ngra fikr umumlashtiriladi.

Namuna: Nuqtalar o‘rniga sof ko‘makchilardan mosini qo‘ying. Bu ko‘makchi qanday ma‘nolarni bildirishini tushuntirib bering.

Usmon Nosir ham mashhur siymolar juda yoshligidan ko‘p ijobiy xislatlarga ega bo‘lgan edi. U nihoyatda ziyrak, idrokli, keng mushohadali, o‘ta qiziquvchan, uquvli, bilimga chanqoq, mehnatkash edi va shu fazilatlarini ajralib turardi.

kabi – o‘xshatish, qiyoslash, chog‘ishtirish. **bilan** – vosita, sabab, birgalik va boshq.

Ko‘rinadiki, innovatsion texnologiyalarning kundalik hayotimizdagi o‘rni kundan kunga ortib bormoqda. Shularning natijasi o‘laroq innovatsion g‘oyalar fan sohasida ham o‘z o‘rnini mustahkamlab bormoqda. “Ko‘makchilar” mavzusini o‘rganishda “**Kartoteka**” va “**FSMU**” metodlari o‘quvchi uchun eng samarali va qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishga xizmat qiluvchi metodlardan sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Madumarov T., Kamoldinov M. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari: savollar, javoblar. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Talqin, 2012.
2. Gulsara Ziyodullayeva. Innovatsion texnologiyalar – dars samaradorligini oshirish vositasi. Til va adabiyot ta’limi, 2012.
3. B.Shamsiyev, A. Baxranov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Navoiy, 2015.

ONA TILI VA ADABIYOT FANLARINI O‘QITISHDA TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Nasiba Sabirova, XorazmVXTXQTMOI

Til va adabiyot ta’limi kafedrasida katta o‘qituvchisi

Bizga ma’lumki, bugungi kunda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning o‘z oldiga qo‘ygan eng muhim masalalaridan biri – bu yosh avlodni ma’naviy barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Buning uchun har bir o‘qituvchi, avvalo, o‘z fanining yetuk mutaxassisi, salohiyatli, zamonaviy ilm-fan sirlarini puxta o‘zlashtirgan bo‘lmog‘i lozim. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov, “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz”, – deya alohida ta’kidlaganlar.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ona tili va adabiyot darslarida ham ta’limiy, ham tarbiyaviy maqsadga erishishda o‘quvchilarning kundalik hayotdagi vaziyatlarda og‘zaki nutqdan foydalanib, o‘z fikrini ravon bayon etishini rivojlantirishga qaratilgan usullarni qo‘llash o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Umumiy o‘rta ta’limda onatili va adabiyot fanini o‘qitishdan maqsad ona tilining ulkan imkoniyatlaridan erkin foydalana olish va nutqiy vaziyatga mos holda qo‘llay olishga orgatishdan, ya’ni kompetentli shaxsni kamolga yetkazishdan iborat.

Har bir mashg‘ulot o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilishi zarur. Audio va video resurslardan foydalanish ham darsning samarali bo‘lishiga yordam beradi. Har bir darsda ma’lum bir bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirish ko‘zda tutiladi. Xususan, fanga oid kompetensiyalardan biri – bu sotsiolingvistik kompetensiyadir. U o‘zaro muloqot hamda kundalik hayotdagi vaziyatlarda tildan foydalanib, o‘z fikrini ravon bayon etish, ijtimoiy hayotda ro‘ bergan voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildirishni nazarda

tutadi. Davrimiz hozirgi yosh avloddan fikrlash va fikr mahsulotini to'g'ri ifodalashni talab qilar ekan, o'quvchilarda bu ko'nikmalarni rivojlantirish uchun yangi usul va metodlardan foydalanishimiz kerak.

Dars samaradorligining muhim shartlaridan biri barcha o'quvchilarning dars jarayonida faol ishlashlaridir. Albatta, bu o'rinda o'qituvchiga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur bilish qo'l kelayotganligini amaliyot ko'rsatib turibdi. Internet tarmog'ida o'qitish uchun mo'ljallangan portallar, saytlar keyingi vaqtlarda keskin ko'paydi. Ona tili va adabiyot darslarida "ZiyoNET", "Kitob.uz", "Ziyouz.uz", shuningdek, multimedia.uz, adabiyot.uz saytlaridan olingan audio va videoresurslardan foydalanish mumkin. "ZiyoNET" ta'lim portalining "Foydali video" bo'limidan olingan videolavha (videorolik)lardan foydalanish tajribasidan foydalainishni tavsiya etmoqchimiz. "Aqlli va nodon", "Ota-ona haqida", "Do'stlik haqida", "Botirlik va aql-u tadbir haqida", "Vaqt haqida rivoyat" kabi videolavhalardan ta'limiy maqsadlarda foydalanish mumkin. Videolavhalardan darsning turli qismlarida: uyga vazifani so'rash, yangi mavzuni mustahkamlash, yangi mavzuni tushuntirish, shu bilan birga, matn yaratish hamda ijodiy bayon yozish uchun foydalanish mumkin. Videolavha namoyish qilinishidan oldin grammatik topshiriq e'lon qilinadi. Matndan o'tilgan mavzuga oid grammatik topshiriq beriladi, ma'lum bir lisoniy hodisaga misollarni aniqlash topshiriladi.

9-sinfda "Ko'chirma gap", "Ko'chirma gapda tinish belgilarining ishlatilishi", "Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirish", "Bog'langan qo'shma gaplar" kabi mavzularga oid misollarni aniqlashda foydalanish mumkin. Shuningdek, adabiyot darslarida mumtoz adabiyot namoyondalarining ijodi bilan bog'liq bo'lgan videomateriallar o'qituvchilarga katta manba vazifasini o'taydi. Masalan, "Navoiy xazinasi", "Bobur xazinasi" turkumidan. Bugungi kunda adabiyot ta'limida eng asosiy muammolardan biri bu o'quvchilarimizning kitob mutolaa qilishlarining pasayib ketganligidadir. Shu o'rinda adabiyot darslarida o'qituvchilarimizga tavsiyamiz shundan iboratki, darslikda berilgan asarlarning barchasi "ziyouz.uz", "kitob.uz" saytlarida elektron variantda berilgan va ba'zi asarlarning videofilmlari ishlangan. O'quvchilarimizga ta'til kunlarida uyga vazifa tarzida asarning videofilmi va aynan asarning o'rtasidagi farqlarni yozib kelishlarini topshirish adabiyot darsining yanada samaradorligini oshiradi. Chunki o'quvchilar bevosita videofilm va asar o'rtasidagi farqlarni aniq va dalillar asosida yoritib berishlari uchun asarni o'qib chiqishlari kerak bo'ladi. Bugungi

kunda biz ko'p bora takrorlaydigan interfaol metodlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarimizni prinsipiialikka, o'z mustaqil fikrini erkin bayon qilishga va har bir keltirilgan fikrni aniq dalillar asosida tahlil qilishga o'rgatadi.

Shu bilan birga badiiy asarlarning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatiga alohida ahamiyat berish, mavzuga oid savollar asosida o'quvchining hayotiy voqelikka to'g'ri munosabat bildirishga undash mumkin. Berilgan savollar javob berish jarayonida o'rganilgan grammatik ma'lumotlarni samarali qo'llash talab etiladi.

“Musiqiy sayohat” va “Betakror yurtim” sarlavhalari ostida joylashtirilgan turkum videolavhalardan matn yaratish va ijodiy bayon yozish jarayonida foydalanish mumkin. Xususan, faqat musiqa jo'rligidagi lavhalardan 5–6-sinflarda matn yaratish jarayonida ovozli videolavhalardan esa 7-, 8-, 9-sinflarda ijodiy bayon uchun foydalanish mumkin. Lekin bu jarayonda bitta muammo – sifatli videolavhalarning kamligi. Ishonamizki, vaqt o'tishi bilan u o'z yechimini asta-sekin topadi. Videolavhalardan ona tili va adabiyot darslarida foydalanishning ahamiyatli jihatlari quyidagilarda aks etadi:

- darsning asosiy motivatsion nuqtasi bo'lishga;
- noan'anaviy usulda mavzuni mustahkamlash yoki uyga vazifani so'rab olishga;
- o'quvchining diqqatini mavzuni o'zlashtirishga alohida qaratishga;
- mavzuga oid grammatik topshiriqqa oid misollarni hikoyadan topish bilan hikoya ustida ishlash jarayonida savollarga javob tarzida ana shu materiallardan foydalanishga;
- darsning ma'lum qismlarida o'quvchida kuzatilgan toliqishni bartaraf etishga;
- bir vaqtning o'zida ham ta'limiy, ham tarbiyaviy, ham rivojlantiruvchi, ham ma'lum tayanch kompetensiya (o'z-o'zini shaxs sifatida shakllantirish, axborot bilan ishlash, ijtimoiy faol fuqarolik, umummadaniy kompetensiya)ni shakllantirishga qaratilgan dars maqsadlarini amalga oshirishga;
- ko'rganini, eshitganini saralashga o'rgatishga va badiiy didni shakllantirishga;
- mavzuni zamon bilan bog'lagan holda o'quvchini munosabat bildirishga undashga katta yordam beradi. Bir paytning o'zida ham lisoniy ma'lumotlarni mustahkamlash, ham o'zaro muloqot hamda kundalik hayotdagi vaziyatlarda tildan foydalanib, o'z fikrin ravon bayon etish,

ijtimoiy hayotda ro'y bergan voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish kabi kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

Umuman olganda, bugungi kunda zamon talablariga javob beradigan o'qituvchi ingliz tili, AKT va internet bilan ishlay oladigan va uni ta'lim jarayonida samarali qo'llay olishi zarur. Shiddatli axborot oqimi qurshovida yashayotgan o'quvchini uncha-muncha narsa bilan hayron qoldirib bo'lmaydi. O'qituvchilar oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa o'quvchilarning ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini kengaytirishdan iborat. O'quvchini qiziqitira olgan o'qituvchigina o'z oldiga qo'ygan vazifani to'laqonli ado eta oladi.

ONA TILI DARSLARNI TASHKIL ETISHDA O'QITUVCHI MAS'ULIYATI

Gulruh Bahodirova, Shahrisabz tumani 46-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Yekaterina Shirinova, Uchtepa tumani 116-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi;
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'qituvchisi

Qadimiy va boy tarixga ega, ayni vaqtda taraqqiyot sari ildam qadam tashlayotgan O'zbekistonimizda ta'lim-tarbiyaga qo'yiladigan talablar dunyoning ko'plab mamlakatlaridagidan insonning har tomonlama barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Mustaqillikning ilk yillaridanoq mamlakatning barcha jabhalarida bo'lgani singari ta'lim tizimida ham qator islohotlar amalga oshirildi va bu hol ayni vaqtda ham davom etmoqda. Bu kabi sa'y-harakatlardan ko'zlangan maqsad Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Eng muhim va dolzarb masalalardan biri – yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat".

Qolaversa, "Yoshlar o'rtasida mamlakatimiz boy tarixini, uning betakror madaniyatini va milliy qadriyatlarini keng targ'ib etish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish zarur"[1; 4-b.].

Mamlakatimiz hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, taraqqiyot sari amalga oshirilayotgan islohotlar barchani faol bo'lishga, o'z ustida ishlashga undayotgani pedagoglar, metodistlar ahlini yanada peshqadam bo'lishga, ilg'or fikrlashga chorlamoqda. Ayniqsa, yaqin qisqa davr ichida xalq ta'limi tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar o'qitishga nisbatan

yangicha yondashuv va yuqori ilmiy hamda pedagogik salohiyatni talab etmoqda. Shunga muvofiq pedagog-kadrlar faoliyatida ijodiy izlanish va faollik ko'zga tashlanmoqda. Xususan, yosh avlodning savodli bo'lib voyaga yetishiga mas'ul bo'lgan, ona tiliga va pirovardida Vataniga hurmat hissini kamol toptiradigan ona tili va adabiyot fanlari o'qituvchilarining mehnatlari e'tiborga molik.

Darsga tayyorlanish jarayonida o'qituvchi o'z ustida ishlaydi, izlanadi, natijada muayyan yangi metodlar shakllanadi. Eng muhimi yaratilgan har bir yangi metod DTSda belgilab qo'yilgan ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishning maqsad va vazifalari [2; 140-b.]ga to'la mos kelishi lozim.

Har bir darsni samarali tashkil etish, ta'lim sifatiga erishish uchun o'quvchilarning bilim darajasi, psixologik holati, fanga nisbatan qiziqishi singari bir qator omillarni inobatga holda kundalik dars inlanmalarini yaratish, tanlangan darsga mos ta'lim metodlari va didaktik materiallardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ta'kidlash joizki, o'sib kelayotgan yosh avlod globallashuv davrida voyaga yetayotganligi bois fan-texnika taraqqiyoti qurshovida kamol topmoqda. Shu bois ta'lim-tarbiya berishda zamonga hamnafas ravishda ularga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilm-fan yutuqlaridan oqilona va to'g'ri maqsadlarda foydalanishni singdirib borish kerak. Farzandlarimiz shunday ruhiyatga ega bo'lib bormoqdaki, ularni biror-bir ma'lumot yoki axborot bilan g'ayratlantirish mushkul. Shularni inobatga olgan holda o'qituvchilar zamonaga nisbatan peshqadam, ilg'or tajribaga ega va, eng muhimi, chet tillari va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi biladigan ijodkor shaxslar, kompetentlikka ega insonlar bo'lishi talab etiladi.

Ona tili va adabiyot darslarini tashkil etish bo'yicha mamlakatimiz pedagoglari tajribasini oshirish maqsadida ilg'or tajribali pedagoglar tajriba va yutuqlarini ommalashtirish, "Mahorat maktabi", "Metodist-o'qituvchi", "Tayanch maktab" zamonaviy ta'lim muassasalarini tashkil etib, ularda o'zaro tajriba almashish seminarlarini o'tkazish tizimli ravishda yo'lga qo'yilmoqda. Qolaversa, o'qituvchilar bilimi va metodik mahoratini oshirishda ko'rik-tanlov va ilmiy-amaliy konferensiyalar, forumlarning o'rni alohida ahamiyatga ega.

Har bir o'qituvchi o'z navbatida alohida bir ijodkor shaxs. U o'z oldiga qo'yilgan dolzarb vazifa, ya'ni mamlakat kelajagini belgilab beruvchi yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishdek mas'uliyatni ado qilish uchun har bir darsiga alohida mehr va mas'uliyat bilan yondashmog'i, tinimsiz izlanmog'i, zamon bilan hamnafas bo'lib fan-texnika yutuqlari,

ilg'or pedagogik texnologiyalardan, zamonaviy o'qitish metodlaridan xabardor bo'lmog'i va ulardan dars jarayonida unumli foydalana olishi lozim. Zero, globallashuv davrida o'quvchi-yoshlardan bir qadam oldinda yura oladigan pedagoglar ta'limdan ko'zlangan maqsadga erisha oladi.

Darslarni tashkil etish bo'yicha bilim va tajribamizga tayangan holda bir qator metodlarni tavsiya qilib o'tamiz. Bunday metodlar sirasiga *"To'rtinchisi ortiqcha" test metodining mantiqiy davomi sifatida ishlab chiqilgan "Kalitni moslash" test metodini* [3; 53–55-b.], *"Birni kessang, o'nni ek" savolnoma metodi, o'quvchilar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yuzaga keltirish va ularga bunyodkorlik g'oyalarini singdirishga qaratilgan "Bunyodkorman" o'yin metodi, o'quvchilar diqqatini aniqlab olish va shunga muvofiq topshiriqlarni shakllantirishga qaratilgan "Men ham rassomman" (sanab o'tilgan barcha metodlar maqola muallifi tomonidan ishlab chiqilgan)* singari psixologik metodlarni kiritish mumkin.

Shuni ham alohida qayd qilish joizki, ilmiy tadqiqotlarning natijalari, zamonaviy ilm-fan yutuqlari amaliyotga, ya'ni bevosita ta'lim jarayoniga tatbiq etilganda ilm-fan va ta'lim integratsiyasiga erishish mumkin. Shu o'rinda qayd qilish joizki, o'quvchilarning bilim ko'rsatkichi o'quvchining salohiyati, iqtidori, o'qituvchining bilim darajasi va pedagogik mahorati bilan bir qatorda dars jarayonlarida o'qituvchi va o'quvchi muloqotining to'g'ri yo'lga qo'yilishi, dars ishtirokchilarining psixologik holati ham muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda taraqqiy etayotgan psixolingvistika fani xulosalariga ko'ra, insonlar o'rtasidagi muloqot, fikr almashish jarayonlari kodlash (axborotning so'zlovchi tomonidan uzatilishi) va dekodlash (uzatilgan axborotning qabul qilinishi) orqali amalga oshadi [4; 60–62-b.]. Demak, dars jarayonida ham o'zaro muloqot shu jarayonlar hosilasi sifatida namoyon bo'ladi. Shunday vaziyatda o'zlashtirish sifati va samaradorligida past ko'rsatkich qayd etilsa, demak ikki jarayonning birida xatolik mavjud. Birgina nazorat diktanti darslarida shu jarayonning kechishini tahlil qilsak, agar o'qituvchi diktantni odatdagidan tezroq o'qisa, diktant boshqa notanish o'qituvchi tomonidan olinsa, butun sinf o'quvchilari natijalarning doimgi ko'rsatkichga nisbatan pastroq bo'lishi tabiiy. Ammo fan o'qituvchisining o'z darsida shu kabi holat butun sinf o'quvchilarida kuzatilsa, o'qituvchi kodlash jarayoniga o'zgartirish kiritishi kerak. Agar bilim va savodxonlik ko'rsatkichi muayyan o'quvchilardagina kuzatilsa, dekodlash jarayonida muammolar

borligini anglash va buning sabablarini aniqlash hamda bartaraf qilishga kirishish kerak.

Xullas, har bir o'qituvchi mamlakat kelajagiga dahldor ming-minglab o'quvchilarga ta'lim berar ekan, o'z yelkasiga yuklangan yuksak mas'uliyatni his etgan holda o'z pedagogik faoliyatini olib borsa, mamlakat taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi. –Toshkent, 2017, 16-yanvar.
2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qaroriga 3-ilova “Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha malaka talablari// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.
3. Shirinova Y.T. Ona tili darslarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish // Til va adabiyot ta'limida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar. –Toshkent, 2018.
4. Usmanova Sh. “Psixolingvistika” fanidan ma'ruza kurslari. –Toshkent: Universitet, 2014.

ESHITIB QABUL QILISHDA MATNDA IFODALANGAN MA'LUMOT DEKODLANISHINING TAJRIBAVIY TADQIQI

Aziza Murodova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU magistri

Inson nutqni idrok qilishda eshitib tushunish, o'qib tushunish, nutqni yozma va og'zaki bayon qilish kabi lisoniy malakalar muhim o'rin tutadi. Eshitib tushunishning targ'ib qilinishi nutqning idrok qilinishida asosiy o'rinni egallaydi, chunki boshqa til ko'nikmalariga qaraganda eshitib tushunishni o'rganishda ko'proq vaqt sarflaydi. Avvallari nutqni idrok qilishda o'qish, yozma nutq va og'zaki nutq ko'nikmalariga katta e'tibor berilgan. Eshitib tushunish ko'nikmasi bundan mustasno bo'lgan. Xorijlik tadqiqotchilar bu sohada ko'pgina yutuqlar bo'lishiga qaramasdan, tinglab tushunish hali ham murakkab jarayon ekanligini aytishmoqda.

Til o'rganish sohasidagi ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, eshitib tushunish o'quv jarayonida muhim rol o'ynaydi. Eshitib tushunish nutqni idrok qilishda juda muhim jarayon hisoblanadi, chunki u o'quvchilarning til bilimlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Eshitib tushunish va gapirish og'zaki nutq shakli bilan bog'liq, o'qib tushunish va yozish esa tilning yozma shakli bilan. Eshitib tushunish va o'qib tushunish psixologik tomondan nutqni qabul qilish jarayoni, gapirish va yozish esa tilning yozma shakli bilan bog'liq [2; 215-b.].

Matn persepsiyasi murakkab jarayon sifatida turli aspektlarda o'rganilgan. Bularning asosiylari sifatida kavantativ, psixologik va psixolingvistik yo'nalishlarni ko'rsatish mumkin. Psixologik yondashuvda birlamchi obyekt inson bo'lib, matnning qabul qilinishida uning individual ruhiy holati, xususiyatlari ko'proq tahlil qilinadi [1; 27–28-b.].

Matnni eshitib tushunishda psixologik ko'nikmalar ham muhim rol o'ynaydi. Bunda eshitgan ma'lumotni eslab qolish ham katta ahamiyatga ega. Ingliz psixologi Barlett klassik asarlarda eslab qolishni "sxema" atamasi bilan atagan. U "sxema"ni har doim bo'lishi kerak bo'lgan ulkan tajribalar yoki reaksiya o'tmishdagi tajribalarga taalluqli ekanligini aytadi. Barlett bu sxemani "o'tmish ta'sirida" deb ataydi. Sxemalarda insonlarning bilimlari aks etadi. Eski bilimlar yangi ma'lumotlarga sxema orqali ta'sir qiladi. U sxemada saqlanib qolgan an'anaviy bilimlar tuzilishini xotira deb hisoblagan. Sxema miyada shakllantirilgandan so'ng, u olingan ma'lumotlarni qayta ishlaydi, tushunadi, yod oladi [3; 207-b.].

Eshitib o'qitishda sxemani til sxemasi va tarkibiy sxemalarga ajratish mumkin. Kerrel va Eisterxold lisoniy sxemasi tinglovchilarning mavjud til bilimlarini, masalan, fonetika, leksema, grammatika va boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, lingvistik sxema materiallari til to'rtasidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu konteksni har tomonlama tushunishda asosiy rol o'ynaydi. Tarkib sxemasi "mavzu", "madaniy va ijtimoiy bilim" bilan bog'liq bo'lgan asosiy ma'lumotlarni anglatadi va bu o'quvchilarning tinglaydigan ma'lumotlarni bilish darajasini aks ettiradi. Eshitib tushunishda bu jarayonlar "Bottom-up" (pastdan yuqoriga) va "top-down" (yuqoridan pastga) tartibi bilan tavsiflanadi [3; 208-b.]. "Bottom-up" (pastdan yuqoriga) qayta ishlash jarayonida tinglovchi matnni tinglaganda uning ongida fonetik birliklar dekodlanadi va so'zlarni yaratish uchun birlashtiriladi. So'zlardan so'ng iboralar, gaplar va matnlar hosil qilinadi. Bu bosqichma-bosqich ravishda amalga oshadigan jarayon hisoblanib, qismdan butunga qarab shakllanadi. "Top-down" ya'ni "yuqoridan pastga" qayta ishlash jarayonida esa

tinglovchilar yangi ma'lumotni tahlil qilish uchun ongdagi mavjud mavhum tushunchalardan foydalanadilar. Ya'ni tinglovchi oldingi bilimlaridan foydalangan holda ma'lumotni idrok qilishi mumkin. Bu jarayon butundan qismga qarab yo'naltiriladi. Ushbu 2 xil jarayon to'g'risida tilshunos olimlar har xil qarashlarni o'rtaga tashlaganlar.

“Yuqoridan pastga” qayta ishlash strategiyasi o'quvchilarga xabarning ma'nosini avvalgi bilimlardan foydalanish jarayonida, “pastdan yuqoriga” qayta ishlashda esa lingvistik bilimlardan foydalanganda yuzaga keladi. Biroq tinglash tushunchasi “yuqoridan pastga”, “pastdan yuqoriga” qarab qayta ishlashda emas, tinglovchi avval xabarni tushunish uchun ikkala strategiyani ishlatadigan interfaol talqiniy jarayondan foydalanadi.[4; 67-b.].

Tajriba jarayoni

Eshitib tushunish bo'yicha o'tkazilgan bu tajriba darsida o'quvchilarga yoshini, qiziqishlarini, psixologiyasini hisobga olgan holda tanlab olingan matn o'qib eshittirildi. Biz tajriba darsimizda **“Jajji akademik”** bolalar jurnalining 4-sonida nashr etilgan **“Kosmosga sayohat”** nomli maqolasidan foydalandik. Maqola o'quvchilarga ikki marta o'qib eshittirildi va ushbu matn yuzasidan to'rtta topshiriq belgilandi. Topshiriqlar nuqtalar o'rniga so'zlarni to'g'ri qo'llay olish, jadval va savol-javoblardan tashkil qilindi. Birinchi topshiriq 5 ta gapdan iborat bo'lib, gaplardan ayrim so'zlar tushirib qoldirildi.

Masalan: *Bundan yillar oldin odamlarning parvoz qilishi aql bovar qilmas ish hisoblangan.*

Ikkinchi topshiriq 4 ta savoldan iborat bo'lib, retsipiyentlar bu savollarga **“Ha” yoki “Yo'q”** deb javob yozishlari lozim edi. Masalan: *Ilm-fan rivojlangach, fazoga faqat ertaklarda emas, balki hayotda ham uchish mumkinligi isbotlandimi?*

Uchinchi topshiriq ham 4 ta savoldan iborat bo'lib, o'quvchilar bu savollarga to'liq javob yozishlari kerak edi. Masalan: ***Yuriy Gagarin 1961-yil qaysi raketa orqali fazoga chiqdi?***

To'rtinchi topshiriq jadval asosida bo'lib, 8 ta gapdan tashkil topdi. Jadval “To'g'ri”, “Noto'g'ri”, “Ma'lumot berilmagan” nomli bo'limlardan tashkil qilingan bo'lib, retsipiyentlar gaplarni bu bo'limlardan biriga belgilashlari lozim edi. Masalan:

	To'g'ri ma'lumot	Noto'g'ri ma'lumot	Ma'lumot berilmagan
1969-yil avstraliyalik fazogirlar Oyga uchishdi			

Tajriba natijalari

Birinchi topshiriq 5 ta gapdan iborat bo‘lib, gaplardan ayrim so‘zlar tushirib qoldirildi. Bu topshiriqda 4 nafar retsipyent 1 ta xato, 2 nafar retsipyent 2 ta xato, 2 nafar retsipyent 3 ta xato, 7 nafar retsipyent esa xatolikka yo‘l qo‘ymaganlar. 4-5-7-12-28-31-raqamli retsipyentlar 1-gapdagi tushirib qoldirilgan so‘zning o‘rniga sinonim so‘zni qo‘llashgan. Ya‘ni “fazo” so‘zining o‘rniga “kosmos” so‘zini qo‘llashgan. Bunga sabab birinchidan, so‘z retsipyentning ongida qaysi shaklda saqlangan bo‘lsa o‘sha so‘z dominant bo‘lib xizmat qilgan. Ikkinchida matnning nomlanishida ham “kosmos” so‘zining ishlatilganligi sabab retsipyentning ongida shu so‘zning faolligi saqlanib qolgan. Asl matnda esa: *“Bundan yuz yillar oldin odamlarning fazoga parvoz qilishi aql bovar qilmas ish hisoblangan”*.

1-8-10-11-raqamli retsipyentlar 2-gapda tushirib qoldirilgan “Yer” so‘zining o‘rniga “osmon”, “Oy” so‘zlarini, 5-28-raqamli retsipyentlar 3-gapda tushirib qoldirilgan “olim” so‘zining o‘rniga “odam” so‘zini qo‘llashgan. Retsoyentlar qo‘llagan so‘zlar aslida matnning keyingi mazmuniy bloklarida qatnashgan bo‘lib, retsipyentlar yanglish assotsiatsiya bilan bu so‘zlarni yozishgan. O‘quvchilar birinchi topshiriqda berilgan vazifaga 63 (84%) ta to‘g‘ri javob, 12 ta noto‘g‘ri javob yozishgan.

Ikkinchi topshiriq 4 ta savoldan iborat bo‘lib, retsipyentlar bu savollarga “Ha” yoki “Yo‘q” deb javob yozishlari lozim edi. Bu topshiriqda 4 nafar retsipyent xatolikka yo‘l qo‘yganlar, 11 nafar retsipyent to‘g‘ri javob yozganlar. 3-raqamli savolga 1-5-11-31-raqamli retsipyentlar “ha” deya noto‘g‘ri javob yozishgan. Savol: “Dastlab osmonga sinov tariqasida mushuklar uchirildimi?” Savol retsipyentlar matni qay darajada diqqat bilan tinglaganliklarini bilish maqsadida tuzilgan bo‘lib, matnda umuman qo‘llanmagan “mushuk” so‘zidan foydalanildi. Asl matnda esa: **“Dastlab osmonga sinov tariqasida kuchuk va maymunlar uchiriladi”** deya yozilgan edi. O‘quvchilar ikkinchi topshiriq bo‘yicha berilgan savollarga 54 ta to‘g‘ri javob (87%), 8 ta noto‘g‘ri javob yozganliklarini ko‘rishimiz mumkin.

Uchinchi topshiriq ham 4 ta savoldan tashkil topgan bo‘lib, faqat retsipyentlar bu savollarga to‘liq javob yozishlari kerakligi tushuntirildi. Bu topshiriqni 5 nafar retsipyentlar xatosiz bajarganlar. Qolgan retsipyentlarning javoblarida xatoliklarni kuzatish mumkin. 1-raqamli savolga 1-8-11-raqamli retsipyentlar: “Yuriy Gagarin “Endever” kemasida uchgan” deya noto‘g‘ri javob yozishgan. Savol: **“Yuriy**

Gagarin 1961-yil qaysi raketa orqali fazoga chiqdi?” Asl matnda esa: **“1961-yili “Vostok” nomli raketa Yuriy Gagarinni fazoga olib chiqdi”**. Retsipiyentlarning bunday javob berishlariga sabab 5-mazmuniy blokda qatnashgan **“Endever” kosmik kemasi**” birikmasi bo‘lishi mumkin. Matnda bir qancha raketa va kosmik kemalarning nomlari keltirilgan bo‘lib, **“Endever” kosmik kemasi**” ham shular jumlasidandir. Shu sababli retsipiyentlarda yanglish assotsiatsiya hosil bo‘lgan. 2-savolga 5-8-raqamli retsipiyentlar **“Solijon Sharipov”**, 1-raqamli retsipiyent esa **“Amerikalik fazogir oyga uchdi”** deya noto‘g‘ri javob yozishgan. Matnda **“Solijon Sharipov birinchi o‘zbek fazogiri”** deya e’tirof etilgan bo‘lsa, amerikalik fazogirlarni 1969-yilda Oy sathida bo‘lganliklarini bilamiz. Bu jarayonda ham retsipiyentlarning ongidagi yanglish assotsiatsiyaning hosilini ko‘rishimiz mumkin. 3-savolda Yerning qanday shaklda ekanligi so‘ralgan. Bunga javoban 5 nafar retsipiyent **“sharsimon”**, 7 nafar retsipiyent **“dumaloq”**, 2 nafar retsipiyent **“aylana”** shaklda deb javob berishgan. Faqat 1-raqamli retsipiyent stimol matndagi so‘zning o‘rniga **“yapaloq”** so‘zini ishlatgan. Stimol matnda gap bu tarzda berilgan edi: **“Gagarin samodan Yerga boqarkan, uning rostdan ham sharsimon ekanligini ko‘radi”**. “Sharsimon” so‘zi bilan “yapaloq” so‘zining o‘rtasida bog‘liqlik yo‘qligi uchun ham bu retsipiyentning javobini to‘g‘ri deb qabul qilmadik. O‘quvchilar uchinchi topshiriq bo‘yicha berilgan savollarga 50 ta to‘g‘ri (83%), 12 ta no‘to‘g‘ri javob topishgan.

To‘rtinchi topshiriq jadval asosida bo‘lib, 8 ta gapdan tashkil topdi. Jadval **“To‘g‘ri”**, **“Noto‘g‘ri”**, **“Ma’lumot berilmagan”** nomli qatordan tashkil qilingan bo‘lib, retsipiyentlar gaplarni bu qatorlardan biriga belgilashlari lozim edi. Bu topshiriqda 2 nafar retsipiyent 1 tadan xato, 5 nafar retsipiyent 2 tadan xato, 4 nafar retsipiyent 3 tadan xato, 1 nafar retsipiyent 4 tadan xato, 3 nafar retsipiyent esa umuman xato qilishmagan. Retsipiyentlarning aksariyati **“Kosmosga uchish “bileti” 25 million AQSH \$ turadi”** va **“S.Sharipov 2000-yilda “Endever” kosmik kemasida fazoga parvoz qiladi”** degan gaplarni **“to‘g‘ri ma’lumot sifatida belgilashgan**. Aslida esa bu gaplarni **“noto‘g‘ri” ma’lumot qatoriga belgilashlari lozim edi**. Stimol matnda: **“Birinchi o‘zbek fazogiri Solijon Sharipov 1998-yili “Endever” kosmik kemasida fazoga parvoz qiladi”** va **“Kosmosga uchish”bileti” 23 million AQSH dollari turadi”** deya keltirilgan. 5 nafar retsipiyent **“Fransiyalik mashhur olimlar kosmik kemalarni ixtiro qilishdi”** va **“Amerikalik fazogirlar Mars sayyorasiga tadqiqot olib borishdi”** degan gaplarni **“noto‘g‘ri ma’lumot”** qatoriga belgilashgan. Aslida, bu gaplar matnda berilmagan bo‘lib,

retsipiyentlarning matnini qay darajada tushunganliklarini bilish maqsadida kiritilgan. Yuqoridagi 2 ta gapda sonlar qatnashgani bois o'quvchilar sonlarni xotirada saqlashga qiynalishgan. Shu boisdan ular to'g'ri javobni belgilashda xatolikka yo'l qo'yganlar. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar to'rtinchi topshiriq bo'yicha berilgan vazifaga 78 (67%) ta to'g'ri javob, 38 ta noto'g'ri javob yozishgan.

Tajriba natijalari tahlili

O'quvchilarga berilgan topshiriqlarning har qaysisida ma'lum bir vazifa yuklatilgan bo'lib, bu vazifa orqali ular ko'nikmaga ega bo'lishadi. Masalan, 1-topshiriqda matndagi bo'sh o'rinlarni to'ldirish orqali so'zlarning bir-biriga qanday bog'lanishiga e'tibor qaratiladi. Ikkinchi topshiriqda o'quvchilar savollarga "ha" yoki "yo'q" deya javob yozishlari lozim edi. O'quvchilarning bu "qisqa" javoblari orqali matndagi ma'lumotni qay darajada tushunganliklarini bilib oldik. Uchinchi topshiriq ham savol-javob tarzida berilgan bo'lib, bunda o'quvchilarga to'liq javob yozish vazifasi berildi. To'rtinchi topshiriq jadval shaklida berilgan bo'lib, o'quvchilar qabul qilgan ma'lumotlarni tegishli ustunlardan biriga belgilashdi. **To'rtinchi topshiriq** murakkabroq ko'rinishga ega bo'lganligi uchun ham, o'quvchilarning aksariyati so'nggi topshiriqda ko'p xatolikka yo'l qo'ydilar. Bunga sabab bu topshiriq 8 ta gapdan iborat bo'lib, hajm jihatdan qolgan topshiriqlarga nisbatan kattaroq edi. Shu sababli ham o'quvchilarning ongida yanglish assotsiatsiya hosil bo'lib, to'g'ri javobni belgilashda yanglishishgan. **Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki**, umumiy hisobda **matnini eshitib tushunishda** 3 nafar retsipiyent 100%, 3 nafar retsipiyent 90%, 2 nafar retsipiyent 86%, 4 nafar retsipiyent 81%, 2 nafar retsipiyent 76%, 1 nafar retsipiyent 71% ko'rsatkichni ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarga eshitib tushunish malakasini rivojlantirish va takomillashtirish zarur. Eshitib tushunish malakasi shunchaki tinglash emas, balki eshitgan ma'lumotni ongida qayta ishlash va bu ma'lumotni boshqalarga ham tushunarli holatda yetkazib berish jarayoni ekanligini o'quvchilarga anglatmoq lozim. Zero, bu kabi til ko'nikmalarini o'quvchilarda rivojlantirish orqali, nutqni qabul qilishdek kerakli xususiyatlarni shakllantirgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. И.Азимова. Ўзбек тилидаги газета матнларининг мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи. Ф.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... Тошкент, 2008.
2. I.Azimova. "Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi". Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti.

3. Xiaoli Bao “A Study on Schema Theory-based Listening Teaching Mode for English Majors” International Journal of English Linguistics, Vol. 6, No. 4; 2016

4. Vandergrift, L. (2002). Listening: theory and practice in modern foreign language competence. Good Practice Guide. Retrieved from <https://www.llas.ac.uk/resources/gpg/67>.

BADIIY MATNLAR SARLAVHALARIDA IMPLIKATSIYANING IFODALANISHI

Shohsanam Abduraimova,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU,
2-kurs magistranti

Badiiy matn tuzilishi, o‘ziga xos ifoda uslubi, ekspressivlikni ifodalashi bilan boshqa matn turlaridan ajralib turadi. “Til tasarrufidagi mukammal, murakkab va mustaqil birlik, shubhasiz, matndir” [3; 5-b.] Til bir paytning o‘zida bir necha vazifani bajaradi hamda o‘zining bu vazifalarini o‘ziga xos shakllarda namoyon etadi. Tilning aloqa aralashuv vositasi ekanligi ma’lum. Bundan tashqari u ta’sir ko‘rsatish vazifasini ham bajaradi. “Badiiy matn har qanday nobadiiy matndan farqli o‘laroq alohida vazifani – kommunikativ vazifa bilan murakkab aloqadorlikda namoyon bo‘luvchi va matnning o‘ziga xos qurilishida hal qiluvchi omil hisoblanuvchi estetik vazifani bajaradi” [1; 5-b.]. Tilshunoslarimiz ta’kidlagandaridek, til orqali insoniy his-tuyg‘ular ifodalanadi, tilning boshqarish xususiyatga egaligi o‘quvchining tuyg‘ularini “boshqara olishida” – uning qalbida turli kechinmalar, hissiyotlarni paydo qilishida ko‘rinadi. Xususan, badiiy matn “Insonni ruhan to‘lqinlantirish, yig‘latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o‘yga cho‘mdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o‘rgatish kabi ko‘plab imkoniyatlarni o‘zida mujassam qilgan bo‘ladi” [2; 88-b.].

Badiiy matnga sarlavha tanlash uning muvaffaqiyatli chiqishining asosiy omillaridan biridir. Badiiy asarning sarlavhasi axborot berish, o‘quvchini biror ishga targ‘ib qilish kabi vazifalarni ham bajarishi mumkin. “Matnning yaxlitligini va butunligini ta’minlashda sarlavhaning benihoya muhim o‘rni bor. U matnda alohida kuchli sintaktik pozitsiyada turuvchi, matnning mazmuniy-estetik mohiyatiga ishora qiluvchi o‘ziga xos unsurdir. Sarlavha lingvistik jihatdan matnning nomi bo‘lsa, semiotik nuqtayi nazardan matnning birinchi belgisi maqomida turadi.

S.Krijanovski ta'бири bilan aytganda, sarlavha – bu “shapka emas, bosh” [2; 117-b.]. Asar sarlavhasi birinchi o'rinda kitobxonni asarni o'qishga tayyorlashi, asar haqida, uning mavzusi haqida ma'lumot berishi kerak. Lekin she'riy asarlarda har doim ham sarlavhalar qo'yilmaydi. Uning nima mazmunda ekanligi she'rni o'qish jarayonida, kitobxonning shaxsiy qarashlaridan, ijodkorning nima demoqchi ekanligini to'g'ri ilg'ay olganligidan kelib chiqadi, yani she'riy matndagi makropozitsiyani anglab oladi. Matnning antroposentrik tadqiqi bilan shug'ullangan D.Xudoyberganova makropozitsiya haqida so'z yuritar ekan, “pragmatik jihatdan makropozitsiya matn muallifining matn orqali aytmoqchi bo'lgan eng muhim fikri, o'quvchi nuqtayi nazaridan qaraganda esa uning matn mazmunidan kelib chiqib hosil qilgan yakuniy xulosasidir” [4; 39-b.] deydi. Sarlavhada esa o'quvchi asarni hali o'qib bo'lmasidan oldin paydo bo'ladigan tasavvur ifodalangan bo'ladi. O'quvchi paydo bo'lgan tasavvurining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini asarni o'qish jarayonida anglab yetadi.

Badiiy matnlardagi sarlavhalar o'ziga xos ifoda uslubiga ega. O'zbek she'riyatining o'ziga xos uslubga ega vakillaridan biri Faxriyor she'rlariga e'tibor qaratsak. Faxriyor she'rlarida deyarli sarlavha uchramaydi, uchraganlari ham o'ziga xos, ohorli va kutilmagandir. Uning “Izlam” nomli she'riy to'plamida “Geometrik bahor” sarlavhali she'r bor. She'rning sarlavhasiyoq kitobxon diqqatini o'ziga jalb qiladi, aytish mumkinki, publisistik maqolalar sarlavhalaridagidek reklama rolini bajaradi. Sarlavha osti izohi ham keltirilgan bo'lib, *shakl simfoniyasi* degan yozuv bir muncha tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Sarlavhada bir-biri bilan birika olmaydigan tushunchaning yonma-yon kelishi ham o'ziga xoslikni ta'minlagan. Sarlavhadan kitobxon *bahor ham geometrik shaklga ega bo'lishi mumkin* degan implisit ma'noni anglashi mumkin. Yoki shu to'plamda keltirilgan “uyatchan ko'klam” sarlavhali she'r sarlavhasidan *bahor ham uyatchan bo'lishi mumkin* degan yashirin ma'no ifodalanganligini ko'rishimiz mumkin.

O'.Hoshimovning “Bahor qaytmaydi” qissasi sarlavhasini o'qigan kitobxon birinchi o'rinda vaqtdan unumli foydalaning degan ma'noni anglashi mumkin, ammo qissani o'qish jarayonida Alimardon uchun shon-shuhratga to'la bo'lgan davrni yozuvchi umrning bahori deb nomlashini, bunday damlar qaytmasligini, inson bundan to'g'ri xulosa chiqarishi lozimligini angelaydi. Ch.Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romanining sarlavhasi ham implisit axborot ifodalaydi. Bir qarashda bir kun asrga teng kelishi mumkin degan axborot anglashilsa, asarni o'qigan kitobxon

yozuvchining mahorati bilan yuz yilda sodir bo‘lgan voqealar bir kunlik safar orqali mohirlik bilan tasvirlab berilganligiga guvoh bo‘lishi mumkin.

Badiiy matnda ko‘p hollarda sarlavha sifatida xalq maqollari ham keltirilishi mumkin. Bunday sarlavhalarda yashirin ma‘noni to‘g‘ri anglashlari uchun til egalarining shu maqol mazmunidan xabardorligi qo‘l keladi. Agar kitobxon shu maqoldan xabardor bo‘lmasa yoki uning mazmunini to‘la anglab yetmasa, asar sarlavhasidagi yashirin ma‘noni ham to‘la anglay olmaydi. Yozuvchining ko‘zlagan maqsadi asarni oxirigacha o‘qib bo‘lishigacha yashirin qoladi. Masalan, Shuhratning “Oltin zanglamas” romani *asal aynimas, oltin zanglamas* maqolining ikkinchi qismi bilan nomlangan bo‘lib, kitobxon sarlavhani ilk o‘qiganda oltin so‘zidagi ko‘chma ma‘noni ilg‘ay olmasligi mumkin. Ammo asarni o‘qish jarayonida boshiga og‘ir ish tushganida ham o‘zligidan, odamgarchiligidan kechmagan haqiqiy insonlarning oltinga teng ekanligini anglab oladilar. O‘.Hoshimovning “Ikki karra ikki besh” asari sarlavhasidan esa, har doim ham hisob to‘g‘ri chiqavermasligiga ishora bor. T. Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarining sarlavhasi birinchi o‘qishda qahramonning otasi ham dehqon bo‘lganligiga ishorani beradi. Lekin asar mazmunidan dehqonning bolasi dehqon bo‘lishi shart emas degan yashirin ma‘no ham anglashiladi. E.A‘zamning “Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati” qissasi sarlavhasidagi ma‘noni anglash uchun kitobxon “Chalpak yoqqan kun” ertagining mazmunidan xabardor bo‘lishi kerak. Ertakda osmondan chalpak yog‘ishi qanchalik yo‘lg‘on ekanligi anglashilsa, qissadagi voqealarning, ya‘ni kommunizmga erishish orzusining ham shunchalik yolg‘on ekanligiga ishorani anglashlari mumkin.

Umuman, badiiy matn sarlavhasi implitsitlikni o‘ziga xos tarzda ifoda qiladi. Har qanday sarlavhada mantiqiy prezuppozitsiya ifodalangan bo‘lib, uni anglash uchun kitobxon til egalari ongida saqlanadigan bilimlardan xabardor bo‘lishi, kontekstdagi til birliklarining o‘rni va ahamiyatini to‘g‘ri anglay olishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Т.: Фан, 2007. – 124 б.
2. Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Т.: Фан, 2008. – 160 б.
3. Маҳмудов Н. Матн ва тил тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. 2017. 4-сон. – Б. 3–13.
4. Худойберганова Д. Матннинг антропоцентриқ тадқиқи. – Т.: Фан, 2013. – 136 б.

KOMMUNIKATIV AKT VA MULOQOT JARAYONI

Gulchiroy Muhiddinova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 2-bosqich magistri

Salomlashmoq kishilar o‘rtasidagi “Assalomu alaykum”, “Vaalaykum assalom” tarzida bo‘lib o‘tadigan shunchaki dialogik jarayon bo‘libgina qolmay, balki asrlar davomida tarkib topgan, kishilarning o‘zaro aloqalaridagi tamoyillarni ifodalaydigan muloqotning eng birinchi va muhim bosqichlaridan biridir. Arablarda tinchlik, osoyishtalik, salomatlik doimo birinchi o‘rinda turgan va keyinchalik ular “assalomu alaykum” so‘zini qabul qilib, bir-birini ko‘rganda “sizga salomatlik, tinchlik tilayman” ma‘nolarini anglatadigan mana shu jumla orqali muloqotga kirishishgan. Islom diniga e‘tiqod qiladigan o‘zbeklar ham xuddi shu tarzda salomlashadilar. Ba‘zida salomlashish so‘zi bilan ko‘z-ko‘zga tushish ma‘nosini anglatuvchi ko‘rishish so‘zi ham yonma-yon ishlatiladi. Ko‘rishish aynan samimiy qo‘l siqishni anglatadi. O‘zbeklarda salomlashish va ko‘rishishni 20 dan ortiq turi mavjud va ularning ba‘zilari uch, to‘rt, besh xil shaklda amalga oshishi mumkin [1; 165-b.].

Dunyo xalqlarining deyarli barchasida salomlashish va ko‘rishishda jinsiy farqlanishlar kuzatiladi. O‘zbeklarda ham erkak va ayollar salomlashish va ko‘rishishlarda qator farqlar mavjud. Tilshunos X.Doniyorovning fikricha, buning bir jihati musulmon xalqlarining muqaddas kitobi bo‘lgan Qur‘on ayollarning erkaklar bilan to‘liq shaklda salomlashishga ruxsat etilmaganligiga borib taqaladi. Shu sababdan Samarqand shahri atrofidagi ayollar erkaklarga umumiy salomlashishning qisqargan shaklda “assalom” deb salom bergan. Xuddi shu sababga ko‘ra qipchoq dialektlarining vakillari bo‘lgan ayollar erkaklar bilan “keling” deb salomlashgan. Hozir salomlashishning bu formasi ayol tomonidagina emas, erkaklar tomonidan ham tez-tez ishlatiladi. Ayollarning erkaklar bilan turli qisqargan shakllar orqali salomlashish holati hozir ham ko‘plab kuzatish mumkin. Shuning uchun ham yosh yoki o‘rta yoshdagi erkaklar va ayollar salomlashishganda qaysidir biri “*assalomu alaykum*” desa, ikkinchisi “*vaalaykum assalom*” ni o‘rniga “*yaxshimisiz*” deb qo‘yadi. Qo‘lni ko‘krakka qo‘yib salomlashish o‘zbeklarning noverbal nutqiy odatlari hisoblanadi va bu, ayniqsa, ayollarga nisbatan erkaklar o‘rtasida keng tarqalgan. Odam yaqin qadr don bo‘lgan kishisini uchratganda yuragi “jiz” etib ketadi. O‘ng qo‘lini chap ko‘krakiga, ya‘ni yurak ustiga qo‘yib

salomlashish ana shundan kelib chiqqan ekan. Bu “chin yurakdan” degan ma’noni anglatadi. Salomlashishning bu shakli besh xil vaziyatda:

- a) ko‘cha-ko‘yda tanish-bilishni uchratganda;
- b) hurmatli odamni ko‘rganda;
- d) tanish bo‘lmasa ham keksa odam yonidan o‘tganda;
- e) ko‘pchilik o‘tirgan joyga kirganda;
- f) qo‘l berib ko‘rishish mumkin bo‘lmagan boshqa hollarda.

Bundan tashqari, yana o‘zbeklar odatiga ko‘ra, ayollarning erkaklar yelkasiga qoqib qo‘yishi, keksa ayollarning yosh erkaklarning peshonasidan o‘pib qo‘yishi yoki silab qo‘yishi, ba‘zi qariyalar yoshlarning yelkalariga erkalaganday urib qo‘yishlari kabi salomlashish shakllari mavjud. O‘zbeklarning odob doirasidagi bunday sharqona ko‘rishishlari Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanida qaynotakelinning ilk ko‘rishishlari tasvirida real aks etgan: “Kumush uyalib zo‘rg‘agina salom berdi va Yusufbek Hojining yaqiniga kelib bo‘yin egdi. Hoji qo‘li bilan Kumushning yelkasiga qoqib qo‘ydi va qo‘lini Kumushning manglayiga tegizib o‘z qo‘lini o‘pdi...” [2; 251-b.].

Nutqiy jarayonda mulozamat qilish xususiyati ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Mulozamat suhbatning jonli, chiroyli chiqishini ta‘minlash – suhbatdoshlar ko‘nglini olish maqsadida qo‘llanadi. Shu sababdan ham unda mazmundan ko‘ra shakl ustunlik qiladi. Suhbatdoshlar sog‘lig‘ini so‘rash, o‘zining, oila a‘zolarining ishlari, tinchligi bilan qiziqish sport, ob-havo kabilar mulozamat qilishning asosiy mavzulari hisoblanadi. Bu mavzularning qaysi biriga murojaat qilish millat, hudud, jins, yosh va boshqa sotsial jihatlar bilan bog‘liq. Mulozamat, ayniqsa, Sharq xalqlarining deyarli hammasi uchun xos, yevropaliklar, jumladan, ingliz va nemislar tanishlari bilan uchrashib qolishsa, faqat shlyapasini ko‘tarib qo‘yadi, xolos va tezda xayrlashishadi. “Mulozamat yuzasidan uyga taklif qilish ba‘zi bir xalqlarda haddan ziyod kuchli bo‘lsa, ayrim millat kishilari uchun mutlaqo xos emas” [3].

Mulozamat qilishga xos bo‘lgan “*Ishlar qalay?*” tarzidagi savol bilan murojaat qilish dunyo xalqlarining deyarli hammasida uchraydi. Bu xildagi savollarga beriladigan javoblar ham bir-biriga o‘xshab ketadi. Aynan o‘zbek nutq odatlarida javoblar kommunikantlarning sotsial va individual xususiyatlari bilan bog‘liq holda rang-barang va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ya‘ni

o‘smirlarda: “yaxshi”, “zo‘r”, “nishtyak”;

yoshlarda : “joyida”, “mixdey”, “a‘lo”;

o‘rta yoshlilar: “durust”, “yomon emas”, “sekin”, “sekin-sekin”;

keksa yoshdagilar: “xudoga shukr”, “Alhamdulillah, xudoga shukr”, “tuproqdan tashqarida yuribmiz” tarzidagi javoblarni beradilar.

Ba‘zi hududlarimizda, masalan, O‘zbekistonning Surxondaryo, ayniqsa, Xorazm viloyatlarida, hatto, mehmonga ham ortiqcha mulozamat ko‘rsatish unchalik urf emas. Bu narsa dasturxonga keltirilgan nonni ushatib qo‘ymaslik (sindirmaslik), noz-ne‘matlardan olish, yeb-o‘tirishga ortiqcha qistamaslik odatlaridan ham bilinib turadi.

Mulozamat qilish, ayniqsa, ayollar nutqiy odatlarida o‘ziga xos usulda namoyon bo‘ladi. Ya‘ni aksariyat o‘zbek ayollari erkaklarga qaraganda mulozamat qilishga usta bo‘ladi. *“Xotamova mehmonlarni xotinlarga xos mulozamat va shirinso‘zlik bilan kabinetga taklif qildi”*. (A. Qahhor). Ayollarning mulozamat mavzulari ham erkaklarnikidan farqlanadi. Ko‘pchilik ayollar suhbatdoshlaridan hol-ahvol so‘rayotgan paytlarida o‘zlarini ularga yaqin ko‘rsatishlari uchun: *“Eson-omon yuribsizmi? Bolalarim... O‘g‘il-qizlarim yaxshi yurishibdimi?”* kabi jummalarni qo‘llashadi. Bulardan ma‘lum bo‘ladiki, o‘zbek ayollari *“Ko‘ngilni qo‘ling bilan ovlamasang, tiling bilan ovla”* maqoliga amal qilishga intiladilar. Mulozamat qilish faqat verbal (lisoniy) usullarda emas, balki noverbal (nolisoniy) usullarda ham o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi: *“Hurmat ko‘rsatardi tabassum bilan”* (Abdulla Oripov). Birgina mana shu satrdan ham ko‘rinib turibdiki, tabiiy va samimiy tabassum orqali ham kishilar bir-birlariga iltifot, hurmat ko‘rsatishlari mumkin. Nutq vaziyatida indamay, oraga jimlik tushgan payt ham o‘ziga xos munosabatni ifodalaydi. Bunda suhbatdoshlardan birining iymonib, biror fikrni aytishga xijolat bo‘lib turishi natijasida sekingina yo‘talib yoki tomoq qirib qo‘yishi ma‘lum ma‘no uchun xizmat qiladi. *“U ochiq gapira olmayotganimni sezdi chog‘i tomoq qirib qo‘ydi”*(T. Jo‘rayev). Bularning hammasi o‘zbeklarning nutqiy jarayonlarida inson ko‘nglini asrashga alohida e‘tibor berilishini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov K. Mehmonnoma. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1989.
2. Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar.
3. Oldridj. Dj. Kair. –M., 1970.
4. Мўминов С. Окказионал нуткий номинацияда мотивациянинг роли. Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Т., 1990.
5. Безруких М.Я. и другие я или правила поведения для всех. – М., Издательство политической литературы, 1991. –С. 93.

MATN O‘QISH KO‘NIKMASINING PSIXOLOGIK, PEDAGOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK ASOSI

Feruza Sharopova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti

Matni o‘qish murakkab jarayon bo‘lib, u psixologik, pedagogik va psixofiziologik aspektlarda o‘rganiladi.

Matn o‘qish ko‘nikmasi o‘quv faoliyatining asosiy qismi bo‘lib, u shaxsning psixik jarayonlari shakllanadigan va rivojlanadigan, shu bilan birga uning yangi faoliyatlari yuzaga keladigan jarayondir. Bizga ma’lumki, o‘quv faoliyati insonning butun hayoti davomida namoyon bo‘luvchi uzluksiz jarayondir. Rus psixologi A.N.Leontev inson faoliyatining psixik va amaliy shakllari mavjudligini, bola ongi aynan o‘quv faoliyatida o‘shini ta’kidlaydi. [3; 24-b.] Psixolog D.B.Elkonin esa o‘quv faoliyati xususiyatlarini o‘rganib, uni mohiyatiga, mazmuniga va o‘zini namoyon bo‘lish shakliga ko‘ra ijtimoiylikini ta’kidlaydi.[3; 24-b.]

Ta’lim jarayoni o‘quvchiga nimani va qanday qilib o‘rgatishning oddiy va bir xil natijasi emas, balki sirdan ta’sir qildiriladigan shart-sharoitlarining oqibati hamda o‘quvchining individual-psixologik xususiyatlariga bog‘liq ravishda amalga oshiriladi. O‘qishga ijobiy munosabatda bo‘lish o‘quv materialini to‘la-to‘kis o‘zlashtirishning mutlaqo zarur shartidir. O‘quvchining o‘qishga munosabati uning o‘qishga diqqat qilishida, qiziqishida, qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun iroda kuchini sarflashga tayyor ekanligida ifodalanadi.

Matn o‘qish ko‘nikmasining psixologik asosini o‘rgangan psixologlar o‘quvchini o‘qishga undaydigan motivlar va motivatsiyalashni muhim deb hisoblaydilar. O‘qish faoliyati motivlari deganda, o‘qish jarayonidagi bilimlarni ongli ravishda tushunib, muayyan bilimlarni olishga undaydigan bosh sabab majmuyi ekanligi aytiladi.

Ta’lim olishning asosiy usullaridan biri bo‘lgan o‘qish ko‘nikmasi bir qator psixologik omillarga bog‘liqdir. Bunday omillar avvalida, o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan munosabati turadi. Bu munosabat **diqqat, iroda, his-tuyg‘u, qiziqish, idrok, tafakkur** vashaxsning tutgan yo‘lida namoyon bo‘ladi. Bular o‘z navbatida, o‘quv faoliyatini faollashtiruvchi asosiy turtkilar – **motivlar** bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu motivlar bevosita o‘quvchi shaxsining o‘shini va rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

Ma'lum bir bilish jarayonini amalga oshirish uchun (o'qib tushunish, yozish, eshitish) shaxsdan diqqatli bo'lish talab etiladi. Ta'lim jarayoni maktab yoshidagi o'quvchilarning ixtiyoriy, barqaror, mustahkam, kuchli, faol, ongli diqqatni rivojlantirishga qulay sharoit yaratadi. Bilim olish jarayonida mustaqil aqliy mehnat qilish, misol-masalalar yechish, mashqlar bajarish, takrorlash, irodaviy zo'r berish jarayonida ongli diqqat tarkib topadi.

Diqqat tushunchasiga bir qancha olimlar tomonidan ta'riflar keltirilgan. P.I.Ivanov tomonidan diqqat deb ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir obyektga aktiv qaratilishga aytiladi. Diqqat insonning barcha faoliyatida ishtirok etadi, xoh u sodda bo'lsin, xoh murakkab. K.D.Ushinskiyning ta'biricha, diqqat ruhiy hayotimizning shunday eshigiki, ongimizga kiradigan barcha narsalar faqat shu eshik orqali o'tib kiradi.[4;114-b.] Eshikdan tashqarida qolgan har qanday narsa ongimizga yetib bormaydi. O'quvchi faoliyatida qabul qilinishi kerak bo'lgan ko'plab ma'lumotlar berilishi tabiiy, shu sababli ulardan nafaqat ixtiyorsiz, balki ixtiyoriy va ixtiyoriydan so'nggi diqqat ham talab qilinadi. Ixtiyorsiz diqqat to'satdan ko'ringan yo eshitilgan narsa, ovoz natijasida xohishimizdan tashqari hosil bo'ladigan diqqatdir. O'qish faoliyatida esa asosan ixtiyoriy diqqatda bo'lish talab etiladi, ya'ni unda oldindan belgilangan qat'iy bir maqsad asosida va ongli ravishda diqqatimizni ma'lum bir narsaga qaratishimizga to'g'ri keladi. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatga qaraganda uzoq vaqt mobaynida davom etadigan diqqat turi bo'lib, u zo'r berishlikni, ya'ni irodaviy kuch sarf qilishlikni talab etadi. Biror mashg'ulotga diqqat qilayotgan shaxsning bosh miya yarim sharining ma'lum bir qismida qattiq qo'zg'alish yuzaga keladi, miya yarim sharining qolgan qismlarida esa passiv holat kuzatiladi. Ya'ni ma'lum bir mavzudagi matnni o'qishga kirishayotgan o'quvchi o'qiladigan narsadan boshqa detal, shaxs, voqeaga nisbatan passiv munosabatda bo'lib, unda faqatgina o'qish dominant (yetakchi) faoliyatga aylanadi. O'qilgan narsaning ongda aks etishi esa uning tushunilishiga olib keladi. Shuni aytish lozimki, ixtiyoriy diqqat har doim ixtiyorsiz diqqat bilan almashinib turadi. Ixtiyoriy diqqat vaqtida odam tez charchaydi, chunki bu diqqat odamdan hamma vaqt iroda kuchini sarflashni talab etadi. Iroda kuchini sarflash orqali, ya'ni odam o'zini majbur qilishi orqali diqqatni safarbar qilishi odamni charchatadi. Ixtiyorsiz diqqatda esa majburiylik bo'lmaydi, shu sababli aqliy mehnat jarayonlarida ikkala diqqatning almashinib turishi foydali hisoblanadi. O'quvchining diqqatliliigi yoki diqqat qilmayotganini uning tashqi alomatlaridan bilish mumkin. Yaxshi idrok qilish uchun

urinishlar uning tikilib qarashi, quloq solishi, harakatlarining kamayishi yoki umuman to'xtashi, gapirmasligi, nafas olishining sekinlashishi, ko'zning bir narsa yo o'qituvchiga qaratilgan bo'lishi uning diqqat qilayotganini bildiradi.

O'qishning, umuman aytganda, bilish faoliyatining keyingi psixologik asosi – iroda hisoblanadi. Psixologlar olib borgan tadqiqotlarda, berilgan materiallarning o'zlashtirilishi ko'p jihatdan irodaning tarbiyalanishiga bog'liqligi ko'zga tashlanadi. Irodaviy aktivlik ta'limning zurrur shartidir. Berilgan ma'lumotni o'qib tushunish uchun o'quvchidan qiyinchiliklarni yenga olish, ishdan chalg'itadigan narsalar bilan shug'ullanishdan o'zini tiya olish, o'qishga ishtiyoq tarkib toptirishda namoyon bo'ladigan iroda ta'lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'limda iroda o'quvchida maktab va uyda o'tkaziladigan mashg'ulotlarga tayyor turishda namoyon bo'ladi. O'quv materialiga bo'lgan diqqatning barqaror bo'lishida irodaviy zo'r berishning ahamiyati nihoyatda kattadir. O'quv materialini o'rganish va eslab qolish o'quvchining irodaviy zo'r berishiga bog'liq. Iroda o'quvchilarning fikrlash faoliyatlarida - masalani yechishga, qo'yilgan savolga javob topishga va hokazolarga intilishida namoyon bo'ladi. Ular o'quvchilarda ko'nikma va malakalarni hosil qilishda ham tarkib topadi.

“Nima sababdan hamma o'quvchilar o'qish ko'nikmasini turlicha egallaydilar, ba'zilar tez va qoniqarli, ba'zilar esa juda yomon?” degan savol tug'ilishi tabiiy. Gap shundaki, kishining *qiziqishi* xotiraga aniq va kuchli ta'sir ko'rsatadi, ya'ni yaxshi esda olib qolishni ta'minlaydi. Psixologiyada qiziqish, bu shaxsning o'zi uchun qimmatli yoki yoqimli bo'lgan muayyan narsa yoki hodisalarga nisbatan ijobiy munosabatida ko'rinadi. O'quvchilarga taqdim etilayotgan ma'lumotlar, matn yoki jadvallarning tushunarli bo'lishi uning, avvalo, o'quvchi uchun qiziq va yangiligiga bog'liq.

O'qish malakasining pedagogik asosini o'rgangan olimlardan biri ruhshunos olim T.G.Yegorov o'zining “Очерки психологии обучения детей чтению” [5;18-b.] nomli asarida o'qish malakalarini shakllantirish jarayonini uch bosqichga ajratadi: analitik bosqich, sintetik bosqich va avtomatlashgan bosqich. Analitik bosqich savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi, bunda so'zni bo'g'in-harf tomonidan tahlil qilish va bo'g'inlab o'qish malakasi shakllantiriladi. Sintetik bosqich uchun so'zni sidiq'ga o'qish xarakterlidir; bunda so'zni ko'rish orqali idrok qilish va uning talaffuzi so'z ma'nosini anglash bilan asosan mos keladi. O'qish so'z ma'nosini idrok qilish bilan amalga oshadi. O'quvchilar sintetik bosqichga 3-sinfda o'tadilar. Bundan keyingi yillarda o'qish avtomatlasha boradi.

O‘qish va yozish murakkab jarayon hisoblanadi. Katta yoshdagi tajribali kitobxon bu murakkab jarayonni sezmaydi, chunki unda o‘qish va yozish avtomatlashgan bo‘ladi. Ammo o‘qish va yozishga endigina o‘rganayotgan bola barcha elementar harakatlarni yaxlit bir harakatga aylantira olmaydi, bola uchun har bir element mustaqil harakat, ba‘zan juda qiyin, irodani, aqlnigina emas, balki jismoniy harakatni ham talab qiladi.

O‘qish va yozish bir necha harakat elementlaridan tuzilganini ko‘z oldiga keltirmasdan bolaga savod o‘rgatib bo‘lmaydi. Savod o‘rgatish uchun so‘z ma’nolarini farqlashga xizmat qiladigan tovushlarni, ya’ni fonemalarni bilish juda muhim.

Tajribali kitobxon har bir harf, hatto so‘zni ko‘rib ham to‘xtamaydi, chunki u bir vaqtda 2-3 so‘zni (hatto butun bir qatorni) ko‘radi. To‘xtashi bilan matn mazmunini tushuna boradi. To‘xtash soni kitobxonning tajribasigagina emas, balki matnning oson-qiyinligiga ham bog‘liq.

To‘g‘ri tashkil etilgan o‘quv jarayoni – kichik maktab yoshidagi o‘quvchida bilim egallashga yo‘nalganlik motivlari tarkib topishining asosiy sharti hisoblanadi [6;119-b.]. Negaki, o‘qish ishtiyoqi, muvaffaqiyatga erishish, bolaning o‘qituvchiga bo‘lgan ijobiy munosabati jarayonni samarali bo‘lishini ta’minlaydi, ongli o‘qishga yo‘naltiradi.

Endigina o‘qishni o‘rganayotgan bolaning o‘qish jarayoni nimalar bilan farqlanadi?

1. Bola o‘qish jarayonida bir harfnigina ko‘radi, uni “bilish” uchun ba‘zan boshqa harflarga qiyoslaydi; harfni ko‘rish bilan uni ovoz chiqarib o‘qigisi keladi, ammo o‘qituvchi undan bo‘g‘inni yaxlit o‘qishni talab qiladi, shundan keyin oldingi harfni yodda tutib, yana kamida bir harfni o‘qishga to‘g‘ri keladi. Bunda ko‘pchilik bola ma’lum qiyinchilikka duch keladi. So‘zni o‘qish uchun undagi tovushlarni aytishning o‘zi yetarli emas, harakat bir harfni idrok qilish va bilish aktini bajarish, bundan tashqari, tovushlardan bo‘g‘in, bo‘g‘indan so‘z hosil qilish lozim, shuning uchun o‘qish jarayoni sust boradi. Bizga ma’lumki, o‘qishni ikki holatda o‘qish mumkin: ovoz chiqarib va ovoz chiqarmagan holda (ichida, pichirlab). Ovoz chiqarib o‘qish bilim olishning samaradorligini oshiradi. Chunki, ko‘z bilan ko‘rilayotgan grafema(harf)ning tovush tomoni(fonema) bilan o‘rganilishi bosh miya tomonidan qabul qilishni tezlashtiradi va o‘z navbatida eshitish organlarining ham faolligini ta’minlab, uzoq vaqt davomida yodda saqlab qolishga yordam beradi.

2. Endi o‘qishni o‘rganayotgan bola ko‘pincha qatorni yo‘qotib qo‘yadi, shunda harfni, bo‘g‘inni qayta o‘qishiga to‘g‘ri keladi. Uning

ko'zi hali qator bilan parallel yurishga o'rganmagan bo'ladi. Bu qiyinchilik o'quvchining diqqat doirasi kengaygan sari yo'qola boradi va u asta-sekin bo'g'in yoki so'zni butunicha idrok eta boshlaydi.

3. O'qishni o'rganayotgan bola har vaqt ham o'qigan matnning mazmunini yengil o'zlashtiravermaydi, chunki o'qishning texnik tomoniga, har bir harakat elementiga, shuningdek, so'zni qanday o'qish va talaffuz qilishga katta e'tibor qiladi. So'z ma'nosini tushunish so'zni o'qishdan ajralib qoladi, so'z ma'nosi o'qish bilan bir vaqtda emas, balki undan keyin o'zlashtiriladi. Maktab ongli o'qishga katta ahamiyat beradi. Rasmlar, savollar va o'qituvchining tushuntirishi, ko'rgazma-qo'llanmalar ongli o'qishni ta'minlaydi; ovoz bilan o'qish ham o'qishning ongli bo'lishiga yordam beradi.

Alifbe davrining boshlanishidayoq o'qishning to'liq ongli bo'lishi juda ham muhimdir. O'qilgan matnni o'quvchilar tushungan-tushunmagani savollar yordamida, shuningdek, suhbat o'qitishdan oldin o'tkaziladigan tayyorlov suhbat yoki o'qilganlar yuzasidan o'tkaziladigan suhbat orqali ham tekshiriladi. Mumkin bo'lgan o'rinda "muammoli vaziyat"ni hosil qilish mashqi; bunday vaziyatni hosil qilishda alifbedan, yo harakat terish kartonidan, yoki sirli matodan o'qib, javobini topish talab etiladigan topishmoqdan foydalaniladi, yoki taxminiy suhbat o'tkaziladi. Buning uchun "qaysi gul suv ustida ochiladi? O'qib bilamiz!" kabi savol-topishiriqdan foydalaniladi. (Bolalar harf terish kartonidan "nilufar" so'zini o'qiydilar.) Bunday vaziyat o'qishning ongli bo'lishini ta'minlaydi, o'quvchilar tushunib o'qiydilar, o'qishga qiziqadilar.

Matnni to'g'ri o'qish pedagogik asoslarini egallashning muhim shartlari quyidagilardan iborat:

1. Nutq jarayonida nafasni to'g'ri olish va to'g'ri taqsimlay bilish.
2. Har bir tovushning to'g'ri artikulatsiyasi va aniq diksiya (burro gapirish) malakasini egallash.
3. Talaffuz me'yorlarini egallash. Bu shartlar faqat ifodali o'qishgagina emas, balki ifodali nutqqa, ya'ni hikoya qilishga ham taaluqlidir. Ifodali o'qishning asosiy vositalaridan biri ovozdir. Ovoz nafas bilan uzviy bog'lanadi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarning ifodali nutqi ustida ishlashni talaffuz qilayotganda o'z nafasini boshqara olish va ovozdan to'g'ri foydalanishga o'rgatishdan boshlaydi. Ovoz kuchi baland-pastlik, uzun-qisqalik, tezlik (temp), yoqimli-yoqimsizlik xususiyatlari bilan xarakterlanadi. O'quvchilar matn mazmuniga qarab, baland yoki past ovozda o'qish (gapirish)ga, nutqda tez, o'rtacha yoki sekin tempni

tanlashga, biror tuyg‘uni ifodalashga o‘rganadilar. Ifodali o‘qishni o‘rgatishda o‘quvchilar pauza va logik urg‘u bilan ham tanishtiriladi.

O‘qish murakkab nutqiy psixofiziologik faoliyat hisoblanadi. Bu jarayonlar kichik yoshdagi o‘quvchidan birinchi navbatda sog‘lom ko‘rish qobiliyati, diqqat, iroda, aql, hatto jismoniy harakatni ham talab qiladi. O‘qishni o‘rganayotgan shaxs xoh u yosh bola bo‘lsin, xoh katta odam, o‘qish paytida bitta harfni ko‘radi va bor diqqatini uning shakliga qaratadi, ya’ni bunda o‘quvchining ko‘rish a’zosi bo‘lgan ko‘zi asosiy vazifani bajaradi. Ko‘z soqqasining harakatlanishi, ko‘rish qobiliyati bosh miya qismidagi o‘rta miyaning tepasida joylashgan oraliq miya funksiyasi orqali boshqariladi. Oraliq miya bosh miya yarim sharlari bilan qoplangan bo‘lib, u yerda ko‘rish do‘mboqlari (talamus) joylashgan [7; 78-b.]. Ko‘rish do‘mbog‘i – tuxumsimon shakldagi bir juft kulrang modda bo‘lib (nerv hujayralari to‘plami), unda barcha sezgi a’zolari orqali seziladigan ta’sirlar (ko‘rish, eshitish, ta’m bilish, og‘riqni sezish) oldin ko‘rish do‘mbog‘i orqali qabul qilinib, keyin bosh miya yarim sharlari markazlariga o‘tkaziladi. Demak, ko‘rish funksiyasi miya po‘stlog‘ining ensa qismida joylashgan. Agar shaxsning mana shu bosh miya qismlari shikastlansa, yuqorida sanab o‘tilgan sezgi a’zolarining faoliyati buziladi va insonning bilish faoliyatiga ham putur yetadi. Bizga o‘qishning psixologik asosi qismidan ma’lumki, ko‘z tomonidan ko‘rilgan narsaning nima ekanligini anglash bosh miya yarim sharlari neyronlarining ta’sirlanishidan hosil bo‘ladigan qo‘zg‘alish (ong) tufayli anglanadi. Anglangan harf, bo‘g‘in, so‘zni o‘qish (ovoz chiqarib, ichida o‘qish) esa o‘z navbatida ularni tovushlarga aylantirishni talab qiladi.

Sog‘lom bola harfning tashqi ko‘rinishi bilan birga uning tovushini o‘rgatayotgan o‘qituvchining ovozigacha e’tibor beradi, rasm bilan birga berilgan bo‘lsa, uni eslash uchun rasmlarni ko‘z oldiga keltiradi, rasmlarni yoki boshqa harflarni eslaydi, esga tushirgach, uni aytishga harakat qiladi. O‘quvchi ikkinchi harfni eslab olguncha, birinchisi esdan chiqib qoladi yoki ularni qo‘shib bo‘g‘in, bo‘g‘indan so‘z hosil qilguncha, o‘qish jarayoni sustlashadi, lekin fiziologik jihatdan sog‘lom shaxsda bu qiyinchiliklar o‘tib ketadi va o‘qish malakasi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cheryl J.Gowie “Psycholinguistic strategies for improving reading comprehension”, The elementary school Journal, Volume 79, number 2. Dec. 2015.
2. Umarov B.M. Psixologiya. Darslik. – Toshkent: Voris, 2012.
3. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2002.

4. Abdullayeva Q. Savod o'rgatish. – Toshkent, 1983.
5. Jo'rayev N.S. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qish motivlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari. Ped.f.n.diss... – Toshkent, 2009.
6. Sodiqov B. va b. Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2009.

FIKRNI OG'ZAKI BAYON QILISH KO'NIKMASINING PSIXOLOGIK ASOSI

Qobiljon Abdurasulov, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU magistranti

O'quvchilar nutqini o'stirish ularga o'z xalqi adabiy tilini o'rgatish demakdir. Ularni adabiy til talaffuz me'yorlarida so'zlashga odatlantira borish nutq o'stirishning asosiy maqsadi sanaladi. O'quvchilarning so'z boyligini oshira borish, adabiy til me'yorlarini egallatish, o'quvchi uchun yangi bo'lgan har bir so'zning talaffuzini o'rgatish, fikrni og'zaki va yozma holda tinglovchi (o'zga)ga yetkaza olish malakalarini hosil qilish bu kursning vazifasi sanaladi.

O'quvchilarning nutqini o'stirish ishi ularning birinchi sinfga borishidan boshlanadi. Nutqni shakllantirish va rivojlantirish uchun grammatikaning hamma bo'limlarida ishlash yaxshi samara beradi. Natijada nutqiy ko'nikmalar shakllana boradi. Nutqiy ko'nikmalarga nutqning ixcham, sodda, ravon bo'lishi kiradi: o'quvchilarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish so'z boyligini oshirish ishlari birinchi darajali vazifa qilib qo'yiladi.

O'quvchilar nutqini o'stirishda o'qituvchi nutqining ta'siri kuchli bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchi o'z nutqiga katta e'tibor qaratishi zarur. Nutq madaniyati sintaksis bilan bevosita aloqador. Chunki gapda so'zlarning joylash tartibi, gap ohangi, gap umumiy mazmunining yuzaga chiqishiga xizmat qiladi. Bu kabi qonun-qoidalar sintaktik tushunchalar asosida o'quvchilarga singdira boriladi. Bunday ko'nikmalarni hosil qilish uchun ko'proq mashq qilish kerak. Fikrni tinglovchiga yetkazishda uzundan uzoq jumlar tuzish, o'rinsiz qaytariqlar salbiy ta'sir qiladi.

Lug'at ustida ishlash va nutq o'stirish. Lug'at ustida ishlash: o'quvchilarni ona tilining lug'at boyligi bilan tanishtirish, lug'at sostavidagi so'zlardan nutqda to'g'ri foydalanish, o'quvchilarni yangi so'zlar bilan tanishtira borish, adabiy tilga xos bo'lmagan so'zlarni tugata

berish kabi maqsadlarni nazarda tutadi. Lugʻat ustida ishlash, birinchidan, taʼlim-tarbiyaviy taʼsir koʻrsatib, oʻquvchilarning fikr doirasini kengaytiradi, ikkinchidan, oʻquvchilarni yangi soʻzlar bilan tanishtiradi, uchinchidan ona tili darslarida grammatik, orfografik, punktuatsion qoidalar ustida ish olib borilar ekan, lugʻat ustida ishlashni ham unutmazlik kerak. [3; 77-b.] Chunki oʻquvchilar maktabga kelgan kundan boshlab, uni bitirib ketgunga qadar lugʻat ustida ishlashi lozim. Nutq madaniyati ustida izchil va samarali ishlashning muhim shartlaridan biri oʻzbek mumtoz adabiyoti durdona asarlarini oʻqish, tilini qunt bilan oʻrgana berishdir. Oʻquvchilar nutqini oʻstirishda sinonimlarning ham roli katta. Sinonimiya qatoridagi har bir soʻzning qoʻllanish oʻrni mavjudligi oʻquvchilarga tushuntirilishi zarur. Bunda oʻquvchilarga sinonimlar bilan omonimlarni taqqoslab misollar toptirish yaxshi natija beradi: bir oʻquvchidan **yuz** soʻzining sinonimlarini topish soʻralsa, boshqa oʻquvchiga shu soʻzning omonimlarini topish topshiriladi. [1; 45-b.]

Nutq madaniyati sintaksis bilan bevosita aloqador. Chunki gapda soʻzlarning joylash tartibi, gap ohangi, gap umumiy mazmunining yuzaga chiqishiga xizmat qiladi. Bu kabi qonun-qoidalar sintaktik tushunchalar asosida oʻquvchilarga singdira boriladi. Bunday koʻnikmalarni hosil qilish uchun koʻproq mashq qilish kerak.

Narsa-predmet, shaxs nomlarini qayta nomshni oʻrgatish orqali oʻquvchilar nutqida boʻlgan ayrim nuqsonlan bartaraf etiladi. Ayrim oʻquvchilar nutqida baʼzi til unsurlarining notoʻgʻri qoʻllanilishi barham topadi: ota oʻrnida –paxan, papasha, papa; onaga nisbatan ena, biyi, aja, aya, mamasha kabi qoʻllanish holatlari uchraydiki, bu tilimizning sofliqiga, ifodaliligiga putur yetkazadi. Uning oʻrniga padari buzrukvor, validai muhtarama, birikuvlaridan foydalanishni oʻrgatish maqsadga muvofiq boʻladi. Perifrazadan foydalanish orqali **soʻz boyligini oshirish**, sinonimik qatorlarni kengaytirish mumkin: *oq oltin, fasllar kelinchagi, tun qushi, ekinning qoni, tinchlik posboni, qora oltin, tinchlik elchisi, oltin fasl* kabi. [2; 3-b.]

Mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish mumkin: gʻazal mulkning sultoni (Navoiy), baxt va shodlik kuychisi (H.Olimjon), qizil lolalar mamlakati (Gollandiya), kunchiqar yurt (Yaponiya), Oʻzbekistonning gullar shahri (Namangan), oltin vodiy (Fargʻona), zangori olov maskani (Gazli, Buxoro) kabilar orqali shaxs va joy nomlari aynan ifodalanmay, balki mantiqiy xulosa chiqariladi. Bu oʻquvchilar tomonidan davom ettirish topshirilishi mumkin.

Maktab o‘quvchilarining nutqini o‘stirishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Ona tili darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda kichik-kichik parchalarni o‘qish, ifodali o‘qish, mazmunini o‘zlashtirish, hikoya qildirish va yozma ish turlari: diktant, bayon va inshodan foydalaniladi. Maktablarda o‘quvchilarning savodxonligini aniqlash uchun tekshiruv diktant, tekshiruv bayon va tekshiruv insho, og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, tafakkurini rivojlantirish uchun dars jarayonida o‘tkaziladigan har xil mashqlar bilan birga, ta’limiy diktantlar, shuningdek, maxsus darslar – ta’limiy bayon va ta’limiy insho darslari ham o‘tkazilib kelinmoqda.

Ma’lumki, nutq tafakkur bilan bog‘liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog‘liq holda o‘stiriladi. Darsda o‘qilgan asarni o‘quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g‘oyasini anglab etishi uchun analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi logik usullar qo‘llanadi. O‘qilgan asarni analiz qilishda har xil ish usullaridan foydalaniladi. Bolalar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytadilar, o‘qituvchi rahbarligida asarning sxematik rejasini tuzadilar (tugun, kulminatsiya, yechim). Masalan, bolalar O‘.Usmonovning “Chumchuq bola” hikoyasida qatnashuvchi shaxslar sifatida Boboxonni, chumchuq bolani, Tal’atni aytadilar; “Laqma it” ertagida qatnashuvchilarni: laqma it, echki, mushuk, xo‘roz, olaqashqani aytadi. Qatnashuvchi shaxslarni o‘quvchilar har xil tartibda aytishlari mumkin. Ammo, o‘qituvchi ularni asarda qatnashgan tartibda aytishni so‘raydi. Natijada o‘qituvchi rahbarligida hikoyaning jadvali tuziladi. O‘qituvchi bergan savoli yordamida bolalar Boboxon chumchuq bolani bug‘doyzordan tutib olgani, uni qiynagani, ko‘chada o‘rtog‘i Tal’atni ko‘rib qolgani, Boboxonning ishidan Tal’atning xafa bo‘lgani, chumchuq bolani qizil qalam va o‘chirg‘ichga almashib olgani va uchirib yuborgani (qutqargani), Boboxon esa uyalganidan dovdirab qolganini aytib beradilar. Hikoyaning mazmuni shunday aniqlanadi. Shunday qilib, hikoya mazmuni bilan birinchi tanishish o‘quvchilardan ongli ishlashni, ya’ni voqealarni, qatnashuvchilar sostav (tarkibi)ini analiz qilishni talab qiladi. O‘qish bilan bog‘liq holda bajariladigan bunday logik ishlar asta-sekin murakkablasha boradi. [4; 63-b.]

O‘qilgan asar mazmunini izchil ravishda qayta hikoyalash uning rejasini tuzishga yordam beradi. Reja tuzishda o‘quvchi hikoyani tarkibiy qismlarga bo‘ladi va har qaysi qismdagi asosiy fikrni aniqlaydi. Bularning hammasi analitik ish hisoblanadi. Keyin sintetik ishga o‘tiladi, ya’ni bolalar hikoya qismlariga sarlavha topadilar. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida reja tuzish jarayonida o‘qilgan hikoyaning har bir qismida

bosh va ikkinchi darajali masala nimalardan iboratligi haqida, qanday qilib fikrni qisqa va aniq ifodalash haqida o'ylaydilar. Sarlavha topish ustida ishlash, o'quvchilar topgan sarlavhani jamoa bo'lib muhokama qilish, reja tuzish jarayonining o'zi bolaning fikrlash qobiliyatini faollashtirishi, unda o'z mulohazasini isbotlash, asoslash odatlarini tarbiyalashi lozim. Asarni o'qish va tahlil qilish jarayonida tuzilgan reja doskaga yozilsa, hikoya mazmunini izchil qayta hikoya qilishga yordam beradi. Reja asosida hikoya qilishning vazifasi mazmunni berilgan izchillikda o'zlashtirishdir. Reja asosida qayta hikoyalash o'qituvchi savoligi javob berishga nisbatan asar mazmunini aytib berishning hiyla mustaqil formasidir. O'qilgan asar mazmunini o'zlashtirish ustida ishlashdagi keyingi bosqich, qisqartirib hikoyalash hisoblanadi. Qisqartirib hikoyalash uchun 2-3 qismga bo'linadigan, bu bo'limlar yaqqol ajralib turadigan, mazmuni sodda asarlar tanlanadi. Qisqartirib hikoyalashga o'rgatish quyidagicha uyushtiriladi: o'qituvchi hikoyaning oldindan belgilab qo'yilgan birinchi qismini o'qiydi va o'quvchilar bilan birgalikda eng muhim, asosiy fikr aniqlanadi. Bunda o'quvchilar ba'zan asardagi so'zlardan foydalanadilar. Bu o'quvchilarga qiyinlik qilsa, bo'limdagi asosiy fikrni o'z so'zlari bilan aytib berishlari mumkin. Keyin o'quvchilar o'qituvchi bilan bu qismni qisqartirib hikoyalashda nimalar haqida gapirmaslik kerakligini, qaysilar ikkinchi darajali yoki kam ahamiyatli fikr ekanini aniqlaydilar. Asarning boshqa qismlari yuzasidan ham shunday ish olib boriladi va o'quvchilar asarni qisqartirib qayta hikoya qiladilar.[4; 63-b.]

Nutq o'stirish mashg'ulotlarida, ayniqsa, bolalarning badiiy asarlarni o'qib, hikoya qilib berishlariga katta ahamiyat beriladi. Badiiy asarlarni qayta hikoya qilib berishga o'rgatish va ularni sahnalashtirish, she'rni yod oldirish o'qituvchiga katta mahorat va mas'uliyat yuklaydi. Muallif tomonidan badiiy asar mazmuni qanchalik yorqin ifodalangan bo'lsa, unda ishtirok etuvchilarning nutqlari (gaplari) bolalarga ifodali, mazmunli yetkazilsa, u bolalarni hayajonlantiradi, his-tuyg'ularining rivojlanishiga, asar qahramonlari bilan bo'ladigan voqealarning uzoq esda saqlanishiga, lug'atining boyishiga hamda nutqining grammatik jihatdan to'g'ri shakllanib borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, fikrni og'zaki bayon qilishda psixologik asos katta ahamiyatga ega. Chunki, o'quvchilarning yoshiga qarab materiallar tanlash, ularning dunyoqarashidan kelib chiqib og'zaki nutq mahoratini shakllantirish muhim sanaladi. Masalan, 5-sinf o'quvchilari uchun soddaroq matnlar tanlanishi va fikrni og'zaki bayon qilish ko'nikmasini badiiy matnlar,

qiziqarli topishmoqlar, turli pedogogik o‘yinlar orqali asta-sekin rivojlantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduraimova.M. Ona tili darslarida o‘quvchilar nutqini ko‘makchili birikmalar bilan boyitish. – T.: O‘qituvchi, 1985.
2. Muhiddinova X. Fe‘l shakllarini o‘rganishda o‘quvchilarni nutqini o‘stirish. Maktabda o‘zbek tili va adabiyot o‘qitishni takomillashtirish masalalari. – Toshkent, 1982.
3. Ravshanov M. Ona tili darslarida sistem-semantik mashqlar bajarish jarayonida o‘quvchilar nutqini o‘stirish. Ta‘lim jarayonida so‘z boyligini oshirishning asosiy omillari. – T.: O‘qituvchi, 1998. – B.76–77.
4. Sayfullayev A.R Ona tili darslarida nutq o‘stirish, 5-sinf ona tili darsligi materialini asosida metodik qo‘llanma. – Toshkent, 1998.
5. G‘ulomov A. Qobilova B. Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari. Metodik qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1995.

TILSHUNOSLIKDA NOM (NEYM) YARATISH USLUBIYATI

Jumanazar O‘rozov, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU magistranti

Tilda nom yaratishning nafaqat lingvistik, balki psixologik, milliy-madaniy mezonlari ham mavjud. Nom lingvistik jihatdan mukammal bo‘lishi bilan birga inson ruhiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmasligi, aksincha, til egalarining milliy-madaniy qarashlari, milliy odob-axloq me‘yorlariga mos bo‘lishi lozim.

Nom ijodiy faoliyat natijasi hisoblanadi. Demak, nom uni yaratgan til egasining ijod mahsulidir. Nom yaratishda tilda yangi ma‘noli birliklar hosil bo‘ladi yoki so‘zga qo‘shimcha ma‘no yuklanadi, ba‘zan mavjud leksik birlik butunlay o‘zga ma‘no, yangi mohiyat kasb etadi [1]. Nom yaratish jarayonida tildagi yangi so‘z hosil qilishning mavjud usullaridan foydalanish bilan birga yangi usullar ham ixtiro qilinadi. Jumladan, *neyming*, ya‘ni nom yaratish amaliyotida ba‘zi brend nomlarining nutq egasi xotirasida beixtiyor tiklangan assotsiatsiyalar orqali xayolan hosil qilinganligi kuzatiladi. Masalan, nom yaratish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi “Soldis” agentligi tomonidan “Good fud” kompaniyasi brendi uchun taqdim etilgan “Vival” nomi mana shu usulda hosil bo‘lgan. Manbalarda bu nomning XVIII asr fransuz saroyida rasm bo‘lgan

salomlashuvni bildiruvchi “vivat” so‘zi asosida yuzaga kelganligi qayd etiladi [2].

Bugungi kunda aksariyat tadbirkorlar professional darajadagi “neyming” (inglizchadagi “nomlash” degan so‘zdan olingan) xizmati – savdo markasi uchun kommersiya jihatidan samarali bo‘lgan nomni ishlab chiqish xizmati uchun yaxshi haq to‘lashga tayyor. Lekin “neyming” bo‘yicha mutaxassis xizmati uchun katta mablag‘ni sarflashdan oldin har jihatdan qulay bo‘lgan nomni mustaqil ravishda topishga urunib ko‘rish ham zarar qilmaydi. Ko‘pincha esa shunday tarzda tavakkal yondoshuv natijasi “brending” bo‘yicha nufuzli mutaxassislar tomonidan ekspertiza qilinganda anchayin muvaffaqiyatli deb topiladi.

Ismlarni yaratishning yana bir mashhur usuli – bu qisqartirish. Ko‘pincha, mualliflarning familiyasi va familiyasi qismlari yoki harflari olinadi va so‘z birikmalarining harflari ham ulanishi mumkin. Shunday qilib, MTS, Lenovo, IBM, HP nomlari bor edi. Tovarlarning nomlari mavjud yoki figurali so‘zlarni ishlatish natijasida paydo bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, Apple, Volkswagen, BlackBerry markalari bor edi. Odatda reklama paytida nom va logotip ma‘lum bir hikoya, afsona, haqiqiy yoki xayoliy bilan bog‘liq. Marketingda ushbu tovar mifologiyasi deyiladi.

1-usul: Toponim (geografik nomlanish) asosida. Biznesingiz qayerda joylashganligi yoki tovaringiz yoxud va uning asosiy tarkibiy qismi kelib chiqqan joy manziliga e‘tibor qarating. Xuddi shunday tarzda yuzaga kelgan mashhur brendlar oz emas: “Рублевский” – go‘shni qayta ishlovchi kombinat, “Essentuki” – mineral suvi, “Клинское” pivosi, “Finlandiya” arog‘i, “Очаковское” kvasi, “Shatura” mebellari, “Winston” sigaretalari, “Nokia” telekommunikatsiya kompaniyasi.

2-usul: Ismlar asosida. Kompaniya yoki mahsulotni inson ismi bilan nomlash bu: eng oddiy “neyming” usulidir. Shu tarzda anchagina mashhur brendlar yuzaga kelgan va muvaffaqiyat qozongan: “Alenka” shokoladi, “Afanasiy” pivosi, “Darya” muzlatilgan yarim tayyor mahsulotlar, “Maksim” erkaklar uchun jurnal, “Liza” ayollar uchun jurnal, “Mercedes” avtoulavi, “Diana” kimyoviy tozalab yuvish xizmatini ko‘rsatuvchi tarmoq. Katta elektr inshootlarini yetkazib beradigan va o‘rnatadigan kompaniya AnRi deb ataladi, u ikki asoschi – Andrey va Rita ismlarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ijodiy, qiziqarli, odatda eshitilmaydi va mantiqiy bo‘ladi.

3-usul: Familiya asosida. Ismlardan tashqari familiyalar ham brendni nomlashda asos qilib olinishi mumkin. Odatda, brendni nomlashda duch kelgan familiyadan emas, balki aynan u yoki bu kompaniyaga asos


solgan insonning familiyasidan foydalaniladi. Masalan, “Ford” avtokonserni, “А.Коркунов” shokolad mahsulotlari, “Бочкарев” pivosi, “Smirnoff” arog‘i, “McDonald's” restoranlar tarmog‘i, “Levi's” jinsidan kiyim-kechaklar, “Brooke Bond” choyi, “Jacuzzi” gidromassaj uskunalari, “Martini” vermuti, “Boeing” samolyotlari, “Parker” ruchkalari, “Adidas” sport liboslari ishlab chiqaruvchisi. Hozirgi vaqtda Rossiyada, ehtimol, asoschi nomi bilan mashhur bo‘lgan eng mashhur brend Tinkoff hisoblanadi. Oleg Tinkoff – afsonaviy odam va o‘zi aytganidek, erkak – bu brend. Ammo haqiqatda uning familiyasi allaqachon Oleg bilan emas, balki shunday nomga ega bo‘lgan kompaniyalar bilan bog‘liq.



4-usul: Tabiat va jonivorlar. Tabiat nafaqat rassomlar va musiqachilarni ilhomlantiradi, balki “neyming” mutaxassislari uchun ham g‘oyalar manbayi hisoblanadi. Shuni alohida qayd etish joizki, ko‘pincha tabiat hodisasi, biron-bir jonivor yoki o‘simlik xususiyatlari biron-bir mahsulot xususiyatini ifodalashi mumkin: “Grad” zalp bilan o‘t ochish reaktiv tizimi, “Sapsan” tezyurar poezdi, “Utkonos” internet-gipermarketi, bo‘lajak onalar va bolalar uchun “Kenguru” saloni, “Jaguar” avtomobillari, “Puma” sport kiyimlari, “Alligator” avtosignalizatsiyalari.



5-usul: Tarix. Insoniyat tarixida iz qoldirgan tarixiy voqealar, yoki tarixda yashab o‘tgan mashhur shaxsning ismi-sharifi bilan nomlangan brendlar ham talaygina. Shuni alohida ta’kidlash joizki, tarixiy mavzudan ayniqsa, restoranlarni nomlashda ko‘proq foydalaniladi. Misol tariqasida, Moskva shahridagi “Godunov”, “Pushkin”, “Graf-Orlov” yoki “Petrov-Vodkin” restoranlarini keltirish mumkin. Biznesning boshqa sohalarida ham “tarixiy neyming” qo‘llangan holatlarni ko‘p uchratish mumkin: “Napoleon” konyagi, “Stepan Razin” pivosi, “Belomorkanal” papiroslari, “Bolshevik” qandolatchilik fabrikasi, “Lincoln” avtobomili, torgovo-proizvodstvennaya gruppа kompaniy “Borodino” savdo-ishlab chiqarish kompaniyalari guruhi.



6-usul: Mifologiya. Brendlar uchun nom tanlashda mutaxassislar mifologiyani qo‘llamagan. Rostini aytganda, dunyodagi turli xalqlarning afsonalari har xil nomlar uchun faqat oltin jundir. Tangrilarning nomlari, xayoliy davlatlarning nomlari, turli xil qahramonlar va antioroerlarning nomlari – ularning barchasi qiziqarli, g‘ayrioddiy, ko‘pchilik taniqli va shuning uchun markalar uchun idealdir. Masalan, Mazda avtomobil konserni zardushtiylik xudosi Axura Mazda nomini oldi va Sprite ichimligi nomi 20-asrning 40-yillarida paydo bo‘ldi. O‘sha paytlarda Coca-Cola reklama kampaniyalari Sprite, kumush sochli elf va shlyapa o‘rniga sharob kiyadigan katta tabassum bilan mashhur edi. Birozdan keyin uning nomi yangi gazlangan ichimlik – “Sprite” nomini oldi. Ukrainada mashhur “Oltin amfora” sharob mavjud. Umuman olganda, agar siz diqqat bilan qarasangiz, unda ko‘plab markalar o‘z nomlarini qadimgi, Misr va Osiyo mifologiyasidan olgan. “Neyming” bo‘yicha mutaxassislar mifologiyadan ham unumli foydalanib kelishmoqda, shu bois mifologik qahramonlar brendlarni nomlashda juda ko‘p asqotadi.

7-usul: Qo‘shma so‘zlar. Ko‘pincha ikkita so‘zdan tuzilgan qo‘shma so‘zlar ham brendlarni nomlashda qo‘llaniladi. Masalan, “Alba-bank” tijorat banki, “Aeroflot” aviakompaniyasi, “Beeline” mobil aloqa operatori, “Volkswagen” avtokonserni, “Aquafresh” tish pastasi, “Sunsilk” sochlarni parvarishlash uchun vositalar liniyasi, “Master Card” kredit kartalari, “Euronews” telekanali, “Newsweek” ijtimoiy-siyosiy haftalik nashri.



8-usul: Qisqartma. Qisqartmalar – bu ismning dastlabki so‘zlaridan hosil bo‘lgan qisqartmalar. Qisqartmalar Sovet Ittifoqida juda tez-tez ishlatilgan va hozir ham ko‘p eshitilmoqda. VAZ, ZAZ, KAMAZ – bu birinchi harflardan kelib chiqqan mashinalarning nomi. Masalan, VAZ – Volga avtozavodi. Shuningdek, “ABBA” musiqiy guruhining nomini uning a‘zolarining nomlarining birinchi harflaridan hosil bo‘lgan taniqli qisqartmalar bilan ajratib ko‘rsatish mumkin: Agneta, Byorn, Benni, Anni-

Frid. IT sohasida IBM (International Business Machines) – qisqartma printsipiga ko‘ra taniqli savdo belgisi. Hozirgi kunda qisqartmalar juda mashhur, chunki ular kompaniya nomini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin, 2-3 harfgacha. Kelajakda bunday nom domen nomi sifatida ham ishlatilishi mumkin, bu juda qulay bo‘ladi. Bugun jahondagi ayrim kompaniyalar bir necha so‘zdan iborat uzundan-uzoq nomlarni atayin tanlashar ekan. Nega deganda, ular uchun kompaniya nomining abbreviaturasi muhim. Masalan, “IBM”, “BMW”, “GM” singari qisqartma nomlar, ko‘pchilikning fikricha, yodda qolarli bo‘ladi. Shunday deyilsa-da, abbreviaturalarning ham o‘ziga yarasha manfiy jihatlari bor ekanligini yodda tutish kerak. Qolaversa, abbreviaturalarning yodda qolishi oson ekanligi haqidagi fikrga ham to‘liq qo‘shilib bo‘lmaydi. Misol uchun, “AFQ” – Ahmedov Farhod Qodirovich ekanligini siz yaxshi bilasiz, qolganlar uchun esa mazkur abbreviaturaning mazmuni qorong‘u. Axir, odamlar ko‘proq ism-shariflarni emas, timsollar, qandaydir ma’no anglatadigan so‘zlarni yaxshi eslab qolishadi [3].

9-usul: Sitata. Kino, musiqali asarlar, multfilmlar, ularning qahramonlari nomini yoki ulardagi mashhur jummalarni brend sifatida tanlash usuli ham brendning muvaffaqiyatga erishishida ahamiyat kasb etadi. Masalan, «Простоквашино» sut mahsulotlari ishlab chiqarish firmasi, tabiiy teri va mo‘ynali liboslar do‘konlari tarmog‘i «Снежная королева», qurilish mahsulotlari do‘konlari.

10-usul: Alliteratsiya. Bu usuldagi “neyming”da brend nomi bir maromda takrorlanadigan bir xil unli tovushlar yoki bir xil harflar ketma-ket talaffuz qilinadigan so‘zlardan iborat bo‘ladi. Masalan, “Coca-Cola” ichimligi, “Sam Samich” yarim tayyor chuchvaralari, “Chupa-Chups” cho‘p konfetlar, “Naf-Naf” kiyim-kechaklar do‘koni, “KitKat” shokoladli batonchiklar, “Milaya Mila” sut mahsulotlari, “Kitekat” uy hayvonlari uchun ozuqa [4].



Xulosa qilib shuni aytadigan bo‘lsak, Nomlash bu juda og‘ir va uzoq davom etadigan jarayondir. Ayniqsa, uzoq vaqt davom etadigan ism, masalan, yangi tashkil etilgan kompaniya yoki yangi brend nomi bilan tanishishingiz kerak bo‘lsa. Ba‘zan kompaniyalar oylar davomida o‘z mahsulotlariga nom berishni ishlab chiqishadi va ba’zida mahsulot nomi

deyarli tanlanadi. Mahsulot nomi kompaniya rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Kuchli, yaxshi tanlangan nom, kompaniyaga bozorga qaraganda tezroq rivojlanishiga yordam beradi, maqsadli auditoriya ongida mahsulotning to'g'ri tasvirini yaratishga yordam beradi, joylashishni aniqlash strategiyasini osonroq yetkazishga yordam beradi, iste'molchining nazarida mahsulot qiymatini oshiradi. Demak, nom (neyming) yaratish uslubiyati faqat lingvistik jarayon emas, balki ekstrolingvistik jarayonni ham qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.Lutfullayeva, M.Saparniyozova. Nom yaratishning lingvistik asoslari. Ilm sarchashmalari. UrDU ilmiy-metodik jurnali, 2019.
2. Энциклопедия маркетинга // <https://www.marketing.spb.ru/lib-comm/brand/naming...strategies.htm>.
3. M. Ashurova "Korxonangizni qanday nomlamoqchisiz?", 2014.
4. https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/nom_yaratish_uslubiyati.

ONA TILI DARSLARIDA MATNNI O'QIB TUSHUNISH MASHG'ULOTLARIDA TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH

Ma'rifat Xaydarova, Toshkent viloyati Chirchiq shahridagi
15-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Matluba Rayimjonova, Toshkent viloyati Chirchiq shahridagi
15-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish vazifasi belgilangan. Shuningdek, xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida hukumat qaroriga muvofiq [1]: PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS va boshqa dasturlarda ishtirok etishga kirishildi.

Bu jarayon esa ona tili va adabiyot fani bo'yicha ham o'quv-ijodiy topshiriqlar, ko'rgazmali va tarqatmali vositalarni takomillashtirishni taqozo etmoqda. Sababi o'qish savodxonligi bir qator aqliy faoliyat va til kompetensiyalari qamrab olinadi. Alohida olingan so'zning ma'nosini tushunishdan tortib, matnning grammatik va lingvistik qurilishini anglash

- A. Ovchilar daraxt kesuvchining ishorasini tushundi
- B. Tulkini boshqa joydan qidirish kerakligini bildilar
- C. Daraxt kesuvchi ovchilarni haydab yubordi
- D. Ovchilar daraxt kesuvchiga ishondilar

5. *Tulki ovchilarning ketganini qayerdan biladi?*

- A. Daraxt kesuvchining ishorasidan
- B. Hamma joy tinchib qolganidan
- C. Ovchilarning ot choptirib ketishganidan
- D. Daraxt kesuvchining sekin gapirganidan

6. Tulkining: “Agar aytgan so‘zing bilan imo-ishorang bir-biriga mos bo‘lganda rahmat aytardim”, degan javobi jamiyatda qanday insonlarga ishora qiladi?

Javobi: 1-B, 2-C, 3-B, 4-D, 5-C, 6-tili boshqa, dili boshqa insonlarga.

Bu muqobil javobli test topshirig‘ida o‘quvchi bitta to‘g‘ri javobni tanlashi kerak. O‘quvchi matnni bir o‘qiganda soddadek tuyuladi, uning qisqacha mazmuni o‘quvchi xotirasida qoladi, lekin test yechayotganida u yana matnga qaytishi talab qilinadi va bu o‘qib tushunish hisoblanadi. Sababi shundaki, test topshirig‘ida ochiq va yashirin ifodalangan fikr aynan matnda berilgan so‘zlar bilan emas, ma’nosi saqlangan holda boshqa jumlar bilan ifodalanishi, chalg‘ituvchi javoblarning ham to‘g‘ri javobga yaqin bo‘lishi o‘quvchining matnning ichiga chuqurroq kirib borishiga, uni tahlil qilishga, mulohaza yuritish, tayanch bilimlarini faollashtirish va munosabat bildirishga xizmat qiladi.

2-topshiriq. To‘g‘risini tanlang. *Bunda matnda berilgan so‘z va iboralarning izohi aniqlanadi.*

<i>Ta’qib qildi</i>	<i>Ta’na qildi</i>
<i>Iltijo qildi</i>	<i>E’tiroz qilmaydi</i>
<i>Churq etmaydi</i>	<i>Yalindi</i>
<i>Juftakni rosladi</i>	<i>Iziga tushdi</i>
<i>Malomat qildi</i>	<i>Qochib qolmoq</i>

Bu topshiriq usulida birinchi ustunda aynan matnda foydalanilgan so‘z va iboralar, ikkinchi ustunda esa ularning sinonimlari chalkashtirib berilgan. O‘quvchilar birinchi ustundagi so‘z va iboralarning to‘g‘ri izohini ikkinchi ustundan topadilar. Bu topshiriq turi o‘quvchining so‘z boyligini aniqlash, ularning so‘z ustida ishlash imkoniyatini kengaytirish, mustaqil fikrlash doirasini o‘stirishga juda qo‘l keladi. Birinchi ustundagi so‘zlar uslub jihatidan kitobiy uslubga xoslanganligi matnning badiiy uslubga xosligini bildiradi. Aynan shu uslubga xos so‘zlarning

qo‘llanilishi matnning ta’sirchanlik kuchini oshirganligini o‘quvchilar anglaydilar.

3-topshiriq. Quyidagi jadval asosida to‘ldiruvchilarni aniqlang. Bunda o‘quvchilar matn asosida hol bilan to‘ldiruvchini farqlaydilar.

<i>Matnda berilgan so‘zlar</i>	<i>To‘ldiruvchi</i>	<i>Hol</i>
<i>O‘rmonda</i>		+
<i>Daraxt kesuvchiga</i>	+	
<i>Unga</i>	+	
<i>Kulbanga</i>		+
<i>Gapiga</i>	+	
<i>O‘limdan</i>	+	
<i>Shu yerdan</i>		+

Matnda so‘zlarning sintaktik vazifasi ham uning mazmunini to‘g‘ri tushunishga xizmat qiladi. Gap bo‘laklarining noo‘rin qo‘llanilishidan mazmun anglashilmay qoladi. Bu grammatik topshiriq o‘quvchining mavzu yuzasidan olgan bilimlari mustahkamlanishiga, gap bo‘laklarini farqlashga xizmat qiladi. Jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishiklari to‘ldiruvchi so‘roqlariga ham, holning so‘roqlariga ham qo‘shiladi. O‘quvchi bu topshiriq orqali shaxs va narsa otlariga qo‘shilgan kelishik qo‘shimchalari to‘ldiruvchini, o‘rin-joy otlariga qo‘shilgan kelishik qo‘shimchalari hol gap bo‘lagini bildirishi haqida xulosa chiqaradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bunday topshiriqlar o‘quvchilarni yodlashga emas, fikrlashga undaydi. O‘quvchilarning fuqarolik jamiyatida hamda shaxsiy hayotdagi faol ishtiroklarida matnni o‘qib tushunish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyot

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.

MATNLARNI QIYOSLASH – SAMARALI USUL

Ilmira Usmonova,

Toshkent farmatsevtika instituti qoshidagi
akademik litsey o‘qituvchisi

Har doim o‘quv mashg‘ulotlariga kirganimda, o‘zimning o‘quvchilik yillarimni eslayman. Nazarimda, 20–30 yil avval qo‘llangan usullar ham samaradorlikda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan qolishmaydi.

Masalan, o'quvchi matndan parcha o'qib, tushunganini so'zlab berar edi. Bunda o'quvchining o'qish tezligi ortardi, fikrlash doirasi kengayardi, nutqi yaxshilanardi.

Hozirgi zamonaviy dars usullaridan "Matn ustida ishlash" usulini men o'z mashg'ulotlarimda faol qo'llayman. O'rganilayotgan asarni o'zlashtirishda o'quvchiga katta yordam beradi, deb hisoblayman. Masalan, Cho'lpon ijodini o'rganishga ajratilgan mashg'ulotlarda Pushkin she'rlaridan ham foydalanaman. Chunki Cho'lpon Pushkinning bir nechta she'rlarini o'zbek tiliga ustalik bilan tarjima qilgan. She'rlardan olingan parchalarga murojaat qilamiz.

Pushkindan:

Соловей и роза

В безмолвии садов, весной, во мгле ночей,
Поэт над розою восточный соловей.
Но роза милая не чувствует, не внемлет,
И под влюбленный гимн колеблется и дремлет.

Не так ли ты поешь для хладной красоты?
Опомнись, о поэт, к чему стремишься ты?
Она не слушает, не чувствует поэта;
Глядишь – она цветет; взываешь – нет ответа.

Ushbu she'r Cho'lpon tarjimasida shunday jaranglaydi:

Bulbul va gul

Bahor chog'ida xoli bog'da bir zulmatli tun erdi,
G'arib bulbul fig'on aylab, "Gulim, rahm aylagil", derdi.
Biroq ul gul quloq solmas edi faryod-u afsona,
Faqat orom olardi noladin to'lg'ona-to'lg'ona.

Seni hech sevmagan bir gul uchun, ey shoirim, sen ham
Yonarsan, o'rtanarsan, dod etarsan tinmayin bir dam.
Qo'y endi, behuda dod etma, ohing unga yetmaydi,
Qaraysan, yashnagan bir gul, faqat dodingga yetmaydi.

Bu she'rlarning matnlari tarqatma sifatida o'quvchilarning qo'liga berilsa, ular she'rlarni bir-biriga qiyoslagan holda tahlil qiladilar, tarjima sifatiga ham baho beradilar.

Yana shunday usulni Erkin Vohidov ijodini o'rganish jarayonida ham qo'llashimiz mumkin. Men Erkin Vohidovni rus shoiri Sergey

Yesenin she'rlarining mohir tarjimoni sifatida bilaman. Ayniqsa, "Fors taronalari"ni o'zbek tilidagi tarjimasini o'qigan odam ular aslida rus shoiriga tegishli ekanligiga ishonmaydi. Keling, misollarga murojaat qilamiz.

Yesenin misralari:

В Хорассане есть такие двери,
Где обсыпан розами порог.
Там живет задумчивая пери.
В Хорассане есть такие двери,
Но открыть те двери я не мог.
У меня в руках довольно силы,
В волосах есть золото и медь.
Голос пери нежный и красивый.
У меня в руках довольно силы,
Но дверей не смог я отпереть.

Bu misralar Erkin Vohidov qalamida o'zgacha jilolanadi:

Xurosonda bir darboza bor,
Ostonasi gulga ko'milgan.
Unda yashar bir pariruxsor,
Xurosonda bir darboza bor,
Hayhot, uni ocholmadim man.
Qo'llarimda kuch ham yetarli,
Sochlarimdan oltin rang olgan.
Asir etdi meni ul pari,
Qo'lda garchi kuchim yetarli,
Ul eshikni ocholmadim man.

Yuqoridagi kabi misollarni juda ko'plab keltirish mumkin. Biz nasriy asarlarga ham murojaat qilish imkoniyati borligini e'tirof etamiz. Masalan, 11-sinf "Adabiyot" darsligiga A.P.Chexovning "Garov"("Папи") hikoyasi kiritilgan. Bu darslikdan akademik litseylarda ham foydalanilayotganini nazarda tutgan holda, maktab va litsey o'quvchilariga bimalol "Garov" hikoyasining asli va tarjimasini yonma-yon qo'ygan holda, qiyoslash usulini o'quv mashg'ulotlarida qo'llab ko'rishni maslahat berar edik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cho'lpon. Yana oldim sozimni. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1991.
2. Erkin Vohidov. Muhabbat. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1976.
3. А.С.Пушкин. Сочинения в трех томах. – Москва: Художественная литература, 1985.

4.Сергей Есенин. Собрание сочинений в двух томах. – Москва: Современник, 1990.

О‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI

Nilufar Hakimova, Toshkent viloyati Olmaliq shahar
19-maktab ona til va adabiyot o‘qituvchisi

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining 2021-yilda PISA – o‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro dastur, PIRLS – boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni o‘qib tushunish darajasini baholovchi xalqaro dasturlarda munosib ishtirok etishi borasida yurtimiz ta‘lim tizimida juda ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlarining ustuvor vazifalaridan biri bu o‘quvchilarning *o‘qish savodxonligi* bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashdan iboratdir.

PISA tadqiqotida o‘qish savodxonligiga quyidagicha ta‘rif beriladi: “O‘qish savodxonligi bu – shaxsning o‘z bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish maqsadiga erishishi yo‘lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, ular ustida mulohaza yuritish va ularga munosabat bildirish demakdir” [1].

PIRLS tadqiqotida esa o‘qish savodxonligi sifatida “jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish va amaliyotda qo‘llay olish qobiliyati” [2] tushuniladi.

PISA tadqiqotida umumiy va shaxsiy maqsadlarni amalga oshirish yo‘lida, shuningdek, ish faoliyati bilan bog‘liq hamda ma‘lumot olish bo‘yicha o‘qish savodxonligi rivojlantirilsa, PIRLS tadqiqotida esa o‘qish savodxonligi badiiy tajriba orttirish, axborot olish va undan foydalanish maqsadida amalga oshiriladi.

Demak, PISA, PIRLS singari xalqaro baholash dasturlarining maqsadlari asosida umumta‘lim maktablari o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi bo‘yicha tayanch kompetensiyalariga baho berilar ekan, bugungi kunda uni rivojlantirish uchun qanday usullarni qo‘llash mumkinligi bo‘yicha ba‘zi amaliy tavsiyalarni berib o‘tmoqchimiz.

Eng avvalo, o‘qish jarayoniga o‘quvchilarning o‘z intellektual imkoniyatlarni yuzaga chiqarish shakli sifatida qarash lozim. Hamda ushbu jarayon o‘quvchining mana shunday imkoniyatlarini yuzaga

chiqaruvchi muhitda amalga oshirilishi lozim. Chunki bunday muhitda amalga oshirilgan o'qish jarayoni o'qishning samaradorligi hamda o'qishning madaniy savodxonlikni oshirishdagi o'rniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni jamiyatning har bir jabhasida oilada, maktabda, maktabgacha ta'lim muassasasida, turli xil to'garaklarda o'quvchilar uchun bunday muhitni yoshi kattalar (ota-onalar, o'qituvchilar, to'garak rahbarlari) o'zlarining shaxsiy namunalari asosida hosil qilib berishlari lozim.

O'qishning ko'rinishi va uslubini belgilab olish o'qish savodxonligi bo'yicha ko'nikmalarning shakllanishida muhim sanaladi, ya'ni matn manbasi bilan tanishish, matnda berilgan topshiriq asosida ma'lum bir predmet haqida o'rganish, umummadaniy ko'nikmalarni o'zlashtirish, tahliliy, ijodiy va vaqtichog'lik uchun o'qish kabi ko'rinishlarni aniqlab olgan holda o'qish jarayonini tashkil etishi zarur sanaladi.

O'qish jarayonining asosiy aqliy faoliyat bosqichlariga e'tiborni qaratish, ya'ni taqqoslash, tahlil qilish, xususiylashtirish, guruhlariga ajratish, umumlashtirish kabilar ham o'qish savodxonligini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir.

Tadqiqotning har ikkala ko'rinishida ham o'qish savodxonligini aniqlash uchun yaxlit (badiiy, hikoya, hisobot, reportaj, muhokama matnlari) va yaxlit bo'lmagan (e'lon, katalog, diagramma, jadvallar, tashrif qog'ozlari, yo'riqnomalar) matnlardan foydalaniladi.

O'qish savodxonligini sinash uchun quyidagi yo'nalishlar asosida topshiriqlarni tayyorlash mumkin:

aniq ko'rinishda berilgan axborotlarni qidirib topish;
matnda mavjud bo'lgan aniq faktlar asosida natijalarni va xulosalarni ifoda qilish;

axborotlarni umumlashtirish va sharhlash;
matnning tuzilishi, uslubi va mazmunini baholash.

O'qish savodxonligini rivojlantirishda o'quvchilar bilan quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish mumkin:

berilgan topshiriq asosida so'ralgan axborotni tanlash va ma'lum tartibga solish;

rangli rasmlar bilan ma'lumotlar manbayi sifatida ishlash, rasm, sxema va jadvallar asosida so'ralgan ma'lumotni topishga o'rgatish;

matn tarkibida turli xil gaplar va qismlarda berilgan axborotlarning qismlarini umumlashtirish;

matndagi savol va axobortlarni qaytadan tuzish;
o'z ijodiy fikrlarini yozma ravishda ifodalash;

“Qarama-qarshi fikrlar”. Bunda o‘qituvchi ma’lum bir matn bilan o‘quvchilarni tanishtirgach, ularni ikki qismga ajratadi. Birinchi guruh matnda berilgan qahramonning ijobiy tomonlarini, ikkinchi guruhga salbiy tomonlarini matnga asoslangan holda matnda berilgan gaplar, fikrlar asosida ko‘rsatadilar.

“Blum kubigi” usulidan foydalanish ham yaxshi natija berishi mumkin. Buning uchun o‘quvchiga ma’lum bir matn bilan tanishib chiqqach, quyidagi savollar berilgan kubikni topshiradi:

1. Nima uchun?
2. Tushuntiring!
3. Nomlang!
4. Taklif qiling!
5. O‘ylab toping!
6. O‘z g‘oyangiz bilan bo‘lishing!

“G‘oyalar va ijodiy fikrlar savatchasi” usuli yordamida o‘quvchilar o‘rganish uchun olingan matn tarkibidan ma’lum bir axborotlarni, fikrlarni, nomlarni, muammolarni aniqlab, ularni yozib savatchaga tashlaydilar. Ushbu yozilgan yozishmalar asosida fikrlar zanjirini hosil qilish yoki muammoning yechimini topish mumkin bo‘ladi.

O‘qish savodxonligini **“Insert”** texnologiyasi asosida rivojlantirish ham yaxshi natija beradi.

I interactive – interfaol

N noting – yangi bilimlarni o‘zlashtirish

S system for – tuzilma

E effective – effect uchun

R reading and – o‘qish va

T thinking – mulohaza yuritish

Demak, INSERT bu – o‘qish, interfaol usul asosida yangi bilimlarni o‘zlashtirish va mulohaza yuritishdir.

+			!	-	?
Matn bilan tanishish orqali o‘zingizga bo‘lgan axborotlarni qildingiz?	oldindan ma’lum qanday qabul	Siz uchun yangi ma’lumotlar, axborotlar	Sizdagi mavjud ma’lumotlarga mos emas	Izohlanishi, ko‘proq ma’lumot berilishi lozim bo‘lgan o‘rinlar	

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kungacha imlo savodxonligi haqida tasavvurga, ta’lim mazmuni va metodikasiga ega

edik. Yangilanayotgan ta'lim tizimida o'qish savodxonligini rivojlantirish bilan bog'liq metodikani yaratish dolzarb vazifalarimizdan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xalqaro tadqiqotlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: Sharq, 2019.
2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma. – Toshkent: Sharq, 2019.

MULTIMEDIYA VOSITALARI YORDAMIDA O'QUVCHILARNING OG'ZAKI VA YOZMA NUTQINI O'STIRISH

Gulmira Haydarova, Farg'ona viloyati
Rishton tumanidagi 9-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

O'zbek tiliga “Davlat tili” maqomi berilishi munosabati bilan umumta'lim maktablarida bu tilga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirildi.

O'zbek tili haqida gapirilganda, uning qo'llanishi, og'zaki va yozma shakllarini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Adabiy tilning og'zaki shakli nutq tovushlari, ohang, urg'u kabi to'g'ri talaffuz normalariga, yozma shakli esa to'g'ri yozish qoidalariga tayanadi. Til o'rganish jarayonida barcha o'quvchilarni O'zbekiston Respublikasining milliy istiqloq mafkurasi asosida estetik, gumanitar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vazifasi bajariladi. Shu bilan birga ma'uliyat, javobgarlik, intizomlilik va o'zaro hurmat kabi xislatlarni shakllantirish ko'zda tutiladi. Bu fanni mukammal o'rganish uchun o'quvchilar o'zbek tili tovush tizimi, morfologiyasi, o'zbek tilida fikr ifodalay olishni bilishi kerak.

Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqim qilish, axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash – yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash, o'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyatini yanada oshiradi.

Dars jarayoni murakkab ijodiy palladir. Uning samaradorligi ko'p jihatdan o'quvchilarning faolligi va ularning qiziquvchanligiga bog'liq. Ularni faollashtirish uchun zamonaviy darslarning turli xil o'yin, bahs-munozara, musobaqa va anjuman kabi turlaridan foydalanish yaxshi natija beradi.

O'quvchilar nutqini o'stirish, so'z boyligini orttirish birmuncha murakkab kechadi. Tilning ko'rki bo'lgan so'z boyligini oshirish uchun har bir mashg'ulotda Notebook, kompyuter, proyektor singari multimediya vositalari yordamida dars tashkil etilsa, o'quvchilar eshitadi, ko'radi, shu orqali ijodiy fikrlashni, tahlil etishni va xulosa chiqarishni o'rganadilar. Shu bilan birga, nutq madaniyatini o'stirishda faol, ayni paytda murakkab bo'lgan monolog, dialog shakllarini o'rgatishga alohida e'tibor berish lozim.

Umumta'lim maktabida olib borayotgan kuzatish va tajribalarim shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq savodxonligi barchasida birdek talabga javob bermaydi. Buning asosiy sabablaridan biri ularning o'z ona tilida so'z boyligi yetarli emasligi, bu til grammatikasini mukammal, puxta egallamaganligidir. Yangi pedagogik texnologiya, ayniqsa, multimediya vositalaridan foydalanish o'qituvchidan ijodkorlik, izlanuvchanlik va tashabbuskorlikni talab etadi. Ilgari darslar ma'lum bir qolip asosida olib borilgan bo'lsa, hozirgi kunda noan'anaviy holatda, har kungidan o'zgacha tartibda tashkil etiladi. Hozirgi kunda ona tili darslarida topqirlik o'yinlaridan, boshqotirma, rebuslardan kompyuterlar orqali foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Dars davomida o'tkazilayotgan "Muzyorar", "Aqliy hujum", "Iboralar tilga kirganda", "Xotira mashqi", "Topqirlik o'yinlari", "Tushunchalar jadvali", "Baliq skleti", "Klasster" kabi o'yin turlari multimediya vositalari yordamida namoyish etilsa, o'quvchilarning bu fanga bo'lgan qiziqishi yanada ortadi. Bunday o'yinlar orqali ular so'zlarni va grammatik vositalarni o'zbek tili orfoepiyasi, grammatikasi me'yorlari asosida to'g'ri talaffuz qila olishni o'rganadilar.

Ta'lim jarayonida multimediya vositalari orqali jonajon O'zbekiston, uning tabiati, hayvonot dunyosi, o'zbek adiblari, o'zbek san'atkorlari, milliy qahramonlar, buyuk allomalar ijodidan parchalar eshitishlari, tushunganlarini qayta so'zlab berishlari ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stirishga xizmat qiladi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish bilan birga ularda vatanparvarlik, umuminsoniylik, mehnatsevarlik va do'stlik tuyg'ularini o'stiradi, ma'naviy dunyoqarashlari kengaytiradi.

Aytaylik, yangi mavzu: "So'zning o'z va ko'chma ma'nolari" xattaxtaga yozib qo'yiladi. Dars "Muzyorar" o'yini bilan boshlanadi. Audio orqali kichik bir matn o'qib eshittiriladi: "... *nazir boshim kesak qisqon qovundek qiyshiq bo'lib, jovdirlog'on ko'zim qassobdan et olib, baqqol bilan muomala qilaturg'on darajaga yetibdur. ... faqirning qorni kundand-kunga g'ovlagan tarbuzdek o'sib, ... Agarda o'zingizga ham*

chechak chiqqan bo'lsa sezarsiz: misoli yuzingiz g'alvirak bodom... Ammo faqirning yuzimda ba'zi chandiqlar ham zuhurga kelgani uchun go'yoki husni Yusuf bizda xotima topdi... agar siz bir hovuch tariqni yuzimizga qaratib sepsangiz-da, bir dona yerga tushsa, biz benavat"1 (250-254).

Shundan so'ng, yuqorida keltirilgan matn yuzasidan "Xotira mashqi" o'tkaziladi. O'quvlarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

Matn muallifini aniqlang.

Matn mazmunini so'zlab bering.

Matn asosida eslab qolgan so'zlaringizni daftarga yozish.

Matnda sizning e'tiboringizni tortgan so'zlarni ajratib yozing.

Matndagi so'zlarni ikki ustunga: o'z va ko'chma ma'nolarga ajrating.

O'quvchilar so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolari haqida quyi sinflarda olgan bilimlarini topqirlik yo'li bilan mustahkamlashdilar. Matn muallifi – Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi haqida qo'shimcha ma'lumot ham oladilar.

Ijodkor o'qituvchi o'z darslarini yanada hujumkor, shiddatli, sermazmun va samarali tashkil etsa, talabalar uning darslarini intizorlik bilan kutadilar va darsga yuksak ishonch, xohish bilan kiradilar. Bunday darslar zamon talablaridan kelib chiqqan holda, zamon bilan barobar, zamon bilan hamnafas, hatto undan oldinda borayotganday tuyuladi.

Foydalanilgan adabiyot

Tursunova Faridakhon Ganievna. The Role of Monologic Speech in the Self-Disclosure of a Humorous Hero (On Abdulla Qodiriy's Works). Vol. 17 No. 2 November 2019. 172-bet.

ONA TILI DARSLARIDA NUTQ O'STIRISH USULLARI

Saida Setimova, Xorazm viloyati
Xonqa tumanidagi 35-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Yosh avlodning har tomonlama yetuk bilimli, yuksak ma'naviyatli, barkamol vatanparvar shaxslar bo'lib yetishishini ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining eng asosiy bo'g'ini sifatida pedagog xodimlarning yuqori ilmiy, metodik bilimlarga hamda amaliy ishlash bo'yicha yuksak mahoratga ega bo'lishlarini ta'minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish hisoblanadi.

Bu masalaga davlatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlab jiddiy e'tibor berib kelinmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim

tizimi jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanishlar, rivojlangan huquqiy davlat qurilishi jarayonlari bilan hamohang tarzda taraqqiy etib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Bolalarimizni birovlarining qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarni yechish uchun amaliy ko‘mak berishimiz lozim”, deb ta’kidlaganlarida o‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to‘g‘ri joriy etilishi, o‘quvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishi nazarda tutilganligini aytish mumkin.

Zamonaviy texnologiya va ularning ta’limda qo‘llanishiga oid bilimlar o‘quvchilarni bilimli, hamda yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usublardan foydalaniladi. Interfaol – o‘zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat ,muloqot tartibida bo‘lishni anglatadi.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishda qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga ershishdir.

Dars jarayonida bir nechta metodlardan o‘rinli foydalanish darsning samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarni faollashtiradi. Ta’lim metodlari va shakli sinfdan sinfga o‘tgan sari oddiydan murakkabga qarab rivojlantirib boriladi. Quyi sinflarda ko‘proq rasmlar, narsa – buyumlardan foydalanish, slaydlar, audio va videolavhalardan foydalanish, darslarda ta’limiy o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Biroq ulardan o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda foydalanish lozim. Ta’limiy o‘yinlarni qo‘llashda me’yorni bilish kerak. Ularni haddan ziyod ko‘paytirish ko‘paytirib yuborish o‘quvchilarni dars maqsadidan chetlashtirib qo‘yishi mumkin.

Ona tili darslarida grammatik jadvallar, test, rasmlar, muhokamali topshiriqlar, har xil mantiqiy vaziyatlar, boshqotirmalar, yozuvchi va shoirlarning hayoti, ijodi, ularning boy madaniy merosini tushuntirish uchun multimediya vositalaridan, videoroliklardan, elektron darsliklardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Ona tili darslaridagi ta’limiy maqsadda o‘quvchilar bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan til tushunchalari, qoidalari va ta’riflar haqida bilim oladi, tarbiyalovchi maqsadda o‘quvchilar bilim egallash jarayonida , ularni

o‘rab turgan atrof-muhitga, odamlarga, voqealarga va dunyoga nisbatan munosabati shakllanadi, rivojlantiruvchi maqsadda esa olgan bilimlarini amaliyotda tatbiq etish jarayonida yuzaga keladigan qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Bu o‘rinda o‘qituvchi bilan o‘quvchining, o‘quvchi bilan sinfdoshlarining munosabatida do‘stona muhit ahamiyatlidir. Chunki dars bola hayotining bir qismidir. U chegaralab qo‘yilgan bo‘lmasligi kerak. Ona tili darslarini o‘qituvchilar shunday tashkil qilsinlarki, unda kashfiyotlar ro‘y bersin, haqiqatlar tug‘ilsin, cho‘qqilar zabt etilsin, izlanishlar davom qilsin. Shundagina, qiziquvchan, erkin ijod qilishga qodir, barkamol shaxsni shakllantirish mumkin.

Ma‘lumki, didaktika, pedagogikaning bir bo‘limi bo‘lib, ta‘lim-tarbiyaning umumiy metodlarini ifodalaydi. U predmetni o‘rgatish, o‘rganish hamda ta‘lim mazmunini tashkil qiladi. Bunda ishtirok etayotgan uchta komponent bir-biri bilan uzviy aloqada bo‘lib, ulardan birortasini e‘tibordan chetda qoldirmaslik mumkin emas.

Ishni o‘rganish yoki o‘rgatishdan boshlasak, tabiiy ravishda nimani o‘rganmoqchimiz yoki o‘rgatmoqchimiz, degan savol tug‘iladi. O‘rganish ham, o‘rgatish ham oxirgi natijasi ham ta‘lim mazmuniga bog‘liq. Har xil mazmundagi matnlarni o‘ziga xos usullar bilan o‘zlashtirish qabul qiluvchi uchun o‘rgatishning qanday bo‘lishi va uning mazmunidan kelib chiqadi, bu esa o‘rganishni tashkil etuvchi, ya‘ni o‘rgatuvchiga bog‘liq.

O‘qituvchi o‘quvchilarni faollashtiradigan, o‘zi va o‘rganuvchi uchun qulay bo‘lgan yo‘llarni, usul va uslublarni o‘qitish shakllari, metod va vaziyatlarni izlaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyaga suyanib o‘quv jarayoni samaradorligiga erishadi.

O‘quvchilarni darsga qiziqtirishda didaktik o‘yinlarning ahamiyati beqiyosdir. Didaktik o‘yinlarni ta‘limiy o‘yinlar deb ham aytish mumkin. Har bir didaktik o‘yinning o‘ziga xos maqsadi bo‘ladi. Namuna sifatida “Bingo” o‘yini keltiramiz:

Ona tili fani uchun “Bingo” o‘yini

Topshiriq: Katakchadagi so‘zlarning har biriga qaysi so‘z turkumiga tegishli ekanligini yozib, so‘ngra ismingizni ham yozib qo‘ying.

chizg‘ich	o‘qidi	beshta	yaxshi
yugurdi	bola	quyosh	Aziz
sakkizinchi	mayin	bolalar	sakradi

shamol	salqin	o'n	mahalla
(O'quvchining ismi yoziladi).			

“Bingo” o‘yinining maqsadi: O‘quvchilar o‘yin asosida o‘tilgan mavzularni takrorlaydilar, bir – biriga yordam berish ko‘nikmasi shakllanadi.

“Bingo” o‘yini o‘tkazish qoidalari:

1. Har bir o‘quvchiga “Bingo” o‘yinining tarqatmasi tarqatiladi.(Hamma o‘quvchiga bir xil tarqatma beriladi.)
2. Tarqatmada o‘quvchi bajarishi lozim bo‘lgan topshiriq aniq yoziladi.
3. Doskada topshiriqni bajarish uchun belgilangan vaqt yozilgan bo‘ladi.
4. O‘qituvchi kataklarning sonini o‘quvchilar sonidan kelib chiqqan holda o‘zgartirishi mumkin.
5. O‘quvchi belgilangan vaqt mobaynida o‘zining tarqatmasi bilan ixtiyoriy boshqa bir o‘quvchining oldiga borib bir katakni to‘ldirishni iltimos qiladi. Uning tarqatmasiga qaysi o‘quvchi yozsa, uning o‘zi ham shu o‘quvchining tarqatmasidagi ixtiyoriy bir katakdagi topshiriqni bajaradi. (Shu tariqa “Bingo” o‘yinining tarqatmasida nechta katak bo‘lsa, shuncha o‘quvchining yoniga boradi. O‘quvchinin o‘zi tarqatmasiga yozmaydi. O‘quvchilar sinf bo‘ylab harakat qiladilar. Bu jarayonni xuddi tovar ayirboshlashga qiyoslash mumkin. Chunki “Bingo” o‘yinida o‘quvchilar topshiriq bajarishni ayriboshlaydilar.

Masalan, bir vaqtning o‘zida Nigora Sayyoraning tarqatmasidagi bir katakga javob yozadi, shu vaqtning o‘zida Sayyora Nigoraning tarqatmasidagi ixtiyoriy bir katakdagi topshiriqni bajarishi mumkin. Agar o‘quvchilar soni ko‘p bo‘lib, noqulayliklar tug‘ilsa, unda “Bingo” o‘yini o‘quvchilarni guruhlariga bo‘lib o‘tkazish mumkin.

6. Berilgan vaqt o‘z nihoyasiga yetgach, o‘yin yakunlanadi. (Ba’zi o‘quvchilar ishi yakunlanmagan bo‘lsa ham.)
7. Topshiriq yakunida o‘qituvchi o‘quvchilarning yordami bilan berilgan topshiriq qay darajada bajarilganligini aniqlaydi. Ya’ni yuqorida ko‘rsatilgan ona tili fani uchun berilgan namunaviy tarqatma asosida tahlil qilamiz.

Namuna: o‘qituvchining savoli, birinchi katakdagi “chizg‘ich” so‘ziga nima deb yozdingiz?

Ixtiyoriy bir o‘quvchi javob beradi. Masalan, Nigora degan o‘quvchi, uning tarqatmasiga Surayyo ot so‘z turkumi deb yozibdi, degan javobni

beradi. (Bu to‘g‘ri javob, lekin o‘qituvchi darhol “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” javob deb aytmaydi.)

O‘qituvchi tahlil qilishni davom ettiradi, hammaning tarqatmasiga ot so‘z turkumi deb yozilganmi? Shunda agar boshqa o‘quvchining tarqatmasida boshqacha yozilgan bo‘lsa, darhol aytadi, “mening tarqatmamda Mushtariy sifat so‘z turkumi deb yozibdi”. O‘qituvchi xato yozgan o‘quvchini uyaltirmagan holda so‘z turkumining qoidasi, uning savolini o‘quvchilar bilan hamkorlikda takrorlab oladilar. Shu tariqa barcha katakdagi topshiriqlarni o‘quvchilar yordamida tekshirib oladi. “Bingo” o‘yinining ta’limiy ahamiyati ana shu 7-bandda o‘z ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A .G‘ulomov. Nutq o‘stirish usullari.
2. Til va adabiyot ta’limi, 2018-yil, 5-son.
3. “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Davlat tili haqida”gi qonunlar.
4. Xalq ta’limi, 2018-yil, 4-son.

ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Kimyoxon Egamqulova,

Namangan viloyati Mingbuloq tumanidagi
15-umumiy o‘rta maktab o‘qituvchisi

Ma’lumki, boshlang‘ich sinflarda ona tilidan beriladigan bilimlar mazmunini o‘zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari, so‘zlarning o‘zgarishi va gapda so‘zlarning bog‘lanishi, so‘zlarning morfemik tarkibi va so‘z yasalishi, so‘zlarning leksik – semantik guruhi, o‘zbek tilining to‘g‘ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarini tashkil qilish va o‘tkazish masalasi ona tili o‘qitish metodikasiga doir darslik va o‘quv qo‘llanmalarida, ommaviy matbuot nashrlarida o‘z aksini topgan. Shuningdek, ona tili o‘qitish metodikasining u yoki bu masalasini o‘rganishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash masalasiga bag‘ishlangan ishlar ham mavjud. Q.Abdullayevaning “Yangi pedagogik texnologiyalar” [1], J.Tolipovanning “Modulli dars” [2], R.Ubayxo‘jayevaning “Ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash” [3], M.Xoliqovanning “Ta’lim texnologiyalaridan foydalanish” [4] nomli

maqolalarida ona tili darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalasi o'rganilgan.

Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nik-malari shakllanib, rivojlanib boradi. Quyida ana shunday ta'lim jarayonida ijobiy samarasini berayotgan usullarga e'tibor qaratamiz.


So'z turkumlarini o'rganishda "Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi) ortiqcha" metodidan ham foydalanish mumkin. Buni biz "Ortiqchasini ajrat" degan topshiriq bilan berdik. O'quvchilarga bir turkumdagi so'zlar ichiga boshqa turkumga doir so'zlar arlashtirib berildi. O'quvchilar ular ichidan boshqa turkumdagi so'zlarni ajratib olishdi va nima uchun ajratib olish sababiui izohlab berishadi. Bu uslni biz nkartochkalar yordamida va kompyuterda bajartirdik. Ortiqchasini ajratishgandan so'ng mavzuga taalluqli so'zlarni husnixat bilan daftarlariga yozdirdik. Berilgan topshiriqlardan namunalar keltiramiz:

Otlar ichidan ortiqchasini ajrat. Daraxt, suv, osmon, ko'k, mard, kamalak, yomg'ir, tiniq.

Sifatlar ichidan ortiqchasini ajrat. Baland, keng, choynak, piyola, tor, katta, past, cho'mich, kapkir, kichik.

Fe'llar ichidan ortiqchasini ajrat. Yuvindi, tebrandi, yugurdi, dutor, rubob, charchadi, yangradi.

O'quvchilar ko'rsatilgan rasmdagi narsa va qushlar nomlarini aytib yozadilar.



"Nihol o'stiramiz" usuli [5] orqali yangi mavzuni mustahkamlash mumkin. Bunda dars boshida o'quvchilarini guruhlariga bo'lib olamiz. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida har bir guruhga 1 donadan oq qog'oz beriladi. O'quvchilar bu usul asosida yangi mavzu bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlashadi o'quvchilar oq qog'ozga nihol chizadi va

niholni parvarishlab o‘stiradi. O‘quvchilar yangi mavzu yuzasidan olgan bilimlari bilan niholni parvarishlaydi. Har bir olgan ma‘lumot bilan niholda bitta shox paydo bo‘ladi. Shu tariqa nihol bir daraxtga aylanadi va o‘qituvchiga o‘quvchilar yangi mavzuni qay darajada o‘zlashtirganini aniqlashga qulaylik yaratadi. Bunda o‘quvchilarning tasviriy san‘at faniga bo‘lgan qiziqishi ortadi, daraxtni qay darajada tasvirlashi orqali ularning fikrlashini rivojlantirib boradi. Shoir yoki adibning hayoti va ijodi haqidagi ma‘lumotlarni o‘quvchilar qay darajada eslab qolganini, shu bilan bir qatorda uning yaratuvchanlik menatsevarlik qobiliyatlari shakllanib boradi. O‘quvchilarning tabiatga bo‘lgan mehr-muhabbati ortib boradi. “Grammatik topishmoqlarni topish” o‘yini. Grammatik topishmoqlar o‘rganilayotgan mavzular bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunday topishmoqlardan darsda motiv yaratishda, ya‘ni o‘quvchilarni yangi mavzuni o‘rganishga qiziqish uyg‘otishda, ularni harakatga keltirishda foydalanish yaxshi natija beradi. Quyida so‘z turkumlariga doir Grammatik topishmoqlardan namunalar keltiramiz.

- dosh yasovchi qo‘shimcha,

Deb javob berdi Sobir.

So‘z o‘zgartuvchilarni

Bilarkan Abduqodir.

Bunga ta‘rif ber endi,

Jim o‘tirgan Bahodir. Nomi aytilgan o‘quvchi ot yasovchi va otlarga qo‘shiladigan so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalarga ta‘rif beradi.

Atash bor ma‘nosida

Bosh harf bor imlosida.

Qaramoqda, qaramoqda,

Barmoqda ham barmoqda.

Qaysi so‘z ot, qaysi fe‘l?

Kim topsa to‘g‘ri javob,

Shu bola hozirjavob.

Qoning, noning, taraning,

Kitobing, sening tuning.

Qaratqich kelishikning

Qo‘shimchasi qaysi – ning?

Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta‘limining samaradorligi o‘qitish metodini to‘g‘ri tanlash, “Ona tili” fanining amaliy yo‘nalishidan kelib chiqib, ta‘lim jarayonida ko‘proq o‘quvchini o‘ylashga, fikrlashga

undovchi, o'quv topshiriqlarini ishga solish, o'quvchilarda bilish – o'rganish ehtiyojini yuzaga keltiradigan dars shakllaridan foydalanish singarilar bilan bog'liq. Dars mashg'ulotlarida faqat bir xildagi o'yin-topshiriqlar bilan cheklanib qolmay, balki ko'proq ijodiylikka undovchi o'yin-topshiriqlarga e'tiborni kuchaytirishga to'g'ri keladi. Zero, o'quvchilarni fikrlashga, o'ylashga, matn yaratishga o'rgatmasak, hozirgi zamon darsiga qo'yilgan muhim talab shaxsning rivojlanishiga erishib bo'lmaydi [6].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva Q. Yangi pedagogik texnologiyalar // Boshlang'ich ta'lim, 1999, 4-son
2. Tolipova J. Modulli dars // Boshlang'ich ta'lim, 2001, 4-son
3. Ubayxo'jayeva R. Ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash // Boshlang'ich ta'lim, 2006, 3-son.
4. Xoliqova M. Ta'lim texnologiyalaridan foydalanish // Boshlang'ich ta'lim, 2009, 5-son
5. <http://azkurs.org/abilqosimova-sobiraning-zamonaviy-pedagogik-usullardan-foydala.html>
6. M. Ernazarova, A. Bobomurodova. Boshlang'ich sinf ona tili darslarini tashkil etish metodlari va dars shakllari. – Navoiy, 2017.

O'ZBEK TILI DARSLARIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH USULLARI

Dilobar Bozorova, Toshkent shahar
Sergeli tumanidagi 300-IDUM o'qituvchisi

Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada, avvalo, o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir.

Har bir davlatning mustaqilligini belgilab beradigan ramzlaridan biri uning davlat tilidir. O'zbekistonda o'zbek tiliga davlat tili maqomi hali mustaqillikka erishishdan ancha oldin, ya'ni 1989-yil 21-oktabrda berilgan. Bu qonun 1995-yilda qayta isloh qilindi. Shu yillar davomida mamlakatimizda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirish yo'lida katta ishlar amalga oshirildi. Hozirda o'zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jabhalarda faol qo'llanib,

xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e'tibor va uni o'rganishga qiziqish kuchaymoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir [1].

2019-yil 22-oktabrda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilinib, unga ko'ra 21-oktabr sanasi "O'zbek tili bayrami kuni" deb e'lon qilindi. Davlat tilini rivojlantirish departamenti va Atamalar komissiyasini tashkil etish vazifalari belgilandi. Prezidentimiz o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyat ekanligini, o'zbek tilining qo'llanish doirasini kengaytirish, mamlakatimizda yashayotgan turli millatlarga mansub vatandoshlarimizning davlat tilini o'rganishlari uchun tegishli sharoit yaratib berish, yurtimizda va xorijda o'zbek tilini o'rgatadigan o'quv markazlarini ko'paytirish zarurligini ta'kidlab o'tdilar [2].

Respublikamizda o'zbek tilining davlat tili sifatida maqomi va nufuzini ko'tarish yo'lida ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, o'rta umumta'lim maktablarining o'zga tilli 5–11 sinflarida "O'zbek tili" fani soatlari 2 soatdan 3 soatga oshirildi. Bu esa respublikamizda istiqomat qilayotgan turli millat vakillarining o'zbek tilini yanada yaxshiroq o'rganishlariga zamin bo'ladi. Davlat tashkilotlarida ham o'zbek tilida ish yuritilishini ta'minlash va talab qilish asosida bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish mumkin.

O'zbek tili fanining asosiy maqsadi to'g'ri va ravon so'zlaydigan, bexato yozadigan savodxon shaxsni yetishtirishdir. Qayta-qayta nashr qilinayotgan darsliklarimizda ham asosan jahon tajribasidan kelib chiqib, o'quvchini mustaqil ishlashga o'rgatishga, matn tuzish qobiliyatini shakllantirishga urg'u berilmoqda. O'zbek tili darslarining samaradorligini yanada oshirish maqsadida biz quyidagi takliflarni berib o'tishni joiz deb bildik:

1. O'zga tilli sinflarda, ya'ni ta'lim rus tilida olib boriladigan sinflarda asosan o'zbek millati farzandlari o'qishini inobatga oladigan bo'lsak, o'quvchilarning so'z boyligi va og'zaki nutqini o'stirishga xizmat qiladigan O'zbek adabiyoti fanini dasturga kiritish lozim. Hozirda davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotgan kitobxonlik madaniyatini yosh avlodda shakllantirish, o'zbek tilidagi kitoblarni mutolaa qilishga ularni o'rgatish, iloji bo'lsa, o'zbek tilida o'qishi lozim bo'lgan badiiy asarlar

ro'yxatini har bir sinf kesimida shakllantirish va umumta'lim maktablariga yetkazish, shu asosda o'zbek adabiyoti darslarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki ko'pgina ta'lim rus tilida olib boriladigan sinflar o'quvchisi o'zbek millatiga mansub ekanini, ular maktab ta'limi orqali faqat rus adabiyoti bilan tanishayotganini, o'zi mansub millat adabiyotidan bebahra qolayotganini, bu esa ularning ma'naviyatiga va dunyoqarashiga ham ta'sir qilishini ham hisobga olishimiz zarur. Chunki hozirda o'zbek tilini bilmaslik respublikamizda yashovchi faqat o'zga millat vakillarida uchramayapti, afsuslanadigan va chuqur o'ylantiradigan joyi shundaki, o'zbek millatiga mansub jamiyat a'zolari, ayniqsa, shahar aholisi orasida juda ko'p uchraydi.

2. O'zbek tili darsliklarini qayta isloh qilish va yangilash davr talabi ekanligini inobatga olgan holda darslikka lug'at bilan ishlash, yozma nutqini shakllantirish va yuksaltirishga xizmat qiluvchi mavzular va mashqlar kiritish, imlo qoidalari va uni mustahkamlashga yo'naltiruvchi topshiriqlar kiritish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. Darsliklarda bolani mustaqil ijodiy fikrlashga va og'zaki nutqini o'stirishga undaydigan, tafakkurini kengaytirishga xizmat qiladigan topshiriqlarga keng o'rin berish zarur.

3. O'zbek tili darsliklariga adabiyotimizdagi yorqin siymolar: Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Said Ahmad, Odil Yoqubov kabi adiblar ijodiga oid hikmatli so'zlar, kichik-kichik matn parchalarini kiritish orqali ham o'zbek adabiyotiga bo'lgan qiziqishni oshirish mumkin. Parchalar keltirilgach, mustaqil o'qish uchun shu adabiyotlarni tavsiya qilib borish ham foydadan xoli bo'lmaydi. Chunki Prezidentimiz to'g'ri ta'kidlaganlaridek, har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak, bu olijanob harakatni barchamiz o'zimizdan, o'z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak.

4. O'zga millat vakillarining o'zbek tilini yanada mukammalroq o'rganishlari uchun xuddi ingliz tilini o'rganishga qaratilgan kitoblar kabi qo'shimcha adabiyotlar yaratish davr talabidir. "O'zbek tilini o'rganamiz", "Qiziqarli o'zbek tili", "Oson o'zbek tili" kabi qo'shimcha adabiyotlar yaratilsa, maktab ta'limida o'zbek tilining mustahkam asoslarini – poydevorini qurish mumkin.

5. Hozirgi globallashuv davrida, ya'ni internet va axborot texnologiyalari imkoniyatlari kengaygan bir paytda o'zbek tili ta'lim samaradorligini oshirish yo'lida ham ulardan foydalanish lozim. O'zbek tilini o'rgatuvchi, mustahkamlovchi, yozma nutqini takomillashtiruvchi, savodxonligini oshiruvchi amaliy xarakterdagi dasturlar, mobil ilovalar, o'yinlar yaratishga alohida e'tibor berilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Bu dasturlar yosh va tilni bilish darajasiga qarab turli toifada bo'lishi zarur.

6. Maktabda o'zbek tili ta'limining samarasini ta'minlovchi ijtimoiy omillarga ham e'tibor qaratish davri keldi. Davlat tilining mavqeyini oshirish uchun ma'lum muddat o'zbek tilini yuqori darajada bilishni fuqarolarni ishga qabul qilishning asosiy shartlaridan biriga aylantirish lozim. Chunki hozirda hamma ingliz tili va rus tilini o'rganishga alohida e'tibor qaratyapti. Sababi ishga joylashishning shartlaridan biri shu tillarni mukammal bilish hisoblanadi. Agar biz o'zbek tilini yuqori darajada bilishni fuqarolarni ishga qabul qilishning asosiy shartlaridan biriga aylantirsak, o'z-o'zidan maktabdagi o'zbek tili ta'limi samaradorligi yanada oshadi.

7. Respublikamizda fuqarolarning o'zbek tiliga oid bilimlarini baholashning Milliy tizimini (xuddi ingliz yo boshqa tillarni baholashning tizimlari kabi) yaratish kerak. O'zbek tiliga oid bilimlarini turli darajalarga ajratgan holda baholash imtihoni va sertifikatini amaliyotga joriy qilish kerak. Shu imtihondan yuqori natijani qo'lga kiritgan fuqarolarga ma'lum muddat bo'lsa ham, qo'shimcha imkoniyatlarni berish orqali ham maqsadga yetish mumkin.

O'zbek tili fanining asosiy maqsadi to'g'ri va ravon so'zlaydigan, bexato yozadigan savodxon shaxsni yetishtirish ekan, biz asosiy maqsaddan chekinmagan holda davlat tili mavqeyi va nufuzini oshirishga tizimli tarzda yondashishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni / <https://uza.uz/uz/documents/o-zbek-tilining-davlat-tili-sifatidagi-nufuzi-va-mavqeyini-tu-22-10-2019>

2. Muxitdinova X.S., Avlakulov Y.I., Nuriddinova D.A. O'zbek tili. Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 6-sinfi uchun darslik. –Toshkent: Yangiyo'l poligraf servis, 2017.

3. Muxitdinova X.S., Muxamedjanova G.Z., Talipova F.S., Eshbayeva R.B. O‘zbek tili. Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 11-sinfi uchun darslik. – Toshkent, 2018.

ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Mehriniso Qo‘ldosheva,
Toshkent shahar Sergeli tumani
32-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Bugungi rivojlanayotgan, globallasuv jarayoni o‘z navbatida ta’lim sohasiga ham o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatmoqdaki, ta’limning rivoji har bir o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, talabchan, ijodkor bo‘lishi o‘quvchilarning har biri bilan individual ishlashi ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirib borishini taqozo etadi.

Bundan kelib chiqadiki, ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan, yoshlar ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanadigan ustoz va murabbiylar o‘quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs qilib yetishtirish uchun ularni xalqining o‘chmas umumbashariy qadriyatlarini hamda buyuk xalqimizning mehmondo‘stligi, insonparvarligi chashmalaridan bahramand bo‘lishiga e’tabor berib, milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizni, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ma’naviy va moddiy merosini yaxshi bilishi va ularni har bir darslarga joriy etishi zarur.

Dars jarayonlarida o‘quvchilarning faoliyatini pedagogik jihatdan to‘g‘ri taqsimlash maqsadga muvofiqdir. Har bir o‘qituvchi dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tarbiyalanuvchilarning tafakkuridagi ilg‘or kuchlarga tayanib, ularning dunyoqarashiga ijobiy ta’sir etish natijasida darslarni tashkil etishlari lozimdir. Bu orada ustoz va shogird orasida qandaydir ijobiy hamkorlik ular o‘rtasida aloqa vositalarini paydo qiladi.

Dars jarayonlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda o‘qituvchi o‘quvchining bilimini bevosita kuzatish, o‘quvchi ongidagi g‘oyalarni jamiyatda vujudga kelayotgan g‘oyalar bilan taqqoslash va mosini tanlashiga ahamiyat berishi lozim. Bugungi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning juda ko‘plab turlari yaratilgan bo‘lib, ulardan samarali foydalanib kelinmoqda. Masalan, “Bumerang”, “Charxpalak”, “Zanjir”, “Debat”, “Klaster”, “Aqliy hujum” kabi bir qator zamonaviy

pedagogik texnologiyalar shakllari mavjud bo'lib, ular ta'lim sifatini oshirish uchun litsiy, kollej hamda umumta'lim maktablar tizimida keng tatbiq etilmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta'lim tizimi o'quvchilarni erkin muloqot qilishida, o'qituvchi bilan bemalol fikr almashishida yordam beradi. Bundan tashqari, o'qitishning erkin va majburiyatsizligi hamda eng asosiysi o'quvchilar uchun o'ta qiziqarliligi va samaradorligini ta'minlaydi.

Darslarda didaktik o'yinlarning ahamiyati ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Didaktik o'yinlar bilan darsni boshlash o'qitishni qiziqarli va zavqli qilish, o'quvchilarning kayfiyatini xushmuomala bo'lishini, o'quv jarayonining qiyinchiliklarni sabr bilan o'zlashtirishda yordam beradi.

Yuqoridagi fikrlarimizni quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalar va usullar yordamida isbotlaymiz. Masalan, SWOT, FCMU, Insert texnologiyalari yordamida munozarali masalalarni hal etish, bahs-munozaralar o'tkazish mumkin. Bu texnologiyalardan asosan biror bir mavzu yoki kattaroq asarlarni o'rganib bo'lingach, qo'llashimiz lozim. Ona tili va adabiyot darslarida bunday texnologiyalarni qo'llash har bir o'quvchini erkin fikrlashga, o'z fikr va mulohazalarini himoya qilishga, ochiq holda bahslashishga, o'zidagi paydo bo'lgan fikrni boshqalarga o'tkazishga va shu bilan bir qatorda tarbiyalanuvchilarni dars jarayonida qo'lga kiritgan bilimlarini tahlil etish va taqqoslashga o'rgatadi. O'quvchilarga tarqatilgan oq qog'ozlarda ular o'z fikrlarini mustaqil bayon qilishadi. Masalan, FSMU texnologiyasi maqsadga muvofiq. Bunda har bir o'quvchi bilan yakka tartibda va dars so'ngida kichik guruh bo'lib ishlashi aytiladi. Mashg'ulot davomida o'quvchilar o'z fikrlarini to'liq bayon etishadi va shu bilan bir-biriga mos keladigan fikrlar jamlanib guruh hosil qilinadi.

F – fikringizni bayon eting,

S – o'zingiz bildirayotgan fikringizga sabab ko'sating,

M – o'zingiz ko'rsatgan sababingizga misol bilan javob qaytaring,

U – fikringizni umumlashtiring.

Shundan so'ng o'quvchilar bildirgan fikrlarini jamlab o'qituvchi bergan katta formatdagi qog'ozlarga yozadi. O'quvchilar o'zlari yozgan fikrlarini sinf oldida himoya qilishadi. Bundan ko'rinib turibdiki, har bir o'tilayotgan dars mashg'ulotlari muhokamalar asosida taqqoslar bilan o'zlashtiriladi. Demak, zamonaviy pedagogik texnologiyalar har bir dars mavzularini mukammal o'zlashtirish uchun eng asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, odatdagidan cheklangan holda, ya'ni noan'anaviy tarzda o'qituvchining bolalarga mavzuni tushuntirishi bilan bog'liq bo'lgan faolligini amalga oshirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir. Hozirgi kunga kelib o'qitish jarayonida o'quvchilarni zeriktirib qo'ymaydigan, mustaqil fikrlashga, mustaqil izlanishga yo'naltiradigan har bir metod va o'qitish vositalardan foydalanish unumli foyda bermoqda. Milliy o'qitish tizimining o'ziga xos jihati ham shundan iboratdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'tilgan har bir darsda o'quvchilar o'z qobiliyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga hech qanday to'siqqa uchramaydilar. Jamoa bo'lib ishlash malakasiga ega bo'ladilar, boshqalarning fikrlarini hurmat qilishni o'rganadilar. Bu esa dars jarayoning samaradorligini oshirib, ta'lim sifatini mukammallashtirishga, yaxshilashga bevosita xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
2. Abduqodirov A., Ishmuhamedov R., Pardayev A. Ta'limda innovasion texnologiyalar. – T., 2008.

O'QUVCHILARNI PUNKTUATSIYA BILAN TANISHTIRISH USULLARI

Muhayyoxon To'xtaboyeva,
Qo'qon shahridagi 7-maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Bilamizki, umumiy o'rta ta'lim jarayonida Punktuatsiya bo'limi alohida mavzu sifatida o'rganilmaydi, lekin boshqa mavzular tarkibiga singdirib yuborilgan shaklda o'qitiladi. Bu o'qituvchidan alohida yondashuvni talab etadi.

Amaliyotda o'quvchilarning yozma ishlarida uchraydigan tinish belgilariga oid xatolarning quyidagi ko'rinishlarda uchraydi:

- 1) kerakli tinish belgisini qo'ymaslik;
- 2) tinish belgisini ortiqcha qo'llash;
- 3) tinish belgilarini qorishtirish, birining o'rniga boshqasini qo'llash;
- 4) belgilardan birini tushirib qoldirish;
- 5) tinish belgilarini ishlatishda izchillikning yo'qligi.

Nazorat ishlarini boshlashdan oldin tayyorgarlik mashg'ulotlarini o'tkazish katta samara beradi. Buning uchun quyidagicha hazilomuz

hikoyani aytib berish mumkin. Bu o'quvchining to'g'ri yozishiga motivatsiya beradi:

Bir kuni gazeta muharrirlaridan biri havaskor shoirdan xat oldi. Shoir o'ta mazmunsiz she'r yozib, tagiga xat ham ilova qilib qo'ygan ekan:

– Tinish belgilarini qo'ymadim, uzr, o'zingiz qo'yib olarsiz. Fig'oni falakka chiqqan muharrir darhol havaskor shoirga javob xati yo'lladi:

– Kelgusi safar tinish belgilarining o'zini qo'yib yuboravering, so'zlarini o'zim topib qo'yarman.

Xatolar ustida ishlashda quyidagi usul samarali hisoblanadi.

Misollar topish. O'quvchilar biror tinish belgilariga oid qoidaga mos keladigan misollar topadilar. Bunday mashqni uzoq o'tilgan, shuningdek, yangi o'tilayotgan mavzu yuzasidan ham o'tkazish mumkin. Masalan, 8-sinfda "Uyushiq bo'laklarda umumlashtiruvchi so'z" mavzusi o'tilgandan so'ng, "Umumlashtiruvchi so'zlarda tinish belgilarining qo'yilishi" mavzusini o'tishda o'qituvchi bu mavzuga misollar topishni o'quvchilarga vazifa qilib topshirishi mumkin. Bu kabi mashqni mustaqil ish sifatida bajartirish yaxshi natija beradi. O'quvchilarning tinish belgilariga oid qoidalarni o'rganish chog'ida o'zlarining mustaqil ish daftariga aynan shu qoidaga mos keladigan misollarni o'zlari o'qigan badiiy asarlaridan topib yozib kelishi uyushtiriladi.

Bilamizki, grammatik qoidani yodlashdan ko'ra she'r yodlash o'quvchilarga ko'proq yoqadi, ularning xotirasida uzoq saqlanadi. "Til va adabiyot ta'limi" jurnalidan olgan quyidagi she'riy parchalarning savodxonlikni oshirishda samara berganligi faoliyatimiz davomida yaqqol sezildi.

Nuqta (.) belgisi:

– Fikrlarning shohbekati – nuqtadirman,
Har darak gap oxirida to'xtaydirman.
Boshqa fi kr boshlanajak mendan keyin,
Ba'zan quloq solmasangiz, men ne deyin?

So'roq (?) belgisi:

Sen singari rolim aytsam, nuqta do'stim,
Har so'roq gap bitgan joyda mening postim.
Mendan so'ng ham katta harf qo'ymoq shartdir,
Bunga odat qilinmasa, yomon darddir.
Uqdingmi? Yetadimi? Bormi savol?
Yoki o'zim so'rayinmi sizdan savol?

Undov (!) belgisi:

– Do'stlar, menga bir qarang-a!

Menday magʻrur kelishgan
Belgi yana qayda bor?
Koʻrmagansiz, ehtimol.
Mazmunidan undov, sevinch, nafrat, gʻazab.
Yo hayajon maʼnosini anglatsa gap,
Shunday jumla adogʻida boʻlar joyim,
Mendan soʻng ham bosh harflar kelar doim.

Qavs ():

– Bizlar qavs, egiz belgi boʻlamiz,
Baʼzan birga, baʼzan yolgʻiz kelamiz.
Gap boshida kelib qolsa raqamlar,
Yonida turishga bittamiz ham yetamiz.
Berilsa kirish gaplar,
Gapdan soʻng mualliflar.
Oʻyga tolmang, qoʻrqmangiz,
Oramizga tez olamiz.

Qoʻshtirnoq (“”):

– Bizlar qoʻshtirnoq, tirnoq,
Ikkimiz koʻpdan inoq.
Gar koʻchirma gap matnida,
Olamiz oraga shu onda.
Badiiy asar, muassasa nomlarin
Satlarda oʻrtamizga olamiz.
Doʻq, poʻpisa, kinoyadan qoʻrqmang sira,
Tashqariga chiqarmay chegaralab qoʻyamiz.

Tinish belgilari tushirib qoldirilgan matnning tinish belgilarini qoʻyib koʻchirish va ishlatilgan tinish belgilarini izohlash. Mashqning bu turi punktuatsiya oʻrgatishda keng tarqalgan usul boʻlib, dastavval, oʻquvcilarning mustaqil ishlash faoliyatini yaxshilaydi. Oʻquvchilar bu matnni toʻliq yozib olib, mazmunini anglab yetganlaridan keyingina tinish belgilarini qoʻyadilar. Agar matn mazmunan bir-biriga bogʻlanmagan alohida-alohida gaplardan iborat boʻlsa, bunday gaplarning har biri raqamlab beriladi. Birinchi gap yozilib boʻlganidan soʻng, uning mazmuni tushuntiriladi (zarur hollarda u gap sintaktil tahlil ham qilinadi), soʻng kerakli tinish belgisi qoʻyiladi, ish shu tartibda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy oʻrta taʼlim “Ona tili” darsliklari. 2015.
2. “Til va adabiyot taʼlimi” jurnali, 2018.

ONA TILI DARSLIGI – ASOSIY TA’LIM VOSITASI

Shoiraxon Ergasheva, Namangan viloyati
Mingbuloq tumanidagi 15-maktab o‘qituvchisi

Darsliklar ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari: ta’lim bilan tarbiyaning insonparvarligi, demokratik xarakterda ekanligi, ta’limning uzluksizligi va uzviyligi, ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi to‘g‘risidagi prinsiplariga asoslangan bo‘lishi lozim [1].

Bilamizki, darslik DTS asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga javob beradigan, o‘quv fanining mavzulari to‘liq yoritilgan, uning asoslari mukammal o‘zlashtirilishiga qaratilgan, o‘quv fanining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta’lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladigan, nazariy ma’lumotlardan tashqari amaliy-tajriba va sinov mashqlarini qamrab olgan kitob shaklidagi o‘quv nashri hisoblanadi. Quyidagi amaldagi 4-sinf “Ona tili” [2] darsligining ushbu talablarga qay darajada javob berishini tahlil qilib chiqamiz.

1. Didaktik talablar: matnlar faqatgina axborot berishga emas, balki o‘quv fanining mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadlariga xizmat qilgan; qiziqarli, lo‘nda va hamma uchun qulay va tabaqalashtirilgan; aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topgan; rasmlar ko‘rinishidagi illyustrasiyalar: chizmalar, sxemalar, jadvallar va rangli suratlar bilan bezatilgan; yangi qoidalar, ta’riflar qisqa va tushunarli, sodda tilda berilgan.

2. Ilmiy-metodik talablar: bugungi kun talabi asosida shakllantirilgan; o‘quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta’minlangan; o‘quv fani mavzulari oddiy va sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilingan; milliy g‘oya va O‘zbekiston xalqining mentalitetiga xos rasmlar bilan boyitilgan; savol va topshiriqlar aniq ifodalangan; o‘quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, rasm chizishga, amaliy ishlarni bajarishga o‘rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan.

3. Estetik talablar: darslik yorqin, rangli, qiziqarli va chiroyli dizaynda ishlangan; matnlar o‘quvchiga ma’lum ijobiy hissiy ta’sirlarni o‘tkazishga va o‘quv faniga qiziqish uyg‘otishga xizmat qilgan; rasm va tasvirlar badiiy estetik talablarga javob beradi; berilgan nazariy va nasriy matnlarda milliy tafakkur, milliy g‘oya, ma’naviy qadriyatlar, sharqona odob-axloq namunalari aks ettirilgan. Quyida fikrimizni dalillovchi

darslik mohiyatini ochib beruvchi mashq va topshiriqlar, nazariy qoidalarga to‘xtalamiz.

Darslikda so‘zlarning ma’nolari bilan ishlashga alohida e’tibor qaratilgan.

Masalan, **tug‘ro – gerb; qopqa – darvoza; mezon – kuz faslida havoda uchib yuradigan to‘rsimon ip; alp – bahodir, pahlavon; xarsang – katta tosh.**

Mashq va topshiriqlar ham adabiyot bilan uzviylikda ishlab chiqilganki, fanlararo aloqadorlik orqali nutqiy kompetentlik biz kutgan darajada shakllanadi. Quyidagi mashqqa e’tibor qaratamiz.

22-mashq. She’rni ifodali o‘qing. Bolalar paxtani nimalarga o‘xshatishgan?

INSHOLARDAN KO‘CHIRMALAR

Barno debdi: “Paxtamiz

Momiq parga o‘xshaydi”.

Ra’no debdi: “Paxtamiz

Xuddi zarga o‘xshaydi”.

Uni oppoq bulutga

Qiyos qilibdi Davron,

“Muzqaymoqning o‘zi u”,

– Debdi hazilkash Omon...

Inshosini shundayin

Tugatibdi Shouzoq:

“Asli paxta qordekmas,

Dadamning sochidek oq”. (Abdurahmon Akbar)

Barnoning gapini ko‘chiring. So‘roqlar yordamida kesimni aniqlang. Tagiga tegishlicha chizing. Siz paxtani nimaga o‘xshatgicingiz keladi? Fikringizni bitta gap bilan ifodalang va yozing. Yozgan gapingizdagi kesimning tagiga chizing. E’tibor bersak, bu mashqda asosiy e’tibor faqat grammatik bilimlarga emas, balki nutq o‘stirishga qaratilgan.

70-mashq. O‘qing. Undalmalarni topib, gapning qaysi o‘rnida kelganini ayting.

1. Navbahor, ochildi gullar, sabza bo‘ldi bog‘lar.

Suhbat aylaylik, kelinglar, jo‘ralar, o‘rtoqlar. (Muqimiy)

2. Lekin, yurtim, kezolmas g‘anim

O‘zbekiston atalgan bog‘da.

Sen-ku nomus va sha‘nim manim,

O‘zbekiston, Vatanim manim. (Abdulla Oripov)

Ushbu mashqda mumtoz adabiyot namunasi keltirilishi maqsadga muvofiq bo'lgan. Bunday yondashuv biroz murakkabroq tuyulsa-da, o'quvchilarda ham qiziqish, ham faollikni oshiradi.

Darslikda ish hujjatlari bilan tanishish ham e'tibordan chetda qolmagan.
74-mashq. E'lonni o'qing.

E'lon

Hurmatli o'quvchilar! 20-oktabr kuni "Ona tilimizni o'rganamiz" mavzusida navbatdagi to'garak mashg'uloti o'tkaziladi. Sana.

Namuna asosida o'zingiz e'lon yozing.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, darslikning o'qitish jarayonidagi eng asosiy vositalardan biri ekanligini hisobga olgan holda har bir darslik uning umumiy va xususiy talablardan kelib chiqqan holda yaratilishi, unga qo'yiladigan talablarga to'liq mos kelishi ta'lim sifati samaradorligini oshirishda eng muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. http://fikir.uz/blog/talim_fan_taraqqiyoti/7601.html
2. R.Ikromova v.b. Ona tili. Umumiy o'rta maktablarning 4-sinfi uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2017.

5-SINF O'QUVCHILARINING YOZMA NUTQINI BAHOLASH MEZONLARI

Mohigul Esanova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU 2-kurs magistranti

Zamon taraqqiyotining jahon miqyosida jadallashuvi, tezkor axborot uzatish va olish zaruriyatining oshishi o'quvchilarda nutqiy kompetentlikni, ravon va aniq bo'lgan nutq malakasini o'stirishni, ulardagi ilmiy-ijodiy tafakkurni maqsadli yo'naltiruvchi topshiriqlar ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bunday talab asosan maktablardagi ona tili darslari zimmasiga tushadi.

Maktablarda ona tilini o'qitishda asosiy e'tibor til qoidalarini yod olish, til hodisalarini tahlil qilish kabi nazariy bilimlarni egallashga qaratilgan. Nutq madaniyati – so'z boyligi, og'zaki va yozma nutq taraqqiyoti, uslubiyat masalalari ilmiy grammatizm soyasida qolib, ularga ikkinchi darajali vazifa sifatida qarash odat tusiga kirdi [4; 80-b.]. Tilga doir nazariy bilimlarni egallash o'z davrida katta ahamiyat kasb etgan, ammo bu yondashuv bugungi kunning talablari uchun yetarli bo'lmay qoldi.

Bunday vaziyatda umumiy oʻrta taʼlim maktablari ona tili darslarida mustaqil fikrlash, nutqiy bilimlarni ogʻzaki va yozma tarzda toʻgʻri ifodalash masalasi ustuvor mavqeni egallab bormoqda. Xususan, M. Rixsiyevaning “Taʼlim rus tilida olib boriladigan maktablarning oʻzbek tili darslarida oʻquvchilarni matn tuzishga oʻrgatish”, X. Muxitdinovanning “Taʼlim boshqichlarida oʻzbek tili oʻqitilishi uzluksizligini taʼminlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish”, N. Sattorovanning “Oʻquvchilarning insho yozish malakalarini shakllantirish” nomli tadqiqotlari fikrimizning isbotidir.

Oʻquvchilarda matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirishning innovatsion texnologilari borasida tadqiqot olib borgan T.Ziyodova ushbu yoʻnalishda MYBT – 4 (Matn yaratishning toʻrt bosqichli texnologiyasi) ni taklif qiladi. Bu texnologiyada, oʻquvchilarga shunday topshiriq yuklatiladi:

“1-bosqich. Tayanch soʻzlarni tanlash (uyadosh, maʼnodosh, zid maʼnoli);
2-bosqich. Soʻz birikmasini hosil qilish (“Ot + ot”, “olmosh + ot”, “sifat + ot”, “ot + feʼl”);
3-bosqich. Soʻz birikmasidan gap tuzish (sodda yoyiq va sodda yigʻiq, kirish soʻz va kirish gapli, sodda va qoʻshma gaplar);
4-bosqich. Gaplardan matn yaratish (monologik, ramziy matnlar)” [7; 23–29-b.].

Lekin bu usul bizningcha, xuddi shu koʻrinishdagi topshiriq sifatida oʻquvchilarga berilsa, ular uchun bu birmuncha qiyinchilik tugʻdirishi mumkin. Chunki koʻrinib turganidek, bu texnologiya grammatikaga asoslanadi va oʻquvchilarning matn tuzishdagi erkinligini cheklaydi. Grammatik qoidalardagi xatoliklar oʻquvchining ogʻzaki va yozma nutqini tekshirishda baho tushiradigan asosiy sabab boʻlib qolmasligi kerak.

5-sinf ona tili darsligidagi mashq va topshiriqlarning oʻquvchilardagi yozma nutqni oʻstirishga qay darajada xizmat qilishini koʻrib chiqadigan boʻlsak, mashqlarning koʻpgina qismini oʻquvchilarning ijodkorligini oʻstirish uchun xizmat qiluvchi oʻtilgan mavzuga mos bayon, hikoya, kichik matn kabilarni tuzish topshiriqlari berilgan, lekin bunday topshiriqlarga Grammatik vazifa ham yuklatilgan boʻladi. Masalan, 5-sinf ona tili darsligidagi “Soʻroq olmoshlari yordamida ifodalangan soʻroq gaplar” mavzusining 94-mashqida buni koʻrishimiz mumkin: “Qarisi bor uyning parisi bor” mavzusida matn tuzing. Unda soʻroq olmoshlari ishtirok etgan soʻroq gaplardan foydalaning” [5; 30-b.].

Oʻquvchilarning koʻpchiligi uyda kimningdir yordamida matn tuzishadi, undagi soʻzlarning grammatik vazifasiga eʼtibor bera olmaydi,

yoki bunday qo‘shimcha topshiriq ularni chalg‘itadi. Shunday ekan, matn tuzish uchun berilgan topshiriqlarda o‘quvchilarning diqqatini bir tomonga yo‘naltirgan mavzularga qaratish lozim, ya‘ni ular uchun qiziq bo‘lgan sarlavha asosida matn yaratish topshirig‘i berilishi va unda asosan, mazmunga e‘tibor qaratishlari kerakligi aytilishi lozim. Nutqni o‘stirishda ularning lisoniy malakasini va qiziqishlarini hisobga olgan holda o‘quv topshiriqlarini berib borish maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchi nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida hamda ona tili darslarni samarali tashkil etish uchun an‘anaviy subyekt-obyekt emas, balki subyekt-subyekt tarzi barchaga birdek manzur bo‘lmoqda. Unda o‘quvchi ta‘lim jarayonining ishtirokchisi emas, ijrochisi, kashfiyotchisi hisoblanadi. O‘qituvchi esa tushuntiruvchi, nazorat qiluvchi, baholovchigina bo‘lib qolmay, balki o‘quvchilarni mavzuga yo‘naltiruvchi va boshqaruvchi vazifasini bajaradi.

Buni XX asrning 60-yillarida Osiyo va Yevropaning rivojlangan davlatlari ta‘lim tizimiga kirib kelgan kognitivizm hodisasiga bog‘lashimiz mumkin. O‘sha davrda bu hodisa ancha keng ommalashdi. Bunda kognitivizm o‘quvchi bilimining ko‘proq og‘zaki yo‘sinda bayon etilishi (verbal tizim) bilan birlashib, ongli verbal-kognitiv ta‘lim yo‘nalishi paydo bo‘ldi (OVKT). Bu yo‘nalishga taniqli pedagog D. Ozbel asos solgan bo‘lib, u ta‘lim jarayonida “Discovery” ya‘ni kashfiyot yetakchi usul ekanligini ta‘kidlaydi [3; 191-b.]. Bu usulning mohiyatida ta‘lim oluvchini har bir topshiriqni bajarishi paytida yangi hodisalarni kashf etish yoki nimanidir yaratish bilan shug‘ullanishi yotadi. Ushbu jarayonda onglilik (ing. *Meanigool learning*) yetakchilik qiladi.

Ingliz tadqiqotchisi Ann Raimes o‘z maqolasida o‘qituvchilar uchun bolalarda yozma nutqni o‘stirishning o‘nta bosqichli rejasini ko‘rsatib o‘tgan. Ulardan biri taklif va fikr-mulohazalar yordamida mashg‘ulot turini tanlash bosqichidir. Ya‘ni bunda o‘quvchining ehtiyoji hisobga olinadi, bolalardan talab va takliflar yozma ravishda so‘raladi. Shu asosida dars mashg‘ulotlarining turi tanlab olinishi ko‘zda tutiladi [1; 306–315-b.].

Aytilgan takliflar va tajribalarga asoslangan holda poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 114-maktabning 5-sinf o‘quvchilari ishtirokida tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Tadqiqot davomida o‘quvchilarning tinglab, o‘qib, ko‘rib tushungan holda yozma matn yaratishlariga imkon berildi. Shunga ko‘ra, 5-sinf o‘quvchilari yozma nutqini o‘stirishga qaratilgan matnlarni tanlashda, asosan, shu jihatlarga e‘tibor berdik, ya‘ni shu yoshdagi o‘quvchilarga tushunilishi mos bo‘lgan, ular yoshidagi

bolalarni qiziqтира oladigan matnlarga e'tiborimizni qaratdik. Bu mazmun jihatdan boy bo'lgan bayon yaratishlari uchun muhim omil hisoblanadi. O'quvchilarning tanlangan matnni tushunish jarayoni shu asosda darajalandi hamda tahlil qilindi:

1. Assotsiativ daraja – tayanch matnning uslubi, unda qo'llanilgan so'zlarning ma'nosi, o'qib berilgan matn tarkibida yo'q so'zlardan foydalanganligi yoki so'zlarning sinonimlarini qo'llaganligi.

2. Struktural daraja – tayanch matndagi mazmuniy jihatdan ajratilgan tarkiblarning ketma-ketligi, ularning o'zaro bog'lanishi.

3. Matn darajasi – o'qib eshittirilgan matnning yaxlit holda hosil qilinishi. Bunda eshittirilgan matn mazmun va shakl jihatdan to'ldirilgan holda bayon qilinadi, lekin tayanch matnning oldingi mazmuniga putur yetkazilmaydi [2; 88-b.].

Matn tushunish jarayoni yuqorida sanab o'tilgan parametrlar asosida darajalangan bo'lsa, ularning yozma nutqida aks ettirilishini tekshirish va bahoshda ham alohida talablar hisobga olindi:

Nutqning mazmundorligi (3 ball) – bunda matn tarkibida asosiy fikrning mavjudligi (1 ball), axborot dalillarning muhimligi (1 ball), berilgan axborotning yangiligi (1 ball).

Yozma nutqning tushunarligi (2 ball) – yaratilgan matn qay darajada mantiqiyli (1 ball) hamda tilning aniq va ravshanligi (1 ball).

Nutqning ifodaliligi (1 ball)– lug'atning boy yoki sayozligi (1 ball) [6. 26-bet].

Jami: 6 ball

Ayni damda bu tadqiqot ishlari davom etmoqda. So'nggi xulosa chiqarilmagan bo'lsa-da, o'quvchilar yozma nutqida mustaqil fikrlash ko'nikmasi hosil bo'lmoqda.

Tajriba sinfiga berilayotgan topshiriqlar, nafaqat, ularni ijodiylikka, balki mantiqiy fikrlashga undaydi. O'quvchilar bilan o'tkazilgan bir tajribani yuqoridagi talablar asosida ko'rib chiqamiz:

Tajriba ishtirokchilari: 2019–2020-o'quv yilida Chilonzor tumani 114-maktabning 5-sinfda tahsil olayotgan 15 nafar o'quvchi.

Tajriba usuli: savol va topshiriq asosida yozma ish yozish.

Savol va topshiriq quyidagicha: Telefon yoki kompyuterlardan qanday maqsadda foydalaniladi? Ularning foydali va zararli jihatlarini yozing.

Yozma ishlar natijasi quyidagi jadvalda aks ettirildi:

O'quvchi soni	To'plangan ball	Foiz
1 nafar	6 ball	7 %
7 nafar	5 ball	46 %

4 nafar	4 ball	26 %
1 nafar	3 ball	7 %
1 nafar	2 ball	7 %
1 nafar	1 ball	7 %

Umumiy hisobda oladigan bo'lsak, 53 foiz o'quvchi yozma ishlarini a'lo darajada bajargan. Bu esa bundan oldin o'tkazilgan 4 ta mashg'ulotda erishilgan natijalardan 20 – 30 foizga yuqoridir.

O'quvchilarning yozma ishlariga e'tibor qaratsak, Maksimal 6 ball olgan o'quvchining yozgan matnida quyidagi jumlar uchraydi: *“Foydali tomoni: yangiliklardan boxabar bo'lish, hujjatlar, rasmlar tayyorlash va ularni uzatib-qabul qilish, uzoqdagi yaqinlar bilan suhbatlashish mumkin. Zarari: ko'p foydalanilganda ko'z nurini oladi, miya faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, inson xotirasi ishdan chiqishiga sabab bo'ladi, ijtimoiy tarmoqlardan boshini ko'tara olmay, real hayotdan ko'ra virtual hayotga bog'lanib qoladi...”*

5 ball olgan o'quvchilardan birining ishida quyidagi mantiqiy faktlarni uchratdik: *“Kompyuter va telefonlarsiz hozirgi hayotimizni tasavvur eta olmaymiz. Ularning foydali jihati shundaki, har xil dasturlar, loyihalar tuzishda, foydali o'yinlar o'ynashda foydalanamiz, zarari esa ko'z nuruning pasayishi, insult kasalining kelib chiqishi, internet yoki kompyuter o'yinlariga mukkasidan ketish oqibatida dangasalik kelib chiqishi mumkin. Oldini olish choralari: kompyuter oldiga kaktus qo'yish va maxsus ko'zoynak taqish, ulardan 1 soatdan ortiq foydalanmaslik...”*

O'quvchilarning yozma ishlariga ball berishda, ayniqsa, mana shunday faktlardan foydalangan holda fikrlarini aniq, ravshan ochib bera olganligi hisobga olindi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, o'quvchilarning yozma nutqini o'stirishga qaratilgan topshiriqlar ular yoshiga mos, absurd tushunchalardan xoli, ular uchun qiziqarli bo'lgan matnlar yaratishiga imkon beradigan bo'lishi lozim. Bunday tarzda fikrlashga o'rgatish o'quvchilarda maktabdagi ona tili darslarida zerikib qolmaslik bilan birga jahondagi ta'lim standartlariga muvofiq kadrlar yetishtirib chiqishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ann Raimes. Ten steps in planning a writing course and training teachers of writing // Methodology in language teaching, 2002.
2. Azimova I. O'zbek tilidagi gazeta matnlarining mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi (monografiya): F.f.n.dis. –T.:

O‘zMU, 2008.

3. Bushiy T., Safarov Sh. Til qurilishi: Tahlil metodlari va metodologiyasi. – Toshkent, 2007.

4. Hojiyev A. , va boshqalar. Ona tili. 7 – 9-sinflar uchun darslik. – Toshkent; O‘qituvchi, 1993.

5. Mahmudov N. va boshq. Ona tili. 5-sinflar uchun darslik. – Toshkent; Ma’naviyat, 2007.

6. Mo‘minova O. Nutqni rivojlantiruvchi trening mashg‘ulotlari. Til va adabiyot ta’limi, 5-son, 2018.

7. Ziyodova T. Tilni tizimli o‘rganishda o‘quvchilarda kommunikativ savodxonlikni oshirish bosqichlari. Xalq ta’limi, 3-son, 2015.

ADABIYOT FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

BEG‘UBOR TUYG‘ULAR TALQINI

Safo Matchonov, Toshkent viloyati
Chirchiq davlat pedagogika instituti
professori, pedagogika fanlari doktori

Har bir davr o‘z adabiyotini yaratgani kabi istiqlol davri bolalar adabiyoti ham tasvir uslubi hamda muammoga yondashilishiga ko‘ra o‘ziga xos xususiyat kasb etadi. Agar sho‘ro davri bolalar adabiyotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri nasihatbozlik keng ko‘lamda yoritilgan bo‘lsa, istiqlol davri bolalar adabiyotida har qanday mavzuning estetik tarbiyaviy mohiyatiga alohida e‘tibor qaratilayotganini ko‘rish mumkin.

Kichik kitobxonni ijtimoiy muammolar bilan tanishtirish bolalar adabiyotida aslida nisbatan ertaroq – o‘tgan asrning 80-yillarida boshlangan edi. Anvar Obidjonning “0099 raqamli yolg‘onchi”, “Ey yorug‘ dunyo”, “Alamazon va uning piyodalari” kabi qissalarida hamda “Botinkaning tufliga xati” tipidagi turkum she‘rlarida mos masala qilib qo‘yilgan edi. Istiqlol davrida jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq g‘oyalar S.Barnoyevning publitsistik chiqishlarida, T.Adashboyev, K.Turdiyeva, A.Akbar, D.Rajab, Q.Ismoil kabi shoirlarning she‘riy asarlarida o‘z ifodasini topdi. Ayniqsa, A.Akbarning “Raqamli” she‘rlari, D.Rajabning har xil shaklga oid she‘rlari ijtimoiy jamiyatdagi yangilanishlarni: bozor munosabatlarning ta‘lim-tarbiyadagi o‘rnini aks ettirishga qaratilishi bilan alohida e‘tiborga loyiqdir. “Gulxan”, “Tong yulduzi”, “G‘uncha”, “Yosh kuch”, “Sinfdozlar” kabi vaqtli matbuot nashrlarida ham istiqlol g‘oyalarini tarannum etishga qaratilgan turli janrga xos asarlarning chop etilishi quvonarlidir.

Har bir bolalar ijodkori uchun o‘z asarlari bilan yosh kitobxon qalbini zabt etish, ularga xushnudlik onlarini baxsh etishdan ortiqroq baxt bo‘lmasa kerak dunyoda. Ana shunday baxtga muyassar bo‘lgan, kichkintoylar yuragidan joy olgan iste‘dod egalari o‘zlarining badiiy jihatdan barkamol, go‘zal va betakror asarlari bilan o‘zbek bolalar she‘riyatiga yangi ruh olib kirdilar. Keksa avlod yozuvchilaridan Obid Rasul ijodini ko‘zdan kechirar ekanmiz, tasvirda qisqalikka intilish, ma‘noni kuchaytirish yo‘lidagi izlanishlari yaxshi natijalar berganini

ko‘rish mumkin. Shoir ijodiga xos yetakchi xususiyatlar uning “Ahmad va Ahad” she‘rida o‘z aksini topgan. Muallif shunday yozadi:

Ahmad keksa boboning
Qo‘lidan yukin oldi.
Ahad: – begona-ku, – deb,
Ohista jo‘nab qoldi.

Bu misralar bir qarashda jo‘ngina tuyulsa-da, ularda jajji kitobxon tasavvuriga ma‘naviy oziq bo‘ladigan ma‘no mavjud. Shoir asar qahramonlari Ahmad va Ahad xulq-atvorlarini bir-biriga qiyoslash yo‘lidan borib, kundalik turmushimizda tez-tez uchrab turadigan oddiy hayot hodisasidan katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan umumlashma xulosa chiqargan.

Ma‘lumki, bolalik tabiatan quvnoqlik, o‘yinqaroqlik davridir. Kichkintoylar hayotini o‘yinsiz tasavvur qilish qiyin, albatta. To‘g‘ri, dangasa, fanlarni o‘zlashtirmaydigan o‘quvchilarni “yaxshi bola” deb bo‘lmaydi. Lekin kichkintoylar hayoti o‘yin bilan chambarchas bog‘liq ekanligini unutib qo‘ymasligimiz kerak. Kichkintoylarning orzu-umidlari, quvonch-u armonlarini tilimizning cheksiz imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda aks ettira olgan, bu borada o‘zbek bolalar adabiyotida o‘ziga xos maktab yaratgan shoirlardan biri Anvar Obidjonidir. Shoir rang-barang mavzularda she‘rlar yozadi, uning barcha asarlari kitobxonlar tomonidan birdek sevib o‘qiladi.

Sir emaski, “Alifbo bayrami” – bolalar adabiyotidagi unutilmas, behad katta quvonch, shodliklarga to‘la bayram. Bu mavzuda shu kunga qadar bolalar ijodkorlari bir qancha she‘rlar, topishmoqlar yaratdilar. Harflarning xususiyatlari haqida qalam tebratish o‘zbek bolalar adabiyoti she‘riyatida yangi hodisa emas. Biroq Anvar Obidjon shu sohadan ham yangilik izlaydi va kashf qiladi. Masalan, shoir “Harflar haqida cho‘pchak” she‘rida shunday yozadi:

Ana turar boshliq “A”,
Alpdek kerib oyog‘in
Ilon izlar soyda “I”
Inga surib oyog‘in
Seskandi-yu suvilon,
Suvdan qochdi “S” bo‘lib.

Shoirning mahorati shundaki, lotin alifbosidagi o‘zbek yozuvining shakliy xossalaridan foydalanib, kitobxon ko‘z o‘ngida barcha harflarni shu tariqa jonlantiradi. Boshliq “A” ning “oyog‘in kerib turishi”,

seskangan suvilonning “S” shakliga kirib qochishi yosh kitobxon qalbida zavq uyg‘otishi tabiiy.

Anvar Obidjonning “Bahonachilar kasalxonasi” she’ri bir qarashda kichkintoylarni hayvonlar va hasharotlar dunyosi bilan tanishtirishga qaratilgandek tuyuladi. Lekin chuqurroq mushohada yuritilsa, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar qalamga olinganini ko‘ramiz.

Doktor quyon sertashvish,
Hamshira g‘ozlar notinch
Kasalxona to‘satdan
Bo‘lib ketdi tiqilinch.
Bo‘ri keldi inqillab,
Chivin chaqib oldi, deb
Ayiq yotar, Olmaxon –
Yong‘oq bilan soldi, deb.

Fil aytar:

– O, do‘xtirjon,
Bo‘l uvali-juvali.

Panjasini ko‘zimga
Tiqib oldi chumoli.

Shoir she’rining eng oxirgi bandida vaziyatni keskin o‘zgartiradi, bu bilan kitobxonni o‘ylashga majbur qilib qo‘yadi. Muallif shunday yozadi:

Alohida xonada
Yo‘lbars uxlar shohona...
Ishlar faqat go‘l Eshak,
Topolmasdan bahona.

Ko‘rinadiki, she’rning muvaffaqiyatini yumorga yo‘g‘rilgan ana shu kutilmagan xulosa ta‘minlagan. Shu jihati bilan mazkur she’r Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridagi adabiy topqirliklarni ham yodga solidi.

Anvar Obidjonning aksariyat asarlari ramziy, majoziy obrazlar orqali tabiat bilan tanishtiruvchilik ruhida yaratilgan bo‘lsa-da, kichkintoylarning o‘ziga xos ruhiy olami diqqat markazida turadi. Uning “Kulchalar” va “Botirvoyning kundaligi” turkumlaridagi qahramonlar deyarli hammasi turli yoshdagi bolalardir. Bu she’rlarda bolalik tuyg‘ularining sofliqi, orzu-umidlarining beg‘uborligi, tabiatan biroz shumligi, quvnoqligi katta iste’dod bilan ochib beriladi, o‘quvchini goh-goh yayrab-yayrab kulishga, goh jimgina o‘ylashga, fikrlashga, xulosalar chiqarishga undaydi.

Shoirning poetik mahorati shundaki, u bola dunyoqarashidagi o‘ziga xosliklarning tub-tubini ko‘ra oladi. Ichki olamini, o‘y-xayollarini, kichik

qalbida kechayotgan ruhiy jarayonlarni nozik did bilan kuzatadi. Bir qaraganda juda oddiy ko‘rinadigan kichik-kichik she‘rlarda inson tabiati shakllanishining dastlabki bosqich jarayonlari keng ko‘lamda tahlil etib boriladi. Samimiy yumor, yengil hajv elementlari yorqin ko‘zga tashlanadi. Shoirning “Hali o‘zim bolaman-ku!”, “Sinchkov bola”, “Shu ham filmi?” kabi o‘nlab she‘rlari shu jihatdan xarakterlidir.

Nozik yumor hamda hazil-huzul asosiga qurilgan she‘rlar bolalarni tarbiyalashda muhim didaktik vosita ekanligi isbot talab etmaydigan haqiqatdir. Badiiy asarning bolalar qalbiga, ruhiga ko‘rsatadigan estetik ta‘sirini chuqur anglagan Hamza Imonberdiyev ana shu vositadan unumli foydalana olgan shoir edi. Uning she‘rlarida didaktika yanada yangi qirralari bilan namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, “Maslahat”, “Qiyin misol” she‘rlari muhim ma‘naviy-ma‘rifiy ahamiyat kasb etadi. Shoir “Maslahat” she‘rida quyidagicha yozadi:

– Qancha “s” yoziladi
“Hassa” so‘zida, ajab?
Bittami, ikkitami,
Bilolmay hayron Rajab.
– Uchta “s” yozing, aka, –
Aql o‘rgatar Jo‘ra.
– Ortib qolgani ma‘qul,
Yetmay qolgandan ko‘ra.

Shoir “Yaxshi o‘qi, to‘g‘ri o‘tir” qabilidagi o‘git-nasihat yo‘lidan bormaydi. Bolalar hayotida uchrab turadigan voqealarni kulgili tasvirlaydi, xolos. O‘quvchi she‘ridan zavq olish bilan birga o‘zidagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etish usulida ham mulohaza yuritiladi.

Voqelikni idrok etish, uni o‘ziga xos tasvirlashga bo‘lgan intilish Dilshod Rajabov she‘rlarida ham aks etadi. Shoirning “Kuz”, “Poyezdning bolasi”, “Qishki safar” she‘rlarida bolalar uchun qadrdon bo‘lgan manzaraga shoir yosh kitobxonlar ko‘zi bilan boqadi. Kuz faslida yaproqlar sarg‘ayib, qish kelayotganidan darak beradi. Biroq shoir kuz fasli tarovatini o‘zgacha ranglarda, o‘ziga xos uslubda namoyon qiladi:

Kuzak yurish boshladi,
Ya‘ni urush boshladi.
Sarg‘ayib so‘ldi ko‘plab
Yam-yashil barg-u o‘tlar.

Kuzning bu “yurishi”dan dastlab kitobxonda tushkunlik kayfiyati ustunlik qiladiganday. Lekin she‘rning yakunida birdaniga dil ravshan toptadi:

Tiqildi ko‘p asirlar, –
Sholg‘om, piyoz, sabzilar.
... Bu g‘alaba Kuzniki,
Endi maza bizniki!

Yuqoridagi misralardan ham ko‘rinadiki, istiqlol davri bolalar she‘riyati uchun tom ma‘noda izlanishlar, rivojlanishlar davri bo‘lmoqda. Yangi-yangi shakllar, yangicha qarashlar o‘z samarasini bermoqda. Faqat bugungi kun uchungina emas, balki kelajakka, yosh avlodni xalqparvar, vatanparvar, mehnatsevar qilib tarbiyalashga xizmat qiladigan asarlar yaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. –T.: O‘qituvchi, 2001.
2. Barakayev R. O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. –T.: O‘qituvchi, 2001.
3. Matchonov S. Kitob o‘qishni bilasizmi? –T.: O‘qituvchi, 1993.
4. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. –T.: Yangi asr avlodi, 2006.

BOSHLANG‘ICH SINFLAR ADABIY TA‘LIMINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qunduzxon Husanboyeva,

GulDU professori, pedagogika fanlari doktori

Pedagogika ilmi va amaliyotida ko‘p zamonlardan beri, hatto bugun ham, ta‘lim tarbiyadan ustuvor sanalib kelinmoqda. Mustaqillikka erishilgandan keyin nafaqat ijtimoiy-siyosiy hayotda, balki ta‘lim-tarbiya jarayonida ham jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Endilikda ta‘lim amaliyotida tarbiyalanuvchilarga bilimlarni tayyor holda berishdan voz kechilib, shakllanib kelayotgan yosh avlodning ma‘naviyatini sog‘lomlashtirish, ularni mute ijrochilikdan erkin ishtirokchi darajasiga ko‘tarishning yangi-yangi yo‘llari qidirilmoqda. O‘qitishning asosiy ashyolari bo‘lmish konsepsiya, ta‘lim standartlari, dastur, darslik, metodik hamda o‘quv qo‘llanmalarni yangilash va takomillashtirish bilan birga ruhan sog‘lom, aqlan barkamol, o‘z fikri hamda qarashlariga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash ustuvorlik kasb etmoqda. Yoshlar tarbiyasida bir xil fikrlaydigan, yagona xulosaga keladigan avlodni shakllantirishdan voz kechilib, o‘rniga ma‘naviy sifatlarning yetakchiligi, tuyg‘ularning injaligi, ko‘ngil istaklari ustuvorligiga milliy an‘analarga tayangan holda erishishga alohida diqqat qaratilmoqda.

Afsuski, mustaqillikning dastlabki bosqichida paydo bo'lgan ayrim muammolar egamanlikning chorak asri davomida ham to'raligicha yechimini topa olmadi. O'tmish tuzumning qator illatlaridan qutulish uchun ruhiyati mustaqillik davrida shakllangan avlod yetilishi kerak edi. To'g'ri, mustaqillik davrida tug'ilgan avlodning oldi bugun o'ttizga kiryapti. Lekin ularning barchasi shaxs sifatida erkinmi? Ular ruhan ozodmi? Ma'naviyati sog'lommi? Mana shu savollar kishini o'ylantiradi. Ruhan mustaqil bo'lgan, o'z haq-huquqini tanigan, ichida "Men"i bor kishilar tomonidan tarbiyalangan bolalargina tom ma'noda Shaxs bo'lib shakllanishlari mumkin. Chunki o'zi ma'nan noto'kis, umuminsoniy va milliy qadriyatlardan yiroq, fikran qashshoq o'qituvchi o'quvchilarini aqlan ham, ruhan ham sog'lom qilib tarbiyalay olmaydi. Ya'ni har qanday tarbiya avval tarbiyachini tarbiyalashdan boshlanishi kerak.

Psixologiya ilmidan ma'lumki, bola umrining turli bosqichlarida jisman ham, ruhan ham, aqlan ham turlicha taraqqiy topadi, har bir tarbiyalanuvchi o'ziga xos tarzda rivojlanadi. Jumladan, o'qituvchisini daxlsiz va eng bilog'on shaxs hisoblab uning aytganlariga so'zsiz quloq osish, ishonish, unga intilish – boshlang'ich sinf o'quvchilariga xos bo'lgan umumiy xususiyat. Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun o'qituvchi – eng buyuk shaxs. U o'qituvchisi talablariga ixtiyoriy ravishda astoydil bo'ysunadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning ko'pchiligi o'qituvchisi aytganlarini bajonidil bajaradi va doimiy ravishda uning ko'rsatmalarini kutishga moyil bo'ladi. O'qituvchi qanday va nimani o'qitishidan qat'i nazar, uni bilib olish kerak deb hisoblaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nazarida o'qish – ko'r-ko'rona ijrochilik, o'qituvchisiga taqlid, ustozni aytganlarini takrorlashdan iboratday tuyuladi. Mazkur davr pedagogik jihatdan bolada insoniy sifatlarni shakllantirishda o'qituvchi uchun eng qulay bosqich sanaladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi kichik o'quvchilariga xos bo'lgan bu tabiiy xususiyatlardan ularning o'zlari uchun oqilona foydalana bilishi maqsadga muvofiqdir.

Inson ichida erkin "men"i, mustaqil fikri bo'lgandagina o'z so'zini aytadi. Fikr – ichki "men" faoliyatining mahsuli. Shakllanib kelayotgan shaxsda o'zlikni anglash, uning o'z so'zi va mustaqil fikri bo'lishini ta'minlash, bunga sharoit yaratish maktabda o'qituvchining vazifasi hisoblanadi. Bu undan professional bilimdonlikni talab qiladi. Chunki o'quvchining aniq maqsad asosida oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish yo'lida mantiqiy mulohaza yuritish, qo'yilgan masalani muayyan

zo'riqishlar orqali mustaqil ravishda hal qilishday faoliyatini tashkil etish oson ish emas.

Boshlang'ich sinflar tarbiyalanuvchilarida shaxslik sifatlarini shakllantirish o'rta va yuqori sinflardagiga nisbatan ancha farqli kechadi. Bu yoshdagi bolaning hayotiy tajribasi kam va u xulosa chiqarishni bilmaydi. U ko'proq taqlid qiladi. Boshlang'ich sinflarda amalga oshiriladigan ta'lim va tarbiya jarayoni bolalarning yoshi, intellektual imkoniyatlariga mos holda xulosa chiqarishga emas, fikr aytishga, munosabat bildirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Shu sabab boshlang'ich sinf o'qituvchisining vazifasi darsda masalani to'g'ri qo'ya bilish, o'quvchini qiziqтира olish, uning tuyg'ularini bezovta qila bilishdan iboratdir.

Bola o'z bilimi va tajribasida ko'rilmagan vaziyat bilan to'qnashganda hamda bu vaziyat uni qiziqtirib qolganda g'ayriixtiyoriy ravishda mustaqil fikrlay boshlaydi, erkin faoliyatga kirishadi. Ma'lumki, qiziqqan bola masalaning mohiyatiga kirmay, o'z istaklarini, bilish ehtiyojini qondirmay qo'ymaydi. Faqat bolani bunday holatga sola bilish va buning uchun, avval, uni asta-sekinlik bilan taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, aniqlik kiritish, tizimga sola bilish kabi ko'nikmalarning dastlabki belgilarini egallashiga erishish lozim. Shundagina uning bilish faoliyati muayyan samara keltirib, shaxsi to'g'ri shakllana boradi.

Kichik o'quvchilar ma'naviyatini sog'lomlashtirishda o'qish darslarining, ya'ni boshlang'ich adabiy ta'limning o'rni beqiyos. O'qituvchi tomonidan o'qish kitobidagi asarlarni to'g'ri idrok etishga yo'naltirilgan o'quvchi mustaqil ishlashga, uqib o'qishga, o'zgalarning fikrlarini ilg'ashga, o'zi va boshqalarning tuyg'ular olamini kuzatishga, o'zgani tuyishga o'rgana boradi. Olamni, Odamni va O'zligini kashf qiladi. O'z ichki "men"ining shakllanishida o'zi bevosita ishtirok etadi.

Darsliklar bunday pedagogik vazifalarning bajarilishida eng katta ko'makchi sanaladi. Darsliklarda taqdim etilgan o'quv materiallari mazmunan ta'lim-tarbiya jarayoni oldiga qo'yilgan maqsadlarga mutanosib bo'lishi kerak. Kuzatishlar asnosida ma'lum bo'ldiki, boshlang'ich sinflar "O'qish kitobi" darsliklarining ko'pchiligi yuqoridagi talablarga bugun ham yetarlicha javob bera olmayapti. Bu darsliklarni tuzishdan oldin mualliflar(ning ko'pchiligi) kichik o'quvchilarning bugungi intellektual imkoniyatlari, ruhiyati, saviyasi va dunyoqarashining boyligi darajasi bilan alohida shug'ullanishlari maqsadga muvofiq bo'lardi. Aytish kerakki, bugungi boshlang'ich sinf o'quvchilari darsliklar

mualliflari tasavvur qilganlaridan, ularning bu yoshdagi darajasidan ko'ra bilimlroq va aqlliroq.

“O‘qish kitobi” darsliklarining umumiy tahliliga tayanib shuni aytish mukinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida insoniy sifatlarni shakllantirishda bolalarning kuchi, aqli va imkoniyatlaridan unumli foydalanilmayapti. Darsliklarda o‘rganish uchun taqdim etilgan o‘quv materiallarining ko‘pchiligi mantiqsiz, jo‘n, hayotiy haqiqatdan uzoq. Bir qismi nasihatgo‘ylikka qurilgan. Ular mavzudan kelib chiqib, mualliflar tomonidan shunchaki “to‘qib” tashlanganday tasvvur uyg‘otadi kishida. Yoki yuksak badiiy matnlar shunchalar no‘noqlik bilan qisqartirib taqdim etilganki, ular bolalarni mantiqsiz sayrayveradigan to‘tiqushlarga aylantiradi. Asarlar matni yuzasidan tuzilgan: “Nima uchun ona Yer deymiz? Javobni matndan topib o‘qing va o‘qiganingizni yod oling”, “Navoiyning istagi ifodalangan misralarni o‘qing”, “Yakshanba kuni qanday voqea yuz berdi?”, “Ota-ona o‘z farzandiga nisbatan qanday iborani ishlatadi?” kabi mantiqsiz savol-topshiriqlar o‘quvchilarni matn mazmunini takrorlashiga majbur qiladi, xolos.

Bizningcha, har qanday darslik o‘z mazmun-mohiyati bilan sinfdagi eng ilg‘or o‘quvchidan ham bir pog‘ona balandda turishi, ya’ni a’lochi o‘quvchilar ham darliklardan o‘zlari uchun qiziqarli ma’lumotlarni olishi, ma’lum maqsadlarga erishishda darsliklar tayanch vazifasini o‘tashi kerak. 1–4-sinflar uchun yozilgan “O‘qish kitobi” darliklarida: “Asar sizda qanday taassurot qoldirdi?”, “Do‘stlik deganda nimani tushunasiz?”, “Nima deb o‘ylaysiz, Shiroq nega qo‘yini boqib yuravermay qabila boshliqlarining oldiga keldi? Uni bunga undagan narsa nima ekanini ayta olasizmi?”, “Uning dili og‘ridi” tarzidagi tasvirni o‘z so‘zlaringiz bilan ifodalashga urinib ko‘ring. Uni siz qanday tushundingiz?” singari kichik o‘quvchilarni o‘z fikrini aytishga va matn mohiyatiga kirishga yo‘naltiradigan, badiiy asardan zavq va ma’naviy ozuqa olishga undaydigan, o‘z munosabatini asoslashga, xulosasini o‘ziga yarasha himoya qilishga qaratilgan savol-topshiriqlar taqdim etilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki darsliklarda o‘rganishga taqdim etilgan o‘quv materiallarining mazmun-mohiyatini ochishga yo‘naltirilgan savol va topshiriqlar o‘quvchilarni ma’naviy kamolotga yetaklovchi asosiy didaktik ashyolardan biri hisoblanadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, matn yuzasidan tuzilgan mantiqli, o‘ylantiradigan, mustaqil fikr talab qiladigan savollarga sinfdagi o‘quvchilarning barchasi javob berishi shart emas. Har bir bola o‘z intellektual imkoniyati darajasida fikr yuritadi, rivojlanadi. Muhimi –

bolalarning har birini savol yoki topshiriq bilan bezovta qilish, ruhiy muvozanatdan chiqarish. O'qituvchilar boshlang'ich sinflardan oq bolalarning ruhiyatini uyg'otish maqsadida ularni badiiyatning yuksak namunalari bilan tanishtirib borsalar, asarlardagi shaxs shakllanishi uchun muhim bo'lgan jihatlarga ularning diqqatini qarata bilsalar, tarbiyalanuvchilarning ma'nan ham, aqlan ham, ahloqan ham boridan yuqoriga ko'tarilishlariga, barkamollik sari yuz burishlariga sharoit yaratgan bo'ladilar.

Ma'lumki, yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida ma'nan sog'lom qilib tarbiyalashda, Shaxs shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni beqiyos. Lekin badiiy asardagi kitobxon shaxsiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jihatlarni, matnda aks etgan hayotiy va badiiy haqiqatlarni ilg'ash, ularning ko'ngilni tozalashga xizmat qiladiganlarini ilg'ab, o'z tabiatiga singdirish shakllanayotgan shaxsdan bir qadar zo'riqishni taqozo etadi. Ta'lim-tarbiya tizimida bu kabi murakkab va mas'uliyatli ishlarni amalga oshirishda "Adabiyot o'qitish metodikasi" deb nomlanuvchi fan va o'z kasbini yaxshi ko'radigan, yaxshi biladigan o'qituvchiga ehtiyoj seziladi.

Oliy ta'lim muassasalarida boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasini yangicha yo'nalishda tashkil etishga qaratilgan, "O'qish kitobi" darsliklaridagi o'quv materiallari asosida adabiyot o'qitishning yangicha ham ilmiy-nazariy, ham amaliy jihatlarni ko'rsatib beruvchi mayoq darajasidagi bir yo'lko'rsatkich, ya'ni o'quv fani kiritilmog'i lozim. Unda majburiy ta'limning dastlabki bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich sinflar tizimida o'qish darslarini maqsadga muvofiq tarzda, imkon qadar samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilimlar qamrab olinishi maqsadga muvofiqdir. Bu darslarda bolalar adabiyotining taniqli vakillari qalamiga mansub bir qator badiiy to'kis asarlar ustida ishlash namunalari taqdim etish davr talabidir. Toki bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari amaliy faoliyatlarida o'z tarbiyalanuvchilariga nimani, qanday o'qitishlari zarurligi haqida bilim va tasavvurga ega bo'lsinlar, amaliy faoliyatda ularni tashkil etish yo'llarini o'rgansinlar.

Quyida boshlang'ich sinflar adabiy ta'limini milliy pedagogikaning bugungi maqsadiga muvofiq tarzda tashkil etish namunasi sifatida A. Obidjon qalamiga mansub "Ajoyibxona qoplani" she'ri ustida ishlash yo'llari taqdim etiladi:

"Taniqli o'zbek bolalar shoiri Anvar Obidjonning "Ajoyibxona qoplani" nomli she'ri bolalarda odamlikka xos bir qator ijobiy sifatlarni shakllantirish va mustaqil mulohaza yuritishga undovchi asardir. Unda

hayvonot bog'ida yashovchi qoplonning tilidan unga xos bo'lgan fazilatlar ochib berilgan. Darsga tayyorlanish jarayonida o'qituvchi hayvonot bog'ida qafasda turgan qoplonning suratini topib tasvirini ekranda namoyish etadi yoki uni qog'ozga tushirib darstaxtagi qo'yib qo'yadi [1]. Mazkur asarni o'rganishga rejalashtirilgan dars boshlanganda, avval o'qituvchining o'zi she'rni ifodali qilib o'qib beradi. So'ng o'quvchilar bilan birgalikda uning tahliliga kirishiladi:

Bobom tutqun o'tmagan,
Tug'ilganman men ozod.
Sendan yiroq yursam ham,
Tinch qo'ymading, odamzod.

Meni zo'rlab qafasga
Sola olding sen faqat.
Biroq ruhan o'lmadim,
So'ramadim hech shafqat.

G'ururimga sodiqman,
Orzumandman erkinga.
To'qlik va'da qilsang ham,
Tuflagayman sirkingga.

Dunyoda ko'p yuvosh It,
Nasab-nasli past Ayiq.
O'shalarni o'ynatsin
Ermaktalab xaloyiq.

Men zotimni faxr-la
Eslarman har nafasda...
Zo'rdirmanki, xavfsirab –
Saqlashyapti qafasda [2].

Ma'lumki, har qanday badiiy asar, u qaysi janrda bo'lishidan qat'i nazar, tahlilga, muhokamaga tortilmas, matnning mohiyatiga kirilmas ekan, u tarbiyalanuvchining ma'naviyatiga hech narsa bermaydi. Shu ma'noda mazkur she'r matni ustida ishlash uchun ta'limning **didaktik tahlil metodidan** foydalanish maqsadga muvofiqdir.

She'r o'qib berilgach, bolalarning tuyg'ulari sovimasdan uning muhokamasiga o'tilib, tarbiyalanuvchilarning e'tibori asarning dastlabki ikki misrasiga qaratiladi va qaytadan o'qib beriladi: «*Bobom tutqun*

o'tmagan, Tug'ilganman men ozod». Bolalardan bu ikki misrada ilgari surilgan fikrning mazmuni, unda nima deyilayotgani so'raladi. Ma'lumki yovvoyi hayvonlar uy hayvonlaridan farqlanadi. Ular o'rmonlarda, tog'larda tug'ilishadi va o'sha yerlarda erkin yashashadi. Qafasdagi qoplon ham qachonlardar xuddi ota-bobolari singari erkin bo'lib o'rmonda tug'ilgan, ozodlikda yashagan. U, garchi bugun tutqunda bo'lsada, erk va ozodlikning nima ekanini yaxshi biladi. O'qituvchi va o'quvchilar suhbatini, taxminan shu yo'nalishda boradi.

“Sendan yiroq yursam ham, Tinch qo'ymading, odamzod” misralaridagi vaziyatga ikki xil nazar bilan qarash mumkin. Biri – qoplonning, ikkinchisi odamzodning nazari. Qoplon inson zotidan norozi. Odam uning erkiga, mustaqilligiga daxl qildi. Uni qafasga soldi. Tutqunga aylantirdi: “Qoplonning vaziyatiga va ko'zlaridagi mungga tayanib aytingchi, u nimadan norozi?” Odamzodning qoplonni o'z maskanida tinch qo'ymaganining sababi haqida ham bolalarni o'ylab ko'rishga undash lozim: “Nima deb o'ylaysiz, odamlar nima uchun qoplonni tutib keltirib qafasga solib qo'yishgan? Bu kimga yaxshiyu kimga yomon? Nimasi bilan yaxshiyu nimasi bilan yomon?”

So'ngra she'rdagi: *«Biroq ruhan o'lmadim, So'ramadim hech shafqat»* misralariga o'quvchilarning diqqati tortiladi: «Bu nima degani?» Tarbiyalanuvchilar bilganlaricha javob berishadi, fikrlarining yo'nalishi yovvoyi hayvonlar bir umr qafasda saqlansa ham o'z fe'l-atvoriga hiyonat qilmasligi, qoplon ham o'z erki va qudratiga putur yetkizmay yashab kelayotgani atrofida bo'lsa, ularni rag'batlantirib qo'yish o'rinli bo'ladi. Shu o'rinda o'quvchilarning diqqatini qoplonning ko'zlariga qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ko'z ko'ngil kaliti. Bolalar qoplonning ko'zlaridagi rostni ko'rishga urinib ko'rganlari ma'qul. Kim nima ko'radi, bolalar biror ruhiy holatni ilg'aydilar, yo'qmi, buni vaziyat ko'rsatadi. Agar hech kim hech narsa ilg'amagan, topshiriq javobsiz qolgan taqdirda ham tarbiyalanuvchilarning bunga yo'naltirilganligi adabiy ta'limning katta yutug'idir. Bu keyinchalik o'z samarasini berishi aniq.

Shundan so'ng kichik she'rxonlarning diqqati matndagi: *“G'ururimga sodiqman, Orzumandman erkimga. To'qlik va'da qilsang ham, Tuflagayman sirkingga”* degan satrlarga qaratiladi: “Bu gaplar kimning tilidan aytilyapti? Siz qoplonning: *“G'ururimga sodiqman”* degan e'tirofini qanday angladingiz? Bu fikr zamirida, sizningcha, qoplonga xos qanday fazilat yashiringan? O'ylab ko'ringchi, Qoplonning mag'rurligi nimada ko'rinyapti? *“Orzumandman”* so'zini qanday tushundingiz? Nima

deb o‘ylaysiz, nega qoplon sirkda o‘ynashni yoqtirmayapti? Axir, qafasda o‘tirgandan sirkda tomosha ko‘rsatgan yaxshi emasmi?”

Satrlardan ma’lum bo‘ladiki, qoplon – mag‘rur, yovvoyi hayvon. U o‘z erkinligini, mustaqilligini hamma narsadan ustun qo‘yadi, jamiki qoplonlarga xos bo‘lgan mag‘rurlik uning ham qonida bor va u hamisha qonidagi mana shu hisga sodiq qoladi. To‘g‘ri, u sirkda o‘yin-tomosha ko‘rsatsa qorni to‘q bo‘ladi, issiq joyda yashaydi. Lekin u odamzodning qo‘lida o‘yinchoqqa aylanadi. Bu hayot qoplon uchun hayvonot bog‘idagi qafasdan battar. Bunday turmush tarziga uning tabiati yo‘l qo‘ymaydi. O‘quvchilar shu atrofda gapirishar, lekin o‘qituvchi misralarning mohiyatini shu tarzda ochib o‘quvchilarga tushuntirib bergani, so‘ngra shu to‘rtlikni qayta o‘qib bergani tuzuk. Bu bolalarning ruhiyatidan o‘rin olishi lozim bo‘lgan tuyg‘u. Muallim buni unutmazligi maqsadga muvofiqdir.

She‘rdagi tarbiyalanuvchilarning diqqatini qaratish kerak bo‘lgan yana bir to‘rtlik bu uning oxirgi satrlaridar: *“Men zotimni faxr-la Eslarman har nafasda... Zo‘rdirmanki, xavfsirab – Saqlashyapti qafasda”*. O‘qituvchi bu satrlarni alohida ajratib yana bir marta o‘qib bergani durust. So‘ng bolalardan uni qanday tushunganliklarini so‘raydi. Chug‘ur-chug‘ur qilib aytilgan javoblar orasidan haqiqatga yaqinini ajratib olishni unutmazligi kerak muallim. Ya‘ni qoplon hech qachon zodiga, qoplonligiga hiyonat qilmaydi. Ayiq yoki maymun bo‘lolmaydi. O‘zligini, kimlarning avlodi ekanini hech qachon unutmaydi. Oxirgi ikki misra kimga qaratilgani haqida ham bolalar o‘ylab ko‘rishlari kerak: bu dahshatli fikr. Bolalar bilganlaricha sharhlashsin avval, keyin o‘qituvchi: zo‘r, qudratli, yovvoyi hayvonlar bo‘ysunmas bo‘lganliklari uchun ham odamlar ulardan xavfsirashi, qafasda saqlashini ma’lum qiladi. Odamzod ruhiyatida zo‘rdan qo‘rqish hissi bor. Bu tabiiy tuyg‘u. Lekin qanchalik tutqunlikda saqlanishidan qat’i nazar, zo‘r baribir zo‘r. Bundan hech kim ko‘z yumolmaydi. O‘qituvchi bolalarning ko‘ngliga mana shu haqiqatlarni – aqli va bilimi bilan zo‘r bo‘lishni joylab qo‘ygani boshlang‘ich sinflar adabiy ta’limining maqsadi amalga oshdi, degani. Qolganini katta bo‘lganda bolalarning o‘zlari anglab olaverishadi.

Uy vazifasi sifatida o‘quvchilarga hayvonot bog‘ida qafasda turgan yoki o‘rmonda erkin yurgan qoplonning suratini chizib kelishni topshirish mumkin. O‘quvchilarning surat chizishlari bir taraf, lekin chizgan suratlarini o‘qib berishlari ularning ma’naviy kamolotlari uchun katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois keyingi darsda o‘qituvchi o‘quvchilarining chizib kelgan suratlarini sharhlab berishini talab qilishi shart. Bu faoliyatga o‘qituvchining: “Chizgan qoploningizning ko‘zlarida nima aks etgan? U

nima uchun qafasga solib qo'yilgan? U xafami yoki xursandmi? Nimadan xafa yoki xursand? Uning xafaligi yoki xursandligini siz nimalarda ko'ryapsiz? U kimga qarab turibdi? Qafasdagi qoplon kuchlimi yoki erkinlikdagisimi? Nega bunday deb o'ylaysiz?" va h.k. yo'naltiruvchi yordamchi savollar bilan murojaat qilgani o'quvchiga "asar"ini o'qib berishga ko'maklashadi".

Agar har bir o'qituvchi kichik o'quvchilarni matn ustida uzluksiz ravishda namunadagidek ishlata bilsa, bolalar ham bunga asta-sekinlik bilan o'rganib boradilar va ularda badiiy asarlar bilan ishlash borasida istalgan ko'nikma ham hosil bo'ladi. Natijada bola shaxsida fikr kishisi shakllanadi. Fikr kishisi hech qachon o'zgalarga ko'r-ko'rona ergashmaydi, munosabat bildirish kerak bo'lganda jim turmaydi. O'qituvchi bolalarda shunday sifatlarni shakllantirishga millat va mamlakat tomonidan da'vat etilgan shaxsdir. Buning uchun, avval, uning o'zi shunday sifatlarni egallagan bo'lishi lozim. Chunki u o'zida yo'q narsani o'quvchisiga berolmaydi. Shu bois tarbiyani tarbiyachini tarbiyalashdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://ru.dreamstime.com/стоковое-фото-тигр-в-к-етке-image57189520>
2. ijod.uz/?cat=17

ADABIYOTDA IJTIMOIIY MUNOSABATLAR MASALASI

Roza Niyozmetova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU professori, ped.f.d.

O'zbek adabiyotida sharqona munosabatlar o'z aksini topgan bo'lib, ularga e'tibor qaratish adabiy o'qish jarayonida o'quvchilarning shu munosabatlarga xos odob-axloqni, milliy ma'naviyatni to'g'ri idrok etishlari va anglashlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Agar o'zbek o'quvchilari badiiy asarni o'qish jarayonida ertalab uyg'ongan zahoti yuz yuvishning shart ekanligi haqidagi gaplarni odatdagi gaplar sifatida qabul qilsa, rusiyzabon o'quvchilar buni g'alati holat sifatida idrok etadilar. Chunki ba'zi xalqlarda, masalan, turk seriallarida asar qahramonini uyg'onishi bilan uning yotgan joyiga nonushta olib keltirib berish hech qanday muammo tug'dirmaydi, odatdagidek qabul qilinadi. Bu o'rinda asar tahlili, ushbu tahlil orqali sharqona odob-axloq xususida qisqa izoh talab etiladi.

Demak, o‘zbek adabiyoti va san’atida sharqona ijtimoiy munosabatlar adabiy o‘qish bilan bog‘liq ta’lim mazmunida o‘ziga xos o‘rin egallashi to‘g‘ri bo‘ladi. Yozuvchi ayni shu sharqona munosabatlarga shunchaki to‘xtalib o‘tganda, o‘zga xalq adabiyoti asarlari bilan tanishayotgan kishini nazarda tutgan bo‘lsa ajab emas.

O‘quvchilarning sharqona ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq odob-axloq, milliy ma’naviyat haqidagi tushunchalariga aniqlik kiritish, ushbu tushunchalarni kengaytirish maqsadida adabiy o‘qish uchun tanlanadigan asarlar tanlash ishiga o‘zgacha yondashish taqozo etiladi.

Biz hind, turk va boshqa xalqlarning badiiy filmlari, seriallarini tomosha qilganda, ularda bayramlar, to‘ylar va boshqalarning qanday o‘tishiga, urf-odatlar va udumlariga alohida qiziqish bilan qaraymiz. Xuddi shuningdek, o‘zbek adabiyoti namunalari bilan tanishish mobaynida ana shu masalalar o‘zga millat vakillarining diqqat markazida bo‘ladi. Aytmoqchimizki, adabiy ta’lim mazmuni keng qamrovli qilib belgilanmog‘i, asar tanlash ishiga mas’uliyat bilan qaralmog‘i lozim. Shunga yarasha ta’lim metodikasi ham takomillashtirilmog‘i darkor. O‘quvchilar milliy o‘ziga xos jihatlarni anglaganlari sayin estetik tuyg‘ulari, badiiy didi kamol topadi, ta’lim o‘zga tilidagi maktablarda o‘zbek adabiyoti darslarining samaradorligi ortadi.

Badiiy asar e’tibor bilan o‘rganilganda, ayniqsa, rusiyzabon yoshlarning idroki nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilganda, ular uchun yangilik bo‘lib tuyuladigan holatlarni uchratish qiyin emas. Masalan, 8-sinf “O‘zbek tili” darsligida yozuvchi O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidan “Gilampaypoq” hikoyasi keltirilgan [1; 32-b.]. Hikoya shunday boshlanadi:

Har yili dam olishga borganimda onamga gilampaypoq olib kelaman. Kavkaz tomonda ko‘p bo‘ladi. Juba deyishadi, jurabi deyishadi. Oyim xuddi noyob narsaga ega bo‘lgandek, uzundan-uzoq duo qiladi. Shundoq mehribon o‘g‘li borligini aytib qo‘shnilarga maqtanadi. Uning oyog‘i kasal. Salqin tushishi bilan shishib ketadi, og‘riydi...

O‘quvchi uzundan-uzoq duo qanday bo‘lishini tasavvur qila olmasligi mumkin. Bu o‘rinda o‘qituvchining tahlili, imkon topganda, videolavha namoyish qilishi yaxshi natijalar beradi.

Oybekning “Qulug‘ qon” romanidan berilgan “Boy tog‘a lavhasida quyidagi o‘ringa [2; 34-b.] yoshlar e’tiborini qaratish joiz:

Boy tog‘a nonni ushatib, patnisni Yo‘lchining oldiga surib qo‘ydi.

– *Ol, jiyan, yo‘l yurib kelgansan. Bir parcha yerlaring borligini eshitar edim, qo‘llaringdami?*

– Yo‘q, – patnisdan bir burda non olib javob berdi Yo‘lchi, – yer sotilib ketgan.

Ushbu parchada ilgarilari mehmon patnisdagi meva-chevalar bilan siylanishi ma‘lum qilinadi, o‘zbek xonadonida dasturxonga yopgan non qo‘yilishi va bittasi ushatilishi odat ekanligi tushuntiriladi.

Sharqona odob-axloq ham, milliy ma‘naviyat ham urf-odatlar, udumlar, to‘y tantanalari ham, bayramlar ham rusiyzabon yoshlar idroki nuqtayi nazaridan qaraganda, milliy sanalishi mumkin. Bularni o‘rganishda esa badiiy asarlardan tanlanadigan parchalar, ana shu parchalar yuzasidan amalga oshiriladigan adabiy tahlillar muhim o‘rin tutadi. Tahlillar jarayonida o‘quvchilar mustaqil fikrlash malakalarini yanada oshiradilar. Bu xususda Q.Husanboyevaning metodik qo‘llanmalari [3], [4] o‘qituvchilar uchun yo‘riq hisoblanishi turgan gap.

Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish joizki, milliy adabiyotlarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bir qatorda aniq milliylik orqali namoyon bo‘ladigan umumiy baynalmilal mazmun ham mavjud. Tanlanayotgan asarlarning bu jihati ular mazmunini tushunishni osonlashtiradi. Ehtimol, dastlabki kezlarda, aniqsa, quyi sinflarda ko‘proq ana shunday mushtarak asarlar ajratilgani ma‘quldir.

Xullas, o‘zbek adabiyoti asarlarini o‘rganishda o‘zbek bo‘lmagan kitobxon o‘z badiiy idroki tajribasiga asoslanadi. O‘z milliy adabiyoti nuqtayi nazaridan qaraydi. Asar mazmunini tushunish ana shunday murakkablashgan vaziyatlarda amalga oshadi.

O‘zbek adabiyoti asarlarini osonroq tushunishni ta‘minlash maqsadida rus folkloridan ham foydalangan maqsadga muvofiq. Ikki adabiyotga tayanish, o‘zbek adabiyotidan tushunilmagan narsalarni rus adabiyotidagiga o‘xshash hodisalar orqali izohlash yo qiyoslash o‘quvchilar dunyoqarashiga ta‘sir etadi, ularni o‘zbek adabiyotini estetik jihatdan anglashga yaqinlashtiradi.

O‘quvchilarga o‘zga milliy adabiyot asarini idrok etish sari tegishlicha yo‘l ko‘rsatish uchun o‘zbek va rus yozuvchilarining muloqotlari, adabiy aloqalaridan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xullas, ta‘lim o‘zga tilida olib boriladigan maktablarda o‘zbek adabiyotini o‘qitishda badiiy asarda tasvirlangan qahramonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, odob-axloq qoidalari, milliy ma‘naviyat, urf-odat va udumlarga katta e‘tibor beriladi, asar tanlashda oz-ozdan milliy xususiyatlarni o‘rgatishni modellashtirish ko‘zda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Йўлдошев Р., Тўхтамирзаев М., Рихсиева М., Ниёзметова Р. Ўзбек тили: Таълим рус тилида олиб бориладиган мактабларнинг 8-синфи учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 2002.
2. Йўлдошев Р., Мулламухамедов С. Ўзбек тили ва адабиёти: - Т.: Ўқитувчи, 1995.
3. Ҳусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 368 б.
4. Ҳусанбоева Қ. Адабий таълимда мустақил фикрлашга ўргатиш асослари. – Тошкент: Ўзинкомцентр, 2003. – 103 б.

ADABIY TA'LIMDA ERTAKLARNI TAHLIL QILISH USULLARI

Xurshida Xamrakulova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU, filologiya fanlari doktori

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari “Adabiyot” dasturidan o‘rin olgan asarlar o‘quvchilarda fan bo‘yicha davlat ta’lim standartida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga, ularda tayanch hamda fanga oid kompetentsiyalarni shakllantirishga xizmat qilishi barobarida kitobxonlik madaniyatini ham shakllantirishi lozim. Bu maqsad va vazifalarni o‘quvchilarga asarni o‘qitish, sujeti bilan tanishish bilangina amalga oshirib bo‘lmaydi. Maktabda o‘rgatiladigan har bir asar o‘quv tahliliga tortilsa, o‘quvchi yozuvchining maqsad-muddaosini anglasagina undan chinakam bahra oladi, badiiy-estetik didi shakllanadi. Shunday ekan, “Adabiyot” darslarida o‘quvchilarni badiiy asarni tahlil va talqin qilishga o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarining sujeti qiziqarli, tili ravon va sodda bo‘lganligi tufayli o‘quvchilar qiziqish bilan o‘rganadilar. Biroq ularni tahlil qilish jarayonida o‘qituvchi asarda ifoda etilgan voqea-hodisa va kechinmalarni xalqimiz turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlariga bilan bog‘lamasa, darsning ta’limiy maqsadi amalga oshmaydi, kutilgan samaraga erishib bo‘lmaydi.

5-sinf “Adabiyot” fani o‘quv dasturidan “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi o‘rin olgan. Ushbu ertak o‘quvchilarga juda katta ma’naviy ozuqa beradi.

Otalar va bolalar muammolari va munosabatlariga bag‘ishlangan ko‘plab badiiy asarlar mavjud. Otalar va farzandlar o‘rtasida ijtimoiy munosabatlarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi fojialarga, muammolarga

sabab bo‘lishi adabiyotshunoslikda alohida tadqiq etilgan. “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi ana shunday muammolarning oldini olishga, yosh avlodni ota-onaga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir. Ertakdagi har bir jumla, har bir so‘zda xalq donoligi mujassam.

Odatda, ertaklar “Bor ekan-da, yo‘q ekan...” deb boshlanadi. O‘quvchiga asardagi voqealar hayotiy va xayoliy uydirmalardan iboratligi shu so‘zlarda aks etganligini ta’kidlash lozim. “Boy ham emas ekan, kambag‘al ham emas ekan” jumlasida asar qahramoni – cholning o‘rtahol toifadan ekanligini anglatadi. Bu bejiz emas. Boshqa ijtimoiy qatlamni kamsitmagan holda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida o‘rtahol qatlam asosiy o‘rin tutishini aytib o‘tish kerak.

Ertak qahramonlari ismi bilan atalmaganligida ham ramziy ma’no bor. Garchi bir o‘rinda chol farzandlariga “Yaxshi ot qo‘ydim” desa-da, biror o‘rinda chol va farzandlarining ismi aytilmaydi. Negaki, erkak kishining sifatleri ismi bilan belgilanmaydi.

Qahramonlar ta’rif-tavsifida saj’ usulidan foydalanilganligi asarning o‘quvchi xotirasida ko‘proq saqlanishini ta’minlaydi. Ertakni o‘qish davomida “uchovi ham o‘qigan, oq-u qorani tanigan, yuzlari oyday, o‘zlari toyday, yomon bilan yurmagan, yomon joyda turmagan” sifatleri bilan og‘a-inilarning komillik sifatlariga ega bo‘lganliklariga ishora qilinadi. Farzandlar yoshi orasidagi muvofiqlik ham tibbiy jihatdan xalq donoligini o‘zida ifodalagan. Zero, hozirgi tibbiyot farzandlar orasidagi yosh farqi uch yildan kam bo‘lmasligini ma’qullaydi.

Chol obrazi misolida donishmand insonning hayotiy tajribalari ifoda etiladi. Cholning har bir xatti-harakatida xalq donoligining muayyan qirralari namoyon bo‘ladi. Xususan, cholning o‘g‘illari peshonasini silashida ularga bo‘lgan mehri, ishonchi va samimiy munosabati ko‘rinadi. Qolaversa, xalqimizda taqdir peshonada aks etadi, degan qarash mavjud. Shu ma’noda peshonaning silanishi taqdir yo‘lining yorug‘ va omadli bo‘lishidan dalolat beradi.

Chol o‘g‘illariga nasihati orqali otalarning farzand oldidagi burchlarini uqtirgandek bo‘ladi: “...o‘zimdanda keyin baxtsiz bo‘lib qolmanglar deb, sizlarni o‘qitdim. Yaxshi ot qo‘ydim. To‘y qildim, voyaga yetkazdim”.

Tarbiyadagi yana uch muhim jihat borki, ertakda asosiy qizil chiziq vazifasini o‘taydi: “Birinchidan, sog‘lom vujudli qilib o‘stirdim – quvvatli bo‘lib o‘sdingiz. Ikkinchidan, yarog‘ bilan tanishtirdim – yarog‘

ishlatishga usta bo‘ldingiz. Uchinchidan, qo‘rqitmay o‘stirdim – qo‘rqoq bo‘lmay, botir bo‘ldingiz”.

E’tibor berilsa, chol farzandlariga zarur tarbiyaning barchasini berib bo‘lgan. Sog‘lom vujud – ruhan va jismonan yetuk insonga xos. Yarog‘ ishlatishga usta bo‘lish – yigitning fazilati. Chin erkak qo‘rqoq bo‘lmaydi, botirlik va dovyuraklik unga xos. Chol farzandlari uchun kerak bo‘lgan yana uchta masalani yechimi bilan taqdim qiladiki, bunda komillik sari yo‘llash masalasi bor: “To‘g‘ri bo‘ling – bexavotir bo‘lasiz. Maqtanchoq bo‘lmang – xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang – baxtsiz bo‘lmaysiz”.

Ota farzandlariga uchta otni tayyorlab qo‘yadiki, bunda ham ramziy ma’no borligi anglashiladi. Otlarning o‘sh jarayonida ma’lum bosqichlarni bosib o‘tadi:

1. Qulun. 2. Yanoq. 3. Toy. 4. G‘o‘nan. 5. Do‘nan.

Toy – hali hech kimsa minmagan ot. Bu otlarning birinchi egasi og‘a-inilar. Har bir toy rangiga qarab sifatlari turlanib boradi. Eng muhimi, ota tanlagan har bir ot otlarning eng yaxshisi hisoblanadi. Buni xalq dostonlarida tasvirlangan otlar misolida ko‘rish mumkin. Hatto, otlarning turli-tuman fe‘l-atvorlari maxsus sinchilarni talab qilishi ham tabiiy holdir.

Qora rang – ulug‘vorlik timsoli. Qora otning katta akaga atalishi ham akaning ukalar oldida salobatga ega bo‘lishi bilan bog‘liq. Yana aka bu ot bilan sherga qarshi kurashadi. Sherning asosiy hammasi tishlashi bilan bog‘liq. Qora ot tishlong‘ich ot bo‘lib, u sherning hammasini qaytarishga qodir.

Saman otning sifatlaridan biri egasiga sadoqatli bo‘lishidir. Uning o‘rtancha farzandga berilishi ham ramziylik kasb etgan. U uka sifatida akaga, aka sifatida ukaga sadoqatini namoyish qilomog‘i lozim. Chunki katta akada ukalar bor, kichik ukada akalar bor. O‘rtancha o‘g‘ilda ham aka, ham uka bor. Shu ma’noda u tarozining ikki pallasini teng tutishi lozim.

Ko‘k ot xalq dostonlarida G‘irko‘k deb sifatlanadi. Otning bu turi eng chopqir hisoblanadi. Kichik o‘g‘il bir kechada qaroqchilar bilan olishib, podsho o‘rdasidan zarur narsalarni olib, akalar oldiga qaytib kela olishi uchun otning chopqirligi zarur edi. Ko‘k rang tinchlik ramzi hamdir. Kenda botir bir kechada shuncha ishni bir o‘zi bajarib, yomonlarning jazosini beradi. Ham podshohlikning, ham yurtning tinchligini saqlab qoladi.

Farzandlariga atagan ne‘matlarida ularning hayotida ro‘y beradigan voqelarni oldindan ko‘ra bila olishi cholning oddiy ota emas, balki donishmand inson ekanligini ko‘rsatadi. Chol xalq og‘zaki ijodida

farzandlarini muayyan maqsadga yo‘llab turuvchi otalar obrazining yana bir go‘zal namunasi.

Garchi ota farzandlariga oq yo‘l tilab, ularning keyingi taqdiriga daxl qilmayotgandek ko‘rinsa ham, aslida uning taqdiri farzandlariniki bilan birligini sezish qiyin emas.

Botirlarning sinchkovligi podshoh dasturxonidagi ne‘matlarga bergan bahosida ham namoyon bo‘ladi. Hatto ular o‘rdaga nima uchun chaqirilgani-yu, ularni kimlar kuzatayotganini ham bilishadi. Shuning uchun to‘ng‘ich botir: “Podshoh bizni bu yerga o‘rda voqeasi bilan chaqirgan. Albatta, bizdan savol so‘rar, nima deymiz?” – deb maslahat soladi. To‘ng‘ich botirning nutqidagi “nima deymiz?” savoli kengashishga taklifdan tashqari ukalarini o‘zi bilan teng ko‘rib munosabat qilayotganini ham bildirib turadi. Aka-ukalarning o‘zaro suhbatida xalqimizga xos bo‘lgan kattalarga hurmat, kichiklarga izzat namoyon bo‘ladi. O‘rtancha botirning “Bu voqeaga aralashgan bo‘lsak, aytmoq lozim” degan gapidan aka-ukalar uch kunlik safar davomida biror sarguzashtga guvoh bo‘lganlarini bilishlari, ayni damda ular o‘zlarini kuzatayotganliklarini sezib turganliklari anglashiladi. Savol tug‘iladi: nega aka-ukalar o‘z sarguzashtlarini ayni vaziyatda bayon qilishadi? Buning asosli sabablari bor:

xotirjam suhbatlashishga qulay fursat tug‘ilgani uchun;

otaning “maqtanchoq bo‘lmang” degan nasihatiga amal qilganliklari uchun;

suhbat asnosida o‘z sarguzashtlaridan podshohni shu yo‘l bilan ogoh qilishni ma‘qul topganlari uchun bayon etishadi.

Podshohning kuyov qilish taklifiga ham to‘ng‘ich botir: “Bizlar podshoh emasmiz. Otamiz ham boy emas, Sizning davlatingiz podshohlik bilan topilgan, biz qo‘l kuchi bilan tarbiya topganmiz. Elimiz bir bo‘lsa ham, tarbiyamiz boshqa. Qanday bo‘lar ekan?” – deya andisha bilan fikr bildiradiki, bunda ukalar oldidagi burch va mas‘uliyat ham akaning ana shunday javob qaytarishini talab qiladi.

Ertakda kiritma hikoya sifatida “To‘ti” hikoyasi keltirilgan. Hikoyaning mazmuniga lafzda turish insoniylikning asl sharti ekanligi singdirilgan. Chunki insonni ulug‘laydigan sifatlardan biri ham uning lafzi hisoblanadi. Kenja botir hikoya orqali vazirni tekshirishga ham ishora qiladiki, ziyrak podshoh buni to‘g‘ri ilg‘ab oladi.

Ertakni o‘quvchilarga tushuntirish jarayonida nimalarga e‘tibor qaratilishi kerak? Bu jarayonda “Ertaklar yaxshilikka yetaklar” degan hikmatli fikr o‘quvchilarga singdirilishi darkor. Negaki, o‘zbek xalq

ertaklari boshqa xalq ertaklaridan farqli ravishda (masalan, “Bo‘g‘irsoq” rus xalq ertagidan) tragik xulosa bilan yakunlanmaydi. Shu jihati bilan xalq ertaklari o‘quvchilarda optimistik kayfiyatni uyg‘otadi.

Fan dasturida ertakni o‘rganish uchun uch soat ajratilgan bo‘lib, bu vaqt davomida ertak matni ustida ishlash, unda xalq badiiy dahosi, fantaziyasining yorqin namoyon bo‘lishi, botirlarga xos ezgu ma‘naviy sifatlarning ulug‘lanishi o‘quvchilarga tushuntirilishi kerak.

Mavzuni o‘rganish uchun ajratilgan 1-2-soatlarda o‘quvchilar ertak matni bilan tanishtirish barobarida mustaqhamlash uchun savol va topshiriqlar ham berib boriladi. Savol va topshiriqlar axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda donishmand chol obrazi orqali berilsa, o‘quvchilar uchun ta’sirchan va qiziqarli bo‘lishi ta’minlanadi.

1-topshiriq

Donishmand chol tilidan quyidagi savol audio va slayd tarzida o‘quvchilar e’tiboriga havola qilinishi mumkin:

“3” raqami bilan bog‘liq nimalarni bilasiz?

O‘quvchilar taxminan quyidagi javoblarni berishlari mumkin:

uch – nafaqat raqam balki uchmoq fe’li (*omonim so‘z*);

uch – narsa-predmetning boshlanish qismi – uchi;

“Uch baqaloq” filmi;

Hayotda ko‘p narsalarning, xatti-harakatlarning uch marta takrorlanishi. Masalan, qo‘lni uch marta yuvish...

Ertak matnining ma’lum qismi bilan tanishtirilgach, o‘qituvchi yana o‘quvchilar diqqatini ekranga qaratadi. Ekranda quyidagi matnlar va ularga mos ravishda qahramonlarning tasvirlari namoyish etiladi.

2-topshiriq

Ertakda uch raqami bilan bog‘liq quyidagi hodisalar mavjud:

1. **Cholning uch nafar farzandi bor** – to‘ng‘ich botir, o‘rtancha botir, kenja botir (*botirlarning rasmlari namoyish etiladi*).

2. **Chol tarbiyada quyidagi uch amalga rioya qiladi:**

A) *Sog‘lom vujudli qilib o‘stirdim – quvvatli bo‘ldingiz;*

B) *Yarog‘ bilan tanishtirdim – yarog‘ ishlatishga usta bo‘ldingiz;*

D) *Qo‘rqitmay o‘stirdim – botir bo‘ldingiz.*

3. **Chol safarga otlangan o‘g‘illariga uchta nasihat qiladi:**

A) *To‘g‘ri bo‘ling – bexavotir bo‘lasiz;*

B) *Maqtanchoq bo‘lmang – xijolat tortmaysiz;*

D) *Dangasalik qilmang – baxtsiz bo‘lmaysiz.*

4. Chol farzandlariga safarga chiqish uchun uchta ot tayyorlab qo'yadi:

A) qora toy;

B) saman toy – och malla, sarg'ish, somonrang ot;

D) ko'k toy.

3-topshiriq

O'quvchilar ertak matni bilan to'liq tanishib bo'lgach, monitorda donishmand chol obrazi namoyon bo'ladi va o'quvchilardan ertakda uch raqami bilan bog'liq yana qaysi voqealarga e'tibor qaratganlarini so'raydi. O'quvchilar taxminan quyidagi javoblarni beradilar:

- uch aka-uka va podshoning uch qizi;
- mehmondorchilikda bildirilgan uch xil fikr;
- to'tining ona yurtida uch kun turishi;
- to'ti bilan bog'liq uch dona olma;
- aka-ukalarning uch kunlik yo'l safari.

4-topshiriq

Monitorda donishmand chol namoyon bo'ladi va o'quvchilarni fikrlashga undovchi savollar bilan murojaat qiladi:

1. Sizningcha, nima uchun uch raqami bilan bog'liq hodisalar ertakning bir necha o'rnida uchradi?

(Xalqimiz ayrim raqamlarni xosiyatli deb biladi va ko'p ishlatadi, masalan, 3, 7, 40 singari. Ertak "Uch og'a-ini botirlar" deb nomlangani sababli, undagi voqea-hodisalar bevosita shu raqamga bog'lanadi va kompozitsion butunlik hosil qiladi).

2. O'g'illarimga uchta nasihat berganimdan so'ng "bundan boshqasini o'zingiz biling", deb aytdim. Siz bu gapimni qanday tushundingiz?

(Hamisha har yerda aql-idrok va fahm-farosatni ishlatish kerakligini tushundik).

3. Men o'g'illarimga yana 3 ta nasihat qildim. O'sha nasihatni kitobdan topib o'qing.

(To'g'ri javob:

A) Baxtingiz yo'lda, topib olmoq uchun dunyoni ko'rgani yo'lga chiqing;

B) Dunyoni tanimay dunyo kishisi bo'lmaysiz;

D) Baxt qushini ushlamoq uchun baxt oviga chiqing).

“Uch og‘a-ini botirlar” ertagi fanlararo integratsiyani ta‘minlash uchun ham manba bo‘la oladi. 5-topshiriqni ayni maqsadga yo‘naltirish mumkin.

5-topshiriq

O‘quvchilar o‘qituvchi yordamida donishmand cholga quyidagi savollarni berish va javob olish orqali ot haqidagi tasavvurlarini kengaytirishlari mumkin:

1-savol. Nima uchun yigitlarga bir xil rangdagi otlarni emas, har xil rangdagi otlarni tanladingiz? Siz ranglarni qanday tushuntirasiz?

Cholning javobi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

“Men farzandlarimga eng yaxshi otlarni berdim.

Qora ot – otlarning eng qo‘rqmasi va yaxshi chopag‘oni va tishlong‘ichidir. Ukalarini xavf-u xatardan saqlasin deb, uni to‘ng‘ich farzandimga berdim.

Samanning manglayida yoki to‘rttala oyog‘ida oq qashqasi bo‘lsa, u otlarning eng yaxshisi va abjiri, sadoqatlisi bo‘ladi. Uni o‘rtancha o‘g‘limga berdim.

Ko‘k ot agar uning dumi qora bo‘lsa, otlarning eng yaxshisi bo‘ladi. Uni g‘irko‘k ham deyishadi. Sakraganda 40 metrgacha sakraydi. Uni kenja o‘g‘limga berdim.

Qora rang – ulug‘vorlik, sariq rang – sadoqat, ko‘k rang – tinchlik timsoli”.

2-savol: Nega farzandlaringizga toylarni berdingiz?

Cholning javobi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

“Otlar yoshiga ko‘ra bir necha nom bilan ataladi:

qulun – yangi tug‘ilgan ot (yangi tug‘ilgan qulun yigirma kun davomida yungini tashlab yangi yung chiqaradi. Bu davrda qulun qora quloq deb ataladi)

yanoq – bir yoshgacha bo‘lgan ot;

toy – ikki yoshgacha bo‘lgan ot;

g‘o‘non – ikki-uch yashar ayg‘ir;

do‘non – to‘rt yoshli ot.

Toylar epchillik bilan xatardan saqlashi va manzilga tez olib borishi uchun o‘g‘illarimga toylarni tanlab berdim. Toylar hali hech kim tomonidan minilmagan bo‘ladi. O‘g‘illarim ularni o‘zlariga moslashtirib olishlari uchun ataylab tanladim”.

Ushbu savol-javoblardan keyin o‘quvchilar bilan otlar haqida qisqa suhbat qurish tavsiya etiladi. Suhbat davomida ot qadimdan jasur yigitlarning – botirlarning eng yaqin do‘sti va yo‘ldoshi bo‘lganligi, xalq

og‘zaki ijodi namunalarida otlar xuddi insonlar kabi tasvirlangani, ularga nom qo‘yilgani (G‘irot, Boychibor, Jiyrongush va hokazo), otabobolarimiz bu jonivorni e‘zozlashgani xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, momolarimiz ham chavandozlikda yigitlardan qolishmaganligi, Oybarchin ot chopishda, temuriy malikalar chavgon o‘yinida mohir bo‘lganliklari qayd etiladi.

6- topshiriq

Mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilarning botirlar bilan suhbatini ham tashkillashtirish mumkin. O‘quvchilar botirlarga taxminan quyidagi savollar bilan murojaat qiladilar:

1. Nima uchun navbatchilikda ro‘y bergan hodisalarni bir-biringizdan sir saqladingiz?

Javob: “Aka-ukalarimiz xavotirga tushmasligi, tinch orom olishlari uchun. Bu haqda ertakning to‘la matnini “O‘zbek xalq ertaklari”dan o‘qisangiz bilib olasiz.

O‘z navbatida donishmand chol o‘quvchilarga quyidagi saollarni berishi mumkin:

1. O‘g‘illarim safari davomida ularning tarbiyasidagi uchta jihatga amal qilishdimi? Buni qayerdan bildingiz?

Javob: “Baquvvat ekanini sher, ajdar, qirq qaroqchiga yengilmaganidan;

Yarog‘ ishlatishga mohir ekanini ularning jang qilishidan;

Botir ekanini ularning har biri bir dushman bilan yakkama-yakka jang qilganidan bildik”.

O‘qituvchi berilgan topshiriqlarni sinf o‘quvchilari egallagan bilim, ko‘nikma va malakalardan kelib chiqib to‘ldirishi, o‘zgartirishi mumkin.

Adabiyot o‘qitishdan maqsad o‘quvchilar qalbida ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg‘otishdir. Albatta, bu maqsad badiiy asarlarni o‘qish va uqish orqali amalga oshiriladi. Adabiyot o‘qituvchisi badiiy asarni faqat o‘qitish bilan cheklansa, maqsad-muddaoga erisha olmasligi aniq. Qachonki asar tahlil qilinsa, uning mohiyati anglansa, bir so‘z bilan aytganda, uqilsa, shundagina kitobxon o‘quvchini tarbiyalagan bo‘lamiz.

“DASHT-U DALALARDA” HIKOYASINI O‘QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

Marg‘uba Abdullayeva, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU dotsenti, f.f.n.

Badiiy asarlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni asar g‘oyasi va mohiyatini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. “Interaktiv ta’lim – ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta’lim. Interaktivlik esa ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklaridir. Mantiqiy nuqtayi nazardan interaktivlik ijtimoiy subyektlarning suhbat, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyat olib borishlarini ifodalaydi” [8; 4-b.].

Shuni nazarda tutgan holda Murod Muhammad Do‘st hayoti va ijodi, asarlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, “Dasht-u dalalarda” hikoyasi tahlili o‘rganiladi. Hikoyadagi bosh qahramon Polvon va Xadicha timsoliga tavsif beriladi. Bu jarayonlarni amalga oshirishda bir necha topshiriqlar orqali interaktiv metodlardan foydalaniladi.




Murod Muhammad Do‘st 1949-yil 12-aprelda Samarqand viloyatining Jom qishlog‘ida tug‘lgan. 1971-yilda ToshDUning tarix fakulteti falsafa bo‘limini tugatgan. 1974–79-yillarda Moskvadagi Adabiyot institutida o‘qigan. Dastlabki hikoyalar to‘plami – “Qaydasan, quvonch sadosi?” (1976). Shundan keyin “Mustafo” (1977), “Bir toychoqning xuni” (1979), “Galatepaga qaytish” (1983), “Dasht-u dalalarda” (1987) singari hikoya va qissalari nashr etilgan. “Lolazor” (1988) romani muallifi. Yozuvchi asarlari misolida badiiy filmlar suratga olingan. 1990-yilda Hamza nomidagi O‘zbekiston davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan.

Murod Muhammad Do‘stning “Galatepaga qaytish” asari dastlabki yirik asaridir. Unda o‘tgan asrning 80-yillari haqida, behalovat, beorom, zamondoshlarimiz – o‘zbek ziyolilarining hayoti to‘g‘risida, muhabbat, iymon, haq va haqiqat yo‘lidagi iztirobli, gohida chigal izlanishlar, ana shu sabab inson qalbida kechadigan turfa ruhiy kechinmalar xususida o‘ziga xos ohang va rang bilan hikoya qilinadi.

Hihoyada so‘zlar tirik, ular qiynalmay, ozod yashaydi, bermalol nafas oladi. Voqealar badiiy qahramon hayotiga, harakatlariga, fe‘liga uyg‘undir. Ruhiy tahlil kuchli va u badiiy qahramon ruhiyatini, iztiroblarini, tuyg‘u va qayg‘ular zulmatini osuda oqshom osmonida porlayotgan to‘lin oydek ohista yoritaveradi. Hikoyadagi to‘y manzarasi yuk mashinasining aravisiga chiqib olgan erkak-u xotin-xalaj, qo‘rquvdan bir burda bo‘lib o‘tirgan kelinchak, tezroq uyga yeta qolsaydik, deya o‘tirgan kuyov, dasht-u dalalarga taralib yangrayotgan “Yor-yor”, kutilmaganda sho‘rquduqliklar tomonidan taraqa-turuq otilgan toshlar, boshi yorilgan yilqichi, bu hammasi o‘zbek hayotida yuz bergan va yuz berishi mumkin bo‘lgan voqealarning hayotiy, haqqoniy aniq tasviridir.

O‘quvchilar diqqatini jamlash va asarni qayta esga olish uchun hikoyaning audio variantidan parcha tinglanadi.



Birinchi topshiriq

“Dasht-u dalalarda” hikoyasining voqealar rivojini “Baliq skeleti” sxemasi orqali bayon qiling.



Ikkinchi topshiriq

“**Kim zukko**” metodidan foydalanib, “Dasht-u dalalarda” hikoyasining tuguni, kulminatsiyasi va yechimini toping.

TUGUN	KULMINATSIYA	YECHIM
Polvonning xotini Xadichaning ketib qolishi	Polvon Maxsumning gapiga kirib, xotiniga taloq berishi	Polvonning Sho‘rquduqqa borishi

Uchinchi topshiriq

“**Tushunchalar tahlili**” metodi. Mazkur metod orqali o‘quvchilarning badiiy asar tilini tushunishi, qahramon ruhiyatini ochib beruvchi so‘z va tushunchalar mazmunini to‘la anglashiga erishish mumkin. Uch guruhga asardan keltirilgan namunalar beriladi.

Quyidagi jumlar ma’nosini tushuntiring:

I guruh

1. Xadicha ketdi-yu, ko‘ngildan halovat ham ketdi.
2. Uy bamisoli o‘lik chiqqanday huvullaydi.

II guruh

3. Eri naq metin-cho‘kich tegsa, chaqin chiqadi.
4. Musht yeganda yig‘lamagan ayol, buni eshitib yomon bo‘shashdi, ko‘ziga yosh oldi.

III guruh

5. Belimni bukma, gavharni toshga urmaylik Xatcha!..
6. Yoqasiga qadalgan qator sadaf tugmalarigacha iffatga yor, shubhaga zomin edi.

Adabiyot o‘qitishning vazifalaridan biri asar ustida ishlash mobaynida uni o‘zlashtirish va his etishda o‘quvchida bilim hamda hissiyot birligini ta’minlashdan iborat. Badiiy asarlarni o‘rganish samaradorligi o‘quvchi tuyg‘ularining samimiyligiga bevosita bog‘liq. Asar ustida ishlash bir

vaqtning o'zida o'quvchini yangi bilimlar bilan boyitadi, adabiy-nazariy rivojini ta'minlaydi. Shu o'rinda, har bir o'qituvchi badiiy asarlarni tahlil qilish tamoyillarini bilishi zarur.

genetik tahlilda asarning yuzaga kelish jarayoni, variantlari, yozilish sabablari tadqiq etiladi;

tipologik tahlilda asarni yuzaga keltirgan badiiy yoki hayotiy manbalar, tahlil etilayotgan asarning o'sha davrda yaratilgan boshqa asarlarga o'xshash hamda farqli tomonlari, asar muallifi bilan o'zga adiblar orasidagi ijodiy ta'sir kabilarni aniqlashga e'tibor qaratiladi;

filologik tahlilda asar filologik hodisa sifatida til va tasvir vositalarini qo'llash, tilning tasvir imkoniyatlari doirasida badiiy shakllar yaratish nuqtayi nazaridan tekshiriladi;

psixologik tahlilda asar muallifi shaxsiyatida o'ziga xoslik, adibning asar ustida ishlash usuli, ijodiy jarayon psixologiyasi, muallifning tasvir uslubini tayin etgan omillar o'rganiladi;

funksional tahlilda asarning ijtimoiy ta'sir kuchini aniqlashga alohida ahamiyat beriladi, asarning muayyan millat ma'naviyatidagi, milliy adabiyotdagi o'rni tekshiriladi, yaratilgan zamonidagi yoki tekshirilayotgan davrdagi kishilar tafakkuriga qilgan ta'siriga alohida diqqat qilinadi, asardagi qaysi obraz yoki tasvir orqali qanday ijtimoiy qonuniyat yoxud muammo yoritilgani aniqlanadi.

Tahlil tamoyillari talabini to'laqonli bajarishda badiiy asarlarning tur va janr xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday tahlil avvalida o'rganilayotgan badiiy matnning adabiy tur xususiyatlari, janr imkoniyatlari e'tiborga olinadi.

To'rtinchi topshiriq

“Tadqiq va tahlil” metodi. Mazkur metodda o'quvchilar badiiy asarni yuqoridagi tamoyillar asosida tadqiq va tahlil qiladilar. Bu jarayon orqali o'quvchilar mustaqil izlanish olib boradilar. Ijodiy ishlaydilar. Fikrlarini erkin bayon qiladilar.

I guruh

Asarni tipologik tahlil qiling.

II guruh

Asarni filologik tahlil qiling.

III guruh

Asarni funksional tahlil qiling.

To'ydan keyin Polvonning yuragida paydo bo'lgan shubha-yu gumonlar rashk olovini yoqib, uni botinan qovurib jizza qila boshlaydi va

Polvon Xadicha o'rtasida kelishmovchilik yuzaga keldi. Xadicha qizchasi Chamanni yetaklab otasinikiga ketib qoladi. Yozuvchi "to'ng" so'zini ishlatarkan badiiy qahramonni xotinidan xafa bo'lib, qovog'ini uygan, xo'mraygan holati qiyofasini mahorat bilan hikoya ko'zgisida yuksak did bilan aks ettiradi. Xadicha uzoqda qizchasi Chamanni ergashtirib tarzida emas, "iyartib" deya yozarkan, mahalliy sheva go'zalligini saqlab qoladi.

Beshinchi topshiriq

"Shevani bilasizmi" texnologiyasi orqali asarda keltirilgan shevaga xos so'zlarning ma'nosini izohlash vazifasi topshiriladi. Ma'lumki, Murod Muhammad Do'st asarlarida shevaga xos so'zlardan samarali foydalangan. Bu asarning xalq tiliga yaqin bo'lishini ta'minlash bilan bir qatorda, voqealar ro'y bergan hududning dealektal xususiyatlarini o'rganishga xizmat qiladi.

Ilkis – keskin (birdan) harakat qilmoq

Gavron – oziq-ovqat solinadigan xalta

Siyog'i – qorasi

Toyxar – eshakning bolasi

Jikkak – jizzaki, jahldor

Taqim – odam soni (tana a'zosi)ning ichki tarafi

Jiyrilgan – g'ijimlangan

Nag'ali – taqa

Qabartma – og'ritma

"Dasht-u dalalarda" asarining obrazlar tizimini o'rganishda ham interaktiv metodlardan foydalanish mumkin. O'qituvchi asardagi obrazlar bo'yicha qisqa ma'lumot berib o'tadi. "Obrazlar tahlili" metodi orqali o'quvchilar asarning bosh qahramonlari Polvon va Xadichaga tavsif beradilar. Bosh qahramon obrazini yaratishda yozuvchining badiiy mahoratini tahlil qilib o'rganadilar.

DASHT-U DALALARDA

Asarda qatnashgan obrazlar:

- | | |
|------------------|----------------------|
| 1. Xadicha | 10. Nizomboy milisa |
| 2. Polvon | 11. Sattor |
| 3. Adolat | 12. Sattorning xotin |
| 4. Hasanboy | 13. Nazar Maxsum |
| 5. Oybuvi | 14. O'sarqul |
| 6. G'uchchi chol | 15. Usta Xoliyor |
| 7. Chaman | 16. O'rol |
| 8. Salim | 17. Sanaqul |
| 9. Mahfirat | 18. Ahmad |



Oltinchi topshiriq
“OBRAZLAR TAHLILI” METODI

POLVON	XADICHA
Obraz yaratishda yozuvchining badiiy mahorati	

Xulosa qilib aytganda, Murod Muhammad Do‘stning “Dasht-u dalalarda” hikoyasi yozuvchining uslubi, badiiy tafakkuri, ijodiy talantini namoyon qilgan. Asarda milliy ruh, oddiy, mehnatkash xalqning yashash tarzi muammolari va kechmishi mohirona qalamga olingan. Kitobxon bu asarda oddiy bir oilaning baxtini ham, baxtsizligini ham ko‘ra oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.ziyouz.com. Murod Muhammad Do‘st asarlarining elektron to‘plami. 2017.
2. Murod Muhammad Do‘st. Galatepaga qaytish yoxud saodatmand G‘aybarov rivoyati. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 2009. 240 b.
3. Murod Muhammad Do‘st. Dasht-u dalalarda. – T., 2008.
4. Karimov N. va boshq. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: O‘qituvchi, 1999.
5. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. – T.: O‘qituvchi, 2004 .
6. Qozoqboy Yo‘ldosh. Yoniq so‘z. –T.: Yangi asr avlodi, 2006.
7. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish. –T.: Fan, 2006.
8. Мухамедов Ў. ва бошқ. Таълимни ташкил этишда замонавий интерфаол методлар. – Т., 2016.

HUSAYNIY IJODI TURK OLIMLARI TALQINIDA

Husnigul Jo‘rayeva, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU katta o‘qituvchisi, f.f.d. (PhD)

Bugun ilm-fan shiddat bilan rivojlanib borayotgani, insoniyat tafakkuri yangidan-yangi izlanishlarni taqdim etayotgani barchaga ma’lum. Ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchidan metin iroda, sabr va

bardosh talab qiladigan matnshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasi o'tmish qo'lyozma, tazkira va yodnomalar, bayoz hamda majmualarni o'rganish, ajdodlar ma'naviy merosini kelajak avlodga bus-butunligicha yetkazish mas'uliyatini yuklaydi. Zero, asrlar mobaynida yaratilgan adabiy manbalar turli davrlarda xattotlar tomonidan qayta-qayta ko'chirilgan, kitobat qilingan. Bugungi kunda turli fondlarda mavjud qo'lyozma manbalarni izlab topish va o'zaro qiyoslash asosida asliyatga yaqin nusxani yaratish dunyo matnshunosligining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan jahon qo'lyozma fondlarida devonining ko'plab nusxalari saqlanayotgan Husayn Boyqaro – Husayniy merosini o'rganish, asarlarining qo'lyozma nusxalarini kompleks yondashuv asosida tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

Hozirga qadar o'zbek, ozar, afg'on, turk olimlari tomonidan temuriy sarkarda, nozikta'b shoir Husayn Boyqaro – Husayniy hayoti, ijodiy merosini o'rganish, she'rlar devoni va “Risolai Husayn Boyqaro” asarini nashr ettirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, bu borada turk olimlarining mehnati anchayin keng qamrovli. Turkologlarning Husayniy shaxsiyatiga cheksiz hurmati, shoir adabiy merosiga bo'lgan qiziqishi sabablarini quyidagi uch omil bilan izohlash mumkin:

1. Turk ilm-adab ahlining Alisher Navoiy dahosiga bo'lgan ehtiromi, Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari, do'stlik rishtalari, Husayniy va Hirot adabiy muhiti, Navoiy va Husayn Boyqaroning badiiy ijoddagi izdoshlik an'analari masalasining doimiy e'tibor markazida turganligi;

2. Husayn Boyqaro siymisining XV asr ikkinchi yarmi, XVI asr boshlari turkiy til rivoji va mavqeyini tiklashdagi jonbozligi, turkiy xalqlar jiplashuvida tutgan o'rni, san'at va ilm-fan homiysi sifatidagi qiyofasi;

3. Shoh va shoir Husayniyning buyurtmasi bilan ko'chirilgan, hazrat Alisher Navoiy nigohidan o'tkazilgan shohona qo'lyozmalarning Turkiya davlati qo'lyozmalar fondidga saqlanishi.

1946-yil Istanbulda professor Ismoil Hikmat Ertaylon Husayniy devonining “Ayo Sofiya” kutubxonasida saqlanayotgan 3911-raqamli qo'lyozmasini faksimel shaklida chop ettirgan [1]. Ismoil Hikmat Ertaylon keltirgan ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, Turkiyaning To'pqopi saroyi muzeyi, Turk va islom yodgorliklari muzeyi hamda Istanbul universiteti kutubxonasida ye.N. 1636, T.I. 1977, T. 1942, T. 1926, 3911, 102, 3807, 3806, 2381, 106 raqamli Husayniy devoni qo'lyozmalari saqlanadi. Mazkur qo'lyozmalar zamonasining mashhur kotiblari Sulton Ali Mashhadiy, Sulton Muhammad Xandon tomonidan nafis nasta'liq xatida

ko‘chirilgan.

2002-yil Anqara universitetida tadqiqotchi Talip Yildirim tomonidan “Husayn Boyqaro devoni” (Matn – tadqiq – izoh)” nomli doktorlik dissertatsiyasi himoya qilingan. Dissertatsiya kirish, ancha katta fasllarni o‘z ichiga olgan mustaqil uch bob, Husayniy devonining qiyosiy matni, manba, lug‘at va xulosadan tashkil topgan. Bu tadqiqotda shoir devonining o‘z zamonasida ko‘chirilgan 8ta qo‘lyozmasi asos qilib olingan va ular shartli ravishda **U, A, F1, F2, ye, M, I, T** harflari bilan belgilab olingan.

1. **U** nusxa. Istanbul universiteti kutubxonasida saqlanayotgan T.Y.1977 raqamli qo‘lyozma.

2. **A** nusxa. Istanbul “Ayo Sofiya” kutubxonasidagi 3911-raqamli qo‘lyozma.

3. **F1** nusxa. Fotih kutubxonasidagi 3806-raqamli qo‘lyozma.

4. **F2** nusxa. Fotih kutubxonasidagi 3807-raqamli qo‘lyozma.

5. **ye** nusxa. To‘pqopi saroyi Enderun kutubxonasidagi 2307-raqamli qo‘lyozma.

6. **M** nusxa. Turkiya Millat kutubxonasidagi 106-raqamli qo‘lyozma.

7. **I** nusxa. Turk va islom asarlari muzeyi kutubxonasidagi 3913 raqamli qo‘lyozma.

8. **T** nusxa. To‘pqopi saroyi kutubxonasidagi 2307-raqamli qo‘lyozma.

Olim Talip Yildirim Husayniy devonining mazkur sakkiz qo‘lyozmasi asosida 201 ta g‘azal, 2 ta muxammas, 6 ta ruboiy va 3 baytdan iborat matnini yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Dissertatsiyada shoir devonining eng katta nusxasi bo‘lganligi tufayli Fotih kutubxonasida (**F1**) 3806 raqami ostida qayd etilgan qo‘lyozma tayanch manba sifatida tanlab olingan. Adib she‘riyatidagi so‘z va ibora, misra va baytlarga taalluqli farqlilik izoh sifatida tayanch nusxasiga ko‘ra berilgan.

Dissertatsiyaning ilmiy qimmatini oshiruvchi yana bir jihati shundaki, Husayniy devoni matnning til xususiyatlarini o‘rganish, g‘azal va ruboiylarida qo‘llanilgan eski turk tili, qoraxoniy turk tili o‘zaro taqqoslanib, adib lirikasining lingvopoetik xususiyatlari ochib berilgan. E‘tiborlisi, ishning lug‘at bo‘limida she‘rlar matnida kelgan so‘zlar olinib ma‘nolari izohlanar ekan, so‘zlarda kelgan qo‘shimchalar ham grammatik bir tartibda berilgan. Talip Yildirim iftixor bilan “Turklar orasida fors tili qadrlangan bir vaqtda turk tilida asar yozishni targ‘ib etdi (Husayn Boyqaro– H.J.) va qo‘llab-quvvatladi. Turk tili va adabiyotida ulug‘ siymolar yetishib chiqishida Husayn Boyqaroning xizmati beqiyosdir”, – deb ta‘kidlaydi [2; 3-b.]. Ko‘rinadiki, turk olimi Husayn Boyqaro

siyimosining o'ziga xos jihatlari: turkiy til homiysi sifatidagi sa'y-harakatlari, ijodiyotidagi turkona lafz va shirinta'blik, turkiy so'zlar ma'no qatlamidan mohirona foydalana olishlik iste'dodini alohida e'tirof etadi.

Dissertatsiyada Husayniy devoni nusxalari va ular yuzasidan turk olimlarining olib borgan tadqiqotlari haqida ham to'xtalib o'tilgan. Xususan, Husayniy devonning dunyo fondlarida saqlanayotgan qo'lyozmalari haqida gap ketganida, "Devoni Sulton Husayn Boyqaro"ning 21ta nusxasi topilgani, bulardan 8 tasi Turkiyada, 13 tasi esa xorijda saqlanishi qayd etilgan (Xuddi shu dalillar professor Ismoil Hikmat Ertaylon tomonidan 1946-yil nashr etilgan Husayniy devonining Istanbul nashri muqaddimasida ham keltirilgan). Tadqiqotchi jahon qo'lyozma fondlarida mavjud devon qo'lyozmalarini quyidagicha tasniflagan:

1. Husayniy devonining Turkiya qo'lyozma fondlarida topilgan nusxalari.

2. Husayniy devonining xorijiy fondlardagi nusxalari.

Jiddiyroq nazar solinsa, xorijiy nusxalar tatibida 12-, 13-o'rinlarda Marg'ilonda bir kishining shaxsiy kutubxonasida saqlangan Husayniy devoni hamda olim Abdurauf Fitratning kutubxonasidagi devon nusxasi haqida xabar berilgan.

Turk husayniyshunosligi shuni ko'rsatadiki, turkiyalik olimlar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi hamda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi fondida saqlanayotgan Husayniy devonining qo'lyozma nusxalari haqida o'z tadqiqotlarida ma'lumot berib o'tishmagan. Vaholanki, yurtimiz fondlarida saqlanayotgan Husayniy devoni manbalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. **Husayniy devoni qo'lyozmalari.** O'zR FA ShI qo'lyozmalar fondida Husayn Boyqaro devonining 1117-, 6967-, 7709-, 1942-raqamli qo'lyozmalari mavjud. Qo'lyozmalar turli davrda har xil saviyadagi kotiblar tomonidan ko'chirilganligi bois shoir asarlarining miqdori va matnlarida farqli o'rinlar, noaniqliklar uchraydi.

2. **Husayniy she'rlari kiritilgan bayozlar.** O'zR FA ShI fondidagi 1161-, 2515-, 5736-, 7011-, 3326-, 2037-raqamli; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyidagi 401-, 263-, 662-, 289-, 38-raqamli bayozlarda Husayn Boyqaro she'rlari ko'chirilgan.

3. **Husayniy she'rlari kiritilgan majmualar.** O'zR FA ShI fondidagi

1154- raqamli majmuaning 590b-591a sahifalarida “Ey ajal, ozod qil hijron balosidin meni” deb boshlanuvchi Husayniy g‘azaliga Shohiy tomonidan bog‘langan muxammas keltirilgan.

Xulosa qilib shuni aytish zarurki, turk olimlari Husayn Boyqaro hayoti va ijodiy merosini o‘rganish, devon qo‘lyozma nusxalarni qiyoslab, qiyosiy matnini yaratish, g‘azallarini to‘plab nashr ettirish borasida salmoqli ishlarni amalga oshirgan. Turkiya davlati hamda O‘zbekiston qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan Husayniy devoni qo‘lyozmalarini o‘zaro qiyoslab, farq va tafovutlarni aniqlash kelajakda shoir devonining mukammal ilmiy tanqidiy matnini yaratish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Девони Хусайн Бойқаро. Нашрга тайёрловчи Исмоил Ҳикмат Эртайлон. – Истанбул: Бурҳониддин Эранлар матбааси, 1946. – 243 б.
2. Талип Йилдирим. Хусайн Бойқаро девони (Матн – тадқиқ – изох). Докторлик диссертацияси. – Анқара, 2002. – 276 б.
3. Жўраева Х. Хусайнийнинг ҳаёти ва ижодий мероси. Монография. – Тошкент: Kamalak, 2014. – 124 б.
4. Жўраева Х. Девони Султон Хусайн Бойқаро. Йиғма-қиёсий матн. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2016. – 170 б.

MUJRIM – OBIDNING BADIY SAN’ATLARGA E’TIBORI VA FOYDALANISH USULLARI

G‘afur Eshmanov, TSHXTXQTMOHM
katta o‘qituvchisi, f.f.n.

Mujrim – Obid XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Buxoro amirligi hududida yashagan.

Sharq adabiyoti badiiy san’atlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy asarlar mavjud. Poetikaning badiiy san’atlarni o‘rganadigan sohasi mumtoz adabiyotda “ilmi badi” (“badiiylik ilmi”) deyilgan. Albatta, har bir she’riy san’atni qo‘llashda muallif mahorati namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda Mujrim – Obid badiiy san’atlardan foydalanishda qanday mahorat ko‘rsatgan, degan savol atrofida fikr yuritsak.

Bu savolga javob topish uchun shoirning ayrim asarlari misolida tahliliy mulohazalarimizni bayon qilamiz.

Mujrim – Obid mumtoz she’riyatimiz badiiy san’atlarini puxta o‘rgangan. Ayni fikrning isboti sifatida shoirning, jumladan, “Qilur”

radifli gʻazalini tilga olish mumkin. Gʻazalning mazmuniga e'tibor bersak, shoir tasviricha, zamona kishilariga xos illatlarning tub ildizi – ularni oʻz bagʻrida yetishtirgan nosoz zamonada ekanligi ayon boʻladi [1; 296-b.].

Zamon – keng falsafiy tushuncha, uni hamma har xil tushunadi. Hatto, bu haqda “Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq”, degan xalq maqoli ham bor. Mujrim – Obid asarlarining umumiy ruhidan anglashilishicha, zamon – kishilarni har xil koʻyga sola oladigan hukmdor. Uning qoʻlidan yaxshilik ham, yomonlik ham kela oladi:

Zamona har kima bir tarz roʻzgʻor qilur,

Birovni vosili davlat, birovni xor qilur.

Birovni qoʻliga berur madori mulki jahon,

Birovni to dame oʻtguncha bemador qilur.

Birovni gʻami bila, qaygʻu bila ado aylar,

Birovni ishrati olamgʻa poydor qilur... [2; 83–87-b.]

Shoir 14 baytli mazkur gʻazalida **tasdiq san'atini** mahorat bilan qoʻllaydi. Ya'ni muallif asarda “birov” soʻzini 18 marotaba qayta takrorlaydi. Ammo bu qaytariq asar qimmatini tushirmaydi. Aksincha, gʻazalning “birov” soʻzi aks etmagan 6 baytida ham mohiyatan “birov” mazmuni anglashilib turadi.

Shunisi e'tiborliki, gʻazalda qaytariqning yana bir turi – **iltizom san'ati** ham qoʻllangan. Bu san'at haqida Alibek Rustamov quyidagilarni yozadi: “Soʻz takroriga asoslangan san'atlardan yana biri **iltizom**dir. Bu san'atda shoir bir yoki bir necha soʻzni katta asarning biror parchasida va kichik asarlarning barcha bayt yoki misralarida qaytarib, oʻquvchiga shu soʻz orqali ifodalanayotgan ma'noning muhimligini anglatadi va bayon qilinayotgan fikrning kishi xotiridan mustahkam oʻrin olishini ta'min etadi” [3; 53-b.].

Mujrim – Obid gʻazalida ham shu xususiyatlar yaqqol kuzatiladi. U hayotda turli-turli toifa odamlar borligini koʻrsatish, shunga urgʻu berish uchun “birov” soʻzi takroridan foydalanadi.

Umuman, bir gʻazalda bir necha badiiy san'at qoʻllaniladi. Ayniqsa, buni Mujrim – Obidning quyidagi gʻazalida ham koʻramiz:

Ey xush ulkim, bazmi gulzor ichra sarvi nozi bor,

Sarvi nozekim, chaman ichra qadi mumtozi bor.

Qadi mumtozeki, shamshod birla tubi rashkidin,

Oʻzlarin oro berib, mashshotai pardozi bor.

Turfa pardozeki, ustozi aning gʻulmonidur,

Turfa shogirdeki, bir uylik aning ustozi bor...

Obidi sargashtayi mahjur ko‘b dog‘i alam,
Na anisu, na kasu, na ko‘yu, na damsozi bor.

Ayni g‘azalda qaytariqning murakkab **tashobeh ul-atrof** yoki **tasbig‘** [4; 90–92-b.], **tasdor** [5; 83–87-b.] turlari hamda **tazod** [6; 80–83-b.] turlari aks etgan.

Mujrim – Obid **tashbeh** [7; 81–84], ya’ni **o‘xshatish** san’atidan ham mahorat bilan foydalangani diqqatga sazovor. Shuni alohida ta’kidlash joizki, o‘xshatish shoirning fikrini kuchaytiradi. Ushbu she’riy san’atning badiiy imkoniyatlari juda keng.

Mujrim – Obid asarlarida ma’nodoshlikka asoslangan san’atlar ham uchraydi. Bunday san’atlarni tahlil etib, shunday fikrga kelasizki, shoir Buxoroda turkiy she’riyat darajasini ko‘tarishga harakat qilgan. Bir g‘azali:

Ishq bemoriga, Mujrim, zo‘r tabiblar loiloj,

Yora bor bo‘lsa yurakda, yora borsang, yora bor, –

deb tugallanadi. Bir misrada uch bora “yora” so‘zi qo‘llanib, ular shunday ma’nolarda kelgan:

1. Yara. 2. Yora. 3. a) Yorga; b) Yara.

Bu **tajnis** san’atining yorqin namunasi. Turkiy til esa bunday tajnislarni yaratishda boshqa tillarga nisbatan boyroq imkoniyatga ega.

Ittifoq san’ati ham shoir mahoratini namoyish etadigan badiiy vositalardan biri. Vahob Rahmonov ittifoq san’ati haqida quyidagilarni yozadi: “Ayni san’at qatnashgan baytda taxallus ishtirok etmaydi. Ittifoq san’ati taxallusni – atoqli otni turdosh otga aylantiradi. Biroq buning evaziga, bu usul shoir taxallusini o‘quvchi yodiga solish vazifasini ham, qisman bo‘lsa-da, bajaradi. Taxallus bo‘lmasa-da, uning turdosh ot vazifasida, oddiy so‘z holida qatnashuvi shoir taxallusini yodga soladi” [8]. Mujrim – Obidning bir necha asarlarida bu san’at qo‘llanilgani haqida yuqorida ham qisman to‘xtalib o‘tgan edik. Bu yerda yana bir necha misol keltiramiz:

Na obidlarg‘a o‘xshab xonaqoh kunjin makon etdim,

Na mujrimlar kibi mahbusi har zindona o‘xsharman.

Agarchi mujrimlik ummat, xatimi nabi durman,

Bu ma’ni birla bori xotirimga itminon topdim.

* * *

Birov obidu mujrim bori o‘z yo‘lig‘a ozim,

Musallam tutmog‘i lozim ko‘ngulda vohidu iqroram.

Bu baytlarda “obid”, “mujrim” soʻzlari bevosita taxallus boʻlib kelgan emas, ular soʻzning oʻz maʼnosida qoʻllangan. Biroq ushbu baytlarda shu tariqa taxallusga ishora qilingan. Ilmiy manbalarda: “Sheʼrda mashhur tarixiy voqea, qissa yoki shaxslarni, mashhur adabiy qahramonlarni keltirish **talmeh** deb ataladi” [9; 301-b.], deb koʻrsatiladi. Shoir asarlarida bu sanʼatga ham keng oʻrin beriladi:

San ul pokiza atvoru maqoli bebahodursan,
Xaridoring boʻlib Yusufni koʻrkim kirdi bozora...

Bu baytda Yusuf qissasiga ishora bor.

Quyidagi ikki baytda esa “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin” dostonlari hamda mashhur shayx Mansur Xalloy tilga olingan:
...Eshitsalar mani boshimgʻa tushgan muncha savdoni,
Biyobonlarda Majnun, togʻ ichinda Koʻhkan⁸ [10] yigʻlar.

Osildi ishq tugʻyoni bilan Mansur dor uzra,
Analhaq naʼra tortib jubbayi doru rasan yigʻlar.

Xulosa qiladigan boʻlsak, Mujrim – Obid Buxoroning mahoratli shoiri maqomini oʻzida namoyon qila olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик. IV том. – Тошкент: Фан, 1978.
2. Исҳоқов Ё. Қайтариш санъати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1972. – Б. 83–87.
3. Рустамов А Навоийнинг бадиий маҳорати // Адабиёт ва санъат. – Тошкент, 1979.
4. Исҳоқов Ё. Ташабехуд атроф // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1972. 1-сон. – Б. 90–92.
5. Исҳоқов Ё Қайтариш санъати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1972. – Б.83–87.
6. Исҳоқов Ё. Тазод // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1970, 5-сон. – Б. 80–83.
7. Исҳоқов Ё. Ташбеҳ // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1970. 4-сон. – Б. 81–84.
8. Раҳимов В. Эҳтиёт бўлинг, иттифоқ санъати // Ўзбекистон адабиёт ва санъати. – Тошкент, 1997, 12 декабрь.
9. Шамс Қайс Розий. Ал-мўъжам. – Душанбе: 1991.

⁸ Кўкан – тоғ қазувчи бу ерда Фарход образи кўзда тутилган.

ADABIYOT DARSLARIDA O‘QUVCHILARNI ASAR TAHLILIGA O‘RGATISH USULLARI

Nasiba Sabirova, Xorazm viloyati
XTXQTMOHM Tillarni o‘qitish metodikasi
kafedrası mudiri, f.f.d. (PhD)

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar milliy adabiyotning, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘qish va tahlil qilish asosida yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, go‘zallik va xunuklik haqida xilma-xil talqinlarga duch kelishadi, ularga ongli va jonli munosabat bildirishadi, shular asosida o‘zlaridagi axloqiy-ma’naviy fazilatlar majmuining shakllanishi va rivojiga imkon topishadi. Ijodkorning quroli so‘z bo‘lib, u so‘zdan mohirlik bilan foydalangan holda shunday hayotiy manzaralar chizadiki, asarlarni o‘qiyotgan o‘quvchi xuddi o‘sha voqealarda o‘zi ishtirok etayotgandek, ularni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib turgandek bo‘ladi, qahramonlar bilan birga shodlanib, birga ma’yuslashadi. Ularga nisbatan ochiq hayotiy munosabatlarni aks ettirish zaruriyati esa, o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nutqlarining rivojidadagi muhim omil vazifasini ado etadi. Bu jarayonda yana bir narsani hisobga olish zarurki, sinfdagi barcha o‘quvchi bir xil bilim darajasiga ega emas. Shy sababli metodlar rang-barangligiga alohida e’tibor berish zarur.

Umumiy o‘rta ta’limda adabiy ta’lim sof ilmiy maqsadlarnigina emas, balki ma’naviy-axloqiy yo‘nalishlar ustuvorligini ko‘zda tutadi. Milliy adabiyotning, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘qish va tahlil qilish asosida o‘quvchilarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat kabi axloqiy-ma’naviy fazilatlar majmuining shakllanishi va rivojiga imkon yaratadi.

Har bir asarning o‘ziga xos badiiy olami bilan kengroq va chuqurroq tanishish, undagi shakllarning mazmuniy jihatlari (tovush va so‘zlarning qo‘llanishi, badiiy asarning qurilishi, yozuvchi va asar uslubi, badiiy so‘z poetikasi va b.)ni teranroq ilg‘ash uchun mos sharoit yaratish talab etiladi. Asarda aks etgan ijodkor dunyoqarashining, nuqtayi nazarining o‘ziga xosliklari bilan yaqindan tanishish uchun o‘qituvchidan ozgina ijodkorlik talab etiladi.

O‘quvchilarning ijodiy o‘y-xayollarini, individual imkoniyatlarini badiiy asarlardagi yuksak badiiyat va takrorlanmas san’atkorona tasvirlar orqali kengaytirish asosiy o‘rin tutadi. O‘quvchilarda adabiy asarni tahlil

qilish, adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganish malakasini shakllantirish asosiy maqsadimizdir.

Bu o‘rinda mumtoz adabiyot namunalarini o‘rganish uchun alohida yondashuv, zamonaviy lirika namunalarini o‘rganish uchun alohida yondashuv va nasriy asarlarni o‘rganishga alohida yondashuv zarur. Mumtoz she‘riyat namunalarini o‘rgatish jarayonida har bir she‘riy janrga xos belgilarni alohida tushuntirgan holda ishni tashkil etish zarur. Masalan, mumtoz adabiyot namunalarini tahlil qilishni Ogahiyning “Ustina” radifli g‘azali tahlili misolida quyidagi jadval asosida ko‘rish mumkin.

Asar janri	“Ustina” g‘azali
Bayt soni	9 bayt
Qofiyadosh so‘zlar	jallod, “sod”, shamshod, odamizod, bedod, faryod, Farhod, obod, bod, noshod
Qofiya turi	Muqayyad (raviy bilan tugallangan qofiya)
Qofiyalanish tartibi	a-a, b-a, v-a va h.k.
Radifi (agar bo‘lsa)	ustina so‘zi
Vazni	Rajazi musammani solim
Qo‘llangan she‘riy san‘atlar	Kitobat (harf san‘ati), tashxis, mubolag‘a, talmeh, tamsil, tashbeh kabi

Bu jadvalga qo‘shimcha tariqasida g‘azal vazni aniqlanadi:
G‘azal vaznini aniqlashda o‘quvchilarga yordam beriladi .

Mush-kin qo-shi- / ning hay’-a-ti / ul chash-mi jal-/ lo-d us ti-na

-- v - / -- v - / -- v - / -- v -

Qat-lim u-chun/ “nas” kel-ti-rur/ nu-nel-ti-bon /so-d us-ti-na

- - v - / - - v - / - - v - / - - v -

G‘azal afoyilini chizganimizda -- v- mustaf’ilun ruknida ekanligi aniqlanadi. Ma’lumki, bu rukn takroridan **rajaz** bahri yasaladi. Rukn misrada to‘rt, baytda sakkiz marta takrorlanganligi uchun **musamman (sakkizlik)** va to‘liq, ya’ni zihofga uchramaganligi uchun **solim** ekanligi tushuntiriladi. G‘azalning, baytma-bayt lug‘at asosida, mazmuni sharhlanadi, badiiyatiga alohida to‘xtalib o‘tiladi.

Zamonaviy she‘riyat namunalarini o‘rganish jarayonida jadvalga ayrim o‘zgarishlar kiritiladi. Bu o‘zgarishlar bevosita o‘quvchining shu sinfgacha o‘rgangan nazariy ma’lumotlari asosida shakllantiriladi.

Nasriy asarlarni o'rganish jarayonidagi eng muhim jihat – bu asarning sinfda o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib berilishi va o'quvchining uni uyda davom ettirishidir. Asar mazmuni bilan tanishgach, ishni “Tushunchalar tahlili” asosida davom ettirish maqsadga muvofiq. Bu jarayonda o'quvchidan asar qahramonlariga, joy nomlariga, sanalarga izoh yozish taklif etiladi. Tushunchalar sonini o'quvchilarning o'ziga aniqlatish ham yaxshi samara beradi. Bu jarayonda o'quvchilarning asar voqealarini qanchalik o'qiganligi va tushunganligi tekshiriladi.

Keyingi bosqichda “YQXO‘M” mashqi asosida o'quvchilardan asarga munosabat bildirish talab etiladi. Bu o'rinda o'quvchining erkin fikrlashiga, o'ziga yoqqan, qiziq tuyulgan, g'ashini keltirgan va katta taassurot qoldirgan o'rinlarni bemalol bayon etishiga imkon beriladi. Sinf o'quvchilarining yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olib, “FSMU” yoki “SWOT tahlil” metodlaridan foydalanish ham mumkin. Shuningdek, o'quvchilarni badiiy asarni o'qishga qiziqtirish uchun videofilmlardan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Masalan, G'afur G'ulomning “Shum bola” asarini va shu asar asosida olingan videofilmni namoyish qilish orqali farqli tomonlar tahlil qilinadi, ya'ni o'quvchi videofilmda asardagi qaysi epizodlar qoldirib ketilganligini tahlil qilishi uchun u asarni to'liq o'qib chiqqan bo'lishi kerak. Bu bilan biz o'quvchilarda badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirish bilan birga tayanch kompetensiyalarni ham shakllantirib boramiz.

Asar qanchalik chuqur tahlil qilinsa, o'quvchining badiiy asar o'qishga bo'lgan qiziqishi shunchalik ortadi. Badiiy asarni mutolaa qilgan o'quvchi esa ma'naviyati yuksak inson bo'lib kamolga yetishi, shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiahmedov A. Maktabda o'rganiladigan mumtoz she'riyatning vazn ko'rsatkichlari. – T.: Sharq, 2001.
2. Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi? – T.: Sharq, 2001.
3. Hojiahmedov A. O'zbek aruzi lug'ati. – T.: Sharq, 1998.
4. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999.

ADABIY TA'LIMDA SHAXS MUAMMOSI TADQIQI

Saodat Kambarova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU o'qituvchisi, ped.f.d. (PhD)

Yuksak malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga tayanish, fan bo'yicha egallangan

malakalar darajasini nazorat qilish va baholashda o'quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyati shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish adabiy ta'lim oldidagi dolzarb vazifalardandir. Zero, Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'lim-tarbiya sohasidagi yutuq va muammolarni tahlil qilar ekan, yoshlarning kitobxonlik darajasi pasayib, ko'p vaqtlarini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazayotganiga alohida e'tibor qaratgan holda: "...farzandlarimizda yoshlik chog'idan boshlab kitobga mehr qo'yish, mustaqil fikr yuritish, murakkab hayotiy vaziyatlarda to'g'ri javob topish ko'nikmasini shakllantirishimiz, buning uchun tegishli tashkiliy ishlarni amalga oshirishimiz darkor" [1; 469-b.] degan fikrlari masalaning g'oyat dolzarbligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, o'quvchi mutolaaga badiiy asarni o'z ehtiyoji va qiziqishi doirasida tanlaydi. Biroq o'qituvchi o'quvchining yosh xususiyatlari, bilish jarayonlari, qiziqishlari va saviyasini nazarda tutib ularga ma'naviy-ma'rifiy, milliy ruhdagi asarlardan bir nechtasini erkin tanlash uchun tavsiya qilishi mumkin. Mazkur talablardan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilariga iste'dodli adib Nazar Eshonqul asarlaridan mustaqil mutolaaga tavsiya qilish maqsadga muvofiq.

Har bir odamning o'ziga xos ma'naviy olami, tafakkur tarzi bo'lganidek, ijodkor ham takrorlanmas individ sifatida o'zligini asarlari orqali namoyon etadi. Nazar Eshonqul ijodida bu jihatlar axloqiy-estetik masalalar ustuvorligi hamda shaxs suvrati va siyratini badiiy-falsafiy talqin etishdagi tamoyillarning yangilanishi misolida namoyon bo'ladi.

Yozuvchi asarlarida, avvalo, xalq og'zaki ijodi namunalaridan ijodiy oziqlanish hodisasi barobarida Sharq va G'arb adabiy jarayoni an'analari sintezi Attor, Herman Hesse, Akutagava, Bekket, Borxes, Folkner, Kortasar, Sartr, Kavabata, Xemenguey kabi XX asr yalovbardorlari ijodi, xususan, Frans Kafka talqinlari ta'siri sezilishi kuzatiladi [5; 231–417-b.]. Bu jihatlar shakl va mazmun jihatidan ifoda xususiyatlarining muayyan darajada yaqinligi, hayotning umumlashma in'ikosini miqlarga murojaat qilish, ramzlar vositasida ifodalashida ko'zga tashlanadi.

Ijodkor insonni anglash va tushuntirishda xalqning zamona zayli, soxta mafkuralarga ishonchsizlik tufayli paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqlar, erkka intilish kayfiyati hamda ruhiyatidagi evrilishlarni ramzlar, ishoralar orqali gavdalantirishga intiladi. Turfa ramzlarda sayqallangan asarlarining g'oyaviy-mavzuviy va ifoda xususiyatlari ijodkor mahoratining aksi sifatida ko'plab adabiyoshunoslar nigohini o'ziga jalb etib kelayotgani Nazar Eshonqul ijodiy fenomenidagi yuksalishlar in'ikosidir.

Asarni o‘rganish yo‘lini tanlash o‘quvchilarning bilim darajasi, tahlil tajribasi, ko‘zlangan maqsad, o‘rganilayotgan mavzuning adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan dolzarbligi singari masalalarning butun bir majmuasi bilan asoslanadi. Ammo tahlil paytidagi nihoyatda qiziqarli metodik topilmalar shablona aylanib qolsa, ular yaroqsiz bo‘lib qolishi mumkin.

“O‘qish muammosi, kitobxonlikni, kitobxon ma’naviy olamini shakllantirish muammosi hanuzgacha eng dolzarb ilmiy muammo bo‘lib qolar ekan, – deb yozadi rus olimasi O.Yu.Bogdanova – metodika fanida badiiy matnni yaxlit idrok etishni, uni chuqur sharhlashni, yozuvchi poetikasini anglashni ta’minlaydigan ish usullariga ustunlik berish davom etaveradi. Adabiy ta’limdagi asosiy komponent asarni o‘qish va o‘rganish, uni sharhlashning aytilishi tasodifiy emas” [2; 13-b.].

Tahlil usullarini tanlash oson ish emas. U ko‘proq adabiy turga bog‘liq. Lirik epik asarga, drama eposga qaraganda turlicha tahlil usullarini taqozo etadi. Tahlil “...badiiy matnni o‘qish jarayonida o‘qituvchining izohi shaklida ham, asarni detallashtirib ko‘zdan kechirish shaklida ham, qahramonlarni tavsiflash yoki tasviriy ifoda vositalarini aniqlash shaklida ham bo‘lishi mumkin... Chuqur ma’nodorlik adabiy tahlilning eng birinchi va asosiy shartidir. Tahlilning hamisha ma’lum maqsadga qaratilishi uning shakli va mazmunini belgilaydi” [8; 21-b.]

Tahlilni loyihalashtirishda bir qator ta’lim strategiyalaridan qaysi biri afzalligi haqida savol tug‘iladi. Asar mazmuni, kompozitsiyasi, yozuvchi uslubini aniqlash, o‘quvchini muallif nuqtayi nazariga yaqinlashtirish ta’lim texnologiyalarining asosiy vazifasi bo‘lib qoladi. Masalan, “SWOT – universal tahlil”, “Case-study”, “Muammoli vaziyat” kabi qator innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish qahramonlarning asar syujetida tutgan o‘rni va badiiy funksiyasini baholash, qahramonlar xarakterining umumiy va farqli jihatlarini tavsiflash, hayotiy muammolar yechimi yuzasidan mustaqil qarorlar qabul qilish malakalarini takomillashtirishda kutilgan natijalarni kafolatlashi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, obrazlarning kuchli jihatlarini (strengths), zaif tomonlari (weaknesses), imkoniyatlari (opportunities) va ularga tahdid soluvchi xavf-xatarlar (threats)ni aniqlash va tahlil kompetensiyasini shakllantirishda “SWOT – universal tahlil” usuli imkoniyatlari katta.

Mazkur strategiya muayyan muammolar yoki loyihalarni tashkillashtirish, vaziyatni tahlil qilish va baholash vositasi bo‘lib, o‘quvchida tizimli fikrlash, solishtirish, qiyoslash va tahlil ko‘nikmalarini shakllantiradi. Masalan, umumiy o‘rta ta’lim maktablari 9-sinfida mustaqil

mutolaaga tavsiya etish mumkin bo'lgan Nazar Eshonqulning "Shamolni tutib bo'lmaydi" hikoyasi obrazlari tahliliga mazkur strategiyaning tatbiqi inson ichki dunyosini chuqurroq taftish qilishga yo'l ochadi.

Asar bilan tanishish jarayonida, tabiiyki, "o'z yolg'izligi va musibatini hayotning badbo'y, zabun, xor etilgan hidlari anqib yotgan yillar dahlizidan yetaklab o'tgan" [6; 255-b.] momoning achchiq qismati o'quvchi ruhiyatidagi adoqsiz iztiroblarga sabab bo'ladi. Kitobxon tug'ilib o'sgan qishlog'i ozodligi, xalq erki uchun qayg'urgan Rayim polvon va yoshgina o'g'lining asossiz o'ldirilishidan qiynalishi, dahshatli xunrezlikni sodir etgan Zamon otboqardan nafratlanishi, shubhasiz. Tahlil jarayonida, albatta, yurt mustaqilligi uchun kurashgan polvon obrazi misolida butun bir jamiyat fojiasi qalamga olingani anglanishi ko'zda tutiladi.

Hikoya boshdan oxirigacha qayg'u va azoblarni yengishga arang kuch topa bilgan ayol taqdiriga achinish hissi, darddoshlik tuyg'ulari bilan mutolaa qilinadi. Unda kitobxonni titratib yuboradigan shunday epizodlar mavjudki, ularni hayajonsiz qabul qilish mumkin emas. Jumladan, "Bayna momo mehmonxona eshigidan chiqaverishda otasini otib tashlanganini ko'rgach, uyga yugurib kirib ketgan, qo'liga otasining miltig'ini tutib turgan o'g'lini ko'rdi – o'g'lining ko'zlarida ham eriniki kabi g'azab, telbalik yonardi. Bayna momo o'g'lini ogohlantirishga ulgurmedi. Birdaniga bir necha o'q ovozi uning qulog'ini bitirib qo'ydi va o'g'li otasining ustiga yuztuban yiqildi – yiqilarkan, endi sabza urgan mo'ylovi titrab ketdi, onasiga bir zum qo'rquv va xijolat aralash tikildi..." [6; 253-b.].

O'smirning jon berishi lavhalari hatto tasavvurda gavdalanganida yuraklarni larzaga keltiradiki, tahlil chog'ida o'quvchi birvarakayiga eng yaqin kishisi va jigarbandining otib tashlanganiga guvoh bo'lgan bir mushtipar ayolning o'sha lahzalardagi qiyofasi gavdalanishi qiyin kechmaydi.

Bayna momo ruhiyatidagi qarama-qarshi hissiyotlar haqida so'z yuritar ekan, tadqiqotchi G.Imomova shunday yozadi: "Hayotning abadiyligi, o'zgarmas va bardavomiyligini ta'kidlash maqsadida yozuvchi qahramonning ong oqimiga murojaat qiladi. Bu usul, bir tomondan, obrazning sintezlashgan yaxlit qiyofasini yaratishga, ikkinchi tomondan, hayot qonuniyatlarining boqiyiligini ta'kidlashga xizmat qilgan" [4; 67-b.].

Haqiqatan ham, o'quvchi tahlil davomida yuqorida qayd etilganidek, momoning zohiran sokin, ammo botinida isyon qilayotgan g'alayonlar, yashamoq va o'lim, shodlik va g'am, baxt va baxtsizlik azaldan hamroh

ekanligiga, bir soʻz bilan aytganda, bu obraz kuchli dramatism bilan sugʻorilganiga yana bir karra amin boʻlishi, tabiiy. Ichki dunyosi nafaqat xatti-harakatlari, gap-soʻzlari, balki yuz ifodalarida aks etishi tasvirlariga munosabat bildirish asnosida ayol tiynati chuqurroq taftish qilinishiga erishiladi. Masalan, boʻribosarlarini ergashtirib qishloqni aylanishga chiqqan Zamon otboqar tasodifan qoya ostida yelkasiga oʻtin koʻtarib kelayotgan momoga duch kelib qoladi. “Bayna momo qarib qolgan, ammo hali ham koʻzlari xuddi oʻn besh yil avvalgidek qahrli va nafrat toʻla edi” [6; 254-b.].

Koʻrinadiki, shu birgina parchadan qahramon qalbida kechayotgan evrilishlar yuzaga chiqadi. Otboqarning ayol adovati balqqan sovuq nigohlariga dosh berishi qiyin kechishi va oʻziga bunday qaramaslikni buyurib doʻq urishi sabablari ham anglashiladi.

Momoning umrbod yolgʻizlikka mahkum boʻlishida davr mafkurasiga qul boʻlgan Zamon otboqarning odamiylikdan yiroq xatti-harakatlari, qotillikka jimgina qoʻl qovushtirib, yashirin tomoshabinga aylangan qoʻymijoz kimsalarning maʼlum maʼnodagi aybdorligiga munosabat bildirish tahlil mezonlaridan hisoblanadi. Zero, asarda “hayot, uning mazmuni, yashashdan maqsad nima qabilidagi falsafiy masalalar koʻproq shoʻro davrining poetiklashgan, ramziylashgan suvrati bilan bogʻlangan holda tasvir etilishi” [3; 100-b.] diqqat markazida boʻlmogʻi muhim.

Dahshatli fojia sodir etilayotgan lahzalarda Bayna momo oʻzi mehr qoʻygan tersotaliklardan najot kutadi, ammo baxtga qarshi borliqni goʻyoki yer yutib yuborgandek, mubham osoyishtalik hukm surardi. Qishloq ahlining oqibatsizligi undagi cheksiz mehrning kuchli nafratga aylanishiga sabab boʻladi. Shu kabi epizodlarga diqqat qilish orqali oʻquvchilarda tarixiy sharoit va ijtimoiy munosabatlarni baholash koʻnikma, malakalari shakllantiriladi. Jumladan, momoning “...koʻkragi ilma-teshik boʻlgan oʻgʻliga qarata Zamon otboqar yana bir necha bor oʻq uzarkan, u madad izlab, uylarning tuynuklarini yopib turgan qora pardalarga bir-bir koʻz tikdi, biroq u yerda sovuq sukutdan boshqa hech narsa koʻrinmas, zulmatga choʻkkan tuynuklar bu misli koʻrilmagan qotillikni jimgina tomosha qilib turardi” [6; 253-b.].

Bayna momo obrazi “shoʻro davri nasridagi aksar qahramonlar singari jamiyatdagi oʻzgarishlarga, xalq hayotidagi yangilanishlarga oʻz munosabatini bildiruvchi, oʻz faoliyati bilan tirikligini goʻzalliklar bilan burkovchi ijtimoiy faol shaxs emas. Unga oʻz hayotini yaratuvchanlik, bunyodkorlik faoliyati bilan boqiyashtirishga safarbar oʻktam ayol

xususiyati butkul yot [7; 46-b.]”. Ahamiyat qilinsa, ayolni ado qilgan musibat va g‘am-anduhlar yillar to‘fonida mushtdekkina qiyofa aks etgan jussasi-yu yuzini tilimlab bejagan ajinlarida iz qoldirgani ko‘zga tashlanadi. Bu dunyoda gaplashishga munosib odam yo‘qdek o‘zini odamlardan olib qochishi, har tong qo‘y-echkilarini daryo bo‘yidagi yulg‘unzorga haydab ketishi-yu kech tushgach, qurigan shoh-shabballarni orqalab qaytishi lavhalari momoning tabiatiga singib ulgurgan odamovilik va ojizlik sifatlarida in’ikosini topadi.

Bayna momo obrazini texnologiya mazmuniga ko‘ra shunday tavsiflash mumkin:

<p><i>Qahramon xarakterining kuchli jihatlari:</i> yaqinlaridan judolik azoblariga bardosh bilan chidashi, alam va sitamlarini ichiga yutishi.</p>	<p><i>Qahramon xarakterining zaif tomonlari:</i> sirdoshi yo‘qligi, odamlarga ishonchsizligi, umr bo‘yi nafrat tuyg‘usi, qasos hissidan qutula olmagan, ta‘nalari sababli odamlar uni eslamay qo‘yishlari, o‘jarligi.</p>
<p><i>Imkoniyatlari:</i> eri va o‘g‘lining xotiralari bilan yashagani, talaba qizlar hayotiga yorug‘lik olib kirmoqchi bo‘lganlari, yangi avlodning iliq munosabatini qabul qilishi mumkinligi.</p>	<p><i>Xavf-xatar:</i> otboqarning doimiy qo‘rqitib, po‘pisa qilishlari.</p>

Asar yuzasidan quyidagicha savollar bilan murojaat qilinishi o‘quvchilarni qahramonlarning o‘zaro munosabatlari hamda ichki kechinmalariga o‘z tushunchalari, hayotiy kuzatishlari va tajribalari asosida fikr yuritishga yo‘naltiradi:

1. Voqealar rivojidan asar sarlavhasi va qahramonlarning nomlanishi sabablarini topishga urinib ko‘ring.
2. Asarda xalqimizning erkka tashnalik kayfiyati, adolat tantanasiga ishonchsizlik g‘oyasi qanday vositalar orqali ochib beriladi?
3. Voqealar rivojida ko‘pincha tersotaliklarning sukut saqlashi, voqyealarni jimgina kuzatishi lavhalari orqali qishloq ahli ko‘z oldingizda qanday qiyofada namoyon bo‘ldi?
4. Hikoyadan ko‘ngli mudroq odamlar ruhiyati va jamiyat psixologiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlab tahlil qiling.
5. Yillar davomida qahramon qon-qoniga singib ulgurgan odatlarni illat deb bo‘ladimi?

6. Hissiz, o'zgalar dardi begona kimsalar amal qiladigan falsafa mohiyatining ramzlar orqali ochib berilishi, shaxsning parchalanishi sabablariga munosabat bildiring.

Olib borilgan ishlar asosida o'qituvchi adabiy qahramon, obraz, xarakter yoki tip kabi nazariy tushunchalarga ham izoh berishi mumkin. Xulosa qilganda, adabiy qahramonlar turmush tarzi, ichki kechinmalari, taqdiri tahlili orqali faqat insongagina xos eng nozik kechinmalar anglanishiga, iztiroblariga darddoshlik tuyg'ulari tarbiyalanishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017.

2. Богданова О.Ю. и др. Методика преподавания литературы. Учебник для студентов пед. вузов. – М.: Академия, 2002.

3. Burxonova F. Modern hikoyalarda shakl va uslub. Til. Ədebiet. Metodika. –T., MERIYUS, 2013.

4. Imomova G. Badiiy sintez imkoniyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. –T., 2012, №1.

5. Nazar Eshonqul. Mendan "men" gacha: adabiy-tanqidiy maqolalar to'plami. –T.: Akademnashr, 2014.

6. Nazar Eshonqul. Yalpiz hidi. – T.: Sharq, 2008.

7. Matyoqubov S. Nazar Eshonqul hikoyalarida ijodiy individuallik // O'zbek tili va adabiyoti. –T., 2011. № 5.

8. Safo Matjon. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – T.: O'qituvchi, 1996.

BOSHLANG'ICH SINFDAGI ONA HAQIDAGI ASARLARNI O'RGANISH

Adiba Botirova, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU katta o'qituvchisi, f.f.d.(PhD)

Mahliyo Ahmedova, Navoiy davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistri

Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" asarida yosh bolalarni tug'ilganidan boshlab voyaga yetgunicha ma'lum tartibda tarbiyalab borish lozimligini aytadi. Maktabda bolalarni qanday va qay usulda o'qitish haqida ham muhim fikrlarni olg'a suradi. U bolalarni yakka tartibda o'qitishdan ko'ra jamoa tartibida o'qitishni maqul deb biladi va bu

usulning afzalligi haqida shunday deb yozadi: “O‘quvchilar o‘qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O‘z bilimi bilan g‘ururlanadilar, bir-birlarining bilimiga havas qiladilar. G‘urur va o‘ziga e’tibor tarbiyalanuvchilarni bir-biridan orqada qolmaslikka undaydi. O‘quvchilar birga bo‘lganda doim bir-biri bilan gaplashadi va bu bilan o‘z xotira va nutqini rivojlantiradi”.

Bugungi kunda ta’lim tizimining qaytadan isloh qilinishi natijasida yangi ta’lim tizimi joriy qilinishi va yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish maktab dasturlariga va darsliklariga zamon talabiga mos mavzularni mukammal yorituvchi uslublarni dars davomida joriy qilish va ularni qo‘llash o‘quvchilarning o‘qishdagi faoliyatini yanada samarali qiladi. Ana shu yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish darsni noan’anaviy shaklda tashkil etish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bir muncha erkin fikrlash va ijodkorlikka o‘rgatadi. Shu maqsadda yangi pedagogik texnologiyalardan, xususan, muammoli ta’limdan foydalanish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida ona haqidagi asarlar bola tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki oilada bola ona tarbiyasida voyaga yetadi. Onadan mehr oladi, ona mehri yordamida o‘sib-ulg‘ayadi, ota-onaga ko‘magida barkamol inson bo‘lib voyaga yetadi. Boshlang‘ich sinf darsliklarida berilgan ona haqidagi barcha asarlar mazmun-mohiyatiga ko‘ra tarbiyaviy ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘qitishning muvaffaqiyatini ta’minlaydigan omillardan yana biri muammoli ta’limdan foydalanib ona haqidagi asarlarni o‘qitishdir.

1-sinf “Ona allasi” (Rivoyat), “Mehribon oyijonim” (Po‘lat Mo‘min) she’ri, “Ona sabog‘i” (G‘iyos Komilov) hikoyasi, “Ota-onaga” (Tolib Yo‘ldosh) she’ri, 2-sinf “Alisherning onasi” (Abdulla Oripov) she’ri, “Onam” (Umarali Qurbonov) she’ri, 3-sinf “Go‘zal fazilat – inson husni” bo‘limida “Onani rozi qilish haqida” (Hadis), “Ota-onani hurmatlash haqida” (Qobusnoma), “Bobur va Humoyun” (Primqul Qodirov) hikoyasi, “Ota-onaga duosi” (Safo Ochil) she’ri, Primqul Qodirovning, “Ona mehri” (O‘ktam Usmonov) ertak, 4-sinf “Shoira” (Hakim Nazir) hikoya, “To‘maris” (Hamdam Sodiq) kabi hikoyalar berilgan bo‘lib, o‘quvchilar bu ona haqidagi asarlarni o‘qib-o‘rganishlari natijasida ushbu asarlarning badiiy estetik qadr qimmatini chuqurroq o‘zlashtirishga erishadilar. Boshlang‘ich sinf darsligida berilgan ona haqidagi barcha asarlar o‘quvchining yoshini hisobga olgan holda, uzluksiz ravishda mazmun jihatidan chiroyli bayon etilgan. O‘qish kitobi darsliklaridagi ona haqidagi

asarlar sinfdan sinfga o'tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengayayib boradi.

1-sinfda o'rgatiladigan "Mehribon oyijonim" she'rida qizchanning onasiga aytgan so'zlari aks etsa, "Ona allasi" rivoyatida podshohning alla eshitib onasini yod olgani namoyon etiladi. "Ona sabog'i" hikoyasida buyuk munajjim, shoh va shoir Bobur bilan onasining suhbatini aks ettirilgan, "Ota-ona" she'rida esa to'kis oila haqida fikr yuritiladi.

2-sinfda berilgan "Alisherning onasi" she'rida Alisherning munis onasi aks etadi, "Onam" she'rida ham bolaning onasiga mehri jo'shqin kuyulanadi. 3-sinfda Onani rozi qilish haqida hadis berilgan bo'lib, onani rozi qilish haqida so'z boradi, "Ota-onani hurmatlash haqida" Qobusnomadan parcha berilgan bo'lib, farzand tarbiyasi haqida nasihatlar berilgan, "Bobur va Humoyun" hikoyasida betob Boburmironing ota-onasining nolasi aks etadi, "Ota-ona duosi" she'rida ota-ona duosi haqida so'z borsa, "Ona mehri" ertagi orqali onaning jasorati va ona hamda yalmong'iz kampirning munosabati namoyon bo'ladi.

4-sinfda "Shoira" hikoyasini o'tishda o'qituvchi muammoli bayon qilish orqali mehnatkash, mehribon, aqlli, dono, Shoira qiz haqida fikrlar bildirsa o'quvchilarning mustaqil fikrlashi rivojlanadi, bayon qilingan fikrda muammo aks etgan bo'lsa, muammoni yechimini o'z fikri bilan asoslab, dalillab beradi. "To'maris" hikoyasini muammoli bayon qilish bilan o'z ona yerini himoya qilgan mard, jasur, To'maris haqidagi bilimlari yanada rivojlantiriladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, o'qituvchi muammoli bayon qilish orqali o'quvchilarni onaga mehribon, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalab boradi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida ona haqidagi asarlar matni shu bilan xarakterliki, o'quvchilar ona haqidagi matnlarni o'qish, o'rganish mobaynida onaga, vatanga bo'lgan munosabati ma'naviy jihatdan rivojlanadi.

"QUTADG'U BILIG" ASARINI O'RGANISH USULLARI

Oydin Ametova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU katta o'qituvchisi

XXI asr kompyuter va kompyuterlashtirish, raqamli texnologiyalar asri bo'layotgani, butun jahon ahli esa zamonaviy texnologiyalarni o'rganishga, ularni xo'jalik hayotining turli jabhalariga tatbiq etishga kuchli rag'bat ko'rsatayotgani hech kimga sir emas. Zero, zamonaviy

texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish va undan foydalana bilish – zamon talabi. Ularning keng miqyosda qo'llanishi hamda juda katta qulayliklarga egaligi, jumladan, o'qish va ish sur'atlarining yuqori darajada yuksalishiga katta ta'sir ko'rsatishi, natijada esa ancha vaqt va mablag' tejalishi kabi ijobiy natijalarga olib kelmoqdaki, bularni e'tirof qilmaslikning iloji yo'q. Ammo xalqimizning “Har yaxshining bir yomoni, har yomonning bir yaxshisi bor”, degan chuqur mazmunli maqoli bor. Agar adabiyotshunoslik va adabiyot o'qitish nuqtayi nazaridan qaraladigan bo'lsa, mutaxassislar tomonidan zamonaviy texnologiyalar tatbiqining salbiy oqibatlaridan biri sifatida jamiyatning badiiy asarni o'qish va uqishga bo'lgan intilishi, bu yo'nalishdagi rag'batning pasayib borayotgani tez-tez tilga olinmoqda. Professor Boqijon To'xliyev o'zining adabiyotshunoslik va adabiy ta'lim sohasidagi ko'p yillik kuzatishlari natijasida: “Endilikda adabiyot o'qitish, badiiy asarni o'qishga o'rgatishning eng ommaviy, eng zamonaviy, eng ta'sirchan shakl va usullarini izlash, topish zarurati har qachongidan ham dolzarbroq bo'lib turibdi” [1], deb yozadi. Ammo ustozning bu fikrini barcha tur va janrlardagi asarlarni o'rganishda faqat innovatsiya, zamonaviy texnika va texnologiyalarni (mos kelsa, kelmasa!) qo'llash lozim tarzida tushunish to'g'ri bo'lmaydi. Adabiyot o'qituvchisi har bir darsga asarning tur va janri, shakl va mazmuni, hajmi, ifoda tarzi, obrazlar tizimi, adibning badiiy-tasviriy vositalardan foydalanish mahorati kabilardan kelib chiqib usul tanlagani ma'qul. Negaki, milliy metodikamizda an'anaviy, ko'hna, ammo hamisha navqiron o'rganish va o'rgatish usullari borki, adabiy ta'limda hech bir texnika-yu texnologiya ularning o'rnini qoplay olmaydi. Zero, adabiyot – so'z san'ati ekan, o'qituvchi ham san'atkor, ya'ni so'z san'atining ustasi, har sohada bilimdon, dunyoqarashi va tasavvur olami keng, ijodkor bo'lmog'i lozim. Agar adabiyot o'qituvchisi, haqiqatan, yuqoridagi sifatlarga ega bo'lsa, hech bir texnika vositasi uning o'rnini to'laqonli bosa olmaydi. Ular o'qituvchining qanotiga aylanadi, xolos.

O'qituvchining bilim va mahoratini yuzaga chiqaradigan an'anaviy usullardan biri, bu – sharhli o'qish usulidir. Usul nomiga to'xtaladigan bo'lsak, “sharh” arabcha tushuntirish, izoh; biror shaxs, narsa, hodisaning tub mohiyat-mazmunini anglash kabi ma'nolarni anglatadi. “Sharhli o'qish” atamasi esa tushuntirib, anglatib o'qitish ma'nosini beradi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, noma'lum muallif tomonidan Qur'oni karimning sharhi “Tafsir” yoki qomusiy olim Forobiy tomonidan “Aristotel “Metafizika”siga sharhlar”ning yaratilgani ham ilm-fanda sharhlash, sharhli o'qish atamalarining bugun paydo bo'lmaganini

ko'rsatadi. Shunday ekan, adabiy ta'limda nafaqat diniy-tasavvufiy, balki dunyoviy adabiyot; nafaqat mumtoz, balki zamonaviy ijod namunalarini ham sharhli o'qish va o'rganish biz kutgan natija, ya'ni o'quvchining faqat Adabiyot darsidagina emas, darsdan tashqarida ham badiiy asar mutolaasiga intilishi, o'zida o'qish va uqishga ehtiyoj uyg'otishining guvohi bo'lamiz. Adabiyot fanidan tuzilgan DTS, dastur hamda darsliklarda o'quv yili davomida o'rganish uchun turli mavzu, hajmdagi lirik she'r, hikoyalardan tortib qissa, roman, doston kabi rang-barang namunalar ko'zga tashlanadi. Bunday asarlar mutolaasi o'quvchida "Qachon o'qib tugataman?" yoki "Qaysi qisminigina o'qisam ekan?" degan qo'rquv, xavotir emas, "Nega asar shu joyida tugab qoldi?", "Muallif asarni nima sababdan shunday tugatdi ekan-a?" kabi tahlilga tortuvchi, muammoli savollar uyg'otishi zarur. Sharhli o'qish usuli esa har qanday janr namunasi tahliliga tatbiq qilsa bo'ladigan universal yondashuv usuli sifatida e'tiborlidir. Bu haqida professor Qozoqboy Yo'ldoshev shunday yozadi: "Sharhli o'qishning zaruriyati zamonaviy o'quvchi bilan adabiyot sabog'ida o'rganilayotgan asar o'rtasidagi zamoniy oraliq hamda adabiy jarayonning tarixiy-estetik xususiyatlari tufayli yuzaga keladi. Bu zamoniy oraliqni yo'qotish, to'g'rirog'i, qisqartirish sharhli o'qishning ta'lim usuli sifatidagi vazifasi hisoblanadi" [2]. Adabiy ta'limdan kutiladigan natija o'quvchilar tomonidan badiiy asarning idrok etilishi hamda turlicha tahlil-u talqinlarni yuzaga keltirish va bu orqali ularni faoliyatga chorlashdir. Faoliyat esa o'z-o'zidan bilish va anglash sari dadil qadamdir.

Ma'lumki, adabiy ta'limda qadimgi turkiy yodgorliklar, jumladan, "Qutadg'u bilig"ni o'rganish masalasi nafaqat o'quvchi, balki o'qituvchining o'zidan ham katta kuch, bilim hamda mas'uliyat talab qiladi. Buning qator o'ziga xos sabablari bor:

birinchidan, asarning tili o'quvchining tushunishi, mazmunni o'zlashtirishi uchun qiyinchilik tug'diradi, chunki asar qariyb ming yil (!) oldin yaratilgan, demak, o'sha davr adabiy tili hozirgi adabiy tildan tamomila farqli edi;

ikkinchidan, badiiy matn sifatida o'quvchi boshqa janr namunalarida o'qigani kabi kutgan o'tkir sujet (qahramonlarning turli sarguzashtlari, o'zaro konfliktlar, ularning yechimi va hokazo) deyarli kuzatilmaydi;

uchinchidan, asar hamda o'rganish uchun olingan darslikdagi epizod – parchalar hajmi ancha katta;

to'rtinchidan, bu asardagi obrazlar tizimi, adibning tafakkur tarzi ham hozirgi adabiyotdagidan keskin farqlanadi.

O‘qituvchi bu kabi murakkab holatlarni qaysi usullar yordamida yengib o‘tishi, yechim topishi hamda asarni o‘rganishdan qo‘yilgan maqsadga erishishi mumkin?

Yuqoridagi savollarga javob o‘rnida qadimgi turkiy yodgorliklardan biri – XI asrda yaratilgan “Qutadg‘u bilig” asarini o‘rganish usullari haqida fikr yuritamiz. Asarni o‘rta maktabning 11-sinfi va akademik litseylarning 2-bosqichi uchun tuzilgan dasturda 3 soat davomida o‘rganish rejalashtirilgan. Adibning tarjimai holi va asar matnini o‘rganishni uch bosqichda amalga oshirgan ma’qul. Bu jarayonning 1-bosqichi, o‘z-o‘zidan, kirish mashg‘uloti hisoblanadi. Darsda o‘qituvchi adib shaxsi, faoliyati, u yashagan, ijod qilgan Qoraxoniylar davridagi ijtimoiy-siyosiy muhit, madaniy hayot hamda asarning umumiy mazmun-mohiyati haqida ma’ruza qilishi uchun fanlararo integratsiyadan foydalanishi, jumladan, tarix va geografiyadan olingan bilimlarga tayanib ish ko‘rishi kutilgan natijani berishi mumkin. Chunki ushbu ma’ruza orqali adibning qomusiy bilimlar egasi ekani, asar esa shu yuksak salohiyat, bilim va hayotiy tajriba mahsuli sifatida yuzaga kelib, turkiy xalqlarninggina emas, o‘zga tillarda gaplashuvchi xalqlar orasida ham ma’lum va mashhur bo‘lganligi, bu mashhurlik sabablari aniq dalillar asosida tushuntirilishi, darslikda berilgan material sharhlanishi lozim. Ma’ruza davomida o‘qituvchi quruq ma’ruzachi, o‘quvchi esa eshituvchi – tomoshabin bo‘lib qolishidan ehtiyot bo‘lish kerak. O‘quvchi zerikmasligi hamda e’tibori chalg‘imasligi uchun uni ham (o‘zi sezmaganda) dars ishtirokchisiga aylantirish lozim. Buning uchun ma’ruza davomida muammoli ta’lim usullari, jumladan, “Aqliy hujum”dan foydalanib ketma-ket savollar berib boriladi. Savollar tasodifiy emas, maqsadli ravishda oldindan tayyorlangan va daftarda qayd qilingan bo‘lishi lozim. Masalan:

1. Tarixda Qoraxoniylar sulolasi nima sababdan shunday nomlangan deb o‘ylaysiz?
2. Ushbu asar tarqalgan, o‘qilgan hatto qayta nomlangan hududlarni xaritadan ko‘rsata olasizmi?
3. Asarni aynan Tabg‘ach Ulug‘ Bug‘ro Qoraxonga taqdim qilishdan adibning maqsadi nima bo‘lgan?
4. Tarixda davlat arbobi sifatida, ya’ni davlat boshqaruv siyosatida qatnashgan qaysi ijodkor (shoir, yozuvchi, olim...)larni eslay olasiz? kabi savollarni qo‘yish bilan o‘quvchi diqqatini jalb qilish, fikr-mulohazalarini eshitish, ularga munosabat bildirish, umumlashtirish, xulosalash orqali tinglovchidan ishtirokchiga aylantirishimiz, boshqa fanlardan olingan bilimlarini ham takrorlatib, mustahkamlab borishimiz mumkin bo‘ladi.

2-bosqichda asosiy e'tibor matn ustida ishlash, uning tabdil va tahliliga qaratiladi. 11-sinf Adabiyot [3] darsligida o'rganish uchun asarning Soz'boshi: Kuntug'di elig to'g'risida, Oyto'ldi haqida so'z, Oyto'ldining eligga ko'rinishi, Oyto'ldi o'zi davlat ekanligini aytadi, Kuntug'dining so'zi, Oyto'ldi eligga davlat sifatini ko'rsatadi, Kuntug'di elig Oyto'ldiga adl sifatlarini aytadi, Kuntug'di elig Oyto'ldiga adl sifati qanday ekanini aytadi, O'zg'urmishning eligga javobi, O'zg'urmish Kuntug'di eligga pand berishini aytadi, O'zg'urmishning O'gdulmishga aytganlari sarlavhali qismlari berilgan. Bu parchaning o'zi ancha yirik hajmli ekanligi sababli bir soatda ham o'qib, ham tahlilga tortish – qiyin masala. Bularni hisobga olib o'qituvchi matnni qismlarga bo'lishi va 1-qismni o'zi o'qib, sharhlab berishi lozim bo'ladi. Darslik mualliflari har bir bayt tabdilini ilova qilganlari tahsinga loyiq, ammo o'quvchini faqat matn va tabdilni o'qitish bilan chegaralab qo'yish kutilgan natijaga olib keladi deya olmaymiz.

Asar XI asrda yashagan turkiy xalqlar, ya'ni ajdodlarimizning adabiy tili namunasi, ilk badiiy doston ekanligi, dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilinganligi o'qituvchi tomonidan uqtiriladi va endi o'quvchilarning ona tilidan egallagan bilimlari yordamga kelishini ta'kidlab, tahlildan oldin asardan olingan parcha to'liq o'qib chiqilishi lozimligi va undagi so'zlardan namunalarni 2 qismga tasnif qilib yozib chiqish vazifa qilib beriladi:

1. Eskirgan so'zlar (arxaizm, istorizm, fonetik o'zgarish bilan ishlatilayotgan so'zlar). Asar tilidagi eskirgan so'zlar lug'ati tabdil asosida daftarga yozdiriladi va o'qituvchi tomonidan tekshiriladi. Nazorat ham noan'anaviy usulda, oldin o'quvchilar lug'at o'qiyotgan tengdoshini tinglaydilar, to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini aytadilar. Agar noto'g'ri bo'lsa, to'g'ri variant aytiladi.

2. Hozirgi kunda hech o'zgarishsiz ishlatilayotgan so'zlar.

Navbatdagi ish usuli esa "Xotira mashqi" deb nomlanadi. Bu usul ham o'quvchining asarni qanchalik darajada o'qib-o'zlashtirganligini sinash maqsadida o'tkaziladi. O'quvchilar jamoasi 3 (4, 5...) nafardan kichik guruhlariga taqsimlanadi. 1-guruh 2-guruhga asl matndan bayt o'qiydi: 2-guruh a'zolari esa baytning nasriy bayonini yoki mazmunini aytishlari lozim bo'ladi... Ish shu tarzda davom etadi.

Yuqoridagi kabi usullar vositasida o'quvchilarning matn bilan to'liq tanishganlariga ishonch hosil qilingandan so'ng 3-bosqich, bevosita asar badiiyati tahliliga o'tiladi. "Qutadg'u bilig" shunchaki aytilgan pandnoma emas, balki yuksak san'at namunasi ekanligini tahlil davomida bir-ikki

“qistirib” o‘tish bilan ish bitmaydi. Adib ifodalamoqchi bo‘lgan har bir fikr aforizm darajasida aytilgan. Adib fikrlarini asoslash uchun qo‘llagan badiiy tasvir vositalari, folklorizmlar, iqtiboslar ham sharhlanishi, tahlilga tortilmog‘i lozim.

Mustahkamlash, ya’ni matn mazmunini o‘qish, sharhlash va o‘zlashtirish jarayonida “Yusuf Xos Hojib – donishmand adib”, “Eligning sifatlari”, “Inson taqdirida ilm-u ma’rifatning o‘rni”, “Tannigina emas, ruhni ham boyitmoq lozim” kabi mavzularda uy inshosi yozdirish maqsadga mos keladi. Yozish jarayonida o‘quvchi beixtiyor (istasa, istamasa) badiiy matnga murojaat qilishga majbur bo‘ladi. Matn ustida qayta ishlaydi va o‘zi uchun yangi bilimlarni kashf qiladi.

Demak, “Qutadg‘u bilig”ni o‘rganishda o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qish, sharhli o‘qish, muammoli ta’lim, og‘zaki tahlil va talqin, yozma ish kabi usullar uyg‘unlikda va maqsadli qo‘llanganda o‘quvchiga:

- yangi matn bilan to‘la tanishish;
- matndagi har bir so‘z ma’nosi chaqilishi, ya’ni anglanishi;
- matnni idrok etish sifatining oshishi;
- muallif ko‘zlagan maqsadni anglab yetishi;
- badiiy tasvir vositalarining g‘oyani tashishdagi xizmatini belgilash;
- bilimlarni mustahkamlash;
- nutqini o‘stirish;
- tasavvur-u taxayyul olamini boyitish kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Bu imkoniyatlar esa kitobxonga ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak san’at asarlari, jumladan, badiiy adabiyot namunalarining insoniyat madaniyati va ma’naviyati yuksalishidagi o‘rni beqiyosligini anglab yetishlari uchun kerakli xulosalarni bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Badiiy asarlarni sharhlab o‘rganish: tarix, tajriba va texnologiya mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –T.: Bayoz, 2014. 80–84-betlar.
2. Badiiy asarlarni sharhlab o‘rganish: tarix, tajriba va texnologiya mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –T.: Bayoz, 2014. 47–52-betlar.
3. To‘xliyev B., Karimov B. Adabiyot. O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik-majmua. I qism. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. 70–99-betlar.
4. Каримов К. Қутадғу билиг. – Т.: Фан, 1972.

5.Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010.

МАКТАБДА RUBOIY VAZNLARINI O‘RGATISH XUSUSIDA (10-sinf “Adabiyot” darsligi misolida)

Shahnoza Raxmonova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU o‘qituvchisi

Ruboiy mumtoz adabiyotimizda keng tarqalgan janrlardan biri bo‘lib, baytli she‘rlar sirasiga kiradi. Ruboiy haqidagi dastlabki ma‘lumotni mumtoz manbalardan, xususan, Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a”, Alisher Navoiyning “Mezonul-avzon”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Aruz risolasi” (“Muxtasar”) asarlaridan olish mumkin. E‘tiborlisi, bu asarlarda ruboiyga berilgan ta‘riflar bir-biridan farqlanadi.

“Funun ul-balog‘a” asarida Shayx Ahmad Taroziy ruboiy haqida gapirib, uning to‘rt misra bo‘lishini, avvalgi, ikkinchi va to‘rtinchi misralari o‘zaro qofiyalanishini, uchinchi misrasi ixtiyoriy bo‘lishini ta‘kidlar ekan, uchinchi misrada “qofiya keltursalar”, uni “ruboiyi musarra”, – deb nomlanishini aytadi. Namuna sifatida olim turkiy tilda yozilgan ikki ruboiyni keltiradi. Mazkur ruboiylar an‘anaviy hazaj bahri vaznlarida bo‘lmasdan, *ramali musaddasi mahzuf* vaznidadir [12; 269-b.]. Bu esa o‘sha davrlarda, ya‘ni ruboiy shakllanayotgan paytda uning vazni erkin bo‘lganligini yoki ba‘zan turkiy shoirlar ruboiyni ramalda ham yozganligini anglatadi. “Bu holat Navoiygacha turkiy she‘riyatda ruboiyning qat‘iy vaznda bo‘lishi talab qilinmaganligini ko‘rsatadi [2; 134-b.].

Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida “Ruboiy vaznikim, ani “dubaytiy” va “tarona” ham derlar, hazaj bahriniig “axram” va “axrab”idin istixroj qilibdurlar va ul vaznedur asru xushoyanda va nazmedur bag‘oyat raboyanda”, – deb yozadi [4; 551-b.]. Zahiriddin Muhammad Bobur ham “Aruz risolasi” (“Muxtasar”) asarida Alisher Navoiy fikrlarini davom ettirib, ruboiy hazaj bahrining axram va axrab shajarasi vaznlarida yozilishini ta‘kidlaydi. Keyingi davr nazariy kitoblarida ham ruboiyning Alisher Navoiy va Zahiriddin Bobur ta‘kidlaganlaridek, hazaj bahrining axram va axrab shajarasi vaznlarida yozilishini aytish an‘anaga aylangan.

Alisher Navoiy ijodida ruboiy janri keng o‘rin egallaydi. Xususan, uning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida 133 ta, “Nazmul-javohir” asarida esa 268 ta ruboiy mavjud [3; 724–748-b.], [5; 31–86-b.].

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinf “Adabiyot” darsligida Alisher Navoiy qalamiga mansub 4 ta ruboiy keltiriladi. Ularning ikkitasi “Nazm ul-javohir” (“Gavharlar tizmasi”)dan, ikkitasi esa “G‘aroyib us-sig‘ar” devonlaridan o‘rin egallagan. Ularni o‘rganish davomida o‘quvchilar 6–9-sinflarda ruboiy janri haqidagi o‘zlashtirgan bilimlarini yanada mustahkamlaydi. Ruboiyning yangi-yangi o‘lchov imkoniyatlaridan xabardor bo‘ladilar. Darslikda keltirilgan ruboiylarning faqat mazmuni tahlil etiladi. Ularning vazn xususiyatlari, o‘lchov imkoniyatlari haqida biron ma’lumot keltirilmaydi. Avvalo, o‘quvchi ruboiy matnini ifodali o‘qishi uchun uning vaznini, o‘lchovini bilishi kerak. Ruboiy vaznlari haqida o‘quvchilarga qisqacha ma’lumot berib, keyin ularning mazmunini tahlil qilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Alisher Navoiyning 10-sinf “Adabiyot” darsligida keltirilgan dastlabki ruboiysi “Nazm ul-javohir” asarida 89-raqam ostida keltiriladi [5; 56-b.]. Mazkur asardagi she’rlarning aksariyat qismi tasavvufiy mavzuda bo‘lib, “*Farzand ato qullug‘in chu odat qilg‘ay*” misrasi bilan boshlanuvchi ruboiysi ham ularning mantiqiy davomi hisoblanadi. Shoir yaratgan ushbu ruboiy ikki vaznli, 1-, 3-, 4-misralari *hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar* vaznida, ruknlari va taqti’si:

maf’uvlu mafoilun mafoiylun fa’

– – V / V – V – / V – – – / –

tarzida, 2-misrasi esa *hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar* o‘lchovida yaratilgan. Taqti’yi quyidagichadir:

maf’uvlu mafoiylun mafoiylun fa’

– – V / V – – V / V – – – / –

Shuning uchun mazkur ruboiy ikki xil talaffuz qilinadi. Ruboiyning vazn xususiyatlarini jadvalda shakllantirib ko‘rsatamiz. Bu esa o‘quvchining ruboiy matnini to‘g‘ri talaffuz qilishiga yordam beradi.

1-jadval

Far	zan-	d+a	to	qul	li	g‘in	chu	o	dat	qil	g‘ay
–	–	V	V	–	V	–	V	–	–	–	–
Ul	o	da-	t+i	la	kas	bi	sa	o	dat	qil	g‘ay
–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	–	–
Har	kim	ki	a	to	g‘a	ko‘p	ri	o	yat	qil	g‘ay
–	–	V	V	–	V	–	V	–	–	–	–
O‘g‘	li	di-	n+a	nga	bu	ish	shi	o	yat	qil	g‘ay
–	–	V	V	–	V	–	V	–	–	–	–

Ruboiyda ohangni ta’minlagan hodisalardan yana biri vasl hodisasidir. Ma’lumki, vasl hodisasi bu vazn talabi bilan ayrim yopiq hijolar oxiridagi

undosh tovushni undan keyin turgan va unli tovush bilan boshlangan hijoga qo‘shib yuborish bo‘lib, natijada, o‘ta cho‘ziq hijo cho‘ziq hijoga, cho‘ziq hijo qisqa hijoga aylanadi. Ruboiyning 1-, 2-, 4-misralarida ham vazn talabi bilan vasl hodisasi yuzaga kelgan. 1-misradagi 1-ruknda qo‘llanilgan “*farzand*” so‘zidagi “*d*” undoshi undan keyin turgan “*a*” hijosiga, 2-misrada qo‘llanilgan “*odat*” so‘zidagi “*t*” undoshi undan keyin turgan “*i*” hijosiga, 4-misradagi “*o‘g‘lidin*” so‘zidagi “*n*” undoshi esa undan keyin turgan “*a*” hijosiga ulanib, “*da*”, “*ti*”, “*na*” tarzida o‘qilishi lozim. Ruboiyda qo‘llanilgan muassas qofiya (*odat, oyat, shioyat*) esa uning ta’sirchanligini oshirgan.

Darslikdagi ikkinchi ruboiy insoniy fazilatlar haqida bo‘lib, “*El gochsa birovdin, el yomoni bil oni*” misralari bilan boshlanadi. Hazrat Alisher Navoiyning ushbu ruboiysi ham *hazaj* bahrining *axrab* shajarasi vaznlarida yaratilgan. Mazkur ruboiy 1-, 3-, 4-misralarining birinchi rukni *maf’uvlu* (*axrab*), ikkinchi rukni *mafoilun* (*maq buz*), uchinchi rukni *mafoiylu* (*makfuf*) bo‘lib, oxirgi rukni *faal* (*ajabb*) tarzida kelgan. Ruknlarning nomlanishidan kelib chiqib ruboiyning 1-, 3-, 4-misralari *hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi ajabb* (ruknlari va taqtisi: *maf’uvlu mafoilun mafoiylu faal* – – V / V – V – / V – – V / V –) o‘lchovida yaratilgan. Ruboiyning 2-misra vazni quyidagicha hosil qilinadi: birinchi rukn, odatdagidek, *maf’uvlu* (*axrab*), ikkinchi va uchinchi ruknlar *mafoiylu* (*makfuf*), to‘rtinchi rukn esa *faal* (*ajabb*)dir. Demak, ikkinchi misra vazni esa *hazaji musammani axrabi makfufi ajabb* (ruknlari va taqtisi: *maf’uvlu mafoiylu mafoiylu faal* – – V / V – – V / V – – V / V –) hisoblanadi. Ya’ni:

El gochsa	birovdi-n+el	yamoni bi-	l+oni
– – V	V – V –	V – – V	V –
Ahvoli	da idbor(i)	nishoni bi-	l+oni
– – V	V – – V	V – – V	V –
Fe’l ichra	ulus balo	yi joni bi-	l+oni
– – V	V – V –	V – – V	V –
Olam e	lining ya mon	yamoni bi-	l+oni
– – V	V – V –	V – – V	V –

tarzida o‘qiladi. Ruboiyda qo‘llanilgan *yamoni, nishoni, joni* kabi qofiyadosh so‘zlari musiqiylik bag‘ishlagan. She’r “*Nazm ul-javohir*” asarida 123-raqam ostida berilgan [5; 62-b.].

Darslikdagi keltirilgan navbatdagi “*G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish*” ruboiysi Alisher Navoiyning “*G‘royib us-sig‘ar*” devonida 55-raqam ostida keltirilgan [3; 733-b.]. Adabiyotshunos olimlarimiz

tomonidan ushbu ruboiy qayta-qayta tahlil qilingan, vazn xususiyatlari o'rganilgan. Biz shuning uchun maqolamizda mazkur ruboiyning tahliliga va o'lchov imkoniyatlariga to'xtalmaymiz [9; 145-b.], [7].

Alisher Navoiyning darslikdagi so'nggi ruboiysi "G'aroyib us-sig'ar" devonida 127-raqam ostida keltirilgan [3; 745-b.]]. Ruboiy "Ko'z birla qoshing yaxshi, qabog'ing yaxshi" misralari bilan boshlanib, barcha misralari *hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar* (ruknlari va taqtiyi: *maf'uvlu mafoiylu mafoiylun fa-* – V / V – – V / V – – – / –) vaznida bitilgan. Ruboiyning birinchi rukni, odatdagidek, *maf'uvlu* (axrab), ikkinchi rukni esa *mafoiylu* (makfuf), uchinchi rukni *mafoiylun* (solim), so'nggi rukni *fa* (abtar)dan iborat.

Ko'z birla/ qoshing yaxshi,/ qabog'ing yax/shi,

– – V / V – – V / V – – – / –

Yuz birla/ so'zing yaxshi,/ dudog'ing yax/shi.

– – V / V – – V / V – – – / –

Eng birla/ menging yaxshi,/saqog'ing yax/shi,

– – V / V – – V / V – – – / –

Bir-bir ne deyin, boshdi/n+ayog'ing yax/shi .

– – V / V – – V / V – – – / –

Ruboiyda Alisher Navoiy tavzi' san'atidan ham ustalik bilan foydalanib, suyaklining "boshdin-ayog'" go'zal qiyofasini mohirlik bilan tasvirlagan. Demak, ruboiy vaznlarini saqlash uchun har qaysi misrani ruknlarga muvofiq holda o'qish kifoya. O'quvchilarning aruz nazariyasiga oid bilimlarni puxta o'zlashtirishi esa o'qituvchilardan o'z ustida tinimsiz izlanishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To'xliyev B. va boshq. Adabiyot. O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik. 1-qism. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 184 b.
2. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T.: Ta'lim-Media, 2019. – 184 b.
3. Алишер Навоий. Ғаройиб ус-сиғар. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғуллом номидаги НМИУ, 2013. Ж.1. – 804 б.
4. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. – Т.: Фан, 2000. Т. 16. – 700 б.
5. Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. ТАТ. 10 жилдлик. – Т.: Ғафур Ғуллом номидаги НМИУ, 2013. Ж.1. – 684 б.
6. Қодиров В. Мумтоз адабиёт: ўқитиш ва муаммолари. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. – 244 б.

7. Сирожиддинов Ш., Одилова Г. Алишер Навоий рубоийлари таҳлили. <http://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiy-ruboiylari-tahlili.html>
8. Ҳаққулов И. Ўзбек адабиётида рубоий. – Т.: Фан, 1981. – 100 б.
9. Ҳожиаҳмедов А. Мактабда аруз вазнини ўрганиш. – Т., 1978. – 191 б.
10. Шарипова Л. Рубоий вазнлари // Тил ва адабиёт таълими, 2013. – № 3. – Б. 21.
11. Юсупова Д. Таълим тизимида рубоий вазнларини ўқитиш тажрибасидан // Ўзбекистонда хорижий тиллар, 2019. – №4. – Б. 73–81.
12. Rahmonova Sh. XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek she‘riyatida ruboiy vaznlari (Habibiy, Sobir Abdulla va Chustiy ijodi misolida) // ЎЗМУ хабарлари. – Тошкент, 2019. – № 2. – Б. 269–273.

ADABIY TAHLIL O‘QUVCHILARDA MUTOLAA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

To‘raqulova Oqila, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU O‘zbek tili kafedrasida o‘qituvchisi

Dunyoda kun-u tun axborotlar, xabarlar tahlil etiladi. Ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy, sport, madaniyat sohalari doirasidagi axborotlar, xabarlar tahlili sira to‘xtamaydi. Jahonning qaysidir bir joyida sodir bo‘lgan voqea-hodisa, yangilik, xushxabar yoki noxushlik ma‘lum vaqt o‘tib-o‘tmasdan ommaviy axborot vositalari, internet tizimi orqali olam bo‘ylab tarqaladi. Bu jarayonda tafakkuriy tezlik, kenglik, aniqlik, mazmundorlik kabi fikrlash sifatleri muhim rol o‘ynaydi. Fikrlar oqimi kuchayadi, turli munosabatlar bildiriladi. Barcha axborotlar, xabarlar tafakkur vositasida idrok etiladi. Tafakkuri rivojlangan kishilarning tahliliy xulosalari xato va adashishlardan yiroq, aniq va mazmunli bo‘ladi. Bir mazmundagi axborot yuzasidan iste‘molchilarning turlicha fikr va xulosaga kelishi amaliyotda juda ko‘p kuzatiladi, tabiiy sanaladi. Kimdir sodir bo‘lgan voqea-hodisani bir tomonlama tahlil etib, noto‘g‘ri fikr-xulosaga keladi, yana kimdir tahlil obyektiga turli tomondan nazar solib, obyektiv qarorga keladi. Tahlilning to‘g‘ri va aniq bajarilishida tahlilchining tafakkur qobiliyati, bilimi yetakchi omil hisoblanadi. Tahlil orqali predmet turli tomondan tekshiriladi, ochib beriladi, muammolar va ularning yuzaga

kelish sabab-oqibatlari belgilanadi, ularni hal etishning optimal variantlari ishlab chiqiladi. Tahlil bilishning eng ishonchli yo‘li hisoblanadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “tahlil” atamasiga: “tarqalish, (kurtak) yozish; tekshirish, surishtirish; hal qilish, ochish); Narsa, hodisa va shu kabilarni mohiyat, qonuniyat va boshqa jihatlardan tekshirish, o‘rganish ishi. Biror narsa, ma’lumot va shu kabilarni ma’lum nuqtayi nazardan o‘rganish, baholash. Biror narsaning tarkibini belgilash va uning mohiyatini tadqiq etish” [1; 40-b.], deb izoh beriladi. Olimlar R.Samarov va X.Alimov “Tahlil murakkab tafakkur operatsiyasi hisoblanib, uning yordamida predmet va jaryonlar (hodisalar) aniq o‘lchov birligiga ega bo‘lgan usullar vositasida yaxlit tarzda yoki alohida qismlarini turli belgi va xususiyatlari bo‘yicha aloqadorlik darajasini belgilab beradi. ...Tahlil alohida ilmiy tayyorgarlikni, turli ilmiy uslublarni maqsadli tanlash, va o‘rinli qo‘llash, o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha bilimga ega bo‘lishni talab etuvchi faoliyatning murakkab turidir” [2; 23–28-b.], deb ta’rif berishadi.

Ayon bo‘ladiki, tahlil ko‘p tarmoqli bo‘lib, predmetni atroflicha bilishni, anglashni ko‘zda tutadi. Inson hayotini tahliliy fikr yuritishsiz tasavvur qilish mumkin emas. Bozorga kirgan oddiy xaridor ham savdo rastalaridagi turli mollarning sifatini, narx-navosini o‘zaro qiyoslaydi, solishtiradi – tahlil qiladi. Oilada iqtisodiy rivojlanish masalalari yoki biron-bir muammoning yuzaga kelish sabab-oqibatlari o‘rganiladi– tahlil qilinadi. Shifokor bemorning kasallik sabablarini tahlil qiladi, unga qarab muolaja belgilaydi. Avtomobil chilangarining ishi ham tahlilga muvofiq keladi: u nosoz qismlarni aniqlaydi, ajratadi, qayta yig‘adi – tahlil operatsiyalarini bajaradi. Tahlil turlari ichida insonning nozik sezimlariga ta’sir o‘tkazishda, unda hayrat, quvonch, zavq, shodlik, qayg‘u, g‘azab, nafrat, shafqat kabi bir qancha his-tuyg‘ularning namoyon bo‘lishida, insoniy fazilatlarni shakllantirishda, bilish darajasini yuksaltirishda badiiy asarlar tahlili eng yetakchi o‘rinda turadi.

Badiiy asar tahlili, talqini masalasi juda qadimiydir. Qadimgi yunon mifologiyasi Germesni Olimpiya xudolarining buyruq va xabarlarini odamlarga yetkazib, talqin etish va tushuntirish bilan shug‘ullanuvchi sifatida tasvirlagan. “Germenevtika” asar ma’nosini tushunish va talqin etishni anglatadi. Germes nomi bilan bog‘lanadi. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldoshlarning “Badiiy asar tahlili asoslari” nomli kitobida: “Badiiy asar tahlili juda qadim zamonlardan buyon fikr egalarining diqqatini tortib kelgan. Turli davrda yashagan, har xil maqom va darajadagi olimlar badiiy tahlilning mohiyati va unga xos xususiyatlarni

tasniflab, ushbu tushunchaga ta'rif berishga urinib kelishgan. Miloddan to'rt ming yillar oldin hind manbalarida bir adabiy matnni ming xil tushunish mumkinligi aytiladi. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Taroziy, Navoiy, Bobur singari turkiy mutafakkirlarning asarlarida badiiy tahlilga islomiy-turkiy dunyoqarash asosida yondashuv namoyon bo'lgan" [3; 8-b.], degan ma'lumot keltirilgan.

Ko'rinadiki, badiiy asar tahlili va talqini hamisha ilm egalarining diqqat markazida bo'lib kelayotgan murakkab aqliy faoliyat turidir. Badiiy asarning butun qirralari tahlil vositasidagina ochib beriladi. Tahlilchi asardagi oddiy kitobxon "ko'ra olmaydigan", fahmlamaydigan eng nozik jihatlarni ham "kashf" etadi. Har qanday tahlilning muvaffaqiyati tahlilchining tafakkur salohiyatiga, fikrlash layoqatiga, tajriba-mahoratiga qat'iy bog'liq bo'ladi. Adabiyot o'qitishda esa o'qituvchining badiiy asar tahlili kompetensiyasi ta'lim sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Adabiy ta'lim oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarga, asosan, badiiy asarlarni tahlillash orqali erishiladi. O'quvchining adabiy tafakkuri badiiy asar tahlili jarayonida shakllantiriladi. Badiiy asar tahlili adabiyot darslarining faoliyat mazmuni, qurilish mexanizmi, harakat strategiyasidir. Adabiyot darslarini badiiy asar tahlilisiz, umuman tasavvur qilib bo'lmaydi. Adabiy ta'limdan o'rin olgan badiiy asar tahlil vositasidagina o'quvchining haqiqiy ma'naviy mulkiga aylanadi. "...O'quvchilarning fikrinigina emas, balkim uning tuyg'ularini, qalbini hissiyotlar olamini ham shakllantirishga ahd qilgan adabiy ta'lim badiiy tahlilsiz o'z muddaosiga erisha olmaydi" [4; 68-b.].

Metodist olim Q.Yo'ldoshevning: "Qator yillar davomida badiiy asar bilan ishlash va uni tadqiq etish kechimini kuzatishlar shundan dalolat beradiki, oliy o'quv yurtida saboq olayotgan yoki oliy filologik ma'lumotga ega bo'lib, o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, hatto, oliy o'quv yurtlarida ishlayotgan filolog mutaxassislarning kattagina qismi badiiy asarni tahlil qilish borasida yetarlicha malakaga ega emaslar. Badiiy asarni tahlil qila bilmaslik domladan o'quvchiga, o'qituvchiga aylangan sobiq o'quvchidan o'quvchiga, o'quvchiga aylangan kechagi o'quvchidan yana o'quvchiga tarzida uzilmas halqa bo'lib davom etib kelmoqda. Bu holni adabiyot o'qitish amaliyotining aybidan ham ko'ra fojiasi deyish to'g'riroq bo'ladi" [3; 8-b.], deb aytgan haqli e'tirozlari jiddiy mushohada yuritishni talab etadi. Adabiyot o'qituvchisining o'zida badiiy asarni tahlil qilish layoqati past bo'lgan vaziyatda hych kim o'quvchini badiiy asarni tahlil qilishni bilmaslikda ayblashga ma'naviy huquqdor bo'la olmaydi. Tan olish kerakki, tahliliy layoqatining sustligi, fikrlash ko'lamining torligi

sabab o'quvchilar, ayrim domlalar Navoiyni anglashga, Mashrabni tushunishga qiynalyapti, Rumiya "tishi o'tmay" qiynalmoqda.

Tajribali o'qituvchi N.Aliqulova "Adabiyot o'qitishda badiiy tahlil masalalari" nomli maqolasida: "Bugun o'qituvchining badiiy asar tahlili sohasidagi faoliyati o'quvchiga ma'lum asarni o'qitib, shu asosda insho yozdirishdan nariga o'tmaydi. ... bundan tashqari, o'quvchida ko'pincha tahlil o'qilgan badiiy asar sujetini gapirib berishdan iborat, degan tushuncha muhrlanib qolmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchining fikri va didini o'tmaslashtiradi hamda uni kitob mutolaasidan uzoqlashtiradi" [5; 37-b.], deb yozadi.

Adabiyotshunos olim D.Quronovning: "Istiqlol yillarida adabiy ta'lim sohasida ham ko'plab o'zgarishlar sodir bo'ldi: yangi davlat ta'lim standartlari qabul qilindi, shu asosda o'quv dastur va rejalari ishlab chiqildi, ularga mos darslik va qo'llanmalar chop etildi. Alabatta, bularning bari adabiy ta'limni yaxshilash maqsadiga qaratilgan. Lekin hanuz ulardan kutilgan natijaga erishilmoqda, deb baralla ayta olmaymiz. ... Nazarimda, hozircha biz bir qutbdan ikkinchisiga sakrashga taraddudlanyapmiz, xolos: sho'ro davri ta'lim tizimidagi adabiyotni vosita sifatida o'qitishdan – san'at sifatida o'qitishga, pirovardida esa, ochig'i, na unisini va na bunisini risoladagidek amalga oshirolmay turibmiz" [6], deb aytgan fikrlarini inkor etib bo'lmaydi.

O'zbekistonda har bir sohada yangilanish, modernizatsiyalash jarayoni kechmoqda. Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar, yangi texnologiyalar qo'llab-quvvatlanyapti, amaliyotga keng joriy etilyapti. Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarning analitik tafakkur layoqatini shakllantirish, badiiy asarlar tahlili kechmishida uni rivojlantirish, o'quvchilar – bo'lgusi adabiyot muallimlarining kasbiy kompetentligini analitik tafakkur sifatleri bilan yanada mustahkamlash adabiy ta'limga innovatsion yondashuvni hosil qiladi. Analitik tafakkur fikrlashning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra murakkab turlaridan biri bo'lib, tahlil etilayotgan obyektini atroflicha o'rganish, tahlillash, maqbul qaror va xulosalar qabul qilish imkonini beradi. Analitik tafakkurning mantiq bilan qat'iy bog'langanligi uning eng muhim xarakterli jihatidir. Bu narsa predmet tahlili jarayonida mantiqiy fikr yuritish, tahlil uchun yetishmayotgan ma'lumotlarni mantiqan tiklash, tahlil obyektiga daxldor yangi mantiqiy fikr va xulosalar ishlab chiqishda yaqqol ko'rinadi. Bir tomondan, badiiy asar tahliliga oid nazariyotchi va metodist olimlar tomonidan yaratilgan bilim va tajribalarni o'zlashtirish, yanada boyitish; ikkinchi tomondan, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan tahlil jarayonida

o‘rinli va umumli foydalanish ko‘zlangan maqsadga erishishni ishonchli ta‘minlaydi.

Q.Yo‘ldoshevning “Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta‘lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari”, Q.Husanboyevaning “Adabiy ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslari”, M.Mirqosimovaning “O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish usullari” mavzularidagi doktorlik dissertatsiyalari; A.Zunnunov, N.Hotamov, J.Esonov, A.Ibrohimovlar hammualifligida yaratilgan “Adabiyot o‘qitish metodikasi”, B.To‘xlievning “Adabiyot o‘qitish metodikasi”, Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldoshlarning “Badiiy asar tahlili asoslari”, M.Mirqosimovaning “Badiiy asar tahlili metodikasi”, Q.Husanboyevaning “Adabiyot – ma‘naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili”, V.Qodirovning “Mumtoz adabiyot: o‘qitish muammolari va yechimlar” kabi ilmiy-pedagogik asarlari adabiyot o‘qitishni takomillashtirish, o‘quvchilarning badiiy asar tahlili kompetensiyasini rivojlantirish, adabiy tafakkurini o‘stirish, mustaqil fikrlash layoqatini rivojlantirishda fundamental manbalar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тўртинчи жилд. – Т: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.
2. Самаров Р.С., Алимов Х. Олий таълим жараёнини бошқаришда тизимли таҳлил ва қарорлар қабул қилиш технологиялари. Ўқув-услубий мажмуа. – Т., 2016., 23–28-бетлар.
3. Қозоқбой Йўлдош, Муҳайё Йўлдош. Бадий таҳлил асослари. – Т.: КАМАЛАК, 2016. – 140 б.
4. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
5. Aliqulova N. Adabiyot o‘qitishda badiiy tahlil masalalari. Til va adabiyot ta‘limi. 2018-yil, 3-son.
6. Қуронов Д. Адабий таълим ҳақида айрим мулоҳазалар. // Электрон манба: <http://quronov.narod.ru/dmaqk2.html>.

I.YUSUPOV ASARLARINING IJTIMOIIY-SIYOSIIY VA BADIIIY MANBALARI

Zamira Ayimbetova, Berdaq nomidagi
Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti

Har qanday badiiy asarning yaratilish, kelib chiqish, paydo bo‘lish manbalari bo‘ladi. Ya’ni, manba bu – asar yaratilishiga turtki bo‘ladigan tarixiy, ijtimoiy-siyosiy sharoitdir. Ikkinchidan, asar muallifi o‘zidan avvalgi ayrim badiiy manbalarga suyanish orqali o‘z konsepsiyasini, ya’ni atrofdagi olamga bo‘lgan dunyoqarashni aks ettiradi. Badiiy manbalarning asar mazmunidagi, g‘oyasidagi, ko‘tariladigan problematikasidagi, uning ishonchli chiqishidagi, umuman, asar badiiyligidagi ahamiyati katta. I.Yusupov lirik asarlarini yozishda o‘zidan oldingi qoraqalpoq klassik adabiyoti bilan folkloridagi, dunyo adabiyotidagi ilg‘or adabiy dasturlarga suyanagan. Badiiy manbaning shoir ijodidagi ahamiyati nafaqat uning liroepik poeziyasida, balki lirik she‘rlarida ham seziladi. Shoir ijodidagi badiiy manbalarni biz quyidagicha guruhlariga ajratib o‘rgandik:

- 1) ijtimoiy-siyosiy manbalar;
- 2) folklor manbalar;
- 3) shoirning Yevropa adabiyotidagi detal, motiv, obraz, janrlardan o‘rganishi.

Folklor manbalarning shoir ijodida qo‘llanilishini olib qaraydigan bo‘lsak, mif va afsonalar asos qilib olingan asarlarini ko‘plab uchratamiz. Shoirning “Boyo‘g‘li” nomli she‘rida xalq og‘zaki ijodidagi ota-onasidan qarg‘ish olgan qush haqidagi, ya’ni “Murodi hosil” haqidagi afsonaning asos qilib olinganligini ko‘ramiz [1; 28-b.].

Irastan sen baydın ulı boldın ba,
Áke-shesheńnen jaslay ġargıs aldın ba,
Ógey shesheń saġan dóhmet saldı ma,
Neden jaman atlı boldın bayıwlı? [2; 318-b.]

Biroq shoir she‘rda bu afsonaning sujetini aytish bilan cheklanmaydi. Uning maqsadi ham bundan iborat emas. She‘rni shunday afsonaviy sujet bilan boshlasa ham, asarning g‘oyasi, problematikasi butunlay boshqa. Shoirning mahorati ham shunda. U she‘rda biror marta Vatan so‘zini ishlatmasdan sadoqat va muhabbat tuyg‘ularini eng baland cho‘qqisiga yetkazib ifodalay olgan. Demak, shoir bu yerda asosiy aytilajak fikrni sir saqlab, yashirin tasvirlaydi. Bu usul shoir asarlarining badiiylilik darajasini yana ham orttiradi.

Folklor manbalarni shoir poemalari misolida olib qarajak, xalq og‘zaki ijodidagi irimlarning manba sifatidagi xizmatini ko‘plab uchratamiz. Irim – deganimizning o‘zi biror-bir voqea-hodisaga xalqning fikri, ishonchi asosida paydo bo‘lgan tushuncha hisoblanadi.

I.Yusupovning “Mamelek oy” poemasidagi xalq orasidagi “Kechqurun yolg‘iz yursang jin chaladi” – degan irimning ko‘rinishini uchratamiz.

Añlap kórsem, túni menen
“Mámelek oy” ultanında,
Basqı tawıp óz-ózimnen
Júr ekenmen bir orında. [3; 341-b.]

Asarning nomlanishi ham, uning to‘g‘ri va ko‘chma ma‘nodagi g‘oyasi ham asosan folklor manbalarning ta‘siridan paydo bo‘lgan.

I.Yusupov asarlarida bundan tashqari Yevropa adabiyotining manbalarini ham uchratamiz. Masalan, shoirning “Poseydonning g‘azabi” poemasini olib qaraylik. Poemaning asosiy voqeasi antik davr adabiyotidagi dengiz xudosi Poseydon haqidagi mif sujetiga qurilgan. Ammo shoir poemada ushbu sujetni takrorlash bilan cheklanmaydi. Uni g‘oyaviy va badiiy jihatdan ham boyitadi. Bugungi kun problemi bilan bog‘laydi. Poemaning janridan ma‘lum bo‘lganidek, asarda allegorik tasvirlash kuchli ekanligi seziladi. Shoir asarni yaratishda unga Yevropa adabiyotidagi miflik sujetni asos qilib olishining ham, uni allegorik usulda yozishining ham sababi bor. Chunki, poema 1980-yillarda yaratiladi. O‘sha davrda asarning ko‘tarib turgan problemlarini, g‘oyasini ochiqdan-ochiq bildirishga imkon yo‘q edi. Biroq shoirning Orol dengizi tragediyasini, dunyoviy problema hisoblangan ekologik problemani ko‘rsatishda ushbu miflik sujetni asos qilib olganligi samarali usul hisoblanadi. Yevropa adabiyoti ta‘sirini shoirning bundan boshqa ham qator she‘rlarida uchratamiz. “Nartsiss” sherida ham qadimgi Yunon mifologiyasidagi Nartsiss haqidagi miflik sujet asos qilib olingan. Yoki shoirning,

Qus shoqısa Prometeydiń bawırım,
Adam tózer lekin tózbeydi taslar... [4; 87-b.]

degan she‘riy satrlarida ham Yunon adabiyotidagi Esxilning “Zanjirband Prometey” nomli asarining ta‘sirini sezish qiyin emas.

I.Yusupov asarlarining yaratilishida bulardan tashqari ijtimoiy-siyosiy manbalarning ahamiyati katta. Masalan, shoirning “Bulbul uyasi”, “Vatan tuprog‘i” poemalarining paydo bo‘lish manbalari bevosita ijtimoiy-siyosiy voqealar, hodisalar bilan bog‘liq. Shoirning “Bulbul uyasi”

poemasi urush mavzusiga qurilgan. Bunda o‘z-o‘zidan II jahon urushining odamlar hayotidagi qoldirgan og‘ir izlari, tutgan o‘rni poemaning yaratilishiga turtki bo‘lgani, shubhasiz.

“Bulbul uyasi” poemasining ijtimoiy-siyosiy manbalari sifatida muallimning urushga ketishi, ayolining sog‘inch tuyg‘ulari, qishloq raisining g‘alati xatti-harakatlarini ham keltirish mumkin. Chunki, bu voqealarning hammasi o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy holati bilan bevosita bog‘liq. Bu mavzu, bu ijtimoiy-siyosiy manba shoirning she‘riy ijodida ham ko‘zga tashlanadi. Shoirning avvalroq yaratilgan “Xalqoboddan qancha odam kelmadi” degan she‘rini o‘qiganimizda ikki asar mazmunidagi uzviylikni payqaymiz.

Kimge perzent, kimgé súygen yarmeken?

Qurban bermegen úy tabıarmeken?

Alıstağı urıstıń azabın tartpay,

Bawırı pútin qalğan adam barmeken? [2; 159-b.]

Bundan tashqari shoir ushbu she‘rni xalq orasida keng tarqalib ketgan “Bormikan” she‘ridan stilizatsiya usulida o‘rganib yozganini sezish qiyin emas. Shoirning “Vatan tuprog‘i” poemasiga esa repressiya davridagi siyosiy sharoitlarning manba bo‘lganligi ma‘lum. Biz buni asarning sujeti va mazmunidan tashqari undagi “Bu qissani repressiya qurboni bo‘lgan aziz padarim Yusup axunning ruhiga baqshida ettim” – degan epigrafdan ham ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, I.Yusupov har bir asarida ijtimoiy-siyosiy, badiiy manbalarni chuqur tadqiq qilganligi sezilib turadi. Bu jihat uning har bir asarini mukammal yozishiga, davr ruhini, dolzarb masalalarni o‘z vaqtida olib chiqishiga, ularni o‘quvchiga ta’sirchan shaklda yetkazilishiga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қанаатов Т. Қарақалпақ халық әпсаналары. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2000.

2. Юсупов И. Өмир, саған ашықпан. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1999.

3. Юсупов И. Таңламалы шығармалары. Үш томлық. III том. – Нөкис: Билим, 2018.

4. Юсупов И. Таңламалы шығармалары. Үш томлық. I том. – Нөкис: Билим, 2018.

YUSUF HOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARINI TA‘LIM BOSQICHLARIDA O‘RGANISH

Dilfuza Zaripova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU mustaqil tadqiqotchisi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil Oliy Majlis deputatlariga qilgan murojaatnomasida quyidagilarni ta’kidlaydi: “Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!”. Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak [3]. Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarish maqsadida yurtimizda barkamol avlod ta’lim-tarbiyasiga juda katta e’tibor qaratilyapti.

Ma’lumki, Sharq Uyg‘onish davrida ma’naviy-ma’rifiy sohada asosiy masala inson muammosi bo‘lgan. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya masalalariga katta e’tibor berilgan. Didaktik asarlarda Sharqqa xos bo‘lgan insonning axloqiy, ruhiy kamoloti, oliy darajadagi yuksalish muammosi yetakchi g‘oya bo‘lgan. Insoniylik, insonni ulug‘lash g‘oyasi ta’lim-tarbiyaga oid yaratilgan asarlarning asosiy o‘zagi sanalgan. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari ham shunday asarlar sirasiga kiradi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarini o‘rganish umumta’lim maktablari 11-sinfida va akademik litseylarining 1–2-bosqichlarda o‘rganiladi. Shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar tayyorlov yo‘nalishlari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2018-yil 18-avgustdagi №4-son majlis bayoni bilan ma’qullangan va Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018-yil 25-avgustdagi 744-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan akademik litseylar uchun mo‘ljallangan dasturda “Qutadg‘u bilig” asarini o‘rganish uchun 4 soat ajratilgan. Dasturda Yusuf Xos Hojib Uyg‘onish davrining yirik siymosi ekanligi, dostonidagi

obrazlar, ularning ramziy-majoziy xarakteri va bahor tasvirining berilishi va asar qasidalari, to'rtliklari tahlili, muallif badiiy mahoratini ochib berish kabi talablar qo'yilgan. Ushbu dasturdagi talablardan kelib chiqqan holda 2 soatlik darsimizning rejasini quyidagicha belgilab oldik:

1. Fikriy hujum
2. "Tilingni avayla, omondir boshing"
3. Tahlil
4. Charxpalak
5. Davriy sistema

Dars shiori:

O'zim o'lsam, ezgu otim qolsa bas,
Qolib mangu otim, tirik bo'lsa bas.
Faqat yaxshilik qil, tila yaxshi nom,
Noming mangulik-la yashab yursa bas.

Darsning birinchi rejasi "Fikriy hujum" deb nomlanadi. O'quvchilar 2 guruhga bo'linadi. Ular Yusuf Xos Hojib hayoti va "Qutadg'u bilig" asariga oid mustaqil o'rgangan ma'lumotlari asosida bir-birlariga savol beradilar:

I guruh:

1. Yusuf Xos Hojib nechanchi asrda yashab ijod etgan?
2. "Qutadg'u bilig" so'zining lug'aviy ma'nosini tushuntiring.
3. "Qutadg'u bilig"ning qanday nusxalari bor?
4. "Qutadg'u bilig" asari kimga bag'ishlanadi?
5. "Hibat ul-haqoyiq" va "Qutadg'u bilig"ning o'xshash va farqli tomonlarini izohlang.

II guruh:

1. "Qutadg'u bilig" asarini Fitrat qanday nomlagan?
2. "Qutadg'u bilig" asarining tuzilishi haqida gapiring.
3. "Qutadg'u bilig" asaridagi hikmatlarni izohlang.
4. "Qutadg'u bilig" asari bo'yicha tadqiqot olib borgan olimlarni bilasizmi?
5. Asar yozilishida Qur'on va Hadis kitoblarining o'rni qanday?

Darsning II rejasi "Tilingni avayla, omondir boshing" deb nomlanadi. O'quvchilar "Qutadg'u bilig" asaridagi ba'zi hikmatlarni tahlil qiladilar:

"Tili yolg'on erning jafa qilqi ul,
Jafa kimda ersa, oshul yilqi ul
Kishi yalغانidan tilama vafa,
Bu bir so'z sinamamish o'qush yilqi ul"

*(Mazmuni: Tili yolg'on erning jafo xulqidir,
Jafo kimda ersa o'sha yilqi ul
Kishi yalg'anidan vafo kutmagin,
Bu so'z ko'p sinalgan talay yilgidir)*

“Tiling bekta tutgil, tishing sinmasun, Qali chiqsa bekta, tishing sinur.”

*(Mazmuni: Tilingni tiy, tishing sinmasin, agar so'zlab yuborsang,
(tiling) chiqib qolsa, tishingni sindiradi.)*

“Kishig til ag'irlar bulur qut kishi,
Kishig til ujuzlar yarir er bashi” [2; 87-b.]

(Mazmuni: Kishini til e'zozlaydi, kishi u tufayli baxtga erishadi, kishini til qadrsiz qiladi, er boshini yoradi)

Darsning III rejasi “Tahlil” deb nomlanadi. Tahlil texnikasida o'quvchilarga asarning asl matnidan parchalar beriladi. Matn tahlilida o'quvchilar ixtiyoriy doskaga chiqadi. Berilgan parchalarni hozirgi tilimizga o'giradilar.

“Мэни эмгатур тил эди эг тэлим,
Башым кэсмесуни кэсэйин тилим”.
“Уруб берка боши бутер тарк сўнар
Тилин сўкса битмас аччиғи йилин”
“Туғуғли олур коп қалыр бэлгусиз,
Сэзун эдгу созла эзун олгусиз” [2; 88-b.]

Darsning IV rejasida “Charxpalak” usulidan foydalaniladi. Bunda o'quvchilar quyidagi topshiriqlarni bajaradilar:

a) mavzuga oid test topshirig'ini bajaradilar;

1. “Qutadg'u bilig” dostoni yaratilganda qaysi davlat hukmron bo'lgan?

A. Somoniylar B. Qoraxoniylar C. Kushon D. Eron

2. Sharq elining ulug'lari “Qutadg'u bilig”ni ... deyishgan?

A. “Adab- ul muluk” B. “Ziynat -ul umaro”

C. “Pandnomayi mulk” D. A, B

3. Oyto'ldi nimaning ramzi?

A. Vazir B. Hukmdor C. Adolat D. Davlat

4. Qanoat, ofiyat ramzidagi obraz?

A. O'g'dulmish B. O'zg'urmish C. Oyto'ldi D. Kuntug'di

5. “Qutadg'u bilig” qanday asar?

A. Didaktik B. Memuar C. Axloqiy D. Falsafiy

6. Beklik mustahkam bo'lishi uchun ... (Qutadg'u bilig)

A. Lashkar, boylik kerak B. Badavlat, xalq, adolat, siyosat

C. A, B D) То‘g‘ri javob yo‘q

b) “Qutadg‘u bilig” matnidan badiiy san‘atlarni topadilar:

“Билиг бэрди йанлуқ бэдуди бу кун,
Укуш бэрди отру йазылды тугун”.

“*Bilig*” va “*uqush*” so‘zlari – **tanosib**, “*berdi*” so‘zining takrori – **radd us hashf ilal hashf** san‘atidan foydalanadi.

“Билигсиз киши барча иглиг болур,
Игиг эмлэмэсэ киши тэрк олур”

(*Mazmuni: Bilimsiz kishilar barchasi dardli bo‘ladi, dardni davolamasa, kishi bot o‘ladi*). Shoir bilimsiz kishilarni dardli odamga o‘xshatadi – **tashbeh** san‘ati va “*Iglic*”(dard) so‘zining takrori esa **radd ul hashv ulal ibtido** san‘atini paydo qilgan.

“Йуры, эй билигсиз, игинни ота,

Билигсиз отын сэн э билгэ қута”. [2; 84-b.]

(*Mazmuni: Kel, ey bilimsiz, dardingga davo qil, bilimsiz bo‘lsang – tubansan, dono bo‘lsang – baxtlisan*)

Shoir misralarda “*ey biligsiz*” so‘zi – **nido** san‘atini, “*biligsiz*” so‘zining takrori – **radd us hashv ilal ibtido**, “*dard*” va “*davo*” so‘zlarini keltirishidan **tazod** qo‘llagan.

“Davriy sistema”

“Davriy sistema” usulida o‘quvchilar Mendeleyev davriy sistemasi asosida mavzuga oid tayanch iboralarni tuzadi. Davriy sistemadagi elementlarni yozilgan son orqali topadi. Har biri element nomidan bosh harflar olinadi. Bu so‘zlar “Qutadg‘u bilig” asariga tegishli bo‘lgan so‘zlardan hisoblanadi. Masalan:

“Adolat”

13 – alyuminiy, 104 – dubniy, 8 – kislorod, 57 – lantan, 89 – aktiniy, 22 – titan.

“Bilig” so‘zini quyidagicha keltirib chiqaradilar:

5, 77, 3, 77, 32 – bilig

57 – lantan, 5 – bor, 77 – irridiy, 32 – germaniy, 22 – titan, 3 – litiy,

O‘quvchilarning yozma nutqini shakllantirish maqsadida “Qutadg‘u bilig” asaridagi ezgu fazilatlar haqida esse yozadilar.

O‘N MINUTLIK ESSE

Esse – bu muallifning individual nuqtayi nazarini ifoda etish shakli bo‘lib, biror narsa-hodisa yoki jarayon haqidagi umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o‘z ichiga oladi.

O‘n minutlik esseni yozish qoidalari (“Oliyjanob fazilatlar inson husni”):

1. Taklif etilgan mavzuga doir so‘zlar hajmi 500 tadan 1000 tagacha bo‘lishi mumkin.

2. “Kamtarinlik, sadoqat, do‘stlik, xushmuomalalik kabi sifatlarga ega bo‘lishi kerak” kabi jumalardan foydalaning.

3. O‘zingiz havas qilgan, siz uchun ideal bo‘lgan insonlar misolida orzuingizdagi timsolni gavdalantiring.

Tarbiya jarayonida tizimlilik va izchillikni ta‘min etadigan muhim shartlardan biri tarbiya sohasidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash va mustahkamlashda uyg‘unlikka rioya etishdir. Har bir odam o‘z hayot yo‘lida qancha muvaffaqiyatlarga erishgan yoki imkoniyatlarni qo‘ldan boy bergan bo‘lsa, buning hammasiga, avvalo, uning fe‘l-atvori, olgan tarbiyasi sababdir.

Didaktik asarlarni o‘quvchi yoshlarga o‘qitish, ularni bunday adabiyotlarga qiziqtirish biz-pedagoglarning vazifalarimizdan biridir. Zero, barkamol avlod davlatimiz tayanchi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta‘lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dok ...diss. –T., 2007.

2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. –T.: Fan, 1970.

3. Mirziyoyev Sh. 2020-yil Oliy Majlis deputatlariga qilgan murojaatnomasi, 2020.

4. To‘xliyev B. Adabiyot. Akademik litseylarning I bosqich o‘quvchilari uchun darslik. – T., 2007.

“SO‘NGGI SABOQ” SABOG‘I

Mohigul Fozilova, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU mustaqil izlanuvchisi

Badiiy adabiyot inson ma‘naviy olamini kashf etadigan qudratli bir vosita, ulkan va cheksiz imkoniyatlar manbaidir. Azal-azaldan adabiyot so‘z san‘ati, xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo‘lib kelgan. Adabiyot fani insonni ma‘naviy yetuk shaxs bo‘lib kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek: “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ajdodlarimiz bor. Havas qilsa

arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi".

Darhaqiqat, kelajak avlodni, ya'ni o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash uchun adabiyot o'qituvchisining shaxsi, uning bilimi, pedagogik mahorati birinchi o'rinda turadi. Adabiyot o'qituvchisining faoliyatida tadqiqotchilik alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, tadqiqotchilik malakasiga ega bo'lgan o'qituvchi badiiy asarni tahlil qilish jarayonida o'quvchilarda ijodkorlikni, adabiy nutqni rivojlantirishga erishadi. *O'qituvchi maktabda o'quvchilarni asarni o'rganishga qiziqtiribgina qolmay, tahlil jarayonida yozuvchining g'oyaviy niyatini bilib olishlariga, asar mazmunini tasavvur qilishlariga, ularda asarni estetik baholash ko'nikmalarini o'stirishga, egallagan bilimlarini aql-zakovat, his-hayajon bilan ifodalashni bilishlariga ham ahamiyat berishi lozim. Bu o'qituvchidan katta ijodiy izlanishni talab etadi, albatta [1; 77-b.].* Shunday ekan, "Adabiyot" darslarida badiiy asarlarni tahlil qilishni o'quvchilarga o'rgatish lozim. Adabiyot darslarida badiiy asarlarni tahlil qilishda muammoli vaziyatlardan foydalanish orqali o'quvchilarning mustaqil mulohaza yuritishi va epik asarlarni baholash asosida ta'lim samaradorligini oshirish, o'qitishda ta'lim metodlarining xilma-xilligiga erishishdan tashqari, o'quvchilarning ongli faolligini oshirish, ularda shaxslik sifatlarini shakllantirish singari maqsadlar yotadi. O'quvchilarning kitobxonlik darajalarini o'stirish, kitob ustida ishlashga o'rgatish, tasavvurlar asosida ko'nikmalarni o'stirish, ma'naviy tarbiya berish badiiy asarlarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Hikoya epik turga mansub kichik hajmli janr bo'lib, tili sodda va ravon bo'lganligi uchun maktab o'quvchilari hikoyalarni qiziqish bilan o'qib, o'rganadilar. 10-sinf "Adabiyot" fani o'quv dasturida mashhur fransuz yozuvchisi Alfons Dodening "So'nggi saboq" hikoyasi berilgan bo'lib, hikoyani o'rganish uchun bir soat vaqt belgilangan. Hikoyani o'qib, tahlil qilish uchun bir soat vaqt kamlik qiladi. Shuning uchun o'qituvchi "So'nggi saboq" hikoyasini mustaqil o'qish uchun uyga vazifa qilib beriladi. Mavzuni o'rganish uchun ajratilgan soatda o'quvchilarga hikoya matni yuzasidan savol va topshiriqlar beriladi. O'qituvchi o'quvchilarga hikoya matnining mazmun-mohiyatini yetarli darajada anglatish uchun turli pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda berilsa, o'quvchilar uchun ta'sirchan va tushunarli bo'ladi.

Darsda muammoli vaziyatni yaratish o'quvchilarni mustaqil mulohaza yuritishga, ular orasida tortishuv va fikrlar bahsiga asos bo'ladi.

Muammoli vaziyatni yaratish uchun “Fikriy hujum”, “Klaster” va “Aqliy hujum” metodlaridan foydalanish o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlanishiga xizmat qiladi. “Fikriy hujum” metodi.

1-savol: Muallim mosye Amel: “Bolalar, bugun sizlar bilan so‘nggi bor dars o‘tishimiz. Berlindan Elzas va Lotaringiya maktablarida faqat nemis o‘qitilishi haqida buyruq keldi. Yangi o‘qituvchi ertaga keladi.-deb murojaat qildi. Mana shu ikki og‘izgina so‘z o‘quvchi, Fransni nega larzaga soldi?

2-savol: Muallimning bamisoli bayramdagidek kiyinganini qanday izohlaysiz?

3-savol: Hikoyadagi “Biz fransuzlar doim o‘qishni orqaga suramiz” degan jumlar sizga qanday ta’sir qildi?

Muammo shaklida qo‘yilgan ushbu savollar o‘quvchi uchun anchagina fikriy zo‘riqishni, izlanishni talab qiladi. O‘quvchi matnga tayanib, hikoya qahramoni Frans va muallim mosye Amelning ichki ruhiyatini anglaydi va tahlil qiladi.

Millatlarni millatlardan ajratib turuvchi asosiy belgilardan biri tildir. Har bir millat uchu o‘zining ona tili beqiyos ahamiyatga ega. Alfons Dodening “So‘nggi saboq” hikoyasi ona tiliga muhabbat hissining yorqin namunasidir. Unda mosye Amel obrazi orqali sohasini sidqidildan sevgan inson gavalantirilgan. Mosye Amel o‘quvchilarga fransuz tili dunyodagi eng ajoyib til ekanligini, bu tilni asrash lozimligini, chunki mustamlaka xalq o‘z ona tili yordamidagina yorug‘likka chiqa olishini uqtirdi. Mazkur fikrlar bizning o‘zbek tilining yaqin o‘tmishidagi taqdiriga ham bevosita taalluqlidir. Bosh qahramonning fidoyiligi mohiyatida yurtga sadoqat hissini o‘quvchilari ong-u shuuriga ona tiliga muhabbat tuyg‘usi ila singdirishdek maqsad mujassam. Mosye Amelning sa’y-harakatlari qaysidir ma’noda, o‘zbek ma’rifatparvar ijodkorlarini eslatgandek bo‘ladi. Jumladan, adibimiz Abdulla Qodiriy maqolalaridan birida: *“O‘zbek tili kambag‘al emas, balki o‘zbek tilini kambag‘al deguvchilarni o‘zi kambag‘al. Ular o‘z nodonliklarini o‘zbek tiliga to‘nkamasinlar”* [4; 69-b.], – *degan fikrni aytadi.* Har bir xalqqa o‘z tili aziz va ardoqli.

Keyingi tahlil jarayonida “Mantiq maydoni” metodidan foydalaniladi. Mazkur usul orqali hikoyani tahlil qilish, o‘quvchilarga o‘rganilgan voqeahodisalarni esda saqlab qolish, munosabat bildirish va fikrlarni umumlashtirib, ayta olish ko‘nikmalari shakllanadi. Bundan tashqari, o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga, hikoyadagi har bir voqea tasvirlarini ijodiy yondashib tahlil qila olishga undaydi.

O'quvchilarga Fransiya davlatidagi davr va muhitni anglatish maqsadida *“Bolaning xayolidan nega e'lonlar taxtasi yonida to'planib turgan odamlarni ko'rib: “Yana qanday noxushliklar bo'lishi mumkin?” degan savol o'tdi?*

Bu savolga javob berish uchun o'quvchilar o'z-o'zidan tarixga nazar tashlaydilar. XIX asr Fransiya tarixini Elzas va Lotaringiya hududi nemislar tomonidan ishg'ol qilinib, qaram bo'lganligi haqidagi ma'lumotlarni biladilar. Bu ma'lumotlarni o'zlashtirishda o'quvchilarni asosiy ma'lumotlarni yodda saqlab qolishiga erishiladi.

O'quvchilarning diqqati hikoya matnidagi *“So'nggi fransuz tili darsi. Men bo'lsam zo'rg'a yoza olardim! Demak, endi yozishni yaxshi o'rgana olmayman. Butun umr savodsiz bo'lib qolaman. Darsga kirish o'rniga qush uyasini axtarib yurganim, muzlagan Sarako'li ustida sirpanchiq uchib yo'qotgan vaqtinga shunchalar achinib ketdimki! Zerikarli bo'lgan kitoblar endi men uchun qadrdon do'stlardek tuyuldi”*[4; 174-b.] jumllarni qanday tushundingiz? Mazkur tasvirlar shuni ko'rsatadiki, hikoya qahramoni Fransning qanday o'quvchi bo'lganligi, o'qishga, o'qituvchiga, kitobga bo'lgan munosabatini ruhiy his qiladilar. O'quvchilar asarning asosiy mohiyatini, yozuvchining maqsadini anglab yetadilar.

Hikoya matnidagi: *“...Darsni yaxshi tushunayotganimdan o'zim ham hayratda edim. Mosye Amel mavzuni juda ravon tushuntirardi. Avvallari darsni bunchalik diqqat bilan tinglamagandi...”*[4; 175-b.] tarzidagi tasvirlarga o'quvchilar munosabat bildiradilar. Qahramonning hikoya boshidagi va oxiridagi holatini taqqoslaydilar. Inson umri davomida har bir narsaning qadriga yetishi lozim ekanligi bilan fikrlarini xulosalaydilar. O'qituvchi o'quvchilarni shunday xulosalay olishlariga erisha olsa, adabiy ta'lim maqsadiga erishilgan bo'ladi.

Adabiyot fanini estetik fanlar bilan uzviy bog'lagan holda tashkil etish o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, asarni detallarigacha yorqin tasavvur eta olishiga yordam beradi. “So'nggi saboq” hikoyasida “San” texnologiyasidan foydalaniladi.

1-topshiriq: hikoya matnida tasvirlangan shaxs va detallarni belgilab chiqishadi: mosye Amel, Frans, Xauzer, sobiq mer, pochta, burama galstuk, qora ipak taxya, yashil syurtuk, uchburchak musiqa asbobi, eski alifbe, katta ko'zoynak.

2-topshiriq: tushunchalarni bir-biriga uzviy bog'lab, hikoyadagi g'oyani ochuvchi surat chizish topshiriladi.

3-topshiriq: tayyor bo'lgan tasvirni taqdimot qilish.

“San” hamkorlik texnologiyasi yordamida o‘tkazilgan didaktik tahlil o‘quvchilar ijodkorligi, tasavvur dunyosini boyitadi, ular qalbida o‘zaro bir-birlariga, ilmga, vatanga muhabbat tuyg‘usi shakllantiriladi.

Adabiyot fani o‘qituvchisi badiiy asarlarni o‘qish bilan cheklanib qolmasligi kerak. O‘qituvchi asarni turli interfaolusullar yordamida tahlil qilsagina, uning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglata oladi. Bir so‘z bilan aytganda, kitobxon o‘quvchilarni tarbiyalay olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zunnunov va boshq. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: O‘qituvchi, 1992.
2. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi – T: 2018.
3. Nurmuxamedova D. Kreativ fikrlashda ta’lim texnologiyalarining o‘rni // Til va adabiyot ta’limi. –T., 2019. – № 10.
4. To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. O‘rta ta’lim muassasalarining 10-sinf o‘quvchilari uchun darslik-majmua. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

ALISHER NAVOIY IJODINI O‘QITISHDA UY VAZIFALARINING O‘RNI

N.Polvanova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU mustaqil izlanuvchisi

Ta’lim har bir mamlakat taraqqiyotida, jamiyatning moddiy-ma’naviy yuksalishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Keyingi yillarda Respublikamiz ta’lim tizimida sezilari o‘zgarishlar, islohotlar yuz bermoqda. Maktabgacha ta’lim vazirligining tashkil etilishi, bog‘chalardan boshlab bolalarni til bilish, savod chiqarish, ijodiy yondashishga o‘rgatish ishlari yo‘lga qo‘yildi. Shunga qaramasdan, shu kungacha hech kim boshlang‘ich sinflarda va undan keyingi bosqichlarda o‘qitilayotgan o‘quvchilarga qaysi sinfda nimani o‘qitish maqsadga muvofiqligini ilmiy nuqtayi nazardan to‘la asoslab bergan emas [1;13-b.].

Metodikaga doir manbalarda ta’lim mazmuni tushunchasi har xil talqin etiladi. Xususan, nufuzli pedagog oliy ta’lim mazmuni deganda o‘rganish uchun tanlangan va o‘quvchilarning o‘zlashtirishlariga mo‘ljallangan, metodik jihatdan puxta ishlangan muayyan ijtimoiy tajribaning bir qismini tushunadi [2; 17-b.]. Pedagogika fanlari doktori Q.Husanboyeva esa ta’lim mazmuniga o‘qituvchini ham kiritadi [3; 37-b.].

Darhaqiqat, o'qituvchi ta'lim tizimida muhim o'rin tutib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'ladi, lekin yondashuv biroz o'zgargan: ilgari o'qituvchi darsning subyekt edi, endi bu o'rinni u o'quvchilarga bo'shatib bermoqda va bu ayni paytda nihoyatda to'g'ri yo'ldir. Darsning markazida o'quvchi turishining hayotiy zarurati tufayli o'qituvchi o'z o'quvchilariga fanga doir kompetensiyalarni namoyon qilish uchun imkoniyat yaratib berishi kerak, shunda o'quvchi faollashadi, aks holda o'qituvchining harakatlariga bog'lanib qolishi mumkin. Bugungi o'qituvchi yaxshi tashkilotchi bo'lsa yetarli, hatto u juda katta hajmdagi bilimga ega bo'lishi shart emas. Bugungi o'quvchi uchun ma'lumotlar bazasi muammo emas, unga bilimni qanday egallashni o'rgatish, yo'naltirish, muammo qo'yish, yechimini topishga undash kabi tashkiliy jarayonlar bilan ta'sir ko'rsatish kerak. Adabiyot o'qituvchisining asosiy vazifasi ham yuqorida ta'kidlangan mezonlardan kelib chiqib, adabiyot darsini qiziqarli tashkil qilishi kerak, o'quv materialini to'g'ri taqsimlashi kerak. Bu – hozirgi kunning eng dolzarb masalasidir.

Darsni samarali tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari har tomonlama o'rganilgan. O'zbek pedagogikasida hali alohida tadqiqot sifatida o'rganilmagan muhim masalalar qatorida o'quvchining shakllanishida, fanning amaliy ahamiyatini oshirishda hal qiluvchi hisoblangan uy vazifalari muammosi o'z yechimini kutib yotibdi.

Uy vazifalari kerakmi? Kerak bo'lsa, o'quvchiga qaysi sinfdan qancha uy ishi berish maqsadga muvofiq? U qanday shaklda bo'ladi? – kabi zalvorli savollar O'zbekiston ta'lim tizimi doirasida o'zing aniq javobiga ega emas. Mazkur savollar dunyo pedagoglari tomonidan atroflicha o'rganilgan. Bizga tanish bo'lgan Rossiya ta'lim tizimida o'quvchiga beriladigan uy vazifalari uning yoshi, psixofiziologiyasiga mos tarzda ishlab chiqilgan. Jahon tajribasida ayrim pedagoglar o'quvchiga uyga vazifa bermaslikning tarafdori. Ayrimlar esa, kam miqdorda berish kerak deb hisoblaydi, ba'zilar o'quvchiga zavq beradigan, ishtiyoqini oshiradigan vazifalar berish kerakligini ta'kidlaydi.

Jumladan, milliy maktablarimizning adabiyot darslarida o'qituvchilar o'tilgan mavzu bo'yicha qaysi va qancha o'quv materialini uyga vazifa sifatida berish kerakligini aniq bilmaydi. Hamma o'zi bilganicha uy vazifalarini beradi, keyin uni o'quvchidan talab qilaveradi. Buning ustiga hamma o'quvchiga bir xil uy vazifasi beriladi, garchi o'quvchilar qobiliyati biri ikkinchisini takrorlamasligi ma'lum bo'lsa ham. Keyingi darsda shu berilgan bir xil topshiriqni hammadan bir xilda so'rab, bir xil mezonlarda baholanadi. Jahon tajribasida sinfdagi o'quvchilarning har biriga

o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, imkoniyatiga qarab vazifalar taqsimot qilinadi. Keyingi darsda uy ishlari so'ralganda ham qoniqarsiz baholar soni oshib ketmaydi, chunki avvalgi darsda o'quvchining intellektual imkoniyati yetadigan topshiriqlar berilgan bo'ladi. Natijada o'quvchida qiziqish susaymaydi, topshiriqni bajara olgandan so'ng aksincha, unda yana ishtiyoq paydo bo'ladi, bu esa ta'limda nihoyatda muhim hisoblanadi. Sinfdagi jarayonda topshiriqlar imkoniyatga ko'ra aynan taqsimlanishiga hojat bo'lmasligi mumkin, zero, darsda o'qituvchi zarur o'rinlarda yordam bera oladi. Uyga vazifa berilganda o'quvchining ota-onasi unga yordam qila olmasligi mumkin, shu sababli ham uy vazifalari o'quvchilarning har biriga imkoniyati doirasida berilishi lozim.

Amaldagi adabiyot darslarida o'qituvchilar o'quv materiallari bilan ishlashda chalkashlikka yo'l qo'yishmoqda. Ijodkor yozgan asari uchun o'quv dasturiga kiritilgan, dars jarayonida uning asari o'rganilishi kerak, yozuvchi yoki shoirning tarjimayi holiga doir ma'lumotlar sinfda emas, aksincha, uyga vazifa sifatida berilsa, hamma o'quvchi bajara oladi. Asar matni bilan bir o'zi ishlay olmasligi mumkin, ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalari bo'lsa.

Adabiyot o'qituvchilari o'quvchiga uyda bajarish uchun nisbatan yengil, qiziqarli va qobilyatiga mos topshiriq berishi lozim. Asar matni ustida ishlash bir muncha qiyinchilik tug'diradi shuning uchun o'qituvchilar ham, kirish imtihonlari uchun test tuzadigan ekspertlar ham ko'proq tarjimayi holga doir ma'lumotlar bilan chegaralanib qolmoqda.

Alisher Navoiy hayoti va ijodi umumta'lim maktablarining deyarli hamma sinflarida o'qitiladi. O'qituvchilar sinfda ko'pincha shoirning biografik ma'lumotlari bilan o'ralashib qolmoqda. Uyga berilayotgan vazifalar esa, asosan, asar mazmuniga aloqador bo'layotgani kuzatishlar davomida ma'lum bo'lib qoldi. Uy vazifalari uchun shakllantirilgan topshiriqlar umumiy xarakterdaligi o'quvchi uni talab darajasida bajara olmasligiga olib kelmoqda.

Alisher Navoiy ijodi bo'yicha uy vazifalari quyidagicha berilsa, o'quvchilarda shoir asarlariga, shaxsiyatiga nisbatan qiziqishi, ishtiyoqi yanada ortadi:

1. Ijodkor haqida qiziqarli ma'lumotlar topib keling. Ko'proq topib kelgan o'quvchining bali yuqori bo'ladi.
2. Navoiy haqida rivoyat va muallif haqida qiziqarli, muhim ma'lumotlar topib keling.
3. She'r (g'azal)ni ifodali o'qish va yod aytishga tayyorlanib keling. Kim audio tasmaga yozib kelsa, bali yuqori bo'ladi.

4. Navoiy haqida kimlar yozgan? Ular haqida kim eng ko‘p va qiziqarli ma'lumot tayyorlab kelsa, uning bali yuqori bo‘ladi.

5. “Navoiy” romanidan har kim o‘ziga yoqqan epizodni yodlab kelsin. Kim ta’sirli va muhim nuqtasini yod aytib bersa, uning bali yuqori bo‘ladi, kabi.

Xullas, umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarga beriladigan uy vazifalari ixtiyoriy, duch kelgan emas, maqsadli, rejali va puxta o‘ylangan bo‘lishi lozim. Berilayotgan uy vazifalari o‘quvchining intellektual imkoniyatlarini inobatga olgan holda darajalangan holatda tayyorlanishi, asar matni sinfda tahlil qilinib, ijodkor tarjimayi holiga doir ma'lumotlar o‘quvchiga uy vazifasi siftda berilishi, berilgan topshiriq o‘quvchini zeriktirmasligi, aksincha, uni izlanishga undaydigan, zavq bag‘ishlaydigan, ishtiyoqini oshiradigan bo‘lishi kerak.

Barcha fanlarda ham mazkur masala bilan bog‘liq muammolar borligi aniq, ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda. Uy vazifalarini samarali tashkil etish o‘qituvchigagina bog‘liq. Kelajakda uy vazifalari bo‘yicha sinflar va fanlar kesimida metodik tavsiyalar, topshiriqlar to‘plamlari yaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори // И.А.Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси 9-сессиясида сўзлаган нутқи, 1997 йил 29 август. –Т.: Маърифат-мададкор, 2002. – 62 б.

2. Лернер Я. Дидактические основы методов обучения Текст / И.Я.Лернер. – М. : Педагогика, 1981. – 186 с.

3. Хусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: пед. фан. докт. дисс. автореф. –Т.: ТДПУ, 2006. – 262 б.

ADABIYOT DARSLARIDA LUG‘AT BILAN ISHLASH

Iroda Ishonxanova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU mustaqil izlanuvchisi

Ma’lumki, umumiy o‘rta ta’lim maktabi adabiyot darslarida mumtoz adabiyot namunalari keng o‘rin berilgan. Lekin bu namunalarni o‘rganish o‘quvchi va hatto o‘qituvchi uchun har doim ham oson kechavermaydi. Bu qiyinchilikni ma’lum darajada bartaraf etish hamda o‘quvchilarni adabiyot faniga chuqurroq qiziqtirish uchun badiiy asar mohiyatini bolalarga to‘liq yetkazib berishimiz zarur. Bu yo‘lda bizga

o‘qitishning ilg‘or usullari yordamga keladi. Shunday usullardan biri – lug‘at bilan ishlash usulini o‘zimiz uchun asos qilib olishimiz kerak, deb hisoblaymiz. Bu usulning qator afzalliklari bor:

o‘quvchi lug‘at boyligini o‘stiradi;

o‘quvchi nutqini go‘zallashtiradi;

adabiyotga bo‘lgan qiziqishni oshiradi; mumtoz adabiyot namunalarini mutolaa qilishga qiziqish uyg‘otadi;

o‘quvchi asar matnini tahlil qilishni o‘rganadi;

Lug‘at bilan ishlashda quyidagi manbalardan foydalanishni maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz:

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”. 5 jildli. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.

“Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at”. – Toshkent: Fan, 1993.

Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug‘ati. –Toshkent: Sharq, 2010.

Bu manbalar o‘quvchilar topishi mumkin bo‘lgan lug‘atlardir. Shu sababli avval chop etilganlari haqida ma’lumot keltirmadik.

8-sinfda Muhammad Fuzuliy ijodiga bag‘ishlangan mavzular o‘tilayotgan paytda lug‘at bilan ishlash usulidan foydalanish mumkin. O‘quvchilarni qiziqtirish uchun g‘azal matnidagi ba’zi izohtalab so‘zlar tushirib qoldirilgan matn tarqatiladi. Shu g‘azal asosida aytiluvchi qo‘shiq (yoki qo‘shiqdan parcha) eshittiriladi. O‘quvchilar qo‘shiqni tinglash barobarida so‘zlarni yozib boradilar. Keyin esa bu so‘zlarning ma’nolari tushuntiriladi. Masalan, “So‘r” radifli g‘azalini olamiz (bu g‘azal bilan aytiladigan qo‘shiq “Bayot 1” deb ataladi):

“So‘r” radifli g‘azal

Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o‘landan so‘r,

_____ zavq shavqin tashnayi diydor o‘landan so‘r.

Labing sirrin kelib guftora mandan o‘zgan so‘rma,

Bu pinhon nuktani bir voqifi _____ o‘landan so‘r.

Ko‘zi yoshlularing holing na bilsun mardumi _____,

Kavokib sayrini shab to sahar bedor o‘landan so‘r.

Xabarsiz o‘lma _____ ko‘zlaring javrin chekanlardan,

Xabarsiz mastlar bedodini hushyor o‘landan so‘r.

Qo‘shiqni tinglash barobarida o‘quvchilar tushirib qoldirilgan so‘zlarni topadilar va o‘z joyiga yozib qo‘yadilar.

“So‘r” radifli g‘azal

Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor o‘landan so‘r,

Ziloli zavq shavqin tashnayi diydor o‘landan so‘r.

Labing sirrin kelib guftora mandan o‘zgan so‘rma,
 Bu pinhon nuktani bir voqifi asror o‘landan so‘r.
 Ko‘zi yoshlularing holing na bilsun mardumi g‘ofil,
 Kavokib sayrini shab to sahar bedor o‘landan so‘r.
 Xabarsiz o‘lma fatton ko‘zlaring javrin chekanlardan,
 Xabarsiz mastlar bedodini hushyor o‘landan so‘r.

Tushirib qoldirilgan so‘zlar qanday ma‘noni anglatishi haqida suhbat yuritiladi:

Zulol – toza, tiniq
 Asror – sirning ko‘pligi
 G‘ofil – bexabar
 Fatton – sho‘x

Bundan tashqari, o‘quvchilar bilan “Xotira mashqi” o‘tkazish mumkin. Bunda g‘azaldagi atamalardan bir nechtasi aytiladi. O‘quvchilar xotiralarida qolgan so‘zlarni yozishadi. Albatta, bunda ham so‘zlar izohiga e‘tibor beramiz.

Xotira mashqi uchun so‘zlar:

**Diydor Fatton Xarobot Darmon Bevafo Moyil Guftora
 Asror Pinhon G‘ofil Shaydo Nukta Voqif Hushyor Xummor**

Darsliklarni varaqlaganda, shu narsaga amin bo‘ldikki, nafaqat mumtoz adabiyotga oid asarlarni o‘rganishda, balki zamonaviy asarlarni o‘rganishda ham lug‘atlardan foydalanishimiz mumkin ekan. Biz misol tariqasida sevimli adibimiz G‘afur G‘ulomning mashhur “Shum bola” qissasidan parchalarni oldik (6-sinf adabiyoti).

Parchadagi ba‘zi so‘zlarni izohi bilan jadvalga joylashtirdik. O‘quvchilarni fikrlashga undash uchun izohlar o‘rnini almashtirdik. Bolalar so‘zning izohini topib belgilashlari kerak bo‘ladi. (misol tariqasida ikkita shartli chiziq chizildi)

Asarda keltirilgan iboralarni ham bir jadvalga joylashtirdik. O‘quvchilar o‘zlari iboralarga izoh yozishlari kerak:

IBORALAR	IZOHI
Oshtomog‘iga yuradigan	
Onangni Uchqo‘rg‘onda ko‘rasan	
Harom o‘lmoq	
Berdisini aytmoq	
O‘pkasini uzib yubormoq	

Yuqoridagi vazifalar o‘quvchilarga berilgandan so‘ng, albatta, to‘g‘ri javob berilgan jadvallarni ham taqdim etishimiz zarur:

SO‘ZLAR	IZOH
Ayyuhannos	Dod-faryod, hayqiriq
Arosat	Shovqin-suron, to‘polon
Chalpak qilmoq	Ikkala qo‘l va oyog‘idan ushlab ko‘tarmoq
Kazzob	Yolg‘onchi, aldoqchi, firibgar, munofiq
Qo‘ndoq	Qushlar tunashi uchun o‘rnatilgan dor
Qo‘noq	Biror kimsaning uyiga tushgan yo‘lovchi
Qimron	Tuya suti
Shinavanda	Biror narsaga ixlosmand, muxlis
Chakmon	Jun matodan tikiladigan uzun to‘n

Shu o‘rinda bir mulohazani aytib o‘tish lozimki, “Onangni Uchqo‘rg‘onda ko‘rasan” iborasi Said Ahmadning “Ufq” romanida juda chiroyli tarzda izohlab berilgan. Shu izoh haqida gapirib bersak, o‘quvchilar qiziqib, asarni to‘liq o‘qib chiqsa, ajab emas.

Umid qilamizki, yuqoridagi tarqatma va jadvallardan foydalanganimizda, o‘quvchilarning lug‘at boyligi ozgina bo‘lsa ham oshadi, adabiyotga qiziqishi kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov S. va boshq. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 6-sinf o‘quvchilari uchun darslik. – T.: Ma‘naviyat, 2017.
2. S.Olim va boshq. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinf o‘quvchilari uchun darslik. – T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2019.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
4. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at. – T.: Fan, 1993.
5. Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug‘ati. – T.: Sharq, 2010.

“O‘QISH KITOBI” DARSLIKLARIDAGI O‘QUV MATERIALLARINI MUAMMOLI TA’LIM ASOSIDA O‘RGANISH

Intizor Raximova,
mustaqil izlanuvchi, 1-kurs

Umumiy o‘rta ta’limning dastlabki bo‘g‘ini vakillari sanalmish kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar qalbiga adabiyot va nafosatni jo qilish, she'riyatning tarovatini teran nigohlarida aks ettirish, ularni mustaqil va mantiqiy mulohaza yuritishga yo‘naltirish uchun sa'y-harakatni, albatta, o‘qitishning ilk kunlaridan boshlash maqsadga muvofiqdir. O‘qitishning boshqa bir qator metodlari qatori boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarini muammoli ta’limdan foydalangan holda tashkil etishda har bosqich o‘quvchilari yoshi va intellektual imkoniyatlariga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, boshlang‘ich sinflarda muammoli ta’limdan foydalanish masalasida bir qator tadqiqotlar olib borilgan: L.V.Bulanova, I.V.Velichko, O.M.Voronina, M.P.Voyushina, Y.V.Gadustova, M.R.Lvov, V.G.Goretskiy, O.V.Sosnovskaya, Y.L.Melnikova kabi mutaxassislar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar metodika ilmida ma’lum. Ular tomonidan yaratilgan tadqiqot natijalarida bolaning bilim olish yo‘lidagi erkinligi, mehnati bilimlarni o‘zlashtirishda katta samara berishi ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan.

O‘zbekiston ta’lim tizimida muammoli ta’limdan maksimal darajada foydalanishni tashkil etish davr talabidir.

Boshlang‘ich sinflarda muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanilgan darslarda aqlning moslashuvchanligi, tafakkurning chuqurligi, mustaqilligi va mantiqiyliги ta'minlanishiga, ijodiy tasavvurning rivojlanishiga, mustaqil faoliyatga va har qanday holatga tanqidiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirishga ham erishiladi.

Kichik yoshdagi o‘quvchilar bilan ishlaganda muammoli ta’lim texnologiyasidan tizimli ravishda foydalanish ularda fikrlash, ya’ni o‘z tafakkur faoliyatini boshqarish, maqsadni belgilash va unga erishish yo‘llarini aniqlash madaniyatining dastlabki belgilarini ham shakllantiradi.

Pedagogik adabiyotlarda muammoli ta’limga ta’rif berish borasida bir qancha qarashlar mavjud. V.Okonning fikricha, muammoli ta’lim: “muammoli vaziyatlarni tashkil etish, muammoning shakllanishi, bu jarayonda o‘quvchilarga ko‘rsatiladigan yordam, mummo yechimining

tekshirilishi, bu jarayonda o'zlashtirilgan bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash singari faoliyatlar yig'indisidir" [1; 28-b.].

Bundan tashqari, N.F.Talizinaning ta'kidlashicha, muammoli o'qitish kechimi: "muammoni ko'rish, masalalar qo'yish, o'z farazlarini ilgari surish, tushunchalarga aniqliklar kiritish, kuzatish, xulosalar chiqarish, taqqoslash va o'quv materialini tartibga solish, matn bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bularning barchasi, o'z navbatida bilimlarni mustaqil egallash va bu jarayonda muvaffaqiyatlarga erishish asosidir" [2; 78-b.].

O'zbek milliy pedagogikasida Q.Husanboyeva adabiyot darslarida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish borasida muammoli ta'limdan foydalanishga alohida e'tibor qaratgan va unga quyidagicha ta'rif bergan: "...o'quvchilar o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilimlarni o'zlarining ishtirokida, ularning kuchi, tafakkuri, bilimi va mehnati bilan o'zlashtirilishini ta'minlash maqsadida bolalar oldiga muammo shaklida qo'yish yo'li bilan amalga oshiriladigan o'qitish jarayonini muammoli ta'lim deb atash mumkin" [4; 214-b.].

Tadqiqotchi L.Uzoqovanning fikricha esa: "Muammoli ta'lim – bu o'qituvchining o'quvchilarni ketma-ket muammoli vaziyatlar tizimini oldindan o'ylab qo'yilgan yaratish yo'li bilan muammoli o'rgatish shartlarini ta'minlash va ularni o'quvchilar tomonidan yechish jarayonini boshqarish bo'yicha faoliyatidir" [3; 46-b.].

Demak, boshlang'ich sinflar o'qish darslarida muammoli ta'lim elementlaridan foydalanishning o'quvchi intellektini ko'tarish, ijodiy qobiliyatini oshirish, uning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, har xil ijodiy faoliyat turlaridan foydalanish, bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llash va o'quv muammolarini hal etish, ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish va rivojlantirish, ijtimoiy, axloqiy ehtiyojlarini shakllantirish kabi xususiyatlarini ham ta'kidlab ko'rsatish joizdir.

Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida o'qish darslari misolida muammoli o'qitish metodikasiga tayanish tashkil etiladigan muammoli vaziyatlarni darsliklardagi o'quv materiallari misolida amaliy namunalar asosida ko'rib chiqilishini taqozo qiladi. Shu bois quyida boshlang'ich sinflar "O'qish kitobi" darsliklaridan o'rin olgan ba'zi bir o'quv materiallari misolida muammoli ta'limdan foydalanish holatini ko'rib chiqsak.

Birinchi sinflarda muammoli o'qitish nasriy matn asosida quyidagicha tashkil etish mumkin. "O'qish kitobi" darsligining "Xalq o'giti – baxt kaliti" ruknida "Rostgo'y bola" nomli ertak taqdim etilgan [5;

63-b.]. Mazkur ertakni muammoli shaklda o'rganish uchun bolalarning ruhiyatiga ta'sir qiladigan, ularni boshqacharoq o'ylashga yo'naltiradigan masalalarni muammo shaklida qo'yish mumkin: **“Bolalarni yolg'on gapirishga va noto'g'ri xatti-harakatga majbur qilgan podsho”** yoki **“O'z ota-onasidan voz kechib podshoga o'g'il bo'lishni istagan bolalar”**. Ma'lumki, ertakda rostgo'y bola ijobiy qahramon qilib olingan va undagi mana shu fazilatni bolalarga “yuqtirish” nazarda tutilgan. Lekin unda shunday ikkita salbiy xislat ham mavjudki, o'qituvchi ularga ham tarbiyalanuvchilari diqqatini qaratishi, birgalikda bu masalalarning yechimini topishlari maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchi avval o'quvchilarga matnni ifodali qilib o'qib eshittiradi. So'ngra o'quvchilar diqqatini matn mazmuniga qaratish maqsadida ularga quyidagi bir qator savollar bilan murojaat qiladi:

1. Ayting-chi, ertakning bosh qahramonlari kimlar?
2. Podshoh odamlarga xos bo'lgan qaysi fazilatni yaxshi ko'rarkan, nima deb o'ylaysiz? Siz buni qanday bildingiz?
3. Nima deb o'ylaysiz, Sizningcha podshoh yaxshi odammi yoki rostgo'y bolakaymi? Nega shunday deb o'ylashingizni asoslang.
4. Ayting-chi, bola nima uchun yig'lab turgan edi? Guli unib chiqmay qolgani uchunmi yoki podshoga o'g'il bo'lolmay qolgani uchunmi? Nega shunday deb o'ylaysiz?
5. O'ylab ko'ring-chi, nega hamma bolalar podshohga o'g'il bo'lishni istashyapti? Ular nima uchun shunday qilishyapti deb o'ylaysiz? va h.k.

Asar tahlili jarayonida o'quvchilar o'z imkoniyatlari doirasida bu savollarga javob beradilar. Javoblar qanday bo'lishini taxminan tasavvur qilish mumkin, albatta, lekin ular qanday bo'lishidan qat'i nazar o'quvchilardan fikrlarini asoslashni talab qilish lozim. Chunki adabiy ta'lim uchun fikrning mustaqilligi qanchalik ahamiyatli bo'lsa, uning asoslanishi, dalillar bilan isbotlanishi mustaqil fikrdan, shaxsiy munosabatdan kam emas. O'quvchilar matnning mohiyatiga yaxshilab kirib olganlaridan so'ng o'qituvchi ularning oldiga yuqorida keltirilgan birinchi muammoli masalani qo'yadi: **“Bolalarni yolg'on gapirishga va noto'g'ri xatti-harakatga majbur qilgan podsho”**. O'quvchilar endi bu masala ustida bosh qotirishlari, fikrlashlari, o'z xulosalarini chiqarishlari kerak bo'ladi. Ular, avvalo, podsho (mamlakat hukmdori, katta odam bo'lishiga qaramay) bolalarni nima uchun aldaganini, buning yaxshi yoki yomon ekanligini aniqlab olishlari kerak bo'ladi. Undan keyin mamlakat podshosi gapirgan yolg'onning fuqarolari faoliyatiga qanday ta'sir

qilganini o‘ylab ko‘rishlari ham o‘quvchilarni mazkur muammoning yechimi sari yetaklaydi. Ular podshoning nima uchun yolg‘on tutum qilganini asoslashga, uni oqlashga urinishadi. Vaziyat qanday kechishini dars jarayoni ko‘rsatadi, albatta, lekin hamkorlar – o‘qituvchi va o‘quvchilar to‘g‘ri yo‘ldan adashmasliklari, muammoning yechimini birgalikda topishga harakat qilishlari maqsadga muvofiqdir. Vaqt qolsa, o‘qituvchi ikkinchi muammoni: **“O‘z ota-onasidan voz kechib podshoga o‘g‘il bo‘lishni istagan bolalar”** haqidagi masalani o‘rtaga tashlaydi. Aksi bo‘lsa, bu muammoning yechimini uyga vazifa qilib berish ham mumkin. O‘quvchilar chiroyli gullarni o‘stirgan bolalarni ham, guli unib chiqmagani uchun yig‘lab o‘tirgan rostgo‘y bolani ham tushunishga urinib ko‘rishlari, bunga o‘z munosabatlarini bildirishlari boshlang‘ich sinflar adabiy ta‘limi maqsadiga muvofiq bo‘ladi. Ertak matnidan ko‘rinib turibdiki, juda ko‘p bolalar noto‘g‘ri ish qilishdi, yolg‘on xatti-harakat qilishdi. Ularni bunga nima majbur qildi? Podshoning bolasi bo‘lish ular uchun shunchalar muhimmi? Rostgo‘y bola ham shuning uchun yig‘ladimi? Buning sababi nimada? O‘quvchilar shular haqida o‘ylab ko‘rishlari kerak. Tashqaridan qaraganda bu savollar birinchi sinf o‘quvchilari uchun qiyindek tuyuladi. Balki o‘quvchilar orasida bu savollarga u yoki bu darajada javob beradiganlari bo‘lar, agar birorta ham jo‘yali javob bo‘lmagan taqdirda ham ular bu haqda o‘ylaydilar. Ota-onalari, uydagi boshqa kattalar ham bu haqda o‘ylaydilar. Bu masala o‘quvchining ko‘nglida qoladi. Qachonlardir unga javob ham topadi. Muhimi, o‘quvchilarning fikr kishisi bo‘lib shakllanishidir.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida muammoli ta‘limdan samarali foydalanish uchun yana shuni ham aytish mumkinki, yuqorida 1-sinflar **“O‘qish kitobi”** darsliklaridagi o‘quv materialini misolida taqdim etilgan dars ishlanmalari namunasi muammoli ta‘limning **“Izlanuvchi suhbat”** metodi asosida amalga oshirilgan. Muammoli ta‘limning mazkur metodidan o‘qitishning an‘anaviy metodlarida o‘qituvchi ma‘ruzalarini tinglayverishdan qanoatlanmaydigan, uning savollariga o‘zi mustaqil javob berishni istaydigan o‘quvchilar uchun qo‘l keladi. Muammoli ta‘limga xos bo‘lgan izlanuvchi suhbatlar metodi uning eng keng tarqalgan metodi bo‘lib juda ko‘p mavzularni o‘zlashtirishda, hatto yuqori sinflarda ma‘ruza-darslarni tashkil etishda ham qo‘l keladi. O‘quv materialining qiyinlik darajasiga qarab o‘quvchilar izlanuvchanlik faoliyati darajasi: mavzuni yaxshi o‘zlashtirganlar va mavzu mohiyatiga unchalik chuqur kirolmagan o‘quvchilarning chiqishlari, qo‘yilgan savollarga butun sinf tarbiyalanuvchilarining yozma javoblarida ham har xil shaklda namoyon

bo'ladi. Mazkur jarayonda faol qatnashadigan o'quvchilardan tashqari o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham muammoli savollarga mustaqil ravishda javob berishga tirishadilar. Ammo izlanuvchi suhbatlarning barcha usullaridan ma'lum izchillikda foydalana olmasliklari nazarda tutilgan holda shu yo'nalishdagi adabiyotlarda bu metod qisman izlanuvchi metod ham deb ataladi. Bu metod qanday nomlanishidan qat'i nazar uning vazifasi o'quvchilarga faqat dalillarni umumlashtirishni emas, balki bu tayanch bilimlarni amalda qo'llashning ko'nikma va malakalarini shakllantirish, ularni rivojlantirish, bu borada hayotiy tajribalarga egalikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv materialining o'qituvchi tomonidan muammoli savollarni qo'yish tarzida boshlanishi vaziyatga qarab an'anaviy metodlardan foydalanilishi mumkin. Bu aralash metod sanalib muammoli ta'limning dastlabki bosqichlarida keng foydalaniladi.

Izlanuvchi (evristik) suhbatlar (qisman izlanuvchi metod) o'qituvchining mantiqiy savollar berishi va o'quvchilarning ham aynan mantiqiy javoblarining o'zaro aloqadorligini nazarda tutadi. Bu jarayonda ham maqsad, albatta, o'quvchilar uchun yangi bo'lgan muammoning yaxlit yoki qisman yechimidan iboratdir.

Boshlang'ich sinflar o'qish darslari jarayonida – badiiy adabiyot namunalari ustida ishlashdagi muammoli vaziyatlarda o'quvchilar tafakkuri va faoliyatining mustaqilligi darajasini aniqlash hamda uni munosib baholay bilish uchun o'qituvchining o'zidan mustaqil fikr, shaxsiy munosabat sohibi bo'lish taqozo etiladi. Chunki o'z mustaqil qarashlariga ega bo'lmagan o'qituvchi tarbiyalanuvchilarini mustaqil fikrlashga, muammoli vaziyatlardan oqilona va bilimdonlik bilan chiqib keta olishga, o'quv muammolarini yechishga o'rgatolmaydi, ularni baholashga ham qodir bo'lolmaydi.

O'zining mustaqil nuqtayi nazari bo'lmagan pedagog o'rganilayotgan obyektidagi o'quvchilardan mustaqil mulohaza yuritishni talab etadigan detallarni ilg'amaydi. Ularni mantiqli, muammoli savol yoki topshiriqqa aylantira bilmaydi. Natijada o'quvchilar badiiy asar mazmunini qayta hikoyalab berish, tasviriy san'at asarlari bo'yicha ko'rinib turgan yuzaki tasvirlarni sanash bilan chegaralanadilar va ularning aqliy, ma'naviy taraqqiyoti ham shu atrofda bo'laveradi. To'g'ri, boshlang'ich sinflar dastlabki bo'g'ini (1-, 2-sinf) adabiy ta'limida o'quvchilarning har xil janrlardagi asarlarning tashqi, yaqqol ko'rinib turgan jihatlarini ajratib aytib berishlari yetarli hisoblanishi mumkin. Dasturlarning asosiy talabi ham shu. Lekin har sinfdan hammaga

o'xshamaydigan, o'z intellektual imkoniyatlari bilan atrofdagilardan ajralib turadigan o'quvchilar bo'ladi. Gap shundaki, uzluksiz ta'limning dastlabki bosqichidan boshlab iqtidorli o'quvchilarning o'rtachalar qurboni bo'lib ketishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bu bosqich adabiy ta'limini imkon qadar yuqori saviyada tashkil eta olishi, uni tarbiyalanuvchilarning har biri o'z imkoniyatlari darajasida qabul qilishlari uchun zaruriy shart-sharoitni yarata bilishi maqsadga muvofiqdir.

Demak, boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida muammoli o'qitish texnologiyasidan foydalanish borasida aytilgan nazariy-metodik qarashlar va tavsiya etilgan amaliy ish turlari mazmunidan kelib chiqqan holda, boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida o'quvchilarni mustaqil mulohaza yuritishga yo'naltirish, ijodiy fikrlashga o'rgatish, ta'lim oluvchilardagi izlunuvchanlik qobiliyatini oshirib borish, adabiy ta'lim samaradorligini ta'minlash, ayni zamonda, o'quvchilar ma'naviyatini sog'lomlashtirish maqsadida qo'llanilishini ta'minlash ta'lim samaradorligini ta'minlovchi omil bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Оконь В. Основы проблемного обучения. – Москва: Просвещение, 1998.

2. Талызина Н. Ф. Формирование познавательной деятельности младших школьников. Книга для учителя. – Москва: Просвещение, 1997.

3. Узоқова Л. П. Махсус фанларни муаммоли ўқитиш технологияси. – Т.: Фан, 2013.

4. Хусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-метodik асослари. Пед. фан. докт. ... дисс. – Т., 2007.

5. G'afforova T. va boshq. O'qish kitobi. 1-sinf uchun darslik. – Т.: Sharq, 2017.

BOLALAR ADABIYOTI – SO‘Z SAN‘ATI VA TARBIYA VOSITASI

Azamat Xudoyberganov,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
Oliy adabiyot kursi magistranti

Bolalar adabiyoti so‘z san‘ati va tarbiya vositasidir. Kichkintoylar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ulaming yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos, kitobxonlar qalbida o‘y-fikrlar uyg‘otadigan, yorqin

obrazlarga boy, yuksak g'oyalarga, ulkan va porloq ishlarga ilhomlantiradigan bolishi zarur. Eng muhimi, mavzular tushunarli, sodda va qiziqarli tilda ifodalanishi kerak. Ustoz Tursunboy Adashboyevning bir gapi bo'lardi, "bolalar uchun nimadir yozmoqchi bo'lsang avvalo, kim uchun yozayotganingni unutma! Aldagani bola yaxshi bo'lib qolmasligi kerak. Yozuvchi-shoirlikda eng qiyini – bolalar uchun yozish! Chunki bu bolalarcha beg'uborlikni talab qiladi. Ijodkor bolalarcha o'ylamasa, fikrlamasa, hamma narsaga bolacha nigoh bilan qaramasa, demak, u o'zini boshqa sohada sinab ko'rgani durustroq. Negaki, bu juda qiyin narsa. Shuning uchun ham bolalar ijodkorlari, ijodkor bo'lganda ham yaxshi, sara ijodkorlar nihoyatda kam".

"G'uncha" jurnalida ishlab yurgan paytlarim ustozning bu gaplari naqadar haqiqatligiga ko'p bor guvohi bo'lganman, his qilganman. Kichkintoylarning dunyosi, ularning biz kattalardan farqli jihatlarini o'rganishga harakat qildim. Keyinchalik bu aynan shu sohada ijod qilishimda nihoyat darajada qo'l kelgan. Xulosalarim shu bo'ldiki, bolaga mehr, ezgulik, umuman, insondagi jamiki ezgu fazilatlar, boringki, dunyo haqida tasavvur ham, avvalo, unga ona allasi orqali singdirilar ekan. Undan keyin esa ota-ona, bobo yoki buvilari tomonidan aytiladigan ertaklar, hikoyalar, maqol yoki shunga o'xshash narsalar o'rin oladi. Balog'at yoshi davriga yetganda esa uning uchun dastlabki haqiqiy hayot boshlanadi. Negaki, bu davr bolalari maktabga boradigan, o'zlari mustaqil ravishda ozmi-ko'pmi kitoblar o'qiydigan darajada bo'ladilar.

1. Bu davr bolalariga o'qish uchun tavsiya etiladigan ertaklarning ham ko'p qismi ona-Vatan, tabiat, axloq-odob, mehnat, o'qish haqida bo'lishi talab etiladi. Shu o'rinda ertaklarning samaraviy ta'siri haqida ham gapirib o'tish joiz. "Zumrad bilan Qimmat", "Oltin tarvuz", "Dehqon bilan ayiq", "Non va tilla" (arab xalq ertagi), "Haqqush" (tojik xalq ertagi), "Danak" (qirg'iz xalq ertagi), "Qizg'anchiq Pak" (koreys xalq ertagi), "Kuch va topqirlik" (latish xalq ertagi), "O'tinchi yigit", "Bo'ri bilan echki" singari ertaklarning tarbiyaviy jihatdan ahamiyati katta, kichik maktab yoshidagi bolalar sevib o'qiydigan asarlar sirasiga kiradi. Bu yoshdagi bolalarga ko'proq ig'vo, g'iybat, munofiqlikdan yiroq bo'lgan ertaklar yoqadi. Negaki, yaxshi, mukammal tarbiya olgan bola boshqalarga hech bir ozor yetkazmasligini, takabburlik qilmasligini, hech kimga haqorat ko'zi bilan qaramasligini, rostgo'y bo'lishini kichkintoylar avvalgi davr bolalar kitobxonligida tavsiya etilgan ertaklar orqali bilib olishgan. Demak, u o'zidan kattalarga hurmatli, kichiklarga shafqatli va marhamatli, kular yuzli, shirin so'zli va xushmuomala bo'ladi. Va'dasiga vafo qiladi,

omonatga xiyonat qilmaydi. Ig‘vo, g‘iybat munofiqliqdan o‘zini saqlaydi. Ota-onasining hurmatini bajo keltiradi. Ulami o‘zidan rozi bo‘lishlari uchun harakat qiladi.

Ertaklar yaxshilikka yetakar, degan so‘zning mohiyatini ham shundan bilib olish mumkin. Bobo-buvilarimiz yoshligimizdan buni qon-qonimizga singdirib bizga o‘rgatib borgan. Ertaklarda yaxshilik, ezgulik kabi ijobiy xislatlar doimo uyg‘unlashgan bo‘ladi.

“Zumrad bilan Qimmat” ertagidagi Zumrad xuddi shunday xislatli obrazlardan biridir. Zumrad! Xalq orzu qilgan, istagan, e‘zozlagan qizlarning yorqin timsoli. Bugungi qizaloqlar Zumraddan qancha ibrat olishsa, Zumrad kabi chiroyli, odobli, muloyim, aqlli, mehnatsevar bo‘lishsa arziydi. Qarang, yo‘lda lolalar, rang-barang gullar uni ko‘rib boshlarini egib, unga salom berarkanlar. Zumrad maysalar ustida o‘tirib dam olganida, gullar uni olqishlar, bulbullar quvonib, unga qo‘shiqlar aytib berar ekan. Xo‘sh, bunday maqtov, bunday e‘zoz qaysi qizaloqqa yoqmaydi! Hammaga yoqadi. Bunga muyassar bo‘lish uchun esa, tinimsiz mehnat qilish, kattalaming, ota-onalaming, muallimlaming o‘git-nasihatlariga qattiq amal qilish kerak. Shundagina xuddi Zumrad kabi behisob boylig-u shon-sharafga, hurmatga muyassar bo‘lish mumkin.

Zumrad aslida kim? U bir o‘gay ona qo‘lida so‘kish, qarg‘ish eshitib, bir burda nonga muhtoj bo‘lib yurgan qizcha. Zumrad el sevadigan darajada chiroyli, odobli, muloyim, aqlli. Uni bir ko‘rgan, bir suhbatlashgan kishi yana ko‘rsam, suhbatlashsam deb orzu qiladi. Zumrad otasini, odamlarni yaxshi ko‘radi, hayvonlami, tabiatni, maysa-yu o‘tloqni sevadi, ularga xizmat qiladi. Hammasiga muloyim boqib, qo‘li bilan silab-siypalab erkalaydi.

Qimmat obrazi hech narsada yo‘q, ishlamay tishlashga o‘rganib qolgan, injiq, dangasa va bedavo farzandni eslatadi. Bizda, ayniqsa, ertaklarda o‘zidan kattalami hurmat qilish va keksalami e‘zozlash, odamoxunlik va mehnatsevarlik, iboli va hayolilik asosiy masalalardan biri hisoblanadi 2]. O‘zbek xalq ertaklaridan yana biri “O‘tinchi yigit bilan sher”da ham xuddi shu xislatlarni ko‘rishimiz mumkin. Ertakdagi yigit, birinchidan, mehnatkash; ikkinchidan, qo‘rqmas, dovyurak; uchinchidan, ishbilarmon va tadbirkor. Voqea oddiy va sodda. O‘tinchi dalada o‘tin terib yurganida uning oldiga bahaybat sher kelib sendan kuchliman, jasoratliman deb unga do‘q qiladi. O‘tinchi ham o‘ziga pishiq va puxta. Sher yigitni kurashga, bellashishga chaqiradi. Ammo inson tadbirkor – kuchinning yarmi uyda qolib ketibdi, sen shu yerda turib tur, men uni uydan olib kelaman deya hiyla ishlatadi, tadbirkorlik qiladi: – Sen qochib

ketma! – debdi. Sher unga: – Yo‘q, qochmayman, sherning gapi bir, – debdi. Yigit: – Yo‘q, senga ishonmayman, seni bog‘lab ketaman, – debdi. Sher: “Bog‘layqol!” deb o‘zini bog‘latibdi. Yigit sherni mahkam bog‘labdi. Toldan yaxshi bir tayoq qilib, olib kelib gursillatib sherni ura boshlabdi. Sherning: “Jon odamzod, meni urmang, endi odamzodga tegmayman!” deb yalinganiga ham qaramay uni uraveribdi. O‘tinching bunday ishi yosh kitobxonni mudom qo‘rqmas, sheryurak bo‘lishga chorlayveradi. Bu yoshdagi bolalar dov-daraxtlar ekish, uni parvarish qilishda kattalarga dastyor-ko‘makchi. Ko‘pincha o‘zlari ham bog‘bonchilik ishlariga berilib ketishadi.

Qisqa qilib aytganda ertaklarning kelajagimiz egalari hayotida o‘rni nihoyatda katta. Ularni ko‘proq o‘zlari ertaklar to‘qishi, fikrlashlarini rag‘batlantirish zarur. 3. Ba‘zan shunday bo‘ladiki, ba‘zi paytlarda ulardan ajoyib, kutilmagan g‘oyalar tug‘ilib qoladi va ko‘pincha buni o‘zlar ham bilmaydi. Bunday ish, mas’uliyat ko‘proq ustozlar, tarbiyachilardan talab qilinishi, ular darslarda ana shunday topshiriqlar, uyga vazifalar berishlari maqsadga muvofiq. Farzandlarimiz uchun har birimiz mas’ulligimizni hamisha his qilib, sezib turishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2003.
2. Safarov O. O‘zbek bolalar poetik folklori. – Toshkent: 1985.
3. Suyumov. Kichkintoylar adabiyoti. – Toshkent, 1962.

ADABIYOTDA VULGAR SOTSIOLOGIZMNING NAMOYON BO‘LISH OMILLARI

Abdug‘ani Nasriddinov,
ToshDO‘TAU 2-bosqich magistri

Har bir millat adabiyoti, unga oid asarlar hamisha tahliliy mutolaa qilinadi. Adabiyot fan sifatida aniqlik kasb etgan usullarga tayanadi. Shuningdek, dunyo adabiyotshunosligida adabiyotshunoslikning bir qator metodlari farqlanadi. Adabiyotshunoslikda sotsiologik metod birlamchi metodlardan hisoblanadi. Shu jumladan, o‘zbek adabiyotida ham.

Sotsiologik metod negizida adabiyotni ijtimoiy-sotsial voqelikka bog‘liq holda o‘rganish prinsiplari yotadi. Adabiyotni bu metod vositasida tadqiq etishda asosan jamiyatdagi ijtimoiy hodisalar bilan bog‘lanish hollari yetakchi o‘rinda turadi. Shu sababli adabiyotshunoslikda adabiyot va sotsiologiya tushunchalari juda ko‘p ishlatiladi. Ikkinchi tomondan bu

atama tor ma'noda adabiyotshunoslik va sotsiologiya fanlari sohasida badiiy adabiyotning jamiyatdagi funksiyasi tarzida ham qo'llanadi.

Badiiy adabiyot va umuman, san'atning jamiyat bilan o'zaro munosabatlari masalasi juda qadim zamonlardayoq o'rta tashlangan bo'lsa-da, adabiyotning ijtimoiy mohiyati va shu asosida o'rganish-tadqiq etish metodi XIX asr o'rtalariga kelib yuzaga chiqdi.

Sotsiologik metod asoslari uchun tosh qo'yar ekan I.Ten san'atning eng asosiy predmeti jamiyat hayotida mavjud bo'lgan insonlarning xarakteridir, deya hisoblaydi. U o'z prinsiplarini " irq, muhit va davr-vaqt" tushunchalari vositasida izohlaydi. San'at asarini qaysidir irq-xalq-millatga mansubligini, ma'lum bir muhit va muayyan zamonda yaratilishini alohida ta'kidlaydi.

Badiiy adabiyotni sotsiologik nuqtayi nazaridan tadqiq etish markscha sotsiologiya bilan ko'p jihatlardan bog'liq. Ijtimoiy fan tarixidan o'rin olgan marksistik sotsiologiyaning metodologik asosini tarixiy materializm tashkil qiladi. K.Marks va F. Engelsning shogirdlari Frans Mering (1846–1919 nemis), fransuz sotsialisti Pol Lafarg (1842–1911), Rossiya muhitida esa Georgiy Valentinovich Plexanovlar (1856–1918) bu yo'nalish tariqqiyotida o'zlarining hissalarini qo'shganlar.

G.V.Plexanov "Karl Marks va Lev Tolstoy", "Yana Tolstoy to'g'risida", "Vassarion Grigorevich Belinskiy", "Belinskiy, Chernishevskiy va Pisarev" nomli maqolalarida o'zining adabiyotga qarashlari qat'iy sotsiologik nuqtayi nazaridan ekanini bayon etadi.

V.G.Belinskiy to'g'risida yozar ekan, o'sha tanqidchi adabiy hodisaga sotsiologik nuqtayi nazardan emas, balki faqatgina publitsistik nuqtayi nazardan qaraydi, deya bu xususiyatni kamchilik qilib ko'rsatadi. "Belinskiyning keyingi yillarda yozgan maqolalarida adabiy tanqidchiligimiz bajarish kerak bo'lgan qator rejalar xususida fikr yuritilganki, bu vazifalar faqatgina sotsiologik nuqtayi nazarda mustahkam turib olgandagina bajarilish mumkin". Bu ko'chirmaning o'ziyoq Plexanovning mazkur metodga naqadar oshuftaligini ko'rsatadi.

Garchi hozirga kelib markscha-lenincha falsafa negizidan unib chiqqan markscha sotsiologik metod tanqidga uchragan bo'lsa-da, uning muayyan tarixiy sharoitda yetakchi bo'lganini – u sun'iy yoki tabiiy bo'lishidan qat'i nazar – inkor etib bo'lmaydigan faktdir. Shu ma'noda sotsiologik metodning sovet davri xususida ham fikrlashish, ham muayyan ibratli xulosalar chiqarish mumkin.

Sir emaski, sovet adabiyotshunosligi sotsiologik metod bilan qurollanar ekan, K.Marks va F.Engelsning realizm haqidagi, umuman,

adabiyot hamda madaniy meros to'g'risidagi qarashlariga tayandi. V.Leninning qator maqolalari, xususan, adabiyotning partiyaviyligi borasidagi, shuningdek, L.N.Tolstoy va A.I.Gersen to'g'risidagi maqolalari adabiyotshunoslik uchun metodologik tayanch vazifasini o'tadi.

Anatoliy Vasilevich Lunacharskiy (1875–1933) marksist o'laroq san'at, adabiyot sohasiga o'sha nazariy qarashlari olib kiradi. Badiiy adabiyot sohasida markscha-lenincha falsafani targ'ib-tashviq etdi. A.V.Lunacharskiyning “San'at haqida munozara” (1905), “Proletar adabiyoti haqida maktublar” (1914), “San'atda sinfiy kurash” (1929), “Lenin va adabiyotshunoslik” (1932) kabi qator asarlari fikrimizning isbotidir.

Badiiy adabiyotni jamiyat hayotiga, ba'zida iqtisodiy omillarga bog'lash 20-30-yillar sovet adabiyotshunosligiga xos xususiyatdir. Yana ham aniqrog'i bu davr adabiyotshunosligida markscha-lenincha falsafiy ta'limotni badiiy adabiyot tadqiqi uchun qo'llashda biryoqlamalik yuz beradi. Bu esa sinfiy kurashni keltirib chiqaradi.

Sinfiy kurash – tarixni harakatga keltiradigan kuchdir, degan ta'limot bilan qurollangan olimlar badiiy adabiyotda mazmun masalasini siyqalashtirib, nisbatan jo'nlashtirdilar. Har qanday badiiy asarga, eng avvalo sinflar kurashi, sinflar o'rtasidagi shiddatli to'qnashuvlar nuqtai nazaridan yondashildi. XX asr adabiyotshunoslik tarixidagi bu hodisa “vulgar sotsiologizm” deb nomlanadi. “Vulgar” so'zi lotincha bo'lib, “sodda, oddiy” degan ma'noni bildiradi.

Xo'sh vulgar sotsiologizmning o'zi nima? “Vulgar sotsiologizm – ijtimoiy hodisalarni siyqa talqin qilishdan iborat bo'lib, bunday talqin qilish tarixiy materializmni buzadi, chunki bu ijtimoiy taraqqiyotning ayrim faktorlarini; texnikani, ishlab chiqarishni tashkil etish formalarini, ekonomikani, siyosatni, ideologiyani bir tomonlama bo'rttirib ko'rsatadi. Tor ma'noda-ideologiyaning sinfiy shart-sharoitga bog'liq ekanini siyqa tushunishdir”. Bu tavsifda ham zamonning mafkuraviy nazari bor. Rus adabiy tanqidchiligi va estetikasida V.Shulyatikov, V.Pereverzev, V.Friche kabi olimlar vulgar sotsiologik qarashga ega edilar. Bularning biryoqlama adabiy nazariyalariga o'z vaqtida javob tarzida yozilgan asarlar maydonga keldi. Bu adabiy hodisani tanqid qilganlar go'yo ularning markscha-lenincha ta'limoti adabiyot sohasiga noto'g'ri tatbiq etilganini so'zlash orqali adabiy-ilmiiy muhitni sog'lomlashtirishga intildilar. Ammo badiiy adabiyotni sotsiologik metod asosida tadqiq etish sinfiylik, partiyaviylik, xalqchillikdangina iborat emas. To'g'rirog'i, adabiyotni ijtimoiy voqyelik,

jamiyat hayotiga aloqadorlikda tekshirishning birdan-bir to‘g‘ri yo‘li markscha-lenincha falsafa vositachiligidir, degan qarash o‘zini oqlamaydi. Buni keyingi yillar ilm-fanidagi, falsafa, estetika sohasidagi tub o‘zgarishlar ko‘rsatdi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, 30-yillar muhitida vulgar sotsiologik qarashlar o‘zbek adabiyotshunosligida ham mavjud edi. Fikrimizcha, Aynning (Olim Sharafiddinov) “O‘zbek shoiri, Cho‘lpon” (1927-yil 14-fevral, “Qizil O‘zbekiston” gazetasi) maqolasi va mazkur “cho‘lponizm” bahslarida qatnashgan Usmonxonning “Munaqqidning munaqqidi” (“Qizil O‘zbekiston” gazetasi 1927-y.) maqolalari, shuningdek S.Husaynning “O‘tgan kunlar” hamda M.Buzruk Solihovning “Mehrobdan chayon” tanqidiga bag‘ishlangan asarlari vulgar sotsiologik ruhda edi.

Otajon Hoshim esa o‘sha 30-yillar muhitida mafkuraviy adabiyotshunoslikning bir qator manbalarini rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qildi.

Sir emaski, o‘zbek adabiyotshunoslarining katta bir avlodi rus adabiy tanqidchilari, badiiy adabiyotning sotsial vazifasiga asosiy urg‘u bergan Vassarion Grigorevich Belinskiy (1811–1848), Nikolay Gavrilovich Chernishevskiy (1828 –1889), Nikolay Aleksandrovich Dobrolyubovlar (1836-1861) maktabi tarbiyasini oldilar. Bu adabiyotshunos-munaqqidlarning bir qator asarlari o‘zbek tiliga ham tarjima qilindi. Shu ma’noda o‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligi tarixiga nazar tashlansa, aksariyat hollarda badiiy asarlar sotsiologik metod asosida tadqiq qilingani oydinlashadi. Biroq bu fikr o‘zbek adabiyotshunoslari badiiy asarning estetik qirralariga, psixologizm yoki formal tomonlarga mutlaqo e’tibor bergan emas, degan mulohazani keltirib chiqarmasligi lozim. Zeroki, bu masalalar o‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligi tarixiga oid kitoblarda qaysidir darajada yoritildi.

Badiiy adabiyot mavjud ekan. Uni ijtimoiy nuqtayi nazardan o‘rganish jarayonlari, turmush tarziga, jamiyat hayotiga qiyoslash hollari ham mavjud bo‘ladi.

Ayniqsa, XX asr o‘zbek adabiyotini bu usulni chetlab o‘tib tekshirish, odilona baholash aslo mumkin emas. Bizga ma’qul kelish yoki kelmasligidan qat’i nazar XX asr o‘zbek adabiyoti birinchi galda mafkuralashgan, ijtimoiylashgan adabiyot. O‘zbek yozma adabiyoti o‘zining ko‘p asrlik tarixi davomida hych qachon XX asrdagidek ijtimoiy hayot masalalariga bu qadar yaqin kelgan, faol aralashgan emas. Ko‘pincha ijtimoiylashgan mafkuraviy adabiyot tushunchasi sovet

adabiyoti, sotsialistik realizm namunalariga nisbat beriladi; holbuki ko'p asrlik an'anaga ega diniy-tasavvufiy adabiyot, jamiyat illatlariga keskin tanqidiy munosabat yo'lini tutgan Mashrab, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Avaz kabi- olovqalb shoirlar ijodi, asrimiz boshlarida yetakchi mavqye egallagan jadid adabiyoti mafkuralashgan adabiyotning o'zginasi edi. Sovet davridagi hukmron mafkuraga oshkora xizmat etuvchi adabiy yo'nalish bilan barobar, bu yo'nalishga, ya'ni "davlat adabiyoti"ga muxolif sifatida yuzaga kelgan "sotsial adolat uchun kurash olib boradigan jangovor jabha" ham tanqidchi Ahmad Otaboy "So'z va madaniyat" maqolasida ("O'zAS", 1995-yil, 1-sentyabr) ta'kidlaganiday, mafkuraviy adabiyotning bir ko'rinishidir.

Modomiki shundoq ekan, XX asr adabiyotini "formal maktab", "sof san'at" mezoni bilan tekshirib, odilona baholab bo'ladimi? Milliy madaniyatimiz, adabiyotimiz tarixida ulkan burilish, yangilanish pallasini boshlab bergan jadid qalamkashlarining ilk tajribalari «sof san'at» talablariga dosh bera oladimi?! Yoki Cho'lpon she'riyatining, Qodiriy romanlarining, Fitrat dramaturgiyasining ijtimoiy-siyosiy, falsafiy tomonlarini chetlab o'tib, faqat ularning san'atigagina qarab bu ulug' allomalar yaratgan buyuk badiiy kashfiyotlar qadr-qimmatini aniqlash mumkinmi?! Aslo!

XX asr o'zbek adabiyotiga xos bu xildagi mafkuralashish jarayonini, Ahmad Otaboy so'zlari bilan aytganda, adabiyotning "ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy munozaralar doirasiga" tortilishini nuqulgina salbiy hodisa deb baholash, asr adabiyotidagi mavjud mafkuraviy jihatdan bir-biriga zid ikki yunalishni ikki boshli dev haqidagi ertakka, afsona-mifga qiyoslash to'g'ri bo'larmikan?! Tanqidchi qat'iy qilib: "mustaqillik adabiyotni xizmatkorlik majburiyatidan xalos qildi va endi adabiyot inson haqida insoniy til bilan gapira boshlaydi, fikrlay boshlaydi", deb yozadi. Sovet davri adabiyotini, ayniqsa, undagi "sotsial adolat uchun kurash" pafosi bilan yo'g'rilgan yo'nalishni "insoniy til bilan gapirish va fikrlash"dan butunlay xoli deyish insofdan emas. Adabiyotdagi mafkurani nuqul tashqi ijtimoiy-ma'naviy bosim, tazyiq samarasi va unga aks-sado deb qaramaslik darkor. Ulkan san'atkorlarda mafkura ko'pincha chuqur ichki ehtiyoj, tabiiy zarurat tariqasida, original ijodiy tarzda namoyon bo'ladi: ana shunda yozuvchining asarda ilgari surgan g'oyalari samimiy chiqadi, inson haqida "insoniy til bilan gapirish va fikrlash"ga erishiladi. Tanqidchining ayni shu mafkuralashish tufayli sovet davrida adabiyotimiz ovozi "ikki daryo orasida qolib ketdi" degan qat'iy da'vosi kishi ko'ngliga og'ir botadi.

XX asr adabiyotiga baho berayotganda milliy adabiyotimizning avvalgi asrlardagi, Navoiy va Bobur davridan keyingi, ya'ni "mafkrualashtirish", "mafkuraviy tazyiq" bo'lmagan XVI – XIX asrlardagi ahvoli, saviya-darajasi, jahondagi mavqeyini ham unutmaylik. Barcha ziddiyatli tomonlariga, ro'y bergan yo'qotish, xatolar, fojialarga qaramay XX asrda o'zbek adabiyoti o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko'tarildi, mavjud an'analar doirasidan chiqib jahon taraqqiyparvar zamonaviy-modern adabiyot yo'liga tushib oldi. Sobiq Ittifoqdagi va xorijdagi o'ttizdan ortiq turkiy xalqlar adabiyotlarining yangi bosqichdagi bo'y-basti bilan o'lchalanadigan bo'lsa, milliy adabiyotimizning kamsitiladigan yeri yo'q. Hamza, Cho'lpon, Fitrat, Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, O. Yoqubov, P. Qodirov, A. Oripov, E. Vohidov, Rauf Parfi, X. To'xtaboyev, T. Po'latov, O'. Hoshimov, Sh. Xolmirzayev, Tog'ay Murod kabi adiblarimizning yetuk asarlaridagi ko'p jihatlar jahon taraqqiyparvar adabiyotidagi talay yetakchi tamoyillarga hamohang ekanligi o'zimizda ham, xorijda ham bot-bot e'tirof etildi, etilmoqda. Navoiy, Boburdan keyin ovozi "ikki daryo orasi"ni yorib chiqqan adiblar ayni shu asrda yetishgani hech kimga sir emas.

Vulgar sotsiologizm omillari har bir davr, zamon-makon adabiyotida qaysidir ma'noda, ko'rinishda namoyon bo'lib boradi. Adabiyoti bir yoqlama, yoki bir, ikki asosga ko'ra tahlil etish noo'rin hodisa. Adabiyot o'z vazifasiga ko'ra keng tarmoqli va uni muhit biryoqlamaliligiga taslim etish nojoiz.

O'ZBEK MILLIY LISONIY TASVIRIDA "AXLOQ" KATEGORIYASI

Orifa Xudayberdiyeva, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU 2-bosqich magistranti

Jahon va milliy tilshunoslik fanlaridagi ma'naviy-axloqiy leksikani o'rganishning ilg'or tajribalari va tadqiqot metodlarini qo'llagan holda "axloq", "ma'naviyat", "etika" tushunchalarining lisoniy tabiati, olamning lisoniy manzarasi nuqtayi nazaridan til tizimidagi o'rni masalasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, "axloq", "ma'naviyat", "etika" tushunchalarini ifodalovchi birliklarning semantik munosabatlarini tiklash, bu semantik munosabatlarni hosil qiluvchi unsurlarni aniqlash, atov birliklarining semantik va paradigmatic munosabatlari asosida yotuvchi lisoniy ziddiyatlarini lison va nutq dixotomiyasi tamoyillari asosida tavsiflashsiz bu vazifalarni uddalash qiyin.

Atov birliklarida tilning atash-nomlash vazifasi namoyon bo'ladi. Atash-nomlash xususiyati – tilning azaliy va milliy mohiyati. Tilshunoslikka doir barcha manbalarda, hatto diniy manbalarda ham tilning ilk shakllangan vazifalaridan biri atash-nomlash vazifasi ekanligi uqtiriladi.

Obyektiv ehtiyoj va ijtimoiy zarurat har doim til atash-nomlash vazifasining dolzarbligini belgilab turadi. Ayniqsa, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar bu vazifaning keng qamrovliligini keltirib chiqaradi. Shuningdek, sivilizatsiyalar to'qnashuvi, madaniyatlararo integratsiya jarayonlarida ham tilning bu vazifasi doirasi o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Zamon talablari va lisoniy jamiyat ehtiyojlariga moslashish zarurati o'laroq, til o'zining qayishqoqlik sifatini namoyon qiladi – davr va muhitga moslashadi. Bu, ayniqsa, tom ma'noda yangi bo'lmasa-da, yangi mohiyat kasb etgan milliy g'oya tushunchalarini atash-nomlash jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi [4].

Shaxs ma'naviyati global masalalar sirasida markaziy o'rinni egallaydi. Zero, juda ko'p muammolar dialektik nuqtayi nazardan oqibat xarakteriga ega bo'lib, ularning aksariyati uchun shaxs ma'naviyati masalasi sabab maqomida [3].

O'zbekiston milliy mustaqillikka erishgandan so'ng axloq masalasi milliy muammo, mustaqil xalqimizning taraqqiyot sharti sifatida kun tartibiga qo'yildi. 2 tomli "O'zbek tilining izohli lug'ati"da *ma'naviyat* istilohining yo'qligidan ko'ra ushbu masalaning istiqlolgacha qay holatda ekanligini dalillaydigan kuchliroq asos bo'lmasa kerak. Bu lug'atda *ma'naviy* so'zi berilgani (1-tom, 454-sahifa) uning ijtimoiy ongda faqat belgi sifatida mavjud bo'lganligidan, alohida borliq hodisasi maqomiga ega bo'lmaganligidan dalolat beradi. Balki bu holatga *ma'naviyat* so'zining rus va boshqa Yevropa tillarida muqobili yo'qligi ham sabab bo'lgandir.

Hozirgi o'ta tezkor rivojlanish davrida mustaqil O'zbekiston o'zining buyuk kelajagini bilimli, aqlli, mehnatsevar, jasur, ma'naviyati yuksak, jismonan kuchli bo'lgan yosh avlod timsolida ko'radi. Bunday har tomonlama barkamol avlodni o'stirib, voyaga yetkazish davlatimizning ustuvor vazifalaridan sanaladi. Qaysiki jamiyatda ilmsizlik, jaholat mavjud bo'lsa, u yerda muqaddas qadriyatlar zavol topadi, odamiylikning mazmun-mohiyatiga putur yetadi. Oqibatda, bu jamiyat tanazzulga yuz tutadi. Shunday ekan, har bir inson fursatni g'animat bilib, barkamol avlod tarbiyasi yo'lida ter to'kmoqligi hayotiy zaruriyatdir. Zulmatni ilm nuri yoritadi. Tafakkur nuri, o'z navbatida, jamiyat gullab yashnashiga asos

bo'lib xizmat qiladi. Faqat tafakkurgina o'z ortidan ham moddiy, ham ma'naviy boylikni ergashtira oladi. U poklik, ma'rifat bulog'i, xushxulqlik, go'zal odob manbaidir [2].

Sho'ro davrida o'zbek xalqi lisoniy ongida "axloq" konsepti mavjud bo'lsa-da, bu konsept "ma'naviyat" konseptidan ayro holda mavjud bo'lgan. Bunga o'zbek tili bo'yicha izohli va ensiklopedik lug'atlar materiallari asosida amin bo'lish mumkin. "O'zbek tilining izohli lug'ati" [5] da axloq leksemasi berilgan, ammo uning bosh semasi bo'lgan ma'naviyat leksemasi ushbu lug'atda mavjud emas:

AXLOQ (a) 1 Kishilarning har bir jamiyatga xos xulq normalari majmuyi, adab, etika. *Kommunistik axloq.*

Xulq-atvor, yurish-turish, tarbiya, adab. *Yaxshi axloq. Axloqi yaxshi bola.*
– *Ha biri axloqi bilan, ikkinchisi husni bilan topishar ekan!* M.Ismoilij, Farg'ona T.O.

MA'NAVIY (a) 1. Kishining ichki ruhiy hayotiga oid. Ma'naviy ehtiyojlar. Ma'naviy yordam. *Yosh sovet o'qituvchisining har bir ishi zag'chako'z domlaga ma'naviy jihatdan ham, moddiy jihatdan ham zarba edi.* P.Tursun, O'qituvchi.

2. *ayn.* **axloqiy** Kishining ma'naviy qiyofasi.

O'zbek lisoniy ongida "ma'naviyat" konsepti mavjud bo'lganligini shu mavzuda qilingan dissertatsiyalarda ham ta'kidlanganidek, "bugungi kundagi yangi talqinlarda – izohli lug'atlar, qomuslarda ushbu leksema yoki tushuncha doirasida sharhlanayotgan ma'no va izohlarda, tavsiflarda qayd etilayotgan tushunchalar yangi davrdagina shakllangan deb bo'lmaydi". E'tibor qiling:

MA'NAVIYAT [*a. معنوييت*] – axloqiy holat; barcha axloqiy narsalar, xususiyatlar /Insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, axloqiy va sh. k. tasavvurlari va tushunchalari majmuyi. *Ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi.* Gazetadan. .. *ma'naviyatimizga ta'sir etuvchi jihatlari shunchalik ko'pki, ularni sanab, sanog'iga yeta olmaymiz.* Gazetadan. *Zero, naqshbandiya ta'limoti – ma'naviyatimiz sarchashmalaridan biri hisoblanadi.* Gazetadan. *Ajdodlarimiz falsafasi ham ma'naviyatimizdir.* Gazetadan. *Biz talabalarga Sharq ma'naviyatining jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rni haqida o'rgatamiz.* Gazetadan [6].

M.Ahmedova [1] o'z ishida, ma'naviyat tushunchasi mohiyatini o'tgan davrda ideologiya va unga uyqash so'zlar ifodalaganligini qayd etib o'tadi.

ETIKA [p<лат] 1. Axloqni ijtimoiy ongning bir shakli sifatida o'rganuvchi falsafiy ta'limot. *Marksistik etika*.

2. Biror sinf, ijtimoiy guruh yoki biror kasb egalariga xos adab-axloq, uning normalari va qoidalari majmuyi. *Partiyaviy etika*.

E'tibor qilinsa, *axloq* va *etika* so'zlari izohi orasidagi farq *falsafiy ta'limot* (etika), *o'rganuvchi* (etika) va *normalar majmui* (axloq) so'zlarida mujassam.

Axloq, *ma'naviyat* va *etika* so'zlari izohidagi umumiylik va xususiyliklarni jadvalda ifodalash bilan tasavvurlarimizni yorqinlashtirishimiz mumkin:

Umumiy jihatlar	Farqli jihatlar		
	<i>axloq</i>	<i>ma'naviyat</i>	<i>etika</i>
kishilarga xos, axloqiy, axloq normalari majmuyi	jamiyatga xos, yurish-turish, tarbiya, xulq normalari majmui	ichki ruhiy hayotga oid, ehtiyoj, yordam, tasavvurlari va tushunchalari majmuyi	sinf, ijtimoiy guruh, biror kasb egalariga xos, o'rganuvchi, falsafiy ta'limot, norma va qoidalari majmuyi

E'tibor berilsa, *axloq* va *etika* so'zlarida jamiyatga xos bo'lgan tashqi yurish-turish, axloq qoidalariga e'tibor qaratilgan bo'lib, bu holat *ma'naviyat* so'zida jamiyatning ichki axloqini nazarda tutgan deyishimiz mumkin. Demak, eski lug'atlardagi *axloq* va *etika* so'zlari mohiyati va yangi talqinlardagi *ma'naviyat* so'zi mohiyatiga qisman to'g'ri keladi, biroq ular bir-birini to'la ma'noda qoplovchi hodisalar emas.

Davrlar o'tgani, texnika taraqqiy etgani sari insonlar lisoniy ongi ham yangilanib boradi. Shunday ekan, milliy madaniyatimiz va axloqiy qarashlarimizda ham biroz bo'lsada yangilik mavjudligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Biz yuqorida "axloq" konseptini tashkil etuvchi leksemalarning uzviy tarkibiy qismlari va ularning o'zaro munosabatlari masalasida to'xtaldik va olamning o'zbek lisoniy ongidagi tasvirida muhim o'rin egallaydigan "axloq" konseptining kognitiv strukturasi haqida ilk asoslarda ma'lum bir fikrlarni bayon etdik. Konsept kognitiv strukturasi to'la idrok etish borliqning ushbu parchasini ongli idrok etish va *ma'naviy tarbiya* uchun nisbatan mukammal lingvistik zamin hozirlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахмедова М.Б. "Ўзбек тилидаги "маънавият" ва инглиз тилидаги "spirituality" умумий семали атов бирликлари типологияси"// Фил.

фан. док. (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация, 2019.

2. Менглиев Б.Р. Тараққиёт ва маънавият // Маърифат, 2018 йил январь.

3. Менглиев Б.Р. Тил бағридаги маънавият: лингвомаънавиятшунослик ва унинг истиқболлари ҳақида // Маърифат, 2018 йил 9 март.

4. Тожиева Г.Н. Ўзбек тили маънавий-маърифий лексикасининг мустақиллик йилларидаги тараққиёти // Фил. фан. док. (PhD) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация, 2017.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томли. 1-том. – М.: Русский язык.

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – 556 б.

INSON RUHIYATINING KOMILLIK SARI PARVOZI

Shohista Husanova, Toshkent viloyati
Yangiyo‘l tumani 13-maktab
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Adabiyotimiz xazinasida shunday durdona asarlar borki, ularni o‘qib beixtiyor xayolot olamiga cho‘masan. Aslida inson kim, u nima uchun bu dunyoga kelgan, oldida umrni qanday o‘tash va o‘zidan keyin nimalar qoldirmog‘i zarur degan savollarni kitobxon o‘z-o‘ziga bera boshlaydi. O‘n sakkiz ming olamni yaratuvchi husni mutlaq uning odamzot boshiga ne savdolar solishi qanday ko‘rgilik-u, qanday shodumonlikni qarshilashi hali-hanuzgacha hech kimga ayon emas. Ushbu jumboqqa biroz oydinlik kiritish maqsadida XV asrning nihoyasida umr daftarini varaqlayotgan Alisher Navoiy qo‘liga qalam oldi va uni yoshligida hayrat va taajjubga solgan F.Attorning “Mantiq ut-tayr” asariga javob tariqasida “Lison ut-tayr” asarini yozishga bel bog‘ladi:

Munchakim nazm ichra qildim ishtig‘ol,
Xotirimdin chiqmas erdi bu xayol –
Kim bu daftarga berib tavfiq haq,
Tarjuma rasmi bila yozsam varaq.

Doston an’anaviy 3 qism (muqaddima, asosiy qism, xotima)dan iborat. Asarda turli-tuman hikoya va qissalar berilgan bo‘lib, ular, asosan, qushlarning holatiga nisbat berish uchun keltirilgan. Asardagi kitobxonni

o‘ylantiradigan, ko‘hna ochunga ko‘zini kengroq ochib qarashga undaydigan bir qissa bo‘lib, bu qadimdagi mashhur XI–XII asrlarda yashagan shayxlardan biri San‘on ibn Saqqo obrazida berilgan. “Shayx San‘on” hikoyati ulkan ruhiy kechinmalarga boyligi bilan ajralib turadi. Bu haqida navoiyshunos olim Abduqodir Xayitmetov shunday deydi: “Garchi shoir dostonidagi boshqa novellalar qatori Shayx San‘on haqidagi qissani ham hikoya deb atasa-da, lekin bu qissa o‘zining hajmi, e‘tibori bilan, ayniqsa bosh qahramon Shayx San‘on obrazining to‘la va chuqur ochilishi bilan boshqa hikoyatlardan keskin farq qiladi va uni bemalol doston ichidagi mustaqil she‘riy qissa yoki poema deb qarash mumkin”.

Bundan ko‘rinadiki, hikoyani o‘zining hajmi bilan emas, balki bosh qahramon ruhiyati va xarakteri orqali poema darajasiga ko‘tarish mumkin. Mashhur filosof, tilshunos olim Vitgenshteyn: “Inson ruhiy olami uning tili kabidir” (“мир человека таков, каков его язык”), – deydi. Biz Shayx San‘on ruhiyatida ham bir holatdan boshqa bir holatga o‘tish jarayonini uning nutqidagi farqliliklarda ko‘ramiz. Uning ichki kechinmalari o‘zgarib, kuchaya borgan sari fikrlashida ham keskin burilishlar yuz beradi. Ruhiyatda ketma-ket bo‘lgan o‘zgarishlar uning nutqida ham ketma-ket namoyon bo‘lib boradi.

Masalan:

Shayx San‘on vosili dargoh edi,
Ko‘ngli g‘ayb asroridin ogoh edi.

Hikoya uning shunday ta‘rifi bilan boshlanadi. Tush voqeasidan so‘ng esa u o‘zining mo‘tadil holatidan chiqa boshlaydi. Rumga ketishga qaror qildi va ketishidan oldin hayajonda Ka‘ba bilan vidolashadi. Balki uning ko‘ngli kelajakdagi hodisalarni sezib bezovtalangandir. Keyingi holatga esa Shayx safar chog‘ida ko‘ngliga har xil o‘ylar kelgan paytda o‘ta boshlaydi:

Shayx jismidin borib ul yerda tob,
Ko‘nglini betoqat aylab iztirob.
Za‘f mustavli bo‘lub har dam anga,
Jilva aylab o‘zga biro lam anga.

Asardagi Shayxning butxonaga kirgandagi holati, ya‘ni jismida haroratning ko‘tarilishi, ko‘nglining betoqat bo‘lishi uning ruhiyati yangi bosqichga qadam qo‘yganini anglatadi. Ruh tanaga qanday qiyinchiliklar bilan kirgan bo‘lsa, boshqa bir darajaga ko‘tarilishi ham shunday qiyin. Ammo Shayx buni anglab yetganda hushidan ketdi:

Ham aso, ham jismig‘a yeti shikast,
Holidin bordi-yu, bo‘ldi yerga past.

Ayni shu yerdan Navoiy Shayx hayoti orqali inson umri davomida bosib o'tadigan bosqichlarni keltiradi. Bu jarayonda birinchi bo'lib, gapira olmaslik holatida ko'zga tashlanadi, ya'ni ilk davr – tug'ilishdan nutqning shakllanishiga qadar bo'lgan davrni qamrab oladi. Ammo keyingi bosqichlarda u A.V.Petrovskiyning "Men jamiyat bilan" nuqtayi nazaridan chetga chiqadi. Qolganlarning fikri unga ta'sir etmaydi. Yana ayrim jihatlari borki, unda tarbiyasi og'ir yosh o'smirning ayrim ruhiy-fiziologik holatlarini ko'rish mumkin, ya'ni o'zgalarning so'zini inobatga olmaslik, o'zini to'g'ri yo'lda deb hisoblash. Biz buni quyida ko'rishimiz mumkin:

Biri debkim: "Bu erur shayton ishi

Zikr ila ondin topar maxlas kishi".

Shayx deb: "Jamiyat anda shart erur,

Men parishonman-ne xosiyat berur".

U tasbehdan, namozdan voz kechib telbalikni bo'yniga oldi. Ammo unda keskin o'zgarishlar bo'lib, hatto Ka'badan ham voz kechadi. Qolganlarning fikri endi qiziqitirmay qo'ydi. Unga ta'sir etishning aslo iloji qolmadi. Endi butun vujudi, jismi va ongi birlashib faqat ma'shuqasi tomon yetaklaydigan holatga kelib qoldi. U Tarso qizi uchun hatto qatl etilishga roziligini ham aytadi. Qizning vasliga yetish uchun qo'yilgan to'rt shart va ikki jarimani bajarishi esa uning aniq aqldan mosuvo bo'lganligini anglatadi. Uning bu holati hamrohlariga ham qattiq ta'sir qildi: eng oliy maqomdan mahrum bo'lishdi. Hatto, ba'zilar qochoqlar safida kun kechira boshladi. Bu holat inson ruhiyatining bir olamdan ikkinchi olamga o'tishi bo'lib, ko'z ochib yumguncha ular hayotida paydo bo'ldi. Ammo asarda uning eng taqvodor muridi sodiqlik timsolida gavdalanib, yana o'zlikka qaytish vazifasini bajaruvchi ko'pri bo'lib keladi. Faqat ugina bu Yaratgan tomonidan Shayx uchun ham, muridlar uchun ham sinov ekanligini anglab yetadi va buning yechimini sinovni bergan Zotdan so'raydi. Ayni shu joyda adib tabiat tasviridan foydalanib muammoning ijobiy yechim topganini aytadi:

Chun nasimi subh esti mushkrez,

Bo'ldi tun mushki uza kofirbez.

Uning qayta xirqa kiyishi esa sinovdan o'ta olgan pok ruhni anglatar edi va u yana kamolot makoni (Ka'ba) sari yo'l oldi. Dilnavoz Yusupova Shayx San'onning holatini quyidagicha izohlaydilar:

Ma'lumki tasavvufda haqni tanishning ikki yo'li mavjud. Birinchisi hayajonli, ruhiy kechinmalarni oshkora izhor etib boorish mayli bo'lsa, ikkinchisi osoyishta, ichki dardni yashirish maylidir. Birinchi mayl "sukra" (mastlik) yo'li deb atalib, uning yirik namoyondalari sifatida Boyazid

Bistomiy, Mansur Halloj, Abu Sa'id Abulxayr, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Boborahim Mashrab nomlarini keltirish mumkin. Ikkinchi mayl "sahv" (hushyorlik) yo'li deb nomlanib, uning tarafdorlari qatorida Junayd Bag'dodiy, Sa'diy Sheroziy, Bahouddin Naqshband kabi ijodkorlarni sanab o'tish mumkin. "Adabiyotshunos olim N.Komilovning fikricha, Shayx San'onning barcha diniy ilmlari va Qur'onni unutishi bu Haqqa yetish uchun dunyoviylikdan, jumladan, aql va aqliy narsalardan qutilish, o'zligini unutishga ishoradir. Uning xotirasi qaytishi esa, sukradan sahvgaga qaytish hisoblanadi. Haqiqiy baqo esa sahva, ya'ni hushyorlikka qaytishdan keyin boshlanadi. Sukradagi solik bamisoli dengizga sho'ng'ib, g'arq bo'lgan kishi bo'lsa, sahvgaga qaytgan dengizga sho'ng'ib, gavhar donalarini olib chiqqan g'avvos kabidir".

Haqiqatan ham, aslida ham taqvodor bo'lgan Shayx bu sinov va mashaqqatlardan so'ng ruhan poklanib, komillikka yetishdi.

Demak, bu asar orqali hayot inson uchun sinov ekanligi, aslida, hayotimiz sayyohning rabotdagi kunlari ekanligi, inson unga ato etilgan taqdirga rozi bo'lmoqligi va har qanday sinov Yaratgan tomonidan berilishi aytib o'tiladi. Bu foni dunyoda ruhimiz sokinlik va qo'nim qidirishi ham eslatib o'tiladi. Qissani o'qigan har qanday insonda qandaydir ruhiy qo'zg'alish sodir bo'ladi, xuddi voqealarni o'z boshidan kechirgandek. Bir daf'a bo'lsa-da, o'zining qilgan ishlari, savob va gunoh amallari ko'z o'ngida gavgaldanadi. Shayxning sinovlar jarayonida hariflasha borgan ko'ngli har bir insonni ta'sirlantirmay qo'ymaydi. Bu asarni o'qish har qanday insonga ruhiy kamolot, hayot mazmuni va atrofni to'laligicha fahmlashga bir daf'a yordam beradi. Ayniqsa, yosh avlodni hayotning turli-tuman qiyinchiliklari va bu yo'lda sobit bo'lishga undaydi.

ZULFIYAXONIM IJODIDA MONOLOGIK NUTQ

Feruza Haydarova, Farg'ona viloyati
Rishton tumanidagi 9-umumta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Har bir ijodkor, xoh shoir bo'lsin, xoh yozuvchi hayotni har tomonlama chuqur o'rganib, uni yuksak badiiy shaklda aks ettirishda o'z bilimiga, hayot tajribasiga, mahoratiga tayanib, tanlagan mavzusini yoritib beradi. Ular yaratgan o'lmas asarlar xalq orasida mangu yashaydi. Tarix va kelajak oldida mas'uliyatni his etadigan, hayoti va ish faoliyati davomida ma'naviy jasorat ko'rsata oladigan millatning ana shunday yetuk shaxslari to'g'risida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat –

yengilmas kuch” asarida alohida to‘xtalib o‘tarkan, sevimli shoiramiz haqida shunday deydi: “Nafaqat o‘z she‘rlari, balki butun hayoti o‘zbek ayolining ma‘naviy qiyofasini namoyon etgan atoqli shoiramiz Zulfiyaxonimni ham men ana shunday fidoyi insonlar qatoriga qo‘shgan bo‘lardim. Uning jahon minbarlaridan yangragan she‘rlari Sharq ayolining aql-u zakosi, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she‘riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergan, desam, mubolag‘a bo‘lmaydi” [1; 166-b.].

Tarixdan ma‘lumki, barcha davrlarda ham adabiyot, ijodkor shaxsi Yurtboshi e‘tiboridan chetda qolmagan. Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Adabiyot va san‘atga, madaniyatga e‘tibor – bu avvalo, xalqimizga e‘tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqimiz yo‘q” [2; 156-b.].

Xalqimizning ardoqli shoirasi Zulfiyaxonim o‘zining ijodiy tafakkuri kengligi, poetik mahorati o‘ziga xos ekanligi bilan ajralib turadi. O‘zbek ayolining boy va rang-barang ichki dunyosi, ayol erki, ayol qalbi, sadoqat va vafo, visol va hijron, pok sevgi, yorug‘ muhabbat, sevikli yor nashidolari va iztiroblari, ona baxti va armonlari shoira ijodining hayotbaxsh sarchashmalari bo‘lgan. Zulfiyaning ijodiy merosi yaxlitligicha bir butun monologni tashkil etadi. Uning she‘riyati haqida bahs yuritarkanmiz, asosiy nutq shakllaridan biri hisoblangan monologik nutq to‘g‘risida to‘xtalib o‘tishni joiz deb bilamiz.

Monolog (grek. – monos – bir, logos – so‘z) badiiy nutq tiplaridan biri. U bir kishining alohida vaziyatda maxsus tayyorgarlik oqibatida paydo bo‘ladigan yirik hajmdagi nutqidir. Monologik nutq – so‘zlovchining o‘ziga qaratilgan, boshqa shaxsning tinglash va javob berishini e‘tiborda tutmaydigan nutq shakli [3].

She‘rning ta‘sirchanligini oshirish maqsadida Zulfiya monologik nutqdan g‘oyat unumli foydalanganligi bilan e‘tiborni tortadi. Buni quyidagi she‘rlari misolida ko‘rishimiz mumkin:

O... farzandim, ko‘zim nurisan,

Menga senday b‘la olur kim?

Sen hayotim, seni ko‘rarman,

Dilda behad jo‘shadi mehrim. [4; 11-b.]

Shoira “Farzand” she‘rida ko‘zining nuri, hayoti bo‘lgan farzandidan faxrlanib, o‘zining qaynoq mehri bilan sug‘orayotgan mushtipar onaizorning jigargo‘shasiga porloq iqbol tilashi, dunyodagi jamiyki yaxshiliklarni ilinib yashayotganligi yaqqol ko‘zga tashlanishini

Urush! Noming o‘chsin jahonda,
Hamon bitmas sen solgan alam.
Sen tufayli ko‘p xonadonda,

Ota nomli buyuk shodlik kam. [4; 37-b.] satrlari orqali jangda eridan ayrilgan jabrdiyda ona obrazi orqali xalqimiz boshiga solgan musibat tufayli urushga bo‘lgan nafrat yetakchi o‘rin tutadi. O‘ta beg‘ubor, bahor kabi nafis, yuksak vatanparvarlik tuyg‘ulari bilan sug‘orilgan misralarni shoironing qator she‘rlarida uchratishimiz mumkin. Ayniqsa, “Oltin kuz” she‘rida tabiatning atlas kiygan chog‘lari, rango-rang libos kiygan daraxtlarning gulgun, ko‘zni qamashtirgan chog‘larini entikib tasvirlaydi:

Sevaman, oltin kuz, sevaman jondan,
Atlas tabiatli go‘zal chog‘ingni.

Daraxtlar libosi rango-rang, gulgun,
Ko‘zni erkalagan chaman bog‘ingni. [4; 12-b.]

O‘z she‘riyatining sehri, jozibasi bilan o‘zbek qizining ovozini dunyolarga keng taratgan qalam sohibasi Zulfiya hurriyatni intiqlik bilan kutadi va istiqolda xursandligini shunday ifodalaydi:

Hurriyat, keldingmi, nahotki kelding,
Kelar yo‘llaringda pinhona to‘ldim.

Mening ota-onam, jon vatanimda,
Elim taqdirida abadiy qolding. [4; 218-b.]

Shoironing vafo va sadoqat, visol va hijron mavzusida bitilgan she‘rlarida haqiqiy o‘zbek ayolining metin irodasi, matonati, or-nomusi, himmati, sabr-qanoati, rostgo‘ylik singari insoniy fazilatlari tarannum etiladi. Uning ijodi bugun ham yoshlarimizni insonparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilib kelmoqda. Zulfiyaning she‘rlari nafaqat o‘zbek xalqining, balki boshqa xalqlarning ham mehr-muhabbatiga sazovor bo‘lgan. Uning she‘rlarida harorat, ehtiros barq urib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2009.
2. Tursunova F.G‘. Hajviy qahramon tashqi qiyofasini tasvirlashda monologik nutqning o‘rni. BuxDU ilmiy axborotnomasi, 2019. 2-son.
3. Solijonov Y. XX asrning 80–90-yillari o‘zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Fil. fan. dok. diss. –T., 2002.
4. Zulfiya. Saylanma. – T.: Sharq, 2006.

O'QUVCHILARNI KITOBXONLIKKA YO'NALTIRISH TAJRIBASIDAN

Munixon Aralova,

Namangan viloyati Chust tumanidagi
19-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

“Mutolaa vaqtida asar bir ko‘zadan ikkinchi ko‘zaga quyilgan suv kabi kitobxon miyasiga quyilib qolmay, balki ijodkor kitobxon tomonidan qayta idrok etiladi”, – deb yogan edi professor Asmus. Darhaqiqat, bilim olishning dastlabki usullaridan biri kitob mutolaa qilishdir. Kitobdan o‘rinli saboq olish esa kishini komillikka olib boradi. Bola tarbiyasida donolikka yo‘g‘rilgan yozilgan kitoblar katta ahamiyatga ega. Kitob o‘qish haqida Abdurahmon Jomiy shunday yozadi:

Kitobdan yaxshiroq do‘st yo‘q jahonda,
G'amxo‘ring bo‘lgay u har dam yoningda.
U bilan qol tanho, hech bermas ozor,
Jonga yuz rohat bergusi takror.

Har bir maktab o‘qituvchisining eng muhim burchlaridan biri, u qaysi fan mutaxassisi bo‘lishidan qat‘iy nazar, bolani kitobxonlikka yo‘naltirishi zarur. Buning uchun esa kitobxonlikka da‘vat etuvchi manbalardan foydalanish katta samara beradi. Quyida faoliyatim davomida foydalanib keladigan internet saytlaridan olgan manbalarimdan namunalar keltirib o‘taman.

X asrning o‘rtalarida Buxoro madrasalari faoliyati bilan tanishgan N.Xanikovning yozishicha, madrasaning to‘liq kursini o‘qib tugatish uchun tolib tahminan 137ta kitobni o‘qib chiqishi talab etilgan. Otabobolarimiz kitobni ko‘z qorachig‘iday saqlashgan. Italiya yozuvchisi Seneka: "Kitoblarning soni emas, ularning yaxshisi foyda keltiradi", – deb aytgan edi.

Herman Hesse shunchaki o‘qish, bu – diqqatni to‘plashga majbur etuvchi mashg‘ulot va ovunish uchungina o‘qish, o‘z-o‘zini aldash ekanligi, befarq insonlar uchun, biror narsadan ovunishning hojati yo‘qligi, aksincha, ular hamma joyda diqqat-e‘tiborli bo‘lishlari, qayerda nima ish bilan shug‘ullanishmasin, nima haqda fikr yuritishlaridan qat‘iy nazar, o‘zlarini butun vujudlari bilan voqealar girdobida his etmoqlari kerakligini ta‘kidlar ekan, kitobxonlarni 3 ta turga ajratadi:

1. Sodda kitobxon. Bunday sodda kitobxon, mutolaaga munosabatiga ko‘ra, umuman, shaxs hisoblanmaydi, balki o‘zi bilan o‘zi andarmon o‘quvchi, xolos. U romandagi voqealarning keskinligiga, xavf-

xatarga to'la sarguzashtlariga, tasvirning dabdabali yoki ojizligiga qarab baholaydi yoki buning o'rniga, muallifning o'zigagina baho berib qo'ya qoladi, ya'ni uning muvaffaqiyatlarini shunday andaza bilan o'lchaydiki, bu me'yor oxir-oqibatda doimiy odatga aylanadi. Bunday o'quvchi kitob, umuman, his qilib, tushunib o'qish va mazmuni yoki shakliga munosib baho berish uchungina yaratilgan deb o'ylaydi, bunga shak-shubha qilmaydi. Ya'ni, kitobni – non yoki ko'rpa-to'shakka o'xshagan narsa, deb hisoblaydi.

2. Ikkinchi turdagi kitobxonga nimadir yuqadi. Bu o'quvchi asar mazmuni yoki shaklini qanchalik qadrlasa, uning haqiqiy, yanada muhimroq qadr-qimmatini ham shunchalik yuqori baholaydi. Bu kitobxon bolalarga o'xshab, har bir narsaning ehtimol o'n yoki yuz mazmun-mohiyati, ahamiyati va qadr-qimmatini borligini yaxshi biladi. Mazkur o'quvchi, masalan, yozuvchi yoki faylasufning voqea, hodisalar, narsalarga nisbatan o'z bahosini o'z-o'ziga yoxud kitobxonga majburan qabul qildirishga urinayotganini kuzata borib, jilmayib qo'yishi hamda muallifning erkinligi va asossizligi bo'lib ko'rinayotgan narsa aslida sustkashlik va majburlashdan boshqa narsa emasligini payqab olishi mumkin.

3. Uchinchi turdagi kitobxon zohiran “yaxshi” deb nom olgan o'quvchining butunlay teskarisidir. Bu kitobxon shu darajaga yetgan shaxski, u hech kimga o'xshamaydi. U – o'z mutolaa saltanatida mutlaq hokim, hukamo, hukmdor. Kitobdan u na ma'rifat izlaydi, na vaqtichog'lik. Kitobdan – bu yorug' olamda qolgan boshqa har qanaqangi narsa kabi – faqatgina boshlanish, yo'nalish nuqtasi sifatida, istak, niyat, mayl sifatida foydalanadi. Agar bunday o'quvchi kitobdan biron-bir sentensiya, ya'ni hikmatli so'z, dono gap, hikmat topib olsa, eng avvalo, topilmaning astar-avrasini ag'daradi. U azal-azaldan biladiki, har qanday haqiqatlarni inkor etish asl haqiqatdir. U ma'naviyat sohasidagi har qanday fikr, qarash, nuqtayi nazar qutb ekanligini va unga qarama-qarshi xuddi shunday zo'r qutb ham mavjud ekanini azaldan yaxshi biladi.

“Sen mana shu bosqichni o'tamasang, kitob o'qishda, san'at va ilm o'rganishda imlo o'qiyotgan oddiy maktab o'quvchisidan farqing qolmaydi. Kitobxonning mutolaadagi shu uch bosqich orasida goh u yon, goh bu yon ko'chib yurishi tabiiy, bu har qanday kishi bilan har bir sohada sodir bo'lishi mumkin”, deya munosabat bildiradi Herman Hesse.

Kitobxonlik haqidagi bunday ma'lumotlarning o'quvchiga yetkazilishidam asosiy maqsad, insonda kitob o'qish, uni anglash va idrok etish malakasiga ega bo'lishning oddiydan murakkabga tomon borishi,

ko‘p kitob o‘qish ongning takomillashuviga xizmat qilishi haqida tasavvur uyg‘otishdan iborat. Shu orqali bola o‘zini kitobxonlikning qaysi bosqichida ekanligini anglay oladi, hech kim bir paytning o‘zida kitobxon bo‘lib qola olmasligini anglab yetadi.

Yapon maktablaridan birida jahon tarixidagi eng buyuk kashfiyot nima, degan so‘rovnoma o‘tkazilgan ekan. Bu so‘rovnomada ishtirok etganlar o‘zlari mo‘jiza deb bilgan turli narsalar: olov, dvigatel, atom bombasi, elektrotexnika va boshqa bir necha narsalarni tilga olishgan ekan. Biroq qatnashchilar ichidan 6- sinf o‘quvchisining “Eng zo‘r kashfiyot – kitob” deb bildirgan javobi hay‘at a‘zolariga ma‘qul tushgan ekan. Nima sababdan aynan kitob, degan savoliga u “Qolganlarning fikrlari ham to‘g‘ri, lekin kitob bo‘lmasa, ularning birortasi ham ixtiro qilinmasdi-ku!” deb javob bergan.

Xulosa qilib aytganda, kitob o‘qish jarayonida o‘quvchi qahramonlar bilan birga bo‘ladi. Ularning quvonch va tashvishlariga sherik bo‘ladi. Tadqiqotlardan ma‘lum bo‘lishicha, badiiy asar o‘qigan odam hayotda ham boshqalarning his-tuyg‘ularini yaxshi tushunar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. XIX asrda bolalar kitobxonligi: “Yoshlarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda oila va kutubxona hamkorligi” mavzusidagi konferensiya materiallari.
2. <https://saviya.uz/ijod/publitsistika/kitob-mutolaasi-haqida/>
3. xabar.uz/post/kitob-tafakkur-xazinasini
4. <http://kh-davron.uz/kutubxona/qoshimcha/rivoyatlar/kitob-oqishning-21-foydasi-haqida.html>

O‘QUVCHILARDA ADABIY TAHLIL MALAKASINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Shoxista Abbosova, Farg‘ona viloyati
Farg‘ona tumanidagi 49-maktab o‘qituvchisi

Adabiyot fanini o‘qitishning maqsadi o‘quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o‘rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o‘quvchilar ma‘naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iboratdir. Shuning uchun umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida yozuvchi tarjimayi holi va badiiy asarni sinfda o‘qish bilan birga, mustaqil o‘rganish va sinfdan tashqari o‘qishga ham

alohida e'tibor qaratiladi. O'quvchilarning ijodiy o'y-xayollarini, individual imkoniyatlarini badiiy asarlardagi yuksak badiiyat va san'atkorona tasvirlar orqali kengaytirish asosiy o'rin tutadi. O'quvchilarda adabiy asarni tahlil qilish, adabiy-nazariy tushunchalarni o'rganish malakasi shakllantiriladi. Garchi badiiy asarlarning har birini o'rganishda tarixiy-estetik tamoyillarga to'la tayanilsa-da, ularni izchil xronologik tartibda emas, balki muayyan mavzular (ruknlr) ko'lamida o'rganiladi.

O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirishda o'quv dasturi va darsliklarning ham ahamiyati katta. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasining shakllanishi adabiyot o'qituvchilarining bilimiga, dars jarayonida samarali metod va usullarni qo'llash darajalariga ham bog'liq, albatta. Shu bilan birga, darslarning ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi ham ta'lim sifatini ta'minlovchi omildir. 10-sinfda Said Ahmadning "Qorako'z majnun" hikoyasi o'rganiladi. O'quv dasturida hikoyani o'rganish uchun 2 soat belgilangan. Ajratilgan vaqtning birinchi soatida Said Ahmadning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni haqida o'quvchilarga ma'lumot berishga, hikoyani to'la holda o'qib, mazmunini o'zlashtirishga erishish mumkin. Keyingi soatda asardagi Saodat aya obrazining o'ziga xos milliy tasviri, ona va bola o'rtasidagi munosabatning teran badiiy talqini, it obraziga yuklangan g'oyaviy mazmun hamda hikoyaning tarbiyaviy qimmatini ochib beriladi.

Asar tahlili jarayonida Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasidagi "Qochoq" deb nomlangan parcha bilan "Qorako'z majnun" hikoyasi qaysi jihatdan bir-biriga o'xshashligiga e'tibor qaratiladi. Bular – ona va bola munosabati, ular o'rtasidagi mehr-muruvvat ildizlari. Agar shu insoniy fazilat va ildizlar qurisa, oradagi ko'ngil yaqinligi ham barham topadi.

Dars davomida yozuvchi mahoratini tahlil qilish zarur. Adib yo'l bo'yi itning har bir harakati, qiliqlari, sakrashi, shamoldek yelishi, xursandligi va xafaligi, "bir qulog'ini dikkaytirib, bittasini shalpaytirib erkalik" qilishlarini, yo'lda uchragan mushuklarni "tiraqaylatib quvishi", "daraxtlardagi musichalarga irg'ishlab" akillashi kabi holatlarni – barcha-barchasini mahorat bilan tasvirlaydi. Yozuvchi mehr bilan ta'riflagan "kichkinagina, belida belbog'dek ikkita – biri qora, biri jigarrang chizig'i bor", "tumshug'i bilan ikki ko'zi qop-qora, bir ko'zining tepasida to'mtoq qoshi bor" it hikoyaning boshidan oxirigacha Saodat kampirga doimiy hamrohlikda tasvirlanadi. Vafodor it Saodat kampir bilan deyarli bir xil kayfiyatda: xafa bo'lsa xafa, xursand bo'lsa xursand, kampir o'ygacha cho'msa, u ham o'y surgandek bir nafas tinchiydi. Garchand kampirni

sogʻintirgan boʻlsa ham, Boʻrixon itdan koʻra Saodat ayaga begonaroqdir. Hikoyada Saodat kampir vafotidan soʻng yozuvchi Qorakoʻzning ruhiyatini anglatish maqsadida oʻtkir qalami bilan uning qora koʻzlariga ikki tomchi yoshni chizib qoʻyadi. Hikoya oxiridagi Qorakoʻz majnunning oʻlimi oʻquvchini mahzun qiladi.

Oʻquvchilar eʼtiborini hikoyaning badiiy til xususiyatlariga qaratish mumkin. Asar nihoyatda loʻnda, sodda, tushunarli tilda voqea bayon etiladi. Tahlil jarayonida oʻquvchilarga quyidagicha savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Hikoya nima uchun “Qorakoʻz majnun” deb nomlangan?
2. Asardagi Saodat aya obraziga tavsif bering.
3. Saodat ayaning yoshligi qanday tasvirlangan?
4. Hikoyadagi Boʻrixon obraziga tavsif bering.
5. Boʻrixon nima uchun oʻzbekka oʻxshamay qolgan? Uning eʼtiqodida qanday boʻshliq bor deb hisoblaysiz?
6. Saodat aya nima sababdan Boʻrixonning goʻdakligidagi kiyimlarini olovga tashlaydi?
7. Itning oʻlimiga kim aybdor?

Demak, oʻquvchilarda tahlil malakasini tarkib toptirish ham nazariy, ham amaliy bilimlar va malakalarni birlashtiruvchi taʼlim jarayonini oʻz ichiga oladi. Yangilangan taʼlim texnologiyasi talabiga koʻra oʻquvchini oddiy tinglovchi darajasidan faol izlanuvchi, fikrlovchi, ijodkor oʻquvchi darajasiga yetkazish maqsadi ana shunday amaliy jarayonlarda yuzaga chiqadi.

Taʼlimning turli bosqichlarida oʻrganish uchun saralab olingan asarlarga qoʻyiladigan asosiy mezonlar sifatida ularning yuksak badiiyati, insonparvarlik yoʻnalishi, oʻquvchi shaxsining yosh xususiyatlarini eʼtiborga olgan holda uning kamoloti uchun koʻrsata oladigan ijobiy taʼsiri, milliy va umuminsoniy gʻoyalarga uygʻunligi, milliy va jahon adabiyoti tarixida tutgan oʻrni singari belgilar asos qilib olinadi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot darslarini tashkil etishda xilma-xil metod va usullardan foydalanish mumkin. Dars samaradorligi oʻqituvchining darsni ilmiy-metodik jihatdan toʻgʻri tashkil etishi, bilimi, ijodkorlik qobiliyati bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yoʻldoshev Q. Adabiyot oʻqitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Oʻqituvchi, 1996.
2. Mirqosimova M. Oʻquvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. Monografiya. – T.: Fan, 2006.

3. Zunnunov Z. Adabiy asar tahlili metodikasi. –T.: O‘qituvchi, 1978.
4. To‘xliyev B. va boshq. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. II qism. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.

NAVOIY ASARLARINI O‘RGANISHDA LUG‘ATLAR BILAN ISHLASH

Malika Suyunova, Qarshi shahri 12-maktab ona tili adabiyot fani o‘qituvchisi

Uzoq tarixga ega bo‘lgan o‘zbek xalqi ijtimoiy-siyosiy va g‘oyaviy to‘siqlarga qaramay, O‘rta Osiyodagi boshqa xalqlar kabi ilg‘or fikr egalari, dunyoga mashhur buyuk olim, shoir va san‘at ahllarini yetkazdi, insoniyatga ilm-fan, madaniyat va adabiyot sohasida o‘lmas yodgorliklar taqdim etdi. Shuningdek, hozirgi davrda har tomonlama yetuk, ilmiy salohiyati yuqori barkamol shaxsni tarbiyalash uchun yurtimizda ta‘lim-tarbiyaga qaratilayotgan e‘tibor alohida ahamiyatga egadir. Inson shaxsida ruh, tafakkur va til chambarchas bog‘liqdir. Demak, ijodiy va mustaqil taffakkurli shaxs tarbiyasida adabiyot va uning ta‘limini tashkil etuvchi vositalarning ahamiyati kattadir. Adabiy ta‘limga yetarlicha e‘tibor qaratish orqali jamiyat egasi bo‘lgan komil insonni tarbiyalash yanada samarali bo‘ladi. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan belgilangan 2030-yilgacha yangi ta‘lim konsepsiyasida “Ta‘lim – taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat” sifatida e‘tirof etilib, aynan “ta‘lim olish evaziga kishilar hayotini o‘zgartirish” asosiy vazifalardan biri sifatida qo‘yildi. Shuningdek, “sifatli ta‘lim berish, ta‘lim olishni yaxshilash va o‘zlashtirish natijalarini baholash usullarini takomillashtirish” kabi dolzarb vazifalar belgilandi [1; 6–7-b.].

Albatta, bu borada ulug‘ mutafakkirimiz Alisher Navoiy ijodini o‘rganishning o‘rni beqiyosdir. Alisher Navoiy dunyo tafakkuri tarixida o‘zining abadiyatga daxldor asarlari va benazir dahosi bilan turkiy xalqlarning ma‘naviy siymosini yarata olgan hamda asarlarida tarannum etgan ezgu g‘oyalari bugungi kungacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelayotgan so‘z san‘atkoridir [8]. Mumtoz adabiyotni o‘rganish orqali o‘quvchilar tafakkur dunyosini oshirish va tarix bilan yaqinlashish imkonini beradi. Navoiy baytlari bizning hayotimizga bolalikdan, dastlabki o‘qish kitoblari, o‘qituvchining pand-nasihatlarini bilan kirib keladi. Uni o‘qish, o‘rganish milliy ma‘naviyatimizni yuksaltirishga,

jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishga xizmat qiladi. Bugungi kun adabiyotimizning ma'naviy zamini sanalgan, ming yillik badiiy xazinaga ega mumtoz adabiyotimizni tushunish, his qilish, tahlil va talqin etishda o'sha davr leksikasini o'rganish, undan chuqur xabardor bo'lish har bir filolog yoinki, ona tili adabiyot o'qituvchisi uchun muhimdir. Jumladan, Navoiy asarlari leksikasi va mazmun mohiyati mumtoz adabiyotning zalvorli qismini tashkil qiluvchi manbadir. Ayniqsa, buyuk mutafakkir yaratgan "Xamsa" zamonlar osha o'z qimmatini yo'qotmay kelayotgan o'lmas asarlardan sanaladi. Hozirgi davr o'quvchilari uchun bunday asarlar biroz qiyinchilik tug'dirmoqda, sababki, Navoiy davri tilining ko'pgina so'zlari bizning davrimizga kelib arxaiklashgan va ba'zilar tarixiy leksikaga aylanib ulgurgan. Shuning uchun ham "Xamsa" dostonlarining asl matnini o'qish hozirgi zamon o'quvchisiga biroz murakkablik tug'diradi. Biz tadqiqotimizni aynan Navoiy asarlarini uzviylik asosida o'rganish va o'rgatishga bag'ishladik. Ma'lumki, o'rta maktab adabiyot ta'limining konseptual asoslarida uning zaruriy vositasi ikkita ekanligi ta'kidlanadi: darslik va lug'atlar. O'quvchilarning ijodiy tafakkurini va nutqini o'stirishning zaruriy omillaridan biri lug'atlar ustida ishlashdir. Lug'atlar o'quvchilarning ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlash darajasi, ijodiy fikr mahsulini og'zaki va yozma shakllarda ravon bayon etishga olib keladigan behad qimmatli va boy so'z zahirasini vujudga keltiradi. Quyida Navoiy asarlarining maktab darsliklarida taqsimotini ko'ramiz. Asarlar shunday mantiqiy ketma-ketlikda berilganki, o'quvchilar asarlarning g'oyaviy maqsadini anglashda va so'zlarning ma'nosini to'g'ri tafakkur qilishda bunday uzviylik ular uchun qo'l keladi.

Sinflar kesimi	Navoiy asarlarining berilishi
5-sinf	"Hayrat ul-abror" hikoyatlaridan parcha
6-sinf	"Mahbub ul-qulub"dan parcha
7-sinf	"Sab' ai sayyor"dan parcha
8-sinf	Navoiy lirikasidan namunalar
9-sinf	"Farhod va Shirin"dan parcha
10-sinf	Navoiy lirikasidan namunalar
11-sinf	"Saddi Iskandariy"dan parcha

Ayniqsa, Navoiy asarlarida qo'llanilgan so'zlar mohiyatini o'rganish o'quvchini mumtoz adabiyotga yaqinlashtiradi. Ta'kidlash lozimki, Navoiy asarlari tilida iste'molda bo'lgan so'z boyligining katta qismini asl turkiy qatlam tashkil etadi. Bu qatlam tarkibida 1400 atrofida qadimgi

turkiy til (VII–X) va eski turkiy til (XI–XIV)ga xos leksik birliklar o‘z ifodasini topgan. Taxminan 7-8 asrlik vaqt davomida faol ishlatilishda bo‘lgan ushbu qatlamda ko‘plab kichik semantik bo‘laklar mavjud [4]. O‘quv jarayonida bir tilni ikkinchisi bilan taqqoslab o‘rganish samarali usul hisoblanadi. Masalan, 6-sinf “Adabiyot” darsligidagi quyidagi ruboiyni tahlil qilib ko‘ramiz.

Berilgan to‘rtlikni o‘qing, undagi notanish so‘zlar lug‘atini tuzing va yod oling.

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,

Jismni qil sadqa ano boshig‘a.

Tun-kuningni aylagali nur posh,

Birisini Oy angla, birisini Quyosh.

For the father’s life, pay with thine own;

For wrongs to the mother, the head shall alone.

Sun and moon of the life are they,

Lighting the pathway night and day.

Nur	Light
Ota	Father
Oy	Moon

Nafaqat genial shoir, shuningdek, zabardast olim hisoblanmish Navoiy ona tili qurilishidan to‘la xabardor bo‘lgan, ayniqsa, uning lug‘at boyligini mukammal egallagan. Navoiy eski o‘zbek adabiy tili so‘z xazinasining asosini tashkil etuvchi asl turkiy so‘zlar ma’no nozikliklarini yaxshi farqlagan, ularni asarlari ichiga olib kirgan, matn tarkibidagi badiiy-estetik o‘rnini ochib bergan. Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn”da eski o‘zbek adabiy tilining cheksiz imkoniyatlarini ko‘rsatish maqsadida keltirgan *yuzta fe’lning 60 tasi qadimgi turkiy tilda qo‘llanishda bo‘lgan. Qolgan 39 ta fe’lning 8 tasi mo‘g‘ul tiliga oid bo‘lsa, 31 tasi esa, eski o‘zbek adabiy tiliga xos fe’llar hisoblanadi* [2]. Bizga asosiy qonuniyatlar, lug‘at tarkibining boshlang‘ich davridan hozirgi kunga qadar bo‘lgan taraqqiyot yo‘llari ma’lum bo‘lmog‘i lozim.

Alisher Navoiy hayoti va ijodining maktab darsliklarida yoritilishi o‘quvchilarning yosh va aqliy imkoniyatlaridan kelib chiqib kiritilgan. Pand-nasihati ruhidagi asarlardan boshlanib tasavvufiy yo‘nalishdagi “komil inson”ni madh etuvchi asarlar bilan yakunlanishi ham ayni shundan dalolat. Alisher Navoiy o‘zining epik asarlarida komil inson timsollarini yaratgan bo‘lsa, ta’limiy axloqiy asarlarida komil insonni shakllantirish yo‘llari haqida fikrlaydi. “Mahbub ul-qulub” asarida ilm o‘qib, uni ishlatmagan kishini shudgor qilib, dehqonchilik qilmagan yoki

urug‘ sohib, hosil ko‘tarmagan kishiga o‘xshatadi: “Ilm o‘qib, qilmag‘on amal maqbul, Dona sohib, ko‘tarmadi mahsul” [3]. Alisher Navoiyning komil insonni shakllantirishga oid fikrlari, ta‘limiy-axloqiy qarashlari milliy pedagogik fikr taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchi ilk bora Navoiy epik asarlari olamiga chuqur kirgani sari o‘zida shaxslik sifatlarini kashf eta boradi. Chunki ular o‘quvchilarda mehr, hurmat, ota-onaga, vatanga sadoqat kabi insoniy fazilatlarini uyg‘otadi. Shuning uchun ham Navoiy asarlarini tahlilida o‘quvchilar yosh xususiyatlari, ularning adabiy tayyorgarligini to‘g‘ri hisobga olish muhim o‘rin tutadi. Jumladan, umumta‘lim maktablarining 5–6-sinflarida asosan epik turning kichik janrlari ko‘rinishidagi asarlardan (“Hayrat ul-abror”, “Mahbub ul-qulub”) parchalar keltiriladi (“She‘r ila durroj”, “Saxovat”, “Hilm”). Asarlarni yirikroq ko‘lamda o‘rganish, asosan, yuqori sinflarda (Navoiy lirikasi, “Saddi Iskandariy” dostonidan parcha) akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda amalga oshirish rejalashtirilgan. Ularning har birini o‘rganishda o‘ziga xos usul va shakllardan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Navoiy asarlari, umuman, mumtoz asarlarni tahlil qilish mushkul. Ayniqsa, eskirgan, fors va arabiy so‘zlar ko‘pligi, o‘sha davr badiiy talablari, adib uslubi bilan bog‘liq holatlar shular jumlasidandir. Bugungi kunda hazrat Navoiy adabiy merosini yosh avlod ongiga singdirishda ulug‘ so‘z san‘atkori ijodini filologik asnodda o‘rganish bilan birga o‘qitish metodikasiga oid ilmiy tadqiqotlar nihoyatda asqotishi tabiiy. Shu ma‘noda ulug‘ shoir badiiy asarlarini o‘rgatish yuzasidan metodist olimlarning qator ilmiy tadqiqotlariga va fikrlariga nazar tashlaymiz. Metodist olim S.Matjonning ta‘kidlashicha: “Ayrim o‘qituvchilar epik asarlar tahlilini jo‘nlashtirib, yozuvchini o‘quvchi bilan yonma-yon qo‘yib qo‘yadilar. Holbuki, o‘quvchilarni yozuvchining badiiy-ijodiy olamiga boshlash zarur. Buning uchun asar tahliliga oid mustaqil ishlarni o‘tkazishda o‘quvchilar oldiga “Qahramonning bu ishi to‘g‘rimi?”, “Uning o‘rnida bo‘lganda nima qilar eding?” kabi ijodiy keng fikrlashga qaratilmagan savollar o‘rniga: “Yozuvchi uni nima uchun aynan shu holatda tasvirlaydi?” singari savollar qo‘yilsa, yozuvchining ijodiy laboratoriyasi bilan chuqurroq tanishishga imkon tug‘iladi” [7].

Hozirgi tez rivojlanayotgan zamonda har bir mamlakatning o‘zligini anglagan, o‘z taraqqiyot yo‘liga ega bo‘lgan bugungi kunda bunday tarixiy asarlarning ahamiyati katta. Bugungi davlatchiligimiz siyosati, komil inson tarbiyasi va buyuk kelajak qurish yo‘lidagi sa‘y-harakatlarimiz, albatta, ota-bobolarimizning yo‘l-yo‘riqlari, pand-nasihatlari va boy madaniy merosiga asoslangan. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov

chiqishlaridan birida “Bugunning qahramoni” mavzusiga e’tibor qaratadilar. Har bir davrning o‘z qahramonlari bo‘lganidek, bugungi davr nafasi bilan yashayotgan, bugungi tashvishlar bilan kurashayotgan zamonamiz qahramoni obrazini yaratish borasida u kishi adabiyotshunoslar va san’atning barcha sohalari vakillariga turli takliflar berdilar [5]. Xo‘sh, bugungi kun qahramoni qanday bo‘lishi lozim? Uning ichki dunyosi, tashqi qiyofasi va nutq madaniyati qanday bo‘lishi kerak? Zamon qahramoni obrazini yaratishda eng muhim omillardan biri uning nutqidir. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlarda davlat rahbarlari, siyosiy arboblar va hukumat boshliqlarining nutqini obrazlashtirish va badiylashtirish borasida maxsus ishchi guruhlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Ta’limda usullar to‘g‘ri tanlansa, ko‘zlangan natijaga qisqa yo‘l bilan erishish mumkin. Ta’lim-tarbiya sohasining to‘xtovsiz takomillashib borishi va yangi imkoniyatlarning yuzaga kelishi umumta’lim muassasalari oldida turgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘qitish usullarini muttasil yangilab turishni taqozo etmoqda. Muammoli o‘qitish texnologiyasi boshqa interfaol o‘qitish usullari bilan bir qatorda interfaol usul sifatida ham ta’kidlab o‘tilgan. Ana shu “Muammoli vaziyat” interfaol usuli epik asarlarni tahlil qilish jarayonida o‘qituvchi tomonidan qo‘llangan darsning samarali o‘tishiga xizmat qiladigan interfaol usuldir.

“Muammoli vaziyat” metodi

Muammoning turi	Muammoning kelib chiqish sababi	Muammoning yechimi

O‘qituvchi dostonidan berilgan parchani uyga o‘qib kelishga topshiradi. O‘quvchilar parcha bilan tanish bo‘lishadi. O‘qituvchi sinfni uch guruhga bo‘ladi va guruhni nomlaydi. Qissa sujetidan kelib chiqib, guruhlarini “SADOQAT”, “HAYRAT”, “MUHABBAT” deb ham nomlasa bo‘ladi. O‘qituvchi proyektor orqali “Hayrat ul-abror”dan biror maqolot asosidagi kinofilmdan lavhani namoyish etadi va o‘quvchilar ushbu parchadan va lavhadan muammolar topishadi hamda uni A–3 formatga tushirishadi. Vaqt tugagach, guruhlar varaqlarni almashadilar va har kim o‘ziga yoqqan muammoni olib, o‘qituvchi bergan jadvalni to‘ldiradi. Shu o‘rinda Alisher Navoiy asarlari lug‘atlaridan foydalanish lozimligini ham ta’kidlab o‘tamiz [9].

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchining o‘z darsi oldiga qo‘ygan maqsadi, ta’lim muassasasining belgilagan vazifasiga ko‘ra ta’lim

muammoli yoki oddiy – muammosiz bo‘lishi mumkin. O‘quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishni asosiy maqsad qilib olgan pedagogik jamoa, ularning ijodkorligiga yo‘l izlayotgan o‘qituvchilar mumtoz adabiyotni o‘rgatishda o‘z oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarni to‘g‘ri va samarali hal etishi mumkin. Adabiyot darslarini tashkil etishda o‘quvchiga beriladigan mavzular va amaliy topshiriqlar mohiyati oddiydan murakkabga qarab borilishini ta‘minlashni taqozo etadi. Shuning uchun ham Navoiy asarlarini darsliklarga tatbiqida aynan qoidaga rioya qilingan. Chunonchi, izchil va uzluksiz adabiyot ta‘limi mobaynida yoshlar nutq madaniyatini talab darajasida egallashlari uchun ham yo‘l ochiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all.
2. Алишер Навоий. Муҳокаматул-луғатайн. –Т.: Akadernashr, 1983. – 128 б.
3. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. –Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. – 112 б.
4. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Т.: Фан, 1983. – 158 б.
5. I.A.Karimov. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Т.: Ma‘naviyat, 2008.
6. Матчонов С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 236 б.
7. Yusupova D. O‘zbek mumtoz va milly uyg‘onish adabiyoti (Alisher Navoiy davri). – Т.: Tamaddun, 2016. – 330 б.
8. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик. Э.И.Фозилов таҳрири остида. – Т.: Фан. 1983-1985. Яна қаранг: Муҳаммад Ризобек Хоксор. Алишер Навоий асарлари луғати. –Т.: Akadernashr, 2017. –416 б. Яна: Навоий асарлари луғати (Алишер Навоий асарлари ўн беш томлигига илова). Тузувчилар – П. Шамсиев ва С. Иброҳимов. –Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 784 б.

ADABIYOT DARSLARIDA INSHO YOZISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

N.Yakubova, Urganch tumani 15-son umumiy
o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
Sh.Eshchanova, UrDU qoshidagi 2-son AL
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasida takidlaganlaridek, “...ta’limning barcha bosqichlarida xalqaro andozalarga to‘liq javob beradigan axborot texnologiyalari joriy etilishi shart. O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz”, [2] degan fikrlari bugungi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarurligini belgilab beradi.

Ma’lumki, bugungi kunda yurtimizda oliy o‘quv yurtlariga kirish imtihonlari testlar asosida amalga oshirilmoqda. Shuning uchun o‘quvchilar, ota-onalar, hatto o‘qituvchilar o‘quvchilarning insho yozishiga e’tiborini susaytirdilar. To‘g‘ri, insho oliy maktabga kirish vositasi emas. Lekin u umumiy o‘rta ta’limda ham, o‘rta-maxsus kasb-hunar ta’limida ham o‘quvchilarning adabiyot darslaridagi asosiy ish turlaridan biri hisoblanadi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ta’lim tizimi oldiga mustaqil mulohaza yurita oladigan ma’naviy barkamol shaxslarni shakllantirish vazifasini qo‘ygan. Insholar esa inson tafakkurini charxlash, dunyoqarashini kengaytirish, fikrlarini, qarashlarini qat’iylashtirish, ma’naviyatini shakllantirish va rivojlantirish omili hisoblanadi. Shuning uchun adabiy ta’limning barcha bosqichlarida o‘quvchilarga insho yozdirish shart.

O‘quvchida ijodga ehtiyoj hissini unda atrofni o‘rab turgan tabiat, bezovta qilayotgan voqea-hodisalar, insonlarni anglash ko‘nikmasini shakllantirmay turib tarbiyalab bo‘lmaydi. Ta’lim tizimida faqat adabiyotgina o‘quvchini insoniyatga oshno etadi, uni odamlar dunyosiga olib kiradi, o‘zidagi shu olamga mansublik jihatlarni ochishga ko‘maklashadi. Bu o‘z navbatida, unga o‘zligini anglatadi. Bularni o‘zgalardan eshitib, ta’sirlanish boshqa, insonning o‘zi tuyishi boshqa. O‘quvchi oddiy inson sifatida omadsizliklar, mag‘lubiyatlar, iztiroblar ketidan erishilgan g‘alaba nashidasini, lazzatini tuyishi kerak. Dars jarayonida o‘quvchilarning “uyg‘onishi”, aqliy va ruhiy muvozanatdan

chiqishi, zo'riqishi adabiyot darslarining muhim xususiyatlaridan biridir. Har bir adabiyot darsidan so'ng o'quvchida kitob o'qishga, ijodga, san'atga ehtiyoj qolishi zarur.

Insho yozish esa ijodiy jarayon. Shuning uchun o'quvchini bunday ijodiy ishga undashda unga xos shu kabi qator tabiiy xususiyatlarni inobatga olish, ruhiyatini bezovta qila oladigan, uni qiziqirgan mavzuda yozishga yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Gap shundaki, insho yozish o'quvchida tuyg'ularini, munosabatini o'z so'zlari bilan ifodalab berishga qiziqish uyg'otilganda yengil va muvaffaqiyatli amalga oshadi. O'quvchi ko'pincha yozishga arziydigan salmoqli gaplari yo'qligi uchun yomon yozadi.

Adabiyot darslarida insho yozdirishdan maqsad sinfdagi barcha o'quvchilarni ijodkor qilish emas, albatta. Muhimi, tarbiyalanuvchida badiiy so'zga moyillik tuyg'usining ayrim jihatlari, belgilari paydo bo'lsa, juda bo'lmaganda, darsda o'rganganlariga munosabat bildirishga odatlansa, unda insonparvarlik, shaxslik kurtaklari paydo bo'ladi. O'zida barkamollik sifatlarini shakllantirishga yuz tutgan bola rivojlanish sari intilishi, tabiiy.

O'quvchini faqat o'zi yaxshi bilgan, u ko'p va chuqur o'ylagan narsasi haqida yozishga o'rgatish kerak. Yaxshi bilmagan, tushunmagan mavzu haqida yozishdan azobli narsa yo'q. O'quvchiga bunday topshiriq berish unda ko'proq yuzakilikni tarbiyalash demakdir. O'quvchi shaxsida ijodkorlikni, bezovta, uyg'oq qalbni tarbiyalash uchun, avvalo, unda atrof-muhitga, tabiatga, hayvonot va nabotot olamiga, insonni anglashga kuchli qiziqish uyg'otiladi. Tarbiyalanuvchini o'zi yaxshi bilmaydigan, yaxshi ko'rmagan, qiziqmagan mavzuda yozishga majbur qilmagan ma'qul. Afsuski, o'qituvchilar ko'pincha buning aksini qilishadi.

O'quvchlarda ijodkorlikni stirish uchun ularni ijodga undovchi material, stimuly va erkinlik berish, ularni o'qitishni bas qilib, o'qishga yo'nalish berib turish zarur. O'quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyati bo'lmish insholarni tashkil etishda quyidagilarga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

a) o'quvchiga katta va xilma-xil mavzularni tanlash ixtiyorini berish. Bu mavzular o'quvchilar uchun maxsus tanlangan bo'lmay, o'qituvchining o'zi uchun ham jiddiy va qiziqarli bo'lishi kerak;

b) o'quvchilarga o'rtoqlarining insholarini o'qishga berish va namuna sifatida ham faqat bolalarning ishlarini tavsiya etish;

v) o'quvchilarning insholarini tekshirayotganda daftarinin ahvoliga, xatining sifatiga, xatolariga va ayniqsa, uning ifoda tarziga,

aytish joiz bo'lsa, uslubi bo'yicha hech qachon tanbeh bermaslik kerak. Adabiyot darslarida maqsad ijodga yo'naltirish bo'lganda bu jihatlar ikkinchi darajada qoladi;

g) ijod paytida hajm va mazmun masalasi, uning tili diqqat markazida turmaydi.

O'quvchi bularga e'tibor qilsa, asosiy fikrini unutib qo'yishi mumkin. U yozuvchi emas. Til, uslub, husnixat va imlo masalasi, odatda, ona tili darslarining zimmasiga yuklanadi.

Odatda, o'quvchilar o'z ijodiy insholarida darslik mualliflari yoki o'qituvchining timsollar haqidagi fikrlariga "yopishib" olishadi. Buning asosiy sabablari ularning yozma ishni qanday bajarishni bilmasligi, o'z fikrini ifodalashga o'rgatilmagani, timsollar haqida shaxsiy qarashlarining yo'qligi, asar mazmuni yoki matnning qaysi o'rni va jihati ta'sir etganini ajrata olmasliklaridir. O'quvchilarning yozma ishlarini tashkil etishdan oldin o'qituvchi ular badiiy asarni qanday o'qiganlari va qanchalik tushunganlarini aniqlab olishi zarur. Shunday maqsad bilan tashkil etilgan suhbatlar asnosida asar yuzasidan o'quvchilar anglamay qolgan jihatlar va buning sabablari aniqlanadi. Shundan kelib chiqib ma'lum darajada tushuntirish ishlari amalga oshiriladi. Ayni vaqtda o'quvchida mustaqil fikr, sog'lom ma'naviyat shakllantirish yo'lida ham ishlanadi.

O'quvchilarga insholarning o'ylantiradigan, qiynaydigan yoki sevintiradigan tuyg'ularga hamohang mavzularda bo'lishi yoqadi. Masalan, ma'lum shaxs haqidagi insho mavzulari: "O'rtog'imning tavsifi", "Mening do'stim", "Mening akam"; o'rganilgan asarlar yuzasidan: "Menga yoqqan qahramon", "Hoshimjonga munosabatim", "A.Oripov ijodidan olgan taassurotlarim", "O'.Hoshimov ijodining qaysi tomonlarini qadrlayman va yaxshi ko'raman" kabi mavzular istisnosiz ijodiy tafakkurni, tom ma'noda mustaqil fikrlashni talab qiladi.

Sinfda o'rganiladigan badiiy asar mutolaasi davomida o'quvchilarga insho yozishda qo'l keladigan muhim so'z va iboralarni belgilab borishni o'rgatish ham samarali ish turi hisoblanadi. Bu o'quvchilarni asar mutolaasi davomida ruhan insho yozishga tayyorlaydi, matndagi muhimni nomuhimdan farqlashga o'rgatadi. Masalan, o'quvchilarga "Abdulla Qodiriy ijodida nimani qadrlayman va sevaman?" mavzusida insho yozdirish uchun, avvalo, Abdulla Qodiriyning asari o'quvchi sevib qola oladigan darajada tahlil qilinadi. Asardan faqat Abdulla Qodiriy uslubiga xos bo'lgan, o'quvchi-kitobxon qalbini titratadigan o'rinlarni uning o'ziga kashf qildiriladi. Bunday mavzularda ko'nglida o'ylab yurgan, ayta oladigan o'z original gapi bor o'quvchilargina insho yozishlari mumkin.

Shunda maktabda o'rganiladigan shoir yoki yozuvchi ijodiga o'quvchining chinakam muhabbatini ko'rsatadigan, o'quvchi-muallifning aqliy va ruhiy darajasini namoyish etadigan chinakam mustaqil, o'zgalardan o'zlashtirilmagan insholar yoziladi.

Insho muallifi har bir ishda o'z fikrini ifodalashi, yoki o'zgalarning aytganlariga qo'shilish-qo'shilmasligi sabablarini izohlashi kerak bo'ladi. Biror fikrni yoqlash yoki inkor etish ham mustaqil tafakkurni talab qiladi. O'quvchi o'z fikrlarini ifodalashni, ularga ishlov berishni bilishi, o'qituvchi esa darslik yoki qo'llanmalardan ko'chirilgan qolipdagi ishni emas, aynan inshoni, ijod mahsulini olishi va tekshirishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Insholar tekshirilar, tahlil qilinar ekan, didlarni "ikki" yoki "yomon" baholar bilan so'ndirish emas, ular haqida tortishish, bahslashish kerak. Insho yozgan o'quvchining fikrlarini hurmat qilgan holda, yozma ishlardagi biror detalni e'tiborsiz qoldirish mumkin emas. Muvaffaqiyatli chiqqan fikr va xulosalarni ko'rsatish, rag'batlantirish, noto'g'ri ifodalar haqida jiddiy mulohazalar aytish, nohaqligiga o'quvchining o'zini ishontirish zarur. Insholarning asosiy pedagogik qimmatini ularning mustaqil mulohazalarga qanchalar boyligi, muallif qarashlarining qay darajada asoslanganligi bilan o'lchanadi.

Adabiy ta'limda bevosita o'quvchi shaxsiga qaratilgan erkin mavzudagi insholarning o'qituvchi tomonidan sir saqlanish kafolati ham bo'lishi kerak. O'quvchining o'qituvchiga ishonchi uning ijodidagi samimiylikka garovdir. Fikr va faoliyatning mustaqilligi ruhiyat mustaqilligining ko'rinishi, mahsuli hisoblanadi. Aqlning chinakam mustaqilligi, tafakkur yetukligi, mulohazalarning rost va samimiyligi hayot, badiiy so'z hamda san'at hodisalarini tahlil qila bilish mahoratida ko'rinadi. Tafakkur mustaqilligining bunday darajasiga o'quvchilar oldiga hal qilish bilan dunyoqarash, axloqiy va estetik nazarlar shakllanadigan murakkab masalalar qo'yish orqali erishiladi. Hech qanday fikr yo'qligidan, noto'g'ri bo'lsa-da, qarashlarning borligi ma'qul. Yo'q narsani yaratishdan ko'ra borining yo'nalishi yoki shaklini, mazmunini o'zgartirish, unga mantiq solish osonroq. Muhimi fikrning, munosabatning mavjudligidir.

O'quvchilarning uyda yoki sinfda yozgan insholari katta mustaqil ish hisoblanadi. Ularga:

- o'z fikrini reja asosida, mavzudan chiqmay, izchil bayon etish;
- aytilgan fikrlar, chiqarilgan xulosalarni asoslash va dalillar bilan isbotlash;

– badiiy asar yoki darslik mualliflarinikidan farqli ravishda o‘z xulosasini chiqarish va badiiy umumlashmalar qilish;

– o‘z qarashlarini to‘g‘ri va savodli bayon qila olish kabi talablar qo‘yiladi.

Yozma ishlardagi xatolarni tuzatishda pedagogik texnologiyaning metod va usullaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Jumladan, “Ikki qismli kundalik” metodidan foydalanishni quyidagicha tashkil qilish mumkin:

“Ikki qismli kundalik” metodi yozma nutqni rivojlantiradi. Bu metod o‘qib chiqilgan mavzu bo‘yicha tushunchalarni shaxsiy tajriba bilan bog‘lashga imkon beradi.

Maqsad: o‘rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg‘otish, yozma nutqni rivojlantirish.

1-bosqich. O‘quvchilarga oldindan tayyorlab qo‘yilgan matn o‘qish uchuy taklif etiladi.

2-bosqich. Hamma matn bilan tanishganiga ishonch hosil qilib, daftarni vertikal chiziq bilan ikkiga bo‘lish so‘raladi.

3-bosqich. O‘quvchilarga, daftarning chap tomoniga muallif sitatalar (g‘oyalari, fikrlari)ining yoqqanlarini (yoki yoqmaganlarini) yozishlari aytiladi.

4-bosqich. O‘ng tomonga o‘quvchi mazkur sitataga berilgan o‘zining izohini yozadi, ya‘ni o‘qilgan matn haqidagi tushunchasini umumlashtirib beradi.

5-bosqich. Topshiriqni shu qismi tugagandan keyin o‘quvchilarga (o‘z xohishiga ko‘ra) bittadan sitatalarni va ularga yozilgan izohni o‘qish taklif etiladi. Sitata va ularning izohi o‘qilayotganda savol berish yoki mazkur sitataga o‘z izohini berishga ruxsat etiladi.

6-bosqich. O‘quvchilar sherik (kichik guruhlar) bo‘lib ham ishlashlari mumkin.

“Tushunchalar tahlili” metodi asosida o‘quvchilarning imlo savodxonligini yaxshilash mumkin. Bu metodni jadval asosida slaydlarda namoyish etilgani ma‘qul:

Tushunchalar	Tushunchalar tahlili
I va U unlisining imlosi	
H va X harfining imlosi	
Qator kelgan unlilar imlosi	
Qator kelgan undoshlar imlosi	
Tutuq belgisining qo‘llanilishi	
Bo‘g‘in ko‘chirish qoidalar	

Bu kabi xatoliklardan o'quvchilarni qutqarish uchun o'qituvchi ishlarning tahlili va xatolar ustida ishlash darslarida ularni aniq misollar bilan ko'rsatishi, xatolarning sabablarini aniqlashi, reja tuzishda umumiy, mavhum gaplardan qochishga o'rgatishi, tuzilgan rejaning bndlari va inshoning o'zini mukammal, batafsil tahlil qilib berishi kerak. Xatolar ustida bu tariqa ishlash yuqoridagi kamchiliklarning bartaraf etilishida katta ahamiyat kasb etadi.

Xullas, adabiyot darslarida, u ta'limning qaysi turida bo'lishidan qat'i nazar, o'quvchilarga insholar yozdirish ularning barkamol avlod bo'lib shakllanishiga ko'maklashadi.

Bu uslubiy tavsiyalar ona tili va adabiyot darslarida olib boriladigan amaliy va nazariy bilimlar orqali darslarni samarali olib borishga va o'quv materiallarini chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. –T., 2008.
2. <https://lex.uz/>
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qo'llanma. – Qarshi, Nasaf, 2000.
4. Sattorova N. O'quvchilarda insho yozish malakasini takomillashtirish. Nomz. diss. aftoreferati. – T., 1995.
5. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T., Yangi asr avlodi, 2006.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi // Xalq so'zi. 2020-yil 25-yanvar, 19-son.

ADABIYOT DARSLARIDA TADQIQOT USULIDAN FOYDALANISH (Shayxzoda ijodi misolida)

Mohigul Jo'rayeva, Toshkent shahar
Olmazor tumanidagi 298-maktab o'qituvchisi

Ma'lumki, tadqiqot usuli ijodiy fikrlashni rivojlantirishga, tadqiqotchilik faoliyatini egallashga qaratilgan mustaqil ishlarni bajarish orqali badiiy asar mohiyatini ochish, tahlil qilishni nazarda tutadi. Zamonaviy adabiyot o'qituvchisini bu usulni qo'llash orqali badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlarini kengroq ochib berish, o'quvchilarni mustaqil tahlilga o'rgatish, asarning g'oyaviy-badiiy jihatlarini baholash ko'nikmasini shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

O‘zbek adabiyotida zalvorli o‘ringa ega bo‘lgan, insoniy bag‘rikenglikda daryodil ustoz Maqsud Shayxzoda ijodi, adabiy merosini o‘rganish, asarlarini o‘quvchilar ommasiga to‘laqonli yetkazish bugungi kunning muhim vazifalaridan sanaladi. Shayxzoda keng qamrovli ijodkor, olim, tarjimon va dramaturg sifatida butun umrini ta‘lim-tarbiyaga, badiiy adabiyot rivojiga bag‘ishlagan. Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi umumta‘lim maktablaridan boshlab o‘rganiladi.

Jumladan, 8-sinf Adabiyot darsligida jami 3 soat davomida Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodi, dramaturlik faoliyati xususida so‘z yuritilib, vatanparvar asl o‘zbek o‘g‘loni Jaloliddin Manguberdi fojiasi tahlili orqali adib ijodiy biografiyasi, taxayyul olami bilan tanishish imkoniyati yaratilgan. Shayxzoda tarjimai holini o‘rganish uchun 1 soat, adib ijodining yorqin namunasi sifatida baholanishga loyiq “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy fojiasi matni bilan tanishish uchun 1 soat, asar qahramonlari tahliliga 1 soat ajratilgan. “Mirzo Ulug‘bek ilm va ma‘rifat xomiysi” mavzusida insho yozish va tahlil qilish ham rejalashtirilgan.

Ko‘rinadiki, o‘quvchilar umumiy o‘rta ta‘lim tizimida Maqsud Shayxzoda ijodi bo‘yicha qamrovli natijaga ega bo‘lishi uchun anchagina ter to‘kishiga to‘g‘ri keladi.

Pedagogika fanlari nomzodi Ravshan Tursunov “Maktablarning ixtisoslashtirilgan 11-sinflarida fojia janrini o‘rganish” nomli nomzodlik dissertatsiyasida shunday fikrlarni bildiradi: “Fojia asarini o‘rganish usul va shakllari, ta‘lim faoliyati bilan uzviy birlikda qo‘llanilishi kerak. Shundagina o‘quvchilar o‘rganilayotgan fojia asar haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish bilan birga janrga xos badiiy xususiyatlarni aniqlash ko‘nikmasini egallab oladilar. Darsliklarda fojia asar tahlilida uning inson ma‘naviy hayotid tutgan o‘rnini ochishga alohida e‘tibor qaratadilar” [2; 24-b.]. Mazkur fikrlar ilmiy-nazariy ahamiyatga molik.

“Jaloliddin Manguberdi” tarixiy fojiasi beshinchi parda birinchi ko‘rinishdagi quyidagi satrlar o‘quvchi dunyoqarashi, ma‘naviy olami uchun muhim ahamiyatga ega.

Yana mening uyqumga iblis qildi rashk,
Go‘yo janjal, balki bu sipoh qilgan mashq!
Haftalar mobaynida mizg‘idim biroz,
Tushlar ko‘rdim qayg‘uli, g‘amgin jongudoz.

El-yurt mustaqilligi, xalq hurligi uchun jonfido, tun-u kun uyqu nimaligini bilmay faqat erk uchun intilgan Jaloliddinning o‘ziga murojaati kishiga ta‘sir qiladi.

“O‘lim mangu uyqudur,” – deydi shoirlar,
Achchiq xato: o‘lmasdan buni kim bilar?
Tush olami bir bog‘dur – xayollar, qushlar,
Ammo afsus go‘rlarga kirmaydi tushlar!
Ko‘rdim chaman.. Urganchda. Amudaryoda –
Arg‘uvoniy kosada xushbo‘y bir boda,
Menga tutib qadim do‘st der edi kulib:
Ko‘p sog‘indim, shahzoda, sendan ayrilib! [153]

Shayxzoda badiiy mahorati, ijodiy niyati shu qadar cheksizki, asar matni bilan tanishgan o‘quvchi xayollari uzoq o‘tmish, qahramon bolaligi, ko‘chalarda yugurib yurgan betashvish kunlarga yetaklaydi. Birdan kitobxonni sergaklantirib, o‘tkinchi umrda ezgu nom qoldirishga, vatanni sevib ardoqlashga undaydi.

Ayni shu jarayonda adabiyot o‘qituvchisining zimmasida qisqa vaqt ichida asarning butun mohiyati bilan o‘quvchini tanishtirish mas’uliyati yuklanadi. Asosiysi, “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy fojiasi qahramonlari ruhiyatiga kirib borish, tarixiy haqiqat va badiiy talqin masalasini anglab yetish imkonini yaratish zarurati ham paydo bo‘ladi. Tadqiqot usuli yordamida aniq vaziyatda katta natijaga erishish sharoiti yaratiladi. Bunda quyidagilarga jiddiy e’tibor beriladi:

1. “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy fojiasini uyda o‘qish va o‘zi yoqtirgan biron qahramonga ta’rif berish.

2. O‘quvchilariga fojiadagi eng ta’sirlangan lavhalardan parcha o‘qitirish maqsadga muvofiq.

Bugungi kun adabiyoyot darslarida matn bilan ishlash, asar badiiyati va ijodkor poetik niyatini o‘quvchilarga his qildirish orqali ma’nan yetuk kelajakni tarbiyalash vazifasi ustuvorlik kasb etadi, deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.Olimov, S.Ahmedov, R.Qo‘chqorov. Adabiyot. 8-sinf. Darslik /. – T: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2019.

2. Tursunov R. Maktablarning ixtisoslashtirilgan 11-sinflarida fojia janrini o‘rganish (Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” asari misolida). Ped. f.n.diss.... – Toshkent, 1998.

3. Zamon allomasi. To‘plam. – Toshkent: TDPU, 2010.

GURUHLARNI NOMLASH TAJRIBASIDAN

Quvondiq Sultonov, Xorazm viloyati
Qo'shko'pir tumanidagi 39-maktab o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 19-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida "...o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish" [2] maqsadining belgilanishi o'quvchilarning individual xususiyatlarini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirishni taqozo etadi. Bu borada hamkorlikda ishlash, guruhlariga bo'lish va guruhlarini nomlash ham ijobiy samara beradi. Quyida guruhlarini nomlashning o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlari va o'zlashtirish darajasiga ta'siri xususida so'z yuritiladi:

Loyihaning maqsadi: o'quvchilarning o'zlashtirish samaradorligini oshirish, fanlararo bog'lanishni yuzaga keltirish, hamkorlikda va individual ishlash ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Loyihani amaliyotda qo'llashga oid vositalar: darslik, mumtoz adabiyot namunalari, she'riy to'plamlar, rangli qog'ozlar to'plami, markerlar, A4, A1 formatdagi standart qog'ozlar.

Kutiladigan natijalar:

1. O'quvchilarning darsga qiziqishi ortadi.
2. Darsda boshqa fanlar bilan integratsiya yuzaga keladi.
3. O'quvchilarning individual hamda hamjihatlikda ishlash ko'nikma va malakalari shakllanadi.
4. Dars musobaqa usulida tashkil etiladi.
5. O'quvchilar o'z iqtidorini va iste'dodini namoyish qilishga o'rganadilar.
6. Nazariya va amaliyot uyg'unligiga erishiladi.

Ma'lumki, ta'lim jarayonida guruhlarda ishlashning imkoniyatlari katta. Bunda har bir darsda guruhlarini qayta shakllantirish bilan bir qatorda ularni nomlash ham zarur. Biz quyida guruhlarini shakllantirish va nomlashning ayrim usullariga to'xtalamiz. Bu usullarni nafaqat ona tili va adabiyot darslarida, balki boshqa fanlarni o'qitish jarayonida ham qo'llash mumkin. Jumladan:

1. She'riy parcha asosida nomlash. 6-sinfda "Ona tili" fanidan "Aniq va mavhum otlar" mavzusini o'rganishda Erkin Vohidovning "Bir nihol" she'ridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Yurtdoshim, bog'ingga bir nihol qada,
Niholning nomini Yaxshilik ata.
Niholning yoniga bir gul ekib qo'y,
Bu gulning nomini Go'zallik deb qo'y.
Gul-u niholingga baxsh etib hayot,
Suv ber va bu gulga Mehr deb qo'y ot.
Sendan farzandingga bog' qolsin, ey do'st,
Bog'ing Vatan degan nom olsin, ey do'st.

She'ni yoddan aytirish yoki o'quvchilarning aniq va mavhum otlarni topishlari oson bo'lishi uchun slaydlarda namoyish etish, vatman qog'ozga yozilgan holda olib kirish ham mumkin. O'quvchilar **yaxshilik**, **go'zallik**, **mehr** va **Vatan** so'zlarini aniqlaydilar. Shu tariqa 1-guruh "Yaxshilik", 2-guruh "Go'zallik", 3-guruh "Mehr", 4-guruh "Vatan" deb nomlanadi. Har bir guruh o'z nomlarini izohlaydilar. She'riy parchalar keltiradilar, rasmlar chizadilar. Shu orqali o'quvchilar ongiga mehr-oqibat, insoniylik tuyg'ulari singdiriladi. Natijada fanlararo va mavzulararo integratsiya ta'minlanadi.

2. She'riy san'atlar asosida nomlash. Bunda o'quvchilarga umumiy tarzda qur'a tashlash yo'li bilan konvertlar tarqatiladi. Konvertdagi kartochkalarda she'riy misralar yozilgan bo'lib, ularda qanday she'riy san'at qo'llanganligi so'raladi.

*Za'faroniy ko'ylak uzra arg'uvoniy kamzihur,
Ro'ymol og'ushidin peshonaning ahvoli tang [1; 119-b.].*

Savollar:

1. Berilgan satrlar muallifi kim? 2. Unda qanday she'riy san'at qo'llanilgan?
3. She'rdagi san'at turi haqida ma'lumot bering.

Yuqoridagi savollarga javoblar olingach, guruhlar quyidagicha nomlanadi:

1-guruh "Tajnis", 2-guruh "Talmeh", 3-guruh "Tazod", 4-guruh "Tashbeh" kabi. Bungacha o'quvchilar quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak:

"Tajnis" – arabcha so'z bo'lib, "o'xshash", "jinsdosh", "shakldosh" degan ma'nolarni bildiradi. She'riy misralarda ma'no jihatdan har xil, ammo shakl jihatidan bir xil bo'lgan so'zlarni qo'llash san'ati.

"Talmeh" – arabcha "chaqmoq chaqilishi", "bir nazar tashlash" ma'nolarini anglatadi. She'rdagi o'tmishdagi mashhur zotlarga, mashhur qissa, mashhur bayt yoki mashhur maqolga ishora qilish, taniqli tarixiy yoki afsonaviy qahramonlar nomini keltirish san'ati talmeh deyiladi.

“Tazod” – arabcha “zid qo‘yish”, “qarshilantirish” ma‘nolarini ifodalaydi. Baytda ma‘no jihatdan o‘zaro zid, qarama-qarshi ma‘noli so‘zlarni (antonimlarni) qo‘llash usulidir.

“Tashbeh” – arabcha so‘z bo‘lib, “o‘xshatish” demakdir. Misralarda biror obraz yoki voqeani boshqa biror narsa yoki voqeaga qiyoslash orqali o‘xshatish. She‘rdagi boshqa satrlar ham shu tarzda tahlil qilinadi.

3. Guruhlarni nomlashda topishmoqlardan foydalanish. Dars tashkil qilingach, har bir guruhga bittadan notanish topishmoq beriladi. Topishmoqlar yozma ravishda konvertlarda berilishi yoki og‘zaki tarzda ham bo‘lishi mumkin. Ijodkor o‘qituvchilar esa bunday topishmoqlarni o‘zlari to‘qishlari ham mumkin. Masalan:

Ko‘rinib gohi-gohi, Jilo beradi ko‘kka. Hayron bo‘lmay bir qarang, Unda jamdir yetti rang. (Kamalak)

Bu usul 6-sinflarda “Narsa otlari” mavzusini o‘tishda juda qulay. Guruhlar o‘zlariga berilgan topishmoqning javobini topadilar. Har bir guruh shu topishmoq javobidagi so‘z bilan nomlanadi. Guruh a‘zolari baholanib, rag‘batlantirilib boriladi. Rag‘batlantirish uchun topishmoqdagi ta‘riflanayotgan narsaning tasviri tushirilgan kartochkalar beriladi. Dars musobaqa usulida davom ettiriladi.

Xulosa qilish mumkinki, aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan dars samarasi o‘qituvchining ijodkorligi, shuningdek, o‘quvchilarning qiziqishlari va faolligida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – T.: O‘zbekiston, 2019.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni // Xalq so‘zi. – T., 2019-yil, 30-aprel. № 88 (7318).

9-SINFDA XOJA IJODINI O‘RGANISH TAJRIBASIDAN

Shohista Xudoynazarova, Nigora Mahmudova,
Sergeli tumani 32-umumiy o‘rta ta‘lim
maktabi o‘qituvchilari

Zamonaning shiddat bilan ilgarilashi barcha sohalarda yangilanishni talab etmoqda. Shu jumladan, ta‘lim sohasida ham. Albatta, birinchi o‘zgarish darsliklarni isloh qilishdan boshlanishi kerak deb hisoblaymiz. Shu ma‘noda 2019-yil “O‘zbekiston” nashriyotida chop etilgan 9-sinflar

uchun “Adabiyot” darsligidir. Darslikka Xoja, Omon Matjon, Shavkat Rahmon, Halima Xudoyberdiyeva, Sharof Boshbekov, O‘ljas Sulaymonlar ijodining kiritilganligi o‘qituvchilarga ma’qul bo‘ldi, deb o‘ylaymiz. Ular ijodini o‘rganish o‘quvchini Vatanimiz kelajagi uchun qayg‘uradigan ma’naviyatli inson qilib tarbiyalashimizda bizga ko‘mak berishiga ishonamiz.

Biz Xoja ijodiga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Ko‘p yillik tajribaga ega maktab o‘qituvchisi shu paytgacha maktab darsliklarida Shavkat Rahmon, Sharof Boshbekov kabi ijodkorlarning asarlaridan namunalar keltirilganini eslashadi, lekin qolgan ijodkorlar o‘qituvchilar uchun ham yangilik.

Biz mumtoz adabiyot vakili Xoja ijodiga to‘xtalmoqchimiz. Bu ijodkor maktab darsligiga ilk bor kiritilyapti, avval Xoja ijodi akademik litseylarning 2-bosqichida o‘rganilgan edi. Bu ijodkorning asarlari rejaga kiritilgani biz – o‘qituvchilar uchun ham ma’qul bo‘ldi, chunki o‘quvchilarning mumtoz adabiyot borasidagi bilimlarining chuqurlashishi ularning ma’naviyati yuksalishi uchun asos bo‘ladi. Ayniqsa, hikoyatlarning nasriy yo‘l bilan yozilgani va tarbiyaviy mavzudaligi maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda 9-sinf rejasiga kiritilgan bu mavzuga 3 soat vaqt ajratilgan. Ijodkorning hayoti haqida ma’lumot berilgan, Zahiriddin Muhammad Boburga yuborgan g‘azali ozgina izoh bilan berilgan, “Gulzor” asaridan hikoyatlar va g‘azal keltirilgan.

Xojaning hayoti haqidagi ma’lumotlarni o‘quvchi yaxshi eslab qolishi uchun biz ularni jadvalga joylashtirishni ma’qul topdik:

Savol	Javob
Xoja qaysi mashhur shaxsning avlodlaridan hisoblanadi?	Toshkentlik mashhur avliyo Zangi Ota avlodlaridan
Xoja qanday oilada tug‘ilgan?	Shayxulislom Abdulvahhobxoja oilasida tug‘ilgan
Qayerlarda xizmat qilgan?	Temuriylar saroyida, Darun viloyatida, Jonibek Subhon hukumatida
Xoja qaysi silsila vakili?	“Xojagon” silsilasi
Bu silsilaga kim asos slogan?	Abduxoliq G‘ijduvoni
Kim Xojani “shahbozi balandparvoz” deb atagan?	Maxdumi a’zam Xojagi Kosoniy
“Shahbozi balandparvoz” birikmasi qanday ma’noni anglatadi?	Baland uchuvchi lochin
Xoja podsholikka tegishli qanday xatlarni yozganligi aytib o‘tilgan?	Chet elga jo‘natiladigan xatlar

Bu jadvalni yana davom ettirish mumkin. Uni 5 savolga ega bir necha qismga ajratib, tarqatma tayyorlaganda, ba'zi kataklarni bo'sh qoldirgan ma'qul, o'quvchi ularni to'ldirishi kerak bo'ladi. Masalan:

Xoja Hirot va Balxda qanday vazifada ishlaydi?	
	Hasanxoja Nisoriy
“Xojagon” silsilasiga mansub mashhur shaxslarni keltiring.	
	“Muzakkiri ahhob”
“Maqsad ul-atvor” dostoni kimga bag'ishlangan?	

Darslikda berilgan birinchi hikoyatni o'quvchilar yordamida sahnalashtirilsa, o'quvchilarning tushunishlari uchun oson va qiziq bo'lardi. Hukmdorning adolati haqidagi bu hikoyatlarni o'qish davomida adolat haqidagi hadislar va hikmatli so'zlarni keltirib, o'quvchilarga ma'nosini sharhlashni vazifa qilib berish mumkin. Masalan:

Hech kim ko'tarilib bo'lolmas rahbar,

Agar u bo'lmasa raiyatparvar. (Xusrav Dehlaviy)

Obidning ibodati nafsini, odilning adolati olamni isloh etar. (Arab hikmati)

Ma'mur bo'lur adl ila har qayda viloyat. (Lutfiy)

Adolat – oxirtda najot, dunyoda saodat boshidir. (Ali ibn Abu Tolib)

Podshohlar o'zlarini adolat bilan bezatishlari kerak, xalq bunday podshohga ehtirom ko'rsatishi zarur. (Abdulloh Muqniy)

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Xoja asarlari ma'naviyatimiz xazinasini boyituvchi durri javohir ekaniga aslo shubha yo'q.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Q.Yo'ldoshev va boshqalar // Adabiyot. Darslik. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf o'quvchilari uchun. – T.: O'zbekiston, 2019
2. Q.Yo'ldoshev // Adabiyot saboqlar. Metodik qo'llanma. Umumta'lim maktablarining 7-sinf “Adabiyot” darsligi uchun. – T.: Bilim, 2003
3. M.Davletshin va boshqalar // Yosh va pedagogik psixologiya. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2007.
4. B.To'xliyev va boshqalar // Adabiyot. Majmua. Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o'quvchilari uchun. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA GEOGRAFIK JOY NOMLARINI O‘QITISH METODIKASI

Nilufar Raxmatova, Toshkent shahri
Chilonzor tumanidagi 126-maktab o‘qituvchisi

Alisher Navoiy – serqirra ijodkor. U nafaqat o‘zbek tili va adabiyotida balki, o‘z millatining tarixi, madaniyati, san’ati, dini, qolaversa, geografiyasini o‘rganishda ham o‘z ilmiy izlanishlarini olib borgan mislsiz olim, mutafakkirdir.

VII asr arablar istilosidan so‘ng O‘rta Osiyo xalqlari san’ati va madaniyatida ham islomiy qarashlar o‘z ifodasini topdi. Shoir, yozuvchilar asosan arabcha atamalar, Qur‘on oyatlari va payg‘ambarlar tarixiga murojaat qilishardi. A.Navoiy ham o‘z navbatida barcha nazmiy va nasriy asarlarida ushbu an‘anadan unumli foydalanib, butun dunyoga mashhur satrlarni bizga meros qilib qoldirdi. Uning asarlarida ko‘plab geografik joy nomlari keltirilgan bo‘lib, ularning ayrimlari tarixiy, ayrimlari esa hozirda ham shu nom bilan ataladi. Masalan:

Adan – Arabistondagi kichik mamlakat.

Antokiya – Suriyaning qadimgi nomi.

Baytulmuqaddas – Iyerussalim (Yershalaym) xristianlarning muqaddas shahri, Quddus.

Bobil – qadimgi Vaviloniya poytaxti.

Iskandariya – O‘rta yer dengizi qir‘g‘og‘idagi shahar, Aleksandriya.

Kobul – shahar, Afg‘onistonning poytaxti.

Madina – makkadan 30km uzoqlikdagi shahar.

Madoyin – 1. Iroqdagi shahar nomi 2. Bobildagi bugungi kunda xarobaga aylangan 7 go‘zal shahar.

Makka – arabistondagi shahar, islom markazi.

Fidon – Isroilda Layyon(Ya‘qub a.s.ning qaynotalari) yashagan joy.

Charun – Shom nihoyasidagi Ibrohim a.s. vafot etgan joy.

Shom – Suriya.

Yaman, Chin(Xitoy), Hindiston, Armaniston, Eron, Turon va h. Ushbu joy nomlarining har biri Navoiy asarlarida o‘z o‘rni, izohi bilan; ba‘zan esa shu joy nomlari bilan bog‘liq rivoyatlar keltirilib, asarlar sujetini yanada boyitadi. “Tarixi anbiyo va hukamo”(Payg‘ambarlar va hakimlar tarixi) asaridagi ushbu parchaga e‘tibor qaratsak: “...Rivoyatga ko‘ra, Nuh a.s. kemadan chiqqandan so‘ngra...Turon va Xo‘tanni Yofasga berdi. Eronni Somga va Hindistonni esa Homga berdi.(Yofas,Som,hom

Nuh a.s.ning o'g'illari, yana Kan'on islisi bo'lib, u kofir edi va shu sababli to'fonda halok bo'ldi.) Bu aytilgan uch mamlakat odamlari shu uchchovining naslidandir. Shunga ko'ra Yofasni Abu – Turk, Somni Abul – Ajam, Homni Abul – Hind deganlar. Homning rangi qora edi, bunga kora Hind aholisining rangi qoradur. Sababi shu edikim, Nuh uxlab yotganda uyat a'zosi ochilib qolib, Hom buni ko'rib kuldi. Yofas va Som buni ta'qiqlab yopib qo'ydilar. Nuh uyg'onib buni sezdi. Homni duoyibad qildi. Shu sababli rangi qora bo'lib, payg'ambarlik uning naslidan olindi...”.

Bu kabi qiziqarli ma'lumotlarni o'qituvchi adabiyot darslarida baytlar tahlilining misoli yoki izohi tariqasida keltirib o'tsa, o'quvchi uchun nafaqat qiziqarli, balki qo'shimcha bir ilmiy ma'lumot ham bergan bo'lardi. Masalan:

9-sinf “Adabiyot” darsligida A.Navoiyning “Farhod va Shirin dostonidan” parcha berilgan. Asarda Chin (Xitoy), Yunoniston, Armaniya mamlakatlari tilga olinadi. “Doston ramziy obrazlar bilan boyitilgan. Jumladan, nomusulmon davlatda Farhodning tug'ilishi nomutanosibdek tuyulsa-da, aslida uning nomi Xitoy (Arabchada Xito va Xato zo'zlarining yozilishi bir xil!..) bilan emas, Chin – asl, haqiqiy mamlakatda tug'ilgan Komil insondir”.

Arman o'lkasiga borgan Farhodga suvsizlikdan qiynalgan xalq 3 yil ariq qazishgani, ammo befoyda ekanini aytib:

“Bu yanglig' birla umri Nuh topsoq
Badanda ko'prak ondin ruh topsoq” deyishadi.

Nuh a.s. – Islom dinidagi 5 buyuk payg'ambarlarning biri. U 950 yil umr ko'rgan. Qur'onda 71 marta uning ismi tilga olingan. Qavmi uni jinni deb, toshbo'ron qilgan. Rafiqasi va 1 o'g'li unga iymon keltirmagan. U barcha insoniyat, nabobat va hayvonot naslini buyuk to'fondan asrab qolgan...

Badiiy adabiyotda Nuh obrazi – uzoq umr (1000 yil) ramzi sanaladi.

Demak, baytdagi mazmun oydinlashadi: “Bu tog'ni qazib suv chiqargunimizcha bizga Nuh umricha umr kerak, badanimizda undan ham kuchliroq ruh topishimiz kerak...” deyishmoqda.

Yoinki, Xusravning o'ziga sovchi bo'lib kelganini eshitgan Shirin quyidagicha so'zlaydi:

“Meni hindudek otashgohga boshla
Uzorim xolidek o't ichra tashla...”

“Bu so'zni aytguncha, ya'ni Farhodan o'zgani tanla deguncha meni hindlardek otashgohga boshla. Dinimdan chiqarib, iymonimdan ayir.

Yuzimdagi xolday meni olovga tashla...” deydi. Ushbu ikki baytni o‘qib, Navoiyning Nuh haqida boshqa bir asarida keltirilgan yuqoridagi rivoyat xayolingizga keldimi?

Bilamizki, hindlar nomusulmon xalq va otashparast. Bu baytlar tahlilida A.Navoiyning yuqorida keltirilgan ma’lumotlari o‘quvchilarga asar mazmunini yanayam ochib beradi deb o‘ylayman.. “**Rebus**” metodi esa mavzuni mustahkamlash uchun ayni muddaodir.



Xullas, Alisher Navoiyning asarlarida qo‘llangan tarixiy – geografik joy nomlariga aloqador terminologik birliklarni tadqiq – tahlil etib, buyuk mutafakkir bobomizning barcha sohada yetuk mutaxassis ekanliklariga yana bir bora amin bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo, 1990.
2. Q.Yo‘ldoshev. Adabiyot darsligi, 2019.

AQLIY O‘YINLARNING TA’LIMDAGI AHAMIYATI

Mashhura Anartayeva, Matluba Qilichova,
Toshkent shahar Yakkasaroy tumanidagi
319-sonli maktab o‘qituvchilari

Bugungi kunda ta’lim jarayonida bir qancha talablar mavjud. Har bir dars kelajak avlodni ma’nan yetuk, barkamol, erkin shaxs sifatida tarbiyalanishiga, teran tafakkur egasi bo‘lishiga zamin yaratmog‘i darkor. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida o‘quvchilarga yangicha ta’lim berish usul va metodlari ishlab chiqilmoqda. Bunda o‘quvchining ijodkorligi, topqirligi yetakchi o‘rin egallashi kerak.

Ma’lumki, bola shaxsi uchun 3ta faoliyat turi mavjud: o‘yin, mehnat va o‘qish. Bu faoliyat turlari o‘zaro mutanosib bo‘lsagina, inson tarbiyasi namunali, zehni o‘tkir, tafakkuri keng, bilimi mustahkam bo‘ladi. “Bola faoliyatida o‘yin asosiy mashg‘ulotlardan sanaladi. Shuning uchun ham o‘yin bu voqelikni bilishning ichki kuchlar yo‘lga solib turadigan va

bolaga qisqa muddatda insoniyat ma'naviyatining dastlabki, lekin juda keng asoslarini o'rganib olish asoslarini beradigan metodi desa bo'ladi", – deb yozadi mashhur pedagog olim Sh.A.Amonashvili.

Shunga ko'ra, bola tarbiyasining yetakchi qismi sanaladigan o'yin faoliyati orqali ta'lim berish samarali natija beradi. O'yin orqali bola dunyoni anglay boshlaydi, boshqalar bilan muloqotga tez va oson kirishib, tafakkur doirasi kengayadi. O'yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, bolaning xulq-atvoriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham so'nggi yillarda ta'lim jarayonida o'yin metodidan foydalanish samaral usul sanalmoqda.

O'quvchilarga ona tili dasrlarida o'yin metodidandan foydalangan holda mavzular yoritilsa, mustahkamlansa, ularning aqliy qobiliyatlari o'sadi. Shuningdek, olam, odam, narsa, joy va boshqa narsalar haqidagi tasavvurlari kengayadi; lug'at bilan ishlaydilar, so'z boyliklari oshadi; to'g'ri talaffuz qilish, ma'noni faqlash ko'nikmalari shakllanadi.

Ba'zi o'yinlardan yangi mavzu bayonida bolalarning diqqatini jalb qilishda foydalanilsa, ba'zilaridan o'tilgan mavzuni takrorlash yoki mustahkamlash uchun foydalaniladi. Bunday tashkil etilgan darslarda o'quvchilar faol qatnashadilar. Bolalarning qiziqishi ortishi uchun, albatta, o'yin shartlari murakkab bo'lmasligi kerak. Shu bilan birga o'qituvchi vaqtni to'g'ri taqsimlay bilishi va muhokama uchun ham alohida vaqt ajratmog'i lozim. O'qituvchi o'yinlarni o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, mavzuga mosligini inobatga olib tanlashi va amaliyotga tatbiq etishi, oddiydan murakkabga borishi kerak.

O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda yuqori sinf o'quvchilari uchun biroz murakkabroq, quyi sinf o'quvchilari uchun esa soddaroq o'yinlar tanlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyidagi o'yinlar 5-sinf o'quvchilarining so'z zaxirasining ortishiga, so'zlarni zukkolik bilan topishga, ular asosida kichik matnlar yaratishga, shu bilan birga orfoepik, orfografik me'yorlar asosida talaffuz qilish va yozishga o'rgatadi.

“So'z narvonlari” o'yini

1. TOSH so'zini besh qadamda GUL so'ziga o'zgartiring. Har qadamda faqat bittadan harf o'zgartirilsin. Masalan: tosh – bosh – qosh – qol – qul – gul kabi.

2. SO'Z so'zini besh qadamda GAP so'ziga aylantiring. Har qadamda so'zlar ishtirokida gaplar tuzing. SO'Z – ko'z – ko'p – cho'p – chap – gap.

Qalb ko'zi aslo ko'r bo'lmasin.

Ko‘p gap eshshakka yuk.

Anvar turli rangdagi **cho‘plardan** uylar yasaydi.

O‘ng qo‘ling berganini **chap** qo‘ling bilmasin.

Bir necha so‘zlarning o‘zaro birikuvidan **gaplar** hosil bo‘ladi.

“Kim dono?” o‘yini.

Bu o‘yinda o‘quvchilarga biror matn eshittiriladi. Matn tugagach, o‘quvchilar eshitgan matnlaridagi eslab qolgan so‘zlarini yozishlari kerak. Kim ko‘p so‘z yozsa, u g‘olib sanaladi.

“Muharrir minbari” o‘yini.

Bu o‘yinda o‘quvchilarga kichik matnlar tarqatiladi. O‘quvchilar matnlardagi imloviy xatosi bor so‘zlarni aniqlaydilar.

Maktab darsliklaridagi o‘quvchilar uchun tushunilishi qiyin bo‘lgan mavzulardan biri bu mumtoz adabiyot namunalari. Bu mavzular murakkabligi sabab o‘qituvchi oldida bir qancha to‘siqlar turadi. O‘qituvchi bu mavzularning o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi uchun yangi g‘oyalar, yangi usullar kashf etishiga to‘g‘ri keladi. Quyidagi jadval asosida berilgan topshiriqlar o‘qituvchi zimmasidagi yukni yengillatishga xizmat qiladi.

<p>«Ko'zung ne balo qaro bo'lubtur...» g`azalidan tanlagan baytim</p>	
<p>«Meni men istagan...» g`azalidan tanlagan baytim</p>	
<p>«Ey sabo...» g`azalidan tanlagan baytim</p>	



Uylarning to'ridagi supasimon balandroq qism	
Tog'kesar	
Hindistondagi joy nomi	
Kun (sutka)ning sakkizdan biri	
Metalldan to'qib yasalgan qadimgi urush kiyimi, jeva, sovut	
Uzunlik o'lchovi. 2 km ga yaqin	
Bomiyondagi qal'a nomi	
Xurosonda joylashgan dovon	
Olov otadigan qurolni boshqaruvchi	
Urug'-elat nomi	
Urush vaqtida otga kiydiriladigan o'q o'tmas maxsus sovut	

Dars jarayonida to'g'ri tanlangan o'yinlar o'qituvchining o'qitishdagi, o'quvchilarning esa o'rganishdagi eng samarali yo'li bo'ladi.

XALQ QO'SHIQLARI – AXLOQIY-ESTETIK TARBIYA VOSITASI

Sadyaxon Mahmudova,
Farg'ona viloyati Beshariq tumanidagi
2-maktab o'zbek tili fani o'qituvchisi

Mamlakatimiz ta'lim sohasida yosh avlodning har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol, ruhan va jismonan sog'lom bo'lib yetishishlari uchun jiddiy ishlar olib borilmoqda. Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, yangi avlod darsliklari mazmuni zamon talablari asosida isloh qilinmoqda. O'quv-tarbiya ishlarini milliy va ilg'or tajribalar uyg'unligi asosida tashkil etish maqsadida "o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish" [3; 1-b.] vazifalarining belgilanishi o'qituvchilar zimmasidagi mas'uliyatni yanada oshiradi. O'z ustida ishlashga, o'quvchining ijodiy qobiliyatlarini, shaxslik sifatlarini kamol toptirish, eng muhimi, ma'naviy olamini ko'rkamlashtirishga doir ish usullarini qo'llashni ham taqozo etadi.

Ma'lumki, ma'naviyat tarbiyasini adabiy ta'lim jarayonisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Adabiyot darslarida badiiy asarlar, jumladan, xalq og'zaki ijodi namunalari bu borada muhim omil bo'la oladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf "Adabiyot" fani o'quv rejasida "So'zda hikmat bor" ruknida o'rganiladigan badiiy asarlar ta'lim oluvchilarning ma'naviy fazilatlarini yuksaltirishda katta o'rin tutadi. Xususan, xalq qo'shiqlarining sara namunalari tahlili orqali o'quvchilar ajdodlarimizning turmush tarzi, orzu-umidlari, intilishlarining ifodasi bilan yaqindan tanishadilar. Zero, boshlang'ich sinflarning "O'qish" darslarida "Sanama", "Chillak", "Chittigul" kabi o'yin qo'shiqlari [2; 128-129-b.] bilan tanishgan o'quvchilar bu davrga kelib qo'shiq turlari va mavzusi haqida atroflicha ma'lumot oladilar. Quyida "Xalq qo'shiqlari" mavzusini o'rganish borasidagi tajribalarimiz bilan o'rtoqlashamiz.

Darsning maqsadi:

1. Ta'limiy maqsadi: o'quvchilarga xalq qo'shiqlari, ularning turlari va mavzusi yuzasidan tushuncha berish.

2. Tarbiyaviy maqsad: qo'shiqlardagi insonning nozik his-tuyg'ulari, murakkab kechinmalari, xalq orzu-intilishlari tasviri orqali o'quvchilarga axloqiy-estetik tarbiya berish.

3. Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning og'zaki nutqi, tasavvuri va dunyoqarashlarini rivojlantirish.

Ta'lim berish usullari: Aqliy hujum, sahnalashtirilgan rolli ko'rinishlar, grafik organayzerlar.

Ta'lim berish shakli: sinf-dars

Ta'lim berish turi: yangi bilim beruvchi

Ta'lim berish vositalari (resurs): 6-sinf "Adabiyot" darsligi, multimedia vositalari, DVD va audio disklar, tarqatma didaktik materiallar, qo'shiqlarga ishlangan rasmlar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism: salomlashish, sinf xonasi va o'quvchilarning darsga hozirligini kuzatish, ishchanlik vaziyatini yuzaga keltirish.

II. Uy vazifasini baholash.

O'tilgan mavzu (Musa Jalilning "Ishonma" she'ri yuzasidan berilgan topshiriq tahlil qilinadi)ni baholash.

"Aqliy hujum" usuli orqali o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

1. Siz boshlang'ich sinflarda xalq qo'shiqlarining qaysi turi bilan tanishgansiz?

2. O'zing yoqtirgan xalq qo'shiqlaridan birini ijro etib bering.

III. Yangi mavzu bayoni.

Dars avvalida o'quvchilarga multimedia vositalari asosida o'zbek xalqi orasida mashhur folklor-etnografik guruhlar ijrosidagi qo'shiqlardan eshittiriladi. Qo'shiqlarning mavzusi, qaysi vaqtda ijro etilishi, nima maqsadga qaratilgani, o'zlari yashayotgan hududda qanday folklor jamoalari borligi, yilning qaysi mavsumida qanday qo'shiqlar ijro etilishi yuzasidan qisqacha savol-javob o'tkaziladi. So'ngra quyidagi reja asosida o'quvchilarga ma'lumot beriladi:

Dars rejasi:

1. Qo'shiqlar xalq og'zaki ijodining qadimgi va keng tarqalgan janri sifatida.

2. Qo'shiq va uning turlari.

3. Mavsum-marosim qo'shiqlari – xalq tafakkurining badiiy ifodasi.

4. Bolalar folklori namunalari haqida ma'lumot.

IV. Darsni mustahkamlash.


Darsning bu qismida quyidagi faoliyat turlari amalga oshiriladi:

1. Matn ustida ishlash. Mazkur jarayonda o'quvchilarga tarqatma materiallar tarqatiladi. Materilga yozilgan jumlar zamiridagi ma'nolarni izohlab, undagi fikrga munosabat bildirishlari so'raladi. Xususan, "Boychechak" qo'shig'i tahlilida bahor darakchisi bo'lgan bu nafis gulga nisbatan xalq orasida baxt, shukronalik va ezgulik elchisi sifatida qaralishi, odamlar ko'klam tarovatini olib kelgan bu gulni nima uchun qo'shiqqa solib kuylashini, boychechak nimaning ramzi ekanligini o'quvchilar anhlab yetishiga doir savollar qo'yilishi maqsadga muvofiq. Masalan:

Boychechakni tutdilar, Tut yog'ochga osdilar. Qilich bilan chopdilar, Baxmal bilan yopdilar [1; 25-b.].

Bu o'rinda o'quvchilardan boychechakning tutilib, tut yog'ochga osilishi, qilich bilan chopilishu-yu baxmal bilan yopilishi sabablariga, parchadagi ramziy ma'noga nisbatan shaxsiy nuqtayi nazaralarini ifodalash maqsadi belgilanadi.

2. Bu jarayonda mavsum-marosim qo'shiqlariga xos xususiyatlarni grafik organayzerlardan biri orqali ifodalash vazifasi beriladi. Jumladan, topshiriq mazmuni "Klaster" grafik-organayzeri orqali quyidacha aks ettirilishi mumkin.



V. O'quvchilar faoliyatini izohli baholash, faol o'quvchilarni rag'bat kartochkalari bilan taqdirlash, ayrim o'quvchilarni faollikka undash, mavzuni umumlashtirib yakuniy xulosa chiqarish.

VI. Darsning yakuni.

Uy vazifasini berish va qanday bajarish usullarini tushuntirish.

1. O'zingiz yoqtirgan xalq qo'shilarini ro'yxatini quyidagicha jadvalda shakllantiring.

№	Qo'shiqlar nomi	Mavzusi	Ijro etilish mavsumi
1	"Sust xotin"	Yomg'ir chaqirish	Bahorda
2			
3			

2. Savol-javoblar asosida ijro etiladigan qo'shiqlardan topib, jamoa bilan birgalikda sahna ko'rinishlari tayyorlash.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, adabiyot darslarini samarali tashkil etish yosh avlod ma'naviyatini shakllantirish, intellektual salohiyatini o'stirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda xalq og'zaki ijodi namunalari muhim vosita sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 5-sinfi uchun darslik. –T.: Ma'naviyat, 2017.

2. Umarova M., Xamrakulova X., Tojiboyeva R. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. 4-nashri. –T.: O'qituvchi, 2019.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712-сон Фармони // Халқ сўзи. – Тошкент, 2019 йил 30 апрель. № 88 (7318).

ABADIY EHTIYOJ SIRI

Umida Kamolova, Buxoro shahar
8-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

“O‘qishli kitob go‘zallikdir, lekin go‘zallikda ham go‘zallik bor. Qorong‘i kechada otilgan mushak ham go‘zal, quyoshga qarab xandon tashlab turgan gul ham go‘zal. Osmonda sochilib ketgan rang-barang olov va oqish izlar go‘zalligi ko‘zni qamshtirsa ham puch go‘zallik, shuning uchun bebaqodir. Gulning go‘zalligi esa to‘q go‘zallik, chunki uning bag‘rida hayot bor, shuning uchun abadiy go‘zallikdir. G‘uncha guldan ham go‘zalroq, chunki uning bag‘rida ikki hayot – o‘z hayoti va yana gul hayoti bor” [3].

XX asr o‘zbek adabiyotining atoqli vakillaridan biri Abdulla Qahhor voqelikdagi jarayonlarni ana shunday chinakam adabiy qiyofada, ishonarli tarzda, mag‘zi pishiq so‘zlar orqali ixcham iboralarda kitobxon ko‘ngliga yetkaza olgani bilan zamondosh adiblardan ajralib turadi.

Birinchi jahon urushining ayanchli oqibatlari Turkiston o‘lkasini iqtisodiy, ma’naviy, siyosiy, umuman, har jihatdan tang ahvolga keltirgan edi. Abdulla Qahorning bolalik yillari ayni shu davrda kechgan. Yozuvchining “g‘urbat blan boshlanib, g‘urbat bilan tugagan kunlar”i – ya’ni yoshlik damlari – otasi Abduqahorning kasbi tufayli oilasi bilan qishloqma-qishloq yurishlari, atrofdagilarning “kutilmagan” muomalalari, shuningdek, taqchilik sababli sodir bo‘ladigan dilxiraliklar, ayanchli sarguzashtlar keyinchalik uning asarlariga badiiy tasvirlarda gavdalantirildi.

Abdulla Qahhor to‘g‘risida so‘z yuritilganda, dastavval, hikoyanavis sifatida e’tirof etiladi. Zotan, u hikoyalarida ham, roman va komediyalarida ham o‘z davrining “og‘riqli nuqtalari”ni goh mulohazali, goh hajviy yo‘sinda yoritishga harakat qilgan.

Zamonga munosabat, insonlik huqiqining poymol etilishi bilan bog‘liq jihatlar, tengsizlik, fikr qaramligi singari illatlarning fosh etilishi ijodkor hikoyalarining yetakchi g‘oyasini tashkil etadi. Masalan, “Boshsiz odam” hikoyasini o‘qigan kitobxon mustaqil tafakkurdan mahrum, mute bir kishining kulgili xarakteriga duch keladi.

“Adabiyot muallimi”, “San’atkor” hikoyalarida esa o‘zini aqlli, dono, bilimdon va madaniyatli deb bilgan, aslida esa, bilimsiz va nodonliklari tufayli yechimi aniq kichik-kichik jumboqlar oldida ham ojiz insonlar holati Boqijon Baqoyev, “nomi chiqqan ashulachi – san’atkor” kabilar

misolida ko'rsatilgan. Zero, ilm-ma'rifatli, mustaqil fikrli har bir kishi suhbatdoshi qarshisida hech vaqt dovdirab qolmaydi. Binobarin, mazkur asarlardan ko'zlangan badiiy maqsad ham shu!

Bundan tashqari "Anor", "Bemor", "O'g'ri", "Dahshat" singari qator hikoyalarida qo'li kalta, xo'rlangan, tahqirlangan, nochor turmush sharoitidan aziyat chekkan aholining ahvoli qalamga olingan. Aytish kerakki, bu asarlarning maydonga kelishida adibning ko'rgan, eshitgan, hatto guvohi bo'lgan voqealar poydevor bo'lib xizmat qilgan. Taniqli adabiyotshunos olim Naim Karimov ta'kidlaganidek, "Har bir yozuvchi – o'z davrining farzandi. U, istaydimi yo yo'qmi, davr uning asarlariga muhrini bosadi" [1; 338-b.]. Binobarin, boshqorong'i ayolining talabini qondirishga ojiz Turobjon, yolg'izgina ho'kizini o'g'rilatib, uni topish ilinjida "adolat posbonlari" eshigida sarg'aygan Qobil bobo, yettita xotin ustiga sakkizinchi kundosh Unsin, bemor ayolini do'xtirga ko'rsatishga qurbi yo'q, nochor Sotiboldilar aslida Abdulla Qahhor bilan bir vaqtda yashagan kishilar – xalqning oddiy vakillari edi. Ularning taqdiriga shunchaki nazar tashlash yoki e'tiborsiz qoldirish mumkin emasdi. Bunday insonlarni g'aflat uyqusidan uyg'otish, jaholat va nodonlik botqog'idan qutqarish, fan va madaniyat nashidalaridan bahramand etish uchun omma qiyofasini ko'rsatadigan ko'zgu zarur edi. Abdulla Qahhor hikoyalari tom ma'noda, ma'naviy oyna vazifasini o'tadi.

"... Bu xotinning joni bitta emas, ming bitta!.. Hozir tugab qolgan shamday lipillab yonayotgan joni basharti so'ngan taqdirda ham, qolgan mingtasini yoqib, keyin so'nadi" [1; 338-b.]. Ushbu fikr "Ming bir jon" hikoyasi qahramoni Mastura Aliyeva haqidadir. Garchi "tashrifchi" bir personaj tilidan keltirilgan bo'lsa-da, jumlar zamirida muallifning qahramoni to'g'risidagi yuksak bahosi namoyon bo'ladi. Asarda umrining ko'p qismi kasalxonada o'tgan, o'n yillik kasallikning iztirobini tortgan Mastura obrazi orqali irodali ayollar o'limni ham yengishlari mumkin, degan g'oya sezilib turadi. Aytish joizki, uning tuzalishida nafaqat o'zining bardoshi, matonati, balki yostiqdoshi Ahmadjonning mehr-muhabbati ham sababchi edi. Muxtasar aytganda, sabr-qanoat, chidam, kurashuvchanlik, shuning barobarida, mehr-oqibat mushtarakligi dardni chekinishga majbur qilgan. Bu, o'z navbatida, hikoyaga murojaat etgan kimsani ahillikka, ertangi kunga umid ko'zi bilan qarashga, yashash uchun kurashga chorlaydi...

Adabiyotimizda shunday hikoyalar borki, kitobxon uning dastlabki jumlarini o'qigan zahoti qanday tugallanishini sezadi. Biroq, A.Qahhor hikoyalarini, umuman, oxirigacha o'qimay turib, yozuvchining badiiy

maqsadini anglash qiyin. Adib asarlaridagi “kutilmagan” yechimlar fikrimiz dalilidir. O‘quvchini qiziqtirish kuchi ham shunda!

27 yoshidayoq epik turning o‘ziga xos salmoqdor janri bo‘lmish roman janriga oid kitob yaratishga kirishgan adib shunday mas’uliyatli ishni muvaffaqiyatli ado eta oldi. 1934-yil “Sarob” nomli mazkur asar adabiy jamoatchilik e’tiborini qozondi. Ayni chog‘da bugungi davr o‘quvchisi uchun ham qimmatlidir. Toki hozirga qadar qizg‘in bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan ushbu roman xazon bo‘lgan muhabbat, uvol bo‘lgan umr haqidadir.

Har qanday kishining omadsizligi va baxtsizligi uchun, avvalo, uning o‘zi aybdor. Turmush sharoiti va ijtimoiy vaziyatlar esa yondosh sabablardir... O‘z taqdiriga nisbatan befarqlik, moddiy manfaatni iste’doddan ustun qo‘yish, xudbinlik, mutelik, qat’iyatsizlik, razolatga ko‘nikish odam bolasi uchun og‘ir ko‘rgilik. Romanda Rahimjon Saidiy va Munisxon misolida ana shunday “ko‘nikuvchan” insonlarning ruhiy iztiroblari, tushkun holatlarining yuzaga kelishi omillari badiiy bo‘yoqlarda yorqin tasvirlangan. Oqibat ma’lum: *“Munisxon o‘zini alday olmagan – fazilatdan nuqson va nuqsondan fazilat izlab, yashashdan ojiz qolgan minutlarda alamini yig‘idan, Saidiy esa ichkilikdan olardi”* [2; 114-b.]. “Sarob”ni o‘qigan kitobxon inson farzandi hayotda doimo mustaqil, loqaydlikdan yiroq, taqdiri uchun mas’ul, ma’naviy yuksalish yo‘lida kurashchi bo‘lishi zarur, degan xulosaga kelishi shubhasiz.

Yana bir jihati asar voqealari davomida yozuvchining u yoki bu qahramoni tarafida bo‘lgani – qaysidir ma’noda, uni yoqlagani yoxud aksincha, qoralagani – ko‘zga tashlanmaydi, ya’ni tendensiozlik(tarafkashlik) yo‘q. Umuman, Abdulla Qahhorning xolislik va o‘z g‘oyalarini teran, bor bo‘y-basti bilan ko‘rsata olish mahorati “Qo‘shchinor chiroqlari” kabi “Sarob”da ham namoyon bo‘ladi.

O‘tgan asrning ikkinchi yarmida yaratilgan “Og‘riq tishlar”, “Ayajonlarim”, “Tobutdan tovush”, “Shohi so‘zana”dek beqiyos komediyalar adabiyotimizning oltin fondidan joy oldi.

Umuman, Abdulla Qahhor ijodiy merosi mahorat va nafosat uyg‘unligining haqiqiy namunasi. Inson yaralibdiki, hamisha ana shunday chinakam badiiy go‘zallikka ehtiyoj sezaveradi, sezaveradi...

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. Халқ дилининг таржимони. – Т.: O‘zbekiston, 2008. – 534 б.
2. Qahhor Abdulla. Anor. (Qissa va hikoyalar). – Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 200 b.
3. <https://www.ziyouz.com>

TALABALAR MINBARI: TIL VA ADABIYOT TA'LIMIDA INNOVATSION G'OYALAR

12-13 YOSHLI BOLALAR NUTQINING SINTAKTIK TAHLILI (IXTISOSLASHGAN VA ODDIY MAKTAB O'QUVCHILARI MISOLIDA)

Shamshoda Rustamova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU 4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent Iroda Azimova

12–13 yoshli bolalar o'smirlik davriga endi qadam qo'yayotgani bilan boshqa yoshdagi bolalardan farqlanib turadi. Ularda o'zgarish davri boshlanish arafasida bo'lganligi uchun ham fikrning boshqa narsalarga chalg'ishi, xarakter o'zgarishlari tabiiy holdir. Shu sababdan ham biz o'z tadqiqotimizni mazkur yoshdagi bolalar o'rtasida o'tkazishga qaror qildik. Tadqiqotdan maqsad – bola psixologik holati, atrof-muhit ta'siri, yoshi kabi aspektlarning ta'siri natijasida uning nutqida qay darajada o'zgarish sodir bo'layotganini aniqlashdir.

Tadqiqotimiz uchun 5 nafar Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabi o'quvchilarining hamda 5 nafar ixtisoslashmagan maktab o'quvchilarining nutqini yozib oldik. Ba'zi tadqiqot ishlarida faqatgina nutqiy rivojlangan bolalar tajriba ishtirokchilari sifatida qatnashishgan.[2] Bunday tajriba usuli masalaga faqat bir tomonlama yondashishga imkon beradi. Shu jihatni hisobga olgan holda biz nutqiy rivojlanganlik darajasi ikki xil bo'lgan bolalarni tajriba ishtirokchilari sifatida oldik. Bundan tashqari ularning temperamentini aniqlovchi test ham o'tkazdik. "Temperament" testi bola psixologiyasining u shakllantirayotgan gap strukturasi qay darajada ta'sir qilishini aniqlash imkonini beradi. Tajribada bola nutqi diktofonga yozib olinadi, so'ng matn holatiga keltiriladi.

Tajribamiz uchun quyidagi savollardan foydalandik:

- 1. Maktab o'quvchisi maktabda ishlayapti. Maktabga esa kamdan-kam keladi. Mana shu vaziyatga fikringiz qanday?*
- 2. Bugungi kunda bolalar tarbiyasiga kim ko'proq mas'ul? Fikringizni asoslang.*
- 3. Atrof-muhit tozaligiga kimlar javobgar deb hisoblaysi? Odamlarning atrof-muhitni ifloslanishidagi ishtiroki qanday?*
- 4. Sevimli ijodkoringiz? Fikringizni asoslang.*

5. *Elektr texnika vositalari sog'ligimizga jiddiy zarar keltirishini hisobga olib, ulardan voz kecha olamizmi?*

Flektiv tillarda grammatik ma'nolarning alohida so'zlar bilan berilishi, agglutinativ tillarda esa grammatik ma'nolar qo'shimchalar vositasida ifodalanishini hisobga olgan holda bunday tillardagi nutq tahlili uchun 200 ta so'zdan iborat nutq parchasi yetarli hisoblanadi.[1] Nutq parchasining sintaktik tahlilida esa biz gaplar soniga va uning murakkabligiga e'tibor qaratishga harakat qildik. Bundan tashqari, bola nutqining qay darajada rivojlanganligini aniqlash maqsadida nutqni yozib olish jarayonida bolaga alohida talablar qo'yamadik. Ya'ni biz tomonimizdan yozib olingan nutq parchalaridagi so'zlar miqdori 76 – 228 ta orasidadir. Ammo shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bolalar yuqorida keltirilgan savollarga to'lib javob berishgan.

Masalan, oddiy maktabda tahsil olayotgan A.N. (oddiy maktab, 3) bizning ba'zi savollarimizga bergan javobini ko'rib chiqsak.

Savol: *Maktab o'quvchisi maktabda ishlayapti. Maktabga esa kamdan-kam keladi. Mana shu vaziyatga fikringiz qanday?*

Javob: *Maktabga kelish kerak. O'quvchilar bilim olishi kerak, bilim olmasa, ishlolmaydi va institut, kollejlarga kirolmaydilar.*

Savol: *Bugungi kunda bolalar tarbiyasiga kim ko'proq mas'ul? Fikringizni asoslang.*

Javob: *Bolalarga tarbiyaga ota-ona mas'ul. Ota-ona qarashi kerak.*

Berilgan savollarga o'quvchining javobini qoniqarli deb hisobladik. Ammo boshqa o'quvchilar javobiga qaraganda mazkur javob anchagina qisqa va shakllanmagan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, tajribamizda ixtisoslashgan maktab o'quvchilari nutqi oddiy maktab o'quvchilari nutqi bilan qiyoslab o'rganildi. Ikki xil sharoitda tahsil olayotgan o'quvchilar nutqi *gap uzunligi*⁹, *nutq tezligi*¹⁰, *sodda gaplar soni*, *gapni murakkablashtiruvchi qurilmalarning nechta gapda ishtirok etgani*, *gapning yakunlanmay qolishi* kabi ko'rsatkichlar bo'yicha qiyoslandi.

⁹ Gapning o'rtacha uzunligi nutq parchasidagi jami so'zlar sonining gaplar nisbatiga tengdir.

¹⁰ Nutq tezligi minutiga nechta so'z aytilgani bilan o'lchanadi. Butun nutq davomida har bir minutdagi so'zlar hisoblanib, keyin ularning o'rtacha qiymati aniqlanadi.

Tajriba ishtirokchilari nutqining statistikasi

№	Ishtirokchilar	sodda gap %	murakkab gap (ajratilgan bo‘lak, kiritma, uyushiq bo‘lak, ishtirokida), qo‘shma gaplar %	gapning yakunlanganligi	gap uzunligi	nutq tezligi
1	Ijod maktabi (1)	27.3	72.7	-	10.0	87.2
2	Ijod maktabi (2)	30.4	69.6	-	9.9	79.1
3	Ijod maktabi (3)	46.1	53.9	-	9.4	81.3
4	Ijod maktabi (4)	35	65	1 ta	9.9	69.8
5	Ijod maktabi (5)	37	63	-	8.9	87.6
6	Oddiy maktab (1)	52.3	47.7	2 ta	7.4	57
7	Oddiy maktab (2)	63.7	36.3	2 ta	4.8	60.8
8	Oddiy maktab (3)	69.2	30.8	-	5.85	47.5
9	Oddiy maktab (4)	66.7	33.3	2 ta	7.7	49
10	Oddiy maktab (5)	80	20	7 ta	7.4	60

Jadvaldan shuni ko‘rishimiz mumkinki, ixtisoslashgan maktab o‘quvchilari o‘z nutqlarida sodda gap strukturalaridan kam foydalanishgan. Aksincha, ularning nutqlarida murakkab: kirish, ajratilgan bo‘lak, uyushiq bo‘laklar bilan murakkablashtirilgan gaplar, shuningdek, qo‘shma gaplar ko‘proq uchraydi. Jadvalda bu ko‘rsatkich foizlarda berilgan. Ixtisoslashgan maktab o‘quvchilari nutqidagi sodda gaplar 27.3 - 46-1 % ni tashkil etadi. Oddiy maktab o‘quvchilari nutqida esa soda strukturali gaplarni foiz ko‘rsatkichi ancha yuqori: 52.3 – 80 % atrofida. Murakkab strukturali gaplar foiz ko‘rsatkichi sodda gap foiz ko‘rsatkichiga teskari proporsionaldir.

Gaplarning yakunlanganlik holati ham ikki maktab o‘quvchilari nutqi o‘rtasida anchayin farqlidir. Ixtisoslashgan maktab o‘quvchilari o‘rtasida bittagina holatda gapning yakunlanmagan holatini ko‘rishimiz mumkin bo‘lsa, oddiy maktab o‘quvchilarda mazkur holat ko‘rsatkichi sezilarli darajada baland. Hattoki, nutqining 80 % sodda gaplardan iborat bo‘lgan o‘quvchi 7 o‘rinda gapini to‘liq yakunlamaganlik holatini ko‘rishimiz mumkin.

Nutqining katta qismi murakkab gaplardan iborat bolalarda gap uzunligi foizi ham yuqori darajadadir. Bu ko‘rsatkich bitta gapga deyarli 9-10 ta so‘z miqdoriga to‘g‘ri keladi. Ixtisoslashtirilmagan maktabda tahsil oluvchi bolalarda esa bitta gapda 4.8 tadan 7.7 ta gapga to‘g‘ri keladi.

Mazkur tadqiqot ishida nutq tezligi ham hisobga olingan. Bundan maqsad, belgilangan muddatda bolaning to‘g‘ri strukturali gaplarni shakllantira olish darajasini tekshirishdir, ya‘ni nutq samaradorligi ko‘rsatkichini aniqlash. Nutq tezligi ijod maktabida tahsil olayotgan o‘quvchilarda 69.8 – 87.6 oralig‘idagi ko‘rsatkichlarni ko‘rsatsa, ixtisoslashmagan maktab o‘quvchilari nutqining tezligi bir minutga 47.5 tadan 60 tagacha so‘z miqdoriga to‘g‘ri keladi.

Endi o‘quvchilar temperamenti doirasidagi test natijalarini tahlil qilsak.

Bolalarning temperamentiga oid test natijalari

No	Ishtirokchilar	melanxolik	flegmatik	sangvinik	xolerik
1	Ijod maktabi (1)	19.5	22	29.3	29.3
2	Ijod maktabi (2)	16.7	31.3	29.2	22.9
3	Ijod maktabi (3)	19	33.3	26.2	21.4
4	Ijod maktabi (4)	19.6	17.6	37.5	25.5
5	Ijod maktabi (5)	12.8	25.5	27.7	34
6	Oddiy maktab (1)	24.4	34	17	24.4
7	Oddiy maktab (2)	10.8	32.4	27	29.7
8	Oddiy maktab (3)	23.4	36.2	23.4	17
9	Oddiy maktab (4)	12.1	30.3	33.3	24.2
10	Oddiy maktab (5)	23.8	33.3	23.8	42.9

Bolalarning nutqiy faoliyati ularning temperamenti bilan bog‘liq emasligi yuqorida keltirilgan jadval natijalaridan anglashiladi. Chunki flegmatik, sangvinik, xolerik tiplari har ikki maktab o‘quvchilari orasida uchraydi. Jadvalda ham hech qanday qonuniyat ko‘zga tashlanmaydi.

Oddiy maktab o‘quvchilaridan mustaqil ravishda nechta badiiy asar o‘qiganliklari haqida so‘raganimizda, ko‘pchiligi “O‘qimaganman”, “Bitta” kabi tarzida javob berishgan edi. Mutolaa til boyligimiz va tildan foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirishini hisobga olsak, mazkur bolalar nutqining yetarli darajada rivojlanmaganligiga sabab mutolaa madaniyati shakllanmaganligidir. Agar maktabgacha yoshdagi bolaning nutqiy rivojlanishi keyingi ta‘lim bosqichidagi savodxonligiga ta‘sir qilsa, [3] maktab yoshida mutolaa madaniyatining shakllanishi bolaning nutqiy qobiliyatiga ham ta‘sir etmay qolmaydi. Radloffning fikriga ko‘ra, odamlar ikkinchi tilni yaxshi o‘zlashtirganlari sari nutq parchalarini to‘g‘ri joylashtira oladilar, morfologiyani bilganlari sari sintaktik jihatdan to‘g‘ri jumla shakllantira oladilar, lug‘at boyliliklari ko‘paygani sari takrorlarga

kamroq yo‘l qo‘yadilar.[4] Xuddi shu fikrni biz asosiy tilga ham tatbiq qilsak bo‘ladi. Garchi inson bolalik davridan boshlab o‘z ona tilini tushunib, anglab borsa-da, ma‘lum mavzuda nutq shakllantirish ancha murakkab jarayon. Maqolada bola nutqining sintaktik tahliliga ko‘proq e‘tibor qaratildi: bu muammoga yuzaki nazar tashlash demakdir. Chunki sintaksis til birliklarini nutq tarkibiga olib kiruvchi tilshunoslik bo‘limidir. Masalaga chuqurroq yondashsak, gap sintaksisidagi muammolar leksikologik va morfologik aspektlarning kamchiligi oqibatida yuzaga kelgan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, til va adabiyotga ixtisoslashtirilgan maktablarda tahsil olayotgan bolalar nutqi oddiy maktab o‘quvchilari bolalar nutqidan ko‘ra sifatli va samaraliroqdir. Ular murakkab strukturali gaplar shakllantira olishadi, grammatik yakunlangan gaplar tuza olishadi. Bundan tashqari, nutq tezligi bolalarning kam vaqt mobaynida ko‘proq ma‘lumotni tinglovchiga yetkaza olish qobiliyatini ham namoyon qilmoqda. Shuni ta‘kidlab o‘tish joizki, bola temperamenti uning nutqidagi gap strukturasiga, tezligiga, grammatik shakllanganligiga ta‘sir ko‘rsatmaydi. Demak, har qanday temperament sohibi o‘z ustida ishlash orqali to‘g‘ri va ravon nutq sohibiga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimova. O‘zbekcha agrammatik spontan nutqda bog‘lama va fe‘l funksional shakllarining ifodalanishi.//Lingvist (ilmiy maqolalar to‘plami) IV
2. Попова Л.В. Психолингвистические характеристики устной речи младших школьников (статья). 1981
3. Terri M. Griffin, Lowry Hemphill, Linda Camp, Dennis Palmer Wolf. Oral discourse in the preschool years and later literacy skills.//First language. London, Thousand Oaks, CA and New Delhi. 2004
4. Radloff. C. F. (1991). Sentence repetition testing for studies of community bilingualism. Publications in Linguistics, 104. Dallas: Summer Institute of Linguistics and the University of Texas at Arlington.

XALQ QO'SHIQLARINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Mastona Norqulova,

Alisher Navoiy nomidagi

ToshDO'TAU 4-bosqich talabasi


Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent Marg'uba Abdullayeva

Adabiyot ta'limida interaktiv metodlar, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning fanni o'zlashtirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, "texnologiya" so'zi grek tilidan tarjima qilinganda "san'at", "mahorat", "hunar", "bilish" ma'nolarini anglatadi. Axborot texnologiyalari – obyekt, jarayon yoki hodisa holati haqida yangi sifatdagi ma'lumotlarni olish uchun foydalaniladigan materiallarni yig'ish, ishlov berish va uzatish vositalari hamda usullar majmuasi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyasi – bu zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsion vositalardan foydalaniladigan, foydalanuvchi ishlashi uchun "do'stona" interfeysga ega bo'lgan axborot texnologiyasi demakdir [1; 8-b.].

Umumta'lim maktablarining 6-sinf "Adabiyot" darsligidagi "Xalq qo'shiqlari" mavzusini o'qitishda quyidagi axborot texnologiyalaridan foydalanishni tavsiya etamiz. DTS bo'yicha o'quvchilar xalq qo'shiqlari haqida nazariy ma'lumotga ega bo'lishlari va ularni yod olishlari belgilab qo'yilgan. Bu jarayonni samarali tashkillashtirish uchun, albatta, elektron axborot manbalarining ahamiyati katta. Jumladan, mavzuning kirish qismida o'quvchilarga "Xalq qo'shiqlari" mavzusida taqdimot ko'rinishida lavhani ko'rsatib, ular bu taqdimotdan nimalarni tushunib olganliklarini so'raymiz. Xo'sh, o'quvchilar bu savolga qanday javob beradi? Ular bu savolga, albatta, ko'rgan taqdimotlari asosida javob beradi. Masalan:

Xalq qo'shiqlari

- Qo'shiq – qadimiy lirik janr hisoblanib, kuyga solib aytishga mo'ljallab yoziladi. Qo'shiq, odatda, ikki xil bo'ladi:
- 1.Xalq qo'shiqlari;
- 2.Yozma adabiyot namunasi bo'lgan qo'shiqlar.



- “Oq terakmi, ko‘k terak” o‘yini xalq qo‘shig‘i ekanligini;
- “Chittigul” qo‘shig‘i qachon aytilishini;
- “Boychechak” qo‘shig‘ini yoddan bilishini aytishi mumkin.

Endilikda biz o‘quvchilarga taqdimot asosida nazariy ma’lumotlarni o‘rgatish uchun **“Tushuntirish”** texnologiyasidan foydalanamiz. Qo‘shiq – qadimiy lirik janr hisoblanib, kuyga solib aytishga mo‘ljallab yoziladi. Qo‘shiq, odatda, ikki xil bo‘ladi:

1. Xalq qo‘shiq-lari;
2. Yozma adabiyot namunasi bo‘lgan qo‘shiq-lar.

Xalq qo‘shiq-lari juda qadimiy tarixga ega. Ular dastlab mehnat jarayonida paydo bo‘lgan. Qo‘shiq-larda xalqning orzu-umidlari, zavq-shavqi, quvonch va iztiroblari mujassamlashgan. Tariximizda xalq qo‘shiq-larining ko‘plab turlari mavjud bo‘lgan:

Mehnat qo‘shiq-lari	“Xo‘p mayda”, “Turey-turey”
To‘y qo‘shiq-lari	“Yor-yor”, “Kelinsalom”
Marosim qo‘shiq-lari	“Sust xotin”, “Choy momo” “Yo, Haydar”
O‘yin qo‘shiq-lari	“Oq terakmi, ko‘k terak”

Shundan so‘ng **“Idrok xaritasi”** texnologiyasidan foydalanamiz. Bu texnologiyada ma’lumotlar zanjiri uzilmaydi. Birinchi berilgan ma’lumot keyingi ma’lumotni talab qiladi. Bu texnologiyadan biz “Boychechak” xalq qo‘shig‘ining tarixini o‘quvchilarga tushuntirishda foydalanamiz. Texnologiya quyidagicha amalga oshiriladi:

“Boychechak” qo‘shig‘i, odatda, bahor faslida ijro etiladi.
Boychechak gulining qo‘shiqqa solib aytilishi tasodifiy emas.
Chunki bu gul – bahor darakchisi.
Qishloq bolalari ushbu gulni ko‘tarib uyma-uy qo‘shiq bilan suyunchi so‘rab borishgan, xonadon sohiblari bolalarga hadyalar berishgan.
Boychechakni ko‘rgan keksalar uni ko‘zlariga surishgan.
Negaki boychechak bahorga yetib kelganlik, shukronalik belgisi hisoblangan...

Mavzumizning mustahkamlash qismida quyidagi texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Xalq qo'shiqlari har bir joyning tuzilishi, iqlimiga, urf-odatlariga, o'tkaziladigan marosimlariga monand tarzda o'sha yurtning turli yoshdagi vakillari tomonidan yaratiladi va ijro etiladi. Bu jarayonni o'quvchilar ko'z oldida jonli tarzda ko'rsatish uchun **“Jonli oyna”** texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda biz xalq qo'shiqlari asosida tayyorlangan videolavhadan foydalanamiz. Ushbu video lavha o'quvchilar o'qigan nazariy ma'lumotlarini mustahkamlashida amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

“Siz xalq qo'shiqlarini bilasizmi?” savoli asosida o'quvchilarni xalq og'zaki ijodi bo'yicha bilimlarini tekshirib ko'rishimiz mumkin. Hozirgi axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan jamiyatimiz yoshlari qanday qo'shiqlarni xalq og'zaki ijodi namunalari qatoriga qo'shadi, ular haqida ma'lumotga egami, degan savollar o'z yechimini topadi. Masalan:

1. Qaysi qo'shiqlarni o'yin qo'shiqlari deya olamiz? Misollar keltiring.
2. Xalq qo'shiqlarining qanday xususiyatlari mavjud?
3. “Chittigul” qo'shig'i nima haqida?
4. Xalq qo'shiqlaridan namunalari aytib bering?

“Xalq qo'shiqlari tahlili” texnologiyasi

Bu texnologiyada o'quvchilarni ikki guruhga ajratib olamiz, yozma shaklda o'quvchilarga savolnoma tarqatamiz va quyidagi jadval asosida amalga oshiramiz:

1-guruh	2-guruh
<i>Marosim qo'shiqlariga ta'rif bering va misollar keltiring.</i>	<i>Mehnat qo'shiqlariga ta'rif bering va misollar keltiring.</i>
Marosim qo'shiqlarida to'y, aza va boshqa marosimlar bilan bog'liq holatlar tasvirlanadi (“Yor-yor”, “Kelinsalom”, “Kuyovsalom” kabi)...	Mehnat qo'shiqlari turli mehnat jarayonlari bilan bog'liq. Masalan, xirmon yanchishda “Xo'p mayda”, “Maydagul”...

Ushbu texnologiya orqali o'quvchilarning xotirasi sinovdan o'tishi bilan birga ularning mavzu bo'yicha bilimlari yanada mustahkamlanadi.

Yuqorida xalq qo'shiqlarini o'qitishda axborot-texnologiyalarining ahamiyatini ko'rib chiqdik. Bu jarayonni samarali tashkillashtirishda yordam beradigan quyidagi axborot saytlarini tavsiya etamiz:

<http://ziyonet.uz> – O'zbekiston milliy ta'limiy portal;

<http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi sayti;

<http://ensiklopediya.uz> – O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi sayti;
<http://ziyouz.uz> – O‘zbek va jahon adabiyoti sayti;
<http://ziyo.uz.com> – Elektron kutubxonasi;
<http://kitob.uz/> – Respublika bolalar kutubxonasi;
<http://referatlar.uz> – Referatlar, testlar, kitoblar va media ta’lim sayti;
<http://book.uz> – Elektron adabiyotlar kutubxonasi;
<http://txt.uz> – Elektron kutubxonasi;
<http://www.mtrk.uz> – milliy teleradiokompaniya veb sayti.

Xulosa qilib aytganda, adabiyot ta’limida axborot texnologiyalarining o‘rni katta. Adabiyot ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish dars jarayonida pedagogik texnologiyalar, elektron resusrlardan oqilona foydalanishga yo‘l ochadi. Ayniqsa, xalq qo‘shiqlarini o‘qitishda samaradorligi yuqori. Xalq qo‘shiqlarida xalqning turmush tarzi va madaniyati o‘z ifodasini topgan. Bu ma’lumotlarni mukammal yetkazib berishda axborot texnologiyalari asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. 6-sinf o‘quvchisi uchun ham ko‘rish, ham eshitish va ishlashga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir. Jonli va audio variantdagi xalq qo‘shiqlarini dars jarayonida tinglashi o‘quvchilarni milliy an‘analarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhamedova S.X., Abdullayeva M.D., Yuldasheva Sh.Sh., Eshmatova Y.B. O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari. –T., 2018. – B. 264.
2. Ahmedov S., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. 6-sinf. Adabiyot. 2-qism. –T.: Ma’naviyat, 2017. – B. 160.
3. Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. –T., 2010. – B. 208.
4. www.ziyouz.
5. www.ziyouz.net

TA’LIM JARAYONIDA ANIMATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Mohidilxon Abdullayeva, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU 4-bosqich talabasi

Ta’lim jarayonida multimedia yaratib berayotgan imkoniyatlardan biri hisoblangan animatsiya bugungi kunda adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlarning shakllanishida katta ahamiyatga ega. Animatsiya (lot. animatix) – rasmlarni mashina grafikasi yordamida

“jonlantirish” ma’nosini anglatadi [2; 204-b.]. Kompyuter animatsiyasi – kompyuterda dinamik tasvirlar sintezidir [3]. Inson dunyoni tasvir orqali anglay boshlaydi. Shunday ekan, dars jarayonida o‘quvchi mavzu mohiyatini anglab yetishida zamonaviy dasturiy ta’lim vositalariga talab yuqori. Zamonaviy dasturiy ta’lim vositalari multimedialidir. U animatsiya, ovoz, videotasvir bilan ta’minlangan dasturlar bilan ishlashga imkon yaratadi. Multimedia qo‘llanilganda insonning turli sezgi organlariga ta’sir amalga oshiriladi [2; 204-b.].

Ma’lumki, inson axborotlarni sezgi a’zolari orqali qabul qiladi. Agar ta’lim jarayonida animatsion texnologiyalardan foydalanilsa, bolalar ongida ham ko‘rish, ham eshitish orqali hosil bo‘lgan ikki karra ma’lumot bazasi hosil bo‘ladi. Darsda o‘tilayotgan asarning bosh g‘oyasidan chekinmagan holda, o‘qituvchi ertak, hikoya, romanning mohiyatini tushuntirishida animatsiyalar yordamchi vositalar bo‘lib xizmat qilishi kerak. Muallif anglatmoqchi bo‘lgan tahlilga o‘quvchilarning shaxsiy talqinlari orqali borishni o‘qituvchi asos sifatida olishi kerak. O‘qituvchining izohlari bilan birgalikda qabul qilinayotgan videoma’lumot yoki animatsiya talabalar diqqatini faollashtiradi. Ta’lim qiziqarli va emotsional bo‘lib boradi, talabalarda estetik qoniqish paydo bo‘ladi [2; 204-b.].

Animatsion texnologiyalarning ta’lim jarayoni sifatiga ta’sirini Gardner ta’limoti bilan izohlasak o‘rinli bo‘ladi. Gardner biz sakkizta intellekt egasi ekanligimizni ta’kidlaydi. Ular musiqiy-ritmik, vizual-ko‘rish, lingvistik-og‘zaki, matematik-mantiqiy, kinestetik-tanaga oid, odamlararo, shaxsiy va tabiatan [1; 262-b.]. Animatsion texnologiyalar ushbu intellekt turlarining deyarli barchasiga, yaqqol beshtasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

1. Musiqiy-ritmik intellektga animatsion texnologiyalarning ta’siri. Ayrim insonlarda eshitish qobiliyati yuqori darajada rivojlanadi. Muhimi, bu qobiliyatning hajmida emas, balki u bajara oladigan vazifalarda. Inson hayoti mobaynida tashqi dunyodan qabul qiladigan axborotlarining juda ko‘p qismini eshitish orqali amalga oshadi. Va bu yo‘l bilan hosil bo‘lgan ma’lumotlar boshqa sezgi organlari bilan qabul qilingan ma’lumotlarga nisbatan ancha to‘liq bo‘ladi. Animatsion texnologiyalar yordamida yaratilgan roliklarga audio ma’lumotlarning joylashtirilishi o‘quvchi ongida ularning yaqqol aks etishini ta’minlaydi.

2. Vizual-ko‘rish intellektga animatsion texnologiyalarning ta’siri. Animatsion texnologiyalar, asosan grafiklarni “jonlantirish”ga qaratilgan ekan, o‘quvchi uni bevosita vizual yo‘l bilan qabul qiladi.

Metodikada bu tushuncha “obrazli xotira” atamasi bilan ham izohlanadi. Inson umri davomida ko‘plab axborotlarni ko‘zlari orqali qabul qiladi va ko‘rish orqali qabul qilingan ma’lumotlar inson miyasida ham ixtiyoriy, ham ixtiyorsiz ravishda saqlanib qoladi. Musiqiy-ritmik va vizual ko‘rish intellektiga animatsion texnologiyalarning ta’sirini kuzatish borasida ATA Animation Studio tomonidan yaratilayotgan yangi bir qator animatsion roliklarni ta’lim jarayonida, aynan, 5-sinf “Adabiyot” darsligida “Buxoriy va hadislar” mavzusida qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. Lingvistik-og‘zaki intellektga animatsion texnologiyalarning ta’siri. Animatsion videolar, taqdimotlar bolani lingvistik jihatdan ham o‘ziga jalb eta oladi. Negaki, unda nazariy ma’lumotlar va yangi so‘zlar o‘quvchi tafakkuriga tasvirlar yordamida kirib boradi. Avvaliga mavzu yuzasidan o‘rganuvchida umumiy tasavvur hosil bo‘ladi. Ushbu tasavvur asosida o‘quvchi mantiqiy, ijodiy va tanqidiy fikrlashni o‘rganadi.

4. Matematik-mantiqiy intellektga animatsion texnologiyalarning ta’siri. Matematik-mantiqiy intellekt faqat hisob-kitobga yo‘naltirilgan intellekt emas, balki u mantiq yordamida ilmiy jumboqlarni tahlil qilish, muammoni aniqlash, ularga muqobil yechim topishni o‘z ichiga oladi. Animatsion texnologiyalar ushbu intellekt turiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Va ushbu ta’sirlar yuqoridagi uch intellekt o‘zagida amalga oshiriladi.

5. Shaxsiy intellektga animatsion texnologiyalarning ta’siri. Shaxsiy intellekt tushunchasi bir tomondan faqat ma’lum shaxsga tegishli bo‘lgan va unda ko‘zga tashlangan, rivojlangan tafakkur qobiliyatini ifodalaydi. Birinchi holatda u yuqoridagi intellekt turlarini o‘z ichiga olishi mumkin. Ikkinchi tomondan, u endi rivojlanadigan intellekt turlarini ham ifodalashi mumkin. Animatsion texnologiyalarning ushbu intellektga ta’sirining o‘ziga xosligi shundan iboratki, u aqliy qobiliyatlarga shunchaki ta’sir ko‘rsatmasdan ma’lum intellekt turi shakllanishiga ham olib keladi. Masalan, muntazam darsda qo‘llangan animatsion roliklarni ko‘rgan o‘quvchida 2–3 oy mobaynida vizual-ko‘rish qobiliyati yordamida tafakkur qilish va uni eslab qolish ancha rivojlanadi.

Yuqorida keltirilgan misollar animatsion texnologiyalarning boshqa intellektlarga ta’siri mavjud emas, degan fikrni ifodalamaydi. Balki ularga ham ushbu yangi yondashuvlar bilvosita ta’sir etib, ta’lim jarayonining samaradorligini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmonov Sh. O‘rganishni o‘rganish, mukammal xotira yohud miyangiz qobiliyatlarini qayta kashf qiling. – T.: Yangi asr avlodi, 2014.

2. Tojiyev M., Ziyamuxamedov B., O‘ralova M. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat fanining o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalash. – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2012.

3. Choriyev G‘. Uch o‘lchamli tasvir olishning dasturiy vositalari. – T., 2014.

FURQAT IJODIDA BOBUR AN‘ANALARI (9-sinf “Adabiyot” darsligi misolida)

Sevara Yarashova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Shahnoza Raxmonova

Zahriddin Muhammad Bobur “Aruz risolasi” asari orqali o‘zbek aruzi vaznlarini boyitdi. Shunday xushohang vaznlaridan biri hazaji musammani ashtar (ruknlari va taqte’: foilun mafoiylun foilun mafoiylun – V – /V – – –/ – V – /V – – –) vaznidir. Mazkur vazn hazaj bahriga tegishli bo‘lib, mafoiylun aslining birinchi va uchinchi ruknlarda ashtar tarmog‘i: foilun (– V –)ga hamda ikkinchi va to‘rtinchi ruknlar esa solimi (V – – –) ga teng. Mazkur vazn haqida Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon” asarida ma’lumot keltirmaydi [1; 99-b]. Hazaji musammani ashtar haqidagi dastlabki nazariy ma’lumot Zahriddin Muhammad Boburning “Aruz risolasi” asarida bu vaznni “musta’wali matbu”, ya’ni yoqimli o‘lchovlar qatorida sanab, *Jomiy va Hofizlar ijodiga murojaat qiladi hamda turkiy she’rga misol tariqasida o‘zining g‘azali baytlarini keltiradi* [3; 204-b.].

*G‘ofil o‘lma ey soqiy, gul chog‘in g‘animat tut,
Vaqti aysh erur boqiy, ol chog‘ir, ketur, bot tut.*

Foilun mafoiylun foilun mafoiylun [2; 20-b.]

9-sinf “Adabiyot” darsligida ham mazkur vaznda yozilgan Furqatning “Fasli navbahor o‘ldi” g‘azali keltiriladi. O‘qituvchi g‘azal haqida ma’lumot berayotganda uning vazni haqida o‘quvchilarga qisqacha ma’lumot berishi lozim. Shundan so‘ng uning mazmuni o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinishi kerak.

G‘azal tahlilini quyidagi jadvalda keltiramiz:

Fas	li	nav	ba	Hor	o‘l	di	ke	ti	bon	zi	Mis	ton	lar
-	V	-	V	-	-	-	-	V	-	V	-	-	-
Do‘st	lar	g‘a	ni	mat	dur	sa	yr	e	ting	gu	lis	ton	Lar
-	V	-	V	-	-	-	-	V	-	V	-	-	-

Yuqorida keltirilgan baytning birinchi rukni – sadr va ibtido, ikkinchi, uchinchi ruknlari esa – hashv, to‘rtinchi ruknlari esa aruz hamda zarb deb nomlanadi, bu vazndagi birinchi va uchinchi ruknlar foilun (-V-), ikkinchi hamda to‘rtinchi ruknlar mafoiylun (V - - -) ga teng. Matla’dagi li, ba, ti, zi, lar, ni, e, gu hijolari qisqa bo‘g‘in, fas, nav, hor, o‘l, di, ke, bon, mis, ton, larg‘a, mat, dur, sa, yr, ting, lis, hijolari cho‘ziq, do‘st, ton hijolari esa, o‘ta cho‘ziq hijolar sanaladi. Bundan tashqari, Furqat “Surmadin ko‘zlar qaro...” deb nomlanuvchi g‘azalini ramali musammani mahzufda yozib, unda ma’shuqa tavsifi va sadoqat izhori, hajr iztirobi va visol ishtiyoqini o‘zida mujassamlantirgan dilrabo she’rini yaratadi.

Sur	ma	din	ko‘z	lar	qa	ro	qo‘l	lar	hi	no	din	Lo	La	rang
-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-
G‘o	za	din	yuz	lar	da	to	bu	o‘s	ma	din	qosh	lar	Ta	rang
-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-	-	-	V	-

Birinchi va ikkinchi ruknlar sadr hamda ibtido, ikkinchi, uchinchi ruknlar esa hashv, oxirgi to‘rtinchi ruknlari aruz yoki zarb deb nomlangan. Amaliyot yuzasidan biz 9-sinf o‘quvchilariga ushbu g‘azalning o‘lchov imkoniyatlari haqida ma’lumot berib, avvalgi sinflardagi bilimlari qay darajada esda qolganligini tekshirish maqsadida bir nechta mashqlar qilib ko‘rgandik. Shu narsa ma’lum bo‘ldiki, o‘quvchilarga aruz vazni bir muncha qiyinligi sababli 5-sinfdan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirish qay darajada samarali ekanligini bilib olish mumkin. Bundan tashqari, bu vazn orqali o‘quvchida mumtoz adabiyot namunalarini tushunishga qiyinchilik tug‘dirmaydi. Yuqoridagi g‘azal mashhur qo‘shiq bo‘lganligi tufayli ham baytlarni tushunish unchalik murakkablik tug‘dirmadi, keyin g‘azalni tahlil qilish jarayonida mumtoz asarlarda uchraydigan mukammal so‘zlar lug‘atini 5-sinfdan boshlab yozib borishsa, maktabni tamomlagunlaricha mumtoz adabiyot nazariyasidan ancha xabardor bo‘lishlari mumkin. Ushbu darslikdagi Furqat ijodini oladigan bo‘lsak, ularda hajazi musammani ashtar va ramali musammani maxzuf vaznlari tahlil qilingan. Fikrimiz misoli sifatida, Furqat ijodida, asosan, ramal bahrining ustunligi, ya’ni shoirning qariyb 60 foiz g‘azallari shu bahrda yozilganligi bunga yaqqol misoldir.

9-sinf “Adabiyot” darsligida berilgan “Fasli navbahor o‘ldi” deb nomlanuvchi g‘azali aynan shu bahrda yozilganligi va baytlardagi “**zimiston**”, “**guliston**” va “**nayson**” so‘zlarida murdaf qofiyani qo‘llash natijasida g‘azalning bo‘yoqdorligini oshirishga harakat qilinganini sezish mumkin. Bu qofiya turi haqida A.Hojiahmedovning “She’riy san’atlar va

mumtoz qofiya” asarida raviy harfidan oldin cho‘ziq unilardan biri kelgan qofiya **murdaf** (ridfli) qofiya deb nomlanganligi, cho‘ziq unlining o‘zi esa ridf deb aytilishi ta’kidlanadi.

O‘zbek she’riyatida asosan raviydan oldin “O” cho‘ziq unlisi kelgan murdaf qofiyaning turlari ko‘proq qo‘llangan. Mana shu baytlardagi “**zimiston**”, “**guliston**” va “**nayson**” so‘zlarida ham xuddi shu holat kuzatiladi. Furqat ijodidagi hazaji musammani ashtar (ruknlari: foilun, mafoiylun, foilun mafoiylun) o‘lchov imkoniyatlaridan foydalanish va shoirning ta’biga xush kelgan ko‘rinadi. Ijodkor tomonidan go‘zal tabiatning ilk bahor kunlaridagi ajoyib manzarasi naqadar jonli va hayotiy chizilganligini payqash qiyin emas. Bu vazn ancha sokinligi sababli ham har bir san’atkor ushbu g‘azal imkoniyatlaridan juda mohirona foydalangan. Furqatning jami 6 g‘azali ushbu vazn vositasida yozilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rakhmonova Sh.M. The tradition of Zakhiriddin Babur in the second half of the twentieth century in uzbek poetry //Research&Development (IJRD). Volume: 5; Issue: 3; March 2020. – P. 199.
2. Бобур Захириддин. Девон. Нашрга тайёрловчи А.Абдуғафуров. – Т.: Фан, 1994. –144 б.
3. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. - Т.: Шарқ, 1998. – 224 б.
4. Yo‘ldoshev Q, Qodirov V, Yo‘doshbekov J. 9-sinf adabiyot darsligi. – Т.: O‘zbekiston, 2019.
5. Qodirov V. Umumta’lim maktablarida o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dokt. diss. Namangan, 2019.

ONA TILI DARSLARIDA FONETIKA BO‘LIMINI O‘QITISH USULLARI

Xusnora Baxtiyorova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 3-bosqich talabasi

Muxlisa Vohidova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: ped.f.d. (PhD) Klaraxon Mavlonova

Bizga ma’lumki, kishilar o‘rtasidagi muloqotni shakllantirishda nutq asosiy qurol vazifasini bajaradi. Bizga og‘zaki va yozma nutq orqali yetkazib berilgan ma’lumotlarni to‘g‘ri tushunishimiz va so‘zlovchi nuqtayi nazaridan uni suhbatdoshimizga to‘g‘ri ifodalab berishimiz lozim.

Ona tilini o‘zlashtirish bolaning yoshligidan boshlanadi, u dastlab gapira olmasa-da bizni tushunadi: “Ko‘zing qani?” deganda, ko‘zlarini ochib yumadi, “Qoshing qani?” deganda, qoshlarini chimiradi, qo‘llarini so‘raganda harakatlar orqali ko‘rsatib beradi. Ya’ni unda dastlab eshitib tushunish malakasi shakllanib, yaqin atrofdagilarining ta’sirida og‘zaki nutqini rivojlantirib boradi. Maktab yoshigacha u gapiradi, qisman bo‘lsa ham o‘z ona tilini o‘zlashtiradi. U maktab jarayoni va undan keyingi bosqichda esa ona tilini shaklini, uning yozma nutqdagi aksi va og‘zaki nutqning talaffuz me’yorlarini o‘rganadi. Shunday davrda bolaga har bir narsaning ma’nosini tushunib yetishi uchun unga rasm, harakat va qo‘shiq orqali to‘g‘ri shaklda singdirib borishimiz lozim.

Boshlang‘ich sinfda bola “Alifbo” kitobi orqali harflar va ulardan hosil bo‘lgan bo‘g‘inlarni talaffuz qilish bilan birga uning shaklini ham o‘rganib boradi. Bu davrda bolada dastlabki yozma nutq malakasi shakllandi. U unli va undosh tovushlar, jarangli va jarangsiz undoshlar, bo‘g‘in, urg‘u haqida qisman ma’lumotga ega bo‘ladi.

5-sinf ona tili darslarida bolani adabiy talaffuz me’yorlariga o‘rgatish, imlo savodxonligi va so‘z zaxirasini oshirish maqsadida “Fonetika” bo‘limi kiritilgan. Ammo bu bo‘lim haqida berilgan ma’lumotlar asosan ilmiy tilda berilgan bo‘lib, bolaning yoshiga nisbatan murakkablik tug‘diradi. Bolaga bu bo‘limni tushuntirishda yoshini inobatga olib, qoidalarni sodda tilda rasmi, xaritali, jadvalli, harakatli ko‘rinishda berishimiz lozim.



Masalan, bolajonlar diqqat qiling! Quyidagi rasmda nima ifodalangan?

(Bu jarayonda rasmni mavzuga aloqador hamda tushunarli shaklda tanlashimiz lozim.)

Mavzuni boshlashdan oldin bu kabi topshiriqlarning berilishi, bolaga mavzuga kirish bosqichi bo‘lib, uni fikrlashga, mantiqan o‘ylab ko‘rib javob berishga undaydi. Bola o‘z tushunchalarini o‘qituvchi tomonidan mavzuga oid berilgan fikrlar orqali mustahkamlab boradi.

Bu bo‘lim davomida birinchi navbatda bolaga adabiy talaffuz me’yorlarini o‘rgatib borishimiz asosiy maqsadimiz hisoblanadi. Shu maqsadda darslikda og‘zaki turda bajariladigan mashq va topshiriqlar sonini kengaytirish lozim.

Biz Toshkent shahrida joylashgan maktab o‘quvchilariga “Fonetika”ga oid quyidagi topshiriqlarni berib, sinab ko‘rdik:

Topshiriq. O‘zbek alifbosini ketma-ketlikda tog‘ri talaffuz qilib bering.

Bu topshiriqni 5-6-7-sinflarda sinovdan o‘tkazdik. Topshiriq og‘zaki tarzda, har bir o‘quvchidan alohida tartibda olindi. Sinov juda qiziqarli hamda, mazmunli bo‘ldi. Biz bu jarayonda o‘quvchilar yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklarni to‘g‘irlab kerakli ma‘lumotlarni berib bordik. Ularning talaffuz me‘yorlariga amal qilishlariga jiddiy e‘tiborimiz qaratdik. Sinov davomida o‘quvchilar quyidagi xatolarga yo‘l qo‘yishdi:

1. “Alifbo” dagi harflar ketma-ketligini aralashtirish hollari kuzatildi.

2. Unlilar talaffuziga e‘tibor qilishmadi (unlilar cho‘ziq ohangda talaffuz qilinadi.)

3. Bo‘g‘iz undoshi **h** va chuqur til orqa undoshi **x** undoshlarini bir xil talaffuz qilishdi.

4. Ayrim o‘rinlarda unlilardan: **i** va **e** hamda **u** va **o‘** ni talaffuz jarayonida farqlab bera olishmadi.

Topshiriq. Quyidagi berilgan rasmlarni alifbo ketma-ketligida joylashtiring.



Bu topshiriqni bajarishdan oldin o'quvchilar to'rttadan kichik guruhlarga ajratildi hamda ularga topshiriq sharti tushuntirildi. Bu topshiriq o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minaydi. Ularning mantiqiy fikrlashlariga yo'l ochib beradi. O'quvchilar bu topshiriqni kutilgan darajada topshirishdi. Topshiriqni bajarish jarayoni quyidagi ketma-ketlikda ro'y beradi:

1. Bola tayyor berilgan tasvir orqali tushunchalarni leksikonida saqlaydi.
2. Tushunchalarning atash ma'nosini fonetik tizimga soladi.
3. So'zning bosh harfiga qarab rasmlarni alifbo ketma-ketligida joylashtirib boradi.

Bu rasmlar orasida *i, j, r, v, z, o', g' va ng* harflari uchun maxsus tasvir berilmagan, bu o'quvchilarni chalg'ituvchi usul bo'lib, ularni mantiqan fikrlashga yordam beradi.

Mazkur topshiriq orqali o'quvchining perseptiv lug'at boyligi ham ortib boradi. Ammo sinov jarayonida shunga guvoh bo'ldikki, o'quvchilarning ba'zilarida perseptiv lug'at noto'g'ri shakllangan. Ya'ni ular tasvirlarni nomlashda xatoliklarga yo'l qo'yishdi. Masalan, *makkajo'xorini "jo'xori", handalakni "qovun"* deb atab xatoliklarga yo'l qo'yishgan.

Bu kabi topshiriqlar darslarni mazmunli va samarali bo'lishiga, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O'z navbatida, bu kabi topshiriqlar o'quvchilarda mustaqil o'qib tushunish malakasini oshiradi. Zero, "Tilning emotsional-ekspressiv vositalari, estetik qurilishi uning cheksiz xazinasiga tayanadi. Ana shu xazinani qadam-baqadam egallab borish o'quvchilarni ruhlantirib, o'z nutqini yanada boy, ta'sirchan, tinglovchida estetik zavq uyg'otishga qodir qilish sari undaydi. Ona tilning boyligini anglash, so'z san'atini egallash asta-sekin, sinfdan sinfga, yangi dasturiy materialni o'rgangan sayin ortib boradi".

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xolmonova Z., Yusupova T. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. – T.: Navoiy universiteti, 2019.
2. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2-qism. –T.: Ilm ziyo, 2015.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. va boshqalar. Ona tili. 5-sinf uchun darslik. –T.: Ma'naviyat, 2015.
4. Мавлонова К. Она тили фанини адабиёт фани билан бадиий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш. Пед.ф.д. дисс... (PhD). – Тошкент, 2019.

KORPUSGA ASOSLANGAN TA'LIM TEXNOLOGIYASI

Gulshoda Xayrullayeva, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU 3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d. (PhD) Nilufar Abdurahmonova

Bugungi kunda o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda bir qancha muammolar mavjud. Birinchi navbatda qanday o'qitish kerak degan savol tug'iladi? Shu kunga qadar so'zlar matn va kontekstdan ajratib olingan holda alohida o'rganilib kelindi, lekin tilni korpusga asoslangan holda o'rganish ancha samaraliroqdir.

Tilshunoslik va boshqa sohalar doirasida korpusga asoslangan yondashuv so'nggi qirq yillikdan boshlab tatbiq etila boshlangan. 1980-yil o'rtalaridan boshlab tilshunoslikning turli yo'nalishlarida korpus lingvistikasida erishilgan yutuqlardan faol qo'llanila boshlandi. Biberning ta'kidlashicha, 1755-yili Jonson lug'atida matndan olingan namunlar uchun korpusdan foydalangan. Manbalarda 1800-yillarning oxirida esa Oksford ingliz tili lug'atining birinchi nashri uchun ham korpusdan foydalanilganligi qayd etiladi. 90-yillarning boshlarida korpus lingvistikasida erishilgan natijalar faol ravishda ta'lim sohasida ham qo'llanila boshlandi. Endilikda Lankaster, Oksford, Graz, Bertinoro, Granada, Parij va Lissabonda odatiy tarzda "Ta'lim va Til korpuslari" bo'yicha o'tkazilgan va an'anaviy tarzda o'tkazilayotgan xalqaro anjumanlarning tashkil etilayotgani soha vakillarining qiziqishlari ortib borayotganidan dalolat beradi.

1997-yilda Tim Jons birinchilardan bo'lib, korpus texnologiyasini o'z sinfxonasiga olib kirib, talablar uchun tilni ikkinchi til sifatida o'qitishda foydalangan va muayyan ijobiy natijalarga erishgan. (Randi Reppen *Contemporary corpus linguistics: English Language Teaching and Corpus Linguistics: Lessons from the American National Corpus* New York, 2009 - P. 206). John Sinklair tahriri ostida (2004) "Til o'qitishda korpuslardan qanday foydalaniladi" (*How to Use Corpora in Language Teaching*) bo'limida til o'rganuvchilarda sinonimlar bilan bog'liq masalaga alohida to'xtalib o'tadi.

O'zbekistonda til o'qitishda korpusdan foydalanish borasidagi ilk tadqiqotlar sifatida Nilufar Abduraxmonovanning "Korpusga asoslanib o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish" (2018), "O'zbek tilida sinonimiya hodisasini o'qitishda korpusdan foydalanish" (2019) nomli maqolasini qayd etish mumkin [3], [4].

Korpus – elektron matnlarning lingvistik ma'lumotlar bazasi sifatida tayyor olingan majmuyi hisoblanadi. Unda turli uslubga tegishli og'zaki va yozma matnlar o'z ifodasini topadi. Korpusning elektron ko'rinishidagi modellari turlicha bo'ladi. Ularning ba'zilaridan onlayn orqali foydalanish imkoniyati mavjud bo'lsa, ayrimlari CD-formatda yuklab olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Har ikkisinin foydalanish imkoniyatlari turlicha bo'lgani bois muayyan qulayliklariga ega.

O'quvchilar korporadan foydalanishdan foyda olishlari uchun til o'qituvchilari, birinchi navbatda, korpusga asoslangan yondashuv to'g'risida puxta bilimga ega bo'lishlari kerak. Gavioli va Aston ta'kidlaganidek, korpora nafaqat o'qituvchilarga nimani o'rgatish kerakligini hal qilishga yordam beradigan narsalar sifatida qaralishi kerak, balki ularga o'quvchilar bevosita o'rganishlari mumkin bo'lgan manbalar sifatida ham qarash lozim [1; 12-b.].

Korpusda asosan uch xil turdagi ma'lumotni olish mumkin: empirik ma'lumot, statistik ma'lumot va metama'lumot. Empirik ma'lumotda foydalanuvchilar korpusdan matndan olingan namunalarni to'plami sifatida foydalanadi. Lug'at tuzishda yoki grammatikani tanishtirishda matndan olingan fragmentlar o'rganuvchilarga ilova qilinadi. Korpusdan olingan statistik ma'lumot esa sohaning muayyan tadqiqot doirasida so'z, so'z birikmasi yoki konkordans, frazalarning chastotasi va ularning sintaktik strukturasi miqdor jihatdan analiz qilib, ayni qo'yilgan masala uchun asos vazifasini o'taydi. Metama'lumot (asar muallifi, jinsi, yoshi yoki asar qahramonlariga tegishli belgilar) esa matnlarning ekstralingvistik ma'lumotlaridan iborat bo'lib, lingvistikaning turli sohalari uchun o'rganish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Tilni o'qitish jarayonida korpusdan foydalanish chet tillari sifatida o'zbek tilini o'rganuvchilar uchun lug'at, grammatika va tildan foydalanishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Korpusga asoslangan holda tilni o'qitish bir qancha qulayliklar yaratadi.

Masalan, o'quvchi o'rganayotgan so'zini kontekstda qanday holatda kelishini;

grammatik shakllanganligini,

tilning lug'at tarkibidagi o'rni va varianlarini;

o'rganilayotgan so'z bilan birika oladigan so'zlar ro'yxatini ko'rish;

so'zning o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llana olishini;

badiiy ma'no o'ttenkalarining turli xil ekanligini misollar orqali ko'rish;

mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi.

Bizning tadqiqotimizda o‘zbek tili ikkinchi til sifatida o‘qitishda korpusga asoslangan ta’lim texnologiyasi morfologiyada sifat so‘z turkumi misolida o‘rganish obyekti sifatida olingan. An’anaviy o‘qitish tizimida morfologiya asosan nazariy aspektida, so‘ngra unga amaliy topshiriqlar berish orqali tushuntirish berilgan. Korpusga asoslangan ta’lim texnologiyasida sifat so‘z turkumi kontekst tarkibida obyekt sifatida olinadi va unga oid nazariyaga murojaat etiladi. Masalan, sifatlarga quyidagi xususiyatlar tegishli: sifat ifodalayotgan belgining ma’nosiga ko‘ra rang-tus ma’nosini bildirgan sifatlar, hajm ma’nosini bildirgan sifatlar, maza-ta’ m ma’nosini bildirgan sifatlar v.h; belgini bevosita yoki bilvosita ifodalashiga ko‘ra asliy sifatlar va nisbiy sifatar; tuzilishiga ko‘ra tub sifatlar va yasama sifatlar.

Tadqiqotimizda matlarning korpus analizi uchun o‘rganish obyektida yozuvchi Ulug‘bek Hamdam (“Muvozanat”, “Haykallar oroli”) va Abdulla Qahhorning asarlari (“O‘zbeklar”, “Kartina”, “Xotinlar”) olindi. Kompyuter analizi uchun AntConc ilovasidan foydalanib, olingan asarlar .txt shakliga keltirildi. AntConcga xos xususiyatlar matnning chastotasi, konkordansi, so‘z shakllari va matnda uchraydigan so‘zlarning umumiy ro‘yxatini ko‘rish mumkin. Masalan, *shirin* so‘zini o‘rganish obyekti sifatida olsak, uning konkordansini topish orqali unga yaqin bo‘lgan so‘z valentliklarini ham aniqlash imkoniyati yaratiladi. Bunda *shirin* so‘zi *orzu*, *til*, *xayol*, *so‘z*, *tuyg‘u* kabi ot so‘z turkumidagi va *jilmaymoq* fe‘l so‘z turkumidagi so‘zlar bilan birikib, so‘z birikmasi shaklida valentlikni hosil qiladi: *shirin orzular*, *shirin xayol*, *shirin tuyg‘u*, *shirin til*, *shirin jilmaymoq*. Kontekstdan olingan ushbu misollarda *shirin* leksemasining leksik ma’nosida mavjud bo‘lgan *beg‘uborlik*, *poklik*, *yoqimlilik* kabi semantik ottenkalari yuzaga chiqqan. Bu esa *shirin* leksemasini faqat maza-ta’ mni ifodalovchi sifat so‘z turkimidagi so‘z sifatida tushunish imkoniyatidan ko‘ra kengroq ma’noda qo‘llash imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari sifatlarda daraja ma’nosi ham mavjud: oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja.

Korpus asosida o‘qitish o‘quvchida mustaqil ishlash, solishtirish, analiz qilish va xulosa chiqarish kabi ko‘nikmalarning shakllanishiga ham xizmat qiladi. O‘quvchilar faqat so‘zning shakli (nomemasi)ni emas, balki ottenkalari (semalari)ni ham o‘rganadi. Bu esa so‘zlararo grammatik munosabatlarni bog‘lashda katta ahamiyatga ega. Grammatik qo‘shimchalarning nazariy tavsifi namunlardan olingan misollar orqali tushuntirilsa, u haqidagi tasavvur yanada oydinlashadi. Umuman olganda

grammatikani korpus asosida o‘qitish o‘rganuvchilarning tilni tez va oson o‘zlashtirishi uchun muhim manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tony McEnery and Richard Xiao. What Corpora Offer in Language Teaching and Learning. 2010. – P. – 364–373. 400.
2. Eric D. Brill. A Corpus-Based Approach to Language Learning”. 1993. – B. 1, 29, 133.
3. Abdurakhmonova Nilufar, Urdishev Qobil. “Corpus based teaching Uzbek as a foreign language”// Journal of foreign language teaching and applied linguistics, 2019.
4. Nilufar Abdurakhmonova, Gulshoda Xayrullayeva, Qobil Urdishev. Using A Corpus For Teaching Synonymy In Uzbek Электронная письменность народов российской федерации: опыт, проблемы и перспективы Материалы II Международной научной конференции (Уфа, 11–12 декабря 2019 г.) Russian, Ufa.
5. Samina Dazdarevic, Fahreta Fijuljanin, Amila Lukac-Zoranic. “Benefits of corpus-based approach to language teaching” // Balkan Distance Education Network – BADEN Newsletter, Issue 7, 2015. – P. 2–4.
6. Edited Anke Lüdeling, Merja Kytö Corpus Linguistics: An International Handbook (Volume 1), Berlin, 2008. –P. 9.

SAID AHMAD IJODIDA INSON TALQINI

Nilufar Kenjayeva, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 3-kurs talabasi

Said Ahmad nasrining mundarijasi rang-barang, qahramonlari xilma-xil va o‘ziga xos. Yozuvchining xalqimizga manzur bo‘lgan hajviy hikoyalari va romanlarining asosiy markazida mehnat mavzusi, o‘zi yashagan asr kishilari obrazi turadi. “Ufq” romanini o‘qish asnosida bunga yana bir bora amin bo‘lamiz. 1964-yili “Ufq” yaratildi. “Ufq” asarining yaratilishi bu yozuvchi ijodining ikkinchi yutug‘i bosqichi bo‘ldi. Asarda zamona mehnatkashlari – insonlar obraziga mufassal to‘xtalgan va har bir obrazning mukammaligiga erishgan. Asar o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq, litva tillaridan tashqari rus tilida uch marta nashr etildi. Asar telepostanovkasi Moskva televideniyasi orqali ikki kun namoyish etilgan. Hamza teatrda ham ushbu asar sahnalashtirildi. Shunigdek, Abdulla Qahhorning 1965-yildagi “Ilhom va mahorat samarasi” maqolasida: “Said Ahmad bundan ko‘p yillar muqaddam qo‘liga adabiyot tanburini olib chertganda, qo‘li kelishganligini ko‘rib, yaxshi sozonda bo‘lib, yaxshi-yaxshi mashqlar

chalishini orzu qilgan edik. Shu orzu ushalib kelayotibdi. “Ufq” uning ilhom va mahorat bilan chalgan mashqidir”, deya baholagan. Roman trilogiya “Qirq besh kun”, “Hijron kunlarida”, “Ufq bo‘sag‘asida” kabi uch qismdan iborat. Roman sujeti orqali Said Ahmad o‘z zamonasining ayni paytdagi muammolarini, jamiyatdagi mavjud holatni ifodalagan. Yozuvchi romanining dolzarbligi va o‘lmas shuhrati ham aynan shu davr insonlarining psixologiyasini yorqin yoritib bera olganligidadir. Har xil xarakterli insonlarning ehtiyoji, kasb taqozosi, orzulari, maqsadlari natijasida birlashadi va ayni davr mavzusi, jamiyatning dolzarb muammosi sababli buning insonlarga ta‘sir etish oqibatlarini tasvirlanadi. Ushbu romanning ilk kitobi “Katta Farg‘ona” kanali qurilishi davrini qamrab olgan. Asarda urushga ketgan yurtdoshlari, ularning ortida qolgan bolalar, ayollar va oilalarini boqish uchun xalqning birlashganligi va buning ta‘sirida yuzaga kelgan muhit ochib berilgan. Front ortidagi bir oyog‘i oqsoq bo‘lib urushdan qolgan, ammo har daqiqa urushdagi insonlar haqida o‘ylovchi va oilasi, sevgan yori uchun tinimsiz harakat qiluvchi, akasining oriyati, oila sha‘ni, yigitlik g‘ururi baland tutuvchi o‘zbek o‘g‘lonlarining yuzi bo‘lgan Nizomjon, asli bir oiladan bo‘lsa-da, ukasidan tubdan farq qiluvchi, qat‘iyatli, ammo “men”ligi baland urush qatnashchisi A‘zamjon, zamona zayli va ayni o‘smirlik paytida to‘lishgan, orzularga berilgan Dildor kabi obrazlar, shuningdek zamonaning vaqtinchalik ahvolidan kelib chiqib fikrlaydigan va hech qachon bir javobi ikki bo‘lmasligini xohlaydigan A‘zamjon va Nizomjonlarning, “men”ligi yuqori bo‘lgan otasi Inoyat oqsoqol obrazlari mukammal yoritib berilgan: “Romanda Ikromjon kabi oriyatli, qat‘iyatli va g‘ururli xalq qahramonlari va o‘z navbatida farzandiga sevgisi yuksak ota obrazi” mahorat bilan ifodalab berilgan. Ushbu obrazni biz bugungi kundagi zamonaviy adabiyotimizdan Ulug‘bek Hamdamning “Ota” romanidagi Po‘latjon obrazi bilan taqqoslab o‘tamiz.

Po‘latjon ham o‘zining g‘ururliligi va el ichida obro‘ topganligi bilan Ikromjon xarakteriga o‘xshab ketadi. Ammo Po‘latjonning qahri qattiqroq bo‘lganligi bois o‘z qizini halok qiladi. Ikromjonda esa qanchalik oriyatli bo‘lmasin, baribir, otalik mehri ustunlik qiladi, o‘q uzganda ham tegamaganidan xursand bo‘ladi. “Yaxshiyamki, o‘q tegmadi...”.

Obrzalardagi mukammal psixologik holatning yorqin ochib berilganligi sababli biz bu asar qahramonlarini milliy ruhiyatimizning namunalari sifatida ko‘rsata olamiz. Shu o‘rinda Ikromjon otani buning yaqqol timsoli sifatida ko‘rsata olamiz, ya‘ni butun “O‘zbeklarning otasi”

deya ta'rif beramiz va bugungi kungacha ham bu obrazaning o'z o'rnini hech qaysi asar qahramoni egallay olgani yo'q.

Shuningdek, asarda uchraydigan Dildor obrazini O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asaridagi Shomurodning xotini Ra'noga qiyoslasak ham bo'ladi. Ra'noning Shomurodga qilgan xiyonatini Dildorning Nizomjonga qilgan xiyonati bilan bir xil holat qilib bog'lasa bo'ladi. Bu ikki asar ham urush yillarida yozilgan bo'lib, har ikkisida ham o'xshash obrazlar mavjud. Masalan: Dildor va Ra'noning ayni xalq boshiga kelgan qiyinchiliklarda ham ayni damda o'zini o'ylash xarakteri bor ayollarning borligini ko'rsatib berishi nafaqat o'sha davrning "ayrim" ayollarini to'liq ifodalash bilan birgalika bugungi kunda ham qiyinchiliklar yuzaga kelgan vaqtda, shu zamonda ham bazi ayollarning xarakterida uchraydigan xususiyatlarini to'liq namoyon etgan. Asarda Zebi kabi yosh va go'zal, jasoratli qizlar ham berilgan, ularning g'ayratligi va qat'iyatligini o'zbek qizlariga namuna qilib ko'rsata olamiz. Uning soddaligi, dilgirli sababli Tursunboyga ko'ngil qo'yishi, Tursunboyning urushdan qochishi va bunda Zebining bunday insonga ko'ngil qo'yganligi uchun o'zini kechira olmay yurishi ham uning sofdillik xarakterini ko'rsatib bera oladi.

Asosiy mavzu urush nomi ostida birlashgan xalqning dushmani, xalq xiyonatkorlari timsolida Tursunboy kabi obrazning berilishi asarning kulminatsion nuqtasi sifatida tasvirlanadi. Oilada yolg'iz farzand, ota-onasining erkasi bo'lib voyaga yetgan Tursunboyning burchga nisbatan loqaydligi oqibatida o'zi va onasini xarob qiladi.

Shuningdek, Inoyat oqsol va Nodira tasviri orqali nafsiga qul bo'lgan kishilar timsoli tasvirlanadi. Ular birgalikda kelini Dildorning boyliklariga erishish maqsadida urushga ketgan, hali o'lmagan farzandining ayolini ikkinchi o'g'li Nizomjonga bermoqchi bo'lishadi, ammo buni qabul qilishni xohlamagan Nizomjonni otasi "oq" qiladi va Nizomjon uydan ketadi. Asar yakunida Nizomjon Dildorga maktub bitadi, unda bo'lib o'tgan voqealar, hayoti haqida va uydagilarini so'rab xotiraydi. Asar nihoyasida Nizomjonning Ikromjonga chin o'g'il bo'lishi va Ikromjon xohlagandek hayot muhitining yaratilishi bilan yakun topadi.

Xulosa shuki, insonning kimligi, yashashdan maqsadi, sur'at va siyrati mutanosibli, insoniy burchga sadoqat va xiyonat, ota va farzand, er-xotin, ayol iffati, ota mardligi kabi mavzularda gavdalantirilgan qahramonlar ijodkor mahoratini yuqori pog'onlarga ko'tarib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Said Ahmad. Ufq. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at NMIU, 1976.

2. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2016.
3. O‘tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. Yangi asr avlodi: 2016
4. Ulug‘bek Hamdam. Ota. – T.: Yangi asr avlodi, 2019.
5. Умаров Б. Психология.– нашриёт. – Т.: Ворис, 2012. – 230 б.
6. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Barkamol fayz media, 2018.

LEKSIKOLOGIYA BO‘LIMINI O‘QITISHDA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Malika Nomozova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyotini
o‘qitish fakulteti 3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: ped.f.d. (PhD) Klaraxon Mavlonova

Ma‘lumki, ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi o‘quvchini mustaqil fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirishdan iborat. O‘z navbatida, nutqiy kompetensiya tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish layoqatlarini o‘z ichiga oladi. Bu albatta, lingvistik kompetensiyasiz to‘laligicha amalga oshmaydi. Ular bir-birini taqozo etadi.

Didaktik o‘yin – bu ta‘lim mazmuniga mos keladigan ta‘lim berish usuli bo‘lib, o‘quvchining mustaqil va ijodiy imkoniyatlarni yuzaga chiqarish va ularni rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. “Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat” [4]. Quyida biz intellektual (aqliy) didaktik o‘yinlardan ona tili darslarida foydalanish haqida so‘z yuritamiz.

Ma‘lumki, “Leksikologiya” tilshunoslikning eng asosiy bo‘limlaridan hisoblanib, 11–12 yoshli bolalar nutqining takomillashuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaldagi 5-sinf “Ona tili” darsligidan quyidagi mavzular o‘rin olgan: 159-dars. *So‘zning atash ma‘nosi*; 160-dars. *Bir ma‘noli va ko‘p ma‘noli so‘zlar*; 161-dars. *So‘zning o‘z va ko‘chma ma‘nolari*; 164-dars. *Shakldosh so‘zlar*; 165-dars. *Uyadosh so‘zlar*; 166-dars. *Paronimlar*; 167-dars. *Ma‘nodosh so‘zlar*; 168-dars. *Ma‘nodosh so‘zlarda umumiy va xususiy ma‘nolar*; 169-dars. *Ma‘nodosh so‘zlar qatorida bosh so‘z*; 170-dars. *Zid ma‘noli so‘zlar*; 171-dars. *Mustahkamlash darsi* [1; 221-222].

159-darsdan 170-darsgacha asosiy mavzular o‘tilgandan so‘ng mustahkamlash darsi o‘tiladi. Aynan bu dars o‘quvchilarning bilimini yanada mustahkamlash uchun juda muhim. Shunday ekan, dars jarayonida o‘qituvchi tomonidan umumiy lashtiruvchi va xususiylashtiruvchi mashq va topshiriqlar taqdim etilishi zarur. Quyidagi jadvalni ko‘rib o‘tamiz:


“Qo‘shing, ayiring yoki ko‘paytiring” o‘yini.

So‘z	Atash ma’nosi	Bir ma’noli yoki ko‘p ma’noli	Shakldosh so‘z	Uyadosh so‘z	Paroni m	Ma’nodosh	Zid ma’no
<i>Olma</i>	+ Meva yoki mevali daraxt nomi	+ Bir ma’noli	+ Olma-meva, ot; Olma-harakatning inkor shakli, fe’l	+ Olma, anor, o‘rik, shaftoli	–	–	–
<i>Oq</i>							
<i>Bosh</i>		× Ko‘p ma’noli, odamning boshi, ariqning boshi ko‘chaning boshi					
<i>Suz</i>							
<i>Asr</i>							
<i>Achchiq</i>							
<i>Yuz</i>							
<i>Chang</i>							

Ushbu o‘yin (mashq) matematik jadval tarzida bajariladi. Birinchi qatorda tanlangan so‘z berilib, keyingi qadamlarda so‘zning turli ma’no qirralari topishimizga to‘g‘ri keladi. Yuqorida *olma* so‘zi va uning turli ma’nolari yozilgan. Qo‘shganimizda + (qo‘shish) belgisini qo‘yamiz va ma’nosini yozamiz, ayirganimizda – ayirish belgisini, ma’nosini ko‘paytirganimizda esa × (ko‘paytiruv) belgisini qo‘yamiz. Bu mashq o‘quvchini o‘tilgan mavzularni xotirasida qayta tiklashga, so‘zning turli xususiy ma’nolarini topishga va umumiy xulosa chiqarishga undaydi. O‘quvchida “tezkor o‘ylash” va “qiyoslash” ko‘nikmalarini hosil qiladi.

“Yasama so‘zlardan ma’no yasang” o‘yini.
 Sharti: So‘z yasang va uning ma’nolarini toping.

Namuna:



Yoki mana bunday ko‘rinishda ifodalasa ham bo‘ladi.

ko‘z + lar = ko‘zlar → Ko‘zlarim tolib ketdi.
 turardi. → Akam uzoqdan chumchuqni ko‘zlab
 tug + ... = →
 tort + ... = →
 oq + ... = →

O‘quvchilarga so‘z yasashga oid alohida mavzular o‘tilmagan bo‘lsa-da, ular berilgan so‘zlarni qanday shakldosh yoki ko‘p ma’noli so‘zga aylantirishni o‘ylaydi va *“kashfiyotchilik”* qobiliyatini ishga soladi.

Topshiriq. Quyidagi so‘zlarga mos keluvchi so‘zni toping va ma’no farqlang.

Hovuz–ovqat, qiz bola–don, rang–suv, son–yuvmoq,
 Baliq → tut → Bugun atigi bittagina baliq tutdim.
 Eshik → tut → Opam eshikni tutdi.
 Yemoq → tut → Anvar tut yeyishni yomon ko‘radi.
 devor → ... →
 yemoq → ... →
 haddi → ... →

Bu mashq orqali o‘quvchi shakldosh so‘z va ko‘p ma’noli so‘zni bir-biridan farqlay oladi. *“Farqlash(ajratish) va qiyoslash”* har bir fandagi

eng muhim usullardan biri hisoblanar ekan, “hamma gap o‘qituvchining bu usulni dars jarayoniga qay tarzda olib kirishidadir” [2; 29-b.]. Tavsiya etilgan mashqlardan ona tili darslarida yangi mavzuni o‘tish, mustahkamlash, o‘tilgan mavzularni qayta so‘rash jarayonida foydalanish, aynan 5-sinf doirasida bo‘lganligi uchun ranglar, turli jadvallar va geometrik shakllardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu ta’lim samaradorligini oshiradi. “Ta’limning sifati va samaradorligi BKMLar ustida olib boriladigan ishlarga, bu ishlarning davr talabiga javob beradigan natijali bo‘lishiga, dars jarayonlari pedagogik texnologiya darajasida loyihalanishiga, kompetensiyalarni shakllantirish sari yo‘nalganiga, psixologik va pedagogik asoslar nazarda tutilganiga bog‘liq” [3; 3-b.].

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi usullarning barchasi o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, “*farqlash(ajratish) va qiyoslash*”, “*tezkor o‘ylash*” “*kashfiyotchilik*”, izlanishga ijodkorlik va hozirjavoblikka o‘rgatadi, ularning lug‘at boyligi, savodxonlik darajasini oshirish bilan birga nutqiy kompetensiyani shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, “Didaktik o‘yinlar o‘quvchulardagi tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o‘lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, nutq o‘stirish, til o‘rganish, yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi” [4].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov va boshq. Ona tili: Umumta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: Ma’naviyat, 2015.
2. S.Odilov, D.Odilova. Morfologiya o‘qitishning ayrim masalalari. – Toshkent, 2019.
3. R.A.Yo‘ldoshev, L.R.Mirjalolova. Ona tili ta’limida kompetensiyaviy yondashuv. –T., 2009.
4. <https://muallima.uz/2019/02/04/darslarda-ilmiy-didaktik-oyinlar/>

10-SINF “ADABIYOT” DARSLIGIDA KELITIRILGAN QIT’ALARNING VAZNLARI XUSUSIDA

Laylo Qazaqova, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU 3-bosqich talabasi

O‘quvchilarga aruz vaznini o‘rgatish ustida ish olib borayotgan o‘qituvchi, avvalo, o‘zi shu soha bilan tanish bo‘lmog‘i lozim. Aruz tizimi bilan o‘quvchilarni tanishtirish, mazkur she’riy o‘lchov tizimi asosida

yaratilgan she'riy asarlarni ifodali o'qish mahorati aruzning asosiy xususiyatlaridan biridir. Aruz o'lchovining yetakchi jihatlari – uning qisqa va cho'ziq bo'g'inlar takroriga asoslanishi, asosiy ruknlari, bahrlari, vaznlari, ifodali o'qish usullarini yaxshi o'zlashtirishidan iboratdir. Aruz tizimida ifodali o'qish muhim hisoblanadi. Chunki vazn shundan kelib chiqadi. O'qituvchi dastavval, mana shu masalalarga e'tiborini qaratmog'i lozim. 10-sinf “Adabiyot” darsligidagi Alisher Navoiyning o'quvchilarning mustaqil o'qishi uchun 3 ta qit'asi o'quv dasturida keltirilgan. Bular: “Haq taolo xoni in'omi-yu karami omi borida o'zgin nima tilagonning tamayi xomi-yu zoti nofarjomi”, “Saxo-vu buxl bobida nuqta surmak va arolarida ikki vosita kelturmak”, “Ul bobdakim jahon ahli bevafor va alrdin vafo ko'z tutmoq xatodur”. Ularning har bittasi har xil vaznda yozilgan. 1-qit'a *Hazaji musaddasi mahzuf* (V---V---V--) vaznda, 2-qit'a *Ramali musaddasi maqtu'* (-V--V-V---) vaznda yozilgan. Biz bilamizki, “qit'a janrining rivojlanishida Alisher Navoiy ijodining alohida o'rni bor. Shoirning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida 210 ta (“G'aroyib us-sig'ar”, “Navodir ush-shabob” va “Favoyid ul-kibar”da 50 tadan, “Badoye' ul-vasat”da 60 ta), “Devoni Foniyy”da 64 ta, “Arbain”da 40 ta va boshqa nasriy asarlari tarkibida yana o'nlab qit'alar mavjud” [3,157-b.]. “Qit'a nasriy asarlarda ma'lum bir masala haqidagi fikr-mulohazalarga yakun sifatida “qissadan hissa” tarzida keltiriladi” [3;135-b]. Har bir qit'a yaxlit asar bo'lib, biron mavzuga bag'ishlanadi.

10-sinf adabiyot darsligida keltirilgan Alisher Navoiyning “*Ul bobdakim jahon ahli bevafor va alardin vafo ko'z tutmoq xatodur*” qit'asida ham gap olam va odam, inson aqlli va oqil bo'lmog'i, agar bitta xatoga yo'l qo'ysa nimalar bo'lishi kabi g'oyalar ilgari surilgan.

A-gar o-qil e-sang, uz-gil ja-hon ah-li-din ul-fat-kim,

V --- V --- V --- V ---

mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

Alardin juz jafu kelmas, agar yuz yil vafo qilsang.

V --- V --- V --- V ---

mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

Biriga yuz Xito mulki xirojin aylasang isor,

V --- V --- V --- V ---

mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

Xatosiz qasdi joning qilg'usidur, gar xato qilsang [1;98-b].

V --- V --- V --- V ---

mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

Keltirilgan qit'ada 1-, 2-, 4-misralarida mafoiylun asliy rukni hech o'zgarishsiz takrorlanayotgani sabab rukn takroridan hazaj bahri solim sanaladi. Ya'ni qit'aning ushbu misralari *hazaji musammani solim* (ruklari va taqti'i: mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun V – – – V – – – V – – – V – – –) vaznida yozilgan. 3-misrasi esa *hazaji musammani musabbag'* (ruklari va taqti'i: mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun V – – – V – – – V – – – V – – ~) o'lchovida bitilgan. Chunki "isor" so'zidagi –sor yopiq bo'g'ini tarkibida nisbatan cho'ziqroq talaffuz qilinuvchi unli "o" qatnashgan. Shuning uchun "isor" so'zini talaffuz qilayotganda bo'g'in oxiridagi undosh tovushdan keyin qisqa "i" qo'shib, sor(i) tarzida o'qiladi.

O'qituvchi o'quvchiga qit'ani to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatayotganda, she'rdagi vasl, imola hodisalariga alohida e'tibor qaratishi lozim. Masalan, 1-misra "Agar oqil esang uzgil jahon ahlidin ulfatkim" tarzida emas, balki "Agar oqil esang+uzgil jahon+ahlidin+ulfatkim" singari o'qilishi lozim. Bunday talaffuz esa o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi.

Qit'adagi "vafo" va "xato" so'zlaridagi "o" raviysi cho'ziq unli bo'lib, qofiyadosh so'zlar shu harf bilan yakunlangan. Ushbu so'zlar tufayli yuzaga kelayotgan tazod san'ati qit'aga o'ziga xos joziba bag'ihlagan. "Juz", "yuz" so'zlari esa misralardagi ohangdoshlikni yuzaga keltirgan. Ularning ma'nolariga e'tibor berilsa, bu so'zlar o'rtasida ko'zga ko'rinmas ziddiyat mavjud. "Juz" – ayrimlikni, yakklikni, kamlikni anglatrsa, "yuz" – esa jamlikni, ko'plikni, butunlini anglatadi. "Xito" va "xato" so'zlarining yozuvdagi yaqinliklari esa tajnis san'atini vujudga keltirgan. Ular esa ma'noning tovlanishiga, yarq etib tashlanishiga imkon yaratib bergan.

Alisher Navoiydek mumtoz adabiyot janrlarida, xususan qit'a janrida ko'p va xo'b ijod qilgan alloma bo'lmasa kerak. Ular yaratgan har bitta qit'a markazida inson obrazi turadi. Qit'ada o'zgalardan hech narsa ta'ma qilmaslik, faqat va faqat o'zingni kuchingga va aqlingga ishonish kerakligini uqtiradi. Ana shunday fikrlarni Alisher Navoiy to'rt qator qit'ada mujassamlashtirgan. Zero, bu qit'ada "oqil" odamlarga nisbatan chaqiriq, da'vat yo'sinida yuzga kelgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – B. 184.
2. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. – B. 354.
3. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – Toshkent: Ta'lim-media, 2019. – B. 183.

4. Ҳожиаҳмедов А. Мактабда аруз вазнини ўрганиш. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – В. 192.

ODIL YOQUBOVNING “ULUG‘BEK XAZINASI” ROMANIDA SHAXS FOJIASI TALQINI

Osiyoxon Jalolova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori Xurshida Xamrakulova

“Ulug‘bek xazinasini” asari – buyuk mutafakkir Mirzo Ulug‘bekning ma‘rifatli hayoti va fojiviy qismati, shuningdek uning nodir kitoblaridan iborat bebaho xazinasining taqdiriga bag‘ishlangan. Asarda Mirzo Ulug‘bekning qirq yil mobaynida davlatni adolatli boshqargani, bir qancha g‘animlarga qarshi kurashgani, Movarounnahrda ilm-ma‘rifat o‘chog‘ini yoqqanligi, astronomiya, matematika, geografiya, geometriya, tarix kabi fanlarga qo‘shgan hissasi, dunyoning eng nodir kitoblarini rasadxona kutubxonasiga jamlagani, bir nechta sodiq shogirdlar tarbiyalagani, ayollarni ham ma‘rifatli bo‘lishga chaqirgani, ilm-ma‘rifatni har narsadan ustun qo‘ygani tasvirlangan. Badiiy jihatdan salmoqdor bu asar Chingiz Aytmatov tomonidan quyidagicha baholangan: “Yaxshi kitob haqida yozish maroqli. Bu yuksak va oliyjanob proza namunasi. Badiiy quvvati jihatidan salmoqdor bu tarixiy roman meni larzaga soldi. Bu esa yaxshi asarning birinchi alomati. Bundan ham muhimi shuki, romanni o‘qir ekanman, ko‘nglimda turkiy xalqlarimiz tarixi uchun iftixor tuyg‘usi jo‘sh urdi. Ulug‘bek shunday dahoki, u bizning asrlar osha tariximizga, zaminda tutgan mavqeyimizga guvoh. Ulug‘bek – bizning dildagi ohimiz, hasratimiz, u buyuk insoniy tajribalar haqida, dunyo haqida yuksak mezonlarda turib mulohaza yurituvchi, hukm-saboqlar uchun asos beradigan shaxs.

Ulug‘bek men uchun o‘rta asrning atoqli olimi bo‘lgani uchungina emas, balki xalqlarimiz tarixidagi eng murakkab va og‘ir fojiani boshdan kechirgan alloma bo‘lgani uchun ham ulug‘dir”.

Mirzo Ulug‘bek sultonlik taxtidan ketish arafasida. Shu og‘ir, fojiviy daqiqalarda u ko‘p narsalar to‘g‘risida o‘ylaydi, murakkab ruhiy holatni boshdan kechiradi. Avvalo u – shaxs, temuriyzoda, toj-taxt taqdiri uchun javobgar shaxs, nima qilib bo‘lsa-da, u hokimiyatni qo‘lda saqlab qolish uchun tirishadi, ammo u johil raqiblar qurshovida, o‘z o‘g‘li ular qo‘lida qo‘g‘irchoq, toj-taxt deb otaga qarshi bosh ko‘targan. Bu hol

buyuk allomani cheksiz qiynoqlar gardobiga tortadi. Ulug‘bekda insoniylik g‘ururi juda kuchli. Shohlik qoni jo‘sh urib toj-taxt himoyasi uchun o‘g‘liga qarshi jangga otlar ekan, nomus tuyg‘usi uni qiynoqqa soladi, el-yurt, kelgusi avlodlar oldida bunday nomaqbul ishga qo‘l urganligi uchun or qiladi, yomon nom qoldirishdan qo‘rqadi. Mirzo Ulug‘bek – tanti, olijanob odam, munosib merosxo‘r topilsa, toj-taxtni o‘z xohishi bilan topshirishga ham tayyor, biroq avlodida bunday kimsa yo‘q. Abdullatif – johil, yana bir o‘g‘li Abdulaziz – majruh, kaltabin shaxs. Ota toj-taxtni ularga topshirolmaydi. Ulug‘bekni hammadan ham Movarounnahrqa qirq yil rahnamolik qilib orttirgan asosiy boyligi – madrasa-yu rasadxonasi, nodir xazinasini – to‘plagan kutubxonasi-yu yaratgan asarlari barchasining vayron bo‘lish xavfi tashvishga soladi.

Asarda yoritilgan tarixiy davrda muhiti juda yorqin tasvirlangan. Movarounnahr osmonidagi qora bulutlar ostidagi saroy, fitnachilar, Ulug‘bek xavotirlari, Ali Qushchi va bir qancha ilm ahlining fidoiyliglariga guvoh bo‘lamiz. “Ulug‘bek xazinasini”da ma‘rifat bilan jaholat o‘rtasida shafqatsiz, murosasiz kurash ketadi. Bu kurash bir-biriga zid xarakterlar, ular o‘rtasidagi qonli, fojiali, iztiroblarga to‘la to‘qnashuvlar va ruhiy kechinmalarni o‘z ichiga oladi. Bu voqealar “xazina” atrofida aylanadi va “xazina” voqealar protsesini harakatlantirib turadi.

Bizda tarixiy janrning ikki ko‘rinishi bor. Bir tur asarlarda tarixiy faktlarga izchil rioya etiladi; tarixiy hodisalarni badiiy gavdalantirish yozuvchining asosiy muddaosiga aylanadi; ikkinchi tur asarlarda esa tarixiy faktlar, shaxslar asos qilib olinadi-yu, tarixiy faktlarning izchil ifodasi, tarixiy shaxslarning batafsil biografiyasi emas, balki shu faktlar bahonasida muayyan ijtimoiy-axloqiy muammolar ko‘tarish, tarixiy faktlar orqali “gap aytish” birinchi o‘ringa chiqadi [6; 324-b.]. “Ulug‘bek xazinasini” romani keyingi turga mansub. Asarda asosiy obraz adolatli va ma‘rifatparvar shoh Ulug‘bek obrazi. Qolganlar uning atrofida birlashib, asar yaxlitligini vujudga keltiradi. Ulug‘bek ikki tomonlama shaxs, chunki u ham shoh, ham ma‘rifatparvar olim. Asarni o‘qiganimizda ko‘z oldimizda ulug‘ bir mutafakkir gavdalanadi. Bu Ulug‘bekning shohlikdan ko‘ra, ko‘proq ilm-ma‘rifatga berilganligidan dalolatdir. U ilm-ma‘rifat orqali xalqni boshqarish orzusida edi va shu narsaga ishonar edi. Afsuski, bu dunyoda dunyo ilmlarini zabt etmoq mumkin-u, lekin insonning ichida(ko‘nglida) nima bor ekanligini bilib bo‘lmaydi, inson shunday jumboqli mavjudotdir. Ulug‘bek bu narsani tushunganda kech bo‘lgan edi.

“O, yulduzlar, sehrli yulduzlar! U qirq yil senlarning sirlaringni bilmoq niyatida yashadi, sanoqsiz tunlarni bedor o‘tkazdi. Koinot sizlarini bilsam, hayot va bashariyat sizlarini bilurmen, deb umid qildi. Yo‘q hamma orzulari hayot dovullarida to‘zg‘ib, qarigan chog‘ida g‘arib bir inson, chorasiz bir bandi bo‘lganidagina tushundi” [9; 127-b.].

Ulug‘bek xalq boshqaruvida qattiqqo‘l bo‘lmadi. U Nizomiddin Xomushdek unga butun bir xalq ichida tuhmatlar yog‘dirib, dinsizlikda ayblagan insonlarni bir hamlada yo‘q qilib tashlashi mumkin edi. Lekin unday qilmadi, afsus bu kuchlar bir kun kelib birlashib unga qarshi chiqishini bilmas edi. U taxt boshqaruvida biroz e‘tiborsizlikka yo‘l qo‘ydi va buning badali esa, toj-u taxtdan judolik edi.

Ulug‘bek umrining oxirgi daqiqalarigacha nodir kitoblari, ilm xazinalarining taqdiri haqida o‘yladi. Ularni qanday qilib bu johillar qo‘lidan saqlab qolib, kelajakka yetkazishni, qirq yillik mehnati havoga sovrilmasligini o‘yladi. “Yo‘q! Men saltanatdan ayrilishdan qo‘rqmaymen. Faqat bu elga qirq yil rahnamolik qilib orttirgan boyligim – madrasa-yu rasadxonam, nodir xazinam – to‘plagan kutubxonam va, nihoyat, yaratgan asarlarim – barchasi poymol bo‘lishidan qo‘rqamen. Ha, faqat shundan qo‘rqadurmen” [9; 190-b.], – deydi Ulug‘bek. Taxtga battol o‘g‘li o‘tirgandan so‘ng ilm ahlining holi ne kechishini o‘yladi. Abdullatif bilan bo‘lgan oxirgi suhbatidan so‘ng endilikda xalq boshiga tushajak azob-uqubatlar uni chuqur o‘yga toldirdi.

“Mirzo Ulug‘bek astronomiya fani bilan shug‘ullanib, ilm-u ma‘rifatga homiylik qilgani tufayli islom dini ruhoniylari fitnasi qurboni bo‘lgan emas. U xalqparvar hukmdor sifatida oddiy xalqning ahvolini yaxshilash maqsadida dadil iqtisodiy islohotlar o‘tkazib, katta mulkdorlarning manfaatlariga qarshi borganligi sababli ular uyushtirgan fitnaning qurboniga aylangan” [1]. Lekin yozuvchi ta‘kidlashicha, Ulug‘bekning fojiasiga uning ilm bilan shug‘ullanganligi ham sabab bo‘lgan. Chunki u chindan yulduzlar ilmini yaxshi bilar edi. (Ulug‘bek yaxshi munajjim bo‘lganligi uchun ham o‘zining o‘g‘li tomonidan o‘ldirilishini Abdullatif tug‘ilgan paytidayoq bilgan edi. Lekin otalik hissi Abdulatifni yo‘q qilishga yo‘l qo‘ymagan.) Buni bilgan johillar: “Ulug‘bek munajjimlikni ham yaxshi biladi, u hamma narsani oldindan ko‘ra oladi”, – deb undan qo‘rqishardi va shuning uchun ham uning ilm bilan shug‘ullanishini kufr ish deb hammaga jar solardi.

Odil Yoqubov bir tomonlama talqinga yo‘l qo‘ymaslik uchun Abdullatifdagi yovuzlikni, bir tomondan, uning shaxsiyatidagi taxtga, mansabga o‘chlik ishtiyoqi, ikkinchi tomondan, mana shu o‘chlikka,

ishtiyoqqa olib kelgan Gavharshodbegimning tarbiyasi bilan aloqadorlikda izohlaydi. Uchinchi tomondan, Ulug‘bek va farzandi Abdullatif o‘rtasida sovuqlik, adovat tushishiga olib kelgan bir qancha ijtimoiy-siyosiy sabablar borki, adib o‘rni-o‘rni bilan romanda ularga ishora qilib boradi. Masalan, 1448-yilda Ulug‘bek Tarnob yaqinida o‘g‘illari bilan Alouddavla ustidan qozongan g‘alabani Abdullatif nomidan emas, balki Abdulaziz nomidan e‘lon qiladi. Bu esa ota-bola o‘rtasidagi kelishmovchilikka olib keladi. Bundan tashqari, Ulug‘bek Hirot qal‘asida saqlanayotgan mol-mulkni Abdullatif ixtiyorida qoldirmaydi. 1449-yilda esa Abdullatif o‘z ulusida savdo solig‘i — “tamg‘a”ni bekor qiladi. Ulug‘bek bu soliqqa katta e‘tibor bilan qarar edi. Mana shunday o‘zboshimchalikdan g‘azablangan Ulug‘bek Samarqandda Abdul‘azizni qoldirib, Hirotga yurish boshlaydi.

Yozuvchi Ulug‘bek Abdullatifni yoshligidan yaxshi ko‘rmaganini, unga nisbatan yuragi hech ham jiz etmaganligini aytadi. Ulug‘bek ko‘proq Abdulazizga yon bosar edi. Uning ko‘ngli majruh, deb doim u haqida qayg‘urardi. Bu ham eng katta xatosi edi. Yozuvchi Abdullatifdagi mehrsizlik ildizini uning ota mehridan uzoqda o‘sganligi bilan izohlar ekan, uni to‘g‘ri asoslab beradi. Tabiiyki, o‘z ota-onasi qo‘lida tarbiya topmagan farzandning mehri ota-onasi bilan o‘sgan bolaga nisbatan ayricha bo‘ladi. Bunday farzandda o‘z ota-onasiga nisbatan tanqidiy ruh kuchli bo‘ladi. Abdullatifni tahlil qilishda genetikasiga ham e‘tibor berish kerak. “Abdullatifdagi savdoyilik ilmiy tilda “psixopatiya” deyiladi. Undagi psixopatiya irsiyat bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Chunki u ona tomondan Xalil Sultonning nabirasi bo‘lib, Xalil Sulton Mironshoh mirzoning jununvash tabiatidan paydo bo‘lgan o‘g‘il edi” [8; 75-b.]. Bu haqda P.Qodirovning “Ona lochin vidosi” asari va P.Shermuhamedovning “Xorazm malikasi yoxud Amir Temurning kelini” romanida ishora qilingan. P.Qodirov bir avloddan so‘ng Xalil Sultonning xatti-harakatlari Abdullatifda takrorlanganiga e‘tibor qaratadi [5; 186-b.]. Xalil Sulton shirakayflik mevasi edi. Bu unda psixopatiyaning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. So‘ngra bu irsiyat orqali Abdullatifda ham kuzatiladi. Yuqoridagi psixopatiyaning vujudga kelish sabablari, irsiyat masalasi fanda isbotlangan. Shuning uchun ham biz Abdullatif harakteridagi jarayonlar irsiyat belgisi deya olishimiz mumkin.

Ali Qushchi – Ulug‘bekning yakka-yu yolg‘iz sodiq shogirdi. Asarni harakatlantiruvchi obraz. Har bir voqea u bilan bog‘liq tarzda kechadi. U juda kuchli irodaga ega, iymoni butun, ustozida sodiq, ilm qadrini biladigan olim. U boshiga qanday savdolar tushishiga qaramay ortiga

chekinmadi, va'dasidan qaytmadi, iymonini unutmadi, non-tuz bergan ustoziga xiyonat qilmadi. Zindonda oyog'i shishib, joni azobda qolganda xayoliga har xil o'ylar kelib, uni taslim bo'lishga da'vat etganda ham irodasizlik qilmadi, undagi va'daga vafo tuyg'usi ustunlik qildi va yolg'iz ollohdan madad so'rab yotaverdi. Johil battol oldiga borib bosh egishdan jirkandi. Uning so'zidan qaytmaydigan inson ekanligini hamma bilar edi. Oylab zindonda yotganda ham sir boy bermadi. Undagi insoniylik kuchligidan zindonda o'zidan zaif bo'lgan Muhiddindan nafratlansa ham nonini unga berdi, kechalari sovuq qotmasin deb kiyimini uning ustiga yopib, o'zi uxlamay chiqdi. Sotqin bo'lsa ham unga rahmi keldi. Uning shunday insonligini Ulug'bek hazratlari bilganligi uchun ham butun merosini unga ishondi.

Ulug'bek Ali Qushchiga: "Qirq yil saltanat tebratib, orttirgan butkul boyligim, rasadxona va kutubxonam, bitilgan va hali nihoyasiga yetmagan risola-yu kitoblarim – barchasi sening qo'lingdadir. Alqissa, bu xazinani johil gumrohlardan, mahdud mutaassiblardan asrab qolmoq yolg'iz sening ixtiyoringdadir... Ammo esingda bo'lsin: ko'p xatarli yumush bu!" [9; 78-b.] – deydi. Ali Qushchi buning uddasidan chiqdi. U shunday qimmatbaho, nodir kitoblarni kelajakka yetkazishda qancha aziyat cheksa ham uning uddasidan chiqdi va kelajak avlodga butun boshli xazinani meros qilib qoldirib ketdi. Uning ilm ahlining jonkuyari ekanligini quyidagi so'zlaridan bilib olamiz. Ali Qushchi zindondan ozod bo'lgandan so'ng, shogirdi Miram Chalabiyning: "Ustoz endi ne yumush bilan shug'ullanamiz?" – degan savoliga: "Shu bu kungacha ne ish qilgan bo'lsak, shu yumushni qilamiz, bolam! Ustod, jannatmakon Mirzo Ulug'bek hazratlari yoqqan ilm shamini o'chirmoq gunohi azim bo'lur... Zero, ilm ahlining g'animlari bo'lmish mustabid shohlar kelib keta berar, ammo bu maskan, bu zahmatkash xalq abadul-abad hayotdir. Shu yurt hurmati, kelgusi avlodlar hurmati, ustod boshlagan ulug' ishni oxiriga yetkazmoq darkor, azizim" [9; 332-b.], deydi.

"Romanning dastlabki bobida Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi obrazi bilan bog'liq tavsilotlar qalamga olinadi. Ali Qushchi Ulug'bek davrining shunday bir zukko olimidirki, u hamma narsani – butun hayot oqimi va bu oqimning eng mayda shaxobchalarini, o'z davri voqeligining butun ziddiyatlarini, qayg'uli va kuchli tomonlarini, uning Ulug'bekka daxldor jihatlarini, davr qahramonliklari va razilligini, o'sha davr tarixiga aloqador soxtalik va haqiqatni biladi" [2; 92-b.].

Nizomiddin Xomush mansab ilinjida dinni niqob qilib, shohga qarshi fitna uyushtirgan, mol-dunyoga o'ch qahramon. U o'zining maqsadi

yo'lida tarki dunyo qilgan darveshlardan ham foydalanadi. U Naqshbandiya tariqati davomchilarining rahnamosi. Uning mol-dunyoga o'chligini Salohiddin zargar uni har tashrifida bitta tilla buyum bilan yo'qlashidan bilsak bo'ladi. Hammaning ko'ziga dunyoning ishlaridan qo'lini tortib, faqat xudoga hamd-u sanolar aytish bilan shug'ullanuvchi inson bo'lib ko'ringan bu shaxs shayxulislomlik lavozimiga da'vogar, bu mansabni egallay olmagach, shohga qarshi Abdullatifni qayragan, otabolaning jangiga sababchi bo'lgan, Abdulatifning esa padarkush bo'lishida sababchi inson edi. U aslida Ulug'bekdan qo'rqar edi. Xomush Ulug'bek yulduzlar ilmini bilganligi uchun munajjimlikni ham bilishidan, u hamma narsani oldindan ko'ra olishidan havotirda edi. Shuning uchun ham u Ulug'bekni dinsiz, kufr kitoblarni o'quvchi deb bo'hton tarqatdi. Aslida din peshvosi bo'lgan inson taqdiriga nima yozilgan bo'lsa, hammasi xudodan ekanligiga ishonishi kerak edi, qandaydir yulduzlarning harakati-yu munajjimlik bashoratiga emas.

“Ulug'bek xazinasi” romanida Ulug'bek, Abdulatif, Ali Qushchi singari tarixiy shaxslar bilan birga yozuvchi xayolining kuchi bilan yaratilgan va asar g'oyasini ochishga xizmat qiladigan to'qima obrazlar ham anchagina. Buyuk rus tanqidchisi V. G. Belinskiy tarixiy mavzuda yozilgan romanlar xususida so'z yurita turib, shunday degan edi: “Roman tarixiy faktlarni yozishdan voz kechadi va ularni asar mazmunini tashkil qilgan xususiy voqea bilan bog'lanishda qabul qiladi, bu orqali u tarixiy faktlarning astarini ochib beradi... . Axir, voqelikning o'zida tarixiy voqealar xususiy odamning taqdiri bilan chatishib ketmaydimi, aksincha. Xususiy odam ba'zi vaqtda tarixiy voqealarda qatnashmaydimi?” [3; 68-b.].

Asardagi to'qima obrazlar romanga o'zgacha bir butunlikni olib kirgan. Masalan, Xurshidabonu orqali Abdulazizning, Qashqir orqali davlat tepasidagi amaldorlarning, Qalandar Qarnoqiy orqali Salohiddin zargarining, Temur Samarqandiy, aka-uka Qalqonbek va Bosqonbeklar orqali butun bir xalqning xarakteri ochib beriladi.

Saroy amaldorlarining fitnasiga uchib, Ibrohimbekning o'g'lini o'ldirib, zavjasi Xurshida bonuni o'z haramiga olgan Abdulazizning qanday insonligini shu voqeadan bilib olamiz. Qashqirning pulga o'chligi, sotqinligi, qayerdan foyda bo'lsa, o'sha yerda paydo bo'lishi o'sha davr amaldorlarining xarakterining namunasi. Suv qaysi tomonga oqsa, shu tomonga harakatlanadigan, kecha non-tuzini yeb, poyiga ta'zim qilib yurgan, ertasiga kuchlilar tomonga o'tib dushmanga aylangan Salohiddin zargarga o'xshash kimsalar yurtda talaygina edi. Erkak bo'lib bir zindon

azobiga chidolmay chorak asr ustoz deb poyini o'pib yurgan insonini sotgan, faqatgina jonini o'ylab, o'zining to'g'ri yo'lidan qaytib battollar, johillar yo'lga kirgan iymoni sust Muhiddindek kimsalar ham oz emas edi. Yurtidan ayrilgan, hayotda hech kimi qolmagan, yolg'iz umidiga ham yetolmagan, shuncha azob ko'rsa ham hayotga qo'l siltab, darveshlikni niqob qilib olib fisq-u fasodga berilishni o'ziga ep ko'rmagan, yaxshilikni hech qachon unutmaydigan, insof-diyonatli, iymoni butun Qalandar Qarnoqiylar bo'lmaganida bu hayot allaqachon zavolga yuz tutgan bo'lar edi. Xalq orasidan chiqqan, oddiygina, soddagina, ammo yuragida o'ti bor, adolat har doim shiori bo'lgan botirlar har bir zamonda topiladi. Qo'lida qurol bo'lmasa, adolat uchun, tinchlik uchun ketmon-bolta ko'tarib chiqqanlarning qancha-qanchasiga guvoh bo'lganmiz. Bunday insonlar ushbu romanda ham talaygina. Bular Qoplombek, Bosqonbek, Temur Samarqandiy, Miram Chalabiy, Koshiy kabi insonlar edi. Ular ilm-ma'rifat yo'lida jonini ayamagan haqiqiy ilm qadrini bilguvchilar edi. Asarda bu qahramonlar bir-biriga chambarchas bog'liq tarzda yaratilgan. Bu yozuvchining mahoratidan darak. To'qima obrazlar davr muhitini ochib beruvchi asosiy vosita. Ular orqali tarixiy vaziyatga, xalq ahvoriga oydinlik kiritiladi.

Asarni o'qir ekanmiz, asar boshqa tarixiy asarlarga nisbatan yengil, qiziqarli, o'ziga jalb eta oladi. Chunki aksariyat tarixiy kitoblar zerikarli va tushunilishi qiyin bo'ladi. Bu romanni o'qiganimizda esa, bunday hislarni tuymaymiz. Bu ham yozuvchining bir mahorati. Asarda keltirilgan dramatik sahnalar kitobxonni o'z tuyg'ulari girdobiga tortib ketadi. Ulug'bekning fojiasi yuragingizni uvushtirib yuboradi. Ikki sof muhabbat egalari Qarnoqiy va Xurshida bonular halokatida ich-ichingizdan alamli e'tiroz keladi.

“Ulug'bekning fojiasi shundaki, – deb yozadi U. Normatov, – u egalik qilgan moddiy meros – toj-taxtning istiqboli zabun, vorislari nobakor. O'z o'g'lidan tortib qo'l ostidagi barcha mansabdorlari, ishongan tog'larigacha xiyonatkor bo'lib chiqadilar. Bu allomaning baxti shundaki, u to'plagan, yaratgan ma'naviy meros – nodir kitoblarning munosib vorislari, ishongan, sadoqatli, jonkuyar shogirdlari bor” [6; 106-b.].

XX asr o'zbek adabiyotiga nazar tashlaganda, M.Shayxzodaning “Mirzo Ulug'bek” tragediyasining ham ayricha ahamiyatini kuzatish mumkin. Fojia va roman orasida talay umumiyliklar bor. Har ikki asarda ham Ulug'bek hayotining so'nggi davri qalamga olinadi, tragediyadagi tarixiy faktlar romanda ham tilga olinadi, bir qancha tarixiy shaxslar bu yerda ham ishtirok etadi. Shu bilan barobar romandagi tarixiy shaxslarning

badiiy talqini, o‘zining uslubiy-g‘oyaviy yo‘nalishi bilan tragediyadan farq qiladi.

“Ulug‘bek xazinasi” va “Mirzo Ulug‘bek fojiasi” asarlarining o‘xshash va farqli jihatlari:

1. Ikki asar ham bir xil davrni yoritib bergan. Ulug‘bek umrining so‘nggi davrlari, Abdulatifning isyon ko‘tarib taxtni egallagani. Faqat “Ulug‘bek xazinasi” asarida Abdulatif fojiasi ham berilgan, ya‘ni Ulug‘bek o‘limidan keyingi olti oy ham yoritilgan.

2. Abdulatif obrazi ikki asarda ham din ulamolarining ta‘siriga tushib qolgan, shafqatsiz, bemehr obraz. Taxtni meros yo‘li bilan emas, jang bilan qon to‘kib olishni xohlaydi. Asarlardagi farq shundaki, “Ulug‘bek xazinasi”da Abdulatifning otasining o‘limidan so‘ng qanday ahvolga tushganligi kengroq ochib berilgan. Uning shafqatsizligini “Mirzo Ulug‘bek fojiasi”da otasini o‘zi o‘limga hukm qilib, uni qatl qilish uchun Sayid Abbosga xanjar berganidan bilsak, “Ulug‘bek xazinasi” asarida esa, otasini qatl qilishga qilib, hech vijdoni qiynalmay xalq orasida bu xabar tarqalib, xalqda unga qarshi bir kayfiyat paydo bo‘lmasligi uchun Sayid Abbosni ham o‘ldirishga buyruq berganidan bilib olishimiz mumkin.

3. Mirzo Ulug‘bek ikki asarda ham adolatli, ma‘rifatparvar shaxs. Lekin mening o‘ylashimcha, Ulug‘bek “Ulug‘bek xazinasi” asarida “Mirzo Ulug‘bek fojiasi” asaridagi Ulug‘bekdan ancha ham sodda, amaldorlar oldida hech qanday hurmati yo‘q, juda ham ishonuvchan inson sifatida tasvirlangan.

4. Abdulatifga ta‘sir qilgan din rahnamolari ham boshqacha. “Ulug‘bek xazinasi”da Nizomiddin Xomush ta‘sirida bo‘lgan bo‘lsa, “Mirzo Ulug‘bek” fojiasida esa, Xo‘ja Ahror keltirilgan. Lekin Xo‘ja Ahror obrazi noto‘g‘ri keltirilgan va bu tarixiy haqiqat buzilganligi ko‘plab ilmiy asarlarda isbotlangan. Bunga sovet davridagi tuzum ta‘sir ko‘rsatgan deb qaraladi.

5. Gavharshodbegim ikki asarda ham ig‘vogar, fitnachi, Ulug‘bek va Abdullatif fojiasiga sababchi obrazlardan biri. Bu obraz “Mirzo Ulug‘bek” fojiasida aniqroq ochib berilgan.

6. Bundan tashqari voqealar jarayonida ham bir qancha farqlar mavjud. Masalan, urush tafsilotlarida, Ulug‘bek va Sayid Abbosning o‘limida, Gavharshodbegim mavjud sahnalarda farqlar bor.

7. To‘qima obrazdagi qahramonlarning turlicha ko‘rinish va mavqega ega ekanligi esa tabiiy hol. Bu yozuvchining tarixiy vaziyatni qanday obrazlar orqali ochib bera olish qobiliyatidan kelib chiqadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, yozuvchi shaxs fojiasi va unga aloqador bo'lgan tarixiy ma'lumotlarni obrazli o'zlashtirgan. Natijada o'ziga xos badiiy manzaralarni shu qadar ishonarli qilib chizib berganki, obrazli o'zlashtirilgan hayotiy fakt va hodisalarni kitobxon o'sha davr haqiqati tarzida qabul qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Berdimurodov. Bilmadim, ne edi gunohim? / O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 2008-yil, 12-dekabr.
2. A.Zayniddinova. Tarixiy romanlarda shohlar timsoli. – T., 1999.
3. Belinskiy V. Adabiy orzular. – T., 1986.
4. I. Haqqul. Taqdir va tafakkur. – T.: Sharq, 2007.
5. P.Shermuhamedov. Istiqbolni o'ylab (Adabiy-tanqidiy maqolalar). – T.: 1987, – 186 b..
6. S.Mirzayev. Saylanma. (O'zbek romanchiligi taraqqiyoti). – T., 2007.
7. U. Normatov, O. Yoqubov. XX asr o'zbek adabiyoti. – T.: O'qituvchi, 1999.
8. X. Hamroqulova. Adabiyotda hayot- mamot masalasi. – T., 2009.
9. Odil Yoqubov. Ulug'bek xazinasi. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994.

ADABIYOT FANINI O'QITISHDA FANLARARO INTEGRATSIYA

Maxliyo Nigmatova, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti 3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: ped.f.d. (PhD) Saodat Kambarova

Bugungi kunda yosh avlodni har tomonlama yetuk v barkamol shaxs sifatida tarbiyalash masalasi uzluksiz ta'limning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Bu jarayon o'quvchiga bilim berish, uning ma'naviy dunyosini ham yuksaltirib borish hamda ta'lim-tarbiya uyg'unligini ta'minlaydi. Yoshlarning yetuk bo'lib kamol topishi o'qituvchi-murabbiylarning bilimi, ijodkorligi va kasbiy kompetentligiga bog'liq. Zamonaviy o'qituvchi o'z davrining ilg'or metodlarini mukammal egallagan, o'qitayotgan fanini yanada chuqur o'rganishga yordam beradigan innovatsion texnologiyalarni, metod va usullarni ham yaxshi bilishi lozim. Ilmiy dunyoqarashni shakillantirishda yashirin aloqadorlik va bog'lanishlarni aniqlay bilish, fanlarni o'qitish mazmuni o'rtasidagi mushtaraklikni ta'minlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan

biri. Chunki, fanlararo integratsiyani ta'minlagan holda, darsni tashkil qila olgan o'qituvchi o'quvchilardan o'zining faniga bo'lgan qiziqishni oshiribgina qolmasdan, o'zlashtirish samaradorligiga ham yordam beradi. Fanlararo integratsiya tizimli tarzda amalga oshirishi natijasida o'quv-tarbiya jarayonining aloqadorligi sezilarli darajada ortadi. Integratsiya haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo, u nimani anglatishi xususida to'xtalish maqsadga muvofiqdir. Integratsiya lotincha so'zdan olingan bo'lib, "integration – tiklash, to'ldirish, integer – butun" ma'nolarini anglatadi. Shuningdek, sistema yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarning o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayon ma'nosini ham ifodalaydigan tushuncha.

Integratsiya asosan 2 xil bo'ladi. Ya'ni tashqi integratsiya va ichki integratsiya. Tashqi integratsiyaga asosan fanlar kiradi. Masalan: matematika, biologiya, kimyo, geografiya, tarix, adabiyot, informatika, jismoniy tarbiya. Ichki integratsiyaga esa, mavzularning bir-biriga bog'lanishi va uzviyligidir. Masalan, 5-sinfda Maqsud Shayxzodaning "Iskandar Zulqarnayn" dostonini o'rganishda tarix fani, O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarini o'rganishda psixologiya fani bilan bir butunlikdagi darslarni tashkil etish kabi. "Hellados" hikoyasini o'rganishda geografiya fanini adabiyot fani bilan integratsiyalab o'rganish maqsadga muvofiq. 6-sinfda Janni Rodarining "Hurishni eplolmagan kuchukcha", Abdulla Qahhorning "Bemor", Odil Yoqubovning "Muzqaymoq", Erkin Vohidovning "Nido" dostonini o'rganishda tarix, "Zarbulmasal", "Oq kema" asarlarini zoologiya fanlari bilan aloqadorlikka tayanib o'rganishda integratsiyadan foydalanishni amalga oshirish mumkin.

Integratsiyalashgan dars natijalari o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlari rivojida namoyon bo'ladi. Fanlararo integratsiya bir necha o'quv predmetining bir-biriga taalluqli sohalarini ko'rsatish emas, balki integratsiyalab o'qitish orqali o'quvchilarga atrofimizdagi dunyoning yaxlitligi haqida tasavvur uyg'otishdir. Ko'pchilik olimlar integratsiya muammosining mazmun-mohiyatini aniqlash bo'yicha fikr bildirganlar. Mamlakatimiz adabiy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiya muammosi Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova [1], Z.Qobilova, Aliyeva [2] K.Mavlonova [3] va S.Kambarovalar [4] tomonidan o'quv dasturlari mazmunini integratsiyalash, ta'lim turlarini tizimli takomillashtirishga doir yondashuvlar misolida tadqiq etilgan.

Ma'lumki o'zbek mumtoz nasrining nodir namunasi, tarix, tabiatshunoslik, jug'rofiya, elatshunoslik, adabiyot va san'at tarixiga oid

nodir manba hisoblangan “Boburnoma” asari fanlararo integratsiyani ta’minlashda ulkan imkoniyatga egaligi bilan xarakterlidir. Shu bois, umumiy o’rta ta’lim maktablarining 10-sinfida mazkur asarni fanlararo integratsiyaga tayanib o’rganish o’quvchilarning tarix, falsafa, fiqh, din ta’limoti, tilshunoslik, jug’rofiya, tabiatshunoslik, ma’danshunoslik, dehqonchilik, bog’dorchilik va boshqa sohalar xususida dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarini oshirishga xizmat qiladi [5; 114–153-b.]. Xususan, “Boburnoma”da mingdan ortiq geografik terminlarning mavjudligi, shahar, qishloq, qal’a, dasht, tog’, dovon, dara, daryo, ko’prik, kechuv, ko’l, chashma, bog’, yaylov, o’tloqlar tasviri mavzuni geografiya fani bilan bog’lashga sharoit yaratadi. “Boburnoma”da Farg’ona va Samarqand, Ohangaron vodiysi, O’ratepa va uning atrofi Mascho, Hisor, Chag’oniyon, Badaxshon, Kobul viloyati va boshqa joylar geografik jihatdan juda qiziqarli tavsif qilingan bo’lib, muallif o’zi yurgan yo’llar, o’zi bo’lgan shahar va qishloqlar, ishtirok etgan voqealarni ustalik bilan badiiy ifodalaydi. Asarda Andijon, Samarqand, Xo’jand, Hirotdan boshlab Agrabacha bo’lgan joylar tasvirlangan. “Boburnoma”da Andijonning geografik o’rni, chegaralari, g’allasi, mo’l, mevalarga boyligi, ayniqsa, qovuni va uzumi yaxshi bo’lishi, qovun pishig’ida poliz boshida qovun sotish rasm emasligi bayon etilgan. Shahar darvozlari, shaharga to’qqiz ariqdan suv kirib, biron yerdan chiqib ketmasligi, qal’aning atrofi butkul mahallalar bilan o’ralganligi, ov qushlari ko’p va semiz bo’lishi va boshqalar haqida juda sodda hikoya qilingan. Adabiyot darslarini geografiya fani bilan bog’lab o’rganishda xaritalar bilan ishlash yaxshi samara beradi. Jumladan, Bobur bo’lgan yo’llarni, joylarni topishda turli xil xaritalardan foydalanish, shahar, qishloq, dasht va shu kabi joylarning iqlimini geografik asboblar bilan o’rganish, kompas yordamida shahar va viloyatlarni qaysi tomonda joylashganini aniqlash yordamida o’quvchilar tasavvurini o’stirish mumkin. Matndagi toponimlar va gidronimlarning bugungi kunda qaysi davlat hududida ekanligini aniqlash; voqealar sodir bo’lgan joylarning iqlimi, nabotot va hayvonot olami tasviri bilan o’lkamiz tabiatining o’ziga xosligini aniqlash; izohtalab so’zlarga lug’at yaratish yoxud jadvallar bilan ishlash vazifasi ham bu borada samaralidir.

Toponimlar			
Hodarvesh	Takasekirgan	Qutiy	Zarrin

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, darslarni integratsiya asosida tashkil etilishi bolaning dunyoqarashini rivojlantirishga, fanga bo’lgan qiziqishlarini oshirishga, olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo’llashga

yordam beradi. Aynan bir necha fanlar asoslarini egallashlari uchun zarur bilimlar bilan ta'minlashga, mustaqil va ijodiy fikrlash, uni ravon bayon etish malakalarini shakllantirishga olib keladi. Integratsiya darslarini amalga oshirish, o'quv jarayonining mazmun, metodlari va tashkil etish shaklini aniqlashda juda muhimdir. Bu muammoning hal etilishi ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik va texnik bilimlarni uzviy bog'lashga xizmat qiladi. Integratsiya ko'p qirrali, turli xarakterli, har xil funksiyali hodisadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. 28–31-b.

2. Kambarova S. Integratsiyalashgan ta'lim turlarini tizimli takomillashtirish shart-sharoitlari // Til va adabiyot fanini zamonaviy o'qitish masalalari. Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – T., ToshDO'TAU, 2017.

3. Qobilova Z, Aliyeva G. Adabiyot darslarida fanlararo integratsiya // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2015. – № 3. 21–22-b.

4. Мавлонова К. Она тили фанини адабиёт фани билан бадий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш. Пед.фан. док.дисс...(PhD) автореф. –Т., 2019. – 54 б.

5. То'xliyev B. va boshq. Adabiyot. O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 183 b.

BADIIY ASARLARNI O'RGANISHDA DIDAKTIK TAHLIL ("Qorako'z majnun" hikoyasi misolida)

Nasiba Meliyeva,

Alisher Navoiy nomidagi

ToshDO'TAU 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi Hoshimjon Ahmedov

Adabiy ta'limda o'quvchilarning badiiy asardagi ma'no-mazmunni tushunishlari, matndagi estetik jozibani his qilishlari, muallif shaxsiyatini anglashlarida tahlil turlarini qo'llashning ahamiyati xususida talay qarashlar mavjud. Bu borada professor Q.Yo'ldoshevning quyidagi fikrlari e'tiborga molik: "Adabiy asarni didaktik tahlil etishda o'qituvchi va o'quvchilarning... birgalikdagi faoliyati quyidagi uch usulda uyushtirilishi


ta'lim tajribasida ko'proq uchraydi: a) muallifga ergashib yoki matn doirasida amalga oshirilgan o'quv tahlili; b) badiiy obrazlar asosidagi didaktik tahlil; c) muammoli o'quv tahlili [2; 112-b.]. Darhaqiqat, tahlilni asardagi obrazlarga tayanib o'rganish yoki muammoli tarzda amalga oshirish adabiy ta'limdan ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda ahamiyatlidir. Bu jihatlarni biz umumiy o'rta ta'lim maktablari 10-sinfida S.Ahmadning "Qorako'z majnun" hikoyasini o'rganish misolida ko'rishimiz mumkin.

Birinchi yo'nalishda tahlil qiladigan bo'lsak, o'quvchilarning e'tibori asardagi personajlarga qaratiladi va obrazlar ruhiyatini anglab borish jarayonida asarning badiiy ma'nosi o'zlashtiriladi. Masalan, e'tibor berilsa, hikoyadagi iymon-e'tiqodli, go'zal inson, alomat onaxonning bu yorug' dunyodan armon, alam-o'kinchlar bilan vidolashuviga sabab bo'lgan oqpadar o'g'lon, milliy-axloqiy qadriyatlarimizni toptashga qaratilgan mudhish siyosatning ham jirkanch mahsuli, ham ayanchli qurbonidir. Bu yo'nalishni timsoli tahlil yo'li deyish mumkin va bu yo'nalishda o'quvchilarning ham anchagina faol ishtirok etishlariga imkoniyat bo'ladi. Ikkinchi yo'nalishda esa, tahlil asosan o'quvchilar tomonidan olib borilishi ko'zda tutiladi. O'qituvchi o'quvchilar oldiga muammo qo'yadi va ularga bu muammoni yechish yo'llarini ko'rsatadi. Masalan, hikoyadagi Bo'rivoy obrazini tahlil qilamiz. Inson – eng oliy mavjudot. Inson – tabiat gultoji. U o'zida shunday xazinalarni jo aylaganki, bundan hatto o'zi ham bexabardir. Ammo u o'z iymonini yo'qotar ekan, eng tuban jonzot darajasiga tushib qolishi ham mumkin. Bil'aks, ba'zan hayvonlarda shunday ezgu fazilatlarini ko'rib qolamizki, ularni insonlarning barchasida ham ko'rish imkonsiz. Mazkur hikoyada Saodat ayaga sodiq, vafodor itning qismati, o'g'lining esa vafosizligini ko'rsatish mumkin. Asar tahlili jarayonida o'quvchilar adabiy tushunchalardangina foydalanib qolmay, bir qator yangi estetik-mantiqiy tushunchalarni o'zlashtirib ham olishadi. Negaki, ular jamoa bo'lib ishlaydilar. Hikoyada ona uchun din-diyonat, milliy-diniy qadriyatlar, el-yurtchilik har narsadan ustun turadi. Shuning uchun Bo'rixondan ko'ngli soviydi, uni yo'qlikka topshiradi; ketar mahali undan yuz o'giradi. Endi ona sahar namozida o'g'lini eslamay qo'yadi. Bu esa o'quvchini bahs-munozaraga chorlaydi. Tabiiyki, bu jarayonda o'quvchilarning ma'naviy olamida ham, dunyoqarasida ham muayyan o'zgarishlar sodir bo'ladi. Mana shu tarzda olib borilgan o'quv didaktik tahlil o'quvchilarni ma'nan va ruhan sog'lom shaxs bo'lib voyaga yetishiga va tafakkur olamini kengaytirishga xizmat qiladi.

Badiiy asar tahlilida ta'lim metodlari katta o'rin tutadi. "Ta'lim metodi – o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarini egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli. Belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan usullari, majmuasidir" [3; 102-b.].

Bizga ma'lumki, darsliklarda kiritilgan har qanday asar ham o'quvchini o'ziga jalb qila oladi deya olmaymiz. Vaholanki, bunday savolga yechim topishga doim tayyor bo'lishimiz darkor. Hozirgi kunda adabiy jarayonda bir qancha metodlar borki, ular orqali o'quvchini asarga qiziqтира olish, uni tezda anglab, o'z tafakkurini ishlata olish imkonini yaratib beradi. O'quvchilar asarni o'qib, tanishib chiqishlari mumkin, lekin uning chuqur ma'nosini anglolmasliklari tabiiy jarayon. Shunday vaziyatlarda ularga biz bir qancha ta'lim metodlarini qo'llab, o'quvchilarni asarning ichiga olib kira olishimiz mumkin. Bulardan biri "Kungaboqar" metodidir.

Birinchi ilova: o'quvchilar 4-5 a'zodan iborat guruhlariga bo'linadi. O'qituvchi mavzudan kelib chiqib, o'rtaga bitta muammoni tashlaydi. Har bir guruh kungaboqar yasab, uning markaziga doira joylashtirib, barglar yopishtiradi. Mavzuga qarab, doiraga har bir guruhga yoki umumiy bitta muammo yozilib, doskaga yopishtiriladi. Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlarini bargga yozib, uni o'sha guruh muammosi yozilgan gulga joylashtirib qo'yadilar.



O'quvchilar bo'sh qilib joylashtirilgan barglarga muammoga yechim topib o'z mulohazalarini yozib chiqadilar. Bu hikoyadagi birinchi muammo e'tiqod mavzusidir. Shu tariqa o'quvchilar o'z fikrlarining

qanchalar to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini bilib olib, o'ziga kerakli xulosani chiqazib oladilar.

Hikoya boshida Qur'oni Karimning "Baqara" surasidan "Sizlardan qaysi biringiz o'z dinidan qaytsa va shu kofirlikicha o'lsa, bas, ana o'shalarining (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo'lur, ular do'zax ahilidurlar va u yerda mangu qolurlar" (Baqara surasi, 217-oyat) oyati epigraf sifatida keltiriladi. Bu hikoyada keltirilgan sura hikoya mazmunini ochqichi hisoblanadi. Mana shu ko'chirmalar aynan hikoyadagi Bo'rixon obraziga taalluqli ekanini hech qiynalmasdan ilg'ab olish mumkin. Lekin, o'quvchilarning barchasi ham buni anglolmasliklari turgan gap. Bu esa, albatta, o'quvchini chuqur o'yga tortadi va o'z e'tiqodiga nisbatan sodiq qolishga undaydi. Shunday holatda asarning mohiyatini teranroq anglash uchun o'quvchilarga boshqa metodlardan ham foydalanilsa, ularning tahlil ko'nikmasi ortishiga eririshiladi.

Fikr, sabab, misol, umumlashtirish (FSMU) metodi

"FSMU" metodining tavsifi: bu metod mashg'ulotda o'rganilayotgan mavzuning muhokamasi jarayonida unga doir masalalar, savollar bo'yicha o'quvchilar o'z fikrlarini bayon qilishlari, shu fikrlarini asoslovchi sabablarni ko'rsatishlari, ularni tasdiqlovchi misollarni keltirishlari va pirovardida umumlashtiruvchi xulosalar chiqarishlarini o'rgatish metodidir. Bu metod o'quvchilarni erkin fikrlashga, o'z fikrini himoya qilishga va boshqalarga o'z fikrini o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, bahs-munozara madaniyatiga, shu bilan bir qatorda, o'quvchilar tomonidan o'quv jarayonida egallangan bilimlarni tahlil etishga va aniqlashga, baholashga o'rgatadi.

Ikkinchi ilova:

Savollar:

Siz hikoya ochqichidan qanday foydalandingiz?

Bu oyat nimani anglatadi?

Oyat hikoyada qanday vazifani bajarmoqda?

Insonning o'z dini oldida qanday burchlarni ado etish lozim?

"FSMU" metodining umumiy sxemasi:

F – fikringizni bayon eting;

S – fikringizni asoslovchi sabab ko'rsating;

M – ko'rsatgan sababingizni tasdiqlovchi misol keltiring;

U – fikringizni umumlashtiring.

Yuqoridagi savollarni o'qituvchi o'quvchilarga tarqatib chiqadi. Savollarni olgan har bir o'quvchi berilgan metodning sxemasiga asoslangan holda javob beradilar.

O'qituvchi vazifani bajarish uchun vaqtni belgilab e'lon qiladi. O'quvchilar o'zlariga berilgan savollarga javob berib bo'lgandan so'ng, ularning umumiy muhokamasini tashkil qiladi. Vazifani eng yaxshi bajarganlar rag'batlantiriladi.

Savol va topshiriqlar metodi: har bir dars jarayonida bir nechta omillarni hisobga olish kerak. Shulardan bittasi iqtidorli o'quvchilarga va boshqa o'quvchilarga ham mo'ljallangan savol va topshiriqlar berilishi lozim. Said Ahmadning "Qorako'z majnun" hikoyasi tahliliga kelganda darsning oxiri yoki kelgusi dars vazifasi qilib, iqtidorli o'quvchilar uchun quyidagi savollarni berish mumkin.

Uchinchi ilova:

1. Matnga qaraydigan bo'lsak, qirg'oqlar zax tortib, ekin-tikin suv so'ramay qo'ygan palla. Bu qaysi fasl?

2. Kasalxonada yotganimda shu itgina ko'kragini qorga berib hovlida bir oy deraza tagida yotgan. Itning bu holati nimani anglatadi?

3. Errayim kampir atamasini qanday izohlaysiz?

4. Kampir hajga ketayotganlarga pensiyasidan yiqqan pullarini "Hoji badal" uchun berib yuborgan edi. Sizningcha, Hoji badal tushunchasi nima?

5. "Ellik bir yoshida yetmish yashar chol bo'lib qo'ya qobdi". Nima sababdan Bo'rixonga bunday ta'rif beriladi?

Shu tarzda berib borilgan savol va topshiriqlarga o'quvchilar tayyorlanib o'z fikr va mulohazalarini bildirib o'tadilar.

"Qorako'z majnun" hikoyasida juda katta ma'no-mazmun jamlangan. O'zbekona urf-odatlar qadri noloyiq bir farzandning qilmishlarini ko'rsatish orqali ta'kidlanadi. Itning vafosi bir o'g'ilning ona ko'nglini vayron qilishiga nisbatan yuksak ma'naviy martabalarda turishi hamma vaqt ulug'vorlik kasb etadi. O'tkazilgan mashg'ulotlar orqali o'quvchi e'tiqod deganda nimani tushunishi va umr kechirayotgan har bir shaxs e'tiqod bilan yashash hamda mehr, vafo qanday bo'lish ekanligini anglaydi. Bola o'z ongida tahlil qila boshlaydi va o'ziga kerakli xulosaga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Said Ahmad. Qorako'z majnun. – T.: O'zbekiston, 2013.

2. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yoldosh. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak, 2012.

3. To'xliyev B. va boshq. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. – T.: 2019.

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA NAVOIY ASARLARINI O‘QITISHNING AHAMIYATI

Alisher Asatullayev,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU

O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori Xurshida Xamrakulova

Ta‘lim-tarbiya jarayonining yaxlit tizimi yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalashdan ibratdir. Komil inson tushunchasi esa asrlar davomida shakllanib, sayqallanib hozirgi zamon taraqqiyot bilan uyg‘unlashib borayotgani shubhasizdir. Mana shunday davrda, adabiy jarayonda o‘quvchilarni aqlan teran va ma‘nan yuksaltirishda Alisher Navoiydek ulug‘ adiblarning ijodiy adabiy merosi juda katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, Navoiy ijodiyotida odamiylik ilmlarining eng sara namunalari hamda insonni komillik sari boshlovchi yuksak g‘oyalar jamlanmasi mavjud. Shu sababli har bir kitobxon Navoiy asarlarini mutolaa qilar ekan faqatgina nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham juda katta saboq, estetik zavq olibgina qolmay, ayni vaqtda kishilarning hayoti davomida to‘g‘ri yashash har doim xalqparvar bo‘lish va insonlar orasida to‘g‘riligi bilan o‘z o‘rniga ega bo‘lishi va albatta tom ma‘noda halol, pok, komil inson qilib tarbiyalovchi yuksak jamlanmalar mavjud. Jumladan, buning yorqin namunasi sifatida Navoiyning “Xamsa” asariga kirgan birinchi doston “Hayrat ul-abror” dostonidan “Sher bilan Durroj” hikoyatini olaylik.

Ushbu hikoyatda Navoiy o‘quvchi tarbiyasi uchun juda zarur bo‘lgan to‘g‘rilik haqida so‘z yuritadi. Albatta, endigina o‘sib kelayotgan yosh avlod uchun bu kabi go‘zal xislat egasi qilib tarbiya qilish zarurligi haqida Navoiy teran o‘y-mushohada yuritadi va buni o‘z asarida misollar tariqasida majoziy timsollar bilan qog‘ozga tushiradi.

Der edi, yolg‘on demakim shum erur,

Kizb tuz el ollida mazmun erur

Pand eshitmas edi durroji mast,

Kizbdin etmas edi afg‘onini past.

– Yolg‘on gapirma, yomon bo‘ladi,

To‘g‘rilar oldida yolg‘on qoralanadi.

Durroj pandni eshitmas, o‘zi bilan o‘zi mast, ataylab fig‘onini hech pasaytirmas edi.

Asarda Navoiy keltirgan majoziy timsollar hayotda ham uchrab turishi ayni haqiqatdir. Mana shunday vaziyatga tushmaslik uchun inson garchi majbur bo‘lgan taqdirda ham hamisha rost so‘zlashga o‘zida kuch

topa olishi, so‘ziga yolg‘on oralatmasdan so‘zlashi insoniylikning bir belgisi ekanligini aytmoqchi bo‘ladi.

Navoiy shu birgina sher va durroj qismatini misol keltirib butun jamiyatni, yosh avlodni to‘g‘rilikni odat qilishga, yolg‘on so‘zlamaslikka, hamisha to‘g‘ri yo‘ldan yurishga undaydi. Bu asar ayni damda hozirgi kun uchun ham hayot maktabi, ibrat o‘chog‘i bo‘lib kelmoqda. O‘sib kelayotgan yosh avlod uchun juda katta tarbiya maktabi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Asarni o‘qir ekansiz, uning har bir jumlasida olam-olam ma‘no borligini har bir bayt zamirida jamiki komillik sirlari-yu , odob-axloq qoidalari o‘z ifodasini topganligiga guvoh bo‘lasiz.

Bularning barchasi o‘z o‘rnida Navoiyning haqiqatan ham o‘tkir qalam sohibi, buyuk donishmand va o‘z o‘rnida kelajakni oldindan ko‘ra biluvchi mutafakkir ekanligini ko‘rsatadi. Shu qisqagina “Sher bilan durroj” hikoyatida Navoiy to‘g‘rilikka chorlash, hamisha rostgo‘y bo‘lishni uqtirish bilan bir qatorda Olloh tomnida insonga berilgan bebaho, yuksak xislatlardan biri do‘stlik ham ulug‘lanadi va misollar tariqasida go‘zal satrlarda bayon etiladi.

Andoq aro yerda ayon bo‘ldi muhr,

Kim hasad eltur edi ondin sehr.

Qaydagi orom tutub sharza sher,

Girdida durroj uchubon daler.

Boshida parvoz ila gardish namoy,

O‘ylaki sulton boshi uzra humoy.

Oralarida bir biriga shunday muhabbat paydo bo‘ldiki, bunga osmonning o‘zi ham hasad qilardi. Qayerda yirtqich sher dam olib yotsa, atrofida durroj bemalol uchib yurardi. Sultonning boshida humo qushi aylanganiday, sher boshida durroj aylanib parvoz qilardi. Ularning oralaridagi do‘stlik rishtalari naqadar qalin va go‘zal ediki, bunga hatto osmon ham hasad qiladi. Ko‘rinib turibdiki, bunday do‘stlik hammaga ham nasib etavermaydi, lekin durroj do‘stini aldab yolg‘on yo‘liga o‘tishi va oxir-oqibat o‘zi yolg‘on so‘zlagani tufayli halokatga uchrab ovchining domiga tushushini Navoiy shu qisqa hikoyatda juda serma‘no satrlar bilan ifodalab bergan. Bu asarni kitobxon mutolaa qilar ekan beixtiyor Navoiyning ijod san‘atiga yana bir bor tahsin o‘qiyd, chuki asarda ayni damda ikki xislatning fazilatlarini keltirilib, bu xislatlardan inson noto‘g‘ri foydalansa, yolg‘on yo‘liga o‘tib kishilarni aldasa, do‘stlikka xiyonat qilsa, xuddi durroj singari ovchining domiga tushishi muqarrar ekanligini misollar tariqasida ifoda etib beradi.

Bu asar 5-sinf uchun mo'jallangan bo'lib, bu yoshdagi o'quvchilar uchun ayni kerakli bo'lgan badiiy ozuqa berish bilan bir qatorda ularni to'g'rilikka undash va do'slikning qadriga yetishga chorlaydi. Bunday asarlarni tahlil qilishda har bir o'quvchi ongida adabiyotga bo'lgan muhabbatni uyg'otishda, albatta, o'qituvchidan pedagogik bilim va juda katta mahorat talab qilinadi. Chunki maktabda o'quvchilarga faqat umumiy ta'lim berish bilan cheklanilmaydi, unda ijodiy mehnatning zaruriy sharti bo'lgan mustaqil fikrlash ko'nikmasi ham rivojlantirilib, har bir ishga ijodiy yondoshish hissi shakllantiriladi va kamol toptiriladi.

Adabiyotni o'quv fani sifatida o'rganish asarni tahlil qilish, unda yozuvchi qo'ygan adabiy, axloqiy, falsafiy masalalarni aniqlash orqali amalga oshiriladi. O'qituvchi o'quvchilarga asar qismlarining o'zoro bog'liqligini tushunib olishlari, o'z fikir mulohazalarini dalillar asosida izchil, og'zaki va yozma bayon etishda ko'maklashadi.

Albatta, adabiyot o'quv fani sifatida ko'p qirralidir. U o'quvchini hayot bilan tanishtiradi, o'quvchi ongida hayotni ko'rish va anlashga qiziqish hissini oshiradi, atrof va inson qiyofasining murakkabligini tushunish qobiliyatini, vatanga, xalqqa sadoqatli bo'lish tuyg'usini shakllantiradi. Mana shularning barchasi Navoiy asarlarida o'z ifodasini topgan. Navoiy asarlari o'zining yuksak badiiyligi va albatta katta tarbiya o'chog'i ekanligi, hayotni anglash, insonlarni komillik sari yetaklashi bilan ham ajralib turadi. Navoiy asarlarini maktablarda o'qitish, albatta, yosh avlod ongiga komillik xislatini singdirish, nafaqat ongiga, balki qalbiga jo qilishdir. Navoiy asarlari kishilarga ibrat maktabi bo'lib xizmat qilganligi va o'z o'rnida komillikka yetaklovchi darcha vazifasini o'taganligi bilan mana necha asrdiki o'z qiymatini yo'qotmagan va albatta bundan keyin ham yosh avlodga tarbiya maktabi bo'lib xizmat qilishi, shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov S. va boshq. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik-majmua. II qism. – Toshkent: Sharq, 2017. –176 b.

2. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.

“UFQ” ROMANIDA MA’NAVIY-AXLOQIY MASALALAR TALQINI

Zilola Boltayeva, ToshDO‘TAU
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti
3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori Xurshida Xamrakuлова

O‘zbek xalqining qora kunlaridan yorug‘likka tomon borayotgan taqdirini ufqqa qiyoslagan qalam sohibkori Said Ahmad bejizga asarini “Ufq” deb nomlamagan, nazdimizda. Ufq tunga ham, kunga ham shohid bo‘lmish oq-qora o‘rtasida turuvchi chegara chizig‘i demakdir. Shu kabi insonlarning insoniylik va noinsoniylik fazilatlari, qon-qoniga singgan o‘zbekka xos qadriyatlar va ularning ziddi bo‘lgan xislatlar asarda zuhur etilgan. Romanda axloq va axloqsizlik tushunchalari makon va zamon tanlamasligining guvohi bo‘lamiz. Negaki, asar mutolaasi davomida o‘qirmanning qalbida kechinmalar jo‘sh uradiki, nahot shunday insonlar o‘tmishda ham bor bo‘lgan, nahot yaxshi insonlar doim sinovlarga giriftor, kabi savollarga javob izlaydi. Dastavval, fikrlarimizni asarning debochasi bilan boshlaymiz.

Asarda o‘zbek xalqidan chiqqan polvonlarning oriyati, ajdodlaridan meros g‘ururi yorqin tilga olingan. Shulardan biri Azizxon obrazidir. Azizxon “Qirq besh kun” kitobida faol obraz sifatida gavdalanadi, keying voqealar rivojida u ishtirok etmasa-da, har bir er yigitlari ko‘rsatgan jonbozliklarida uni esga olib boramiz: bu yozuvchining haqiqiy mahoratidan darak. Ayniqsa, uning kuchga to‘lgan chayir yigit ekanligi shu qadar ochib berilganki, mazkur obraz orqali haqiqiy o‘zbek yigitining ifodasini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, ayollar ham yozuvchi nigohidan chetda qolmaydi. Lutfinisa va u bilan birga kanal qazilishida jonbozlik ko‘rsatgan ayollarning jasoratlari go‘zal talqin etiladi. Bu yerda Odam Ato va Momo Havo haqidagi bir voqea bilan qiyoslasak arziydi. Odam Ato kunning issig‘ida dalada ishlagan paytlari Momo Havo ham quyosh nuri tushib turadigan joyga chiqib ip yigirar ekanlar. Odam Ato sababini so‘raganlarida “Siz oftobda yurganingizda men qanday qilib soya-salqinda orom olishim mumkin” deya javob bergan ekanlar. Demak, o‘zbek ayollaridagi bu qadar jonkuyarlik Momo Havoyimizdan meros ekan.

Qiyinchilik paytida mardlar va jonkuyarlar bir taraf bo‘lib suv yuzasiga qalqib chiqa boshlaydi. Mazkur gaplarimiz tasdig‘iga Ikromjon obrazini misol qilib keltirishimiz mumkin. Negaki, urush yulib olgan oyog‘i bir

parcha taxtadan iborat bo'lishiga qaramay elga nafim tegsin, deya o'zini o'qqa-cho'qqa uradi. Bu bir yoqlama qarashday tuyulishi mumkin, nazarimizda. Chunki o'g'li yetkazgan alamlar uni shu ko'yg'a soldi. Nazarimda u shunday o'ylagan bo'lsa ne ajab: "O'sha urush oyog'imni emas, yuragimni sug'urib olsa bo'lmasmidi, axir jonimning joni o'g'lim yurt xoini. Men bunday sharmisorlikka erkaklik g'ururim bilan qanday dosh beray".

Ayni damda shunday hislar kechyapti: Said Ahmad o'z "Ufq"iga axloq tushunchalarini jo qilgandek. Chunki har bir qahramon ushbularni hayoti davomidagi harakatlari, qalbidan kechgan kechimlariga qadar o'zida ifoda eta boradi. Misol uchun BURCH tushunchasi.

Burch – o'z davlati oldida, o'z oilasi oldida eng muhimi o'zligi oldida qilishi lozim bo'lgan har bir insonning majburiyatidir. Va uni ikki xil talqin qila olamiz, ya'ni burchga sadoqat va burchga xiyonat. Burchga sadoqat inson timsoli asarda yuzlab uchraydi: ayoli yarimjon bo'lishiga qaramay, norasidasini omon eson dunyoga keltirishini iltijo qilib kanal qazilishida jasorat ko'rsatgan va keyinchalik taxta oyoqlari bilan cho'lni yashnatishga hissa qo'shgan Ikromjon; otadan, opadan, akadan va nihoyat seviklisidan yalchimagan shirin so'z gadosi, front ortida turib haqiqiy mardlik ko'rsatgan Nizomjon va shu kabilar. Burchga xiyonat – bundayin ishni qilish ayrimlardagina uchraydi. O'sha ayrimlardan biri – bu Tursunboy edi. Ha o'sha o'z ukasining o'limidan g'amlanmagan, onasiga ichi achimagan, dadasiga yelkadosh bo'lolmagan, o'z SHA'NI UCHUN TURIB BEROLMAGAN Tursunboy edi.

Keyingi axloqiy qadriyatlardan biri – o'zbeklarga xos bo'lgan MEHNATSEVARLIK tushunchasi. Bu asarda har bir qimirlagan jon borki, ularning bari shu his bilan uyg'onadi, shunday hislari ila uyquga ketadi. Buning yorqin dalili Nizomjondir. U qo'li nogiron bo'lishiga qaramay, urushga ketgan o'rtoqlari ortiga qaytib "biz jangda jon olib jon bergan mahal sen nima qilolding?" deganlarida "yigit boshimni adl tutib sizlar uchun yer chopib urug' ekdim, sizlar uchun mehnat qildim" deya javob beray, degan so'zlarni aytadi. Bu esa haqiqiy mehnatsevar o'zbekning asardagi prototipidir.

MUHABBAT... Bu so'z har bir qalbni jumbushga keltiradi. U xoh insonning insonga muhabbati bo'lsin, xoh insonning yurtga va xohki insonning Allohga muhabbati bo'lsin. Bundayin muhabbatning sadoqatga yog'irilgan timsolini biz Azizxon va Lutfinisa o'rtasidagi ishq bilan dallilay olamiz va ularning taqdiri asarni o'qiganimiz uchun bizga ma'lum. Aslida asar butun bir muhabbatning ifodasi desak ham yanglishmaymiz.

Chunki asarning istalgan qahramoni borki, uning qalbida ish va muhabbat jilvalanmay qolmagan.

ADOLAT – unda ham axloqiy, ham huquqiy jihatlar mujassamlashgan umumiylik bo‘lib, bunda yozuvchi adolatning axloqiy jihatini shunday ochdiki, o‘z o‘g‘liga hassada qabr qazigan ota Ikromjonni ko‘z oldimizda gavdalantiradi. Ikromjon boshini xam qilgan o‘g‘lini o‘z otalik burchidan kelib chiqib kechiradi, unga iltijolar qiladi. Bu o‘zbeklarga xos bo‘lgan chinakam adolatning ko‘rinishi edi.

Shu o‘rinda uning ziddi ADOLATSIZLIK tushunchasi ham mavjudki, buni biz Jinoyat oqsoqol, ya’ni shu nom bilan tanilgan Inoyat oqsoqolni misol qilishimiz mumkin. Chunki Ikromjon otalik burchidan kelib chiqib adolat ko‘rsatgan bo‘lsa, Inoyat oqsoqol o‘sha burchni ado etolmaganligi bilan adolatsizlikning yorqin misoliga aylanadi. O‘z ayolining ko‘z yoshlaridan brilliantlar yig‘adi, bolalari rizqidan qiyib mol-u davlat orttiradi, jigarbandi bo‘lmish Nizomjonni haqgo‘yiligi sabab oq qiladi va nihoyat “qilmish-qidirmish” deganlaridek aybiga yarasha jazo oladi.

NOMUSSIZLIK – buning vujudga kelishi burchga xiyonat bilan bog‘liq bo‘lsa, qadr-qimmat tushunchasi bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Chunki o‘z burchiga xiyonat qilganlar, qadr-qimmatga past nazar bilan qarovchilar nomussiz shaxslar hisoblanishadi. Shulardan biri A‘zamjondir. Negaki, u o‘z burchiga – oilasi oldidagi vazifasiga sodiq turolmadi. O‘z ukasining suyuklisi Dildorga uylanadi, uni cho‘lga tashlab boshqa ayol bilan turmush quradi. Jamiyati uchun ko‘ngildan biron ish qilmaydi.

VIJDON – bu inson o‘zligi, o‘z “men”i oldida javob bera oladigan kishilargagina xos xislatdir, axloqiy tushunchadir. Va bundayin shaxslardan biri Nizomjon hisoblanadi. Negaki, oq qilinganiga qaramay, farzandlik burchini “men”idan ustun qo‘yadi, natijada andishaning otini qo‘rqoq qo‘ygan Risolatlar uning vijdoniy tuyg‘ularini toptashga tushishadi. Bu esa vijdon va vijdonsizlik o‘rtasidagi dahanaki jang degani edi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Said Ahmadning “Ufq” asarida o‘z millatining ezgu fazilatlarini, vijdoniy tuyg‘ularini, egamanlik umidida yongan qalb sohiblarining oriyatini ochib beribgina qolmay, qoralanishganda loyiq asar qahramonlari talqinida nomussizlik, beandishalik, xiyonatkorlik kabi salbiy jihatlarni ham mohirona zuhur etadi. Shuning uchun ham adib asarida O‘ZBEK xalqini quyma satrlariga jo qiladi, ularga haykal qo‘yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Said Ahmad. Ufq. – Toshkent, 2001.

2. Саид Аҳмад. Йўқотганларим ва топганларим. – Т.: Шарқ, 1999.

ADABIY TA'LIMDA ASQAD MUXTORNING "CHINOR" ROMANINI O'QITISH BO'YICHA AYRIM MULOHAZALAR

Nasiba Meliyeva, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: ped.f.d. (PhD) Saodat Kambarova

Asqad Muxtor nasrining mundarijasi rang-barang, qahramonlari xilma-xil va o'ziga xos. Yozuvchining asarlari markazida mehnat mavzusi, o'zi yashagan asr kishilari obrazi turadi. "Chinor" romanini o'qish asnosida bunga yana bir bora amin bo'lamiz. Asqad Muxtorning o'zbek adbiyotshunosligidagi tashabbuskorligi XX asrning 60-yillaridanoq boshlangan. "Chinor" romani muallifga katta shuhrat keltirgan. Asarda bir-biri bilan kompozitsion bog'lanadigan qator hikoyalar, rivoyatlar, qissalar aralash kelaveradi.

Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan innavatsion ilg'or davrda har xil janrdagi asarlarni o'qitish metodikasi mavjud. Bunday o'qitish usullari o'quvchilarni har tomonlama intellektual salohiyatini o'sishiga, ilg'or bo'lishiga undaydi. Shu o'rinda "Chinor" romani bo'yicha bir qancha usullar orqali qo'llansa, bu asarning o'quvchilar ongida mustahkam o'rin olishini ta'minlaydi. Bizga ma'lumki, "Chinor" romanining katta hajmga ega ekanligi, undagi bir qancha hikoyalar, rivoyatlar va qissalar, qahramonlarning xarakter xususiyatlari voqealar rivojining ko'pligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Shunday ekan, o'quvchilarimiz bu romanni to'liq o'zlashtirishi, uning mazmun-mohiyatini anglashda, asarning ichiga kirib, uni his qilishida bir qancha metod va usullar qo'llansa, bu asarni tez va oson, qiziqarli va samarali natijaga erishiladi. To'g'ri, bola asarni o'zi mustaqil holda o'qishi, unga bo'lgan qiziqishi, mehrini avvalo o'zi shakllantirishi kerak. Lekin, ayrim hollarda bu holat ko'pgina layoqatsizlikka olib kelishi mumkin. Bunda motivatsiya (o'quvchining bilishga bo'lgan ichki ehtiyoji)ni shakllantirishimiz kerak bo'ladi. Shunday ekan, biz o'quvchilarga asarni o'rgatish, ularga o'qitish jarayonida metodik usullar orqali voqealar rivoji tanishtirib chiqilsa, o'quvchilarni asarga jalb qilish osonroq kechadi. Tanishtirib chiqilgan asar mazmuni yuzasidan o'qituvchining savoli o'quvchilarni asar detallari haqida, ayrim voqealar o'rtasidagi bog'lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar sujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakatlari asosiy rol o'ynaydi. O'quvchilar asar

mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. Shu tarzda olib borilayotgan dars jarayonida o'qituvchining savoli asar qahramonlari, ya'ni Ochil buvaning nima qilgani, uning u yoki bu xatti-harakatlari qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so'zlab berishga, voqealarning uzchil bayon qilinishiga va o'zaro bog'liqlikni yoritishga yo'naltirilishi lozim. O'quvchi tanishib, o'qilgan asar mazmunini ustozning savoli yordamida aytib berishda faqat tahlildan emas, sintezdan ham foydalandi: ayrim faktlarni o'zaro bog'laydi (sintezlaydi), bir-biriga taqqoslaydi, ular yuzasidan muhokama yuritadi va xulosa chiqaradi. Masalan, Akbaralining ko'rgan- kechirgan kechinmalari bilan o'quvchi tanishib chiqadi. Akbaralining xarakter xususiyatlarini ikkinchi qahramon Azimjon bilan bog'laydi va taqqoslaydi. Ularning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlashga harakat qiladi. Va shu orqali ko'zda tutilgan maqsadga erishiladi, ya'ni, o'quvchi asarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq ko'z oldiga keltira olsa, u asarning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil fikrlay oladi.

“Chinor” romanidagi voqealar rivoji aralash, ya'ni har xil qahramonlar tomonidan yuz bergan voqealar haqidagi hikoyalar, qissalar tarzida bayon etiladi. O'quvchilarga asardagi hikoyalarda ishtirok etgan qahramonlarning voqea rivoji qisqartirib hikoyalash usuli qo'llansa, ya'ni voqeaning bosh qismi va kulminatsion nuqtasi havola etilishi orqali asosiy fikr aniqlanib, tushungan voqealarni o'z so'zlari bilan hikoya qilib berishlari mumkin. So'ngra tanlab hikoya qilingan matnni tahlil qiladi. Tahlil bolalar tafakkurini, ular nutqidagi mustaqillikni o'stiradi va o'qigan matn mazmunini o'zlashtirishga yordam beradi. Masalan, roman boshida keltirilgan hikoyada Ochil buvaning qizi Onabibi va uning umr yo'ldoshi Bozorqul haqida batafsil yoritib berilgan. Shu hikoyatni o'quvchi o'qib o'rganish asnosida o'ziga kerakli xulosaga ega bo'ladi. Va shu xulosasini oxirgi to'xtamga kelishiga tahlil qilish orqali erishadi. Bu hikoyadagi voqealar rivoji o'quvchini o'yga tortadi. Bozorqulning ko'ziga kelajak boylik bo'lib ko'rinishi, o'z muhabbatini, oilasini tashlab ketishi, albatta o'quvchini mulohaza qilishga chorlaydi. Bola o'sha holat xato ekanligini tasdiqlaydi va o'zi uchun salbiy jihatlarini ajratib tashlaydi. Shu orqali o'quvchining hayotga bo'lgan salbiy va ijobiy qarashlarni ajrata olish imkonini orttiradi. Bizga ma'lumki, nutq tafakkur bilan bog'liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog'liq holda o'stiriladi.

Asar mazmunini to‘liq o‘zlashtirish maqsadida biz taqdimotli dars usulini tavsiya qilamiz.

“Chinor“ romanini o‘qitishda tavsiya etiladigan interfaol metodlar:

“ Chinor “ romanini o‘qitishda interfaol metodlar:

- 1. “Idrok xaritasi”**
- 2. “Matn tiklash” usuli.**
- 3. “Muammoli vaziyat”.**
- 4. “Qisman tadqiqot” usuli.**
- 5. “T” metodi.**
- 6. “Matn tahlili”.**

Romanni o‘rganishga ajratilgan vaqtning kamligi bois bizning tavsiyalarimizdan qo‘shimcha soatlarda yoki mustaqil ta‘lim soatlarida yoxud adabiyot to‘garaklarida foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Asqad Muxtor. Chinor. – T.: Yangi asr avlodi. 2017. – 346 b.
2. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. –Т.: Sharq, 2004. – 640 б.
3. Норматов У. Етуклик. –Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1982. – 368 б.
4. Баходир Карим. Янгиланиш соғинчи. –Т.: Адабиёт жамғармаси, 2004.
5. Баходир Карим. Рухият алифбоси. –Т.: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2016. – 364 б.
6. XX аср ўзбек адабиёти масалалари. Илмий мақолалар тўплами. – Т.: Фан, 2012. –248 б.
7. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Barkamol-fayz-media, 2018. – 352 б.

“RUHLAR ISYONI” DOSTONIDA RIVOYATLAR TALQINI

Sanjar Malikov, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori Xurshida Xamrakulova

Doston XX asrning birinchi yarmida yashab o‘tgan otashqalb bengal shoiri Nazrul Islomning hayotiga bag‘ishlangan. Ammo shoir bu liro-epik dostonda bengal shoirining qismatini boshdan oxir yoritishni maqsad qilib olmagan. Shuning uchun uning hayoti xronikal tarzda emas, rivoyatlarning

berilishi tarzida bayon qilinadiki, ziyrak o‘quvchi ayni damda masalaning qo‘yilish tarzi shoirning asl muddaosi o‘z davriga sig‘magan fikrlarini o‘zga yurt vakili qismati orqali ifodalash bo‘lganini anglab etadi. Doston haqida berilgan fikrlarda uning ijtimoiy-siyosiy jihatiga e‘tibor qaratiladi. Bu tabiiy. Munaqqid olim Ulug‘bek Hamdam: “Nega shoir o‘z badiiy muddaosini Nazrul Islomning hayoti va ijodi orqaligina bayon etib qo‘ya qolmadi? Nega u o‘quvchini o‘zi yanglig‘ qiynagisi, uni o‘tdan olib o‘tlarga solgisi, zulm, istibdod, jaholat kabi sirtmoqlarda osgisi keldi?.. Chunki muddao Nazrul Islom emas, bu – bir bahona. Asl muddao – bashariyat tabiatining ikki tarafiga e‘tiborni qaratish: oq va qora, yorug‘lik va zulmat, ma‘rifat va jaholat, istibdod va ozodlik.. [1; 55-b.]”der ekan, uni rivoyatlarda berilgan falsafiy fikrlar bilan izohlab o‘tadi. Dostonning falsafiy mohiyati rivoyatlar mag‘ziga singdirilgan.

Ushbu maqolada “Abadiyat haqida rivoyat” va “Shoh Jahon va Avrangzeb” to‘g‘risidagi rivoyatlar haqida ayrim fikr-mulohazalarimizni bildirmoqchimiz.

“Abadiyat haqida rivoyat” misolida o‘tkinchi umr va hayot qadri, hayot va o‘lim muammosining badiiy talqini aks ettirilgan. Rivoyat bizni o‘ziga qanday jalb qiladi? Nazarimda, hayot va o‘limga bo‘lgan munosabatimizni mana shu rivoyatga singdirilgan mazmun bilan aniqlashtirishimiz mumkin. Yo‘lovchining kalla bilan suhbatini inosniyatga har bir narsa o‘lchov bilan berilganining, bu me‘yor buzilsa fojia yuz berishini anglatishi bilan qimmatlidir. To‘g‘ri, har bir insonning yashash davri, muhiti, suhbatdoshlar davrasi bo‘ladi. Ammo bu hammasi emas. Bechora kalla:

Yer yuzida

Mening biror

Hamsuhbatim qolmadi, – deya yozg‘iradi. Hatto suvsizlikdan sillasi qurigan yo‘lovchiga qarata:

Mangu hayot uchun o‘zing

Yaraysanmi,

Odamzod? – degan savolni beradiki, buning zamirida har bir narsa, umr, hayot kabi tushunchalar nisbiy ekanligiga ishora qilingan. Ya‘ni o‘lim ham Olloh tomonidan berilgan ne‘mat ekanligini unutmasligimiz kerak, degan falsafa mana shu rivoyatning asosini tashkil qiladi. Shuning bilan barobar rivoyatda insoniyatga Yaratgan tomonidan in‘om etilgan ya‘na bir ulug‘ nemat – sabrning go‘zal ajrga egaligi badiiy tasdig‘ini topgan.

Doston tabiatini tekshirib unga fikr bildirgan adabiyotshunos olim Ulug‘bek Hamdam “Ruhlar isyoni” haqida shunday fikrlarni bildiradi:

“Garchi har xil tarixiy zamonlar, turli-xil ijtimoiy siyosiy davrlar, bir-biridan uzoq voqealar, odamlar qismati doston sahnasida qorishib ketgan esa-da, bularning barchasi shoir mushohada prizmasi ostida bir nuqtada birlashadilar. Birlashib, istibdodga ko‘nmagan, ozodlikdan tonmagan, isyonkor qalb hayot yo‘li ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Natijada bu isyonkor qalb abadiy hayot suvini tuproqqa to‘kadi, evaziga o‘z davrida o‘z zamondoshining qon sirqib turgan dardlari bilan yashash yo‘lini tanlaydi [1; 55-b.] Ha, insoniyatning umr yo‘li shu, o‘zgalar baxti uchun o‘zini qurbon qilib turib abadiy hayotga qadam qo‘yadi.

Adabiyotshunos olim S.Sodiq “Ruhlar isyoni” dostoni ming yillar davomida kishilikni o‘ylantirib kelgan umumbashariy muammo, ya’ni insonning zamin va zamonda erkin nafas olishi hamda chinakam baxt topishi masalasiga bag‘ishlangan”i [8; 597-b.] qayd etadi. Darhaqiqat, doston insoniyatning umumbashariy muammolari echimini badiiy so‘z vositasida anglata olgan.

“Shoh Jahon va Avrangzeb haqida rivoyat”da shoir otalar va bolalar muammosini dadil ko‘tarib chiqadi. Adabiyotda otalar va bolalar muammosni yoritish Erkin Vohidov ijodigagina xos masala emas. Jahon adabiyotida ham bunga talay misollar olishimiz mumkin. Otalar va bolalar muammosining badiiy talqini “Shoh Edip” fojiasida ham uch bergan edi. Keyinroq, rus adabiyotida, ayniqsa, Lev Tolstoy va F.Dostoyevskiylar ijodida (Dostoyevskiyning shaxsiy hayotida ham hatto) bu masalaga murojaat qilingan. Mumtoz adabiyotimizda otalar va bolalar muammosi Alisher Navoiy asarlarida go‘zal talqinga ega bo‘lganini bilamiz. Agar Xisrav va Sheruya munosabati inson fojiasiga sabab qilib ko‘rsatigan bo‘lsa, Alisher Navoiy ota va farzand o‘rtasidagi nozik munosabatning ildizi asl tarbiyada, din va axloqning uyg‘unligida ko‘radi. Uning natijasi o‘laroq, Iskandar va uning otasiga munosabati, Farhod va uning Chin xoqoniga munosabatida otalik mas’uliyati va farzandlik burchi kabi masalalarni o‘quvchiga ibrat o‘laroq taqdim qiladi. Ammo tarix hamisha bu talqinga Navoiy nigohi bilan qaramagan. Qonli to‘qnashuvlar, fojaviy lavhalar ba’zan otalar va bolalar munosabatining nomunosib ko‘rinishlari tufayli yuzaga kelishi ham ayni haqiqat. Buni shonli o‘tmishning qonli tarixida, Ulug‘bek va Abdulatif misolida ko‘rishimiz mumkin. Biz Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanida ham bunday zalolatning guvohi bo‘ldik. Padarkush Abdulatifning otasiga isyoni, uning qilgan razilliklari, ayniqsa, diniy bilimsizligi o‘quvchini ko‘p ranjitdi – nafrat uyg‘otdi. Abdulatifdan farqli Avrangzeb otasini taxt o‘ldirmaydi. Balki uni bir umr uy qamog‘ida saqlagani tarix kitoblarida bitilgan. Shunga

qaramay, Shoh Jahon (asl ismi Xurram, Agraga kelib taxtga o'tirgandan keyin sharq ananaliga muvofiq qayta ism beriladi ya'ni Muhammad Shahobiddin Shoh Jahon deb.) va uning uchinchi o'g'li Avrangzeb (asl ismi Abul Muzaffar Muhayyuddin Muhammad) o'rtasidagi nizo toj-taxt emas, din va diyonat masalasi bo'lganligini kuzatish mumkin. Tahlil qilayotganimiz rivoyatda bayon etilishicha, Avrangzeb Olamgir otasi taxtdan tushgandanidan so'ng otasiga ko'p iltifotlar ko'rsatadi, o'zing maslahatgo'yi, boshidagi toji bo'lishini so'raydi.

Shoh Jahon davrida nihoyatda yuqori maishiy hayot, iqtisodiy ko'tarinkilik davri bo'lib, Hindiston o'z tarixida bunday boyliklarni ko'rmagan edi. Shoh Jahon tarixning eng buyuk shohlaridan hisoblanadi. Uning buyukligi urushlari-yu g'alabalarida emas, balki san'at obidalari bilan belgilanadi. Bu obidalar bugun ham olamni hayratga solib kelmoqda. Bu o'lmas san'at obidalari jumlasiga Dehlidagi "La'l qal'a", uning ro'parasidagi masjidi jome', Agradagi "Toj Mahal" maqbarasi kiradi.[2; 29-b.]. Avrangzeb yaxshi ta'lim ko'rgan, mashhur olimlar qo'lida juda yaxshi diniy tarbiya topadi. Davlat ishlari bilan shug'illanishiga qaramay, so'fiylar tariqatini tutdi. Umuman sharob ichmagan, musiqa va qo'shiq aytish mahoratiga ega bo'lganiga qaramay, bulardan narida bo'ldi. Shaxsiy hayotida tilla va kumush buyumlardan foydalanmagan. Hokimiyat tepasida necha yil turgan bo'lsa, hamma vaqt zohidlaricha hayot kechirdi. Boburiylar davlati tarixidagi eng buyuk imperator hisoblanadi [2; 34-b.]. Tarixda otasiga tig' ko'targan shahzodalar talaygina, ularning hech biri baxtli-saodatli umr ko'rganini ko'rmadik, ammo Avrangzeb otasi taxtdan tushgandan so'ng uni tahqirlamadi, davlat arkonidagi hurmatini saqlab qoldi, o'ziga maslahatgo'y deb bildi. Hattoki, butun dunyo uni islom dinini mukammal bilishini e'tirof etdi. Ammo taqdir Avrangzebning otasiga bo'lgan munosabatning javobini yillar o'tib o'tib farzandlarining unga xiyonati bilan qaytardi. Balki, Shoh Jahon aytgan:

Bilki, inson taqdirida

"Alqasosul minalhaq!" – deganiga javobdir.

Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostoni insoniyatni jaholat botqog'idan chiqishga, inson kabi yashashga, ozod vatanning ongli xalqi bo'lib yashashga chinakamiga chaqiriq edi. Olomoni dostonidagi rivoyatlar orqali xalq, millat bo'lishga undadi. Bengal shoiri Nazrul Islom tilidan bularni ochiqchasiga ayta oldi. XX asrning eng yorqin dostonini yaratdi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Hamdamov U. Jaholatga qarshi isyon. Yangilanish ehtiyoji. – T.: Fan, 2006. – B. 53–68.
2. Yoqubov O. Ulug‘bek hazinasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1994. – 336 b.
3. Фрейд З. Достоевский и отцовбийство. Неудовлетворенность культурой (Аналитическое повествование). – М.: “Московский рабочий” с совместным советско-западногерманским предприятием. “Вся Москва”, 1990. –82–92 с.
4. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. So‘zboshi muallifi: Asqarov A. – T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1996. – 189 b.
5. Normatov U. Tafakkur yog‘dusi. – T.: Fikr media, 2005. – 119 b.
6. Nuriddinov.M. Boburiylar sulolasi. – T.: Fan 1994.
7. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – T.: Yangi asr avlodi, 2006. – 539 b.
8. Sodiq. S. Yangi o‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: O‘qituvchi NMIU, 2019. – 720 b.
9. Vohidov E. Ruhlar isyoni. Saylanma. 2-jild. – T., 2002.

MUMTOZ ADABIYOTNING DOLZARB MUAMMOLARI (6-sinf “Adabiyot” darsligi misolida)

Madina Orifova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d. (PhD) Husnigul Jo‘rayeva

Bugungi kunda xalqning jahonda tan olingan o‘ringa va dunyo voqeliklarini talqin etishda o‘ziga xos shaklga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunda har bir xalqning ma’naviy merosini, mafkurasini, milliy ruhini ko‘rsatib beruvchi mumtoz adabiyot ham katta ahamiyat kasb etadi. Ta’lim-tarbiya sohasida ajdodlar merosini yoshlar ongiga singdirish ustuvor yo‘nalishlardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari” da: “Yuksak ma’naviyatli, qat’iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda, mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish” [1] kabi vazifalar belgilangan. Bu esa barcha fanlarni, xususan, adabiyot darslarini o‘quvchilar ruhiy, psixologik, yosh va jismoniy xususiyatlarini hisobga olgan holda

takomillashtirish, zamonaviy o‘quv materiallari va texnologiyalari yordamida dars soatlari tashkil etishni va kitobxonlik madaniyati shakllantirish lozim ekanligini ko‘rsatmoqda.

Mazkur vazifalarni ado etishda umumta’lim maktablarda mumtoz adabiyotning bugungi o‘qitish holatlarini, mumtoz matn ustida ishlash jarayonidagi xato va kamchiliklarini ko‘zdan kechirish hamda ularni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Umumta’lim maktablarida mumtoz adabiyot o‘qitish samarasini qoniqarli ahvolda deb, afsuski, ayta olmaymiz. Bu borada Valijon Qodirov “Umumta’lim maktablarida o‘zbek mumtoz adabiyoti na’munalarini o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari” mavzusidagi dissertatsiyasida: “Bizningcha qoniqarsiz ahvolning ikki: obyektiv va subyektiv sabablari mavjud bo‘lib biri boshqasining chuqurlashuviga sabab bo‘lmoqda. Obyektiv omillar o‘qituvchi shaxsiyatidan ko‘ra ko‘proq ta’lim mazmuniga mas’ul muassasalar, direktiv hujjatlar bilan bog‘liq. Biz bunda, avvalo, standartlar, dasturlar, darslik va metodik hamda o‘quv qo‘llanmalarini nazarda tutmoqdamiz.

O‘qitishdagi nomukammalliklarning subyektiv – adabiyot o‘qituvchisi shaxsi bilan bog‘liq sabablari ham bor. Muallimlar tayyorgarligining pastligi mumtoz adabiyot na’munalarini o‘rganishdagi oqsashlarning asosini tashkil qiladi” deb ta’kidlaydi [2; 14–15-b., 25-b.].

Darhaqiqat, metodist olimning bu fikrlari ilmiy, nazariy jihatdan dolzarb. Xususan, 6-sinf uchun mo‘ljallangan adabiyot darsligining “So‘zda hikmat bor” nomli bo‘limida mumtoz adabiyot namunalaridan – xalq qo‘shiqlari, Alisher Navoiy, Muhammadsharif Gulxaniy, Avaz O‘tar, Abay ijodidan na’munalari o‘rin egallagan [3; 27–78-b.]. O‘quvchilar aynan shu nazariy ma’lumot orqali o‘qitilmoqda. Ammo eng dolzarb tomoni shundaki, ular faqat darslikdagi nazariy ma’lumot orqali cheklanib qolishmoqda. Yozuvchining tili, uslubi va badiiy mahorati, asarning mohiyatini anglash o‘rinlari esa ochiq qolmoqda. Valijon Qodirov dissertatsiyasida: “... o‘qituvchilar o‘quvchi baribir mumtoz matnni tushunmaydi, undan ma’no chiqarishga qiynaladi degan bahonani ro‘kach qilib asarlar mazmunini so‘zlab beradilar va bolalardan ham shuni talab qiladilar” [2; 17-b.].

Bu mumtoz matnning o‘qitishdagi eng katta og‘riqli nuqtaga aylanmoqda. Bolalar matn mazmunini so‘zlab berish bilan cheklanmoqda. Bu nomukammallikning subyektiv –o‘qituvchi shaxsi bilan bog‘liq sabablari ham bor. B.To‘xliyev yozadi: “...badiiy asarni qanday tahlil qilish kerak? – degan savolga bir xildagi javobni berib bo‘lmaydi. Bunga tahlilning maqsad va vazifalari, uni tahlil qilayotgani va kim uchun tahlil

qilayotgani, badiiy matnning yaratilgan davri, muallif maqsadi, janri, uslubi, shakli singari ko‘plab omillar ta’sir o‘tkazib turadi” [4; 3-b.]. Kuzatamizki, darsliklarning deyarli barchasida asar namularidan so‘ng ularning mazmuni nasriy bayon sifatida beriladi. Bu agar matn o‘quvchiga tushunarli bo‘lmasa yoki uni o‘zlashtirishda qiynalsa nasriy bayondan foydalanib, o‘zi chiqargan xulosa bilan taqqoslab o‘rganishi uchun berilgan.

6-sinf adabiyot darsligida mumtoz namunalaridan A.Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridan parcha keltirilgan. “Mahbub ul-qulub” tili bir qadar mukammal bo‘lgani holda darslikda asar tabdili ham havola qilingan [3; 36–46-b.]. Biroq ba’zan o‘qituvchi o‘quvchilarga asarning faqat tabdilinigina o‘qittirib, undan tayyor luqma sifatida foydalanmoqdalar. Ya’ni o‘quvchilar faqat nasriy bayonni o‘qib, asarning asl varianti parchasi bilan xatto tanishmayaptilar. Misol tariqasida “Mahbub ul-qulub” 11-tanbehning “Saxovat va himmat” bobidan keltiramiz:

Asl variant: “Saxovat insoniyat bog‘ining borvar shajaridur, balki ul shajarning mufid samaridur. Odamiylik kishvarining bahri mavjvari, balki ul mavj bahrining samin gavhari. Saxovatsiz kishi – yog‘insiz abri bahor va royihasisz mushki tator. Mevasiz yig‘och hamon-u o‘tun hamon va yog‘insiz bulut hamon-u tutun hamon”.

6-sinfda berilgan tabdil: “Saxovat insoniyat bog‘ining hosildor daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir. Saxovat odamiylik mulkining mavj urib turgan dengizidir, balki u to‘lqinli dengizning bebaho gavharidir. Saxovatsiz odam yog‘insiz bahor bulutiga va hidi yo‘q mushk-anbarga o‘xshaydi. Mevasiz daraxt ham bir-u, o‘tin ham bir; yog‘insiz bulut ham bir-u, tutun ham bir” [3; 36–46-b.].

O‘ylaymizki, tushinilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar izohi matn ostida keltirilsa ham o‘quvchi uni tushuna oladi. Albatta, o‘qituvchi lug‘at bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirishda o‘quvchiga yordam beradi. Hattoki, o‘rganuvchining so‘z boyligi oshadi. Tayyor tabdilni o‘rganish ularning fikr-doirasi faqat muallif chiqargan xulosa bilan cheklanib qolishiga olib keladi.

Mumtoz adabiyotni o‘rganishda berilgan mazvu va matnlardan so‘ng savol va topshiriqlar berilgan. Bu topshiriqlar o‘quvchilar mavzu bo‘yicha olgan fikrlarini mustahkamlash, matn mohiyatini ochishga qaratilgan. O‘quvchilar bular orqali hayot haqiqatiga tayangan badiiy haqiqatni anglashi lozim.

Valijon Qodirov dissertatsiyasida ta’kidlaydi: “Ijodkor badiiy matn yaratar ekan, hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantiradi. Adabiyot

darslarida muvaffaqiyatli tuzilgan savol, topshiriqlar esa ters jarayonni vujudga keltiradi: o‘quvchi badiiy haqiqat orqali hayot haqiqatiga qaytadi, turmushga chuqurroq nazar tashlaydi, olam va odam muammolari borasida fikr yurita boshlaydi” [2; 23-b.].

Savol va topshiriqlar ularni izlanishga, asarga badiiy yondashishga, fikrlarini umumiy xulosa tarzida ifodalay olishga undashi kerak. Ularni qay tarzda tuzilgani ham o‘rganish saviyasini belgilab beradi. Amaliyotda savol va topshiriqlar mohiyatiga ko‘ra ikki guruhga ajratiladi: faktologik va konseptual.

Faktologik savollar asosan darslikdagi faktlarni qayta so‘zlab berishni ko‘zlaydi. Bunday savollar ko‘p bo‘lgan darslikda o‘quvchilar matn mohiyatini tushunish uchun izlanmaydilar, fikrlamaydilar, faqat tayyor javobni matn ichidan topadilar. Mumtoz adabiyotni o‘rganishda bu bir nuqtada qotib qolishning omili bo‘lib qolada. Savol va topshiriqlarning berilishidan asl maqsad esa o‘quvchi fikrini yanada oydinlashtirish.

Konseptual savollar o‘quvchilarni o‘ylashga, fikrlashga, mustaqil nazar bilan qarashga, e‘tiborli bo‘lishga, o‘ziga xosliklarini topishga, farqlay olishga chorlaydi. Berilgan na‘munaning mohiyatini anglashga yordam beradi. 6-sinf darsligidagi “Zarbulmasal”da quyidagi savollar keladi:

1. Gulxaniy haqida bilganlaringizni gapirib bering.
2. “Kabutar bilan Zog” hikoyatidan qanday ma’no uqdingiz?
3. Qo‘lidan kelmagan ishga uringan kishi, albatta, sharmanda bo‘ladi degan fikr qaysi masalda aks etgan?
4. “Tuya bilan Bo‘taloq” hikoyati nima haqida? Bo‘taloq onasidan nega xafa bo‘ldi? Ona tuyaning javobini sharhlang.
5. “Toshbaqa bilan Chayon” hikoyati mazmuni orqali qanday ibratli fikr ilgari surilgan? Tushuntirib bering.
6. O‘z ahvolidan doim shikoyat qilib yurish, noshukurlik illatlari fosh qilingan hikoyani topib sharhlashga urinib ko‘ring-chi.
7. “Yodgor po‘stindo‘z” hikoyalarida qanday xulqli odamlar hajv qilinadi?
8. “Zarbulmasal”dan keltirilgan naqllardagi odamlarning latifanamo holatini sharhlang.
9. “Zarbulmasal” deb qanday asarga aytiladi?
10. Daftaringizga “Zarbulmasal”dagi maqol va iboralarni ko‘chirib oling. Ularni hozirgi maqollar bilan taqqoslang [3; 62-b.]

Ushbu savol va topshiriqlardan 4-5-6-7-8-10-savollar konseptual savol sifatida berilgan va bu o‘quvchini matnni sharhlashga, taqqoslashga

fikr erkinligini oshirishiga yo‘l ochadi. O‘quvchilar o‘z mulohazalarini bildirishga va asoslashga harakat qiladilar. Bu ularni shaxsiy fikrlash doirasini kengaytiradi. “Asoslashga urindimi, u mustaqil fikrlay boshlaydi, mustaqil fikrlay boshladimi, demak, shaxs sifatida shakllana boradi [5; 79-b.].

Mumtoz adabiyot o‘qitishdagi bu muammolarga xalq ta’lim muassasalarida ayni bir o‘qituvchining ham adabiyot, ham ona tili fanining o‘qitayotgani ham sabab bo‘lmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mumtoz adabiyotni o‘rganishda o‘qituvchi mahorati, o‘quvchilarni tushinishga harakat qildirishi muhim omil hisoblanadi. Endi shakllanib kelayotgan avlod uchun o‘qituvchi ko‘rsatayotgan yo‘nalish e’tibor markazidadir.

O‘quvchilar mumtoz adabiyot mazmun-mohiyatini tushunishda ko‘nikma hosil qilishi maqsadida berilgan muallif fikrlaridan to‘g‘ri foydalanishi lozim.

Shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim ikkinchi bosqichining dastlabki bo‘g‘ini bo‘lgan 5–7-sinf yoshidagi o‘smirlari uchun “Adabiyot” darsliklariga material tanlashda ularning psixologiyasi, ma’naviy olami, fikrlash doirasining ham hisobga olinishi ta’lim samaradorligini oshirishni ta’minlaydi. O‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan ham foydalanish ham ahamiyatlidir. “O‘quv materiallarini o‘quvchi yaxshi o‘zlashtirishi uchun unga doir illustratsiyalarni ko‘paytirish, ijodkorlarning uy-muzeylari haqidagi ma’lumotlarni ham kiritish, ular haqidagi badiiy va hujjatli filmlar katalogini berish maqsadga muvofiqdir” [6; 20-b.].

Mumtoz mavzularni o‘zlashtirishda quyidagi holatlarga amal qilish kelajakda samara beradi, deb o‘ylaymiz. Bir umumta’lim maktablarida ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda mutaxassis masalasiga e’tibor qaratish, xususan, ona tili fanini o‘tadigan o‘qituvchi adabiyot fanini chuqur o‘tishi gumon. Yoki aksincha.

Darsliklarda asar matnini asliyati berilishi maqsadga muvofiq ko‘rinadi. Nasriy bayonlar darslikka kiritilishi shart emas. Bu holat o‘qituvchini ham, o‘quvchini ham o‘z ustida ishlamasligiga sabab bo‘ladi. Asliyatni tushinish uchun matn ostida lug‘atlar berilishi yetarli. Shundagina o‘quvchi mumtoz so‘z sehrini sezadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish

chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi. 15.08.2018-y.,07/18/3907/1706-son.

2. Qodirov Valijon Abdurahmonovich. Umumta'lim maktablarida o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fanl. dokt. diss... – Andijon, 2019.

3. S. Ahmedov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev. Adabiyot. – T.: Ma'naviyat, 2017. – 160 b.

4. To'xliyev B. Badiiy asarlarni sharhlab o'rganish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. – 147 b.

5. Вопросы психологии восприятия и мышления. Труды института психологии. – Москва: Академпеднаук, 2018. – 204 с.

6. To'uchiyeva Mahfuza Umarqulovna. 5–7-sinflar adabiyot darslarida o'zlashtiriladigan o'quv materiallarini takomillashtirish tizimi. Ped. fanl. bo'y. fals. dokt. (PhD) diss... avtoref... – Samarqand, 2020.

BADIIY ASARDA KITOBXON SHAXSIYATI

Ziyoda Qarshiboyeva, Nizomiy nomidagi
TDPU O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
201-guruh talabasi

Mustaqillik yillarida barcha sohalarda o'zgarish bo'lgani kabi o'zbek adabiyotida ham tub burilishlar yuz berdi. Xususan, janr yangilanishlari va izlanish samarlarining o'zgacha jilosi adabiy muhitga misli ko'rilmagan ifodani olib kirdi. An'anaviy qissachilik o'zga oqimga yuz tutdi. Modern qissachilik namunalarida inson birinchi darajaga ko'tariladi. Uning o'y-fikrlari, qalb kechinmalari asarda yetakchilik qiladi. Endi u zamon amriga bo'ysunmaydi, u tashqi olam bilan deyarli bog'lanmaydi, unga o'zining "dunyosi" qalbi, ko'ngil olami muhimroqdek tuyiladi. Modern asarlarda qora rangni bo'rttirib, yorug'likni ko'rsatishga urinishadi. Nazar Eshonqulning "Qora kitob" asari kabi. Bularning barchasi esa qisman an'anaviy adabiyotdan uzoqlashib, yangi davrni boshlash uchun amalga oshirilgan ishlar samarasi bo'lishi mumkin va izlanishlarni qaysidir ma'noda o'zbek adabiyotidagi "yangiliklar" sifatida baholashadi.

Istiqlol davrida adabiyot sahnasiga qaysi ruhdagi asarlar chiqib keldi? Eng dolzarb savollardan yana biri nima uchun yozuvchilarning ijod namunalari ko'p bo'sa ham, lekin hanuzgacha yagona zamon qahramoni qiyofasi shakllantirilmadi? Shu kabi savollarni yana uzoq davom ettirishimiz mumkin. Biroq biz istiqlol davri adabiyot namunalarini tahlil qilib, bu asarlarning jamiyatdagi o'rni va kitobxonni o'ziga qay jihati bilan

jalb qilganini muhokama qilamiz. Biz tahlilga tortmoqchi bo'lgan qissamiz eski dardni yangi ovozda kuylagan Bobo Ravshanning "Shom va tong orasida" qissasidir.

Mazkur qissaning nomlanishiga e'tibor qaratsak, "Shom va tong orasida". Kunning shom qismi o'zbek milliy qadriyatlarida ham xosiyatsiz vaqt sifatida baholanadi. Asarda yoritilgan shom vaqti o'zida ramziylikni ifodalaydi. Qissa yaqin o'tmishdan hikoya qiladi, hali bir asr ham bo'lmagan sho'ro hukumatining olib borgan siyosatlari natijasida xalqimiz "eng qora va jirkanch" o'yinlarining aybsiz aybdorlari bo'lishgan. Millatni milliy ruhidan ayirish uchun "*elning eng botir o'g'lonlarini yo'q qilishga qasd qilganlar*" [1]. Elning ziyoli qatlamini yo'q qilib, xalq ma'naviyatini butunlay o'chirib tashlashga oshiqqan sho'ro hukumati ko'plab oilalarning yostig'ini quritgan. Bu asar nomlanishidagi birinchi razmiylik – unda yana bir ichki ma'no mujassamlashgan. Shom, ya'ni kunning yakuni, bu vaqtda quyosh ufqqa singib ketadi, olamni zulmat qoplaydi. Lekin bu zulmat ortida yangi tongga umid bordir. Ya'nikim, shomda botgan quyosh, tongning debochasidir. Yangi quyosh ko'kka chiqishi uchun ham eskisi botishi kerak. Bu qissada shom bilan tong orasidagi taqdirlar aks etgan bo'lib, unda yozuvchi zamon va inson taqdirini uzviy bog'laydi (*an'anaviy qissachilik kabi*). Milliy qadriyatlarni yo'q qilish arafasida bo'lgan davrni, yozuvchi Surxon shevasi bilan ifoda etadi. Bu esa asarning tilini bolday shirin qilishga xizmat qilgan. Birgina Mengziyoning baxshichilik qilgani bois butun oila halovatini yo'qotib, sargardonlikka hukm qilinadi. Mengziyo o'zi tomonidan kuylangan "Alpomish" dostonini oxiriga yetkaza olmaydi. Uni yurtiga qaytarib olib kelishga vaqti, imkoni yetmay qoladi. Qalmoq yurtida uzoq qolib ketib, yurtiga qaytish jarayonlari ortga surilaveradi.

Mengziyonig ustoziga unga: "Baxshi umrida bir marta daryoday to'lib, sherday na'ra tortib qo'shiq aytmasa, aytar gapi ichida armon bo'lib qoladi... Agar bu baxshining oxirgi qo'shig'i bo'lsa, ichi bo'shab, govvasi shovshab qoladi" [2], – degan edi. Mengziyo ham o'zini ichi bo'sh xumga o'xshatadi. Endi unga barcha narsa aziz, qadrdondek tuyilaveradi. Shu so'zlardan zukko kitobxon anglaydiki, xalq baxshisi boshiga og'ir sinovlar tushish arafasida. Muallifning o'zi bayonot kiritmasidan oldin kitobxon qahramonning hayoti qanday yakun topishini oldinda taxmin qila oladi. Eng mukammal badiiy asarda esa kitobxon qaysi oqimga tushib qolishini bilmasligi kerak, u asar qahramoni hayoti haqida hukm chiqarishi emas, keyingi satrdagi yangilik haqida ham taxmin qila olmasligi zarurdir.

Yosh qalamkashimizning katta yutugi asar qahramonlariga ism tanlashda yanglishmagan, xarakter xususiyatidan kelib chiqqan holda bu ishga jiddiy yondashgan. Hadisi sha'riflarda ham aytiladiki: "Farzandingizga to'g'ri ism qo'ying. Zero ismda uning qadari bitiladi" [3]. Bu esa yangi ijod namunasi bir yutug'i desak mubolag'a bo'lmas.

Asarda juda chiroyli jumalarni uchratishimiz mumkin. Yigitlarga murojaat qilinganda yoshi ulug'lar unga *botirim, polvonim* deb chaqirishgan. "Bo'laman degich el bir-birini botirim deydi". Elning jipsligini, bir-biriga qayishishi haqida bundan o'tkazib gapirishning iloji yo'q. Asarda faqat o'zbek xalqigagina xos bo'lgan nozik urf-odatlar juda qisqa aytib o'tilgan bo'lib. Mehmon kechasi uyga kelganda uyning erkagi eshik ochgan. Mezbon mehmonni izzatlab o'g'liga ovoz beradi.

– Uyga mehmon keldi. Keyin, berman qara.

Endi uning ma'nosiga e'tibor beraylik. Nega ota darrov o'g'liga "berman qara", – demadi. Nega "keyin" so'zini ishlatdi. Bundan anglashilgan ma'no shundaki, mehmon kelganini uydagi ayollarga xabar qil, ular tayyorgarliklarini ko'rib turishsin degan ma'no: "Keyin, berman kel", iborasi ishlatilgan. Oydin o'lim to'shagida yotganida Tangriqul bobo va Toshboy bobo uning yoniga kirishadi. Kelini o'lim bilan olishib yotgan hoida ham ularning yonida yotishga hijolat chekadi. Shunda nuroniylar kelin ko'p ham hijolat bo'lmasin deb, undan uzoqroqqa kelinga orqa berib o'tirishadi. Begona insonlar o'z uyiga tashrif buyurib, boshidan kechirgan dardlarini aytgan chog' ularning g'amlarini ham xuddi o'zlariniki kabi qabul qilib, hali o'zlari ko'chib kirmagan uyni yetti yot begonalar uchun bo'shatib berish faqat o'zbek xalqigagina xos bo'lgan tantilik belgisidir. Buyuk yozuvchi Abdulla Qahhor aytgan bir fikr bor: "Asar boshida miltiq detali kiritildimi, asar oxirigacha u otilishi kerak". Bundan anglashilgan narsa shuki, asarda hech bir detal noo'rin kiritilmasligi zarur. Shu jumladan, Tangriqul boboning "Tulki uyiga qarab ulasa, qo'tir bo'ladi", jumlasini bekorga ishlatilmaydi. U asarning yakuniga hukm chiqaradi. Ya'ni "iniga qarab ulagan" To'raqul sho'ro "qo'tir" bo'ladi. Undan butun el, oila a'zolari hazar qilib qoladi. "*Obro'li xonadonning nomiga dog'tushirayotgan otasini o'g'li zax xonaga qamab qo'yadi*". Bu ham yetmaganidek unga qo'l ko'tarishgacha boradi. Yovuzlik qachon bo'lmasin o'z ishlariga, albatta, jazo oladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, asar juda chiroyli ifodalangan. Uning mazmuniga mos tarzda tanlangan sarlavha uni yanada go'zal qiladi. Yurtimiz "shom" dan nurafshon kunlarga yetib keladi. Asar so'ngida yurtimizning mustaqillikka erishgani, uning azaliy orzulari

ushalgani, “Alpomish”ning qaytishini Elmurodding nabirasi – Mengziyo kuylagani matnga lirik bo‘yoq bo‘lib xizmat qildi. Chunki, mana shunday ruhda yozilgan asarlar orqali kitobxon qalbida Vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi yanada mavj urib yashnaydi. Kitobxon bu asarni o‘qir ekan, o‘zi uchun zamon qahramonini gavdalandirmaydi, lekin qalbida bir ruh paydo bo‘ladi. U ulg‘ayib, kattalashgani sari kitobxon o‘z yurtiga muhabbat tuyg‘usini yanada kuchliroq his qiladi. Zamonaviy adabiyotda zamona qahramoni bir yakdil qiyofada shakllanmagandir, lekin asarni mutolaa qilgan kitobxonning o‘zi asarning bosh qahramoni darajasiga ko‘tariladi. Bu esa ichki dunyoni yanada go‘zal ko‘rinishda shakllantirishga xizmat qiladi. O‘z ichki dunyosini boyitgan shaxsgina tarbiyasini quyoshdek porlatadi va o‘z-o‘zini kashf qiladi. O‘zligini anglagan har bir shaxs borki, dunyo saodatini ta’limdan, ilmdan deb baholaydi. Birgina badiiy asar butun jamiyat shaxsini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobo Ravshan. Shom bilan ton orasida. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2019.
2. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar.
3. Xolova M. Boysun shevasiga xos so‘zlarning leksik-semantik genezisi. – T.: Yosh olimlar, 2019.
4. Imom Buxoriy. Hadislar. – T.: Hilol nashr, 2018.

DARSLIK VA MANBA QIYOSI

Maxliyo Xurramova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d. (PhD) Husnigul Jo‘rayeva

Bugun axborot texnologiyalari rivojlanib, insoniyat umri shiddat bilan o‘tayotgan zamonda dunyo ahli kitob o‘qish bilan birga, telegram, instagram, facebook singari ijtimoiy tarmoqlardan olingan ma’lumotlar bilan ham o‘z bilim va imkoniyatini oshirib bormoqda.

Bugungi kun o‘quvchisi eng avvalo, mutolaa jarayoniga jiddiy e’tibor bermog‘i lozim. Shu o‘rinda o‘quvchi asosiy o‘quv materiali sanalgan darsliklar, ularni qamrab olgan mavzularni astoydil o‘zlashtirishni, esdan chiqarmasligi lozim. E’tibor qaratilsa, maktab adabiyot darsliklariga kiritilgan mavzular matniga talab shundayki, “Adabiyot” darsligi imloviy, uslubiy kamchiliklardan xoli, asl matnga tayanilgan holda yozilgan bo‘lishi kerak. Chunki darslik orqali badiiy asar qiroati bilan doimiy hamnafas bo‘lishi zarurligi seziladi. Shu o‘rinda savol

tugʻiladi: Bugungi avlod oʻqiyotgan, oʻrganayotgan darsliklar yuqoridagi talablarga javob bera oladimi? Bu savolga javobni biz umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 5-sinfi uchun moʻljallangan “Adabiyot” darsligidan izladik.

Maqolada 5-sinf Adabiyot darsligiga Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Aminxoʻja Muqimiy, Saʼdiy Sheroziy singari mumtoz siymolar ijodidan lavhalar keltirilgan.

Bugun darsliklarning zamon talabiga muvofiq kelishi, oʻquvchilar dunyoqarashi, tafakkurining shakllanishida mumtoz adabiyot namunalarining eng inja shakllarini yosh avlodga yetkazish masalasi muhim sanaladi.

Darslikning 107–115-sahifasida Zahiriddin Muhammad Bobur ruboiylaridan namuna berilgan. Darslik mualliflari 1994-yilda nashr etilgan Bobur “Devon”iga tayanishgan. Nashr bilan darslik solishtirib chiqilganida ruboiylar matnida qoʻllanilgan tinish belgilarida kamchiliklar va xatoliklar koʻzga tashlanadi.

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi koʻrmagay yomonlik hargiz,
Har kimki yomon boʻlsa, jazo topqusidur. [1; 110-b.].

Nashrda:

Har kimki, vafo qilsa, vafo topqusidur!
Har kimki, jafo qilsa – jafo topqusidur!
Yaxshi kishi koʻrmagay yomonlik hargiz,
Har kimki, yomon boʻlsa – jazo topqusidur! [2; 72-b.].

Koʻrinadiki, misralardagi tinish belgilari tubdan farq qiladi. Darslik mualliflari nashrdagi kamchilikni bartaraf etishgan.

Boburning “Har yerda gul boʻlsa – **tikan** boʻlsa, ne tong?!” deb boshlanuvchi ruboiyninisi 1-, 3-misrasida ikki xillikni koʻramiz. 1-misrada “tikan” tarzida, darslikda esa “tikon” deya berilgan. Shoirning “Yo qahr-u gʻazab birla meni tufroq qil...” deb boshlanuvchi ruboiysidagi “Rab” soʻzi nashrda kichik harf bilan va “rab” deb yozilgan. Darslikda bu kamchilik bartaraf etilgan.

Darslik:

Yo **Rab**, sengadur yuzum qaro gar oq qil! [1; 112-b.].

Nashr:

Yo **rab**, sengadur yuzum qaro gar oq qil! [2; 81-b.].

Demak, darslikda bu kamchilik bartaraf etilgan.

Darslikda iste'dodli adib Muqimiy "Sayohatnoma" asari kiritilgan. Bunda 1974-yilda chop etilgan Muqimiy "Asarlar" to'plamdan foydalanilgan. Nashr va darslikni taqqoslaganimizda ba'zi farqlar ko'rindi.

Darslik:

Bir ma'raka ko'rdim butun,
Jami yopingan boshga to'n,
Boqsamki, besh yuzcha xotun
Voiz so'zin tinglor ekan [1; 118-b.].

Manba:

Bir ma'raka ko'rdim butun,
Ja'mi yopingan boshga to'n,
Boqsamki, besh yuzcha xotun
Voiz so'zin tinglor ekan. [3; 427-b.].

Ko'rinadiki, darslikda manbadagi xatolik bartaraf etilgan. Quyidagi xatoliklar ham darslikda to'g'rilab ketilgan:

Darslik:

Mingboshilik kimning ishi,
Desam, dedi bedonishi,
Bir "**qo'shtegirmonlik**" kishi,
Xo'ja Iso badkor ekan. [1; 118-b.].

Manba:

Mingboshilik kimning ishi,
Desam, dedi bedonishi,
Bir "**Qo'shtegirmonlik**" kishi,
Xo'ja Iso badkor ekan. [3; 427-b.].

Darslik:

Mag'rur, **xasis-u besh-u kam**,
Har gapda yuz ichgay qasam.
Tagjoy olur moxovdan ham,
Hoji o'zi murdor ekan. [1; 118-b.].

Manba:

Mag'rur xasisu beshu kam,
Har gapda yuz ichgay qasam.
Takjoy olur moxovdan ham,
Hoji o'zi murdor ekan. [3; 427-b.].

Demak, mumtoz adabiyot tarixining yirik vakillari, doimiy ilm bilan mashg'ul bo'lib, adabiyot tarixi, mumtoz siymolarning ijodiy merosi manbalarini sinchiklab kuzatib borgan darslik mualliflari asos uchun olingan manbadagi so'z va jumla, misra va baytlardagi kamchilik va

saktaliklarni o‘z o‘rnida to‘g‘rilab, maktab o‘quvchilari uchun mukammal namunalar bershga muvaffaq bo‘lishgan. Zahmatkash ustozlarimiz mehnati tahsinga loyiq.

Lekin shu o‘rinda ayrim mulohazalarni bildirib o‘tsak. Bizningcha, maktab Adabiyot darsliklarida badiiy asar tahlilini to‘g‘ridan-to‘g‘ri berish o‘zini unchalik oqlamaydi. Balki tahlilni bermasdan o‘quvchini fikrlashga undaydigan savol va topshiriqlarni ko‘paytirish lozim. Asar matni mutolaa qilinib, shu mavzu asosida bayon yoki insho olinganida, bola faqat darslikdagi tahlil bilan cheklanib qolmaydi. Shuning uchun ularni fikrlatish, to‘g‘ri mushohadaga o‘rgatish lozim.

Bugungi kun o‘quvchisi uchun eng to‘g‘ri va mukammal manbalarni berish har bir adabiyot mutaxassisining vazifasidir. Bu zamon talabi. Maktab darsligi kamchiliklardan xoli va mukammal bo‘lmog‘i lozim. Har qanday haqiqiy badiiy asar xatoliklardan uzoq va asl holatida o‘quvchiga yetkazilganida haqiqiy kitobxonini topadi. Xonadondagi qiroatxonaning to‘rini egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2015.
2. Bobur. Devon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at, 1994.
3. Muqimiy. Asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at, 1974.
4. Sa‘diy Sheroziy. Bo‘ston. – Toshkent: O‘zbekiston, 1960.
4. Sa‘diy Sheroziy. Guliston. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at, 1968.

O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING VIRTUAL IMKONIYATLARI

Munisa Sadikova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.d. (PhD) Nilufar Abdurahmonova

“Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, ayni paytda global iqtisodiyotda kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy ta‘minot mahsulotlarini ishlab chiqarish va ular asosida keng turdagi interfaol xizmatlar ko‘rsatishni o‘z ichiga olgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining roli va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga ta‘sir ko‘rsatishi, katta hajmda axborot

to'plash va uni umumlashtirish imkonini berishi, boshqarishni strategik darajada tashkil etish uchun keng imkoniyatlar ochib berishini unutmashimiz zarur" [4; 36-b.]. Til millat ruhining ko'zgidir. Inson faoliyatida til borliqni bilish va fikr almashish vositasi vazifasini bajaradi. Til vositasida insoniyat tomonidan jamg'arilgan bilimlar nafaqat qayd etiladi va saqlanadi, balki avloddan avlodga yetkaziladi. Til insonning o'ziga xosligini anglatadi. "Ona tilini o'rganish bu nafaqat grammatik qurilish, tushuncha, ta'rif va nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish, balki uning boy imkoniyatlaridan foydalanib fikrni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash malakalarini egallash, o'quvchilarga berilgan bilimlar orqali ularning til malakasini oshirish hamdir. Til bo'yicha egallangan bilim malakaga aylanmas ekan, u keraksiz bo'lib qolaveradi" [6;3-b.].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 19-mart kuni "Yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Shu tashabbuslardan uchinchisi – aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan. Yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o'rgatish masalalariga ham alohida ahamiyat berilgan" [8; 2-b.]. O'zbek tilini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan, axborot-kommunikativ vositalaridan, interfaol va innovatsion usullaridan keng foydalanishni davr taqozo qilmoqda. Bugungi kunda innovatsion ta'lim texnologiyalarining bir necha xil usullari shakllantirilgan. Ulardan darslarda mavzuni yoritishda keng va turli usullaridan foydalanilsa, darsning samaradorligi yuqori bo'ladi, natijada o'quvchilarning ham bilimi va darsga bo'lgan qiziqishlarining ortishi ham ta'minlanadi. Albatta, ta'lim usullari fan va mavzu mundariyasi, dars maqsadi, turi, o'quvchilarning yosh toifasi va tayyorgarlik darajasiga qarab tanlanadi. Hozirgi o'qitish tizimida DTS talablariga mos keluvchi axborot kommunikatsiya texnologiyalari, tanqidiy tahlilni shakllantiruvchi, loyihaviy va o'qitishni rivojlantiruvchi, muammoli ta'lim, modul, keys, guruhlarda ishlash singari texnologiyalar faol qo'llanilmoqda. Tarixga "Kompyuter asri" nomi bilan kirgan ushbu asr O'zbekistonda o'zbek tilini o'qitishning AKT (Axborot-kommunikativ texnologiya) qulayliklari va virtual tarmoqlarning rivojlanishiga turtki

bo'ldi. Ushbu qulayliklarga ko'ra, yurtimizdagi oliy va o'rta maxsus ta'lim, maktabgacha ta'lim muassasalarida o'quv xonalari yangi axborot-kommunikativ texnologiyalar asosida jihozlandi. Har bir o'quv xonada internet aloqalari online tarzda yo'lga qo'yildi. Bunday zamonaviy va innovatsion AKTlardan foydalanish ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi. "Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yamiz" [4; 34-b.]. Bu maqsadni amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalar va ularni joriy qilishning o'rni beqiyosdir.

XXI asr jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida, ayniqsa, intellektual rivojlanishida katta o'zgarishlar yasamoqda. Bu jarayonda kadrlarni o'qitish va malakasini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi va bu, o'z navbatida, axborotlar bilan ishlashda lug'atlardan foydalanish zaruriyatini yuzaga chiqaradi. Shunga ko'ra tilshunoslikda yangi paydo bo'lgan lingvodidaktik yo'nalish o'quv lug'atchiligi tarmog'i, o'zbek kompyuter lug'atchiligi ham davr talablari asosida rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda o'zbek tilini o'qitishning samarali usullari yo'lga qo'yilgan, ya'ni o'zbek tilini yanada takomillashtirish maqsadida elektron lug'atlar, audio kitoblar, elektron kutubxonalar, o'zbek tilini tez va oson o'rganish maqsadida mobil ilovalar ishlab chiqilmoqda. Bugungi kunda o'zbek tilini o'qitishning qulayliklarini, ta'lim sifatini oshirish ishlari eng muhim va dolzarb sohalarda kompyuter lingvistikasi va korpus lingvistikasi orqali amalga oshirilmoqda. Bunday katta qamrovdagi ishlarni amalga oshirishda filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Nilufar Abdurahmonovanning ilmiy izlanishlarining alohida o'rni bor. "Bugun til sanoatida kompyuter lingvistikasi, mashina tarjimasini, til texnologiyasi, tabiiy tilni qayta ishlash, sun'iy intellekt texnologiyasi kabi terminlar tez-tez qo'llanilib kelmoqda. Bularning har biri insoniyat tomonidan yaratilgan lingvistik resurs orqali o'z tadrijiy takomiliga ega. Endilikda lingvistik resurslarning asosiy turlaridan biri sifatida elektron shakldagi korpuslar nazarda tutilmoqda. So'nggi vaqtlarda matn korpuslari dunyo kompyuter lingvistikasi (NLP) va tilshunoslikning turli sohalari uchun eng muhim o'rganish obyektiga aylanib bormoqda. Biroq o'zbek tilshunosligida korpus bilan bog'liq jiddiy amaliy tadqiqotlar amalga oshirilgan emas, lekin amalga oshirish maqsad qilib qo'yilgan. Shuning

uchun hozirgi davrda o'zbek tilshunosligining eng muhim vazifalaridan biri o'zbek milliy korpusini yaratishdir" [2; 2-b.].

Adabiyotlarda ta'kidlanishicha: "Lug'atlarni Internetga aloqadorlik jihatidan ikki turga bo'lish mumkin:

1. Veb-lug'atlar.
2. Apk formatli lug'atlar.

Bunda qidiruv paneliga biror so'z yozilganda, lug'at tarkibida shunday qism bo'lgan barcha izohlar chiqib kelishi talab etiladi. Buning uchun shaxsiy kompyuterga MySQL ma'lumotlar bazasining boshqarish tizimi (MBBT) yuklanishi kerak. O'quv lug'ati "oflayn" rejimida bo'lganda ham "onlayn" holatidagidek ishlashi muhim ahamiyatga ega. Qolaversa, elektron o'quv lug'atining bir necha tilda xizmat qilish imkoniyatini ham yaratish zarur.

Android tizimli telefonlarda dastur ishga tushirilganda ekranda to'rtta oyna namoyon bo'ladi:

- lug'at qismi;
- darsni mustahkamlash uchun onlayn muhit yaratib beruvchi oflayn test qismi, ya'ni kitob bo'yicha tuzilgan testlar bazasi;
- ta'limiy o'yin qismi. Bu qismda sotsiologik o'lchovga ko'ra turli aqlni charxlovchi o'yin namunalari havola etilishi mumkin;
- dasturning so'nggi oynasida esa dasturning elektron manzili, tuzilishi haqida ma'lumotlar beriladi. Shuningdek, lug'ati tuzilgan kitobning elektron variantini havola qilish, yoki tayyor dasturdan foydalanib o'z mustaqil lug'atimizni yaratish ham mumkin. Dastur o'quvchilar uchun qulay bo'lib, bitta mobil dasturdan foydalangan holda barcha darsliklarning elektron izohli lug'atlaridan foydalansa bo'ladi. Bu dastur asosida nafaqat maktab, litsey o'quvchilari, balki oliy o'quv yurti talabalari ham mustaqil ravishda o'quv lug'atlarini tuzish imkoniyatiga egadirlar. O'quvchilarda elektron o'quv lug'ati yordamida mustaqil ravishda fan tushunchalarini o'zlashtirish, vaqtdan unumli foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan holda kompyuter hamda mobil aloqa qurilmalaridan ongli ravishda samarali foydalanish ko'nikmasi shakllanadi" [7; 3-b.].

AKTdan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjud. Bunda albatta, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda talabalar yoki o'quvchilar ham bu axborot vositalaridan foydalana olishi va yaxshi bilishlari muhim hisoblanadi. Kompyuterlardan foydalanganda talaba yoki o'quvchi shu fan sohasiga doir turli xil slaydlar, video roliklar, multfilmlar va boshqa dasturlarni ko'rish yoki eshitish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu

bolaning xotirasida uzoq saqlanishiga yordam beradi va ular orqali o'quvchida fanga bo'lgan qiziqish va o'qitish samaradorligi ortadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy kompyuterlardan foydalanish mavzuni yoritishda va talaba, o'quvchilarga darsga taaluqli mavzularni yetkazib berishda eng muhim vositalardan hisoblanadi. Dars mobaynida o'quvchi va talabalarga interaktiv doskalardan, multimediya vositalaridan va kompyuter texnologiyalaridan mavzuga doir ma'lumotlarni jadval va diagrammalar asosida yoritib berilsa oson yodda saqlanib qoladi. Bundan tashqari, o'zbek tilini o'qitishning virtual qulayliklari ham qayd etilgan. Bu talaba va o'quvchilarning masofadan turib ta'lim tizimini amalga oshirish imkonini beradi. AKT va virtual tarmoqlar bizning vaqtimiz va kuchimizni tejaydi. Virtual tarmoq yordamida hozirgi kunda talabalar yoki xorij talabalarining o'zbek tilini samarali o'rganib olish ishlari amalga oshirilmoqda. O'zbek tili bo'yicha ishlangan elektron kitoblar ham o'qitish tizimini yanada takomillashtiradi. AKT va virtual tarmoqlar talabalarga o'zaro raqobatlashish uchun foydali bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etadi. Multimediya vositalari orqali taqdim etilgan darslar o'quvchilarda zerikishni oldini oladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'zbek tilini o'qitishda virtual tarmoqlar va multimedia vositalaridan foydalanilganda, nazariy ma'lumotlarni voqelikda ko'rish orqali mavzuni mustahkamlash, online muloqotlar natijasida og'zaki nutqning o'sishi va ta'lim samaradorligining oshishi, noan'anaviy ta'limni tashkil etish orqali o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish, ta'lim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyatiga erishish, olingan bilimlarning xotirada uzoq saqlanishi va kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi. Bilim qanchalik mustahkam bo'lsa, o'quvchining intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi va kamol topadi. An'anaviy mashg'ulotlar olib borish asta-sekin o'z o'rnini intensiv va interfaol metodlarga, noan'anaviy dars o'tish ishlariga bo'shatib bermoqda. Ona Vatanga sadoqatli, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ardoqlaydigan, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, davlat, jamiyat va oila oldida o'z burchi va javobgarligini his etadigan barkamol shaxsni kamolga yetkazish, ularning ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi. Bugungi tez o'zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayot o'quvchi yoshlar yoki talabalarni dunyoqarashini shakllantirish yangi pedagogik interfaol metodlardan keng foydalanishni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov Q.M., Ismoilov O.A. Pedagogik texnologiyalar va ularni joriy qilish muammolari. – T: Fan va texnologiya, 2012.
2. Абдурахмонова Н.З. Замоновий корпусларнинг компьютер моделлари //Ўзбекистонда хорижий тиллар. 2020. № 1(30). – Б. 50–58.
3. D.Nunan.- Listening- in- Language- Learning.- In- “Methodology- in- Language- Teaching”- Eds. Jack- C.Richards,Willy-A.Renandya, 2002.
4. I.Karimov. Asosiy vazifamiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T., 2010.
5. I.Karimov.Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
6. Ona tili ta’limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. – T.: Print 25-MCHJ, 2019.
7. U.Qo‘ziyev. Elektron o‘quv lug‘atlaridan foydalanish. Til va adabiyot ta’limi, 2019,12-son.
8. Sh.Mirziyoyev. Eng muhim 5 ta tashabbus. – T:, 2019.

MAKTABDA ODIL YOQUBOV ASARLARINI O‘RGANISH

Aziza Javlieva, ToshDO‘TAU
O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish
fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori Xurshida Xamrakulova

Odil Yoqubov ijodi XX asr o‘zbek adabiyotida alohida o‘ringa ega. Boisi ijodkor asarlarining mavzu ko‘lami, tasvirga tortilgan voqelik, obrazlar, aytilmoqchi bo‘lgan fikrning salmog‘i, asar g‘oyasining umumbashariyligi kitobxonni o‘ziga tortadi. Adib birda vafo, ishq-muhabbat, or-nomus haqida yozsa, birda xalq boshiga turgan bulutlar, adolatsizliklar haqida yozadi. “Ulug‘bek xazinası”, “Ko‘hna dunyo”, “Muzaffar Temur” kabi asarlarida esa xalqimiz tarixida muhim o‘rin tutgan alloma va jahongirlar haqida so‘zlaydi. Odil Yoqubov asarlari insonni o‘ylashga, hayot haqiqatlariga tik qarashga undaydi. Xususan, “Adolat manzili”, “Oq qushlar, oppoq qushlar”, “Muqaddas”, “Diyonat” kabi asarlari turli janrlarda yozilgan hamda turli davrlar ijtimoiy muammolarini yaqqol yoritgan.

Odil Yoqubov tarixiy mavzularda ham samarali ijod qilgan. “Ko‘hna dunyo”, “Ulug‘bek xazinası” kabi tarixiy romanlari o‘zbek adabiyotida muhim o‘ringa ega. Sharqning mashhur allomalari Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali Ibn Sinoning hayot yo‘llari, yoshlikdan to so‘nggi damlarigacha boshdan kechirgan kechinmalari orqali adib xalqimizning

ulug' farzandlari qismatini, shuningdek, o'z zamonida ayta olmagan fikrlarini tarix qobig'iga o'rab ayta olganligini ko'rish mumkin. Ibn Sino va Beruniy kabi ulug' mutafakkir olimlarimizning butun boshli hayot yo'li bugungi kun o'quvchisi uchun ibrat bo'la oladi.

Maktab darsligida yozuvchi Odil Yoqubovning "Muzqaymoq" hikoyasi berilgan. Asar avtobiografik xarakterga ega. Hikoyadan uning umr yo'li bir tekisda kechmagani, ayniqsa, bolalik xotiralari XX asrning 30–40-yillarining suronli davriga to'g'ri kelganini payqash qiyin emas.

Adibning faqatgina "Muzqaymoq" hikoyasi emas, balki bolalik xotiralarining izi qolgan "Er boshiga ish tushsa" romani, keyinchalik "Oq qushlar oppoq qushlar" romani, "Qaydasan, Moriko" qissasi ham yozuvchining shaxsiyati bilan bog'liq kechinmalarni ifodalaganiga guvoh bo'lamiz.

Adib ijodida turli mavzular qalamga olinganiga qaramay avtobiografik asarlar o'zining kechmishiga daxldorligi, adib ijodiy laboratoriyasiga chuqurroq nazar tashlash nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Ayniqsa, "Muzqaymoq" hikoyasi adib biografiyasini qayta tahlil qilish zaruratini beradi.

Ma'lum bo'lishicha, Odil Yoqubovning otasi Egamberdi Jaqubov o'z davrining haqiqiy kommunisti bo'lgan. Shu sabab, ota-bola – Egamberdi Jaqubov va Yoqub shayxning orasi buzilganligi yozuvchi xotiralarida qayd etiladi. Sababi Yoqub shayx katta diniy ulamo bo'lgan. Keyinchalik, Egamberdi Jaqubov sovetlar tomonidan "xalq dushmani" sifatida qamalib otuvga hukm qilinadi. Adib o'z xotiralarida shunday deb yozadi: "Otam qamalib ketgandan so'ng bir kuni bobom meni oldiga chaqirib shunday deb gapirib qoldilar: "Otang Egamberdi bosqinchilarga ishonib kommunist bo'ldi, qancha odamlarning boshiga mushkulot soldi, ammo diyonatsiz zolimlar unga vafo qilmadi, uni kommunistlarning o'zi o'ldirdi. Shuning uchun hech kimga hech qachon yomonlik qilma, faqat yaxshilik, yaxshilik bilan yashash kerak (Muhammad Ismoil) .

Garchi boboning ta'na aralash aytgan gaplari qilmishga yarasha jazo o'laroq talqin qilish mumkin bo'lsa ham, aslida sovet hokimiyati o'zi tarbiyalagan insonlarni shafqatsiz qirib tashlaganini arxiv materiallari orqali XX asrning 30-yillari ijtimoiy-siyosiy, adabiy hayotini tekshirgan odam aniq bilib oladi. Istiqloq yillarining sharofati bilan bor haqiqatni ro'y-rost aytishdan hayiqmaydigan davr keldi. Yozuvchilar ham o'tmishini taftish qila olish, kechmish-kechirmishlarini avlodlarga tarix o'laroq aytish imkoniga ega bo'ldilar. Said Ahmad, Shukrulloning bir qator asarlari fikrimizning dalili bo'la oladi. Shuningdek, Odil Yoqubovning

“Muzqaymoq hikoyasi” yozuvchining bolalik davrini to‘laqonli o‘rganishda asosiy manbadir.

“Muzqaymoq”dagi ota-o‘g‘il fojiasi aslida o‘sha davrning ko‘plab odamlarini chetlab o‘tmagan mudhish ko‘rgulik edi. Odil Yoqubov oilasida ota-o‘g‘il fojiasi (chunki bobosi Yoqub shayx bilan otasi Egamberdi Jaqubov bir oilada ikki jabhada turib qolgan edilar) keyinroq Odil Yoqubovning hayot yo‘lida ham ta‘sirini o‘tkazdi. Ya‘ni Maryam Yoqubova bilan turmush qurayotgan pallalarda ayni shu jihat ularning yo‘liga ancha g‘ov bo‘lganini xotirlaydi. Qiziq bir holat e‘tiborni tortadi: xalq dushmanining o‘g‘li sanalgan Odil Yoqubov va shu ma‘noda o‘zining qismatdoshi Chingiz Aytmatovning XX asrning 90-yillaridagi o‘zbek – qirg‘iz voqeasida hammani hayratda qoldirib, ikki millat o‘rtasidagi nifoqqa barham berishga uringanlari, xalq va millat oldidagi o‘g‘lonlik vazifalarini sidqidildan bajarganliklari ularning millat fidoisi ekanligini ko‘rsatish bilan barobar mudhish sovet tuzumi ularning oilasiga qo‘ygan tamg‘aning asossiz ekanligini yana bir bor isbotlab berdi.

“Muzqaymoq” hikoyasining maktab darsligidan o‘rin olishi bir tomondan, o‘tmish tariximizning qora kunlaridan o‘quvchi ibrat olishi lozimligini anglatsa, ikkinchi tomondan, yozuvchining shaxsiy hayotiga oid muhim jihatlarini anglash, sharoit va muhit insonning kamol topishiga to‘sqinlik qila olmasligi, inson hayotda o‘rin topishi uchun matonat va jasorat egasi bo‘lishi kerakligi haqidagi haqiqatlarni uqtiradi.

Albatta, darslik materiallari o‘quvchilarning yosh darajasiga moslab tuziladi, ya‘ni o‘quvchi asarni o‘qish davomida uni tushuna olishi kerak. Va albatta undan to‘g‘ri ma‘no chiqara ola bilishi lozim. “Muzqaymoq” hikoyasi adibning avtobiografik asari sifatida o‘qiladi va o‘rganiladi. Bu hikoya 6-sinf “Adabiyot” darsligida berilishi ham bolaning his-tuyg‘ulari ayni o‘zi tengi bolalarning tuyg‘ulariga hamohangligidir.

Hikoya sujetini o‘quvchilarga tushuntirishda bir necha usullarni qo‘llash mumkin. Bunda o‘qituvchi sinf o‘quvchilarining darsga tayyorgarlik darajasini e‘tiborga olishi lozim bo‘ladi. Masalan, “Fikrla, izla” usuli o‘quvchini fikrlashga majbur qiladigan faol metod hisoblanadi. Bunda o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Hikoya qahramonining otasi Egamberdi Jaqubov qamalmasligiga sabab toping.

- qidirib kelgan ikki kishi bo‘lmaganida qamalmas edi;
- bola yashirilgan narsani topib bermaganida qamalmas edi;
- qatag‘on davri o‘zi asli bo‘lmaganida qamalmas edi;
- taqdiriga shu narsa yozilmaganida qamalmas edi.

Yuqorida ko'rsatilgan sabablarning barchasi asosiga ega. O'quvchilar izlanish jarayonida hikoyaga qayta murojaat etadilar. Imkon qadar davrni ham anglab boradilar.

2. Bolaning pochchasi nima uchun o'zini panaga oldi?

- qo'lidagi bola yig'lab qolmasligi uchun;
- qaynotasini ko'rmaslik uchun;
- o'zini ham shu ahvolga solmasliklari uchun;
- agar uni ham qamashsa, oila boquvchisini yo'qotib qo'yishligi uchun.

Shu tariqa bolalar izlanishga, fikrlashga o'rgatib boriladi.

Qahramon uchun muhim bo'lgan belgilarni topishni ham alohida topshiriq qilib berish mumkin. Masalan:

Bola tasavvurida ota qanday inson edi?

- Ota badjahl inson edi.

Unga grafinni otib yuborganida onasi yig'lab yuborgan edi.

- Ota mehmondo'st odam edi.

Uyiga mehmon kelganida dasturxonlarni yaxshi bezatib kutib oldi.

Ota farzandini yaxshi ko'rar edi.

- Ota bolasiga muzqaymoq olib bera olmaganidan pushaymon bo'ldi.

Otasi kitoblarni qadrlar edi.

- Tomda yashirilgan kitoblarni bola har zamonda ochib ko'rar edi va hokazo.

Yuqoridagi kabi savol-topshiriqlar o'quvchini izlanishga, mustaqil fikrlashga yo'naltiradi. Qolaversa, hikoyani o'tishda, avvalo, o'qituvchi Odil Yoqubov hayoti va ijodini mukammal bilishi, "Muzqaymoq" hikoyasi aks etgan davrni to'laqonli idrok eta olishi muhimdir. Shunda darsda qo'llangan metodlar o'zining ijobiy samarasini beradi.

TA'LIMDA ONA TILI VA ADABIYOT O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Munisa Xolbekova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent Marg'uba Abdullayeva

Bugun ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratilgan bir paytda ta'limda duch kelinayotgan kamchiliklarga shunchaki ko'z yumib o'ta olmaymiz. Hammamizga ma'lumki, hozirda chet tillarni o'qitish va o'rgatish bizda ancha takomillashgan. Ammo mening diqqatimni tortgan jihat – ona tili va

adabiyotimizning maktablardagi o'qitilishi bo'ldi. Biz, 2-bosqich talabalari, 2019–2020-o'quv yilida haftada bir kun Toshkent shahridagi maktablarga amaliyotga boradigan bo'ldik. Chekimizga Shayxontohur tumanidagi 169-maktab tushdi. Bu kelajakdagi kasbimga ilk odim bo'lgani sababli hamma-hamma narsaga e'tiborli bo'ldim. Borishimiz bilan bitta ona tili va adabiyot o'qituvchisiga biriktirildik. Birinchi amaliyot kunimiz: ham hayajon, ham qo'rquv. Har ikkisi birdaniga hujumga o'tgandi menga. Maktabda kuzatishlar jarayonidagi ikki xil holat bilan sizni ham tanishtirmoqchi edim...

1-holat: Dars boshlandi. O'tgan safar "Asqad Muxtor hayoti va ijodi, she'rlar tahlili" mavzusi o'tilgan ekan. Darvoqe, ushbu dars – 8-sinfda Adabiyot. Asqad Muxtor – qalami o'tkir adib! Hozir "Men javob beray, ustoz!" degan shovqindan quloqlarim qomatga kelib ketsa kerak, deb xursand bo'lib ketdim. O'sha kungi holatni hozir yoza turib ham qayta his qilyapmanki, bunga siz ham achinib ketasiz: sinf yarim tunda bo'ladigan sokinlikdan-da tinch edi. Xuddi o'quvchilar xonani tark etgandek. Jimlikni esa faqat ustozning xo'mraygan yuzi va ingichka, yumshoq ovozdada: "Nega o'qimadinglar?" degan so'roqlari buzdi...

Tog'ri, XXI asr, ya'ni texnologiyalar asrida yashayapmiz. Ayni paytda ingliz tilidagi noto'g'ri fe'llar jadvalini oqizmay-tomizmay aytib berayotgan o'quvchi, nahotki, bizning ma'naviyatimiz devorlariga bitta g'isht qo'ygan adibning bir donagina she'rini yod bilmasa? O'tirgan joyimdan sapchib turib, aytib tashlagim keldi, ammo tishimni tishimga qo'yib bu zerikarli dars qachon tugashini poyladim. Darsdan keyin fan o'qituvchisi fikrlarimizni so'radi. Noiloj nim tabassum bilan "Bo'ladi..." deyishdan nariga o'tolmadik. Jon tilimiz va adabiyotimizning o'rganilishidagi bunday ojizlikka qanday chidash mumkin? Kim aybdor bunga: ustozlarmi yoki o'quvchilar? Jaloliddin Rumi hazratlari aytganlaridek: "Dengizga borib, undan faqatgina bir ko'za suv olmoq bilan qanoatlanish – achinarli. Dengizdan olish mumkin bo'lgan dur-javohirlar va boshqa qanchadan qancha narsalar bo'la turib, bir ko'zagina suv olishning nima qimmatini bor?!" Shunday ekan, bizning adabiyotimiz ulkan dengiz-ku, axir!..

2-holat: Shu maktabga ona tili va adabiyot fanidan "Mahorat darsi" o'tiladigan kun edi. Men ham bordim. "Mahorat darsi" men kutgandan yaxshi, ajoyib o'tdi. Har holda ancha ter to'kilgani bilindi. Vazirlikdan kelgan shu soha vakillarining bitta gapi menga juda ma'qul keldi. Ularning fikri: "Nega "Mahorat darsi"da fanga doir tarqatma materiallar juda kam? Nega mavzuni yoritishga ko'rgazmali qurollar yetishmayapti? Chet

tillarini joningizni berib o'qitasiz. O'z ona tili va adabiyotimizni o'rgatishga shuncha kuch topolmaymizmi? O'quvchilar bu ahvolda qanday qiziqsin, qanday bilsin o'z tili va adabiyotini?!" mazmunidagi achchiq bo'lsa-da, haqiqatlar edi...

Darhaqiqat, biz maktabda o'qib yurgan kezlarda ham mavzu oxirida keltirilgan savollarning javobini ko'r-ko'rona ko'chirib qo'yishdan zerikib ketar edik. Afsuski, maktablardagi bu vaziyat hali hamon o'zgarmayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Endi bunga boshqacha qarash, darslik bilan cheklanib qolmaslik fursati yetmadimikin? Har sinfning yosh darajasiga qarab unga yangicha usulda kitob, o'quv va metodik qo'llanmalar ishlab chiqish lozim. O'quvchilar bundan buyog'iga kimningdir zug'umi ostida savollarga javob yozishdan chekinib, o'z xohish-istagi va qiziqishi bilan bajaradigan vazifalarni tavsiya qilsak, ayni muddao bo'lmaydimi?

Shu muammolar yechimi yuzasidan bitta o'quv qo'llanma tayyorlashni niyat qildik. Qo'llanma, asosan savol va topshiriqlar, ya'ni vazifalardan tarkib topadi. Vazifalar esa shunday ketma-ketlikda joylashtiriladi:

1. Adib portreti (surati) keltiriladi. Bu o'rinda muallif haqida ma'lumotlar so'raladi.


2. Mavzu hajmidan kelib chiqib, kamida 5-6 ta har xil qiziqarli savollar, o'yinlar, boshqotirmalar, bir-birini takrorlamaydigan topshiriqlar beriladi. Masalan, bu jarayonni 5-sinf Adabiyot darsligidagi "Asqar Muxtor hayoti va ijodi" mavzusi misolida ko'rib chiqamiz:




1-topshiriq. *Asqad Muxtor haqida bilib olganlaringizni yozing.*

2-topshiriq. *Asqad Muxtorning ushbu asarlari qaysi janrda? Javobni chaqmoq ichiga yozing.*

*"Po'lat quyuvchi",
"Hamshaharlarim", "Rahmat,
mehrbonlarim", "Sizga aytar
so'zim"...*



3-topshiriq. *Qissalarini ayting.*



1.
2.
3.

4-topshiriq. *Ushbu asarlar qaysi janrdaligini bilasizmi? Unda yozing.*

* “Opa-singillar”

* “Amu”


* “Chinor”

* “Tug‘ilish”

* “Davr mening taqdirimda”



5-topshiriq. *Asqad Muxtor pyesalarini ayting.*



6-topshiriq. *Adibning hikoya to‘plamlarini sanang.*

7-topshiriq. *Asqad Muxtor qo‘lga kiritgan mukofotlarni yozing.*

O‘rganish uchun berilgan asarlar yuzasidan ham bu kabi topshiriqlar tayyorlanib taqdim qilinadi. Ushbu amaliy topshiriqlarning ahamiyati esa quyidagilardan iborat:

birinchidan, an’anaviylikdan qochish orqali, bolani darsga qiziqtiradi;

ikkinchidan, mavzu haqida hech qanday tushunchasi bo‘lmagan o‘quvchini ham ko‘p hollarda o‘zi mustaqil o‘rganishga undaydi;

uchinchidan, turli xil ko‘rinish va shakllar o‘quvchini zerikmasdan topshiriqlarni bajarishga yo‘naltiradi;

to‘rtinchidan, bunda vazifalarni tushuntirib o‘tiradigan ustozga hojat yo‘q, juda sodda tushuntirilgan.

beshinchidan, o‘quvchi diqqatini oshiradi, o‘z ustida ishlashga majbur qiladi.

oltinchidan, topshiriqlarni bajarish jarayonida fikrlashga, ijodiy ishlashga o‘rganadi.

yettinchidan, o‘quvchi topshiriqlar yakunida o‘zi sezmagan holda mavzu haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, adabiyot o‘qitishda an’anaviylikdan zamonaviylikka tomon borish, o‘quvchining mustaqil o‘rganishi uchun amaliy topshiriqlarni turli mazmun va shaklda ishlab chiqish maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz.

O‘ZBEK TILINI CHET ELLIKLARGA O‘RGATISH BO‘YICHA ONLAYN PLATFORMA YARATISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Nilufar Isroilova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU talabasi

Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi Oydin Ametova

Onlayn o‘qitish platformasi deganda, foydalanuvchilarga raqamli ma’lumot ulashish tushuniladi. Onlayn ta’limdan struktur tomonidan o‘rganuvchilarga video, rasm, matn va audio kabi turli xil shakldagi bilim beriladi. Onlayn o‘qitish *Learning Managament System (LMS)*, ya’ni “Ta’limning boshqaruv tizimi” tarkibiga kiradi. Onlayn ta’lim *virtual ta’lim, internetga asoslangan ta’lim, kompyuter yordamidagi ta’lim* deb ham ataladi. Onlayn ta’limga Desmond Kigan quyidagicha ta’rif bergan:

yuzma-yuz ta’limdan farqli ravishda, o‘qituvchi va o‘rganuvchining bir-biridan mustaqil faoliyatini ta’minlaydi;

ma’lum ilmiy kontentni kompyuter tarmog‘i yordamida ulashish imkonini beradi [1].

Onlayn o‘qitishni tashkil etishda eng samarali ikki model qo‘llaniladi. Ulardan biri *Boshqotirma* (Jigsaw) va *To‘rsimon* (Hub) modellardir [1].

Onlayn kontent yaratishning asosiy tushunchalari, metod, usul va vositalari haqida dunyo miqyosida ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan, shuning uchun bunga bag‘ishlangan manbalarni topish qiyin emas. Aynan o‘zbek

tilini o‘qitish masalasiga yondashsak, quyida o‘zbek tilini onlayn o‘qitish talabi, muammolari va yechimlari haqida so‘z yuritamiz.

O‘zbekchani onlayn o‘qitish talabi

O‘zbek tilini chet elliklarga o‘qitishga mo‘ljallangan kitob holatidagi bir necha darsliklar yaratilgan va yaratilmoqda. Bu muammo alohida masala bo‘lib, biz faqat onlayn kontent haqida fikr yuritamiz. Bugungi kunda, texnologiya va internet tarmog‘ining keng yoyilishi natijasida onlayn bilim oluvchilar soni tobora ko‘payib bormoqda. Onlayn ta‘limning mazmuni cheksiz, tushunarli va ko‘pincha, ishonchli bo‘ladi. O‘zbek tilidagi onlayn ta‘limning bugungi holati bilan tanishamiz:

Tiliga ko‘ra: Ingliz tilidagi va o‘zbek tilidagi

Tuzilishiga ko‘ra: matn va video ko‘rinishidagi:

Matn ko‘rinishidagi:

<http://uzbek-glossary.com/>

<http://polymath.org/uzbek.php>

https://www.orexca.com/uzbekistan/uzbek_language.htm

<http://www.uzbek-dictionary.com/> (kontent yo‘q)

<http://www.ismanov.com/> (kontent yo‘q)

Video ko‘rinishidagi mazmun quyidagi turlarga bo‘linadi:

✓ O‘zbek tili haqida umumiy ma‘lumot beruvchi:

<https://www.youtube.com/watch?v=RNQRWeSWk3I&feature=youtu.be>

be

✓ Fonetikaga bag‘ishlangan:

<https://www.youtube.com/watch?v=x--jEYygkas&feature=youtu.be>

✓ Lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan:

[https://www.youtube.com/channel/UC0Jy9r3lBg2ldliL6mAIpFQ/feat](https://www.youtube.com/channel/UC0Jy9r3lBg2ldliL6mAIpFQ/featured)

ured (Aman)

<https://www.youtube.com/channel/UC0Jy9r3lBg2ldliL6mAIpFQ/ved>

os

✓ Grammatikani o‘rgatadigan:

<https://youtu.be/USlucVmBGOk>

Muammolar:

To‘g‘ri talaffuz

Grammatika (morfologiya va sintaksis)

Lug‘at

Madaniyatni o‘rgatish

Bilimlarni sinash.

Eng katta muammo shundaki, chet elliklarga o‘zbek tilini o‘qitishga mo‘ljallangan hozirgacha yaratilgan onlayn mazmunning deyarli 50 foizi boshqa millat vakillari tomonidan ishlab chiqilgan.

Yechim:

Fonetika. Har bir tilning deyarli boshqa barcha tillardan farqlanuvchi alohida talaffuz tizimi mavjud. Ayni bir belgi turli tillarda turlicha, so‘zning har xil qismida o‘zgacha talaffuz qilinadi. O‘zbek tili alifbosi lotin alifbosiga asoslangan bo‘lsa-da, tovushlar lotin alifbosidan foydalanuvchi boshqa tillardagidan anchayin farqli. Ba‘zi tadqiqotchilar tilni grammatikadan boshlash kerak, degan fikrni ilgari surishadi. Bizning fikrimizcha, agar tilni o‘rganishning boshlang‘ich bosqichida to‘g‘ri talaffuz me‘yorlari o‘rgatilmasa, grammatik qoidalar to‘liq o‘rganilgandan keyin ham, talaffuzni qayta tuzatish anchayin qiyin, ba‘zan imkonsiz. Shu sababdan, o‘zbek tilini o‘rgatishni fonetikadan boshlash kerak va bunda avval chet elliklar uchun talaffuz qoidalari o‘rgatilishi, undan keyingi bosqichda o‘zbeklar tomonidan talaffuz qilinishi qiyin so‘zlar o‘rgatilishi kerak. Bu o‘rganuvchilarning haqiqiy til muhitiga integratsiyasini tezlashtiradi.

- Chet elliklar uchun muammo tug‘diradigan o‘zbek fonologiyasi xususiyatlarini o‘rgatish: <https://youtu.be/C6WqhKZ0nuo>;

- Til egalari (o‘zbeklar) duch keladigan fonetik muammolar bilan tanishtirish: <https://youtu.be/x4T96RReg4c>

Grammatika. Ma‘lum bir reja ishlab chiqilib uslub tanlab olinsa, grammatik qoidalarni onlayn darslar orqali o‘rgatish qiyin emas. Izohlar o‘zbek yoki ingliz tilida berilishidan qat‘i nazar, istalgan mavzuni aniq tushuntirish mumkin.

Lug‘at. Videoda lug‘atni faqat izoh yoki animatsiya yordamida tushuntirish mumkin. Izoh uslubida o‘qituvchi ma‘lum bir so‘zni aytadi va uning nimaligini tushuntirib beradi. Animatsiya yordamidagi izoh usulida izohlanayotgan so‘zning tasviri ko‘rsatiladi va o‘qituvchi uni orqa fondan tushuntiradi. Umuman olganda, video ko‘rinishidagi lug‘at o‘rgatishda audio, albatta, bo‘ladi. Matn ko‘rinishidagi lug‘at onlayn bo‘lsa, audiosi bo‘ladi, oflayn faylda audio bo‘lmaydi.

Izohlab lug‘at o‘rgatish:

<https://www.youtube.com/watch?v=nuMIRI8Ypi4&feature=youtu.be>

Animatsiya yordamidagi lug‘at o‘rgatish:

<https://youtu.be/rVk6dTmAWvc>

Audiosiz matn ko‘rinishidagi lug‘at: <https://ieltsliz.com/crime-and-punishment-vocabulary/>

Audioli matn ko‘rinishidagi lug‘at:

<https://www.english-at-home.com/vocabulary/english-words-for-crime-and-punishment/>

Madaniyatni o‘rgatish: O‘zbekiston bo‘ylab turli hududlarga borib, ma‘lum bir mavzuga yo‘naltirilgan lug‘atni o‘rgatish, o‘zbek tilida eshitish ko‘nikmasini shakllantirish, yaxshilash, madaniy xususiyatlardan xabardor qilish nazarda tutiladi. Bunda taqdim qilinayotgan ma‘lumot qayerda, qachon va qay yo‘sinda berilishi katta ahamiyatga ega. Rus tilidagi madaniyatga oid videoga misol: <https://www.russianfromrussia.com/learn-russian-ded-moroz/>

Bilimlarni sinash: Uzoq muddatdan beri foydalanuvchilari soni ko‘payib borayotgan muvaffaqiyatli onlayn platformalarda shunday bir usul bor. Darsni o‘rgatish jarayonida o‘qituvchi mavzuga oid qandaydir gap yoki misol keltiradi va shu narsa bo‘yicha o‘rganuvchilar o‘z fikrini izoh qilib qoldirishlarini so‘raydi. Bu juda oddiy savol bo‘lishi ham mumkin. Deylik: “Mening yoshim 21 da. Sizniki-chi? Yoshingizni izohda qoldirishingiz mumkin”. O‘rganuvchilarga bu bosqichgacha sonlar albatta o‘rgatilgan bo‘ladi va ular o‘zlarining yoshlarini o‘rgangan bilimlari asosida to‘g‘ri yozib izoh qoldirishadi. Ba‘zi holatlarda murakkabroq savolga javob topish musobaqasi o‘tkazib, dunyoning istalgan nuqtasidagi g‘olib(lar)ga qandaydir esdalik sovg‘asi jo‘natish mumkin.

Bilimlarni sinash uchun alohida dars tayyorlanishiga kelsak, o‘quvchilarning bilim darajasini inobatga olgan holda, quyidagicha platforma yaratish mumkin: <https://youtu.be/XIT4qJdWeiU>

Umuman olganda, istalgan turdagi onlayn ta‘limda quyidagilar inobatga olinishi zarur:

Mazmun. Mazmun o‘ta sayoz yoki o‘ta murakkab bo‘lmasligi kerak. Onlayn kontent har doim ochiq bo‘ladi va uni istagancha takroran ko‘rish mumkin. Shuning uchun mazmuni qadamma-qadam kengaytirib borish zarar qilmaydi.

Vaqt. Ma‘lumot matn, audio yoki video holatda berilganda ham, bir sonda beriladigan ma‘lumotni bir marta o‘qish, eshitish yoki ko‘rish uchun uzog‘i bilan 20 daqiqadan ko‘p vaqt ketmasligi kerak [2]. O‘rtacha davomiyligi 6-9 daqiqalik videolar ayni muddao, deydi Mayerva Moreno [3].

Tashqi ko‘rinish: Ma‘lumotning har xil dunyoqarash, yosh va kasbdagi insonlarga mos kelishi uchun optimal dizayn yaratish muammosi onlayn platforma tuzish muammolaridan biridir. Mazmuni nisbatan boy bo‘lsa-da, kontentga umuman mos bo‘lmagan dizayn ta‘limning

muvaffaqiyatsiz tugashiga olib kelishi mumkin. <https://youtu.be/FJbxe F-6U4>

O‘ziga xos yondashuv: Turli tillardagi o‘qitish platformalarini o‘rgatish jarayonida ularning dunyoqarashiga mos alohida bir uslubni his qilish mumkin. Ularning tashqi ko‘rinishi yoki o‘qituvchilarning kiyinish uslubida sezilarli farq bo‘lmasa-da, har bir platformaning o‘ziga xos alohida belgisi mavjud.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘zbek tilini o‘rgatishga katta talab qo‘yilayotgan bir vaqtda, kitob shaklidagi manbalar bilan birgalikda onlayn ta‘limni ham iloji boricha tez fursatda ishga tushirish kerak. Bunda til mutaxassislari birgalikda yuqoridagi kamchiliklar va muammolarni hisobga olgan holda, amaliy ishga o‘tishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mayer, R. E., & Moreno, R. (2003). Nine ways to reduce cognitive load in multimedia learning. *Educational Psychologist*, 38(1), 43–52.
2. Paulsen, F. Morten, *Online Education. Global learning from a Scandinavian Perspective*. (NKI Forlaget. Norway, 2003), 25-28
3. <https://www.learndash.com/how-long-should-videos-be-for-e-learning/>

KO‘CHIRMA GAP VA IQTIBOSNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Farangiz Umidova, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi Jumanazar Abdullayev

Har qanday fanda aslida boshqa-boshqa, ammo bir-biriga juda yaqin, o‘zaro o‘xshash, hatto bir qarashda bir xildek tuyuladigan hodisalarni qiyoslab o‘rganish ularning har birining o‘ziga xos tomonlarini aniqlash va farqlash, shu asosda ularning mohiyati, asl ma’no-vazifasini belgilashda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli o‘xshash hodisalarni aniqlash va qiyoslab o‘rganish har bir fanda, ayniqsa, adabiyotshunoslik va tilshunoslikdek biri ikkinchisiga tayanuvchi fanlar tadqiqi va taraqqiyotida o‘ziga xos ahamiyatga ega dolzarb masala hisoblanadi. O‘zaro o‘xshash hodisalar esa tilshunoslikda ham, adabiyotshunoslikda ham ko‘plab topiladi. So‘z birikmasi va so‘z qo‘shilmasi, qo‘shma so‘z, turg‘un birikma, yoyiq nominativ gap; sifatlovchi aniqlovchi va epitet, sifatlash; qiyosiy sodda gap va o‘xshatish; metafora va majoz kabilar shular

jumlasidandir. Ana shunday hodisalardan yana biri biz fikr yuritmoqchi bo‘lganimiz *ko‘chirma gap* va *iqtibosdir*.

O‘zbek tilshunosligida ko‘chirma gap bir necha tadqiqotchilar tomonidan alohida tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarning barchasida ko‘chirma gaplar qo‘shma gapning o‘ziga xos bir tipi: o‘zga gapli qurilmalarning ichki bir turi – ko‘chirma gapli qo‘shma gapning asosiy tashkil etuvchisi sifatida talqin qilingan. Haqiqatan, ushbu termin alohida olingan mustaqil holatdagi bir gap turiga nisbatan emas, balki butunning qismi maqomidagi gapga nisbatan qo‘llangandagina o‘zini oqlaydi va biz ham ushbu termini shu ma’noda qo‘llaganmiz. Shu nuqtayi nazardan olganda, ko‘chirma gap o‘zga gapli qurilmalari tarkibidagi “o‘zgalarning mazmun va grammatik jihatdan hech bir o‘zgarishsiz, aynan keltirilgan gapi” tushunchasi ostida qaraluvchi gap ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Bunda so‘zlovchining maqsadi o‘zganing nutqini boshqa bir shaxsga shakli va mazmunini to‘la saqlangan holda yetkazish bo‘lib, unda o‘zganing nutqidagi uslub, ohang, nutq obyektiga bo‘lgan munosabati to‘liq namoyon bo‘ladi. Barcha tilshunoslar ko‘chirma gaplarga deyarli bir xil ta’rif beradilar. Xususan, fransuz tilshunosi Maruzo o‘z lug‘atida bu hodisaga “birov tomonidan aytilgan jumlaning original shaklini saqlagan holda tiklash” [1] tarzida ta’rif bergan. Ko‘chirma gap va muallif gapi bugun kashf etilgan hodisalar emas. Akademik G‘. Abdurahmonovning qayd etishicha: “Ko‘chirma gap konstruksiyasi qadimdan qo‘llanilib kelinadi. To‘nyuquq yodnomasida bunday konstruksiyalar 30 foizni tashkil etadi” [2].

“Ko‘chirma gap” va adabiyotshunoslikdagi “iqtibos” san’ati o‘zaro o‘xshash, aloqador hodisalardir. Har ikkisi ham mohiyat e’tibori bilan o‘zganing gapi, boshqalarga tegishli fikr-mulohazaning ko‘chirmasi yoki asl nusxadan yozib, ko‘chirib olingan nusxa, asl nusxaga har tomonlama mos, u bilan bir xil, uning aynan ko‘chirmasiga ega.

Aslida, iqtibos so‘zi arabcha “ziyo olmoq” ma’nosini anglatib, biror asardan so‘zma-so‘z olingan parchaga nisbatan ishlatiladi. Ko‘chirma gap ham biror asar yoki tadqiqotdan xuddi shu tarzda olingan bo‘lishi mumkin. Bu ma’noda adabiyotdagi iqtibos sintaktik jihatdan ko‘chirma gapning o‘ziga xos bir turi. Ular o‘rtasida jins-tur munosabati bor. Ammo iqtibosning badiiy asar bilan bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud. Iqtibos bayon qilinayotgan fikrga qo‘himcha asos, isbot keltirish, muayyan g‘oyani qo‘llash yoki tanqid qilish uchun muhim faktik material sifatida qo‘llaniladi.

Iqtibos va ko‘chirma gaplarning belgi-xususiyatlarini qiyosan tahlil qilganimizda quyidagilarga guvoh bo‘ldik:

1) iqtiboslar ham, ko‘chirma gaplar ham ilmiy va badiiy adabiyotda keng qo‘llaniladi, biroq ularning biri sintaktik birliklardan birining – ko‘chirma gapli qo‘shma gapning muallif gapidan boshqa qismiga – o‘zganing gapiga nisbatan ishlatiladigan termin – tushuncha, demak, sintaktik hodisa, birlik, sintaksisga tegishli tushuncha va ular muallif gapi bilan birga ishlatiladi; iqtibos badiiy adabiyotda so‘z san’atining bir turi sifatida qaraladi va uning badiiy asar bilan belgilanadigan uslubiy, ekspressiv, janr xususiyatlari mavjud.

2) ko‘chirma gaplar ilmiy, so‘zlashuv uslubida, iqtiboslar esa ko‘proq badiiy, rasmiy nutq uslublarida keng qo‘llanadi;

3) ko‘chirma gaplar har qanday boshqa bir shaxsning muallif gapiga ilova tarzida keltiriladigan, undagi nutq fe‘llarining obyekt valentligini to‘ldiruvchi sintaktik birlik; ular o‘zgalarning muallif gapidan oldin, keyin, o‘rtasida yoki ikki yonida, biroq doim muallif gapi bilan birga aynan keltirilgan fikrining ifodasi, ammo iqtiboslar bu jihatdan mashhur kishilarning nutqi, aynan bir fikri, muloha-zalarini aks ettirishi lozim; so‘z-gaplar, noto‘liq gaplar, shu jumladan, undalmalar iqtibos sifatida keltirilmaydi;

4) ko‘chirma gaplar esa tuzilishiga ko‘ra bir so‘zdan tortib, butun bir jumla, hatto oddiygina undov so‘zdan ham iborat bo‘lishi mumkin. Masalan, Sayramov cholni ikki qo‘li bilan yengil, lekin samimiy ravishda sekin quchoqlab: “Ota”, –dedi. (Oybek) Ilmiy matndagi iqtiboslarda esa ma’lum fikr, xulosa aniq bayon etilgan bo‘lishi shart. Va u, albatta, matn tarkibida (boshida, ichida, oxirida) kelib, aynan bir uslubiy maqsad ifodalash uchun qo‘llaniladi. Masalan, adabiyotshunos Umarali Normatovning “Istiqlol qayg‘usi” nomli tadqiqotida Abdulla Qodiriy asarlari haqida bildirilgan fikrdan iqtibos keltirilgan: Men Qodiriy, aniqrog‘i, uning tarixiy romanlari xususida faqat birgina odam, iste’dodli va insofli adib Maqsud Shayxzodaning dil so‘zlaridan parcha keltirish bilan cheklanaman: “Abdulla Qodiriy, – deydi u, – o‘ziga yaqin qardosh xalqlar adabiyotlari, xususan, ozarbayjon, tatar, rus adabiyotlari tajribalaridan foydalanib, birinchi o‘zbek romani – Yevropa adabiyoti mezonlari bilan o‘lchanadigan roman yaratdi...” [3].

Badiiy matnlardagi iqtibos manbasi yashiriladi yoki ishora bilan ifodalanadi. Bu badiiy tasvir usulidir. Yozuvchi Murod Muhammad Do‘stning “Lolazor” [4] romanida bosh qahramon nutqida Alisher Navoiyning mashhur “Bu gulshan ichra yo‘qdir baqo guliga sabot, Ajab

saodat erur, chiqsa yaxshilik bila ot” bayti keltirilgan. Ammo uning muallifi keltirilmagan. Bunda g‘oyaviy-badiiy maqsad mujassamlashgan. Shoir o‘zi aytmoqchi bo‘lgan fikrini poetik asoslashga, uning ta’sir kuchini oshirishga erishgan. Qayd etish jozki, bunday iqtiboslar ko‘pincha muallifsiz ishlatiladi. Bunda badiiy san’atdan, mazmundan tashqari bo‘lgan mantiqiy asos ham bor. Bunday iqtiboslar muallifsiz mualliflidir. Quyoshning charaqlab turgani kunduzni anglatganidek, bunday iqtiboslar hamma vaqt o‘z mualliflari bilan birga anglashiladi. Ularning mualliflari iqtibos bilan assotsiativ bog‘liq. Albatta, ular hamma o‘rinlarda ham muallifsiz ishlatilavermaydi. Bunda badiiy asar janri, yozuvchi yoki shoirning badiiy niyati, nutqiy vaziyat kabi omillarga qaraladi. Biroq ilmiy matnlarda iqtibosning manbasi yoki muallifi aniq ko‘rsatilgan bo‘ladi. Bu jihatlar iqtibos va ko‘chirma gap o‘rtasidagi ma’noviy-vazifaviy, uslubiy farqlarni ko‘rsatadi. Ammo e’tibor bersak, yuqoridagi ilmiy maqolada Umarali Normatov tomonidan keltirilgan iqtibos sintaktik nuqtayi nazardan tahlil qilinsa, uning ko‘chirma gapli qo‘shma gapning o‘zgaga tegishli gap qismi ekanligi oydinlashadi. Demak, u adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan iqtibos deyilsa, sintaksis nuqtayi nazaridan ko‘chirma gap hisoblanadi. Shu sababli til birliklari, ayniqsa, sintaktik birliklar nihoyatda serqirra mohiyatli hodisalardir. Biz bunga yuqorida ko‘chirma gap va iqtibos tahlili misolida guvoh bo‘ldik. Ular juda o‘xshash, ayni paytda o‘ziga xos farqli tomonlarga ham ega. Aytilmoqchi bo‘lgan fikr, g‘oyaning emotsional-ekspressiv ta’sir kuchini oshiruvchi mashhur kishilarning fikri ko‘chirma gap shaklida ilmiy yoki badiiy asarda iqtibos sifatida keltirilishi fikrimizning yaqqol isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maruzo J. Slovar lingvisticeskix terminov. – M., 1960.
2. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T., 1973.
3. Normatov U. Istiqlol qayg‘usi. –T., 2000.
4. Do‘st M. M. Lolazor. –T., 1988.

TILDAGI IFODA IMKONIYATLARINI YORITISHDA METAFORANING O‘RNI

Nilufar Hamzayeva, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d., professor Laylo Raupova

Tilning mo‘jizaviy qudrati metaforada yaqqol namoyon bo‘ladi. Metaforada tilning tejamkorlik xususiyati ham, ifodaviylik kuchi ham, ta‘sir qudrati ham, akkumulyativ imkoniyati ham, tasniflash vazifasi ham, borliqni yaxlit namoyon qilish, undagi uzviylik va uzluksizlikni ko‘rsatish ko‘lami ham aql bovar qilmas darajada yuzaga chiqadi. Unda til sohiblarining o‘tmishi va buguni, dunyoqarashi, saviyasi, madaniy va axloqiy darajasi, etnik va diniy qadriyatlari, turmush tarzi, taraqqiyoti va tanazzuli, urf-odatlar va ma‘naviy tutumlari ifoda etiladi. Umuman olganda, metafora xalqning o‘tmishi va bugunining kodlashgan ko‘rinishidir.

Metafora – til qadar qadimiydir. Uni ilmiy o‘rganish tilshunoslikka doir ilk tasavvurlardan boshlangan. Til ifoda imkoniyatlarini o‘rganuvchi semiotikaning alohida tarkibiy qismi, til va madaniyat mushtarakligini tadqiq qiluvchi lingvokulturologiyaning asosiy muammolaridan, til va bilim yaxlitligini tekshiruvchi markaziy masalalaridan, til va etnik tafakkur, madaniyatni o‘rganadigan etnolingvistikaning muhim predmetlaridan biri sifatida, notiqlik va nutq madaniyati, badiiy so‘z san‘ati va poetikaning bosh mavzularidan biri – metaforadir. Metafora shunday serqirra hodisaki, uni bugungi kunda ko‘plab yondosh fanlar tadqiq obyektiga aylantirganlar. Unga goh ifoda vositasi, goh ta‘sir quroli, goh madaniy fenomen, goh shaxsiy sifat namoyandasi, goh axloq ko‘rsatkichi, goh go‘zallik libosi sifatida tilshunoslik, notiqlik va neyrolingvistika, madaniyatshunoslik, etika, estetika, psixologiya fanlari munosabatda bo‘ladilar.

Kompyuter lingvistikasi va zamonaviy tarjima texnologiyalarida ham, tilni algoritmlash amaliyotida ham metaforik hodisalar anchayin dolzarb muammo sifatida yoritiladi. Ko‘p vaqtlar davomida tilning faqat aloqa-aralashuv vositasi sifatidagi vazifasi uqtirib kelindi. Tilning mo‘jizaviy qudrati mujassamlashgan akkumulyativ vazifasi, bunyodkorlik qudrati, imkoniyati uning metaforik tizimida ro‘y-rost namoyon bo‘ladi. Metafora hodisasini ta‘riflar ekanmiz, uni tilshunoslar qadimdan o‘rganib kelganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Aynan, metafora hodisasini o‘rganish ikki ming yildan ortiq vaqtdan buyon filologiya ilmida tadqiq

etib kelinayotgan bo'lsa-da, u, asosan, badiiyat, stilistika, ritorika doirasidan tashqariga chiqarilmadi. Antik davr faylasuflari metaforani, asosan, nutqning bezagi, nutqiy ko'chim, badiiylik vositasi sifatida talqin etib kelganlar.

Keyinchalik XX asrga kelib, ayniqsa, kognitiv tilshunoslikning shakllanishi bilan metaforaga qarash butunlay o'zgardi. Metaforaning mavjudlik maydoni kengayib bordi. Metafora haqida Aristotel "Poetika" asarida, ma'lum bir fikrlarni keltirgan bo'lsa, nemis olimi F. Nishshi bilishning mohiyati metaforik ekanligini ham ta'kidlagan. Taniqli ispan adibi va faylasufi Xose Ortega-i-Gassetning "Ikki buyuk metafora" nomli maqolasida metaforani "tafakkurning zaruriy quroli, ilmiy fikrning shakli", deb aytgan edi. Aynan shu maqolada metaforaning ikki turi haqida so'z yuritilgan, birinchi turi yangi tushunchani nomlashga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Uning fikricha metaforaning mazkur turi xalqqa tushunarli bo'lishi uchun yangi so'z tanlamasdan mavjud so'zga yangi ma'no yuklanadi, ikkinchi turining mohiyati esa abstrakt psixik holatlarni konkret ma'noli so'zlar orqali metaforik nomlashdan iboratdir. Masalan, qalbning tubi va idishning tubi: bunda qalbning tubi mavhum tushuncha, idishning tubi esa hamma uchun ma'lum bo'lgan tushunchani ifodalaydi degan fikrlarni ilgari surgan. Bugungi o'zbek tilshunosligida ham metaforaga oid ko'plab tadqiqotlar qilingan va keng miqyosda o'rganilmoqda. Metafora borliqni bilish, tilda aks ettirish, nomlash va tasniflashning, nutqni ta'sirchan bayon etish, unga bo'yoqdorlik baxsh etishning asosiy usullaridan biridir. Metafora nutqning ta'sirchanligi va bunyodkorligi vazifasiga muvofiq ravishda antik dunyoda ritorikada vujudga kelib, insoniyat intellektual olamining barcha sohalarini ham zabt etgan. Tilning qudrati metaforada mujassamlashgan. Eng kuchli tasvir vositalari ham metaforaga tayanadi. Muloqot tizimida vujudga kelgan metaforada muloqotning o'zida bo'lgani kabi qator omillar ishtirok etadi:

- o'xshatiluvchi va o'xshovchi obyektlar;
- so'zlovchi va tinglovchi shaxs;
- muloqot vaziyati;
- muloqot muhiti;
- muloqot intensiyasi;
- zamon;
- makon.

Muloqotda so'zlovchi shaxsning intellektual sifati muhim rol o'ynaydi. O'z aqliy salohiyati natijasi o'laroq, u bir turdagi narsa va hodisalar bilan ikkinchi bir turdagi narsa va hodisalar orasidagi

mutanosiblik va o'xshashlikni ko'radi. Ular orasidagi sifatiy monandlikni topadi. Bugungi metaforik ifodalar ming yillik ildizlardan oziq olmoqda. Bundan ikki ming olti yuz yillar avval bitilgan misralarda tilning azaliy va abadiy boyligi bo'lgan metaforik ifodalarni uchratamiz. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" va Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit-turk" asarlaridagi badiiy parchalarda bunday ifodalarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Ahmad Yassaviy hikmatlarida sinuq so'zining metaforik ma'nosiga irfoniy ohang, ma'rifiy qudrat baxsh etilgan:

Haqiqatning daryosidan kechgan kishi,
O'zi munglik, ko'ngli sinuq, ko'zda yoshi,
Xorlik, zorlik, mashaqqatdir doim ishi,
Haq diydorin talab qilib topar, do'stlar.

Do'stlar so'zi esa tariqatdosh, maslakdosh, dindosh birodarlarning ko'chma ifodasi. Qalbi, ruhi vobasta, maqsadi yagona, yuraklari tutash mo'minlarning metaforik nomi. Ma'lumki, Muhammad Xo'jabek Sirdaryo bo'yidagi Sig'noq bekligida hukmronlik qilgan. U 1353-yilda o'z zamonasining mashhur so'z ustalaridan bo'lgan Xorazmiyga "Muhabbatnoma" dostonini buyurtma asosida yozdirgan. Xorazmiy uni doston ibtidosida bu ishi uchun maqtovlar bilan siylaydi:

Tun aqshomkim, ko'rundi bayram oyi,
Muhammad Xo'jabek – davlat humoyi.
Qabul qildim, yer o'pdim, aydim, ey shoh!
Eshiging tuprog'i davlatli dargoh.

Muhammad Xo'jabek baxt-iqbol, farovonlik, to'kin-sochinlik, to'qchilik ramzi – humoy! Uning ostonasi tuproqlari esa boylik belgisi. Ko'rinadiki, metaforasiz til jonsiz va o'lik, sovuq va rutubatli, tund va hissizdir. Til – gulzor, metafora – gul. Bugungi kunda lug'atlar so'zlarning barcha metaforik ma'nolarini qayd qilishga ojiz. Bir so'z bir kunda o'nlab metaforik imkoniyatlarini ishga soladi. Ularni to'plash, hosil bo'lish, qo'llanish, qabul qilinish mexanizmlarini tushuntirish, sharhlash, nutq va muloqot uchun tegishli tavsiyalar ishlab chiqish katta amaliy ahamiyatga ega. Metafora ayni paytda o'zining xususiyatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi, bunda birinchisi lisoniy metafora, ikkinchisi badiiy metaforadir. Badiiy metaforani har bir asar yoki she'rda har qadamda uchratishimiz mumkin va aksariyat badiiy asarlarni metaforasiz tasavvur ham qilolmaymiz. Ayni paytda metafora nutqimiz va kundalik turmushimizga shu qadar kirib kelganki, o'zimiz bilmagan holda metaforalardan foyalanamiz. Nutqimizda mustahkam o'rnashib olgan metaforalar ham bor. Metafora dunyoni bilish vositasidir. Kognitiv tilshunoslikda lisoniy

va kognitiv metaforalar farqlanadi. Kognitiv metaforalar noma'lum tushunchaning mohiyatini shu tushuncha bilan qaysidir jihati o'xshash bo'lgan tushuncha orqali ifodalashi mumkin. Masalan, xalq orasida umrni suvga, daryoga, charxga, charxpalakka o'xshatish mavjud:

Umr – charxpalak,
Yashamoq kerak.
Yo'qotmoq asli,
Topmoqdan darak...

Kognitiv metaforaga asoslangan bunday so'zlarni shevalarda ko'plab uchratishimiz mumkin. Metaforaning sheva vakillari nutqidagi faolligi xususida tilshunos olim F. Musayeva ham qayd etgan. Dialektal shevalarda qo'llangan metaforalar shu sheva vakillarining tasavvurlari, qarashlari bilan bog'liq. Ayni paytda dialektal yasalmalar ham metaforik fikrlar asosida yuzaga keladi. Masalan, barrapiyoz, barrao't so'zlari bahorda yangi chiqqan maysaga nisbatan aytiladi. Bunda barra so'zi bir yasharlik qo'yga nisbatan qo'llaniladi, uning terisi mayin va yaltiroq bo'ladi. Yangi maysa ham mayin va yaltiroq bo'ladi, shu sababli yuqoridagi so'zlar qo'llanadi. Oqboosh yovvoyi yalpizning bir turidir. Iste'mol qilish mumkin bo'lgan bu o'simlik bahorda unib, yozda oppoq bo'lib gullaydi, shu gullagan holatiga nisbatan oqboosh metaforasi qo'llaniladi yoki yaqin kishisi vafot etgan qizlar oq ro'mol o'rab yuradi, shu ma'noda oqboosh metaforasi azador ayolga nisbatan qo'llaniladi. Eshakqurti hasharot nomi bo'lib, zararkunanda hasharotlar sirasiga kiradi. Tashqi ko'rinish va rang jihatidan eshakka o'xshaydi. Shuning uchun eshakqurti metaforasi qo'llangan. Qorajanjal – Charos deb nomlangan uzumning Shofirkon shevasidagi nomi. Qorajanjal deb nomlanishining sababi bu uzum donalari qop-qora bo'lib, bir-biri bilan janjallashadigan tashqi ko'rinish kasb etadi. Shuning uchun qorajanjal deb nomlangan ekan. Shibirmahalqa –bu ayollar taqinchog'i. U mayda marjonlar bilan bezatilgan sirg'adir. Bu sirg'aning shibirma deb nomlanishi uzumning nomi bilan bog'liq. Shofirkon tumanida donalari judayam mayda va ko'p hosil beradigan kishmish uzum navini shibirg'on deyishadi. Shevada shu uzumga qiyosan sirg'aning ham tashqi ko'rinishi mayda marjonlari shibirg'on uzumini eslatadi. Shuning uchun ham ayollar taqinchog'iga shibirma deb nom berishgan. Yuqorida keltirilgan shevaga xos so'zlar tashqi ko'rinish jihatidan o'xshatib tariflangan. Bular metaforaning Buxoro shevasidagi yorqin namunalaridir. Ko'rinadiki, metafora ma'lum fikrni lo'nda, aniq va ixcham tarzda ifodalashiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyot

Musayeva F. O‘zbek shevalarining lingvomadaniy tadqiqi. –T.: Fan, 2019.

XALQ MAQOLLARI POETIKASI SO‘Z SAN’ATI SIFATIDA

N.Zaripboyeva, ToshDO‘TAU talabasi

So‘ngi yillarida ijtimoiy gumanitar bilimning yangi turi rivojlanishi natijasida badiiy asarlar, ularning til xususiyatlari haqidagi tasavvur o‘zgardi va unga nisbatan katta talablar qo‘yila boshladi.

Tilning mo‘jizaviy qudrati nutqiy etiketda yaqqol namoyon bo‘ladi. Muloqot jarayonida tilning tejamkorlik xususiyati ham, ifodaviylik kuchi ham, ta’sir qudrati ham, akkumulyativ imkoniyati ham, tasniflash vazifasi ham, borliqni yaxlit namoyon qilish, undagi uzviylik va uzluksizlikni ko‘rsatish ko‘lami ham aql bovar qilmas darajada yuzaga chiqadi. Unda til sohiblarining o‘tmishi va buguni, dunyoqarashi, saviyasi, madaniy va axloqiy darajasi, etnik va diniy qadriyatlari, turmush tarzi, taraqqiyoti va tanazzuli, urf-odatlar va ma’naviy tutumlari ifoda etiladi.

Muloqot madaniyatiga e’tibor til qadar qadimiydir. Uni ilmiy o‘rganish tilshunoslikka doir ilk tasavvurlardan boshlanib, bugungi kunda alohida fan darajasigacha yuksaldi. Til ifoda imkoniyatlarini o‘rganuvchi semiotikaning alohida tarkibiy qismi, til va madaniyat mushtarakligini tadqiq qiluvchi lingvokulturologiyaning asosiy muammolaridan, til va bilim yaxlitligini tekshiruvchi lingvokognitologiya markaziy masalalaridan, til va etnik tafakkur, madaniyatni o‘rganadigan etnolingvistikaning muhim predmetlaridan biri sifatida, notiqlik va nutq madaniyati, badiiy so‘z san’ati va poetikaning bosh mavzularidan biri – muloqot jarayonidir.

Ko‘p vaqtlar davomida tilning faqat aloqa-aralashuv vositasi sifatidagi vazifasi uqtirib kelindi. Bu, ayniqsa, tilning mo‘jizaviy qudrati mujassamlashgan akkumulyativ vazifasi, bunyodkorlik qudrati, “ilonni inidan chiqarib”, “pichoqni qiniga joylashtiradigan” bemisl haybati tilga olinmas edi. Bu qudrat, haybat, imkoniyat uning metaforik tizimida ro‘y-rost namoyon bo‘ladi.

Safardagi podshohning suyukli zavjasi vafot etganda, unga shunday xabar keltiradilar:

Sarvning soyasida so‘ldi gul, netmoq kerak?

Shohning ayriliq izzitoblari, yo‘qlov nidolari, qalb tug‘yoni va faryodi quyidagi shaklga kiradi:

Sarvdin tobut yasab, guldin kafan bichmoq kerak.

Muloqotda soʻzlovchi shaxsning intellektual sifati muhim rol oʻynaydi. Oʻz aqliy salohiyati natijasi oʻlaroq, u bir turdagi narsa va hodisalar bilan ikkinchi bir turdagi narsa va hodisalar orasidagi mutanosiblik va oʻxshashlikni koʻradi. Ular orasidagi sifatiy monandlikni topadi. Zohiran tamomila nooʻxshash hodisalar orasidagi botiniy oʻxshashliklarni topish, shu asosda birining nomi bilan ikkinchisini atash yuksak intellektual salohiyat natijasidir. Bularning barchasi bizni komillikka yetaklaydi, maʼnaviy tarbiyamizni, fikrimizni boyitadi, kelajakka ishonch bilan qarashga undaydi. Insonni moddiyatga qancha ehtiyoji boʻlsa, maʼnaviyatga ham shuncha ehtiyoji bor, maʼnaviyat insonning ichki ehtiyoji, koʻngil bilan bogʻliq tushuncha. Yuqorida taʼkidlanganlarning barchasi til madaniyati, muloqot madaniyati va nutqiy etiketni oʻrgatish bilan bevosita bogʻliq. Muloqot, muomala madaniyati hamma davrlarda ham dolzarb muammo boʻlgan. Bu muhimlik adabiy til meʼyorlarini puxta bilish, tildan ongli va vaziyatga muvofiq ravishda foydalangan holda oʻzgaralar bilan madaniy muloqot qila olish koʻnikmasini shakllantirish bilan belgilanadi.

Xalq hayotining moddiy sharoiti, maʼnaviy turmush tarzi, mafkurasi, dunyoqarashi, eʼtiqodi, ruhiyati, tarixi va dini, adabiyoti va sanʼati, afsona va choʻpchaklari, xalqning oʻziga xos urf-odat va qadriyatlari, axloqiy aqidalari, hikmatli soʻzu maqol-matallari, oʻzbekona odobda va kommunikantlar nutqida aks etishi tushuniladi. Keyingi yillarda oʻzbek tilshunosligining turli tarmoqlarini toʻliq yoritishga bagʻishlangan qator izlanishlar olib borilishi bilan birga, yanada chuqurroq oʻrganilishi lozim boʻlgan sohalar kam emasligi sezilmoqda. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodiga taalluqli turli janrdagi manbalar til xususiyatlarini, xususan, ularda ishtirok etgan personajlarning sotsial mental tavsifini nutqiy voqelanish aspektida tahlil qilish shular jumlasidandir. Xalq ogʻzaki ijodiga doir manbalarning har biri lisoniy jihatdan tahlil qilinganda bir-biridan ancha farq qiladi. Dostonlar tili ertaklardan, maqol va matallar tili topishmoqlar tilidan, xalq qoʻshiqlari tili ham boshqa janr til xususiyatlaridan talaygina farqlanadi. Xalq maqollari til xususiyatlari haqida tilshunoslikda maxsus izlanishlar olib borilgan^{11,12}

¹¹ Киселева С.Н. К вопросу об использовании единиц фразеологии и афористики в учебном процессе на подготовительном факультете // Русский язык для студентов-иностранцев, 1984. - № 23. -С..72; Хлебцова О.А. Русский язык в пословицах, крылатых словах, афоризмах. - М., 1999. -С.2; Аверьянова Г. Наши пословицы // Аврора, 1996. - №11. - С. 56-59.

Nazar ahli ko 'rub nortek yanoqing,

Masal: "Bir noru ming bemor" derlar (Lutfiy).

Ushbu misra "kishilar sening anordek yanog'ingni ko'rib, xalq orasida ishlatiladigan "bir anor ming bemorga davo" ekanligiga iqror bo'lishadi" ma'nosini yuzaga chiqargan. *Shuningdek, adib o'z misralarida maqoldan foydalanish bilan badiiy adabiyotdagi irsoli masal san'atiga murojaat qilgan. Chunonchi: O'g'lim, kechagi yurish-turishing meni ancha izza qildi. Mashshoyixlar bekorga aytishmagan: **Yaxshining xulqi ortiq, yomonning yoqasi yirtiq**". Buning mag'zini chaqib ol (Sh.Xolmirzaev).* Bunga o'xshash maqollarda yomon, xulqi buzuq, ochko'z, surbet, zo'ravon odamlarning xulq-atvori, yurish-turishi qoralanadi. Muloqot jarayonida qo'llaniladigan bunday maqollar farzandlarga pand-nasihat o'rnida hamda ularni yaxshilikka, halollikka undash maqsadida ishlatilgan. Bunday maqollarning varintlari ham mavjud. Masalan, "Yomonning tuzga kelgani- qizga kelgani", "Yomon qizga soch bitsa, yoniga yigit yo'latmas", "Yomonning kuchi yapaloqqa yetibdi", "Yomon yer bo'lmaydi, yomon er bo'ladi" va hokazo. Misollarning barchasida niyati qora kimsalardan farzandlarning uzoqroqda yurishi, bunday kimsalar bilan muloqotda bo'lishlikda nihoyatda ehtiyotkorlikka chaqirish bor. Yana misollarga murojaat qilamiz: 1. *Zarbuvi shu o'tirgan ko'yi anchaga o'ziga kelolmay turdi, xayol o'lgur har yoqlarga boshladi-yu, yana shaytonga hay berdi, nachora: "Kuyovni payg'ambarlar siylashgan"* (Q.Rahimova). 2. *Qizining qizargan ko'zlariga qaradi-yu, og'zidagi bo'g'zida qoldi: esiga rahmatli oyisi bot-bot takrorlaydigan gapi tushdi: "Kuyovnikida quyruq yegandan –o'g'ilnikida yudruq yegan yaxshi"* (S.Qahhor.)

Yuqorida keltirilgan maqollar asosan so'zlashuv va badiiy diskurslarda ishlatiladi. Maqol mazmuni kuyovni siylash kerakligi, bu bilan quda-andachilik rishtalarini mustahkam bog'lash mumkinligiga ishora qilinadi. Keltirilgan birinchi misoldagi maqolning kelib chiqishi diniy rivoyat bilan ham bog'liq. Rivoyatda keltirilishicha, payg'ambarimiz o'z kuyovi Hazrati Alini siylagan ekanlar. Xuddi shu maqolga o'xshash yana bir misolga murojat qilamiz: *Bugungi ishimizdan xursand holda ikkalamiz betma-bet o'tiribmiz. Muallim ming'irlab qo'ydi: Sulaymon o'ldi, devlar qutuldi, ko'pam xijolat bo'laverma. O'rtamizda ovchilarning, yo'lovchilarning doimiy hamrohi — gulxan* (Sh.Xolmirzaev). Qayd etilgan

¹² Абдурахмонов Х. Ўзбек халқ оғзаки ижоди асарларининг синтактик хусусиятлари бўйича кузатишлар.–Т.: Фан, 1976; Шоабдурахмонов Ш.Ўзбек адабий тилнинг лексик нормалари//Нутқ маданиятига оид масалалар. -Тошкент, 1973; Абдурахмонов Х. Мақоллардаги боғловчисиз қўшма гапларнинг баъзи хусусиятлари ҳақида. Илмий асарлар.1-китоб. Тилшунослик масалалари.-Б.419-439.

maqol diniy afsonaga asoslangan. Unda aytilishicha, Sulaymon payg‘ambar “Baytul muqaddas”ni qurdirganda devlarni majbur qilib ishlatgan. Devlar payg‘ambardan qo‘rqqanidan ishlayverishibdi va hatto hassaga tayanib o‘lib qolgan Sulaymon payg‘ambarni ham sezishmaydi. Nihoyat, jasad ag‘anab tushgach, devlar har tarafga qochib ketishadi.¹³ Yuqoridagi maqol mazmuni xalq mental dunyosida yashab kelayotgan mana shu afsona bilan bog‘liq. Bu afsona tafsiloti adib Rabg‘uziyning “Qissai Rabg‘uziy” asarida ham qayd etiladi.

Xullas, xalq maqollarida qaysi mavzu, hayotning qaysi sohasi haqida fikr yuritilmasin, tanlangan muammo har tomonlama, atroflicha yoritiladi. Ularda turli-tuman pragmatik vaziyatni inobatga olgan holda yaratilgan hikmatli so‘zlarga guvoh bo‘lamiz. Bularning hammasi o‘zbek xalqining asrlar davomida naqadar dono va aqlli ijodkor farzandlarga ega ekanini dalillaydi.

Ayni paytda xalq maqollarining uzoq o‘tmish mahsuli ekanligi, ayrim namunalarning bugungi kunda tushunish oson emasligini ham izohlaydi. Ba‘zan maqollar qatorida shundaylari ham uchraydiki, hatto umumiy fikr nima bilan bog‘liq ekanligini anglash qiyin bo‘lib qoladi – uning pragmatik jihatdan o‘ta xoslanganligi ayon bo‘ladi. Masalan, “*Bir so‘m berib yig‘latdim, yuz so‘m berib yupatdim*” maqolini olaylik. Bu maqolning mohiyatini maqoldagi fikr yo‘nalishi va qarshilantirish usulidan tasmollash mumkin. Ya‘ni umumiy mazmunda nojo‘ya qilingan harakat yoki tadbir oxir - oqibatda insonga qo‘shimcha tashvish keltirishi mumkinligi haqida ogohlantirilmoqda. Bu bilan sen shunday harakat qilginki, bu harakating yomon oqibatlarga olib kelmasin, deyilmoqda.

«Zarbulmasal» asari o‘sha davr prozasining namunasi bo‘lishi bilan birga, folklor materiallaridan foydalanib yozilganligi uchun ham, xalq tilining adabiy tilga yaqinlashtirishga xizmat qilgan asarlardandir. Gulxaniy «Zarbulmasal» asarida, xalq og‘zaki ijodi asarlarini qayta ishlash bilan birga, uning uslubi va badiiy vositalarini ham saqlab qoldi.

Maqollar poetikasi o‘zining mukammalligi bilan so‘z san‘atining oliy namunasi sifatida baholanishga loyiq. Avvalo, shakl va mazmun mutunosibliigi maqollarning asrlar davomida og‘izdan og‘izga o‘tib yashashini ta‘minlagan. San‘at asarining darajasini belgilovchi eng talabchan sinov vaqt hisoblanadi. Ayniqsa, vaqt sinovi talabiga og‘zaki asarning javob berishi o‘ta muhim hisoblanadi. “*Qonni qon bilan yuvib bo‘lmas*” maqolini M.Koshg‘ariy “*Qanig‘ qan bila jumas*” tarzda

¹³ Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тилнинг лексик нормалари. -Тошкент, 1973.

keltirgan. Bu maqol olim qalamiga tushguniga qadar necha yillar yashaganini tasavvur qilish qiyin. Ya'ni maqollar asosini ulardagi shakl va mazmun mutanosibliigi belgilaydi.

Aytish lozimki, xalq maqollarining tarixi, mazmun tasnifi, o'rganilishi, badiiyati hamda uning lingvistik tabiati haqida alohida tadqiqotlar yaratilmish kelajak avlod olidida turgan vazifalardan biridir.

MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA RANG RAMZLARINING LINGVISTIK TAHLILI

Rajabov Mahmud ToshDO'TAU talabasi

Mamlakatimiz miqyosida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar davrida til va ma'naviyat davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masala bo'lib kelmoqda. Dunyo mamlakatlari bilan global sohalarida o'zaro aloqalar o'rnatilayotgan bugungi kunda har bir millatning ruhiyatini o'zida aks ettiradigan til hodisalarini ijodkorlar asarlari talqinida o'rganish shu xalqning ma'naviy qadriyatlari bilan bog'liq bilimlarni oshirishda muhim omildir. 2016 yil 30 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev mamlakatning yetakchi olimlari, ziyolilari, akademiklari bilan uchrashib, bugungi zamon barcha sohalar qatorida ilm-fanni ham yangi bosqichga ko'tarishni talab qilayotganini, zotan, jamiyat oldida turgan dolzarb masalalarni ilm-fansiz yechish qiyin ekanini ta'kidlab o'tdiki¹⁴, bu o'z navbatida, tilshunoslik sohasidagi mavjud shakllanib bo'lgan ilmiy nazariy, metodik masalalarni atroflicha tahlil etishga, shakllantirishga imkoniyat yaratdi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining¹⁵ davlat dasturida ustuvor yo'nalish sifatida belgilab qo'yilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish va innovatsiya faoliyatini takomillashtirish tilshunoslik sohasida ham chuqur va yangicha izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, grammatik talqinlarda mavjud sifat mavzusi va uning tahlili masalasi ham birmuncha qiziq. Ayniqsa, bu muammo badiiy asarlar tahlili bilan berilganda, uning qimmatini yanada oshadi.

14 Мирзиёев Ш.М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили //Халқ сўзи.-2017.-6 янв. – Б.1

15 Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони // Халқ сўзи 2017 йил, 8 февраль. № 28 (6722).

Soʻzlarning belgi bildirish xususiyati tabiati jihatidan tub (asliy) va nisbiy sifatlarga boʻlinadi va ular bir-biridan qisman farqlanadi: tub sifat ifodalaydigan belgi tushunchasi shu sifatning toʻgʻridan toʻgʻri maʼnosidan anglashiladigan rang, tus, tur, taʼm, maza, hajm, vazn, meʼyor, sath, miqyos kabi doimiy sifat belgilari bilan bogʻliq boʻladi; nisbiy sifatda esa belgi tushunchasi shu yasama sifatga asos boʻlgan soʻzdan anglashiladigan narsa-predmet yoki hodisa maʼnosi bilan bogʻliq boʻlib, uning belgi-xususiyati boshqa turdagi narsa-predmet yoki hodisaga turli darajada nisbat berilishi orqali ifodalanadi.

Turkiy tillarda, jumladan, oʻzbek tilida sifat tarixan maxsus morfologik koʻrsatkichga ega boʻlmagan. Tadqiqotchilarning fikriga koʻra sifat dastavval mustaqil soʻz turkumi sifatida mavjud boʻlmagan, u soʻngroq ot turkumidan oʻsib chiqqan va shakllanib rivojlangan. E.V. Sevortyaning taʼkidlashicha, sifatning otdan differensiasiyalanish jarayoni ancha ilgarigi davrlarda boshlangan, V–VIII asrlarga kelib bu jarayon ancha keng tus olgan. Sifatning jamlanishi va kristallashishi asta-sekinlik bilan turli davrlarda paydo boʻlgan turli formalar hisobiga yuz bergan. Bu formalarning ayrimlari qadimdayoq, kammahsul boʻlgan, ayrimlari esa oʻz sermahsulligini hozirgi kunlargacha saqlab qolgan va hatto yanada kengaytirgan. Ayrim formalar ot va sifat uchun mushtarak boʻlgan, ayrimlari faqat sifatgagina tegishli boʻlgan, lekin keyingi davrlarda taraqqiy qilmagan. Biz bu magistrlik dissertatsiyamizda shu turkum doirasidagi rang-tus bildiruvchi sifatlar Muhammad Yusuf ijodidagi misollar orqali koʻrib chiqamiz.

Narsaning belgi alomatlaridan biri rang-tusdir. Bir turkum sifatlar predmetning ana shu belgisini ifodalash uchun ishlatiladi. Oʻzbek tilshunosligida rang-tus ifodalovchi soʻzlar bir qator tadqiqotlarning oʻrganish obyekti boʻlgan. M. Sodiqova rang bildiruvchi soʻzlarning leksik-semantik hamda grammatik xususiyatlari tadqiqi boʻyicha ish olib borgan.¹⁶ Tilshunos rang maʼnosini ifodalovchi soʻzlarni asliy va taqlidiy ranglarga boʻlib oʻrganadi. Taqlidiy rang nomlari tabiatdagi rangdor predmetlar tusiga taqlid asosida hosil qilinadi: gunafsha rang, qovoq rang. Asliy ranglar turkumiga oq, qora, qizil, sariq, yashil, moviy, qoʻngʻir rang nomlari kiritilib, tahlil qilinadi. I. Hamdomova oʻzbek tilidagi rang bildiruvchi soʻzlarni axromatik, xromatik rang bildiruvchi soʻzlar va spektr rang sinonim guruhiga boʻlib oʻrganadi.¹⁷ Axromatik ranglar qatoriga oq,

16 Sodiqova.M. Oʻzbek tilida rang-tus ifodalovchi soʻzlar.

17 Hamdomova.I. Oʻzbek tilida sifatlarning maʼno turlari va ularning oʻzbek tili izohli lugʻatida berilishi. – B.38.

qora, kulrang, sur, bo‘z rang sifatlarini; xromatik ranglarga, spektr ranglarga qizil, yashil, havo rang, ko‘k, binafsha rang leksemalarini kiritadi. Spektr ranglar sinonimlari guruhi predmet nomiga qiyos qilib olingan rang nomlarini qamrab oladi: bug‘doy rang, binafsha rang, jigar rang. I. G‘anixo‘jayeva o‘zbek tilidagi rang bildiruvchi sifatlarini qiyosiy-diaxronik aspekti tadqiq etadi. Bunda rang-tus sifatlar semantik-funksional jihatdan tahlil qilinadi hamda ayni so‘zlarning yozma yodgorliklardagi ekvivalentlari bilan aloqasi masalasi ko‘rib chiqiladi.¹⁸ S. Matchanova esa rus va o‘zbek tillaridagi rang ifodalovchi so‘zlarning leksik-grammatik xususiyatlarini taqqoslab o‘rganadi, ammo ularning stilistik xususiyatlariga alohida to‘xtalmaydi.¹⁹ M. Mamadaliyeva tomonidan rang-tus bildiruvchi so‘zlar konnotatsiyasi qisman o‘rganilgan.²⁰

Aslida barcha ranglar miya faoliyatining natijasi bo‘lib, u tashqi olamdan qabul qilgan ma‘lumotlarni rang shaklida yetkazib beradi. Rangni aks ettirishni turli uslub va tizimlari shakllangan, biroq hammasining asosida ranglarni bir-biri bilan aralashtirib, yangi rang hosil qilish uslubi yotadi. 7 xil kamalak (spektr) rangini bir- biriga aralashtirish orqali 280 dan ortiq rang tuslanishini hosil qilish mumkin. Rang inson ruhiyatiga kuchli ta‘sir etuvchi vosita bo‘lib, u insonda quvonch va ma‘yuslik, tetiklik yoki g‘amginlik, xotirjamlik yoki bezovtalik tuyg‘ularini uyg‘otishi mumkin. Rang bildiruvchi so‘zlarni axromatik va xromatik guruhlariga bo‘lib o‘rganish mumkin. Axromatik ranglar guruhiga oq, qora va bu ranglar o‘rtasidagi barcha kulrangga yaqin ranglar kiradi. Xromatik ranglar guruhiga barcha ranglar, ya‘ni spektrdagi barcha ranglar kiradi. Rang-tus ifodalovchi ushbu so‘zlar asl lug‘aviy ma‘nosidan tashqari ko‘chma ma‘noda turli emotsional-ekspressiv ottenkalarda qo‘llanadi. Axromatik ranglar guruhiga kiruvchi oq so‘zining o‘zbek tili lig‘at sostavining eng eski so‘zi ekanligini “Kul-tegin” obidasi, “Devonu lug‘atit turk” kabi yodgorliklardan olingan misollar orqali isbotlab beradi.

Qora so‘zining asl ma‘nosi mavjud ranglarning barchasidan to‘q, qozon kuyasi, ko‘mir tusidagi rangdir: U chust do‘ppi, qora kastyum-shim kiyib olgan, neylon ko‘ylagining kraxmallangan yoqasi tagida chiroyli yaltiroq galstuk yonib turardi. Komissar besh-olti qadam narida turar, boshida qora shlyapa, egnida qora plash, qo‘lida sut bidon bor edi. (O‘. X.). qora so‘zining bir qancha ma‘nolarda kelishini quyida ko‘rishimiz

18 Ганиходжаева И. Прилагательные цвета узбекского языка в Сравнительно-историческом аспекте: Автореф. Дис... Канд. фил. наук. – Ташкент, 1986.

19 Матчанова С. Русско-узбекские параллели цветообозначающих прилагательных: Дис... Канд. фил. наук. – Ташкент, 1987

20 Mamadaliyeva M. O‘zbek tilida nominativ birliklarining konnotativ aspekti.

mumkin. 1) sharpa, siluet, odam sharpasi, qorasi, josus ma'nosini anglatadi; 2) nishon ma'nosida: Birinchi otgan yoy qoradan bir quloch yuqorini ko'rsatdi; 3) qorong'i so'zi o'rnida: To qora kechgacha odamlar tinim bilmagan; 4) ba'zi otlarning aniqlovchisi sifatida o'tkir, qattiq, qaqshatkich ma'nosida; 5) yovuz, g'alamis ma'nosida; 6) kir, iflos ma'nosida; 7) ins-jins ma'nosida; 8) azadorlik, motam libosi ma'nosida; 9) biror kishining salbiy, yomon tomonini izohlashda keng qo'llanadi. Insonning xarakter-xususiyatlaridan qabih, razil, aybdor, sharmanda, yomon kabilarni salbiy majoziy ma'noda berishda va bu salbiylikni bo'rttirib ko'rsatishda qora so'zi oddiyligi bilan juda asqotadi. Muhammad Yusuf ham bir she'rida:

*Sening ko'zing qora, mening ko'zim qora,
Sening bag'ring yara, mening bag'rim yara,
Bu dunyoda sen bechora, men bechora!..
Erka kiyik, maylimi bir erkalasam?..*

deya yoshlik ramzi sifatida tasvirlanadi.

Ko'k rang kishining o'ziga ishonchini kuchaytiradi. Shuning uchun ko'plab ish kiyimlari va rasmiy kostyumlar ko'k rangda bo'ladi. Kanadaning Britaniya Kolumbiyasi universiteti olimlarining aniqlashicha, to'q ko'k rangdagi liboslar tinchlantirish xususiyatiga ega. Ko'pincha ko'k rangdagi kiyimlardan mehrlil, uyatchan, xushmuomala kishilar tanlashar ekan. Ko'k kiyimli kishilar risoladagidek ota-ona yoki ishchi bo'la olishadi. Bunday odamlarning asosiy fazilati bosliqlik va xayrixohlikdir. Badiiy asarda ko'k sifati yashil ma'nosida ham qo'llaniladi:

*Ko'nglimga ko'k binafshalar sochilsin,
Kokiliga tolpopukdan soch ilsi,
Boychechakka borar yo'llar ochilsin
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chimdim.*

Yashil rangni yoqtiruvchilar yaxshi kayfiyatni ushlab turuvchi, faol ijtimoiy hayotni ma'qul ko'ruvchi kishilar sanaladi. Yaxshi joyda yashovchi, moliyaviy holati barqaror bo'lgan kishilar, ular odatda muloyim, mehribon, yaqinlari uchun qayg'uradigan insonlar bo'lishadi.

Binafsha rang – qadimda bu rang oliy tabaqaga mansublikni, boylik, nafislik, va hashamatni anglatgan. Ma'lumki, Kleopatra bu rangni haddan ortiq yaxshi ko'rgan. U paytlarda bunday rangdagi kiyimlarni faqatgina boylar kiyishi mumkin bo'lgan.

Shu tariqa ranglar o'zaro bir – biridan uncha uzoq bo'lmagan qarashlar, fikrlarni yuzaga keltiradi. Bular barchasi jipslashib, bir necha xalqning bir necha xil madaniyatini hosil qiladi. Umuman olganda.

M.Yusuf she'riyati o'zining jozibadorligi, ohangdorligi, xalqchilligi bilan kitobxonlar ko'ngliga tez yo'l topganligi haqiqat. Ayniqsa, uning she'riyatida maqoladagi rang tus bildiruvchi so'zlardan ham unumli, o'ziga xos tarzda foydalanganligi yaqqol namoyon bo'ladi.

FAXRIYOR IJODIDA “MAVHUM TUSHUNCHA” XUSUSIDA

Ullibibi Ozodova, Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyotini o'qitish
fakulteti 1-bosqich talabasi

Modernizm ruhiyatining o'zbek adabiyotiga kirib kelishi, kitobxonlar qarashining o'zgarishiga, sinchkovlik va badiiy tahlil mahoratining o'sishiga turtki bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ijodkorlar go'yo avval mavjud bo'lgan dunyolarini ostun-ustun qilib yangi bir olam kashf etish imkonini qo'lga kiritdi. Modernizm – XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning 50–60-yillarida Yevropa, AQSH adabiyoti va san'atida rivoj topgan oqim va yo'nalishlarning umumiy nomi. Modernizmning o'ziga xosligi shundan iboratki, u bir so'z bilan aytganda “aql bovar qilmas” fikrlarni kashf etadi. Badiiy ijodning mumtoz an'analaridan voz kechish, badiiy shakllarni yangilash jarayoniga alohida ahamiyat berish modernizmning eng muhim belgilaridandir. Modernizm vakillari realizmga qarshi kurashdi, klassizmga xos bo'lgan ijodiy tamoyillarni inkor etishga intildi. Modernizm nafaqat mazkur davr san'ati, balki ilm va falsafa bilan ham bog'liq bo'lgan. Ayni paytda shuni ham ta'kidlash joizki, modernizm adabiyoti matni o'zining stilistikasi jihatdan ham ko'p qiyofalidir. Bir jihatdan, u XIX asr adabiy oqimlaridan uzoqlashgan bo'lsa, ikkinchidan, ularga yangi urg'u va ohanglar olib kirdi, naturalistik, ya'ni voqelikni tasvirlashda maishiy tafsilotlar, ikir-chikirlar bilan cheklanib, umumlashmalardan qochadigan tasviriy uslubni singdirdi, zarurat tug'ilganda esa, biroz to'g'irlab naturalizmni yanada sayqallashtirdi. Xullas, an'anaviylikning turli ko'rinishlari modernizm bilan olib borgan bahsida modernizmga zarardan ko'ra ko'proq foyda keltirdi. Modernizm qaysidir ma'noda adabiyotni elitarlashtirdi. Modernizm vakillari ijodining asarlarida ruhiyat birinchi pog'onaga chiqadi.

Bir ijodkor ijod jarayonini dehqon mehnati kabi mashaqqatli, ammo uning mevasi “umrboqiy” ekanligini ta'kidlagan edi. Dehqon yerga mehr berib ko'chat ekar ekan, avvalo, uning mevasidan bahramand bo'layotgan farzandlari, qondoshlari-jondoshlari, xalqi ko'z oldida gavdalanadi.

Ko'chatning mevaga kirib hosil berishi bu aziz tuproq karomati bo'libgina qolmasdan mehnatsevar bobodehqon to'kkan terlar samarasidir. Ijodkor ham, ijod mahsuliga qalb qo'rini bag'ishlaydi, go'yo u qalbining nozik dur-u javohirlarini shunga berkitadi. Ijodkor uchun borliqda aks etgan barcha narsa o'zgacha bir ko'rinishda ijodkorning sirli qutichasidan o'rin oladi.

Sirli qutichadan gavhar donalaridek saf tizgan hayot saboqlari birin-birin oq qog'oz yuzini bezaydi. Ha, bezaydi. Chunki o'zgalar uchun saboq bo'la olguvchi narsani dog' deb atash noo'rin. Modernizm da inson qalbi va uning hissiyotlari o'ta nozik va ba'zan tushunish mushkul bir holda aks ettiriladi. Modernizmning, umuman, adabiyotning maqsadi o'zlikni topishga ko'maklashish ekan, modernizm o'z nomi bilan yangicha yondashuv orqali bu narsaga erishishni ko'zda tutadi.

O'zbek adabiyotiga modernistik ruhning kirib kelishi ancha bahslarga sabab bo'lishiga qaramasdan, u o'z muxlislarini topa bilgan yo'nalishga aylandi. Ijod jarayoniga ijodkorning o'zi va hissiyotlarining umumlashib ketish davri deb qaraydigan bo'lsak, ijod mahsuli ayni shu davrning totli mevasidir. Shunday totli va "ichi g'ij-g'ij" ma'noga boy "meva"larni kitobxonlarga taqdim etib kelayotgan ijodkorlarimiz orasida Faxriyorning o'rni beqiyos. Ayniqsa, modernizmning o'zbek adabiyotiga kirib kelishi va kitobxonlar qalbidan chuqur o'rin olishida u ijodkor samarali qalam tebratgan.

Faxriyor ijodi o'ta falsafiy qarashlar va mantiqiy xulosalarga boy bo'lgani sababli uni o'qib, shoir qalbini tushunadiganlar kam. Faxriyorning she'rlarini o'qish ham, uqish ham, ta'sirlanish ham oson emas. Lekin uning bitganlari milliy she'riyatimiz taraqqiyotining shunday darajasidirki, uni bilmaslik estetik va ma'naviy qiyofaning kemtikligiga olib kelishi mumkin. Shoir ijodida ayniqsa modernizm da ko'p ko'zga tashlanuvchi abstraksionizm, abstrakt qarashlar juda ko'p. Tasviriy san'atda ham xuddi adabiyotdagi kabi "Abstrakt tasvir" deb nomlangan yo'nalish mavjud. Bu yo'nalishda chizilgan ishlanmalarga bir qarashda hatto "bu ham san'atmi?" deydiganlar topiladi, ammo bu eng murakkab san'at turidir. Har bir tafakkur qobilyatiga ega shaxs bu tasvirlarda o'zini ko'radi. Ya'ni taqdirlar turfa, qalb va qarashlar ham. Bu tasvir har bir inson uchun oyna bo'la oladi u yerda inson o'zligini ko'radi. Demak, bu san'at inson psixologiyasi bilan uzviy bog'liq. Bunday san'atni adabiyotda so'zlarga ko'chirish yetuk mushohada va sinchkovlikni talab etadi.

Faxriyor ijodi bir qarashda juda tushunarsiz. Ammo she'rlarni tahlil qilib ko'rgach so'zlarning ma'nosi sizni hayratga solishi tabiiy. Men

Faxriyor ijodini abstrakt, lekin o‘ziga ohangrabodek jalb qiluvchi kuchi mavjud ko‘rgazmadagi bir rasm deb bilaman. Qaysiki meni ko‘p o‘ylashga va izlanishga majbur qiluvchi rasm. Quyidagi rasm mashhur ispan rassomi Salvador Domingo Felipe Jacinto Dali Domenech, ya’ni Salvador Dali ismi ostida ijod qilgan ijodkorga tegishli. U XX asrning buyuk musavvirlaridan biri hisoblangan. Dali syurrealism janrida ijod qilgan. U “Uyg‘onish davri” ijodkorlaridan ruhlangan. Dali ijodining o‘ziga xosligi unda motivning borligidir. Dalining aksar ijod namunalari soat tasviri juda ko‘plab topiladi, bu xuddi uning dastxati ko‘rinishini olgandek. Quyidagi rasm syurrealism janrida chizilgan bo‘lib, bu suratning nomi “Spider Of The Evening”, (“Oqshom o‘rgimchagi”) va bu rasm 1940-yilda chizilgan. Bu rasmni va Faxriyor ijodiga tegishli “Erk sabog‘i” she’ri misolida tahlil qilishga urunib ko‘raylik.

Bo‘g‘ziga tiqilgan haqiqatdan ham

Odam o‘lishi mumkin.

Lekin bu o‘lim

Mag‘lubiyat degani emas,

G‘alaba ham emas, shuningdek.

U-saboq, xolos,

Erk sabog‘i.

Bu satrlar quyidagi rasmning so‘zdagi shaklidir, go‘yo. Haqiqatning achchiq mazasi ko‘pchilikning yuziga ajin tushirgani chin. Bu uning kuchidir (ta’sir qilish kuchi). O‘zimiz ishonib qolgan ro‘yolar orasida hamma mavjud narsalarni go‘yo yo‘qlik sari uloqtirayotgandekmiz. Ammo bir kun qattiq, juda qattiq shovqindan birdan uyg‘onamiz. Bizni uyg‘otgan shovqin xuddi olamimizni eritayotgandek. Barcha narsa xuddi qo‘rg‘oshindek erib oqmoqda. O‘zimiz yaratgan barcha narsalar:do‘stlar, yaqinlar , go‘zalliklar Endi siz yo‘qsiz. Siz shu kungacha ishongan narsalar bilan erib bitdingiz. Tuproqqa singgan vujudingiz ustiga yomg‘ir tomchilay boshladi. Siz uni his etdingiz. Demak, bari siz o‘ylagan kabi „tamom“ emas. Siz xushlamaydigan qora bulutlar ta’sirida yog‘gan yomg‘ir sizni hayotga qaytardi. Uzoqdan kimdir sizga qo‘l silkityapdi, ammo kim? Kimligini ilg‘ab bo‘lmayapti...U kim bo‘lishi mumkin? Balki...U sizga qo‘l silkishdan to‘xtab orqasiga qaradi. Yo‘q, bo‘lishi mumkin emas, nahotki, u ketyapti? Nahotki, u sizni yolg‘iz qoldirib keta oladi? Yo‘q, u orqadan o‘qday otilib chiqayotgan juda chiroyli otga qarayotgan ekan. U ot go‘yo “samoviy”dek. Ular sizni qutqarishadi. Ha qutqarishadi. Siz yo‘qotgan narsalar kabi emas bularning hech biri. Endi siz juda ko‘p narsalarni real qabul qila olasiz. Siz shu yomg‘ir

tomchilarini, shu qo‘llarni, shu xunuk, ammo xuddi yuzga shapaloq tortganday o‘zingizga keltiruvchi bu chaqiriqni aslo unutmaysiz. Unuta olmaysiz. Hozir nima bo‘ldi o‘zi? Siz hayot deb atalmish daryo to‘lqinlariga bardosh bera olmay yengildingizmi? Yo‘q, siz uchun yana bir imkon berildi. Siz endi avvalgidanda yaxshiroq hayot kechira olasiz, chunki siz xayolot asirasi emassiz endi. Siz mustaqilsiz. Mutlaq erkinsiz. Endi achchiq maza tabingizni xira qilmaydi. Siz bor narsalarning barini boricha qabul qila olasiz. Demak, siz o‘zgardingiz, yuksaldingiz.... Rasmda “Uyg‘onish davri” tasviriy san’ati va me’morchiligi umumlashib hosil qilgan cherkovlar bezaklarida ko‘zga tashlanuvchi ba’zi unsurlarni ko‘rishimiz mumkin. Shu davrda cherkov devorlari ilohiy farishtalar tasviri bilan bezatilgan, Dalining biz tahlil qilayotgan “Oqshom o‘rgimchagi” nomli rasmda ham yig‘lab o‘tirgan qanotli kichik bola tasviri bor. Bu rasmda xuddi bola qiyofasidagi farishtaning kiritilishi va uning yig‘lab o‘tirishini turlicha izohlash mumkin, Ispan tarixidan ma’lumki, Dali yashagan davrda Ispaniya qaram davlat hisoblangan va shu davr haykaltarosh va rassomlarining ijodida ozodlik kurashiga chaqirish, xalqning ezilgan turmush sharoiti aks ettirilgan deb qaraladi. Bu yig‘layotgan farishtani mustamlakachilik zulmidan ezilayotgan ispan xalqi deb ham ko‘rishimiz mumkin. Ikkinchi tarafdin buni diniy aqidalarga bog‘laydigan bo‘lsak, bu tug‘ilish va o‘lim, hayot va mamot haqiqatlarini o‘zida akslantirayotgandek. U xuddi nimanidir tushuntirishga, eslatishga urinayotgandek.

She’rni o‘qing va quyidagi suratni kuzating. Aslida, birortasini anglab bo‘lmas bu narsalar bilan she’r o‘rtasida “umumiylik” borligidan hayratdadir siz.... Bu oddiy inson, hatto, ijodkorning o‘zi ham anglay olmaydigan ilohiy bir qudrat tufayli. Ikki ijodkor, ikki xil san’at, ammo ikkalasining ham asosi, tub ildizi insonga borib taqaladi. Inson tug‘ilishi bilanoq uni vaqt oqimi turli sinov va qiyinchiliklarda toblab kamolotga yetgazadi va bu davr “Hayot” deb ataladi. Modernizm shu hayotni kuylaydi. Faxriyor oddiy kundalik hayotda ko‘p uchrovchi ammo siz-u biz aslo e’tibor bermagan narsalarni sinchkov va teran nigoh bilan ko‘ra oladi.

Bunga shoirning “Ko‘rgazmaxonada” deb nomlangan she’rini misol qilish mumkin.

Biz devorga, rom ostiga
O‘tgan kunlarni osib qo‘yamiz
(rom ochib chiqadi bizni).

Har bir inson hayotida ko‘p uchraydigan hayotiy bir vaziyatni misol qilish orqali shoir “kelajakka muhrlangan o‘tmishni” tasvirlaydi. Xoh u

yaxshi xotira bo'lsin, xoh yomon, muhimi, u sizning kechagi kuningiz demoqchiday go'yo. Rasmni kuzatib borliqdan uzilib o'tmishga sayohat qilamiz. Ongimizda shu vaziyatni qayta jonlantiramiz.

“So'ng osig'liq o'tgan kunlarni
Tomosha qilishni yaxshi ko'ramiz.

O'tmish yoshlikning zabardast davrlarini yodga solganda kishi beixtiyor shu davrga qaytgisi keladi, balki bu yo'qotilgan yillarning alami tufaylidir. Shuning uchun eslaydigan o'tmishimiz ba'zan bugunimizdanda yaxshiroqday tuyular. Omad bizni tark etgan kunlar bo'lsa ham shu kunlarga qaytgimiz va nimalarnidir o'zgartirgimiz keladi. “Vaqt “deb atalmish yovuz dushmanga urush ochgimiz keladi go'yo.

Tomoshaga ketgan vaqt esa
Ko'chaga haydalar.

Yuqoridagi kabi turli o'y-xayollar bilan bugunimizni ham yo'qotamiz. Aslida, ertaga bugunni ortga qaytarishni istashimizdan bexabarmiz. Vaqt o'taveradi daqiqalar, soniyalar, kun va haftalar. Shoir go'yo “inson ekansan, bugun bilan yashab, kelajakni qur o'tmishdan saboq chiqar “demoqchidek. Tomosha uchun sarflangan vaqt hayolimizning hech bir ko'chasida yo'qligini eslatadi.

“Boisi:

Hech qachon tomoshabindan
chiqmas qahramon.”

Birov qandaydir yumushlar bilan band payti boshqa bir insonning o'tmish xotiralari bilan chuvalashgan xayollari yumush qilishga to'sqinlik qilishi tabiiy, albatta. Shunday ekan, bunday insonlar jamiyatdagi tomoshabinlar qatlamini shakllantiradi. Bu qatlam jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shmaydigan befarqlar qatlamidir. Faxriyor inson va vaqt konfliktini bu she'ri orqali chiroyli ta'riflab bergan. Hayotiy voqealarni falsafiy mushohada yo'li bilan shoirona qarash orqali qog'ozga tushirgan.

Konfutsiy aytganidek: “Mushohadasiz mutolaa puch, mutolaasiz mushohada yovuz kuch”. Modernizm aynan mushohadalarga boy mutolaani talab etadi. U xoh tasviriy san'atda, xoh adabiyotda bo'lsin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhammadjon Xolbekov. XX asr modern adabiyoti manzaralari. Modern va modernizm tushunchasi. www.kh-davron.uz.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003.

XALQ OG‘ZAKI IJODINI O‘QIB...

Mahbuba Kidirova, ToshDO‘TAU
O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti
1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori Xurshida Xamrakulova

Adabiyot darsliklarida xalq og‘zaki ijodi namunalariga keng o‘rin berilgan. Xalq og‘zaki poetik ijodi boshlang‘ich ta‘lim o‘qish darsliklarida adabiy tushunchalarni shakllantirish shaklida berilsa, yuqori sinflarga o‘tgach, sinflar kesimida janrlar tabiatidan kelib chiqib joylashtirilgan va nazariy bilimlar berib borilgan. 5–6-sinf “Adabiyot” darsliklarida berilgan xalq og‘zaki ijodining kichik janrlari – ertaklar, maqol va topishmoqlar, bolalar qo‘shiqlaridan namunalar o‘quvchining badiiy tafakkurini, estetik didini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyot darslarini tashkil qilishda xalq qo‘shiqlarining ayri-ahamiyatini ko‘rsatib o‘tish kerak deb o‘ylaymiz. Negaki, xalq qo‘shiqlari insonning his-tuyg‘u va kechinmalarini ifodalash barobarida ezgu niyatlarini ham o‘zida aks ettiradi. Xalq qoshiqlari badiiy nafosati bilan bir qatorda inson ma‘naviy fazilatlarni yuksaltirishga xizmat qiladi. Umuman, she‘riyatda badiiy tasvir vositalari his-tuyg‘ularni tarbiyalash vazifalarini bajaradi. Masalan,

*Qizil gulsan barging yo‘q,
Xo‘p yigitsan yoring yo‘q,
Umring o‘tib bormoqda,
Nodonsan xabaring yo‘q.*

Bu misralarda nega aynan qizil gul deya ta‘riflanyapti? Chunki gulning qizillik chog‘i g‘unchalikdan o‘tgan ayni go‘zallikka limmo-lim bo‘lgan chog‘idir. Insonning ham qizil gullik davri voyaga yetgan va o‘z fikriga ega bolgan paytiga to‘g‘ri keladi. Undagi qizillik navqiron yoshlikning, olovlikning aksidir. Lekin ana shu yoshlikni foydali ilm olish va hunar o‘rganish bilan bezamasak, kemptik bo‘lib barglarsiz qolamiz. Ayniqsa, talabalar qizil gullik davrini erishgan muvaffaqiyatlari bilan bezasa, kelajagimizga ishonch yanada ortadi.

Xo‘p yigitsan yoring yoq.

Sening aynan kuch-quvvatga to‘lgan, ilm sohibiga aylangan, hunar o‘rgangan payting. Sen toliq navqiron va komilsan, sening birgina kaming – yoring yo‘qligi. Yaxshi-yomon kuningda sen bilan yelkama-yelka tura oladigan yor kerak senga, demoqchi mening nazdimda.

*Umring o'tib bormoqda
Nodonsan xabaring yo'q.*

Insonga yaratgan tomonidan berilgan umr ko'z ochib yunguncha o'tib ketadi. Vaqtni to'xtatib qolishning esa imkoniyati yo'q. Biz bugun yoshligimizning gullagan davrini bekorchi o'yin kulgu va befoyda ishlar bilan otkazmaylik. Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek:

Yigitlik chog'ida yig' ilmning mahzanin,
Qarilik chog'ida sarf qilgin anin.

Xalq og'zaki ijodi insonni ma'nan yuksaltirishga xizmat qiladi. Bunda xalq dostonlaridagi epik voqelik, misralar qatiga yuklangan ma'nolar, qahramonlar taqdiridagi kutilmagan burilishlar, yigitlik sha'ni uchun kurash, milliy or-nomus kabi masalalar ham doston mazmuniga singdiriladiki, bu yosh avlodni tarbilashda muhim ahamiyatga egadir. Xususan, "Kuntug'mish" dostoni qahramonlari Kuntug'mishning Xolbeka bilan sahroda xor-zorlikda qolgan paytida Xolbeking Kuntug'mishga ketaver, bo'lmasa sen ham halok bo'lasan, deb uni asrashi, mard Kuntug'mishning quyidagi javobi ham o'zbekning asl xarakterini ko'rsatib turadi:

Po'lat nayza qor ostida yotarmi,
Temir nayzang egovlasang o'tarmi.
Sening to'rang nomardlardan emasdir,
Mard o'g'lon sevgidin tashlab ketarmi.

Misralarni birma-bir tahlildan o'tkazib ko'ramiz. Po'lat nayza yigitning doimiy hamrohi. Asl po'lat zanglamaydi, qor ostida yotsa ham o'z sifatini saqlab qoladi va temir nayzadan shu jihati bilan baland turadi. Ikkinchi tomondan esa, bu yerda po'lat nayza orqali mard o'g'lonlar tushuniladi. Mard o'g'lonning ustidan tashvish-u mashaqqatlar qordek yog'ilsa ham, bahordek qorlarni erituvchi yaxshi kunlarga intilib, muammolariga yechim topa olishi har qanday vaziyatda ham yurtiga, yoriga sadoqat ila o'z xatini bezashi lozimligi asoslab berilgandir. Temir nayza esa nomard insonlarga o'xshaydi. Ularga sadoqat, mehr-muhabbatdan qancha saboq bersak-da, qiyinchiliklar kelganda tishi otmay zanglashini kuzatamiz.

Keyingi ikki misrada esa Kuntug'mish Xolbekaga Sening to'rang nomardmidiki oz yorini mashaqqatlar girdobida yolg'iz tashlab ketsa. Mardlik menga ota-bobolarimdan meros qolgan. Holbuki, shunday ekan, seni hech qachon tashlab ketmayman demoqchi. Nafaqat Kuntug'mish dostonida, xalq og'zaki ijodining ko'plab namunalarida mardlik va jasorat o'z aksini topadi. Hozirda mamlakatimizda Yurtboshimiz tomonidan kitob

o‘qishga, yoshlarning kitobxonlik salohiyatini oshirishga ulkan imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Yigit va qizlarimiz kitoblarda yashiringan tarbiya o‘chog‘idan bahramand bolsalar kelajakda ulardan mard o‘g‘lonlar, oqila qizlar yetishib chiqadi. Zero, mustahkam Vatanimizni barpo etishda mustahkam oilalarning o‘rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyot

Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. –T.: Sharq, 2010.

ALISHER NAVOIY IJODINI O‘QITISHGA INNOVATSION YONDASHUV

**Dilbar Mirnosirova, ToshDO‘TAU
O‘FF 102-guruh talabasi**

“Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etgan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g‘ururi, sha’n-sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san‘atkoridir. Ta’bir joiz bo‘lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so‘zlovchi biron-bir inson yo‘qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e‘tiqod bilan qaramasa”.

O‘zbek adabiyoti va tilini Navoiy ijodisiz, uning serqirra mahorati hamda asarlarining nafosatisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Navoiy asarlari insonni komillikka, yuksak ma’naviyatga yetaklovchi marvarid kabi bebaho merosdir. Ushbu asarlarni mutolaa qilgan shaxs qalbida Vatanga muhabbat, komillikka intilish, qalb pokligiga erishish kabi tuyg‘ular bilan birga Navoiy timsoliga muhabbat hissi ham kurtak otishi tabiiy. Ana shu tuyg‘ularni bugungi kun o‘quvchisi qalbiga solish navoiyshunoslikning dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda. Bugungi kunga qadar ta’lim tizimida, xususan, maktab ta’limida ushbu yo‘nalishda ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Ammo hali-hanuz maktab o‘quvchisining ongida Navoiy asarlarini tushunishga, uning badiiy qirralarini ochishda qiyinchilikka duch kelinmoqda. Fikrimcha, Navoiy asarlarining tub mazmun-mohiyatini, uning badiiy nafosati va poetik xususiyatlarini o‘quvchi ongiga singdirmay turib, ularda adabiyot haqida tushuncha uyg‘ota olmaymiz.

Navoiyshunos olim Aftondil Erkinovning fikricha, biz bugungi davrda o‘quvchini matnga emas, matni o‘quvchiga yaqinlashtirishimiz lozim. Olimning fikrlariga qo‘shimcha tarzida shuni ta’kidlash joizki, yoshlarga Navoiy asarlarini o‘rgatishdan avval Navoiy tilini o‘rgatmoq lozim. Bunda, albatta, lug‘atlar asosiy rol o‘ynaydi. Ko‘pincha

o'quvchilarda asarlarni o'qish jarayonida matnda keltirilgan eski o'zbek tiliga mansub so'zlarning ma'nosini to'g'ri anglab yetmaslik holatlari kuzatiladi, buning oqibatida esa asarning mazmunini tushunish qiyinlashadi. Havolalardagi so'zlarga berilgan izohlarning mag'zini chaqquncha o'quvchi ongida asarning umumiy mazmunidan chalg'ish holatlari yuz beradi. Shu bois ham, darslarda ko'proq Navoiy asarlarida uchrovchi so'zlarni yodlatishga e'tibor qaratgan afzal. Shunda o'quvchida Navoiy asarlarining asl nusxalarini o'qish imkoniyati ham paydo bo'ladi. Asarlarni aslyatda o'qish uning nasriy bayonidan ko'ra ko'proq ma'lumotga ega bo'lish imkonini beradi. Uyali aloqa vositalari uchun Navoiy asarlari lug'ati jamlangan ilovani yaratish ham o'quvchilarga bir qadar qulayliklar yaratadi. Boisi, bugungi davr yoshlari texnika asrida yashamoqda. Ular shu yo'l orqali ham texnikadan unumli foydalangan bo'ladilar. Shuningdek, adabiyot darslarida Navoiy asarlarini, ayniqsa, "Xamsa" tarkibidagi dostonlar matniga mos tarzida yaratilgan multimedia dasturlaridan, videofilmlardan ham foydalanish zarur. Chunki o'quvchilarda o'qish yoki eshitishdan ham ko'ra ko'rish orqali eslab qolish qobiliyati yaxshi rivojlangan bo'ladi va bu orqali bola ongida asarning asosiy mazmunini his qilish, obrazlardagi ramziylikni aniqlash qobiliyati shakllanadi.

Navoiy asarlarini o'qitishning yana bir bahsli tomonlaridan biri ulardagi she'riy janr namunalarini tahlil qilishdir. Kuzatadigan bo'lsak, darsliklarning aksariyatida she'riy asarlarning mazmuniga darslik mualliflari tomonidan sharhlar berilgan. Bizningcha, bu bilan asar mohiyati qoliplashib qoladi va o'quvchi she'riy asarlardan boshqa ma'no, fikr topa olmaydi, ulardagi nafosatni his qila olmaydi. O'quvchilarni Navoiy asarlarini o'qitish chog'ida mustaqil fikrlashga o'rgatish, she'riy asarlardan qanday ma'no chiqarishni o'quvchining o'ziga havola qilish lozim. Chunki har bir o'quvchining dunyoqarashi, asardan chiqaradigan xulosasi turfa xildir. Bu borada o'qituvchi tomonidan o'quvchiga biroz yo'nalish berilsa bas. Navoiy poetikasining ichiga kirish uchun o'quvchilar "ilmi bade", ya'ni mumtoz poetikadan ham xabardor bo'lishlari, mashg'ulotlar davomida mumtoz poetika haqida tushunchalar berib borish zarur. Shunda o'quvchi Navoiy she'riyatining janriy xususiyatlarini, ulardagi badiiy tasviriylikni, badiiyatni ilg'ay boshlaydi.

She'riyat haqida so'z borar ekan, bevosita fikrimiz ta'lim tizimida aruz vaznini o'rgatishga borib taqaladi. Maktab darsliklarida aruzni o'rganish bo'yicha berilgan nazariy ma'lumotlarni tushunishda o'quvchi qiyinchilikka, murakkablikka duch keladi, shu vaznni tushuntirishning

soddaroq yo‘llarini topish lozim deb bilaman. Boisi, agar o‘quvchilar Navoiyning g‘azal-u ruboiylarini, tuyuqlarini vaznga solib yodlasa yoki mutolaa qilsa, mutafakkir she‘riyatidagi o‘ynoqilikni, musiqiylikni, ohangdorlikni his etadi, bu esa asar mazmunini to‘g‘ri tushunishga yordam beradi, albatta. Shu bilan birga Navoiy ijodini, asarlarini nafaqat ta‘lim o‘zbek tilida olib boriladigan muassasalarda, balki qardosh tillarda, masalan, rus yoki ingliz tilida olib boriluvchi maktablarda ham o‘qitish lozim deb bilaman. Boisi, yurtimizda bunday turdagi ta‘lim muassasalari ko‘pchilikni tashkil etadi. E‘tibor berib kuzatadigan bo‘lsak, ularga darslik sifatida tavsiya etilgan kitobda Navoiy va uning asarlariga unchalik ham to‘xtalib o‘tilmagan.

Nazarimda, yosh avlodga o‘zga millat tili va uning madaniyatini o‘rgatish bilan birga o‘z millatimizning quyoshi sanaluvchi shaxslar hayotini, o‘zbek tilining tom ma‘nodagi asoschisi asarlarini o‘rgatish, ularning tafakkuriga singdirish lozim deb bilaman. Navoiy ijodini boshqa tillar bilan birga o‘rganish uning jahon miqyosida tutgan o‘rnini anglashda katta ahamiyat kasb etadi. Buning uchun nafaqat adabiyot va ona tili darslarida, balki ingliz tili va rus tili darslarida ham Navoiy asarlarining, g‘azal-u ruboiylarining tarjimalaridan namunalarni o‘qib, uning o‘zbek tilidagi va o‘zga tillardagi o‘xshash hamda farqli jihatlarini tahlil qilish, qiyoslash katta samara beradi. Bunda o‘quvchilar ongida Navoiy asarlariga jahonning boshqa davlatlari qanday munosabatda ekanligi haqida tushuncha hosil bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, Navoiy ijodini o‘quvchilar ongiga singdirish, ularning tafakkurida, qalbida mumtoz adiblar ijodiga qiziqish hissini, she‘riyatga oshnolikni uyg‘otishda, ma‘nan va ruhan barkamol shaxs bo‘lib, qalblarida insoniy fazilatlarning barq urib, kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida sanab o‘tilgan natijalarga erishsakkina biz maqsadimizga yetgan bo‘lamiz va Navoiyni o‘qitish va o‘rgatishda yangi bosqichga qadam qo‘ygan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimov B. O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. – T.: Fan va texnologiyalar, 2008.
2. Rizayev Sh. va boshq. 8-sinf. Adabiyot. – T., 2019.
3. Tojiyev A. Navoiy va bugungi avlod // Jahon adabiyoti. – T., 2013. № 2.
4. Internet materiallari.

MUNDARIJA

KIRISH. Qozoqoy Yo‘ldosh. Zamonaviy filologik ta’limning yetakchi tamoyillari.....	3
GLOBAL TA’LIM VA MILLIY METODIKA	
Iqbol Mirzo. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘atit-turk” asarining xalqaro miqyosda o‘rganilishi.....	9
Raupova L.R. Innovatsion faoliyat: ta’lim tizimida innovatsion jarayonni rivojlantirish.....	13
Nusratullo Jumaxo‘ja. Adabiyot darsliklarida Navoyi g‘azallari tahlili muammolari.....	17
Qozoqoy Yo‘ldosh. Qiyoslash – tahlil samaradorligini oshirish usuli.....	26
Zulxumor Mirzayeva. Badiiy asar tahlilida o‘quvchi faolligini oshirish muammosi.....	35
Jumanazar Abdullayev, Madina Abduqodirova. Oliy til ta’limida bir bosh bo‘lakli gap sintaksisini o‘qitishga doir mulohazalar.....	41
Gulnoza Jo‘rayeva. O‘zbek bolalar adabiyotida hajviylikning shakliy izlanishlardagi badiiy – estetik ahamiyati.....	47
Nilufar Abduraxmonova. Til pedagogikasida o‘zbek tili ta’limiy korpusining ahamiyati.....	51
Muhayyo Ismoilova. Ijodkor tarjimayi holini o‘rgatishda o‘quvchi yosh xususiyatlarini hisobga olish.....	56
Dilnoza Jamoliddinova. Pirimqul Qodirovning “Olmos kamar” romanida qo‘llangan terminlarning lingvopoetikasi.....	61
Matluba Jabborova. “Ravzat us-safo”da Jamshid talqini.....	63
Faridaxon Tursunova. Hajviyot ilmi haqida Abdulla Qodiriyning nazariy qarashlari.....	67
Екатерина Ширинова, Зулфира Азаматова. О развитии банковско-финансовой терминологии узбекского языка.....	70
Yusuf Hojiyev. “Alpomish” dostonida qo‘llangan shaxs ma’naviy sifatlarini ifodalovchi leksemalarning ideografik bog‘lanishi.....	74
Oqila Abdullayeva. Xorijiy tillarni o‘qitishda korpusning ahamiyati.....	82
Шохсанам Файзиева. Методика преподавания русского языка в узбекских классах.....	85
Dilrabo Odilova. Yuksak ideallarga intilgan ko‘ngil.....	87
Hakima Jo‘raqo‘ziyeva. Qo‘shma otlarning evalutsion taraqqiyoti..	90

Oqila Akbarova. Muhammad Yusuf ijodida vatanparvarlikning ulugʻlanishi.....	95
Sevinchoy Yoqubova. Lirik asarlarni oʻrganishda vizual materiallardan foydalanish.....	97
Nilufar Kadirova. Reseptiv estetika xususida ayrim mulohazalar....	103
Diyora Qodirova. Ingliz va oʻzbek tillaridagi maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari.....	108
Gʻiyos Doʻstmurodov. Sheʼriyatda yangi soʻzlar va ularni oʻrganishga doir ayrim mulohazalar.....	111
Grebenyuk Martin. Modern approaches to teaching literature: imaginative literature as an aspect of youth development.....	115
ONA TILI VA OʻZBEK (DAVLAT) TILINI OʻQITISH MASALALARI	
Rustam Yoʻldoshev. Ona tili taʼlimida gapda eganing mavqeyini tiklaylik.....	118
Muhayyo Hakimova. Nom koʻchish turlarini oʻqitish masalasiga doir mulohazalar.....	122
Tursunoy Yusupova. Yil boshida takrorlash darslarining sathlararo uzviylikni taʼminlashdagi oʻrni.....	126
Iroda Azimova. Ona tili boʻyicha savodxonlik kurslarida kommunikativ yondashuvni qoʻllash.....	130
Nargiza Ahmedova. Oʻzbek tili taʼlimida uzviylik va uzluksizlik...	136
Hoshimjon Ahmedov. “Oʻzbek tili” darsliklarini takomillashtirish boʻyicha mulohazalar.....	140
Gʻofir Hamroyev. Zamonaviy ona tili taʼlimida oʻquv topshiriqlarining oʻrni.....	145
Klaraxon Mavlonova. Oʻquvchilarda matnni oʻqib tushunish malakasini shakllantirish.....	149
Odinaxon Saidaxmedova. Til oʻzlashtirishda produksiyani aniqlash mezonlari.....	155
Sanobar Kuldasheva. Ona tilini oʻqitishda videodarslardan foydalanish xususida.....	157
Shahlo Murodova. Oʻquvchilarda mumtoz matnlar orqali oʻqish savodxonligini rivojlantirish.....	160
K.M. Rajapova “Ona tili” darsliklari mazmunidagi nutqiy koʻnikmalarni rivojlantiruvchi oʻquv materiallar tahlili.....	164
Nilufar Adizova. Oʻzbek tili darslarini innovatsion metodlar asosida tashkil etish.....	167

Yulduz Atadjanova. Ona tili ta'limi tizimida innovatsion texnologiyalarning o'rni.....	171
Nasiba Sabirova. Ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda ta'lim samaradorligini oshirish usullari.....	173
Gulruh Bahodirova, Yekaterina Shirinova. Ona tili darslarni tashkil etishda o'qituvchi mas'uliyati.....	176
Aziza Murodova. Eshitib qabul qilishda matnda ifodalangan ma'lumot dekodlanishining tajribaviy tadqiqi.....	179
Shohsanam Abduraimova. Badiiy matnlar sarlavhalarida implikasiyaning ifodalanishi.....	185
Gulchiroy Muhiddinova. Kommunikativ akt va muloqot jarayoni...	188
Feruza Sharopova. Matn o'qish ko'nikmasining psixologik, pedagogik va psixofiziologik asosi.....	191
Qobiljon Abdurasulov. Fikrni og'zaki bayon qilish ko'nikmasining psixologik asosi.....	197
Jumanazar O'rozov. Tilshunoslikda nom (neym) yaratish uslubi.....	201
Ma'rifat Xaydarova, Matluba Rayimjonova. Ona tili darslarida matnni o'qib tushunish mashg'ulotlarida topshiriqlardan foydalanish.....	206
Ilmira Usmonova. Matnlarni qiyoslash – samarali usul.....	209
Nilufar Xakimova. O'qish savodxonligini shakllantirish va rivojlantirishning muhim omillari.....	212
Gulmira Haydarova. Multimediya vositalari yordamida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish.....	215
Saida Setimova. Ona tili darslarida nutq o'stirish usullari.....	217
Kimyoxon Egamqulova. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish.....	221
Dilobar Bozorova. O'zbek tili darslarida samaradorlikni oshirish usullari.....	234
Mehriniso Qo'ldosheva. Ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish.....	218
Muhayyoxon To'xtaboyeva. O'quvchilarni punktuatsiya bilan tanishtirish usullari.....	230
Shoiraxon Ergasheva. Ona tili darsligi – asosiy ta'lim vositasi.....	233
Mohigul Esanova. 5-sinf o'quvchilarining yozma nutqini baholash mezonlari.....	235

ADABIYOT FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Safo Matchonov. Beg‘ubor tuyg‘ular talqini.....	241
Qunduzxon Husanboyeva. Boshlang‘ich sinflar adabiy ta‘limining o‘ziga xos xususiyatlari.....	245
Roza Niyozmetova. Adabiyotda ijtimoiy munosabatlar masalasi....	253
Xurshida Xamrakulova. Adabiy ta‘limda ertaklarni tahlil qilish usullari.....	256
Marg‘uba Abdullayeva. “Dasht-u dalalarda” hikoyasini o‘qitishda interaktiv metodlardan foydalanish.....	264
Husnigul Jo‘rayeva. Husayniy ijodi turk olimlari talqinida.....	269
G‘afur Eshmanov. Mujrim – Obidning badiiy san’atlarga e’tibori va foydalanish usullari.....	273
Nasiba Sabirova. Adabiyot darslarida o‘quvchilarni asar tahliliga o‘rgatish usullari.....	277
Saodat Kambarova. Adabiy ta‘limda shaxs muammosi tadqiqi.....	279
Adiba Botirova, Mahliyo Ahmedova. Boshlang‘ich sinfda ona haqidagi asarlarni o‘rganish.....	285
Oydin Ametova. “Qutadg‘u bilig” asarini o‘rganish usullari.....	287
Shahnoza Raxmonova. Maktabda ruboiy vaznlarini o‘rgatish xususida.....	293
Oqila To‘raqulova. Adabiy tahlil o‘quvchilarda mutolaa madaniyatini rivojlantirish vositasi sifatida.....	297
Zamira Ayimbetova. I.Yusupov asarlarining ijtimoiy-siyosiy va badiiy manbalari.....	302
Dilfuza Zaripova. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarini ta‘lim bosqichlarida o‘rganish.....	305
Mohigul Fozilova. “So‘nggi saboq” sabog‘i.....	309
N.Polvanova. Alisher Navoiy ijodini o‘qitishda uy vazifalarining o‘rni.....	313
Iroda Ishonxanova. Adabiyot darslarida lug‘at bilan ishlash.....	316
Intizor Raximova. “O‘qish kitobi” darsliklaridagi o‘quv materiallarini muammoli ta‘lim asosida o‘rganish.....	320
Azamat Xudoyberganov. Bolalar adabiyoti – so‘z san’ati va tarbiya vositasi.....	325
Abdug‘ani Nasriddinov. Adabiyotda vulgar sotsiologizmnining namoyon bo‘lish omillari.....	328
Orifa Xudayberdiyeva. O‘zbek milliy lisoniy tasvirida “axloq” kategoriyasi.....	333

Shohista Husanova. Inson ruhiyatining komillik sari parvozi.....	337
Feruza Haydarova. Zulfiyaxonim ijodida monologik nutq.....	340
Munixon Aralova. O‘quvchilarni kitobxonlikka yo‘naltirish tajribasidan.....	343
Shoxista Abbosova. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish usullari.....	345
Malika Suyunova. Navoiy asarlarini o‘rganishda lug‘atlar bilan ishlash.....	348
N.Yakubova, Sh.Eshchanova. Adabiyot darslarida insho yozishda interfaol metodlardan foydalanish.....	354
Mohigul Jo‘rayeva. Adabiyot darslarida tadqiqot usulidan foydalanish.....	359
Quvondiq Sulstonov. Guruhlarni nomlash tajribasidan.....	362
Shohista Xudoynazarova, Nigora Mahmudova. 9-sinfda Xoja ijodini o‘rganish tajribasidan.....	364
Nilufar Raxmatova. Alisher Navoiy asarlarida geografik joy nomlarini o‘qitish metodikasi.....	367
Mashhura Anartayeva, Matluba Qilichova. Aqliy o‘yinlarning ta’limdagi ahamiyati.....	369
Sadyaxon Mahmudova. Xalq qo‘shiqlari – axloqiy-estetik tarbiya vositasi.....	372
Umida Kamolova. Abadiy ehtiyoj siri.....	376
TALABALAR MINBARI: TIL VA ADABIYOT TA’LIMIDA INNOVATSION G‘OYALAR	
Shamshoda Rustamova. 12-13 yoshli bolalar nutqining sintaktik tahlili.....	379
Mastona Norqulova. Xalq qo‘shiqlarini o‘qitishda axborot texnologilardan foydalanish usullari.....	384
Mohidilxon Abdullayeva. Ta’lim jarayonida animatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati.....	387
Sevara Yarasheva. Furqat ijodida Bobur an‘analari.....	390
Husnora Baxtiyorova, Muxlisa Vohidova. Ona tili darslarida fonetika bo‘limini o‘qitish usullari.....	392
Gulshoda Xayrullayeva. Korpusga asoslangan ta’lim texnologiyalari.....	396
Nilufar Kenjayeva. Said Ahmad ijodida inson talqini.....	399
Malika Namozova. Leksikologiya bo‘limini o‘qitishda didaktik o‘yinlardan foydalanish.....	402

Laylo Qazaqova. 10-sinf adabiyot darsliklarida keltirilgan qit'alarining vaznlari xususida.....	405
Osiyoxon Jalolova. Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanida shaxs fojiasi talqini.....	408
Maxliyo Negmatova. Adabiyot fanini o'qitishda fanlararo integratsiya.....	416
Nasiba Meliyeva. Badiiy asarni o'rganishda didaktik tahlil.....	419
Alisher Asatullayev. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Navoiy asarlarini o'qitishning ahamiyati.....	424
Zilola Boltayeva. "Ufq" romanida ma'naviy-axloqiy masalalar talqini.....	427
Nasiba Meliyeva. Adabiy ta'limda Asqad Muxtorning "Chinor" romanini o'rganish bo'yicha mulohazalar.....	430
Sanjar Malikov. "Ruhlar isyoni" dostonidagi rivoyatlar talqini.....	432
Orifova Madina. Mumtoz adabiyotning dolzarb muammolari.....	436
Ziyoda Qarshiboyeva. Badiiy asarda kitobxon shaxsiyati.....	441
Mahliyo Xurramova. Darslik va manba qiyosi.....	444
Munisa Sadikova. O'zbek tilini o'qitishning virtual imkoniyatlari...	447
Aziza Javliyeva. Maktabda Odil Yoqubov asarlarini o'rganish.....	452
Munisa Xolbekova. Ta'limda ona tili va adabiyot o'qitishni takomillashtirish.....	455
Nilufar Isroilova. O'zbek tilini chet elliklarga o'rgatish bo'yicha onlayn platforma yaratish muammolari va yechimlari.....	459
Farangiz Umidova. Ko'chirma gap va iqtibosning o'ziga xos xususiyatlari.....	463
Nilufar Hamzayeva. Tildagi ifoda imkoniyatini yoritishda metaforaning o'rni.....	467
Zaripboyeva N. Xalq maqollari poetikasi so'z san'ati sifatida.....	471
Rajabov Mahmud. Muhammad Yusuf she'riyatida rang ramzlarining lingvistik tahlili.....	475
Ullibibi Ozodova. Faxriyor ijodida "Mavhum tushuncha" xususida.	479
Mahbuba Kidirova. Xalq og'zaki ijodini o'qib.....	484
Dilbar Mirnosirova. Alisher Navoiy ijodini o'qitishga innovatsion yondashuv.....	486

GLOBAL TA'LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

**mavzusidagi IV an'anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani
materiallari**

Mas'ul muharrir

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.Abdullayeva

To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

K.Mavlonova, S.Kambarova